




**Q.Hakimov**

**Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti Geografiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri. Ilmiy faoliyati toponimika fanining nazariy va amaliy masalalari, joy nomlarining hududiy tafovutlari, ularning shakllanishida mintaqaning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografik xususiyatlarini o'rganish muammolari bilan bog'liq. 1 ta darslik, 3 ta monografiya, 5 ta o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanma hamda 150 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar muallifi.**



LEHAROV

TOPONIMIKA



Qo'chqor HAKIMOV

# TOPONIMIKA

5110500 – “Geografiya o‘qitish metodikasi” ta’lim yo‘nalishi  
talabalari uchun darslik



Toshkent  
«MUMTOZ SO‘Z»  
2016

UO'K: 378.147+551.4(575.1)(077)

KBK 65.04(50')

*Kitobda toponimikaning asosiy yo'nalishlari bo'yicha hozirgi zamon tushunchalari bayon etilgan. Toponimikaning fanlar tizimida tutgan o'rni aniq belgilangan, sohaga oid ilmiy izlanishlar tarixi, fanning o'ziga xos xususiyatlari va tadqiqot metodlari aniqlangan. Geografik nomlarning mavjud ilmiy klassifikatsiyasi turlari tahlil etilgan, hamda jahondagi turli toponimik hodisa va jarayonlarning o'rni tadqiq qilingan. Kitobda toponimikaning asosiy nazariy va metodologik jihatlari bilan birga mintaqalar toponimiyasining umumiy sharhi berilgan.*

*Darslik oliy o'quv yurtlarning 5110500 – «Geografiya o'qitish metodikasi» bakalavr ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga mo'ljallab tayyorlandi.*

#### **Mas'ul muharrir:**

**Qoraev S.** – geografiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston Respublikasi «Yergeodezkadastr» davlat qo'mitasi. Geodeziya va kartografiya milliy markazi).

#### **Taqrizchilar:**

**Enazarov T.** – filologiya fanlari doktori. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti professori.

**Nizomov A.** – geologiya-minerologiya fanlari nomzodi. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti.

**Mirakmalov M.** – geografiya fanlari nomzodi. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti.

**65.04(50')**

**H**

**Hakimov, Qo'chqor.**

**Toponimika:** "Geografiya o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik / Qo'chqor Hakimov; mas'ul muharrir Qoraev S. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2016. – 368 b.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2015 yil 30 may 191-sonli buyrug'i bilan darslik sifatida tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-4552-5-2

© Qo'chqor Hakimov, 2016

© MUMTOZ SO'Z, 2016

## KIRISH

Hozirgi vaqtda ilmiy tadqiqot ishlari ko'pincha bir necha fanlar manfaatlarini tutashgan joyda samarali rivojlanmoqda. Geografik nomlarni o'rganuvchi toponimika – ana shunday fanlar sirasiga kiradi. Toponimika fan sifatida, so'nggi bir asr davomida ildam sur'atlar bilan rivojlandi. Sababi, fanning o'rganish ob'ekti bo'lgan geografik nom – milliy va ma'naviy qadriyatlarni ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ularni o'rganish doimo dolzarb masala hisoblangan. Xususan, jamiyat, ilm-fanning tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda, geografik ob'ektlarning nomlariga qo'yiladigan talablar ham takomillashib bormoqda. Natijada, geografik nomlarga bo'lgan qiziqish, vaqt o'tishi bilan kamaygan emas, aksincha sezilarli darajada ko'paydi.

Ma'lumki, geografik nomlar zamonaviy sivilizatsiyaning ajralmas qismi, shu sababdan insoniyatni, jamiyatni asrlar davomida shakllangan o'ziga xos toponimik muhimsiz tasavvur qilish qiyin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov nomlarni davr, zamon mahsuli sifatida ta'riflab, *“Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch”* asarida *“ajdodlarimiz o'zlari yashaydigan mahalla, shahar va qishloqlar, bog'-xiyobonlarga nom tanlashda juda katta e'tibor bergan. Qadimiy nomlarda otabobolarimizning hayot va tafakkur tarzi yaqqol o'z aksini topgan, ular xalqimizning azaldan o'troq hayot kechirib, yuksak madaniy turmush darajasiga ega bo'lganligidan dalolat beradi”* deb yozgan.

So'nggi vaqtlarda joy nomlarining kelib chiqish qonuniyatlari, tarixiy qatlamlari, toponimlar klassifikatsiyasi turlari, geografik ob'ektlarning nomlash tamoyillari hamda ularning tadqiqot metodlari kabi masalalar ko'pchilik mutaxassislarni qiziqitirmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, hozirgi kungacha, hatto sobiq Ittifoq davrida ham Toponimika fani bo'yicha maxsus darslik mavjud bo'lmagan. Faqat so'nggi yillarda chop etilgan S.Qoraev (Toponimika. T., 2006, – 320 b.) va A.Nizomov (Toponimika. T., 2012, – 120 b.)larning o'quv qo'llanmasidan foydalanib kelingan.

Ushbu darslik Toponimika fanining namunaviy o'quv dasturi asosida va muallifning ko'p yillik pedagogik tajribasidan kelib chiqqan holda yozildi. Darslikni maqsadi – mavjud geografik, tarixiy va lingvistik ma'lumotlar negizida toponimika fani haqida ilmiy tushuncha hosil qilish. Darslikning vazifasi – toponimikaning fanlar tizimida tutgan o'rnini belgilash, toponimik tadqiqotlar tarixi va usullari haqida bilimlarni

shakllantirish, asosiy toponimik qonuniyatlarni yoritish, geografik nomlarni klassifikatsiyalash to'g'risidagi muammolarni o'rganish, mavjud toponimik tizimlarning mintaqaviy xususiyatlari haqida umumiy tushuncha berish, o'quvchilarni turli toponimik fakt va hodisalar bilan yaqindan tanishtirish hamda hozirgi zamonda ularning rolini aniqlashdan iborat.

Mazkur darslikda toponimikaning hozirgi zamon muammolariga oid tushunchalar umumlashtirilgan va tizimli tadqiq qilingan. Fanning nazariy-metodologik jihatlari bilan birga mintaqalar toponimiyasiga oid umumiy tavsif berilgan. Darslikni maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, uning tarkibiy qismlari quyidagicha: **birinchi** bobda toponimika fanining umumiy qonuniyatlari tahlil qilingan, **ikkinchi** bob geografik nomlarning klassifikatsiyasiga bag'ishlangan, **uchinchi** bobda amaliy toponimikaning hozirgi zamon muammolari, ya'ni, joy nomlarining yozilish qoidalari, transkripsiyasi va ularni standartlash kabi masalalari tadqiq qilingan, **to'rtinchi** bob makromintaqalar toponimiyasining hududiy tahlilidan iborat.

Muallif, qo'lyozmani ko'rib chiqishda va uni nashrga tayyorlashda ishtirok etgan barcha kishilarga, ayniqsa mas'ul muharrir g.f.d., professor S.Qoraev, taqrizchilar: f.f.d., professor T.Enazarov, g-m.f.n., dotsent A.Nizomov, g.f.n., dotsent M.Mirakmalov hamda t.f.n., dotsent M.Pardaevga kitobni mazmuni va tarkibiy qismlarini takomillashuvida bergan qimmatli maslahatlari uchun minnatdorchilik bildiradi.

## I bob. TOPONIMIKANING UMUMIY QONUNIYATLARI

### 1-mavzu: TOPONIMIKANING VAZIFASI VA FANLAR TIZIMIDAGI O'RNI. TOPONIMIKANING ASOSIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

#### 1.1. Toponimikaning vazifasi va fanlar tizimidagi o'rni

##### *Reja:*

1. *Toponimika fanining maqsadi va vazifasi.*
2. *Fanlar tizimida toponimikaning o'rni va ahamiyati.*
3. *Toponimika va geografiya fanlarining aloqadorligi.*

**Mavzuning maqsadi:** Toponimika fanining maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, uning integral fan ekanligi haqida ilmiy tushuncha berish hamda toponimikani geografiya fanlari tizimida tutgan o'rmini aniq belgilashdan iborat.

**Tayanch ibora va atamalar:** Toponimika, toponimiya, toponim, geografik nom, joy nomi, appelyativ, atoqli ot, onomastika, integral ilmiy yo'nalish, «chegaraviy» fan, toponimning adreslik funksiyasi.

**Toponimika fanining maqsadi va vazifasi.** Bizni o'rab turgan har qanday geografik ob'ektni nomi bor, ular ob'ektlarni bir-biridan farq qilish uchun xizmat qiladi. Shu sababdan, tildagi ko'pgina so'zlar nomlarga (atoqli otga) aylangan. So'z bilan buyumlarni (kitob, stol, stul, televizor), mavjudodlarni (odam, qush, hayvon, o'simlik), tasavvuriy tushunchalarni (quvonch, g'azab, go'zallik, hordiq), sifat va xususiyatlarni (yaxshi, katta, yomon, chuqur, mehnatkash) va boshqalarni ifodalashi mumkin. Bu so'zlarning har biri aniq bir predmetga tegishli emas, balki butun bir o'xshash predmetlarni belgilaydi.

Boshqacha aytganda, ular turdosh otlar, ya'ni, apellyativlar (lotincha, appellativum – “atoqli otni aksi”) hisoblanadi. Ammo, tilda shunday so'zlar ham borki, ular faqat bitta predmet yoki ob'ektga tegishli va so'z uni boshqalardan farq qilishi uchun xizmat qiladi. Bunday so'z



yoki so'zlar birikmasi atoqli ot deb ataladi. Atoqli ot – biron geografik ob'ektni boshqa ob'ektlardan farq qilish uchun xizmat qiladigan so'z yoki so'zlar birikmasi, onim: Mirzacho'l, Toshkent, Samarqand va hokazo. Geografik nomlar, ya'ni, toponimlar (yunoncha, topos – “joy, makon”; onima – “nom”, ism) ham atoqli otlar bo'lib, uning eng takomillashgan turidir. Har bir geografik ob'ektning o'z nomi bor, u joyni biron xususiyatini yoki ob'ekt bilan bog'liq tarixiy voqea-hodisalarni o'zida mujassam etgan oddiy so'z bilan joyning ittifoqi hisoblanadi. Binobarin, geografik nomlar «o'lik» so'zlar emas, balki zamirida xalq hayoti, tarixi, tili va shunga o'xshash boshqa ko'plab sirlarni asrayotgan ma'naviy xazinadir.

Toponimlar olami juda xilma-xil va qiziqarli. Inson paydo bo'lganidan buyon behisob va murakkab nomlar dunyosida yashaydi. Kurai zaminda har xil davr va tilga mansub millionlab geografik nomlarning uyg'unligini ko'rish mumkin. Ularni har kuni radiodan eshitamiz, gazetada o'qiyamiz, teleekranlarda va kompyuter monitorlarida ko'ramiz. Xususan, atlas va geografik kartalarni nomlarsiz tasavvur qilish qiyin. Hayotda sodir bo'lgan yoki bo'layotgan ko'plab voqea-hodisalarni geografik nomlar orqali anglab olish mumkin.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, nomning ma'nosi ob'ektga nom berilayotgan vaqtda muhim, keyinchalik u nazardan bir oz chetda qoladi. Binobarin, ko'pincha bizga yaxshi tanish bo'lgan geografik nomlarni ham qanday ma'noga ega ekanligini bilmaymiz, faqat zarurat paydo bo'lganda u haqda o'ylash kerak bo'ladi. Umuman, inson uning bevosita atrofida sodir bo'layotgan voqea hodisalarga munosabat bildirmasdan qolmaydi. Shu sababdan, kishilar nazariga tushgan dunyodagi hamma narsani nomi bor, demak inson nom bermasdan yashay olmaydi. Odamlar bir geografik ob'ektni, ikkinchisidan farq qilish uchun turli xil nomlarni o'ylab chiqargan. Boshqacha aytganda, jamiyat hayotida sodir bo'lgan xilma-xil voqea-hodisalar joy nomlarida muhrlanib qolgan.

H.Hasanov ta'biri bilan aytganda, nomlarning o'z tarixi, xalq, qabila, tabiat, xo'jalik, hodisa va kashfiyotga mansubligi bor. Agar nomlar tarixi tilga kirsam, tog'lar va suvlarning xosiyati, o'simligu hayvonot turlari, savdo-sotiq, kasb-hunar, xazinalar, janglari e'tiqodlarimizning hammasi ayon bo'ladi. Demak, toponimlar kishilik jamiyati rivojlanishining muhim elementlardan biri, tabiat, tarix, hayot va insoniyat ko'z-gusi hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi jamiyatni, zamonaviy tsivilizatsiyani, xalqlar va mamlakatlar o'rtasidagi har qanday aloqalarni

geografik nomlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Madaniyat va ilm-fanning rivojlanishi, tobora avj olayotgan xalqaro aloqalar geografik nomlarni borgan sari ko'proq qo'llashni taqozo qilmoqda.

Ma'lum bir hududdagi geografik nomlarning yig'indisi shu hududda yashovchi xalqlarning asrlar davomida, nomlar yaratishdagi ijod mahsuli hisoblanadi. Dunyoda qancha geografik nom borligini hech kim aniq bilmaydi. Taxminiy hisoblarga ko'ra, butun yer sharida yarim milliarddan ortiq geografik nom bor. Holbuki, ular qatoriga soy, jilg'a, buloq, quduq, jar, qir, mahalla, guzar, ko'cha kabi mikrotoponimlar kirmaydi. Agar, yer yuzidagi harcha katta-kichik joy nomlarini hisobga olish imkoni bo'lganda, son-sanoqsiz raqam hosil bo'lar edi.

Geografik nomlar– bu mamlakat, shahar yoki biron bir tabiiy ob'ekt bilan tanishishda uning tashrif yorlig'i vazifasini bajaradi. Shu sababdan tabiiyki, toponimlarning yaratilishi sabablarini anglash, ularni shakllanishi, rivojlanishi, yashovchanligi, o'zgarishi, adreslik funktsiyasi, axborot (informatsiya) tashishi va qanday ma'no kasb etishini aniqlash zaruriyati paydo bo'ladi. Yuqorida qayd qilingandek, ushbu masalalarni aniqlash bilan maxsus fan hisoblangan toponimika shug'ullanadi. Shu bilan birga, joy nomlari ilmiy, siyosiy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga molik ekanligi tufayli, bir qator boshqa fanlar uchun ham o'rganish ob'ekti hisoblanadi.


Toponimika va toponimiyani bir-biridan farqlash maqsadga muvofiq. Toponimika – geografik nomlarni paydo bo'lishi, shakllanishi, rivojlanishi, hozirgi holati, ma'no-mazmuni, talaffuzi va yozilishini o'rganuvchi ilmiy fandır. Toponimiya – deganda muayyan hududdagi geografik nomlarning yig'indisi nazarda tutiladi. Boshqacha aytganda, toponimiya toponimika fanining o'rganish ob'ekti hisoblanadi.

**Toponimikaning fanlar tizimidagi o'rni.** Toponimika integral ilmiy yo'nalish, «chegaraviy» fan hisoblanadi. U geografiya, filologiya (lingvistika) va tarix kabi fanlarning manfaatlari tutashgan joyda paydo bo'lib, ularni mujassamlashtirib rivojlangan. Shu sababdan, toponimikani egallagan mavqei, uning fanlar tizimidagi o'rni, turlicha qarashlarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Har holda shunisi aniqki, har qanday salmoqli toponimik material har uchala fanga ham o'rganish va tadqiqot manbai hisoblanadi, ammo, uni har bir tadqiqotchi o'z mutaxassisligi nuqtai nazardan o'rganadi.

Geografik kartada keltirilgan boy va xilma-xil axborotlar orasida nomlar alohida o'rin tutishi hamda toponimning adreslik funktsiyasi til

– fakti va tarix – hodisasidan ko‘ra muhimroq ekanligini hech kim inkor etmaydi. Ma’lumki, u muhim ijtimoiy – siyosiy funktsiyani bajaradi, yer yuzasidagi harcha geografik ob’ektlar uchun orientir (mo‘ljal) sanaladi. Bu fikrni tasdiqlab filolog-toponimist olim *T.Nafasov* shunday yozadi: «...qadimiy geografiya fani bag‘rida paydo bo‘lgan yangi yo‘nalishlardan biri toponimikadir.

Toponimiya bilan azal-azaldan geograflar, geografiya fani shug‘ullanib kelgan. So‘ngra bu soha bilan tarixshunoslar, arxeologlar qiziqib, tarixiy nomlarning ma’nosi, tarkibi, qaysi tilga mansubligi kabi masalalarni tadqiq qilishdi. Eng so‘ngida toponimiya tilshunoslikning tadqiq ob’ektiga aylandi». Darhaqiqat, toponimikani integral yoki “chegaraviy” fan ekanligini quyidagi chizmada ham ko‘rish mumkin.



Toponimlarning adreslik funktsiyasi naqadar muhimligini rus toponimisti *V.A.Nikonov* aniq ta’riflagan: «Bir lahzaga faraz qilaylik, planetamizda geografik nomlar o‘chirib tashlandi. Shaharlar, qishloqlar, daryolar, dengizlar, tog‘lar, davlatlar, ko‘chalar hammasi nomsiz. Nati-

jada, transport izidan chiqqan, odamlar qaerga yurishini, yuklarni qaerga tushirishni, tez yordam mashinasi qaerga borishini bilmaydi, jahon xo'jaligi inqirozga, insoniyat esa ibtidoiy jamoa davriga tushib qolish xavfi paydo bo'lgan, buning hammasi kichkina bir geografik nom tufayli».

“Toponimist V.A.Nikonovga ergashib birpas faraz qilaylik. Joy (ko'cha, stantsiya, shahar) nomlarning hammasi o'chirib tashlansa nima bo'lardi? Bunda pochtaning ishi to'xtab qolar, tez yordam mashinasi ko'chalarni topolmay sargardon bo'lar, odamlar qaysi avtobusga tushishini bilmas. Namanganga jo'natilgan posilka Xorazmga borib qolar edi” deb yozgan edi atoqli toponimist olim, professor H.Hasanov.

T.Nafasovning yozishicha, uzoq vaqtlar toponimikani geografik fan, geografiya ilmiga xos ilmiy yo'nalish degan qarash hukmron mavqeda bo'ldi. Bu likr yuzaga kelishining ob'ektiv sabab va omillari bor. Joy nomi – geografik ob'ektning maxsuslangan, yer sharining ma'lum nuqtasida mavjud bo'lgan aholi yashash maskanlarining, yer yuza shakllarining nomi sifatida dastlab ilmga geografiya fani va uning tadqiqotchilari tomonidan kiritilgan. Xulosa sifatida toponimist olim, geografiya toponimikaning debochasi va doyasi degan fikrni alohida qayd qilgan. Xuddi shunday, XX asrning ikkinchi yarmida geografik fanlarning yangi klassifikatsiyasini yaratgan geograf olimlar (Ryabchikov, 1959, Kalesnik, 1961), toponimikaga ham shu qatordan joy ajratishgan. A.V.Marakuev esa toponimikani geografik fan hisoblab u to'g'risida alohida asar yozgan.

Sodda qilib aytganda, joy nomlarining o'ziga xos jihatlaridan biri shuki, ularda ko'pincha geografik muhitning xususiyatlari – relief shakllari, o'simlik va hayvon nomlari aks etgan bo'ladi. Shuni hisobga olgan holda aytish mumkinki, har qanday lisoniy va tarixiy toponimik tadqiqotlar ham, faqat muayyan geografik hududda amalga oshirilishi mumkin. Demak, toponimlar nafaqat til qonununiyatlari yordamida, balki, ko'pincha geografik qonuniyatlar asosida ham paydo bo'ladi. Xalq biron tabiat hodisasini geografik termin bilan ifoda etadi, shu sababdan, geografik nomlar tarkibida ular ko'p uchraydi. Binobarin, toponimika bilan shug'ullanishni niyat qilgan har qanday mutaxassis albatta, geografiyadan yaxshi xabardor bo'lishi kerak. Boshqacha aytganda, geografiyani yaxshi bilmasdan turib toponimika bilan shug'ullanish ishonchli natijalar bermaydi.

Geografik nomlar har doim ham biron tarixiy sharoit taqozosi bilan dunyoga keladi va juda uzoq vaqt saqlanib qolishi bois tarix fani uchun

ham juda katta ahamiyatga ega. Aniqroq qilib aytganda, har bir nomning o'z tarixi bor, unda muayyan tarixiy voqea-hodisalar mujassam. Shunday ekan, har bir nom ixcham bir tarix va ular aniq bir tarixiy voqe'alar bilan bog'liq holda paydo bo'lgan. Ishonch bilan aytish mumkinki, toponimiyada aholi migratsiyasi, urushlar, etnik aloqalar o'z aksini topgan va har bir tarixiy davrning o'ziga xos toponimik qatlamlari mavjud.

Tarixchi olim *A.Nabiev* toponimikaning tutgan o'rniga o'z munosabatini bildirib shunday yozgan: "Demak, toponimika o'lkashunoslikning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Hozirgi vaqtga kelib, o'lkashunoslik bo'yicha olib borilayotgan tadqiqot ishlari bilan bir qatorda uning ajralmas qismi bo'lgan toponimika ham asta-sekin ijtimoiy fanlar qatorida rivojlanib bormoqda". Rus olimi *A.I.Popovni* "Toponimika – tarixiy fan" nomli asar yozganganligi ham ma'lum. Xulosa qilib aytganda toponimika tarix fani bilan uzviy bog'langan.

Toponimika tilshunoslik (lingvistika) fani bilan ham uzviy bog'liq. Chunki, toponim – bu so'z, atoqli ot, lingvistik kategoriya, til mahsuli, shu bois til qonuniyatlariga bo'yso'nadi va filologlar tomonidan o'rganiladi. Nomlar tildagi muayyan qatlamning tarixi, shakllanishi, rivojlanishini o'zida aks etadi. Ma'lumki, tilshunoslikda atoqli otlarni o'rganuvchi onomastika (yunoncha, onomastike – "nom berish san'ati") sohasi mavjud. Onomastika – atoqli otlarni turlarini yoki onimlarni o'rganadi, jumladan, kishilar ismi – antroponim, o'simlik nomlari – fitonim, hayvonlar nomi – zoonim, urug', qabila, xalqlar nomi – etnonim va hokazo. Shular qatorida geografik ob'ektlarning atoqli nomlariga yoki toponimlarga ham alohida e'tibor beradi.

*E.M.Murzaev* toponimikani fanlar tizimidagi o'rniga baho berib, bu masalada olimlar orasida ziddiyatli fikrlar mavjudligi va u hozirga qadar uzil-kesil hal bo'lmaganligini ta'kidlagan. *H.Hasanov* ham bu masalada o'z munosabatini bildirib: «Toponimika aslida geografiyaning bir tarmog'i bo'lib, tilshunoslik faniga ham, tarix faniga ham uzviy bog'langan. Toponimikani tilshunoslik yoki tarix fanining bir tarmog'i desak xato bo'lmaydi. Har bir fan sohibi toponimik tadqiqotlarda o'z mutaxassisligini ustun qo'yadi», deb yozgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, hech bir fan toponimik tadqiqotlarda "monopoliya"ga ega bo'lmashligi lozim. Toponimikaga lingvistik, tarixiy va geografik tadqiqot metodlaridan samarali foydalanadigan alohida fan sifatida qarash kerak. Xulosa qilib aytganda,

toponimika – mustaqil “chegaraviy” fan. U alohida ilmiy yoʻnalish sifatida geografiya, tilshunoslik va tarix fanlarining imkoniyatlaridan toʻgʻri foydalansa katta yutuqlarga erishishi mumkin.

**Savol va topshiriqlar:**

1. *Toponimika fanining maqsadi va vazifasi nimadan iborat ?*
2. *Toponimika fanining predmeti va ob'ekti haqida ma'lumot bering.*
3. *Toponimikaning fanlar tizimidagi o'rnini aniq belgilang.*
4. *Toponimika va geografiya aloqadorligi haqida nimani bilasiz?*

**Test topshiriqlari**

**1. Toponimika integral va chegaraviy fan degan tushuncha qanday ma'noga ega?**

- A. Geografiya, lingvistika, tarix fanlari manfaatlari tutashgan joyda paydo boʻlgan.
- B. Filologiya, tarix, etnologiya fanlari chegarasida paydo boʻlgan.
- C. Tarix, falsafa, iqtisodiyot fanlari bilan integrallashgan.
- D. Biologiya, falsafa va tarix fanlari qirrasida paydo boʻlgan.

**2. Toponimika soʻzi qaysi til mahsulidir?**

- A. Grek
- B. Lotin
- C. Arab
- D. Fors

**3. Toponimika nima?**

- A. Ma'lum hududdagi joy nomlari yigʻindisi
- B. Joy nomlarini oʻrganadigan fan
- C. Aholi turar joylari
- D. Noma'lum nom

**4. Ma'lum hududdagi joy nomlari yigʻindisi bu...**

- A. toponimiya
- B. toponimika
- C. toponomika
- D. toponim

**5. Oykonomim bu ...**

- A. Aholi manzilgohlari nomi
- B. Shahar ichidagi ob'ektlar nomi
- C. Anʼanaviy nom
- D. Gʻorlar nomi

## 1.2. Toponimikaning asosiy rivojlanish bosqichlari

### *Reja:*

1. *Qadimgi dunyo va o'rta asrlardagi toponimik ma'lumotlar.*
2. *Ilmiy toponimikani paydo bo'lishi.*
3. *Hozirgi zamon toponimika fanining shakllanishi va rivojlanishi.*

**Mavzuning maqsadi:** Qadimiy toponimik ma'lumotlarni shakllanishi, ularning asosiy rivojlanish bosqichlari, ilmiy toponimikani paydo bo'lishi va hozirgi zamon toponimika fani haqida ma'lumot berish hamda toponimika faniga qiziqish o'yg'otish.

**Tayanch ibora va atamalar:** Fan, amaliyot, amaliy ehtiyoj, ijtimoiy ehtiyoj, geografik ob'ekt, oddiy turdosh otlar, toponimga aylanish, tomonimik ma'lumotlar, formantlar, ilmiy toponimika, hozirgi zamon toponimikasi.

**Qadimgi dunyo va o'rta asrlar.** Geografik nomlar va ularning ma'no mazmuniga qiziqish tsivilizatsiyaning eng dastlabki bosqichlarida paydo bo'lgan. Shu bois, insoniyat tarixi qanchalik qadimiy bo'lsa, geografik nomlar ham shuncha qadimiydir. Kishilar dastlab har qanday geografik ob'ektni oddiy turdosh otlar – terminlar bilan atashgan, ya'ni, suv, tog', ko'l, tepa, jar va hokazo. Keyinchalik jamiyatning rivojlanishi bilan joy nomlari ham qat'iylashib borgan, ya'ni, turdosh otlarni atoqli otga, toponimga aylanishiga sabab bo'lgan. Masalan, qadimgi turkiy xalqlar katta daryoni – o'kuz, edil, jayhun deb atashgan. Katta daryo ma'nosini anglatuvchi bu so'zlar keyinchalik daryo nomiga aylangan.

Ma'lumki, har qanday fan amaliyot talablari asosida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Toponimika birinchi galda geografiyaning amaliy ehtiyojlari ta'sirida vujudga keldi. Dastlabki sayyohlar o'zlari kashf etgan yerlarga nom berdilar, uzoq o'lkalar va shaharlarning nomlarini ham-maga ma'lum qilishdi. Ilk bor geografik nomlarni to'plab o'rganganlar ham geograflar bo'lgan.

Toponimlarni izohlash, tasniflashga bag'ishlangan dastlabki urinishlarni qadimgi misr, yunon, xitoy, hind, fors, Vizantiya va Rim tarixchi va geograflari asarlarida hamda boshqa yozma manbalarida uchratish mumkin. Antik dunyoda esa tarixiy– geografik asarlar yaratish bilan birga geografik nomlarni izohlash an'anasi paydo bo'lgan. Ammo, bu davrda toponimlarning etimologiyasi turlicha sharhlangan. Ko'pincha,

joy nomlarining kelib chiqishi qandaydir afsonaviy syujetlar bilan bog'lagan. Shu bilan birga, geografik nomlar ba'zan to'g'ri talqin qilingan, unda ko'pincha ob'ektning real alomatlari, geografik o'rni va hokazo inobatga olingan.

Qadimgi va dastlabki ma'lumotlarni *Geradotni «Tarix»*, *Strabonni «Geografiya»*, *Arrian*, *Plutarx*, *Kvint Kurtsiy Ruf* kabi qadimgi dunyo olimlari asarlarida uchratish mumkin. Masalan, Geradot o'z asarlarida mamlakatlar, shaharlar, dengizlar, daryolar nomlarining ma'nosini tushuntirib berishga harakat qilgan. Antik dunyo mualliflari geografik nomlarni, kishi ismlarini mavjud bo'lgan nomlash qonuniyatlarini va ularning o'zaro aloqadorligini aniqlamasdan asosan etimologik jihatdan izohlashgan. Natijada, toponimik ma'lumotlar garchi qiziqarli bo'lsa ham, ammo, ilmiy asosga ega bo'lmagan.

Toponimik axborotni ishonchli manba sifatida, ilk bor milodiy I asrda ispan antik olimi *Pomponiy Mela* o'zining «*Xorografiya*» asarida ilmiy jihatdan tadqiq qilishga harakat qilgan. Zamonaviy toponimikani o'rta asrlarda yashab ijod qilgan O'rta Osiyolik olimlarning xizmatlarisiz tasavvur qilish qiyin. O'sha davrda O'rta Osiyoda yozilgan tarix, geografiya, tilshunoslikka oid asarlarda toponimikaga oid ma'lumotlarni ko'plab topish mumkin. Masalan, 982-983 yillarda, fors-tojik tilida, noma'lum muallif tomonidan yozilgan «*Hudud ul-olam*» tarixiy-geografik asarida Movarounnahr viloyatlari, shaharlari, tog'lari, daryolari va ularning nomlari, ayniqsa, hududning qadimiy toponimiyasi haqida talaygina ma'lumotlar topish mumkin.

Asarning to'la nomi "Kitob hudud ul-olam min al-mashriq ila-l-mag'rib" ("Olamning mashriqdan mag'ribgacha bo'lgan chegaralari haqida kitob") bo'lib, fanda qisqacha "Hudud ul-olam" shaklida tanilgan. Kitob bir nusxadan iborat va uni 1892 yili *Abulfazl Gulpaygoniy* Samarqanddagi kitob do'konidan topgan. U orqali kitob rus sharqshunosi *A.G.Tumanskiy* qo'liga tushib, Sankt-Peterburgga olib ketilgan. Asar haqida dastlab *A.Gulpaygoniy*, so'ngra *A.G.Tumanskiy* ilm ahliga axborot berishgan. Kitobda o'sha davrda ma'lum bo'lgan viloyatlar va podshohliklar, ularda yashovchi qavmlar ularning urf-odatlarini, rasm-rusumlari hamda har bir shaharning tabiiy-geografik sharoiti ta'riflangan. Masalan, So'g'd va Ustrushona sharqiy ellar orasida eng obod joy, u yerda oqar suvlar ko'p, iqlimi bahavo, odamlari mehmondo'st va xushmuomala deb ta'rif berilgan. V.V.Bartold bu asarga katta ahamiyat berib o'zining bir qancha maqolalarida undan parchalar keltirgan.



O'rta Osiyo va O'zbekistondagi joy nomlariga oid yozma ma'lumotlarni *Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig'»*, *A.Beruniyning «Qonuniy Mas'udiy»*, «Hindiston», «Saydana», *M.Narshaxiyning «Tarixi Buxoro»*, *Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi»* kabi asarlarda uchratish mumkin. Chunonchi, Abu Rayhon Beruniy joy nomlariga izoh berib shunday yozgan: «...ammo, aksari mamlakatlarning nomlari hozirgi vaqtdagi nomlaridan farq qiladi. Xususan, tili boshqa bo'lgan qabilalar biron joyni egallaganlarida nomlar tez-tez o'zgarib turadi. Boshqa xalq mahalliy nomlarni buzib talaffuz etadi... Nomlarning ma'nosini boshqa tilga tarjima qilganda yoki talaffuzini osonlashtiradigan tovushlar bilan yozganda nomlar o'zgarib ketadi. Ko'pincha arablar chet el nomlarini, arabchallashtirib, shunday o'zgartiradilar va buzib aytadilar».

Turkiy xalqlar, jumladan o'zbeklar etnografiyasi va etnik tarixini o'rganishda *Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk»* nomli asari alohida o'rin egallaydi. Kitobda ayrim shahar va qishloqlar aholisining lingvistik va etnik tarkibi, ijtimoiy tuzumiga oid qisqa ta'rif, etnotoponimikasi va ayrim qabila hamda urug'larning joylanishi to'g'risida noyob ma'lumotlar keltirilgan. «Devonu lug'atit-turk»ni ayni vaqtda qimmatli toponimik asar ham deyish mumkin. Chunki, unda toponimlarning etimologiyasi, semantikasi, grammatik xususiyatlari, qadimgi etnonimlar, antroponimlar, o'simlik va hayvonot nomlariga doir qiziqarli ma'lumotlarni topish mumkin.

*S.Qoraev* ma'lumotlariga ko'ra, asarda jami 160 dan ortiq toponim tilga olingan. *H.Hasanov* esa kitobni qimmatli geografik manba hisoblab u to'g'risida alohida asar yozgan. «Devon»da ko'pgina geografik terminlar berilganki, bu terminlar hozirgi vaqtda ham keng qo'llaniladi. Ariq, art (ort), botiq, bulut, yel, jar, kechik, kun, ko'k (osmon), muz, suv, tog', tun, tuman, ungur, qayir, qor, quduq, qum, qish va boshqalar shular jumlasidandir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, geografik nomlarni ilmiy asosda talqin qilishni Sharq o'rta asr olimlari ishlarida kuzatish mumkin. XIII asr geografik ma'lumotlarini to'plab o'n jildlik «Mu'jam al-buldon» (Mamlakatlar lug'ati) nomli geografik lug'atni tuzgan olim *Yoqut Hamaviydir*. Rus sharqshunos olimi *V.V.Bartoldning* yozishicha, *Yoqut Hamaviy* o'sha davrdagi bir qator musulmon davlatlariga sayohat qilib, ularning shahar va qishloqlari haqida ko'p ma'lumotlar yozib qoldirgan. *A.L.Xromov* esa *Yoqut Hamaviy*ni O'rta Osiyo va Sharq musulmon davlatlarining birinchi toponimisti deb ta'riflagan.

Shuni alohida qayd qilish kerakki, uning geografik nomlarni sharhlashda qo'llagan usuli hozirgi toponimikada joy nomlarini topoformantlar asosida izohlash usuliga juda o'xshaydi. Olim toponimlar tarkibida bir xil unsurlarning takrorlanishini birinchi bo'lib payqagan. Masalan, shahar va qishloq nomlari tarkibida keladigan «obod» unsurini, fors-tojik tilida aholi punkti ma'nosini bildiradi deb yozgan. «Obod» -unsuri hozirda ham geografik nomlar tarkibida keng qo'llaniladi. Bugungi kunda «obod» so'zi nafaqat aholi punkti ma'nosida qo'llaniladi balki, ba'zi otlarga yoki ayrim sifatlarga qo'shilib joy nomini yasaydigan, obodonlashtirilgan, o'zlashtirilgan, gullab-yashnagan ma'nosidagi so'z hamdir.

O'rta Osiyo toponimiyasiga oid ma'lumotlarni *Rashididdin, Shurofiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Hofizi Abro', Hofiz Tanish Buxoriy, Abulg'oziy Bahodirxon, Abu Tohirxo'ja, Ahmad Donish* kabi allomalar asarlaridan topish mumkin. Mutaxassislar fikricha, X-XI asrlar Movarounnahr toponimiyasining katta qismini islomgacha bo'lgan davrdan meros qolgan sharqiy eroniy (so'g'd, boxtar, xorazmiy) tillarga xos toponimlar tashkil qilgan. Keyingi davr Movarounnahr toponimiyasining shakllanish jarayoni turkiy qatlamning kuchayishi, natijada sharqiy eroniy toponimik qatlamning siqib chiqarishi bilan bog'liq.

O'rta Osiyo qadimiy turkiy toponimiyasini tadqiq etgan *Sh.Kamoliddin* ma'lumotlariga ko'ra, kelib chiqishi turkiy bo'lgan nomlar O'rta Osiyo hududida qadimdan mavjud bo'lgan va ular ilk o'rta asrlarda mintaqadagi joy nomlarining katta qismini tashkil qilgan bo'lsa, hozirda O'rta Osiyo toponimiyasining asosiy qismi turkiy toponimlardan iborat. Ilk o'rta asrlarda turkiy toponimlar, son jihatdan sharqiy eroniy tillarga xos nomlardan keyin ikkinchi o'rinda turgan, ammo o'rta asrlardan boshlab turkiy qatlamning kuchayishi natijasida ular O'rta Osiyo toponimiyasining eng baquvvat qatlamiga aylangan. Masalan, *S.Umurzoqov* tomonidan, faqat Qirg'iziston hududida tarixiy manhalar asosida antik davrdan to XII asrga qadar mavjud bo'lgan uch yuzga yaqin geografik nomlar aniqlangan.

Qadimiy qo'lyozmalar bilan bir qatorda tarixiy-geografik asarlar ham toponimikaning muhim manbalaridan hisoblanadi. Ana shunday, O'rta Osiyoda yozilgan memuar asarlarning durdonasi hisoblangan «Boburnoma»da ham ko'pgina joy nomlariga doir qimmatbaho ma'lumotlar mavjud. *Zahiriddin Muhammad Bobur* o'zining ko'rgan, kuzat-

gan boy ilmiy dalillari asosida chiqargan xulosalarini «Boburnoma» asariga jamlagan. R.Rahimbekovning yozishicha, «Boburnoma» o'zbek geografik terminologiyasi va toponimikasi uchun katta ilmiy xazinadir.

Boshqa olim, H.Hasanovning ta'kidlashicha, «Boburnoma»da mingga yaqin geografik nom tilga olingan. Kitobda keltirilgan, O'rta Osiyoga doir nomlarning ko'pchiligi hamon o'sha davrdagi kabi yoziladi va talaffuz etiladi. «Boburnoma»dagi geografik nomlarning aksariyatini hozirgi o'zbek va tojik tilida izohlash mumkin. Bir qancha toponimlarning etimologiyasini Boburning o'zi tushuntirib o'tgan. «Boburnoma»da geografik atamalar shu qadar ko'pki, ularning ko'pchiligi hozir ham mavjud, bir qanchalalari faqat geografik nomlar tarkibida qolgan, ba'zi birlari butunlay iste'moldan chiqib ketgan.

O'rta asrlarda toponimik qonuniyatlarni aniqlash usullari kashf etilmaganligi bois, toponimlarning ma'no xususiyatlari ko'pincha farziyalarga asoslangan holda izohlangan. Qadimiy va o'rta asrlar manbalarida qayd qilingan toponimlar, geografik terminlar, o'simlik va hayvonot nomlari, etnonimlar, antroponimlar geografik jihatdan to'laroq o'rganilishi kerak.

*Ilmiy toponimikani paydo bo'lishi.* Geografik nomlarni o'rganadigan ta'limotni ilmiy fan sifatida paydo bo'lishi ko'p jihatdan fanning amaliy ehtiyoji bilan bog'liq. XVIII–XIX asr olimlari ilk bor ob'ektlarni o'rganish, tavsiflash, kartaga tushirish jarayonida geografik ob'ekt bilan birga nomlarini ham tadqiq qilishgan. Geografik nomlarni paydo bo'lishi, qaysi tilga mansubligi, shakllanishi, anglatgan ma'nosi, rivojlanishi tarixini ilmiy asosda o'rganish, xususan ularni klassifikatsiyalash XVIII asrning ikkinchi yarimidan boshlangan. Shu davrdan boshlab, joy nomlariga muhim ilmiy geografik ma'lumotlar manbai sifatida qaralgan.

Yer yuzining ma'lum hududi, qismini tasvirlashda uning nomi, qaysi tilga tegishli va qanday ma'no kash etishni aniqlash muhim hisoblangan va geograflar tomonidan shu maqsadda ko'plab toponimik tadqiqotlar amalga oshirilgan. A.Gumbold, H.Vamberi, J.Tonnele, N.Nadejdin, A.Vostokov, A.Kastren, P.Semyonov-Tyan-Shanskiy, L.Berg kabi olimlar ilmiy toponimika rivojiga katta hissa qo'shgan. Masalan, akademik A.Vostokov 1812 yili yozgan "Etimologiya havaskorlariga mashq" nomli maqolasida geografik nomlarni old va oxirgi qo'shimchalarining o'xshashligiga qarab bir necha guruhga bo'lgan va bu hol tasodifiy emas, degan xulosaga kelgan. Tushinishi qiyin bo'lgan bu qo'shim-


chalar hozirgi ilmiy tilda toponimlar deb ataladi. Shu sababdan, mutaxassislar A.Vostokovni toponimik ilmiy tadqiqotlarda qo'llaniladigan formantlar (*lotincha, formans – hosil qiluvchi*) usuli asoschisi deb e'tirof etishgan.

XIX asrda tilshunoslik, tarix, geografiya, kartografiya kabi fanlarning amaliy ehtiyojidan kelib chiqib toponimikaga qiziqish yanada kuchaydi. T.Nafasovning yozishicha, XIX asr o'rtalari, oxiri va XX asr boshlarida toponimik tadqiqotlar mazmunan boyidi, son va saviya jihatdan kengaydi. Toponimikaga bag'ishlangan maxsus asarlar paydo bo'ldi, geografik nomlarni o'rganadigan komissiyalar va jamiyatlar tashkil etildi. Masalan, G'arbiy Yevropa, jumladan, Fransiya, Angliya, Germaniya, Polshada barcha toponimik ishlarni muvofiqlashtiruvchi toponimik jamiyat yoki guruhlar paydo bo'ldi. AQSH da 1890 yili geografik nomlar byurosi, 1923 yilda esa toponimik jamiyat tashkil qilindi.

Rossiyada ham 1847 yili Rossiya Geografiya jamiyati qoshida geografik terminologiyani o'rganish komissiyasi tashkil etildi va u toponimikaga katta ahamiyat berdi. Komissiya tarkibida qatnashgan *A.Dal, N.Nadejdin* kabi olimlar yordamida to'rt mingdan ortiq geografik terminlardan iborat lug'at tuzilgan. Rus olimi N.Nadejdinning toponimikaga bag'ishlangan ilmiy ishlari diqqatga sazovor. U toponimikani xalq hayoti, turmushi, dunyoqarashi bilan bog'liq ekanligi, jamiyat tarixidagi muhim voqea-hodisalar joy nomlarida aks etishiga katta e'tibor bergan. Toponimiya – yer tili, yer bamisoli bir kitobdir, unda insoniyat tarixi geografik nomlar bilan bitilgan" degan ta'rif aynan unga tegishli.

Keyingi ikki asr davomida yozilgan tarixiy, lingvistik va xususan geografik asarlardan O'rta Osiyo va O'zbekiston toponimiyasiga oid ko'plab ma'lumotlar topish mumkin. Masalan, vengryalik olim *A.Vamberi* O'rta Osiyoga maxfiy sayohat qilib, tarixiy toponimikaga oid "Markaziy Osiyoning geografik nomlari" deb atalgan asar yozgan. Asarning lug'at qismida 600 ga yaqin geografik nom va atamalar alifbo tartibida berilgan.

O'zbekistonning tarixiy geografiyasini, jumladan toponimiyasini o'rganishda inqilobdan oldin ijod qilgan rus olimlari orasida *V.Vyatkinni* alohida o'rni bor. Olimning Samarqand va Toshkent viloyatlariga bag'ishlangan va vaqf hujjatlari asosida yozilgan asarlarida ko'pgina toponimlarni kelib chiqishi haqida qiziqarli ma'lumotlarni topish mumkin. V.Vyatkinning asarlarida mahalliy geografik nomlarning



ruscha transkripsiyasiga ham alohida ahamiyat berilgan. Umuman, olimning asarlari toponomik tadqiqotlarda, ayniqsa, geografik nomlarning etimologiyasini aniqlash va toponimlarni transkripsiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin *N.Xanikov, N.Sitnyakovskiy, L.Sobolev, D.Lagofet, A.Xoroshxin* kabi olimlar turli ekspeditsiyalar tarkibida O'rta Osiyoga kelib mahalliy xalqlarning tili, tarixi, etnografiyasini o'rganishgan. Shu sababdan, ularning asarlarida O'rta Osiyo joy nomlarining etimologiyasiga oid turli tarixiy-lingvistik fikrlar bildirilgan. XIX asr oxiri va XX asrning boshlaridagi O'rta Osiyo toponimiyasini o'rganishda, akademik *V.Bartold* asarlari alohida o'rin tutadi. *V.Bartold* garchi toponimikaga bag'ishlab alohida asar yozmagan bo'lsa ham, ammo, uning asarlarini o'rganmasdan turib O'rta Osiyo toponimikasi bilan shug'ullanib bo'lmaydi.

Olim asarlarining toponimika uchun qimmatini shundaki, u rus va G'arbiy Yevropa tillaridagi adabiyotlarni arab, fors hamda turkiy tillardagi asarlar bilan taqqoslab tanqidiy o'rgandi. *V.Bartold* asarlarida arab va fors manbalarida qayd qilingan yuzlab joy nomlarining etimologiyasi sharhlangan, arna, ariq, yob, diz, g'ar, kent, rustoq, hisor, qal'a, qo'rg'on kabi ko'plab geografik terminlari ilmiy jihatdan izohlangan. Nashr qilingan 685 asaridan 320 tasi O'rta Osiyo tarixiga bag'ishlangan. U O'rta Osiyo xalqlari tarixi, etnografiyasi, va psixologiyasini chuqur o'rgangan olim hisoblanadi.

Shunday qilib, XVIII asrning ikkinchi yarimidan, to XX asrning birinchi yarimigacha toponimik tadqiqotlar mazmunan boyidi, soni ko'paydi, sifat va saviya jihatdan ancha oshdi. Zaruriy ma'lumotlar to'planib, toponimikaga bag'ishlangan bir qancha asarlar yaratildi. Ularda geografik ob'ektlarni nomlash qonuniyatlarining ayrim jihatlari aniqlanib ilmiy toponimik tadqiqotlarga asos solindi.

*Hozirgi zamon toponimika fanining shakllanishi va rivojlanishi.* XX asrning 50-chi yillaridan boshlab toponimik tadqiqotlar keng quloq yozdi. Toponimik materiallarni to'plash va qayta ishlash sohasida jiddiy ishlar boshlandi. Toponimika bo'yicha maxsus mahkamalar, Geografiya jamiyatlari qoshida toponimik komissiyalari tuzildi hamda geografik nomlarni o'rganishga katta ahamiyat berildi. O'sha davrda toponimik tadqiqotlar uchta asosiy yo'nalishda olib borildi.

1. Toponimikaning nazariy masalalari va toponimik tadqiqotlar usullarini ishlab chiqish;

2. Sobiq Ittifoq va ittifoqdosh respublikalar doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar;

3. Makroregionlar va xorijiy mamlakatlar toponimikasiga doir ilmiy tadqiqotlar.

Ma'lumki, toponimikaning nazariy masalalarini hal qilmasdan turib toponimik tadqiqotlar bilan shug'ullanish ancha qiyin masala. Shu sababdan, toponimist olimlar, ayrim mintaqa joy nomlarining ma'nosini aniqlash bilan bir qatorda, geografik ob'ektlarning nomlash qonuniyatlarini tadqiq etish, hamda geografik nomlarning klassifikatsiyasi kabi masalalarga ham katta e'tibor qaratishgan.

Toponimikani ilmiy fan sifatida shakllanishida rus olimlarining xizmatlari katta. Bu sohada *A.Dulzon*, *A.Matveev*, *A.Popov*, *A.Superanskaya*, *V.Toropov*, *S.Tolstov*, *Ye.Pospelov*, *O.Trubachev*, *V.Iuchkevich*, *R.Ageeva* kabi olimlarning asarlari ma'lum va mashhur. Ular orasida geograf olim *E.Murzaev*ning xizmatlari alohida diqqatga sazovor. Olim yarim asrdan ko'proq vaqt davomida geografik nomlarni o'rgandi. O'rta Osiyo toponimlarining kelib chiqishi, transkripsiyasi, xususan, mahalliy geografik terminlari haqida ko'plab qimmatli asarlar, monografiyalar, lug'atlar, ilmiy maqolalar yozgan. Olim ko'p yillik ilmiy faolligi davomida toponimikaning nazariy masalalari bilan birga, geografik terminlarga alohida ahamiyat berdi.

*E.M.Murzaev*ning toponimika sohasidagi asarlaridan eng salmoqlilari xalq geografik terminlariga bag'ishlangan. Bu boradagi so'nggi va eng yirik usuni, 1999 yilda Moskvada chop etilgan ikki jildli "Словарь народных географических терминов" kitobidir. Olimning ta'kidlashicha, har qanday toponimik tadqiqotni geografik terminlarni o'rganishdan boshlash kerak, chunki toponimik terminlar ko'pchilik geografik nomlarning etimologiyasini aniqlashda universal kalitdir. *E.M.Murzaev*ning sof toponimik ishlari ham kam emas. Uning "Очерки топонимики" (Москва, 1974) asari olimning geografik nomlarni o'rganish sohasidagi ko'p yillik mehnati samarasidir. Mazkur kitobda, geografik nomlarni ijtimoiy hodisa ekanligi, jamiyatni ehtiyoji bilan bog'liqligini ta'kidlab, *E.Murzaev* shunday yozgan: «gazeta o'qiganda ham, radio tinglaganda ham voqea va hodisalarni ko'pincha geografik nomlarga bog'lab o'qib olamiz. Hozirgi zamon jamiyatini geografik nomlarsiz tasavvur etolmaymiz».

Sobiq Ittifoqda toponimikani fan sifatida shakllanishiga *V.A.Nikonov* katta hissa qo'shgan. Olim geografik nomlarni tarix taqozosi bilan

paydo bo'ladigan ijtimoiy hodisa ekanligini alohida ta'kidlaydi. V.A.Nikonov nom geografik ob'ektning xususiyatidan kelib chiqadi, degan fikrni g'alat va toponimika uchun juda xavfli deb hisoblaydi. Olimning yozishicha, geografik ob'ektga nom tanlashda uning o'ziga xos xususiyatlari asos bo'lishi mumkin, ammo, ana shu alomatni, belgini tanlash faqat jamiyat manfaatlari bilan bog'liq deb hisoblaydi. Fikrini isboti sifatida, daryoni Qoradaryo yoki Oqdaryo deb nomlanishi daryo uchun muhim emas, u qanday atalishidan qat'iy nazar o'z vazifasini bajaraveradi, aksincha, nom tanlashda jamiyat manfaatlari ustunlik qiladi, deb yozadi. Nisbiy negativlik, toponimik pozitivlik, qatorlar qonuni, o'zlashma nomlar (kalka) kabi toponimika qonuniyatlari ham, ilk bor taniqli toponimist V.A.Nikonov tomonidan aniqlanib fanga kiritilgan.

Shu narsa e'tiborga sazovorki, V.A.Nikonov geografik ob'ektlarga berilgan nomlar haqida fikr bildirib, uni nomlagan xalq yo'q bo'lib ketsa ham, ammo, joy nomi uzoq muddat hattoki, bir necha ming yilgacha, asl holida yoki shakli va talaffuzi o'zgarib, mavhumlashib saqlanib qolishi mumkinligini alohida ta'kidlagan. Masalan, V.A.Nikonov tomonidan keltirilgan bir rivoyat bu fikrni isbotidir. Olimning yozishicha, konkistadorlar Amerikadagi Orinoko daryosi bo'yida yashaydigan mahalliy hindu qabilasini qirib yuborishadi, ammo, ular tomonidan xonakilashgan to'ti qushlar uzoq muddat mahalliy hindu qabilasi tilida sayragan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi tarkibidagi boshqa mamlakatlarda ham toponimikaga katta ahamiyat berib kelinadi. Geograf olimlardan beloruslik *V.Juchkevich* bu sohada ancha ishlar qilgan. Uning «Umumiy toponimika» nomli o'quv qo'llanmasi bir necha bor nashr etilgan. Ukrainalik olim *Yu.Karpenko* regional toponimiyani mukammal o'rganishidan tashqari toponimika nazariyasi va metodologiyasining umumiy masalalariga alohida ahamiyat bergan. Olimning fikricha, geografik nomlarni izohlashda geografik kuzatishlar bag'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan, real hayotda nomning tug'ilishiga turtki bo'lgan alomatni topish toponimika uchun nihoyatda muhimdir.

Markaziy Osiyo davlatlari toponimistlaridan Tojikistonda Yag'nob toponimlarini mukammal o'rgangan *A.Xromov*, Pomir mikrotoponimlarini tadqiq qilishda *R.Dodixudoev*, *A.Rozenfeld* asarlarining ahamiyati katta. Qozog'istonda joy nomlarini ham lingvistik, ham geografik nuqtai nazardan tadqiq etishda katta yutuqlar qo'lga kiritilgan. Respublikada

toponimlarni, xususan, mahalliy geografik terminlarni o'rganishda *G.Konkashpaevning* xizmatlarini alohida qayd qilish kerak. Qozog'istonlik toponimistlardan *A.Abdurahmanov, V.Popova, T.Januzaqov, Ye.Qo'ychiboev* kabi olimlarning ilmiy ishlarida toponimikaning umumiy masalalari bilan bir qatorda joy nomlarining etimologiyasiga katta o'rin berilgan.

Turkmanistonda toponimikaning rivojlanishi akademik *S.Ataniyozov* nomi bilan bog'liq. Olim toponimikaning metodologik masalalarini yoritish bilan birga, tadqiqotlarida ko'proq etnonimlarning kelib chiqishiga e'tibor qaratgan. Turkman geografik terminlarini yig'ish va izohlash bilan *M.Geldixanov* shug'ullangan. Qirg'iziston toponimikasining yuqilari geograflardan *S.Umurzoqov*, tilshunoslardan *Q.Qonqaboev, D.Isaev* nomlari bilan bog'liq. Ozarboyjonlik olimlar ham toponimika sohasida ancha jiddiy tadqiqotlar olib borishgan. Masalan, respublika toponimlarini va mahalliy geografik terminlarni yig'ish hamda o'rganish bo'yicha *R.Yuzbashev, S.Mullazoda, A.Aliev*, toponimikaning nazariy masalalarini tadqiq qilishda *T.Axmedovning* xizmatlarini alohida ta'kidlash kerak.

O'tgan XX asr davomida xorijiy mamlakatlarda ham toponimik tadqiqotlar tez sur'atlar bilan rivojlandi. Natijada, bir qator mamlakatlarda toponimik maktablar paydo bo'ldi. Yer sharining turli mintaqalari geografik nomlarining o'rganishda *A.Doza*, (Frantsiya); *G.Krae*, *M.Fesmer* (Germaniya); *E.Ekuoll, A.Smit, A.Rum, S.Mettyuz* (Buyuk Britaniya); *A.Profouz, V.Shmilauer* (Chexiya); *V.Tashitskiy, Y.Stashevskiy* (Polsha); *V.Georgiev* (Bolgariya); *L.Kish* (Vengriya), *G.Dragu* (Ruminiya); *M.Olson* (Shvetsiya); *J.Styuart, N.Xolmer* (AQSH); *J.Armstrong* (Kanada); *A.Kardozu* (Braziliya) kabi olimlarning xizmatlari katta.

O'zbek olimlaridan birinchi bo'lib *H.Hasanov* toponimikaga murojaat qilgan. Olim geografik nomlarga bag'ishlangan bir qator ilmiy maqola va kitoblar yozgan. *H.Hasanovning* «Geografik nomlar imlosi» (1962), «O'rta Osiyolik geograf va sayyohlar» (1964), «O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan» (1965), «Er tili» (1977), «Geografik nomlar siri» (1985) kabi asarlarida O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston toponimiya-sining o'ziga xos xususiyatlari haqida muhim fikrlar, xulosalar bayon etilgan. O'zbek «Magellani» deb e'tirof etilgan olim joy nomlarining transkripsiyasi, etimologiyasi, tarixi, toponimlarning asosini tashkil etuvchi geografik terminlarga juda katta e'tibor bergan.



Toponimika faniga ko'p yillik umrini bag'shida etgan olimlardan yana biri *S.Qoraev*dir. Olimning ilmiy faoliyatida mahalliy geografik terminlarni o'rganish alohida o'rin egallaydi. *S.Qoraev* joy nomlari tarkibida uchraydigan 120 dan ortiq geografik terminlarni atroflicha izohlab bergan. Masalan, aqba – «dovon», haraz – «tog'dagi tekis maydon», bel – «dovon», bo'ktar – «tog' etagi», gaza – «tog' qirradi», depanse – «adirdagi tekislik», jo'na – «cho'zinchoq tepalik», zayak – «partov yer», zov – «tik yalang qoya», sangloq – «silliq toshli soylik», shiber – «o'tloq botqoqlik», tarma – «qor ko'chkisi», chag'at – «qirra toshli kungay yonbag'ir, chem – «g'ov, to'siq», chalqa – «tekis maydon», qo'riq – «daryo bo'yidagi o'tloq» kabi xalq terminlarini birinchi bo'lib geografiyaga, toponimikaga olib kirdi. Bu terminlarning ko'pchiligi shu vaqtgacha geografik adabiyotlarda, hatto izohli lug'atda ham uchramaydigan, ilmiy muomalaga kiritilmagan chinakam mahalliy xalq terminlari hisoblanadi.

Geografik terminlar va joy nomlarini o'rganish sohasida samarali mehnat qilayotgan geograf olimlardan yana biri *P.N.G'ulomov*dir. Olim tomonidan «Geografiyadan qisqacha ruscha-o'zbekcha atamalar va tushunchalar lug'ati» (1993), «Jug'rofiy atamalar va tushunchalar izohli lug'ati» (1994), «Toponimika va geografik atamashunoslik» (2000) kabi o'quv qo'llanmalar nashr etilgan. Ilmiy ishlarida *P.G'ulomov* joy nomlari va terminlarning to'g'ri yozilishi, ularning tarjimasini, ilmiy va o'quv adabiyotlarga kiritilishi hamda toponimik savodxonlik masalalariga katta e'tibor qaratgan.

Geograflar tomonidan toponimika sohasida bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari ancha kam. So'ngi yillarda *Q.Seytniyazov* (1998), *Qoraqalpog'iston o'ng sohil shimoliy tumanlari toponimiyasi va Q.Hakimov* (2010) tomonidan Jizzax viloyati toponimiyasi o'rganilgan. Bajarilgan ishlarda geografik ob'ektlarni nomlash qonuniyatlari, joy nomlarini shakllanishida mintaqaning iqtisodiy-ijtimoiy geografik xususiyatlari, toponimlarni o'zbek va qoraqalpoq tillarda to'g'ri yozilishiga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, yangi geografik ob'ektlarni nomlash bo'yicha tavsiyalar va toponimlar turlariga oid karta-sxemalar ishlab chiqilgan.

O'zbekiston toponimiyasini lingvistik aspektda o'rganish o'tgan asrning 60-chi yillarida boshlandi. Tilshunos toponimist olimlardan *T.Nafasov*, *E.Begmatov*, *Z.Do'simov*, *N.Oxunov*, *T.Enazarovlar* O'zbekistonda toponimika fanining rivojlanishiga, geografik nomlar-

ning leksik-semantik xususiyatlarini aniqlashda, nomlanish qonuniyatlarni ochib berishda katta hissa qo'shganlar. O'zbekistonda toponimika fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan olimlardan biri T.Nafasov, respublikada birinchi bo'lib toponimikadan nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Xalq tabiiy geografik terminlari, ularning paydo bo'lishi, shakllanish xususiyatlari, tarqalish areallari, manbalari, ilmiy va o'quv adabiyotlarga kiritish tamoyillari kabi masalalar M.Mirakmalov tomonidan o'rganilgan.

Keyinchalik hududiy toponimika sohasida bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari bajarildi. Masalan, T.Nafasov – Qashqadaryo toponimiyasini, Sh.Qodirova – Toshkent mikrotoponimlarini, Z.Do'simov – Xorazm, Ya.Xo'jamberdiyev – Surxondaryo, T.Rahmatov – Samarqand, S.Gubareva va N.Oxunov – Farg'ona vodiysi, A.Zokirov – Jizzax, K.Abdimuratov – Qoraqalpog'iston respublikasi, S.Naimov – Buxoro viloyati toponimiyasini tadqiq qilgan. Oxirgi yillarda bajarilgan mintaqaviy toponomik tadqiqotlarning aksariyati geografik nomlarining dialektik, semantik, grammatik va lingvogeografik xususiyatlariga bag'ishlangan. Joy nomlarining mintaqaviy xususiyatlarini tadqiq etish orqali har bir hudud toponimiyasining umumiy va xususiy jihatlari aniqlanib, ularning O'zbekiston toponimiyasida tutgan o'rni belgilanmoqda.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. Qadimda toponimlarni izohlash, tasniflashga bag'ishlangan dastlabki asarlar qacida paydo bo'lgan, sababini tushuntiring.
2. Zamonaviy toponimikani shakllanishida O'rta Osiyolik olimlarni xizmatlari nimudan iborat?
3. Ilmiy toponimikani paydo bo'lishiga sabab bo'lgan asosiy omillarni izohlang.
4. So'nggi yillarda bajarilgan mintaqaviy toponomik tadqiqotlar haqida ma'lumot bering.

#### **Test topshiriqlari**

1. Ptolomey Osiyo haqidagi ma'lumotlarni qaysi kitobida keltirgan?
  - A. "Geografiya"
  - B. "Geografiyadan qo'llanma"
  - C. "Tarix"
  - D. "Astronomiyaning buyuk tuzilishi"

2. Eratosfen greklarga ma'lum bo'lgan hududlarni qanday atagan?

- A. Klima
- B. Oykumena
- C. Skifena
- D. Period

3. Muallifi noma'lum bo'lgan "Hudud ul-olam" asari qachon, qaerdan topilgan va hozir qaysi shaharda saqlanmoqda?

- A. 1912 yilda Buxoroda topilgan, hozir Londonda.
- B. 1715 yilda Xivada topilgan, hozir Toshkentda.
- C. 1892 yilda Samarqanda topilgan, hozir Sankt-Piterburgda.
- D. 1970 yilda Jizzaxda topilgan, hozir Moskvada.

4. A.Xromov iborasi bilan aytganda, O'rta Osiyoning birinchi toponimisti bu...

- A. Muqaddasiy
- B. Ibn Rushd
- C. Ibn Havqal
- D. Yo.Hamaviy

5. Joy nomlari bu "erni tili" degan ibora kimga tegishli?

- A. E.Murzaev
- B. N.Nadejdin
- C. H.Hasanov
- D. S.Qoraev

## 2-mavzu: TOPONIMIKA FANINING TADQIQOT USULLARI. GEOGRAFIK OB'EKTLARNI NOMLASH QONUNIYATLARI

### 2.1. Toponimika fanining tadqiqot usullari

*Reja:*

1. Toponimika fanining tadqiqot usullari haqida umumiy tushuncha.
2. Toponimika fanining tadqiqot usullarini tahlili.
3. Toponimik tadqiqotlarda ilmiy manbalar va dala ma'lumotlaridan foydalanish.

**Mavzuning maqsadi:** Toponimika fanidagi hodisa va jarayonlarni hamda toponimlarning o'ziga xos xususiyatlarini uni maqsadi va vazifalariga mos keladigan ilmiy tadqiqot usullari yordamida o'rganishdan iborat.

**Tayanch ibora va atamalar:** Etimologiya, geografik, lingvistik, tarixiy, kartografik, statistik usullar, semantika, toponimik, toponimik ma'no, toponimik areal, toponimik "yuk", yozma va dala ma'lumotlari.

Toponimik tizimni bir bo'lagi bo'lgan nom turlicha ko'rinishda bo'lishi mumkin. Shu sababdan, nomlar majmuasining barcha o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib tahlil qilinganda to'g'ri va samarali natijaga erishish mumkin. Ma'lumki, har qanday geografik ob'ekt nomining ma'no-mazmunini aniqlash uchun, uni har tomonlama o'rganish maqsadga muvofiq. H.Hasanov bu masalaga e'tibor qaratib: «har bir joy nomining bamisoli ikki tomoni bor sirti va ichi. Sirdan qaraganda har bir nom atoqli ot bo'lib ko'rinadi. Afrika, Grenlandiya, Xitoy, Misr, Parij singarilarning joy nomi ekanligi har kimga ham ayon. Ammo, nomning ichki tomoni ham borki, uni ko'rish uchun «rentgen»ga solish lozim; bu nom qaerda, nega shunday atalgan, qaysi tildan olingan? Joyning bu ichki xususiyatini har kim bilavermaydi, u faqat tadqiqotchiga muyassar bo'ladi», deb yozgan edi.

Boshqacha aytganda, tahlil va sintezni, turlicha tadqiqot usullaridan foydalanib toponimni asl mohiyatini aniqlash mumkin. Toponimik tahlilda ko'pincha yaxlit manbalarga e'tibor qaratish kerak, chunki, geografik nomlarga takroriylik xos, ular ba'zan to'la goho agar murakkab nom bo'lsa tarkibiy qismlarga bo'linib takrorlanadi. Ko'pincha nomning semantikasi, talaffuzi, lisoniy tuzilishi to'g'ri kelishi mumkin, ba'zan nomning hamma alomatlari birgalikda takrorlanadi.

Nom hech qachon yagona, tanho emas, u toponimik tizimdagi uzun zanjirning bir bo'g'ini hisoblanadi. Binobarin, agar barcha geografik nomlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib tadqiq qilinsa, tahlil to'g'ri va mahsuldor bo'ladi. Bu har qanday toponimik tizimga va har bir geografik nomning paydo bo'lishi va ma'no-mazmunini aniqlashga taaluqlidir. Demak, har bir hudud, mintaqaning mavjud toponimik kompleksi, geografik nomlari turli nuqtai nazardan tahlil qilinishi kerak. 1) nomning geografik alomatlari: tog', daryo, dasht, cho'l, shahar, qishloq va hokazo; 2) paydo bo'lish vaqti va unga turtki bo'lgan sabablar; 3) qaysi tilga aloqadorligi va uning lisoniy xususiyatlari; 4) mazmuni va etimologiyasi (yunoncha, ἐπίμορ – haqiqat, so'zning asl ma'nosi va λῶγος – ta'limot). 5) nomning tuzilishi, til qonuniyatlari va imlo qoidalariga to'g'ri kelishi; 6) toponimning yaratilgan tilida va boshqa tillarda

ilmiy jihatdan to'g'ri yozilishi; 7) tarqalish hududi, areali, migratsiya yo'llari.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, geografik nomning asl ma'nosini aniqlash uchun bitta usuldan foydalanish yaxshi samara bermasligi mumkin. Shu sababdan, toponimistning asosiy vazifasi – fanning turli toponimik tadqiqot usullaridan foydalanib haqiqiy ilmiy natijani qo'lga kiritishdan iborat. Yana shuni ham unitmaslik kerakki, toponimik tizimdan ajratib olingan alohida nom ilmiy tahlil uchun asos bo'lolmaydi. Aksincha, toponimik tadqiqotlarda geografik nomni hudud toponimiyasi bilan birga tadqiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umuman olganda, toponimist olimlarning say'-harakati bilan toponimika fanining tadqiqot usullari shakllandi. Ular, birgalikda joy nomining asl ma'nosini soxtasidan ajratish imkonini beradi. Ammo, mavjud usullarning qaysi biri eng muhimligini aytish qiyin, chunki ularning har biri geografik nomga turlicha yondoshish imkonini beradi va toponimning mazmun va mohiyatini aniqlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirda, mutaxassislar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlarida qo'llanilayotgan toponimik tadqiqot usullari quyidagilardan iborat:

**Geografik usul:** Toponimik tadqiqotlarda ushbu usul toponimik terminlarni qo'llanishiga asoslangan. Geografik nomlar tarkibida uchraydigan toponimik terminlar ifodalangan ob'ektni bildiruvchi so'zlar (turdosh otlar)dan tashkil topgan. Ularni ayrim ilmiy adabiyotlarda toponimik indikator deb ham atashadi. Ko'pincha, toponimik terminlar (jar, soy, buloq, tepa, quduq va boshq.) joy nomlarining asosini tashkil etadi va geografik ob'ektning turini bildiradi.

Toponimik termin – turdosh ot, geografik nom esa atoqli otdir. Toponimik terminlarni o'zi ifodalayotgan ob'ektlarga qarab (geomorfologik, gidrologik, litologik, etnonimik, oykonomik va boshq.) aniqlash mumkin. Geografik nom va termin o'rtasidagi aloqadorlik toponimika-ning universal qonuniyati hisoblanadi. Xalq termini va geografik ob'ekt orasidagi mavjud genetik aloqa toponimiyada o'z aksini topgan.

Toponimiya – bu hudud landshaftining o'ziga xos tili, uning mantiqiy ifodasi deyish mumkin. Boshqacha aytganda, toponimiya orqali landshaft o'zi, tarixi, dinamikasi va xususiyatlari haqida «gapiradi». Toponimiya orqali landshaftni tadqiq etish, uning o'tmishdagi geografik holatini tiklash imkoniyati mavjud. Toponimlar yordamida landshaftning tabiiy komponentlari bo'lgan rel'ef shakli, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosini tarqalish areali va rivojlanish hosqichlarini aniqlash va tadqiq qilish mumkin.

**Kartografik usul:** Toponimik tadqiqotlarda keng qo'llaniladi va ancha murakkab usul hisoblanadi. Uning boshqa usullardan farqi va afzaligi shundaki, nomlarning o'rganilganlik darajasi, tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy hodisa va ob'ektlar bilan aloqadorligi, takroriyliigi va zichligini maydon birligiga aniq ko'rsatish imkonini beradi. Toponimik ma'lumotlarni aniqlash turli kartografik manbalardan foydalanishni talab qiladi. Turli davrdagi kartalar yordamida tabiiy hodisa va jarayonlarni rivojlanish bosqichlarini toponimiya ma'lumotlari asosida kuzatish va aniqlash mumkin.

Toponimik kartalar tuzish, ulardan foydalanish, umuman kartografik usulning imkoniyatlarini rus olimi *Ye.M.Pospelov* ilmiy jihatdan har tomonlama o'rgangan. Kartografik usul toponimistdan o'rganilgan umumiy materiallardan aniq xulosa chiqarishni talab qiladi. Shu sababdan, kartadagi ma'lumotlar matnga nisbatan yaqqol va aniq ko'zga tashlanadi hamda toponimik hodisa va qonuniyatlarni tushinish imkoniyatini beradi. Masalan, *Ye.M.Pospelov* ushbu usul yordamida toponimik qo'shimchalarning hudud bo'ylab tarqalishi, mintaqa toponimiyasi tarkibidagi mavjud tillarning areallari, nomlarning maydon birligi bo'yicha zichligi va takrorlanishini aniq misollarda ko'rsatib bergan.

Toponimik «yuki» bo'lgan kartalarni tuzish va ulardan samarali foydalanish uchun toponimlarning elektron bazasini yaratish, zamonaviy axborot va GIS – texnologiyalarni qo'llash yaxshi natija beradi.

**Tarixiy usul:** Tarixiy tahlil usulidan foydalanib toponimni paydo bo'lgan davri, uning evolyutsiyasi va transformatsiyasi hamda yangi geografik nomning paydo bo'lishiga asos bo'lgan ijtimoiy muhitni aniqlash mumkin. Shu sababdan? har qanday toponimik faktni tadqiq va tahlil qilishda, aniq tarixiy voqelikni hisobga olib ish ko'rish, ulardan samarali foydalanish yaxshi natija beradi. Ko'pincha geografik nomlarning semantikasi o'ziga xos xususiyatlarga ega, ular uzoq tarixiy davr davomida shakllangan bo'lib, insonning tabiatga bo'lgan munosabatini ifoda etadi.

Nom doimo ijtimoiy ehtiyoj tufayli paydo bo'lganligi bois, hattoki, tabiiy-geografik terminlar ham toponimiyada geografik ob'ektning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatini helgilaydi. Har bir geografik nom bu til orqali ifodalangan ixcham tarix, uning asosi muayyan tarixiy davrda yaratilgan. Tarixiy usul yordamida tadqiqotchi joy nomining geografik alomatlariga yana ham jiddiy e'tibor berishi mumkin.

Toponimik tadqiqotlarda tarixiy usulni qo'llash tarafdori bo'lgan *A.I.Popov* o'zining tadqiqotlarida aniq tarixiy sharoit va tarixiy man-

balardan xabardor bo'lmagan turib, geografik nomning kelib chiqishi haqida to'g'ri fikr bildirish mumkin emasligini bir necha bor ta'kidlagan. Ma'lumki, toponimlar aniq bir tarixiy sharoitda paydo bo'ladi va kelib chiqishi jamiyat hayoti, hududda yashayotgan yoki qachonlardir yashagan xalqlar tili bilan chambarchas bog'liq.

Aniqroq aytganda, har bir tarixiy davr o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini uning geografik nomlarida ham ko'rish mumkin. Shu sababdan, nomning asl ma'nosini aniqlashda uni tarixiy paydo bo'lgan davri bilan birga o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, Buxoro viloyatida Abumuslim nomi bilan ataladigan tepalik bor. Abumuslim tarixiy shaxs, u 747-750 yillarda Movarounnahr va Xurosonda arab xalifaligiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonga boshchilik qilgan. Uning asl ismi Abdurahmon ibn Muslim bo'lib, mahalliy xalq orasida Abumuslim laqabi bilan mashhur bo'lgan. VIII asr o'rtalarida Abumuslim tomonidan qurilgan istehkomning xarobasi, hozirda tepalik shaklida saqlanib qolgan. Buxoroning janubiy-sharqiy qismini sug'oruvchi Abu Muslim kanali (Jo'yi Abu Muslim) ham uning nomi bilan atalgan.

Ma'lumki, har bir tarixiy davr geografik nomlarning muayyan qatlamini hosil qilgan, aniqrog'i, har bir tarixiy qatlamning joy nomlarida o'ziga xos «izi», «tang'asi» mavjud. Ammo, tarixiy ma'lumotlar har doim ham nomlashning tarixiy jarayonini kuzatish va tiklash imkonini bermaydi. Shu sababdan, ko'pincha toponimik ma'lumotlarni tarixiy voqea hodisalarni aniqlashda qo'shimcha ilmiy manba sifatida foydalanish yaxshi natija beradi.

**Lingvistik usullar:** Geografik nomlarning hududiy tadqiq etish va formantlarga bo'lib o'rganishda olimlar tomonidan lingvistik usullar (etimologiyasi, topoformantlar asosida, grammatik tuzilishi) keng qo'llaniladi. Nomlarning lisoniy tarkibi, so'z va qo'shimchalari, ularning ma'nolari va birikuvi, nomlanishga asos bo'lgan ijtimoiy-lisoniy omillar o'sha davr voqeligi bilan baholanishi, izohlanishi va tadqiq qilinishi lozim.

Ma'lumki, har bir tilda toponim yasovchi o'ziga xos vositalar mavjud, ya'ni, muayyan suffikslar (affikslar) va so'zlar joy nomi yaratishga ixtisoslashgan bo'ladi. Turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tili negizida paydo bo'lgan toponimlar tarkibida ko'plik qo'shimchalari uncha keng tarqalmagan. Joy nomlari tarkibidagi ko'plik qo'shimchalarga – lar (Arablar, Beklar), – on (Ohangaron. So'zangaron), – ot (Bog'ot, Hirot) kabi affikslar misol bo'lishi mumkin.

Mutaxassislarning yozishicha, yirik va muhim ahamiyatga ega bo'lgan geografik ob'ektlarning nomlari til hodisasi sifatida turg'un qolib, uzoq davrlar yashaydi, tildan tilga o'tib asrlar davomida saqlanib qoladi. Shu sababdan, bunday uzoq o'tmishda yaralgan nomlarni, nom tarkibidagi so'z va qo'shimchalarni tilning hozirgi holati bilan talqin qilish mumkin emas.

Geografik nomlarning asl ma'nosi va mazmunini aniqlashda eng qadimiy va hozirda ham toponimika fani uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan *etimologik* (yunoncha, *ἐτύμωv* – "haqiqat", so'zning asl ma'nosi va *λόγος* – "ta'limot") usulni qo'llash yaxshi samara beradi. Shuning uchun, uzoq yillar davomida ushbu metod toponimik tadqiqotlarda keng qo'llanilgan va hozir ham u boshqa usullar orasida muhimligi bilan ajralib turadi.

Rus toponimisti *F.M. Murzaev* etimologik metodni kamchiligi haqida gapirib, joy nomi bilan bog'liq geografik voqealikka va tarixiy ma'lumotlarga tayanmasdan geografik nomning asl ma'nosi haqida xulosa chiqarish etimologik usulni ishonchsiz va bahstalar qilishi mumkin degan fikrni hayon qilgan. Ayrim mutaxassislarning fikricha, xususan, substrat toponimlarni o'rganishda etimologik usulga tayanish, ba'zan chalkashliklarga olib kelishi mumkin. Binobarin, real hayotda nomning paydo bo'lishida turki bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-tarixiy va geografik asosni e'tiborga olgan holda toponimni etimologiyasini aniqlash maqsadga muvofiq.

Hududiy toponimiyani *topoforantlar* yordamida, ya'ni nomlar tarkibida tez-tez takrorlanadigan old yoki oxirgi qo'shimchalarning o'xshashligiga qarab ham tadqiq qilish mumkin. Toponimlashuv jarayonida topoforantlar topoasoslarga qo'shilish yangi nom yasaydi. Toponimlarni formantlar yordamida o'rganish keyingi chorak asrda katta ahamiyat kash etdi. Bu usulning ko'pgina tarafdorlari uni juda muhim va ishonchli deb hisoblashadi. Nomlardagi elementlarning takrorlanishi ko'pincha ularning bir tipga xos ekanligidan dalolat beradi. Ammo, unitmaslik kerakki, nomning paydo bo'lishida asos bo'lib xizmat qilgan omillarni bilmasdan turib ularni formantlarga ajratish har doim ham yaxshi natija bermaydi.

Ko'pchilik tadqiqotchilar fikricha, nomni formantlarga qarab tahlil etishning qulayligi shundan iboratki, toponimlar tarkibida tez-tez takrorlanadigan qo'shimchalar ularning shakllanishi, etnik daxldorligi, tarqalish areali, ko'chma toponimlar haqida aniq ma'lumot beradi. Masalan,



Oʻrta Osiyoda, xususan, Oʻzbekiston va Tojikistonda sermahsul formantlardan biri – iston qoʻshimchasidir. Bu unsur mamlakat, oʻlka nomini yasaydi yoki biron narsaning koʻp ekanligini bildiradi. Afgʻoniston – “Afgʻonlar mamlakati, Oʻzbekiston – “Oʻzbeklar mamlakati” va hokazo.

**Statistik usul:** Toponimik tadqiqotlar natijasida qoʻlga kiritilgan maʼlumotlarni qayta ishlashda statistik usuldan foydalanib yaxshi natijalarga erishish mumkin. Bu usul yordamida maʼlum hududdagi geografik nomlarning sonini aniqlash, ularni boshqa hududdagi nomlar bilan taqqoslash, kelib chiqishi, qaysi tilga mansubligini foiz nisbatlarini oʻrganish imkoniyati mavjud. Statistik maʼlumotlar tadqiqotini mintaqa toponimlari haqidagi tasavvurini konkretlashtiradi va aniq xulosa chiqarishiga koʻmaklashadi. Toponimikaga oid kartografik maʼlumotlarni tahlil etishda statistik usulni qoʻllash yaxshi samara beradi.

Baʼzan, obʼektning nomlanishiga asos boʻlgan geografik, tarixiy va lisoniy sahablarni bevosita joyida aniqlash kerak boʻladi. Baʼzan, ancha murakkab toponimik muammoni yechimini topish uchun, geografik, tarixiy va lisoniy axborotlar kamlik qilishi mumkin. Bunday hollarda, qoʻshimcha holda dala maʼlumotlarini jalb qilish maqsadga muvofiq. Maʼlumki, dala tadqiqotlari, tashkil etilgan toponimik ekspeditsiyalar bevosita obʼekt bilan joyida tanishish, toponim va geografik terminlarning mohiyatini belgilash hamda ayrim xulosalarni toʻgʻri aniqlash imkonini beradi.

Dala sharoitida joy nomlarini oʻrganayotgan toponimist aynan bitta toponim bilan shugʻullanmasdan, maqsadli ravishda bir qancha joy nomlarining kelib chiqishi, etimologik mazmunining joyning tabiiy-geografik sharoiti bilan mos tushishi yoki tushmaslik darajasi, tarixi, etnografiyasi bilan taqqoslab koʻrish imkoniyatiga ega boʻladi. Xususan, etnonimlarni tadqiq etishda dala sharoitidan foydalanish yaxshi samara beradi. Masalan, Qashqadaryo viloyatida Toshkandi nomli qishloq bor.

Koʻpgina manbalarda, mahalliy xalqni Toshkentdan koʻchib kelib muqim yashab qolganliklari uchun, qishloq shunday atalgan degan axborot mavjud. Ammo, bunday emas, balki oʻzbeklarning yirik Qoziyaqli urugʻining bir boʻlimi Toshkandi deb atalishi va mazkur qishloqda shu urugʻ vakillari istiqomat qilayotganligi uchun, qishloq shunday nomlanganligini dala maʼlumotlari yordamida aniqlab isbotlash qiyin masala emas. Toponimik ekspeditsiyalar yordamida, bugungi kunda

turli sabablarga ko'ra yo'q bo'lib ketayotgan mikrotoponimlarni yig'ish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Toponimik tadqiqotlarda belgilangan natijaga erishish uchun tahlil va sintezning barcha metodlaridan, jumladan, eng qulay va samarali usullardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ba'zan, nomlashga turtki bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-tarixiy va geografik asoslarni bevosita mahalda, joyida aniqlashga to'g'ri kelishi mumkin. Bunday hollarda toponimik ekspeditsiyalar, mahaldagi geografik ob'ekt bilan bevosita yaqindan tanishish, joy nomining asl ma'no-mazmunini aniqlash, to'g'ri ilmiy xulosalar chiqarishda yordam beradi.

Tadqiqotchi ushbu jarayonda joy bilan yaxshi tanishadi, nomlashda asos bo'lgan tabiiy-geografik sharoitni o'rganadi va toponimning haqiqiy ma'nosini aniqlashda ularni solishtiradi. Bu ishda mahalliy aholi orasidan geografik ob'ekt haqida mukammal ma'lumot va tushunchaga ega bo'lgan bitimdon kishilarni jalb qilish ham ijobiy natija beradi. Shu sababdan, informator tanlashga jiddiy e'tibor qaratish lozim, ularni soni bir nechta bo'lgani ma'qul, chunki to'plangan ma'lumotlarni bir-biriga qiyosiy taqqoslash imkoni paydo bo'ladi.

Tadqiqotchi informatorlar tomonidan taklif qilingan har qanday ma'lumotga befarq bo'lmasligi kerak, aksincha ularni tanqidiy o'rganib, yakuniy xulosani o'zi chiqarishi shart. Toponimik tadqiqotlarda quyidagi manba va ma'lumotlardan foydalanish mumkin:

**a) Mahalliy dala ma'lumotlari.** Dala ma'lumotlari yordamida geografik nomlarni geografik ob'ektlarning xususiyatlariga mos kelishi, ularni transkripsiyasi, karta va ma'lumotnomalarda uchramaydigan nomlarni o'rganish mumkin;

**b) Yozma ma'lumotlar.** Bularga solnomalar, vaqf hujjatlari (yorliqlar), turli yuridik hujjatlar, kartalar, arxiv hujjatlari, ma'lumotnomalar va boshqalar kiradi. Ular yordamida toponimlarning yashovchanligi, axborot tashishi, o'zgarishlarga duchor bo'lishi, nomlashda turtki bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni belgilash kabi masalalar oydinlashadi.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. *Toponimika fanining ilmiy-tadqiqot usullari deganda nimani tushunasiz?*

2. *Etimologiya usulining afzalliklari va kamchiliklarini o'zaro taqqoslang.*

3. *Anketa-so'rov usulini tushuntirib bering.*

## Test topshiriqlari

### 1. Statistik usulning afzalliklari ...

- A. Mintaqa toponimlari haqidagi tasavvurni konkretlashtiradi.
- B. Kartografik ma'lumotlarni tahlil etishda yaxshi samara beradi va aniq xulosa chiqarishga ko'maklashadi.
- C. Nomlarni foiz nisbatlarini chiqarishga yordam beradi
- D. Barchasi to'g'ri.

### 2. Toponimik tadqiqotlarda kartografik usulni keng qo'llagan olimni aniqlang.

- A. Ye.Pospelov
- B. N.Nadejdin
- C. A.Popov
- D. V.Nikonov

### 3. Nomlarda ayrim elementlarni takrorlanishi nimadan darak beradi?

- A. Bir tipga xosligidan
- B. Bir xil omillar asos bo'lganligidan
- C. Etnik daxldorligidan
- D. To'g'ri javob yo'q

### 4. Toponimik tadqiqotlarda ko'proq tarixiy usulni qo'llash tarafdori bo'lgan olim kim?

- A. Ye.Pospelov
- B. S.Qoraev
- C. A.Popov
- D. T.Nafasov

### 5. "Har qanday toponimik tadqiqotlar geografik terminlarni o'rganishdan boshlanmog'i kerak" degan ibora kimga tegishli?

- A. E.Murzaev
- B. M.Mirakmalov
- C. N.Nadejdin
- D. H.Hasanov

## 2.2. Geografik ob'ektlarni nomlash qonuniyatlari

### *Reja:*

1. *Geografik ob'ektlarni nomlash qonuniyatlari haqida umumiy tushuncha.*
2. *Nomlash qonuniyatlari va tamoyillari.*
3. *Nomlash qonuniyatlari va oykonimlar.*

**Mavzuning maqsadi:** Geografik ob'ektlarni nomlash qonuniyatlari va ularga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida ilmiy bilim berish orqali nomshunoslik qonuniyatlari haqidagi tushunchalarni shakllantirish.

**Tayanch ibora va atamalar:** Geografik ob'ekt, umumiy nom, xususiy nom, toponimik pozitivlik, nisbiy negativlik, o'zlashma nomlar, qatorlar qonuni, xalqona etimologiya.

Insoniyat jamoa bo'lib, uyushgan holda yashay boshlagan paytlardan oq, ya'ni, til va jamiyat taraqqiyotining navhatdagi bosqichida o'zlari istiqomat qilayotgan joy va uning tevarak atrofini nomlash ehtiyoji paydo bo'lgan. Bu ehtiyoj dastlab geografik nuqtai nazardan yuzaga kelgan. Mo'ljal olish yoki bir manzilni ikkinchisidan farqlash geografik ehtiyoj hisoblanadi. Har qanday geografik ob'ektni to'g'ri nomlash doimo muhim va dolzarb masala hisoblangan, aslida yer yuzasidagi barcha ob'ektlar emas, balki, inson faoliyatida ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan yoki boshqa ob'ektlardan nimasi bilandir farq qilib, odamlar diqqatini o'ziga tortgan joylarga nomlangan.

Boshqacha aytganda, kishilik jamiyatini o'rab turgan geografik muhitda, ya'ni, uning inson xo'jalik fa'oliyati ta'sirida o'zgargan qismidagina har bir geografik ob'ektning o'z nomi bor. A.V.Superanskaya fikricha, tabiat yoki inson qo'li bilan yaratilgan va aniq adresga ega har qanday katta (okean, qit'a, materik) yoki kichik (uy, bog', quduq) «predmet»lar, ya'ni, geografik ob'ektlar o'z nomiga ega.

Boshqa predmetlardan geografik ob'ektlarning farqini ularning ikki xil nomlanishida ko'rish mumkin, umumiy, ya'ni, muayyan tushunchalar tizimidan iborat umumiy nomlar (mamlakatlar, viloyatlar, shaharlar, tumanlar, qishloqlar) hamda xususiy nomlar. Xususiy nom har bir geografik ob'ektning faqat o'ziga beriladi. Masalan, *Samarqand, Zomin, Baxmal, Andijon, Nukus, G'allaorol, Bo'stonliq* va hokazo.

Umumiy nomlar bir qancha geografik ob'ektlarni birlashtiradi. Masalan, O'zbekistonda bir necha ming aholi punktlari, qishloqlar mavjud; hunda aholi punkti, qishloq bu ob'ektning umumiy nomi, lekin har bir aholi punktining o'z nomi bor, u esa xususiy nom.

Toponimlarning paydo bo'lishi, turg'unlashishi, o'zgarishi yoki aksincha qayta nomlanishi jamiyatdagi o'zgarishlar bilan ham bog'liqdir. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, jamiyat hayoti va taraqqiyotida yuz bergan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar qisman joy nomlarining o'zgarishiga ham olib kelishi mumkin. Ma'lumki, inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ob'ektlar, jumladan, viloyat, tuman yoki katta-kichik aholi punktlari o'zining jamiyat hayotida tutgan o'rnini bilan alohida ajralib turadi. Bunday geografik ob'ektlar har qancha katta bo'lmasin, tabiiy-geografik ob'ektlarga nisbatan o'zining aniq belgilangan chegaralari bilan farq qiladi.

Mutaxassislarning fikricha, har bir nomning salmog'i birinchi navbatda u bilan bog'liq bo'lgan geografik ob'ektning qanchalik mashhurligi bilan belgilanadi. Nomning tanilishiga esa, geografik ob'ektning hududiy joylashuvi, davr va zamonda egallagan mavqei va bir qancha boshqa ijtimoiy – tarixiy omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida qayd qilingandek, geografik nomlar kishilik jamiyati taraqqiyotining dastlabki bosqichida ijtimoiy ehtiyoj tufayli paydo bo'lgan va davr indikator sifatida doimo jamiyatda sodir bo'layotgan turli o'zgarishlarni (siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, fan taraqqiyoti) o'zida aks etib boradi. Boshqacha aytganda, geografik nom har qanday ijtimoiy hodisa kabi, muayyan tarixiy davrda paydo bo'ladi va ularda insoniyatning anglash qobiliyatining evolyutsiyasi mujassam.

Toponimist olimlar qadimgi tillarda atoqli otlar bo'lmagan deyi-shadi. Masalan, Amerika, Afrika va Avstraliyani kashf etgan sayyoh olimlar tubjoy xalqlar – aborijenlar tilida atoqli otlarni juda kamligini qayd qilishgan. Ularda ko'pincha turdosh otlar, atoqli otlar vazifasini bajargan. Ma'lumki, joy nomini shakllanish jarayoni, uning muayyan bir ob'ektga bog'lanishi, turdosh otlarni turg'unlashishi va individuallashuvi bilan chambarchas bog'liqdir.

Ijtimoiy ong, iqtisodiyot va savdo aloqalari rivojlangan sari tushunchalar soni ortib, geografik nomlar grammatik va semantik jihatdan murakkablashib borgan. Shuni ham unitmaslik kerakki, geografik ob'ektlarni nomlash doimiy jarayon, chunki yangi shaharlar va qishloqlar barpo etilmoqda, fabrika, zavodlar qurilmoqda, yangi konlar

kashf etilayapti va hokazo. Bularning hammasiga yangi nomlar qo'yish kerak. Shu sababdan, mavjud toponimik qonuniyatlarni yaxshi o'zlashtirib olish kerak.

Shuni ham unutmaslik kerakki, toponim, ya'ni geografik nom bu – so'z, lekin hamma so'zdan ham joy nomi yasalavermaydi. Geografik nomlar ob'ektlarning shakl-shamoyili, past-balandligi, rang-tusi, flora va fauna dunyosi, hudud ekspozitsiyasi, orografiyasi kabi xususiyatlarni o'zida aks ettiradigan so'zlar bo'lishi shart. Masalan, odamlar o'simliklardan tabobatda qadimdan keng foydalanganligi uchun, dorivor va zinjvor o'simliklarning nomlari joy nomlari shaklida muhrlangan. Ba'zida, hup'dorchilik va dehqonchilik rivojlangan vohalarda ko'proq mevali daraxtlar va ekinlarning nomlarini toponimlar shaklida uchratsa bo'ladi, *Olmazor, Sebzor, O'rikli, Tutli* va hokazo.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, toponimga aylangan har qanday so'z yangi ma'no kasb etadi va asl ma'nosidan muayyan darajada uzoqlashadi. Demak, so'z toponimga aylanib yagona, konkret, yangi bir tushunchaga aylanadi va aniq bir geografik ob'ektni ifodalaydi.

Olimlar toponimik qonuniyatlarni o'rganib chiqib, geografik ob'ektlarni nomlashning bir qancha o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berganlar: toponimik pozitivlik, nisbiy negativlik, o'zlashma (kalka) nomlar, geografik nomlarning qatorlar qonuni va xalqona (soxta) etimologiya. Geografik ob'ektlarning nomlash qonuniyatlarini quyidagi jadvolda ham ko'rish mumkin, 2-jadval

| No | Nomlash qonuniyatlari | Toponimlar   |
|----|-----------------------|--|
| 1  | Toponimik pozitivlik  | Hasanko'prik, O'rtaqishloq, Tuyatortar, Uchquloqch, Beshquvur, Tuzdovon, Uchtepa.          |
| 2  | Nisbiy negativlik     | Yantoqli, Chuchukquduq, Mo'lali, Yong'ozli, Mo'lalubuloq, Egarbellitog', Pistalitog'.      |
| 3  | O'zlashma nomlar      | Hayotboshi – Sarihojat, Beshbarmoq – Panjangusht, Ilono'tdi – Morguzar.                    |
| 4  | Qatorlar qonuni       | Eski Bo'ston – Yangi Bo'ston, Kichik Bog'don – Katta Bog'don, Yuqori Uchma – Pastki Uchma. |
| 5  | Xalqona etimologiya   | Pishag'ar– Beshoqar, Tangili – Tangali, Jizzax – Do'zax, Forish – Parij                    |

Geografik ob'ektlarni nomlashda toponimik qonuniyatlar talablarining bajarilishi muhimligi sababli ularni tahlil qilish maqsadga muvofiq deb hisoblandi.

*Toponimik pozitivlik* – nomlar geografik ob'ektlarning tabiiy yoki ijtimoiy-iqtisodiy alomatlarini, ya'ni, real voqea-hodisalarni o'zida aks ettirishdir. Ko'pchilik geografik nomlarning vujudga kelishida oddiy geografik terminlar asosiy rol o'ynaydi. *Ariq, bog', buloq, dara, daryo, dovon, jar, ko'prik, ko'cha, tepa, tog', soy* va hokazo kabi geografik terminlarning oldiga yoki orqasiga bir ot, sifat, son yoki qandaydir qo'shimcha qo'shilsa, ob'ektlarning xususiyatlarini aks etdiradigan toponimlar hosil bo'ladi. Chunonchi, *Beshariq, Chuqurbuloq, Naymanariq, Otquduq, Eshonqishloq, Hasanko'prik, Tuzdovon, Uchtepa, Qoradaryo, Chorbog', Yomonjar* va boshqalar.

Geografik nom qancha qadimiy bo'lsa, uning ob'ekt bilan bog'liqligi shuncha ishonarli bo'ladi. Joy nomining etimologiyasini aniqlashda mavjud bir necha farazdan bittasini, ya'ni toponimning mazmuni va mohiyatiga bevosita to'g'ri keladiganini tanlash ijobiy natija berishi mumkin. Masalan, *O'rtaqishloq* deganda qishloq yon-atrofdagi aholi punktlariga nisbatan oraliq mavqega ega ekanligi aniq yoki *Quduqcha* nomi «kichkina quduq» emas, aksincha «quduq ko'p» degani, oqar suv bo'lmaganidan ko'pchilik quduqlardan suv ichganligi sababli shunday nomlangan.

Geografik nomlar real voqealikka aks etdirishi tufayli ham qimmatlidir. O'zbekiston geologlari talay konlarni topishda toponimlarning roli katta ekanligini alohida qayd qilganlar. Chunonchi, mutaxassislar oltin konlarini aniqlashda joy nomlari tarkibidagi *oltin, zar, tilla* kabi terminlar indikator bo'lib xizmat qilganini e'tirof etishgan. Shunindek, *Oqtosh* degan joylardan ham oltin topilgani qayd etilgan. Chindan ham xalq oqtosh deb ataydigan kvarts minerali tarkibida oltin bo'ladi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston konlarida oltin asosan kvarts tarkibidan olinadi.

Yana bir misol. X asr arab geograflari Istaxriy va Muqaddasiy o'z asarlarida Shosh viloyatidagi *Ko'hisim* qishlog'i to'g'risida ma'lumot yozib qoldirganlar. Geologlar keyincha, haqiqatdan ham, qishloq atrofidagi ruda jinslari orasida kumush borligi va qadimgi davrlarda ko'plab kumush qazib olinganganligi aniqlashgan. *Ko'hisim* – (tojikcha, «kumush tog'») o'rta asrlarda Iloqdagi mashhur konlardan biri bo'lgan.

V.V.Bartold fikricha, *Ko'hisim* Ohangarondan janubda, *Obliq* qishlog'i ro'parasida bo'lgan, ya'ni, hozirgi *Kumushkon* aholi punkti

o'rniga to'g'ri keladi. Tarixiy geografiyadan ham ma'lumki, geografik nomlar yordamida qadimda qaerlarda qanday o'simlik turlari o'sganini, qanday hayvonlar yashaganini yoki qanday qabila va urug'larning qaerlarda o'rnashib qolganini bilib olsa bo'ladi.

**Nisbiy negativlik** – ma'lum bir hududda bir xil predmet ko'p bo'lganda u joyning nomi uchun belgi bo'lolmaydi. Odatda shu joyda kam, kishilar nazariga tez tashlanadigan belgilar, narsalar geografik ob'ektlarning nomlanishida asos qilib olinadi. Masalan, yantoqzor joyda *Yantoqli*, sho'r suvli yerda *Sho'rsuv*, bulog'i ko'p darada *Buloqli* degan geografik nomlarning yaratilishi toponimika uchun xos emas. Agar nuqul olma, o'rik o'sadigan hududning biron burchagida yong'oq o'ssa, ulduzta o'sha joy *Yong'oqli*, suvi sho'r bo'lgan cho'lda shirin suvli quduq topilsa, *Shirinquduq* yoki *Chuchukquduq* deb ataladi.

Hamma tomonni Qizilqumni qumlari egallagan Forish tumanining cho'l qismida *Mo'la* degan aholi punkti bor. *Mo'la* – tuproq uyib, g'ishi yo tosh qalab, baland qilingan so'risimon belgi. *Mo'la* kuzatish, qo'riqlash, xabar berish ob'ekti bo'lgan. Qumlar orasida kishilar nazariga tez tashlanadigan bunday geografik ob'ektning mavjudligi joy nomiga asos qilib olingan. O'zbekistonda yuzdan ziyod aholi punktlarining *Paxtakor* deb atalishi to'g'ri emas. Sobiq sho'rolar davrida *kommunizm*, *sotsializm*, *oktyabr* kabi oddiy turdosh otlarning toponimlar shaklida bolalab ketishi ham toponimikaning bu qonuniga zid edi.

Joyga boshqa yerlardan farq qiladigan xususiyatiga qarab nom qo'yiladi. V.A.Nikonov *nisbiy negativlik qonuni* deb atagan. Geografik ob'ektni nomlashda asos bo'lgan belgi ana shu joyning asosiy xususiyati bo'lmasligi ham mumkin. Masalan, Kattabuloq, Uzunquduq umuman eng katta buloq yoki eng chuqur quduq degan ma'noni bermaydi, balki ana shu muayyan hudud doirasidagina u eng katta buloq yoki eng chuqur quduq demakdir.

**O'zlashma nomlar (tarjima nomlar) qonuni** – toponimikadagi bu qonuniyatning mohiyati shundaki, geografik nomlarning shakli, eshiti-lishi o'zgargani bilan, ammo mazmuni o'zgarmasdan qoladi. Masalan, Zarafshon daryosi etagida o'rta asrlarda uzunligi 70-80 chaqirim keladigan katta ko'l bo'lgan. Ko'lda qayiqlar, hatto kichikroq kemalar qatnab turgan. Shuning uchun ham Zarafshon daryosining hozirgi o'zani-dan bir necha kilometr uzoqlarda ham *Kemachi*, *Kishti*, *G'ishti* degan qishloqlar bor. *Kishti* tojikcha «kema», «qayiq» degan so'z. O'sha katta ko'l sug'd tilida *Somjon* deb atalgan. *Somjon* «qoramtir suv» degani, demak *Qorako'l* ana shu *Somjon* toponimining tarjimasidir, kalkasidir.



O'zbekistonda *Qizilsuv – Surxob, Qorasuv – Siyohob, Oqsuv – Safedob* kabi nomlar uchraydi. Qadimda yunonlar Amudaryoni Oksus, narigi tomonini, ya'ni shimol tomonini *Transoksiana* «Oks daryosining narigi tomoni, Oks orqasi» deyishgan, uni arablar o'z tillariga aynan tarjima qilib *Movarounnahr* «daryo orqasi» deyishgan. Oks qadimiy turkiy tildagi *O'kuz* so'zining yunoncha talaffuz shakli, demak Transoksiana ham turkiy O'kuzorti toponimining kalkasi, tarjimasi bo'lishi mumkin.

Yana bir misol, Nurota tog'larining eng baland cho'qqilaridan biri Forish tumani *Uxum* qishlog'ining hududida joylashgan. Uzoqdan qaraganda inson barmoqlariga o'xshaydigan bu cho'qqini tojiklar *Panjangusht* deb ataydi (tojikcha, panj-«besh», angusht-«barmoq»), o'zbeklar esa uni *Beshbarmoq* deyishadi. Nurota tog'larining eng baland nuqtasi mahalliy aholi tomonidan Sarihojat deb ataladi, ammo kartalarda ko'pincha uning tarjimasi (kalkasi) Hayotboshi (2169 m.) berilgan.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, sobiq Ittifoq davrida ruscha «krasniy» so'zining kalkasi (kalka – frantsuzcha, *calque* – «kopiya, nusxa») sifatida qizil komponentli toponimlar bolalab ketgan edi. Chunonchi, *Qizil chorvador, Qizil kazarma, Krasniy Luch, Qizil Oktyabr, Krasnogvardeysk* va hokazo. Xorijiy toponimlarni o'zlashma nom sifatida mahalliy geografik nomenklaturaga olib kirish maqbul ish emas, chunki uning manzil aniqlovchi xususiyati pasayadi.

**Geografik nomlarning qatorlar qonunining** – mohiyati joy nomlari hech qachon yakka – yolg'iz, o'z holicha paydo bo'lib qolmaydi, balki har doim bir-biriga nisbatan nomlanadi degan xulosada ko'rinadi. Ikki geografik ob'ektni bir – biridan farq qilish uchun *Quruqsoy – Suvlisoy, Yangishahar – Eskishahar, Oqsuv – Qorasuv, Uzunsoy – Kaltasoy* kabi qo'shaloq toponimlar paydo bo'lgan. V.A.Nikonovning ta'kidlashicha, «joy nomining kelib chiqishini aniqlash uchun eng avvalo u yagona emas, balki boshqa nomlar qatorida paydo bo'lganligini tushunish muhimdir».

Masalan, *katta – kichik* (Katta Bog'don – Kichik Bog'don), *baland – past* (Balandchaqir – Pastkichaqir), *past – yuqori* (Yuqori Uchma – Pastki Uchma), *eski – yangi* (Eski Bo'ston – Yangi Bo'ston), kabi sifatlardan tarkib topgan nomlar talaygina topiladi, ulardan biri aniqlansa, albatta ikkinchisini ham topsa bo'ladi. Ana shu sifatlarning toponimning xususiyatiga ko'ra ham, yonma-yon joylashgan geografik ob'ektlarni bir-biridan farq qilish uchun xizmat qiladi. Toponimlarning ana shunday

yonma-yon kelishini, ularning bir-biriga nisbatan nom olishini V.A.Nikonov qatorlar qonuni deb atagan.

**Xalq etimologiyasi yoki soxta etimologiya** – geografik nomlarni jonli tildagi talaffuzi va ma'no-mazmunini o'xshashligiga qarab talqin qilish usuli. Xalq etimologiyasi muayyan nom ma'nosini aniq faktlarga asoslanmagan holda, faqat tovush tomonining tasodifiy o'xshashligiga qarab, shunidek, afsona va rivoyatlarga tayanib izohlashdan iborat. Bu usul tadqiqotchini nomning haqiqiy ma'nosini aniqlashdan uzoqlashtiradi. Aslida mahalliy aholiga tushunarsiz bo'lib qolgan nomlarni qayta izohlash kishilarni tabiatiga xos xislat, tilda keng tarqalgan hodisa.

Nomning bunday talqin qilishda ko'pincha, tarixiy va geografik sharoitlar hamda lingvistik qonuniyatlar inobatga olinmaydi. Natijada, toponim umuman boshqa ma'no kash etishi mumkin. Boshqacha aytganda, xalq etimologiyasi – xalqning toponimik ijod mahsuli namunasi sanaladi. O'zining mohiyatiga ko'ra xalq etimologiyasi, geografik nomning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, uning ma'no-mazmunini yangicha talqin qilish demakdir.

Toponimik tadqiqotlar davomida, bunday joy nomlarning etimologiyasini aniqlashda ularni sinchiklab o'rganish kerak. Toponimik rivoyatlar – xalq etimologiyasining mahsulidir. Masalan, Shveysariya poytaxti *Bern* shahri nomi haqida shunday rivoyat bor. Mahalliy hukmdorlardan biri shikor vaqtida ayiq ovlaydi va uning sharafiga shu joyda shaharqa asos solib uni Bern (nemischa, Bar – «ayiq») deb ataydi. Bern shahrining gerbida ham ayiq tasvirlangan. Ammo, bu toponimik rivoyat va geografik nomning haqiqiy ma'nosiga asos bo'lib xizmat qilgan – kelt tilidagi bren (tepa, tog') so'ziga hech qanday aloqasi yo'q.

*Gelenjik* shahri (Krasnodar o'lkasi, Rossiya) nomiga turk tilidagi «gelinchek» so'zi asos bo'lgan deb hisoblashgan. XVI asrda ushbu hududlarni bosib olgan usmoniy turklar, shahardan go'zal tog'li qizlarni turk boylari haramiga olib ketish uchun foydalangan degan rivoyat mavjud. Turkcha «gelinchek» so'zining talaffuzda shahar nomiga o'zaro o'xshashligi soxta etimologiyani paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Geografik nomning haqiqiy ma'nosi esa adigey tilidagi «kichik yaylov» ma'nosidagi so'z bilan bog'liq.

Xalqona etimologiyaga asoslangan geografik nomlar respublika toponimiyasida ham ko'plab topiladi. Masalan, Jizzaxni «do'zax», Qo'qonni «xuk kon», ya'ni «to'ng'izi ko'p joy» deb, Namanganni namak kon «tuz koni» deb talqin qilish soxta etimologiyadan boshqa

narsa emas. Forish oykonimi haqida O'zbekiston milliy entsiklopediyasida quyidagicha ma'lumot berilgan: "mahalliy ma'lumotlar bo'yicha tuman nomiga o'tgan Forish qishlog'ining nomi Amir Temur Samarqand atrofida qurdirmoqchi bo'lgan "Parij" shahri nomidan olingan. Keyinroq mahalliy xalq shevasida bu atama Forij, Farish, Forish deb o'zgarib borgan degan taxmin mavjud". Aslida esa Forish so'zining paydo bo'lishida so'g'd tilida "qal'a etagi" ma'nosidagi Porasht oykonimi asos bo'lib xizmat qilgan.

O'zbekiston joy nomlari tizimidagi eng qadimgi nomlar qatoriga oykonimlarni ham kiritish mumkin. Ularning ayrimlari uch ming va undan ortiq yillar avval yaralgan. Eng qadimgi nomlar tarkibi o'zgarib, tildagi boshqa so'zlarga o'xshab qolgan. Natijada qadimiy nom bilan uning hozirgi shakli o'rtasida shakliy va mazmuniy nomutanosiblik hosil bo'lgan. Ko'pincha soxta etimologiya turli xil ishonishi qiyin, ammo, qiziqarli rivoyatlar bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, Uchqiz, Qirqqiz, Qizketgan kabi nomlarning tarkibidagi qiz so'zi rivoyatlar yaratilishiga asos bo'lgan.

T.Nafasov o'zbek tilining hozirgi so'zlar majmuida toponimlar yasashga aloqador bo'lgan qiz so'zi yo'q, ammo, uning X asrgacha bo'lgan o'tmishida quz so'zi bo'lganligini qayd qilgan. Quz so'zi qadimda tik uch, ko'lami yuksak bo'lgan tog', yer yuzasidan ancha chiqib turgan balandlik kabi ma'nolarga ega bo'lgan. Ana shu ma'nolar zahirida quz so'zli nomlar yaralgan. Keyinchalik quz so'zi til muomalasidan chiqib ketganligi bois, uni o'rmini hozirgi kunda tushinarli bo'lgan qiz so'zi egallagan. Xalq izohi, xalq etimologiyasi hisoblangan rivoyat va afsonalar xalq ijodi namunasi sifatida o'ziga xos ahamiyatga ega. Xalq og'zaki ijodining eng qizig'i, suyuksisi, ibratlisi bo'lgan rivoyat va afsonalarni yig'ish, tartibga solish etnograf va folklorshunoslar vazifasi hisoblanadi.

H.Hasanov qayd qilganidek, haqiqiy, ilmiy talqin nomning bag'rida yashiringan tarixni, ma'naviyatni, xalq tafakkuri va madaniyatining in'ikosi ekanligini nazardan soqit qilmaslik zarur. Shuni unutmaslik kerakki, nomlar turlicha yo'llar bilan paydo bo'ladi va ba'zan bir necha ming yillik tarixga ega. Xalq jonli tilidagi so'zlardan tarkib topgan, hech qanday buyruq va ko'rsatmasiz, ma'no-mazmun, fonetik va grammatik jihatdan to'g'ri qo'yilgan geografik nom chinakam xalq mulkidir. Toponimikaning yuqorida ko'rsatilgan qonuniyatlarini bilmasdan turib, faqat chiroyli so'zlardan iborat geografik nomlar qo'yish esa tarixga, tilga, fanga ko'ngildagidek xizmat qila olmaydi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. *Geografik ob'ektlarni nomlash qonuniyatlari qaysi olimlar tomonidan o'rganilgan?*
2. *Qazilma boyliklarni aniqlashda geografik nomlar qanday ahamiyatga ega?*
3. *Nomlar va xalq og'zaki ijodi orasida qanday bog'liqlik bor?*

### **Test topshiriqlari**

1. **Toponimik pozitivlik qonuniyati mazmuni nimadan iborat?**
  - A. Nom real voqealikni aks etadi
  - B. Nom real voqealikni aks etmaydi
  - C. Nom tasodifiy paydo bo'lgan
  - D. To'g'ri javob yo'q
2. **Quyidagi ta'rif qaysi toponimik qonuniyatga tegishli? Geografik ob'ektning tabiiy yoki ijtimoiy-iqtisodiy alomatlarini, ya'ni real voqea-hodisalarni o'zida aks etadi.**
  - A. Nisbiy negativlik
  - B. Toponimik pozitivlik
  - C. O'zlashma nomlar
  - D. Xalqona etimologiya
3. **O'zlashma (kalka) nomlar bu...**
  - A. Tarjima qilingan nomlar
  - B. Mu'носи bir xil nomlar
  - C. Mu'носи bir umma, ikki tilda ikki xil ataladigan nomlar
  - D. Barchasi to'g'ri
4. **Toponimlarni yonma-yon kelishi, ularni bir-biriga nisbatan nom olishi qaysi qonuniyat mahsulidir?**
  - A. Xalqona etimologiya
  - B. Qatorlar qonuni
  - C. O'zlashma nomlar qonuniyati
  - D. Nisbiy negativlik qonuniyati
5. **"Jarboshi" nomi qaysi qonuniyat mahsuli hisoblanadi?**
  - A. Nisbiy negativlik
  - B. Soxta etimologiya
  - C. Toponimik pozitivlik
  - D. O'zlashma nomlar

### 3-mavzu: TOPONIMLARNING PAYDO BO'LISH SABABLARI. TOPONIMIKA VA XALQ GEOGRAFIK TERMINLARI

#### 3.1. Toponimlarning paydo bo'lishi sabablari

##### *Reja:*

1. *Toponimlashish jarayoni haqida umumiy tushuncha.*
2. *Geografik nom va uni paydo bo'lishi sabablari.*
3. *Joy nomlarning shakllanish jarayonidagi ayrim qonuniyatlarning mohiyati.*

**Mavzuning maqsadi:** Toponimlashish jarayoni, turdosh so'zlarni geografik nomga aylanish sabablari, nomning adreslik funksiyasi hamda toponimlarning shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan ayrim qonuniyatlarning mohiyati bilan tanishtirishdan iborat.

**Tayanish ibora va atamalar:** Turdosh ot, toponimlashish jarayoni, atoqli ot, tasodifiy nomlar, rasmiy nomlar, nomni konkretlashishi va individuallasuvi, nomni yangi ma'no kasb etishi, nom hamda tabiat va jamiyat aloqadorligi.

**Toponimlashish jarayoni.** Beqiyos lisoniy, tarixiy va geografik yodgorlik hisoblangan geografik nomlar muayyan tilda xalq tomonidan yaratilgan va o'sha davrning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayoti haqida qimmatli axborot manbai hisoblanadi. Toponimlarning paydo bo'lishi masalasi bir qarashda juda oddiy bo'lib ko'rinsa ham, aslida ular muayyan qonuniyatlarning asosida shakllangan bo'ladi. Inson paydo bo'lgan davridan boshlab har qanday diqqatini tortgan tabiiy ob'ektga zarurat yuzasidan nom bergan va ular asosan oddiy turdosh so'zlardan iborat bo'lgan. Turdosh so'zlarning ayrimlari keyinchalik atoqli otga – geografik nomga aylangan. Masalan, qadimiy turkiy tillarda katta daryoga nisbatan «o'kuz», «edil» so'zi ishlatilgan. Bu so'zlar keyinchalik daryolarga atoqli ot bo'lgan: O'kuz – Amudaryo, Edil – Volga.

V.A.Nikonovning yozishicha, dastlab berilgan nomlar ko'pincha tasodifiy bo'lib, rasmiy nomlar keyinchalik paydo bo'lgan. Ba'zan nom birdaniga berilgan bo'lsa, ko'pincha bu jarayon muayyan muddatga cho'zilgan. Kishilar jamoa bo'lib, uyushgan holda yashay boshlagan paytlardan o'zlari istiqomat qilayotgan joy va uning tevarak atrofini nomlash ehtiyoji paydo bo'lgan. Mutaxassislarning fikricha, mo'ljallanish yoki bir manzilni ikkinchisidan farqlash ehtiyoji dastlab geografik nuqtai nazardan yuzaga kelgan.

Ma'lumki, ibtidoiy odamning til lug'aviy boyligi katta bo'lmagan. Geografik ob'ektlarni nomlash jarayonida ham uni imkoniyatlari ham ma'lum darajada cheklangan. Natijada daryo, ko'l, dengizni hitta so'z bilan – suv, tepa, qir, tog'ni – tosh deb atashgan. Shu sababdan hozirgacha daryo nomlari tarkibida suv so'zining saqlanib qolishi oddiy hol tuyuladi: Qorasuv, Qizilsuv va boshqalar. Amerikalik toponimist Dj.R.Styuartning qayd qilishicha, hozirgacha aniqlangan qabilalar va ularni o'rab turgan tabiiy ob'ektlarning ko'pchiligi oddiy so'zlar bilan nomlangan.

Atoqli otlar hisoblangan geografik nomlar til taraqqiyotining qiyosan keyingi bosqichlarida turdosh otlar (appelyativlar)dan kelib chiqqan. Vaqt o'tishi bilan turdosh otlar va so'z birikmalari turg'unlashib ma'lum bir geografik ob'ektlarni ifodalagan. Demak, umumiy tushunchalarning konkretlashishi va individuallasuvi natijasida asta sekin atoqli otlar – geografik nomlar paydo bo'lgan. Masalan, katta jar so'zi aniq bir geografik ob'ektni ifodalamas ekan, u salbiy relief shaklini bildiradigan turdosh ot, appelyativ bo'lib qolaveradi. Shunday qilib toponimlar geografik tushunchalarning individuallasishi, konkretlashishi natijasida paydo bo'lgan va bu jarayon davom etaveradi.

Ma'lumki, nomlash doimiy jarayon va nom o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi uning ijodkori, muallifi xalq. Shu sababdan, aholi yashamaydigan hududlarda joy nomlari kam yoki umuman yo'q. Chunki, muqim aholi yashanmaganligi sababli nomlashga ehtiyoj ham bo'lmagan. Kurai zaminning ko'plab qaysiz cho'llarida yoki baland tog'li aholi yashamaydigan hududlarida hatigacha nomlanmagan ko'plab geografik ob'ektlarni topish mumkin. Vaqt o'tishi bilan cho'llar o'zlashtiriladi, suv keltiriladi, kanallar, yo'llar, aholi manzilgohlari quriladi, shular bilan birga geografik nomlar ham paydo bo'ladi. Masalan, Antraktidaning muz bilan qoplangan ichki sahrolarida yaqingacha geografik nomlar umuman bo'lmagan. Oxirgi yarim asr davomida materikni jadal o'rganilishi natijasida minglab yangi nomlar paydo bo'ldi.

Toponimlashish odatda dastlabki umumiy tushunchaning muayyan bir ob'ektga bog'lanishi jarayonida ro'y beradi. Shuning uchun bir so'zning o'zi yoki so'z birikmasi ayni vaqtda turdosh ot bo'lishi ham (agar tushuncha konkret bir ob'ektni ifodalamas) yoki toponim (geografik ob'ektni bildirsa) ham bo'lishi mumkin. Turdosh ot atoqli otga aylangandan keyin, u o'zi ifodalagan geografik ob'ektning belgilaridan uzoqlashadi. Geografik nom nutqda shu ob'ektning boshqalardan farqli

nishonalarini ta'kidlashga emas, balki konkret ob'ektni boshqalardan ajratib ko'rsatishga xizmat qiladi.

Toponimga aylangan so'z yangi ma'no kasb etadi, endi u konkret, yagona, yangi bir tushunchaga aylanadi va ko'pincha aniq geografik ob'ektni nomini anglatadi. Masalan, tangi so'zi tabiiy geografik termin sifatida «tor dara», «ensiz tog' oralig'i» ma'nosini bildiradi, ammo u qishloq nomiga o'tgandan keyin, u aholi punkti nomi sifatida asl ma'nosidan ma'lum darajada uzoqlashadi va faqat yagona bir geografik ob'ektni ifodalaydi. Aniqroq qilib aytganda, boshqa oykonimlar kabi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etib, jamiyatning turli ehtiyojlariga xizmat qiladi.

Yuqorida qayd qilingandek, so'zning odatdagi ma'nosidan uzoqlashishi va muayyan bir ob'ekt bilan bog'liq konkret, individual tasavvurning paydo bo'lishi toponimlashish jarayoni sanaladi. Shunday qilib toponimning asosiy vazifasi – hitta ob'ektni boshqa shunga o'xshash ob'ektlardan ajratib ko'rsatishdan iborat. V.A.Nikonov geografik nomlarning bu xususiyatini – adreslik (manzilni belgilovchi) funksiyasi deb atagan. Toponim – geografik ob'ektni alohida ajratib ko'rsatadi va manzilini aniqlash imkonini beradi. Ba'zan, toponimga aylangan so'zga joy nomlariga xos bo'lgan qo'shimchalar qo'shiladi. Chunonchi, O'zbekiston toponimlari, xususan oykonimlari uchun – *obod* (*Dehqonobod, Sherobod*), – *iston* (*Guliston, Bog'iston*), – *zor* (*Chilonzor, Olmazor*), – *li* (*O'roqli, Oqto'nli*), – *kor* (*Paxtakor, Lalmikor*), – *cha* (*Quduqcha, Qoracha*) kabi affikslar xarakterlidir.

Hozirgi vaqtda geografik nomlarning toponimlashish darajasi ham turlicha. Ko'pincha vaqt o'tishi bilan toponimlar grammatik va semantik jihatdan hozirgi shakliga kelgunga qadar muayyan o'zgarishlarga duchor bo'ladi. Ba'zi bir toponimlarda so'zlarning joy nomiga aylanmasdan oldingi ma'nosi aniq bilinadi, boshqasida qisman saqlanib qolgan, uchinchi bir xil nomlarda u deyarli sezilmaydi, ayrim toponimlarda esa umuman yuqolib ketgan bo'lishi mumkin. Shu sababdan, ma'nosi tushunarsiz bo'lib qolgan geografik nomlarni bir oz o'zgartirib, ularni tilni hozirgi holati bilan izohlash to'g'ri emas, chunki bunday nomlar qadimiy tillardan qolgan qimmatli yodgorlik sanaladi.

Mutaxassislar toponimlarni paydo bo'lishiga qarab ikki turga bo'lishgan: tabiiy yo'l bilan, xalq tomonidan qo'yilgan nomlar va rasmiy-ma'muriy tarzda qo'yilgan nomlar. Rasmiy ma'muriy tarzda berilgan har qanday nom ham o'z tarixiga ega va shu davrning ehtiyoji bilan

bog'liq holda paydo bo'lgan. Masalan, *Pokiston* davlati nomi ham o'ziga xos tarixga ega. 1931 yili Buyuk Britaniya hukumati tashabbusi bilan Londonda Hindistonni boshqaruviga oid yangi Qonun loyihasini muhokima qilish uchun konferentsiya tashkil etiladi. Konferentsiya munosabati bilan panjoblik Choudri Rahmat Ali Hindiston konstitutsion tuzilishining yangi rejasini tuzadi. Unga binoan asosan musulmonlar yashaydigan Hindustonning shimoliy-g'arbiy qismida Pokiston nomi bilan yangi mustaqil davlat tashkil etish taklif qilingan.

Angliya mustamlakasi davrida hind musulmonlari milliy harakati rahbarlaridan biri bo'lgan Choudri Rahmat Ali musulmonlar yashaydigan Panjob, Afg'oniya, Kashmir, Sind va Balujiston viloyatlarini birlashtirishni o'ylagan. Mazkur viloyatlar nomini bosh harfiga «-iston» qo'shimchasini qo'shish yo'li bilan Pokiston nomini paydo qilgan. Nomning muvaffaqiyatli chiqishida yangi mamlakatga davlat tili sifatida taklif qilingan urdu tilida pok so'zi – "toza, ozoda" ma'nolarni ifoda etishi ham sabab bo'lgan. Shunday qilib rasmiy-ma'muriy tarzda paydo bo'lgan Pokiston nomi – poklar yurti, islom mamlakati degan ikkinchi ma'noni ham kasb etgan. Boshqa misol, 1482 yilda sayyoh olim Bartolemeo Diash boshchiligidagi ekspeditsiya Afrikani aylanib Hindustonga bormoqchi bo'ladi. Materikning janubiy – g'arbiy qismidagi burun yaqinida qattiq dovulga duch kelib, u yerdan o'tolmay orqasiga qaytadi va burunga "*Bo'ronlar burni*" deb nom beradi. Portugaliyaga qaytganida uni mamlakat qiroli qabul qilib, kartadagi "*Bo'ronlar burni*" nomini o'zgartirib, "*Yaxshi umid*" deb yozib qo'yadi. Shu yo'l bilan dunyo kartasida "*Yaxshi umid*" burni nomi paydo bo'lgan.

Yuqorida qayd qilinganidek, geografik nomlar xalq og'zaki ijodi mahsuli va ko'pincha, ularning paydo bo'lishiga real voqealik sabab bo'lgan. Geografik ob'ektlarni nomlashda ijtimoiy ehtiyoj asosiy omil sanaladi. Shuni ham ta'kidlash joizki, nomlash ehtiyoji tilga bog'liq bo'lmagan holda vujudga kelsa ham, ammo u til vositasi yordamida paydo bo'ladi. Nom tanlashda kishilar dastlab geografik ob'ektning ko'zga tashlanadigan va boshqalardan farq qilib turadigan alomatlariga e'tibor berishgan. Ob'ektga xos belgilarni tanlash esa uning geografik o'rni, tabiiy sharoiti, tarixiy va etnomadaniy xususiyatlari, xo'jalik faoliyati kabi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Belgi (alamat) – geografik ob'ektlarni nomlashda asosiy psixologik kategoriya hisoblanadi. U tanlangan nomni asoslaydi, toponimni paydo bo'lishi sabablarini tasdiqlaydi. Qadimda dastlabki nomlar mahalliy



xalq tomonidan kundalik hayotda doimiy foydalanilayotgan ob'ektlarga berilgan. Avvallari doimiy yashash manzillari bo'lmaganligi bois, ko'pincha nomlash ob'ekti bo'lib daryo, ko'l, bo'loq va boshqa geografik ob'ektlar xizmat qilgan. Keyincha doimiy aholi manzilgohlari paydo bo'lishi bilan nomlash uchun ular asosiy mo'ljalga aylangan.

Ijtimoiy ong rivojlangan sari tushunchalar soni ortib geografik nomlar murakkablashib boradi. Kishilik jamiyatining rivojlanishi va kundalik ehtiyojlarining ortib borishi yangi hududlarni va tabiatning tarkibiy qismlarini o'zlashtirishga olib kelgan, bu esa o'z navbatida joy nomlarinig ko'payishiga sabab bo'lgan. Geografik nomlarda o'lkaning ko'pgina tabiiy xususiyatlari, aholining xo'jalik faoliyati, jamiyatdagi ko'p asrlar davomida sodir bo'lgan tarixiy, ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar ham o'z aksini topgan. Shu narsa diqqatga sazovoriki, «nima uchun shunday nomlangan», degan savolga javob berish vaqtda toponimga asos bo'lib xizmat qilgan so'zni ta'riflab uni geografik ob'ekt bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatib berish kerak. Agar bu aloqadorlik ishonchli bo'lsa, unda toponimga asos bo'lgan so'z ham ishonarli va geografik nomning ma'nosi ham isbotlangan hisoblanadi.

Ma'lumki, o'simliklar va hayvonot dunyosi tabiat boyliklari hisoblanadi. Inson qadim zamonlardan boshlab ularni o'rganish, arealini aniqlash, ulardan me'yorida foydalanishga harakat qilgan. Masalan, Andijon, Toshkent, Jizzax viloyatlari toponimiyasi tarkibida Betaga, Betagali, Betagalisoy kabi joy nomlarini uchratish mumkin. Betaga-butasimon o'simlik, mahalliy xalq uning chorva uchun ozuqaboh o'simlik ekanligini bilgan holda, ushbu joylarga shunday nom bergan. Bobur betaga o'simligiga ajoyib ta'rif bergan. «Andijonda bu o'tni butka derlar, vajhi tasmiyasi ma'lum emas edi, bu viloyatlarda ma'lum bo'ldi. Bu o't buta-butacha chiqar uchun uni butaka derlar emish». Bu o't haqiqatdan ham to'p-to'p bo'lib o'sadi. Bobur aytganidek, betagani ayniqsa yilqi yaxshi ko'radi, betagali yaylovda yurgan biya yaxshi semiradi, qimizi yog'li va yoqimli bo'ladi.

Joy nomlari, tabiat va jamiyat aloqadorligi masalasini o'rganuvchi ijtimoiy-iqtisodiy geografiya uchun ham ko'pgina ma'lumotlar beradi, chunki xalq turmush tarzining turli tamonlari geografik nomlarda o'z aksini topgan. Masalan, aholi punktlari nomlarini boshqa geografik ob'ektlar nomlaridan ko'ra muhimroq deb hisoblash mumkin, sababi ularda mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayoti o'z in'ikosini

topgan. Oykonomlar yordamida aholining qadimiy xo'jalik yuritish shakllari, ishlab chiqarishning yetakchi tarmoqlari, qazib olingan foydali qazilma joylari, o'tmishdagi karvon yo'llari, rivojlangan hunarmandchilik turlari, xalqlarning migratsiyasi, tarqalish areali kabi masalalarga oydinlik kiritish mumkin.

Xalq turnushining turli ijtimoiy - iqtisodiy jabhalari ham geografik nomlarda o'z aksini topgan. Ma'lumki, xalqimiz qadimdan turli kasb-hunarlar bilan shug'ullanib kelgan. O'tmishdagi kasb-hunarlarning ak-sari yo'q bo'lib ketgan bo'lsa ham, ammo ular geografik nomlar tarkibida hozirgacha saqlanib qolgan. Respublikaning turli mintaqalaridagi *Pichoqchi, O'qchi, Sandiqchi, Temirchi, Mahsido'z, Parchabof, Misgaron, Kamongaron, Naqqoshon, Taqachi, Degrez, Zargarlik, Qassoblik, Sovungarlik* deb, atalgan joy nomlari mahalliy xalqning kasb-hunarlaridan darak beradi.

Masalan, *Ohangaron* shahrini nomi temirchilar degan ma'noni beradi va toponim aholining o'tmishdagi kasb-koriga ishoradir. Xuddi shu kabi Samarqand shahridagi *So'zangaron* mahallasi ahlining asosiy mashg'uloti igna, juvaldiz, bigiz kabi mahsulotlar tayyorlash bo'lgan. Respublika joy nomlariga nazar tashlab hoshqa kasb-hunarlar qatorida kulolchilik ham ancha rivojlanganligini aniqlash mumkin. *Kulolon, Kulolchi, Kulollik, Tandirchi, Kosagaron, Tavoqchi* kabi qishloq va mahalla nomlari bunga yaqqol misoldir. Joy nomlari tarkibida to'quvchilik kasbiga aloqador qator geografik nomlar uchraydi va ular to'quvchilik kasbi tarixi ancha qadimgi davrlarga borib taqalishidan dalolat beradi. *Baxmalbof, Gilumbof, Buyrabof, Parchabof* kabi aholi punktlari nomlarida mahalliy xalqning to'quvchilik kasbi bilan shug'ullanganligini ko'rsatuvchi «iz»lar saqlanib qolgan.

Tikuvchilik kasbi ham xalqimiz orasida keng tarqalgan sohalardan biri bo'lgan. Uning *yo'rmado'z, mahsido'z, etikdo'z, toqido'z, kash-tado'z* kabi ayrim tarmoqlarining nomlari joy nomlariga o'tgan. Masalan, Marg'ilon shahar mahallalaridan birining nomi *Yo'rmado'z*. *Yo'rma* kashtachilikda keng qo'llaniladigan chok turlaridan biri, mahalla ahli o'tmishda shu ish bilan shug'ullangan. Buxoro shahrida *Mahsido'zon*, Chust shahrida *Do'zanda*, Samarqand shahridagi *Zurdo'zon* kabi mahalla nomlari ham kishilarni kasb-koriga nisbat berib atalgan. Teri oshlab undan charm tayyorlash bilan shug'ullanuvchi kasb egalari *ko'nchi* nomini olgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent kabi shaharlarda, Farg'ona vodiysida, Xorazmda ko'nchilik do'konlari ko'p

bo'lgan. Ularda qo'y, echki, qoramol, tuya terilaridan turli navlardagi ko'n tayyorlangan. Toshkent shahridagi *Ko'nchilar*, Marg'ilon shahridagi *Ko'nchilik*, Chust shahridagi *Charmgaron*, Samarqand shahridagi *Charmgar* mahallalariga shu kasb nomi asos bo'lgan.

Geografik nomlar tarkibida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga taaluqli joy nomlari ham bor. Bunday toponimlarning paydo bo'lishi ko'pincha hududning tabiiy sharoiti bilan ham bog'liq, dehqonchilikning qaysi turini rivojlantirish uchun yaxshi imkoniyat bo'lsa u joy nomiga asos bo'lgan, ya'ni paxta yetishtirish uchun qulay sharoit bo'lgan joylarda *Paxtakor*, *Paxtachi*, *Paxtazor*, g'alla yaxshi hosil beradigan hududlarda *G'allakor*, *Bug'doychi*, *G'allaorol*, *Lalmikor*, *Sholikor* kabi geografik nomlar ham shu yo'sinda paydo bo'lgan. Bundan tashqari respublika toponimiyasi tarkibida *Ko'mirchi*, *Nosgar*, *Sangtarosh*, *Buyrachi*, *Ohakchi*, *O'roqchi*, *Somsapaz*, *Egarchi*, *Toshkesar*, *Karnaychi* va yana yuzlab toponimlarda mahalliy xalqning o'tmishda shug'ullanib kelgan turli kasb-hunarlarini o'z aksini topgan.

Xalqning kundalik ehtiyoji uchun zarur bo'lgan, turli xil mahsulotlarni ishlab chiqaradigan qurilmalar asosida ham joy nomlari paydo bo'lgan. Mazkur qurilmalar nomlari keyinchalik aholi punkti nomlariga o'tgan, bunga *Objuvoz*, *Tegirmonboshi*, *Sariosiyo*, *Galaosiyo*, *Qo'shtegirmon*, *Tagiosiyo*, *Tegirmonovul*, *Qo'shjuvoz* kabi toponimlar misol bo'ladi. Savdo-sotiq qilinadigan joy bo'lgan bozor ham azaldan mahalliy xalqning turmush tarzida katta mavqega ega bo'lgan. *Bozorjoy*, *Yangibozor*, *Ko'hnabozor*, *Sarbozor* yoki ma'lum bir mahsulotni sotishga ixtisoslashgan *Bedabozor*, *Egarbozor*, *Yog'bozor*, *Xodubozor*, *Tovuqbozor*, *Buyrabozor* kabi toponimlar shu yo'sinda vujudga kelgan. Ba'zan bozor bo'ladigan kunga qarab qishloqlarga nom ham berishgan *Juma*, *Chorshanba*, *Payshanba*, *Dushanba* kabi aholi punktlari nomlari shu tariqa paydo bo'lgan.

Ba'zan avvallari diqqatni jalb qilmagan joylar keyinchalik ahamiyat kasb etgan. Shu sababdan joy nomlarini muayyan hududda ajralgan holda emas, balki o'sha hudud bilan, u yerdagi tabiiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan bog'liq holda o'rganish maqsadga muvofiq. Mutaxassislarning aniqlashicha, O'zbekistonda taxminan o'n uch ming aholi punkti mavjud, ularning nomlarida o'lka tabiatining xususiyatlari, jamiyat hayotida asrlar davomida ro'y bergan tarixiy, ijtimoiy va siyosiy hodisa-voqealar, aholining kasb-hunarlarini nomlari va boshqa kabilar o'z aksini topgan. Kelajakda iqtisodiyot va madaniyatning o'sishi, xalqaro

aloqalarning rivojlanishi, yangi yerlarning o'zlashtirishi xalqlar hayotida ularning roli va ahamiyatini yanada oshiradi.

Joy nomlari aniq bir tarixiy sharoitda paydo bo'lganligi bois, tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar ularga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Chunki, tarixiy davr, til va xalqlarning almashishi geografik muhitning o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Keltirilgan misollardan ma'lum bo'ladiki, geografik nomlarning paydo bo'lishida muayyan qonuniyatlar bor va ular quyidagicha:

1. Ko'pgina geografik nomlar til taraqqiyotining dastlabki davrida oddiy turdosh otlardan iborat bo'lib, keyinchalik, vaqt o'tishi bilan atoqli otlarga – geografik nomlarga aylanib ketgan. Masalan: ilgari odamlar oddiygina suv, soy, daryo, qo'rg'on, kent, ko'l, to'qay deb ataganlar. Keyinchalik bu oddiy so'zlar geografik nomga aylangan. Bularga Amur, Jayhun, Don, Edil, Ganga, O'kuz, Nil nomlari misol bo'ladi. Hammasining ma'nosi bitta – suv.

2. Oddiy so'zlarga, toponimlarga aniqlovchi qo'shish yo'li bilan geografik nomlar hosil bo'ladi. Bunda aniqlovchi sifat so'z turkumidan, otdan, sondan, ravishdan, sifatdoshdan iborat bo'lishi mumkin. Masalan, sifat qo'shish yo'li bilan hosil bo'lgan toponimlarga Kattaqo'rg'on, Oqmachit, Ko'kterak, Qoradaryo, misol qilib keltirish mumkin. Ot qo'shish yo'li bilan Qumqo'rg'on, Toshqal'a, Taxtako'prik, G'azalkent toponimlari vujudga kelgan. Son qo'shish yo'li bilan hosil bo'lgan toponimlarga Yettiterak, Beshqayrag'och, Uchtom kabi toponimlarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Qaynarbuloq, Xo'jabaqirgan, Kuygan-yor kabi toponimlar otga ravishdosh qo'shilishidan hosil bo'lgan.

3. Geografik nomlarning bir ob'ektdan ikkinchi, ba'zan uchinchi, to'rtinchi ob'ektlarga ko'chishi natijasida yangi joy nomlari vujudga keladi. Masalan, Sirdaryo daryosi, Sirdaryo viloyati, Sirdaryo shahri, Sirdaryo tumani; Chirchiq daryosi, Chirchiq shahri; Farg'ona vodiysi, Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri. Ayrim daryolar bo'yidagi shaharlar nomi daryo nomiga suffiks qo'shish yo'li bilan hosil bo'lgan. Masalan, Angara daryosi – Angarsk shahri, Tom daryosi – Tomsk shahri, Ij daryosi – Ijevsk shahri.

4. Ko'pchilik mamlakatlarning nomlari xalqlar nomiga – iya, – iston suffikslarini qo'shish yo'li bilan hosil bo'lgan: Turkiya, Ispaniya, Finlandiya, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston va boshqalar. Shuni ham ta'kidlash joizki, ayrim davlatlar nomining yasalishida – iya, suffiksi xalqlar nomiga emas, balki boshqa so'zlarga ham qo'shilishi

mumkin. Chunonchi, Braziliya (brazil – o'simlik nomi), Kolumbiya (X.Kolumb – mashhur sayyoh), Islandiya (island – muz mamlakati).

5. Geografik ob'ektlarga nom qo'yishda o'xshatib nomlash ham mavjud. Bu turli maqsadlarda bo'lishi mumkin. Masalan, H.Hasanov keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, yer yuzida 18 ta Amerika, 13 ta Vengriya, 9 ta Kanada, 5 ta Braziliya, 3 ta Italiya, 7 ta Venetsiya, 4 ta Praga, 4 ta Kiev nomlari mavjud ekan.

6. Geografik nomlar umumlashtirish yo'li bilan, ya'ni kichik joy nomini katta hudud yoki ob'ektga ko'chirish natijasida ham vujudga keladi. Bunga misol qilib Osiyo nomini keltirish mumkin. Qadimda Osiyo (Osu) deb hozirda Livan, Falastin, Suriya joylashgan kichik hudud atalar edi, keyinchalik bu nom butun qit'a nomiga aylandi. Hozirgi Tyanshan tog'larning umumiy nomi bo'lmagan, har bir qismi o'z nomi bilan Chotqol, Qurama, Ko'kshag'al, Talas, Farg'ona deb atalgan. Uning markaziy qismida esa Tangritog' joylashgan. XIX asrda Markaziy Osiyo tog'larini o'rgangan nemis tabiatshunosi A.Gumbold, Tangritog'ni xitoy tilidagi tarjimasidan foydalanib, uni Tyanshan nomi bilan ilmiy adabiyotlarga kiritgan. Keyinchalik bu nom butun tog' tizimining umumlashgan nomiga aylangan. Xuddi shunday, Yevropa va Afrika qit'alari nomi ham umumlashgan nomlar sirasiga kiradi.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. *Toponimlashish jarayoni deganda nimani tushunasiz?*
2. *Geografik nomni paydo bo'lishiga qanday omillar sabab bo'ladi?*
3. *Joy nomlarni shakllanishidagi mavjud qonuniyatlarga izoh bering.*

#### **Test topshiriqlari**

1. **Geografik nomni paydo bo'lishiga asosiy sabab ...**
  - A. Ijtimoiy ehtiyoj tufayli
  - B. Zaruriyat tufayli
  - C. Manzilni belgilash uchun
  - D. Joyga nom berish
2. **Toponimlarni paydo bo'lishi, turg'unlashishi yoki qayta nomlanishi qanday o'zgarisblar bilan bog'liq?**
  - A. Siyosiy
  - B. Iqtisodiy
  - C. Ijtimoiy
  - D. Barcha javoblar to'g'ri

3. Oddiy so'zga aniqlovchi qo'shish yo'li bilan hosil bo'lgan nomlar qatorini belgilang.

- A. Oqmachit, Ko'kjar, Qoradaryo
- B. Chotqol, Qurama, Farg'ona
- C. Amur, Jayhun, Don
- D. Sirdaryo, Chirchiq, Angren

4. Xalq turmushining turli ijtimoiy-iqtisodiy jabhalarini aks etgan nomlar qatorini aniqlang.

- A. Buxumbof, Gilambof, Buyrabof
- B. Zarqalik, Qassoblik, Sovungarlik
- C. Ko'ndrichi, Nosgar, Simgarosh
- D. Barcha yivoblar to'g'ri

5. Toponimlashish jarayoni ha ...

- A. So'zning odatdagi ma'nosidan uzoqlashishi
- B. Muayyan ob'ekt bilan bog'liq konkret, individual tasavvurning paydo bo'lishi
- C. Bir geografik ob'ektni shunga o'xshash boshqa ob'ektdan ajratib ko'rsatishi
- D. Barcha ob'ektlardan bittasini ajratib ko'rsatishi

### 3.2. Toponimika va xalq geografik terminlari

#### *Reja:*

1. *Toponimika va geografik terminshunoslik haqida umumiy tushuncha.*
2. *Toponimik terminlar va ularning turlari.*
3. *Xalq geografik terminlarni ilmiy va o'quv adabiyotlarga kiritish tamoyillari.*

**Ma'ruzning maqsadi:** Xalq mulki bo'lgan geografik terminlarni ilmiy manbalar asosida tadqiq qilish, ularni paydo bo'lishi, shakllanish xususiyatlarini o'rganish, saralash va tasniflash, mukammal kartasini yaratish hamda geografik terminlarni ilmiy va o'quv adabiyotlarga kiritish tamoyillari bilan tanishtirishdan iborat.

**Tayanch ibora va atamalar:** Milliy termin, geografik termin, hay-nalmilal terminlar, toponimik termin, tarjima qilingan terminlar, geomorfologik, litologik, gidrologik, floristik va faunistik, etnonimik, oykonimik topoterminlar.

**Toponimiya va xalq geografik terminlari.** Toponimika fanning rivojlanishida mukammal o'rganilgan va ilmiy asoslangan xalq geografik terminlarning ahamiyati benihoyat katta. Xalq geografik terminlari ancha katta informatsion (axborot) salohiyatga ega bo'lganligi bois, tilshunoslar ham, geograflar va tarixchilar ham, ular bilan qiziqishadi. Ilmiy toponimik adabiyotlarda termin so'zi – lotin tilidan olingan chegara, chek kabi ma'nolarga ega deb talqin qilingan. Boshqacha aytganda, u inson hayoti, faoliyati yoki bilimining biror sohasiga oid muayyan tushunchaning boshqa tushunchalar bilan nisbatini ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasidan iborat.

Qayd qilingandek, terminlarning aniqligi, mukammalligi fanning rivojlanishini ma'lum jihatdan belgilab beradi. Xalq geografik terminlari yordamida voqea-hodisalarning sabab va oqibatlarini tez va aniq ilg'ab olish mumkin, chunki terminlarda ularning ixcham tavsifi mujassam. Terminlar umumiy iste'mol so'zlaridan aniq bir ma'noni ifodalashi, emotsionallik xususiyatga ega emasligi kabi belgilar bilan farqlanadi. Ular qisqa, ixcham, aniq ma'noli, jarangdor, talaffuzda osonligi bilan alohida ajralib turadi. Shu sababdan, geografik terminlar ko'p qo'llaniladi va uzoq muddat saqlanib qoladi.

Geografik terminlarni shartli ravishda ilmiy, xalq (mahalliy), baynalmilal, toponimik va tarjima terminlarga bo'lish mumkin. Milliy terminlar biror millatning adabiy tilida va ilmiy adabiyotlarida barqaror o'rin olgan hamda mazkur millat vakillarining ko'pchiligi tushunadigan terminlardir. O'zbek milliy xalq geografik terminlariga *tog', tekislik, ko'l, soy, dara, vodi, jar, cho'qqi, g'or, sel, bulut, yomg'ir, qor, ko'chki, dovon* va boshqalar misol bo'ladi. Mahalliy terminlar faqat ma'lum hududda tarqalgan, ular ko'pincha mahalliy shevaga xos bo'lganligi bois, areali cheklangan va boshqa mintaqada yashovchi aholi tushunmasligi mumkin. Masalan, Xorazm shevasidagi *yop, arna, zayak, xariq, solma, yorma* terminlari, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari tog'li yerlarda *gaza, adoq, xovar* kabi terminlar uchraydi.

Baynalmilal terminlar boshqa xalqlar tilidan o'zlashgan bo'lib, ular ko'pchilik xalqlarda bir xil qo'llaniladi. Bunga fan nomi *geografiya, lyoss, geyzer, vulkan, kvarts, delta, artezian, tsiklon, antitsiklon, kristall, fyon, kondensatsiya, yadro* va boshqalar misol bo'ladi. Tarjima terminlarga suv sarfi, daryo boshi, quyar joyi, qirg'oq bo'yi, suvayirg'ich, havza kabi terminlarni misol keltirish mumkin. Mutaxassislarning e'tirof etishicha, nomlarning aksariyat ko'pchiligiga geografik terminlar asos bo'lgan.

Muayyan hududda tarqalgan va nomlashda qo'llaniladigan turlari esa mahalliy geografik terminlar deb yuritiladi. Ma'lumotlarga boy bo'lgan mahalliy geografik terminlar ko'p asrlar davomida mutaxassislar diqqatini o'ziga jalb qilib kelgan. Mahalliy geografik terminlarning paydo bo'lishida xalqning xo'jalik faoliyati, tarixi, moddiy madaniyatining xususiyatlari hamda vohaning tabiiy muhiti va geografik sharoiti alohida ahamiyatga ega.

Geografik terminlar turli davr olimlarini o'ziga jalb qilgan. Masalan, *Abu Rayhon Beruniy* (X asr), *Mahmud Koshg'ariy* (XI asr), *Zahiriddin Bahar* (XV asr) o'z asarlarida xalq geografik terminlaridan keng foydalanishgan. Keyingi davrlarda geografik terminlar mutaxassislar tomonidan maxsus tadqiq qilindi. Rossiyada *L.S.Berg*, *E.M.Murzaev*, *A.P.Dubzon*, Qozog'istonda – *G.K.Konkashpaev*, Ozarboyjonda – *K.Yurbashev*, Tojikistonda – *A.Z.Rozenfeld*, Qirg'izistonda – *R.Umurzoqov*, Turkmanistonda – *M.Geldixanov*, O'zbekistonda – *H.Hasanov*, *S.Qoraev*, *T.Nafasov*, *M.Mirakmalov* kabi toponimist olimlar geografik terminlar bilan alohida shug'ullanishgan. Masalan, *M.Mirakmalov* xalq tabiiy geografik terminlarini, *Q.Xurramov* esa Janubiy O'zbekiston rel'efini bildiruvchi o'zbek xalq geografik terminlarini maxsus tadqiq etishgan.

Ma'lumki, ko'pgina toponimlarning etimologiyasini aniqlashda geografik terminlari muhim ahamiyat kash etadi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, geografik nomlarning etimologiyasini aniqlashda geografik terminlari bilimdon qo'lida behabho manba hisoblanadi. Atoqli geograf, terminshunos *E.M.Murzaev*ning toponimika sohasidagi asarlaridan eng salmoqlilari xalq geografik terminlariga bag'ishlangan. Yuqorida qayd qilingandek, olim tomonidan ikki jildli «Словарь народных географических терминов» nomli fundamental asari chop etilgan.

Xalq tabiiy geografik terminlarni maxsus tadqiq etgan geograf olim *M.Mirakmalov* toponimik terminlarni alohida ajratib ko'rsatgan. Olimning yozishicha, joy nomlari tarkibida qatnashib, ular ifodalagan ob'ektni bildiruvchi so'zlar (turdosh otlar) toponimik terminlar (topoterminlar) deb ataladi. Ular joy nomlari tarkibida bir necha ko'rinishda uchraydi:

a) Toponimik termin qo'shimcha so'zlarsiz joy nomiga aylangan. (*Kamar, Loyqa, To'qay, Ko'tal ...*).

b) Toponimik termin qo'shimchalar bilan toponim hosil qilgan. (*Tangili, Soyliq, Toshkesgan, Damariq ...*).

v) Toponimik terminlar juft holda geografik nomga aylangan. (*Jarbuloq, Jartepa, Aydarko'l, Arnasoy ...*).



g) Toponimik terminlar toponimlar tarkihida (*Jumabozor, Ellikqal'a, Sultonravot ...*).

Toponimik terminlar barcha tillarda takrorlanadi. Bu haqda H.Hasanov shunday yozgan: «Bordi-yu o'ntacha asosiy tilni biladigan kishi kartadagi nomlarni shu tillarga tarjima qilib o'qisa, aksari shahar, tog', daryo va ko'llarning nomlari deyarli bir ma'noda ekanini ko'rib hafsalasi pir bo'lar edi». Masalan, daryo, suv – *jayhun, ob, ganga, reka, missi, rioxe, yoki ...* Tog' – *jahal, ko'h, shan, montana, syerra, monte, vald ...* va hokazo.

M.Mirakmalov toponimik terminlarni o'zi ifodalayotgan ob'ektlarga qarah quyidagicha guruhlashtirgan:

1. Geomorfologik topoterminlar (*ag'ba, bel, do'ng, yozi, jar, ko'tal, ort, qir, oshuv, dara, tangi, baraz* va boshqalar).

2. Litologik topoterminlar (*tosh, qum, shag'al, oltin, kumush* va boshqalar).

3. Hidrologik topoterminlar (*arna, ariq, huloq, daryo, yop, kom, quduq, hovuz* va boshqalar).

4. Floristik va faunistik topoterminlar (*bodom, tol, terak, tut, jiyda, qayrag'och, olma, o'rik, tuya, bo'ri, g'azol* va boshqalar).

5. Oykonomik topoterminlar (*kat, ovul, qishloq, deha, mahalla, guzar, ko'cha* va boshqalar).

6. Etnonomik topoterminlar (*qipchoq, nayman, qo'ng'iroq, qirq, yuz, ming, qangli, arab, tojik, qirg'iz, qozoq* va boshqalar).

7. Turli topoterminlar (ob'ektning xususiyatlarini ifodalovchi terminlar: *tomoni, o'rni, joyi, hajmi, rangi* va boshqalar).

Ma'lumki, geografik terminlarni yig'ish va tartibga solish ancha mashaqqatli ish, lekin ularni o'rganmaslik mumkin emas. Shuning uchun, respublika hududidagi mahalliy geografik terminlarni aniqlash, ularni tasniflash, lug'atini tuzish muhim va dolzarb masala hisoblanadi. M.Mirakmalov o'zbek xalq (mahalliy) geografik terminlarning bir necha manbalarini ham alohida ajratib ko'rsatgan. Qadimgi qo'lyozmalar, tarixiy-badiiy asarlar, xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar shular jumlasidandir. Terminlarning yana bir manbai - ilmiy adabiyotlar hisoblanadi. E.Murzaev (1959, 1984), H.Hasanov (1964), S.Qoraev, P.G'ulomov va R.Rahimbekov (1979), Mirortiq Mirabdulla o'g'li (1992), P.G'ulomov (1994) larning izohli lug'atlari chop etilgan.


Mutaxassislarning aniqlashicha, hind-evropa tillaridagiga qaraganda turkiy tillarda ko'pchilik toponimlar mahalliy geografik terminlar ishti-

rokida paydo bo'lgan. Buni turkiy xalqlarning yashash tarzi bevosita ularni o'rab turgan tabiat bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi bilan izohlash mumkin. Ba'zi hollarda esa qo'shimcha so'zlarsiz ham mahalliy geografik terminlar toponim hosil qilgan. Masalan, Jizzax viloyati hududida *kamar*, *dovul*, *og'ar*, *loyqa*, *qayirma*, *qo'riq*, *bo'z*, *to'qay*, *ko'tal* kabi mahalliy geografik terminlar aholi punktlari nomlari shaklida ham uchraydi. Bunday terminlar tarkibidagi old yoki orqa qo'shimchasi (sifat, son, affiks) toponimikaning tejalish qonuniyatiga ko'ra tushib qolgan.

Aslida geografik termin (tog', cho'l, ko'l, qishloq va hokazo) hali geografik nom emas, balki turdosh ot bo'lib, muayyan umumiy yoki xususiy geografik tushunchani bildiradi. Biroq har qanday geografik termin atoliq otga, ya'ni geografik nomga aylanishini unitmaslik kerak. Geografik termin ko'pincha joy nomining asosiy mazmunini belgilaydi, jumladan *Beshbuloq*, *Uchtepa*, *Sarikamar*, *Chortangi*, *Oqbuloq*, *Ko'ktepa*, *Toshkamar* kabi joy nomlari bunga yaqqol misol bo'ladi. *Quduq*, *cho'qqi*, *ariq*, *tog'*, *qum* kabi terminlardan iborat toponim uchraydigan bo'lsa, bunday toponimni izohlashda juda ehtiyot bo'lish kerak.

Chunki, u geografik ob'ekt nomining qisqargan shakli yoki uzoq ustlar davomida talaffuz qilish natijasida butunlay o'zgarib, boshqa bir nu'noni kash etgan bo'lishi mumkin. Jadvalda respublika hududida oykontmlar hosil qiluvchi asosiy geografik terminlar ko'rsatilgan.

3-jadval



Toponimlar tarkibida *adir, ariq, bel, buloq, dovon, jar, ko'l, tog', cho'l, qum* kabi hammaga ma'lum terminlar bilan birgalikda ayrim hududlarga xos bo'lgan *arna, jar, bo'ktar, gaza, jo'na, zayuk, zov, kamar, sangloq, supa, tangi, tarma, tuz, chag'at, chem, og'ar* kabi hozirgacha saqlanib kelayotgan terminlar ham bor. Albatta, har bir terminning o'z ma'nosi bor. Masalan, aholi punktlari nomlari tarkibida uchraydigan «kat, kand, kent» terminini olaylik. *No'shkent, Xo'jamushkent, Navkat, Chokand, Qo'shkand* kabi oykonimlar' kat (kand) komponenti ishtirokida tashkil topgan. *Kat* (kand) – juda qadimiy termin, u nafaqat O'zbekistonda yoki O'rta Osiyoda, balki Eron va Afg'onistonda va hattoki Yevropada ham ko'pgina geografik nomlar tarkibida uchraydi.

*Kat* so'zi «shahar» degan ma'noni bildirishini bundan ming yil muqaddam Narshaxiy o'z asarida yozgan. Bu terminga Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», Boburning «Boburnoma» asarida ham sharh berilgan. V.V.Bartold fikricha, *kat* (kand) – so'g'd tiliga mansub so'z bo'lib, dastlab «uy, yashash manzili» degan ma'noni anglatgan va keyinchalik turkiy tillarga o'zlashgan. *Kat* tushunchasiga oila boshlig'ining uyidan tashqari, uning o'g'illari hamda qarindoshlarining uy-joylari, yordamchi binolar ham kirgan va bu binolar atrofi devor bilan o'rab olingan. *Kat* terminining kelib chiqishi to'g'risida E.M.Murzaev ham bir necha marta ilmiy maqolalar e'lon qilib, uning hind-yevropa, fm-ugor, turk va mo'g'ul tillarida bir qancha variantlari borligini qayd qilgan.

Umuman keyinchalik *kat* (kand) termini shaharlarga nisbatan ham, qishloqlarga nisbatan ham ishlatilgan. O'rta Osiyoda keng tarqalgan, aholi punktini anglatuvchi *kat* termini shubhasiz, ibtidoiy *kad* yoki *kata* terminidan kelib chiqqan. *Katxudo* – «kat hokimi», *kathonu* (kayvonishevada) so'zlari hozirgacha saqlanib qolgan va ma'lum bir jamoa doirasida boshchilik qiluvchi kishini va hatto oila boshlig'ini anglatadi. Mutaxassislar «*-kat*» va «*-kent*» aslida so'g'dcha bir so'zning sheva shakli ekanligini aniqlashgan. Ushbu terminning arealini kengligi, esa so'g'dlar ancha ko'p sonli xalq bo'lganligini va so'g'd tili milodning dastlabki asrlarida ancha sharqqa – Yettisuv va Xitoygacha kirib borgan degan fikrni isbotlaydi.

*Kat* (*kent*) so'zining ishtirokida paydo bo'lgan geografik nomlar eng qadimiy toponimlari hisoblanadi. Qayd qilingandek, *kat* terminining areali juda keng va u butun Yevrosiyo materigi bo'ylab tarqalgan. Bu esa toponimlarning asl kelib chiqishi bir-biriga yaqin ekantigidan va

uzoq tarixiy-geografik o'lmishda xalqlar orasida mustahkam aloqalar mavjud bo'lganligidan darak beradi. Chunonchi, *Kalkutta* (Hindiston), *Tunkat* (Qozog'iston), *Dahkat* (Tojikiston), *Yorkent* (Xitoy), *Toshkent* (O'zbekiston), *Katmandu* (Nepal) kabi ko'plab tarixiy toponimlar bunga misol bo'ladi.

Mahalliy geografik terminlarning hir qismi hozirgi o'zbek adabiy tilida va geografik adabiyotlarda ham kam uchraydi. Shulardan biri juda qadimiy bo'lgan *arna* so'zidir. Arna terminining kelib chiqishi, ya'ni etimologiyasi to'g'risida ko'pgina olimlar turlicha fikrlar bildirganlar. Chunonchi, V.V.Radlov arna so'zini «daryo o'zani» deb izohlaydi. V.V.Bartold esa arna so'zini qadimgi xorazmiy tiliga mansub deb hisoblaydi. Xorazmiy toponimiyasini o'rgangan Z.Do'simovning yozishicha, garchi xorazmiy tili XIII-XIV asrlarda butunlay turkiy tillar bilan aralashib, assimilyatsiyalashgan bo'lsa ham hozirgi kunda Xorazmiy toponimiyasida ko'plab grammatik va leksik elementlari saqlangan. Shubhasiz bu tilning eron tillari oilasiga, aniqrog'i uning sharqiy eron taronog'iga mansubligini isbot etadi. Sug'orish sohasidagi ba'zi bir terminlar, jumladan, arna – «katta kanal», yoh – «kichik kanal, ariq», qadimgi xorazmiy tilining qoldig'idir.

Arna so'zini Ya.G'ulomov ham sharhlagan va uning yozishicha: «Xorazmda katta kanallar va kanallarning boshi hamda keng uchastkalari «arna» deb ataladi. Bu termin asl ma'noda daryoning o'zanda shoxobchalarga ajralishini anglatadi. Sun'iy kanallarning bu termin bilan atalishiga sabab bu kanallar hajmi jihatidan daryoning hir qismi deb hisoblanadi. Masalan, *Paxtaarna*, *Shovotarna*, *Polvonarna* xuddi shundaydir». Z.Do'simov «Arna so'zi haqida» nomi bilan alohida maqola e'lon qilgan va sanskrit tilida arnos – «suv oqimi» demakdir, degan xulosaga kelgan. S.Qoraev ham uni sharhlab, areali ancha kengligini va u nafaqat Xorazm va Turkmanistonda, balki O'rta Osiyo va Qozog'istonning ko'pgina joylarida ham o'zgacharoq ma'noda ishlatilishini qayd qilgan. Demak, arna qadimiy xorazmcha so'z bo'lsa ham, hozirgi vaqtda juda katta hududlarda suv bilan bog'liq turli ma'nolarni anglatadi. Chunonchi, Jizzax viloyatining *Jizzax*, *G'allaorol*, *Zomin*, *Forish* tumanlarida mahalliy xalq suv oqmaydigan, ammo, ikki tomoni ariqqa o'xshash tik qirg'oqli joyni *arna* deyishadi.

Joy nomlari tarkibida saqlanib qolgan mahalliy geografik terminlardan yana biri *aqba* (*aqaba*, ko'pligi *aqabot*)dir. Aqba arab tilida «dovon», «tog' yo'li» ma'nosini ifodalagan. IX-X asrlarda arab tilida

yoʻzgan geograflar aqba terminini ishlatganlar. Bu termin X asrda yoʻzilgan, muallifi nomaʼlum «Hudud ul-olam» va «Tarixi Tabariy» asarlarida ham uchraydi. Aqba soʻzining areali ancha keng va u hozir ham Oʻrta Osiyoning baʼzi joylarida *aqba*, *agʻba*, *avgʻa*, *ovgʻa* shaklida hamda turlicha maʼnolarda ishlatiladi. Masalan, Jizzax viloyatining Baxmal, Gʻallaorol va Zomin tumanlaridagi mahalliy xalq shevasida dovonga chiqadigan tik yoʻl *ovgʻa* deyiladi.

Qadimiy geografik terminlardan boʻlgan *baraz* (*baroz*, *baros*) respublika toponimiyasi tarkibida koʻp uchraydi. Samarqand, Jizzax, Navoiy viloyatlarida togʻ tepasida yoki togʻ yon bagʻrida uchraydigan yassi maydoncha *baraz* deyiladi. Baʼzi bir barazlarning maydoni bir necha gektar boʻlishi mumkin. S.Qoraevning maʼlumotlariga koʻra, Zomin tumanida *Kattabaraz*, *Kichikbaraz*, *Toʻpchiboybaraz* kabi toponimlar bor. M.S.Andreev, O.I.Smirmova «barz» soʻzini qadimiy sugʻd tilidan olingan deb hisoblab, Zarafshon vodiysining yuqori qismidagi Varziminor aholi punkti nomini «baland minora» deb izohlaganlar. A.Z.Rozenfeld *baraz* soʻzini sugʻd tilidan forsiy va turkiy tillarga oʻzlashgan deb hisoblaydi. Baraz termining geografik nomlar tarkibida tarqalish areali ancha keng, u nafaqat qoʻshni Tojikiston, balki Eron, Afgʻoniston, Kichik Osiyo va Rossiya toponimiyasi tarkibida ham uchraydi. V.I.Abaevning yozishicha, osetin tilida ham barz soʻzining bir maʼnosi «balandlik»dir.

*Gaza* – ham geografik termin boʻlib, mahalliy xalq tilida «togʻ tepasi», «togʻ qirrasini» gaza deyiladi (toʻq gaza – togʻ tepasi, och gaza – togʻ qirrasining past, chuqur joyi). Bu termin Oʻzbekiston hududida bir qancha toponimlar tarkibida uchraydi. Masalan, Turkiston togʻlarining Jizzax viloyati hududidagi choʻqqilaridan biri *Gazai kalon* (Zomin tumani) deb ataladi. T.Nafasov tadqiqotlariga koʻra, «gaza– togʻ etaklari va notekis adirlarda qirsimon choʻziq balandliklarning oshib oʻtadigan yoʻl boʻlgan qismi. *Ochgaza*, *oqgaza*, *toʻqgaza*, *qoragaza* kabi turlari bor». A.Zokirov tadqiqotlariga koʻra, oʻzbek tiliga *gaza* soʻzi fors-tojik tili orqali oʻzlashgan. Gaza – oronimik termin boʻlganligi sababli koʻpincha togʻli hududlarda yashovchi mahalliy aholi shevasida kuzatiladi, aksincha tekislikda yashovchilar bu terminni kam ishlatadi.

Ayrim mutaxassislarining fikricha, hozirgi Jizzax shahrining qadimiy nomi boʻlgan Gazo ham shu termin bilan bogʻliq. Tarixdan maʼlumki, Iskandar Zulqarnayn qoʻshinlariga qattiq qarshilik koʻrsatgan qalʼalardan biri sifatida, yunon solnomachilari asarlarida Gazo qalʼasi alohida

tilga olingan. Gazo qal'asining o'rnini hamon aniq emas, lekin tarixiy manbalarda, uning Samarqand va Toshkent oralig'ida joylashganligi aytiladi. Olimlar Gazoni qadimiy Jizzax deb taxmin qiladilar. Gaza geografik termin sifatida ancha katta arealga ega, Samarqand, Toshkent, Namangan, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlaridan tashqari, Tojikiston toponimiyasi tarkibida ham uchraydi.

*Jar* – respublika toponimiyasi tarkibida keng tarqalgan geografik termin hisoblanadi. Jar bu vaqtinchalik oqar suvlarning yerni o'yib yuvib ketishidan hosil bo'ladigan turli kattaligidagi chuqurlik. Jar asosan, yumshoq jinslar (lyoss, lyossimon qumoq)dan tuzilgan baland tekisliklarda, tog' etagi qiyaliklarida ko'p uchraydi. Jar umuman toponimiyada chuqurlik, pastlik ma'nosini ham ifodalaydi. O'zbekiston hududida *Jarqishloq*, *Ko'kjar*, *Jamanjar*, *Jarbuloq*, *Jartepa* kabi joy nomlari har bir viloyat toponimiyasida uchraydi. Jar termini toponimlar tarkibida O'rta Osiyo va Qozog'istonda keng tarqalgan.

*Jo'na* (*jo'n*) – so'zi ham geografik termin bo'lib S.Qoraevning tadqiqodlariga ko'ra «tog' orqasi», «uzunasiga cho'zilgan pastak tog'ning qirra qismi», «tepalik qirrasini» ma'nolarini ifodalaydi. Masalan, Zomin tumanida yo'ljo'na, ya'ni «uzun cho'zilgan tepalikdan boradigan yo'l», suluvjo'na – «chiroyli cho'zinchoq tepa» ma'nosidagi toponimlar bor. Bu so'z jo'n shaklida ham keladi. Chunonchi Qozog'istonda Suluvjo'n, Oqjo'n, Toshkent viloyatida Jo'nariq kabi toponimlar qayd qilingan.

Jizzax viloyati Baxmal tumanidagi *Jo'm-jo'm* (aslida Jo'na-jo'na) oykonimiga ham shu geografik termin asos bo'lgan. Qishloqning ushbu nom bilan atalishida joyning geomorfologik tuzilishi, ya'ni rel'ef shakli muhim rol o'ynagan. U hududning o'tunish rel'efi to'g'risida bema'lol guvohlik beradi. B.O'rinboev toponim to'g'risida: «o'zbek va qozoq tillarida *jo'n*, *jo'na* so'zlari mavjud, u uzunasiga ketgan qir, tepalik qirrasini ma'nosidadir. Bunda qishloqning yer tuzilishi hisobga olinib, dastlab *jo'n-jo'n*, keyinchalik *jo'm-jo'm* deb atalgan bo'lishi mumkin. Chunki, nutqda sonor tovushlarning bir-biri bilan almashishi mavjud» degan fikrni hayon qilgan. Jizzax viloyati toponimiyasini o'rgangan A.Zokirov, qishloq nomiga soy nomi asos bo'lganligini ta'kidlab, *jo'm-jo'm* so'zi tog'dan oqib keladigan suvga nisbatan qo'llanilgan deb hisoblaydi. Olimning fikricha, mahalliy aholi shevasida sho'x, tez va o'ynab oqadigan soy – *jo'm-jo'm* soy va Jo'nariq gidronimini ham shu asosda paydo bo'lgan deb hisoblaydi.

*Kamar* – fors-tojik tilidan o‘zlashgan geografik termin, viloyat hududida bir necha ma‘noni anglatadi. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati» da kamar so‘ziga quyidagicha izoh berilgan: «Suv qirg‘og‘ida, jar chetida, tepalik yoki tog‘ bag‘rida yuvilish, o‘pirilish va sh.k. natijasida hosil bo‘lgan g‘orsimon o‘yiq joy». S.Qoraev va P.G‘ulomov fikricha: «jarlik, daryoning tik tushgan, suv aylanib oqadigan chuqur joyi, pastlik yerni o‘rab turuvchi qirlar, qirdagi uzun cho‘zilgan do‘nglar kamar deyiladi».

Respublika miqyosida bir nechta *Kamar* nomli aholi punktlari bor. Qishloqlar nomi uning geografik o‘rni va joylashishi bilan bog‘liq. Ushbu qishloqlarning harchasi tog‘ etagidagi uncha baland bo‘lmagan qirlarning eroziya natijasida hosil bo‘lgan o‘yiq, kemptik hamda bir tomoni soy bilan tutashgan joyida joylashgan. Shu sababdan, yer yuza tuzilishini bildiruvchi termin oykonimga aylangan». Jizzax viloyatining Zomin tumanida *Kattakamar*, *Yerkamar*, *Oqchepgankamar*, *Sarikamar* kabi toponimlar uchraydi. E.M.Murzaev kamar so‘zini turkiy deb hisoblab, uning O‘rta Osiyodan tashqarida ham toponimlar hosil qilishini hamda areali ancha kengligini aniqlagan. Olimning yozishicha, ba‘zi hududlarda qirg‘oq, tik qoya, jarlik, pastekislik atrofini o‘rab turgan qator qirlar ham kamar deyiladi deb yozgan.

*Sanglox* (sangloq) – geografik terminni mahalliy xalq ba‘zan *sang-g‘alaq*, *sag‘anaq* deb ham talaffuz qilishadi. Lug‘atlarda bu so‘zning bir necha ma‘nosi keltirilgan. Masalan, toshloq joy, tosh uyumi, maydaylangan tosh, tog‘ daryosining sertosh o‘zani va hokazo. Shunisi qiziqki, o‘zbekcha toshloq va tojikcha sanglox so‘zlari etimologik jihatdan bir xil, lekin semantik jihatdan farq qiladi. Chunonchi, *toshloq*, *toshloq yer* deb ko‘pincha umuman tosh ko‘p joy, sertosh tuproqqa nisbatan aytilsa, *sanglox* deganda esa soylik ichida yig‘ilib qolgan silliq toshlar tushuniladi.

Respublika toponimiyasi tarkibida keng tarqalgan geografik terminlardan yana biri *tangi* so‘zidir. Xususan, tog‘li tumanlar toponimiyasida bu termin ko‘proq uchraydi. *Tangi* – toponimi fors-tojik tilida «tor dara», «ensiz tog‘ oralig‘i», «ikki tog‘ oralig‘idagi kambar soylik» ma‘nolarini ifodalaydi. *Tangi* shu ma‘noda respublikaning tog‘li hududlarida keng qo‘llaniladi va o‘zbek adabiy tilida ilmiy-geografik termin sifatida qabul qilingan.

Aholi punktlarini geografik joylashishiga nisbatan ham shunday nom qo‘llanilgan. Masalan, Jizzax viloyati Zomin tumanidagi *Chortangi*,

*Tortangi, Ichkaritangi, Kattatangi, Jizzax* tumanidagi *Qoratangi* toponimlarida ham tangi soʻzi oʻzak sifatida xizmat qilgan. Baxmal tumanidagi *Tangali* va *Tangatopdi* oykonimlari ham aslida tangi soʻzi bilan bogʻliq. Tangi soʻzi «Boburnoma»da ham koʻp marta uchraydi. Bobur dara soʻzini ham ishlatgan. Demak, tangi bilan dara soʻzi oʻsha davrlarda ham farq qilingan. Hozirda togʻ darasining kambar qismi tangi deyiladi. Bu termin *tangi, tengi* shakllarida Eron, Afgʻoniston, Ozarboyjon, Pokiston, Tojikistonning togʻli hududlarida toponimlar hosil qilgan.

Respublika hududidagi aholi punktlari nomlari tarkibida *koʻtal* kabi mahalliy geografik termini ham bor. *Koʻtal* – geografik termin sifatida, aslida moʻgʻul tilidan oʻzlashgan va dovon degan maʼnoni bildiradi. Dovon soʻzi ham moʻgʻulcha, lekin *koʻtal* pastroq dovon demakdir. *Koʻtal* deb togʻdagi oʻtishi qiyin boʻlmagan teppalik, doʻnglik, kichik dovonga nisbatan aytiladi. Joy nomlari tarkibida uchraydigan *koʻtal* soʻzi togʻlardan oshib oʻtadigan yoʻl, pastroq dovon degan maʼnoni ifodalaydi.

*Koʻtal* soʻzi tarixiy manbalarda, masalan «Boburnoma»da ham joy nomlari tarkibida uchraydi. T.Nafasov talqinida, «*koʻtal* turkiy va moʻgʻul tillariga xos soʻz. Moʻgʻul tilida *xoʻtoʻl* – tepa, uncha baland boʻlmagan qiya, balandlik. Togʻli rayonlar aholisi nutqida oshib oʻtiladigan yoʻli boʻlgan balandlik». Jizzax viloyati Gʻallaorol tumanidagi aholi punktlaridan biri shunday balandlik yonida joylashganligi uchun *Koʻtal* deb, nomlangan.

Oʻzbekiston toponimiyasi tarkibida *bel, boʻz, dura, dahana, dovon, gum, zov, pogʻut, sayhan, supa, tal, tepa, toshloq, chaqir, chim, chem, qoʻriq, qayirma, qir, qashqa, qoya, qiya, gʻor, reza* kabi mahalliy geografik terminlar uchraydi, ular ishtirokida koʻplab geografik nomlar qayd qilingan. Xalq geografik terminlari koʻpchilik dunyo mintaqalari toponimiyasining asosini tashkil etadi. Ular real ob'ektlarning xususiyatini belgilaydi va geografik nomlarning etimologiyasini aniqlashda kalit vazifasini bajaradi.

Xalq terminlarning maxsus ilmiy adabiyotlarga oʻtishi doimiy jarayon. Shu sababdan, ular geografik terminlarning asosiy manbai hisoblanadi. Koʻp hollarda xalq terminlari geografik ob'ekt, tabiiy hodisa va jarayonlar haqida aniq maʼlumot beradi. Maʼlumki, har qanday geografik termin xalq tomonidan yaratiladi, binobarin, u xalq mulkidir. Ular orasida maʼlum hududda tarqalgan va hozirgi kunda xalq ogʻzaki nut-



qida qo'llanib kelayotgan mahalliy geografik terminlarni o'quv va ilmiy adabiyotlarga kiritish, qo'llash hamda ommaviylashtirish nihoyat muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

Xalq tabiiy geografik terminlarni maxsus tadqiq etgan M.Mirakmalov fikricha, mahalliy geografik terminlarni ilmiy va o'quv adabiyotiga kiritish uchun quyidagi tamoyillarga amal qilish lozim:

1. Tatbiq etilayotgan terminning ilmiy va o'quv adabiyotida qo'llanilishini tekshirish tamoyili. Tekshirish uchun asosan oliy va o'rta maktab darsliklari, qo'llanmalar, turli geografik lug'atlar, toponimik lug'atlar, ilmiy ishlar atroflicha ko'rib chiqiladi.

2. Tatbiq etilajak termini e'lon qilish va izohlash. Tadqiqotchi tatbiq etilayotgan termini, avvalo maxsus seminarlarda, ilmiy konferentsiyalarda, matbuotda va turli anjumanlarda ma'ruza qilish va ilmiy maqola e'lon qilishi mumkin. Buning uchun terminning izohini, mohiyatini to'la asoslab berishi lozim.

3. Tatbiq etilayotgan termin ilmiy jihatdan to'g'ri, qisqa, ixcham, hamma uchun tushunarli, o'zbek tili qoidalariga mos bo'lishi hamda terminlarni tanlash tamoyillariga to'la javob berishi kerak.

4. Tatbiq etilayotgan termini ommaviylashtirish, mahalliy terminlari lug'atlarini nashr etish. Buning uchun mahalliy terminlarni oliy va o'rta maktab darsliklarida, ilmiy tadqiqot ishlarida, mahalliy ommaviy axborot vositalarida keng qo'llanilishiga erishish lozim.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. *Toponimika va geografik terminshunoslik deganda nimani tushunasiz?*

2. *Toponimik terminlarni o'zi ifodalayotgan ob'ektlarga qarab qanday guruhlariga ajratish mumkin?*

3. *Xalq geografik terminlarning ilmiy va o'quv adabiyotlarga kiritish tamoyillariga ta'rif bering.*

#### **Test topshiriqlari**

1. **Toponimik terminlar bu...**

A. Barcha joy nomlari

B. Joy nomlari hosil qiluvchi terminlar

C. Joy rel'efiga mos terminlar

D. Joy nomlari tarkibida qatnashib ob'ekt turini bildiradigan terminlar

2. Muayyan hududda tarqalgan va nomlashda qo'llaniladigan terminlar bu ...

- A. Mahalliy geografik terminlar
- B. Baynalmillal terminlar
- C. Xalq geografik terminlar
- D. Tabiiy geografik terminlar

3. Baynalmillal terminlar qatorini belgilang.

- A. Iyoss, geyzer, vulkan, kvarts, delta
- B. bel, bo'z, dara, dahana, dovon
- C. kamar, dovul, og'ar, loyqa, qayirma
- D. jabal, ko'h, shan, montana, s'erra

4. O'zbekiston topoterminlar qatorini aniqlang.

- A. do'ng, yozi, jar, ko'tal
- B. aruu, yop, kom, quduq
- C. kat, deha, mahalla, guzar
- D. qipechoq, nayman, qo'ng'iro'l, qirq.

5. Janubiy O'zbekiston rel'efini bildiruvchi o'zbek xalq geografik terminlarni maxsus tadqiq qilgan olim kim?

- A. S.Qoraev
- B. T.Nafasov
- C. M.Mirakmalov
- D. Q.Xurramov

#### 4-mavzu: TOPONIMIK FORMANTLAR, TIPLAR VA MODEL.LAR. HIRLAMCHI VA IKKILAMCHI TOPONIMLAR. KO'CHMA TOPONIMLAR. TOPONIMIYADA METAFORA

##### 4.1. Toponimik formantlar, tiplar va modellar

###### *Reja:*

1. Toponimik formantlar haqida umumiy tushuncha.
2. Toponimik formantlarning mintaqaviy xususiyatlari
3. Toponimik modellar va tiplar.

**Mavzuning maqsadi:** Toponimik formantlar, tiplar, modellar haqida ma'lumot berish hamda ularni o'ziga xos mintaqaviy xususiyatlarini aniqlash misollar yordamida tushuntirib berishdan iborat.

**Tayanch ibora va atamalar:** Toponimik formant, toponimik model, toponimik tip, toponimik areal, toponimik landshaft, toponimik indikator.

**Toponimik formantlar.** Toponim ham soʻz, lekin oddiy turdosh ot emas, balki murakkab tarkihli, shu joyning asosiy xususiyatini ifodalovchi, muayyan axborotni oʻzida mujassam etgan atoqli otdir, toʻgʻrirogʻi aslida shunday boʻlishi kerak. Formant (lotincha, formans – “hosil qiluvchi”) – soʻz yasaydigan, ammo mustaqil ishlatilmaydigan unsur. Toponimlar tarkibida koʻp uchraydigan, geografik nom tarkibidagi qoʻshimcha (affiks). Masalan, «-kent» – Toshkent, Piskent, «-goh» – Janggoh, Namozgoh, «-loq» – Toshloq, Qumloq, «-iston»- Bahoriston, Registon va hokazo.

Har qanday geografik obʻektning atoqli oti boʻlgan toponimlar alohida guruh soʻzlaridan tashkil topgan. Shu bois, ularning oʻzaro oʻxshash xususiyatlari koʻp, jumladan, soʻz tuzilishi, mazmuni, va hokazo. Bu xususiyatlar muayyan qonuniyatlar asosida toponimlarning alohida qoʻllanilmaydigan qismida takrorlanadi. A.L.Xromovning taʼbiri bilan aytganda, topoformantlar– toponimik soʻz yasash vositasi sifatida qoʻllaniladigan qoʻshimchalar yoki ularga teng boʻlgan yordamchi morfemalardir. Ularning tildagi boshqa qoʻshimchalardan farqi shundaki, geografik nomlar yasashga xoslangan.

Mutaxassislarining fikricha, oʻzbek tilida -ay, -ak, -al, -ar, -vul, -an, -gun, -i, -il, -kan, -lash, -li, -lik, -loq, -ni, -na, -chi kabi asosiy toponimik formantlar mavjud. Turkiy sodda toponimlarning etimologiyasini tadqiq etgan T.Enazarovning yozishicha, turkiy komponentli toponimlar tarkibida: -al, -ay, -ak, -ar, -vul, -gun, -gan, -i, -il, -kan, -lash, -li, -lik, -loq, -ma, -ni, -ning, -oq, -ul, -chi, -cha, -t kabi topoformantlar joy nomlari yasashda keng qoʻllaniladi. Olim formantlarni toponimlashuv hodisasi bilan bogʻliq holda topoasosga qoʻshilib geografik nom yasashi mumkinligini alohida taʼkidlaydi.

Geografik nomlar tarkibida bir xil elementlarning takrorlanishini olimlar allaqachon aniqlashgan. Masalan, XIII asrda yashab ijod qilgan Yoqut Hamaviy shahar va qishloqlarning nomlari tarkibida takrorlanib keladigan “-obod” unsuri fors-tojik tilida “aholi yashaydigan joy” maʼnosini bildiradi, deb yozgan edi. Zarafshon vodiysida *duvon* - *juvon* (*tuvon*) unsuridan tarkib topgan nomlar koʻp boʻlgan. Buzunduvon, Qoqishtuvon, Pinjduvon, Ovurduvon, Gʻijduvon va hokazo.

Xorazm toponimiyasini o'rgangan Z.Do'simovning tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik formantli nomlar dastlab mazkur ob'ektni ko'rsatuvchi toponimik indikator bilan birga qo'llanilgan. Keyinchalik vaqt o'tishi bilan toponimlarni soddalashish qonuniyatiga binoan, ob'ekt turini bildiruvchi so'z tushirilib qoldirilgan. Toponimlar tarkibidagi bu xilda soddalashish nomi semantikasidan ham sezilib turadi.

XIX asrda rus tilshunos olimi A.X.Vostokov Rossiyadagi suv ob'ektlari nomlarini tadqiq etib, daryo nomlarini oxirgi qo'shimchalarga qarab guruhlarga bo'ladi va bu qo'shimchalar hozir biron ma'noni anglatmasa ham qadimda ushbu hududlarda yashagan xalqlar tilida ma'lum ma'noni bildirgan deb to'g'ri xulosaga kelgan. U Rossiya daryolari nomlarning oxirida takrorlanadigan «-ra» – Pechora, Ijora; «-ga» – Pinega, Onega; «-ma» – Vyazma, Kostroma kabi qo'shimchalarning o'xshashligiga qarab guruhlarga bo'lgan, ya'ni hozirgi ilmiy til bilan aytganda ilk bor toponimlarni formantlarga qarab o'rgangan.

Toponimlarni formantlarga qarab o'rganish sohasida keyingi yarim asr ichida katta ishlar qilindi. Rossiyada geografik nomlarni formantlarga qarab o'rganish usulining afzalliklari, ayniqsa V.N.Toporov bilan O.N.Trubachevning Yuqori Dnepr bo'yi gidronimlarining lingvistik tahliliga bag'ishlangan asarida namoyon bo'ldi. Olimlarni yozishicha, formantlarga qarab tahlil etishning qulayligi shundan iboratki, har safar umumiy formantlarga birlashgan bir necha faktlar bilan ish ko'rish mumkin. Bundan tashqari, formantdan o'zakka qarab nomni tahlil qilib borish ulurni shakllanishi, etnik daxldorligi haqida tarixiy aniqlikka olib keladi.

Bu usulning ko'pgina tarafdorlari uni juda muhim va ishonchli deb hisoblashadi. Mutaxassislarning fikricha, nomlar tarkibida ko'p takrorlanadigan qo'shimchalar bir xil ma'noni anglatadi va qadimda aholining ko'chib yurishi to'g'risida xulosa chiqarishga undaydi. Shu sababdan aytish mumkinki, bir yerdan ikkinchi yerga ko'chib borgan xalq o'zi bilgan va tanish bo'lgan modellar yordamida geografik ob'ektlarga nom bergan. Masalan, tarixdan ma'lumki, so'g'dlar Xitoy bilan Yevropani bog'lagan "Buyuk Ipak yo'li" yoqasida bir qancha savdo shaharlari barpo qilganlar. O'sha davrda So'g'diyona markazi bo'lgan Samarqand nomi ham ko'chib yurgan. Chunonchi, XIII asrda Yettisuvda Samarqand shahri bo'lgan. Hozirgi Qozog'istondagi Temirtov shahri XX asrning 40-yillarigacha Samarqand deb atalgan. Farg'ona vodiysida ham bir necha qishloq qadimda Samarqandak, Samarqandiq deb atalganligi ma'lum.

Har bir mintaqa toponimiyasi uchun o'ziga xos toponimik formantlari mavjud. Chunonchi, slavyan xalqlari toponimiyasi uchun eng ko'p qo'llaniladigan «-ov, Xarkov; -ovo, Sokolovo; -ev, Rogachev; --in, Volchin; -ino, Rogozino; -vl, Yaroslavl; -sk, Minsk; -ets, Yelets; -itsa, Xortitsa; -grad, Volgograd» kabi formantlar hisoblanadi.

E.M.Murzaev toponimlarni formantlar yordamida o'rganish haqida gapirib, geografik nomlarning asosini aniq bilmasdan turib, formantlarga ajratish har doim ham yaxshi samara bermaydi deb yozgan. U hatto bir qatordagi va bir xil qo'shimchalar bilan tugagan nomlarni qiyoslashda ham o'ylab va ehtiyotkorlik bilan ish ko'rish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Toponimiyada formantlar – xronologik daxldorlik va etimologik tahlilning manbalaridan biridir. Formantlar areali esa ularni u yoki bu tilga daxldorligi hamda o'tmishda turli etnik guruhlarining tarqalganligini aniqlash imkoniyatini beradi.

*Toponimik modellar va tiplar.* Geografik nomlarni paydo bo'lishi, shakllanishi va tuzilishida muayyan qonuniyatlar mavjud. Bunday qonuniyatlar nom yasashda ishtirok etadigan so'zlarning ma'naviy jihatdan o'xshash ekanligida ham, grammatik jihatdan tuzilishida, ya'ni ularning qaysi gap bo'laklari sifatida ishtirok etishida ham, nihoyat toponimlar tarkibidagi so'z bo'laklarida ham ko'rinadi. Masalan, ruscha toponimlar orasida ikki va undan ortiq so'zdan tarkib topgan nomlarga nisbatan, bir so'zdan iborat nomlar ko'proq uchraydi. Bir so'zdan iborat toponimlar, odatda, otlar va kamroq hollarda sifatlilar shaklida bo'ladi. Masalan, Moskva, Tver, Volga va hokazo

Joy nomlari yasashda har bir til o'ziga xos xususiyatlarga va so'z yasashdagi toponimik modellar to'plamiga ega. Masalan, o'zbek toponimlari ko'pincha birdan ortiq unsurlardan iborat bo'ladi, qo'shimchalar o'zakdan keyin keladi, sifat otdan oldin turadi. Bu qonuniyat geografik kartadagi nomlarni yoki biron bir mintaqa toponimlarini diqqat bilan o'rganish jarayonida yaqqol ko'zga ko'rinadi. Xulosa qilib aytganda, joy nomlari muayyan qonuniyatlar, ya'ni so'z yasash qoliplari, modellari, tiplar yordamida paydo bo'ladi. Ularni ilmiy toponimik adabiyotlarda *toponimik modellar* deb atashadi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, toponimlarning paydo bo'lishi xalq tarixi, o'sha davrda shu hududda yashagan xalqning tili va uning so'z yasash modellari bilan chambarchas bog'liq. Yuqorida qayd qilingandek, geografik nomlarning paydo bo'lishida ijtimoiy ehtiyoj asosiy omil hisoblanadi va u tilga bog'liq bo'lmagan holda paydo bo'lganligi bois uni ekstralingvistik omil deb e'tirof etish mumkin.

Muayyan bir belgilar ostida birlashgan har qanday geografik nomlari guruhi – *toponimik tip* deb ataladi. Toponimlarni guruhlarga bo‘lib tahlil qilish ularning lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlarini to‘g‘ri belgilash imkonini beradi. Bir guruhga birlashtirgan toponimlar grammatik tuzilishi, kelib chiqishi va ma‘nosining umumiyligi bilan boshqalardan farq qiladi. Masalan, O‘zbekiston toponimiyasi tarkibidagi qadimiy toponimlar diqqat bilan ko‘zdan kechirilsa, ularning shaklan va mazmunan bir-biriga o‘xshash ekanligini payqash qiyin emas. O‘zbekistonda -li (Qandisli, Alanli, O‘rikli, Tutli); -lik (Zargarlik, Qassoblik, Novangarlik, Deprezlik); -cha (Quduqcha, Naymancha, Qoracha, Ko‘kcha) qo‘shimchali geografik nomlari toponimik tiplarga misol bo‘ladi. Rossiya toponimik tizimi uchun orqa qo‘shimchalar, suffikslar (-ov, -in, -sk, -eli, -ka, -chi va boshqalar) xarakterlidir. Ba‘zi suffikslar («-sk», «-ts») faqat toponimlar yusushga ixtisoslashgan.

S.Qoraevning yozishicha, maxsus lingvistik adabiyotlarda toponimik tip deb ba‘zan muayyan toponimik yasash modeli, ayrim hollarda formant ham tushiniladi. Biroq, toponimik tip deganda grammatik shakli bilan bir qatorda so‘zning ma‘nosini tushinish maqsadga muvofiqdir. Ana shunda har bir joy, har bir tarixiy davr va har bir til uchun o‘zining toponimik tiplari aniq ko‘rinadi. Toponimik tip – model va formantga nisbatan nisbiy tushuncha hisoblanadi. Bitta toponimik model bir necha toponimik tipni qamrab olishi mumkin. Shu bilan birga ba‘zan toponimik tiplar bir model doirasidan chiqishi, model va formant lingvistik tushunchalar bo‘lsa, toponimik tip kompleks tushuncha bo‘lib, toponimikning barcha jubbalarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Biron hududda ko‘p uchraydigan toponimik tiplarga geografik landshaftning xususiyatlari (qum, jar, qir, huloq, quduq) ham, muayyan tarixiy davrning xarakterli alomatlari ham (vaqf–vaqim, yom-jom, chek) o‘z aksini topgan. Morfologik – semantik tiplar ajratilsa, har bir mintaqa toponimiyasining o‘ziga xos xususiyatlari yaqqol ko‘rinadi. Demak, toponimik model toponimik tipdan farq qilib, toponimlarning tuzilishini bildiradi. Masalan, *ot-ot: Qo‘rg‘ontepa, Toshquduq, Jarhuloq; sifat-ot: Oqdaryo, Qaraqum, Yangibozor; ot-fe‘l: Qizketgan, Xumko‘mdi, Qumbosti; son-ot: Uchquduq, Beshariq, Qirqqiz* va hokazo.

Son va ot qolipda yasalgan toponimlarga Gvineya qo‘ltig‘ida joylashgan Tri-Poynts (Gana, inglizcha – «uch nuqta») burni nomini qiziqarli misol sifatida keltirish mumkin. Gap shundaki, nomning uch nuqta deb atalishiga buronga yaqin masofada 0 gradus kenglik va 0 gradus

uzoqlik nuqtasini joylashganligi hamda ushbu joyning dengiz sathi bilan tengligi sabab bo'lgan. Madagaskar poytaxti Antananarivu shahrining nomi «ming jangchi shahri» ma'nosini beradi. Rivoyat qilishlaricha, shaharning yetti darvozasini mingta jangchi qo'riqlagan. SHabar gerbi-da «ming jangchi bir kunda o'lmaydi» degan yozuv bor, keyinchalik u frantsuz mustamlakachilarga qarshi ozodlik uchun kurashda asosiy shiorga aylangan.

Dunyo toponimlari orasida eng qisqa va eng uzun nomlar alohida o'rin egallaydi. H.Hasanovning yozishicha, Norvegiyaning Lofoten orollaridagi baliqchilar qishlog'i faqat bitta A harfi bilan ataladi. Koreyada U, Shvetsiyada Yu, Fransiyada E deb atalgan aholi punktlari mavjud. Geografik nomlarning «championlari» ham aniqlangan. Ular orasida «oltin» medalni Tailand poytaxti Bangkok shahriga bersa bo'ladi. Uning norasmiy nomi jami 159 harf bilan yoziladi.

**Savol va topshiriqlar:**

1. *Toponimik formantlar deganda nimani tushunasiz?*
2. *Toponimik formantlarning mintaqaviy xususiyatlarini misollar yordamida tushuntiring.*
3. *Toponimik model va toponimik tip nima?*

### **Test topshiriqlari**

#### **1. Toponimik formant bu ...**

- A. Toponimlar tarkibida ko'p uchraydigan qo'shimcha
- B. So'z yasashda qatnashadigan qo'shimcha
- C. Mustaqil ishlatilmaydigan unsur
- D. Barchasi to'g'ri

#### **2. O'zbek tiliga xos bo'lgan toponimik model bu ...**

- A. Bir so'zdan tashkil topgan toponimlar
- B. Ikki va undan ko'p so'zlardan tashkil topgan nomlar
- C. Uch va undan ko'p so'zlardan tashkil topgan nomlar
- D. To'rt va undan ko'p so'zlardan tashkil topgan nomlar

#### **3. Toponimik tip bu ...**

- A. Muayyan bir belgilar ostida birlashgan har qanday toponimlar guruhi
- B. Turli belgilar ostida birlashgan har qanday geografik nomlari guruhi
- C. Aniq belgilar ostida birlashmagan har qanday geografik nomlari guruhi

D. To'g'ri javob yo'q

4. Joy nomlarini ilk bor toponimlar yordamida o'rgangan olim kim?

A. P.Semyonov-Tyan-Shanskiy

B. A.Dal

C. A.Gumbold

D. A.Vostokov

5. Nohlarda ayrim elementlarni takrorlanishi nimadan darak beradi?

A. Bir tipga xosligidan

B. Bir xil omillar asos bo'lganligidan

C. Etimologik davrdan

D. To'g'ri javob yo'q

#### 4.2. Birlamchi va ikkilamchi toponimlar. Ko'chma (migrant) toponimlar. Toponimiyada metafora

##### *Reja:*

1. Birlamchi va ikkilamchi toponimlarni paydo bo'lish sabablari.
2. Ko'chma (migrant) toponimlar.
3. Metaforik (majoziy) toponimlar.

*Mavzuning maqsadi:* Toponimika fanida keng tarqalgan birlamchi va ikkilamchi toponimlar, migrant (ko'chma) nomlar, majoziy (metaforik) nomlar va ularning paydo bo'lishda turtki bo'lgan voqea-hodisa sabablari haqida bilim va ko'nikmalar berish.

*Tayanch ibora va atamalar:* Birlamchi nom, ikkilamchi nom, toponimik metonimiya, qo'shma toponimlar, nomlar migratsiyasi, majoziy nom, metaforik toponimlar.

*Birlamchi va ikkilamchi toponimlar.* Turli geografik ob'ektlarning bir xil nomlanishi toponimikada keng tarqalgan hodisa sanaladi. Bu hodisa har qanday hudud toponimiyasining boyib, takomillashib borishini ta'minlovchi manbalardan biridir. Nom o'tishi nomshunoslikning nafaqat hozirgi holati, balki uning uzoq va yaqin o'tmishiga ham xos. Masalan, suv havzalari (daryo, buloq, quduq, ko'l va hokazo) yoki oronimik ob'ektlar (tog', tosh, tepa, jar va hokazo) nomlari, ularning yonida joylashgan aholi punktiga o'tadi, ayrim hollarda esa aksincha



bo'lishi ham mumkin. T.Nafasovning yozishicha, bir nomning turli geografik ob'ektlarda qo'llanishi xalqning yuksak ma'naviy-madaniy saviyasini ko'rsatuvchi voqelik sanaladi. Sirdaryo – aslida daryo nomi. O'tgan asrning 60-yillarida u viloyat, tuman, shahar nomiga aylandi. **Gidronim oykonim maqomiga ega bo'ldi.**

Respublika toponimiyasi tarkibida etnonimlarning shahar, tuman, qishloq, ovul, mahalla, guzar nomiga o'tishi etnik birliklarning tarixiy shakllanishi, tarqalish areali, integratsiyasi va migratsiyasidan darak beradi. Rel'ef shakllari nomining aholi manzilgohlari nomlariga o'tishi respublikaning barcha hududlariga xos. Ular ko'pincha mo'ljal, orientir vazifasini bajaradi. Avval, yer yuza ob'ekti nomlangan, so'ngra shu atrofda tashkil topgan aholi punktiga ham shu nom o'tgan. Masalan, jar – Jarqishloq, soy – Soyqishloq, tepa – Tepaqishloq va hokazo.

Bu holat ko'p takrorlansa ham, uni doimiy va mutlaq bo'lgan deyish qiyin. Geografik ob'ekt yonida bitta emas, bir necha qishloqlar paydo bo'lganligini ham unitmaslik kerak. Nom o'tish hodisasi toponimlarning faollik darajasini oshiradi, vazifasini yuksaltiradi, nomlararo munosabatlarni rivojlantiradi va tartibga soladi. Nom o'tish hodisasi ko'proq yondosh ob'ektlar orasida yuz beradi. Binobarin, yangi ob'ekt uchun nom uzoqdan qidirilmaydi, ko'pincha yonidagi geografik ob'ektning nomi unga nom qilib tanlanadi.

Bir xil geografik nomlarning bir ob'ektdan boshqasiga o'tish hodisasi *toponimik metonimiya* deb ataladi. Toponimik metonimiyaga oid misollarni dunyo mamlakatlari toponimiyasida ko'plab uchratish mumkin. Masalan, Kamchatka daryosi, Kamchatka yarim oroli, Kamchatka o'lkasi, Nyu-York shahri, Nyu-York shtati, Moskva daryosi, Moskva viloyati, Moskva shahri va hokazo. Tuzilishi va asosi bir xil, ammo turli ob'ektlarga tegishli geografik nomlarni biri dastlabki yoki *birlamchi*, boshqasi esa *ikkilamchi* toponim hisoblanadi. Birlamchi toponimlar mustaqil paydo bo'lgan, ikkilamchi toponim bundan oldin qo'llanilgan nomning mahsulidir.

Ikkilamchi toponimlar tuzilishi va so'z tarkibi jihatidan to'laligicha birlamchi toponimlarga mos keladi (Chirchiq daryosi – Chirchiq shahri, Jizzax shahri – Jizzax viloyati). Farqi shundaki, yangi ob'ektning nomi zahirida o'ziga xos toponimik ko'p ma'nolik paydo bo'ladi. Ikkilamchi toponimlar ba'zan formantlar yordamida birlamchi toponimlardan paydo bo'ladi (Volga daryosi – Volgograd shahri; Pina daryosi – Pinsk shahri va hokazo). Har qanday ikkilamchi toponimning paydo bo'lishi

va ma'no-mazmunini izohlashda bevosita birlamchi toponim bilan aloqadorligini unitmaslik lozim. Masalan, nima uchun shahar nomi Sirdaryo degan savolga, uni shu nomli daryo bo'yida joylashganligini ko'rsatish zarur. Bu holatda gidronimni birlamchi toponim sifatida ta'riflash alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zaro aloqadorlik alomatlari bilan mavjud bo'lgan nomlardan farq qilib, alohida guruhni qo'shma (*aralash*) toponimlar tashkil etadi. Ular ikki va undan ko'p tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ulardan biri toponimik metanomiya natijasida paydo bo'lgan. Qolgan qismi nisbatan mustaqil, qandaydir alomatni ko'rsatadi va nomlardagi umumiy unsurlar bilan birga aralashib geografik ob'ektni aniqlash imkonini beradi. Qo'shma toponimlar tarkibida qarama qarshi (antonimlar) ma'nodagi aniq-ayni so'zlar bo'lishi mumkin. Masalan, katta-kichik, yuqori (baland) – pastki, eski-yangi, shimoliy-janubiy va hokazo. Bunday toponim – kompozitlarga ko'plab misollar keltirish mumkin: Uchma soyi – Yuqori Uchma qishlog'i – Pastki Uchma qishlog'i, Chirchiq daryosi – Yuqori Chirchiq – O'rta Chirchiq – Quyi Chirchiq tumanlari, Tagil daryosi – Verxniy Tagil shahri – Nijniy Tagil shahri, Dvina daryosi – G'arbiy Dvina daryosi – Shimoliy Dvina daryosi va hokazo.

*Ko'chma (migrant) toponimlar.* Toponimikada joy nomining ko'chishi keng tarqalgan lisoniy va nolisoniy hodisa sanaladi. Geografik nomlarning ko'chib o'tish hodisasi qadimiy davrlarda ham bo'lgan, hozirgi davrda ham davom etmoqda. Shu sababdan, nomlarni ko'chishini doimiy toponimik jarayon deb qarash kerak. H.Hasanov ko'chma nomlar haqida gapirib qiziqarli misol keltirgan. Olimning yozishicha: «Andijon yonidagi Qashqarqishloq ko'chib ketgan qashqarliklar o'r-nashgan joy ma'nosida. Shunisi ham ma'lumki, biz qashqarlik deb umuman uyg'urlarni aytamiz, Sinszyanning eng tarixiy shahri Qashg'ar bo'lganidan shu nom mashhur bo'lib ketgan. Shu bilan birga uyg'urlar ham o'zbeklarni, asosan Farg'ona vodiysidan ko'chib borgan kishilarni, «anjanlik» deb ataganlar».

Jizzax cho'lini o'zlashtirish uchun viloyatning tog'li hududlarida joylashgan ayrim kichik qishloqlar aholisi butunlay cho'lga ko'chirilgan. Ko'chma qilingan qishloqlarda muqim aholi qolmaganligi bois, ko'pincha etnik guruhni anglatgan eski nomi, yangi tashkil etilgan aholi punktiga berilgan. Bu esa mintaqaning cho'l hududlarida ham *Taroqli, Arishli, Turk, Qangli* kabi etnooykonimlarni ko'chma nomlar sifatida paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. N.Oxunov yozishicha, «bir ob'ektdan

boshqa ob'ektga horib o'mashib qolgan aholining yangi joyi ularning avvalgi joy nomi bilan atala boshlanadi. Natijada, bir ob'ekt nomi ikkinchi ob'ekt uchun ham nom bo'lib qoladi, uning atamasi sifatida ishlatila boshlanadi».

O'tgan asrning 60-70 chi yillarda Jizzax cho'lining jadal o'zlashtirishi natijasida, yangi qishloq xo'jaligi korxonalarini bilan birga zamonaviy aholi punktlari harpo etildi. Respublikaning turli burchaklaridan ko'chib kelgan cho'lquvarlar, ularga o'zlari bilan birga olib kelgan nomlarini berishgan. Bu esa, viloyat hududida Andijon, Xorazm, Samarqand, Farg'ona kabi qadimiy ko'chma nomlar paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

Ba'zan tasodif tufayli o'zaro o'xshash nomlar paydo bo'ladi. Masalan, Ozarboyjondagi Kuba shahri bilan Karib dengizidagi Kuba orollari yoki Belarus va Fransiyadagi Brest shaharlarining nomlari orasida hech qanday o'zaro bog'liqlik yo'q. Ba'zan, o'xshash nomlarning paydo bo'lishida xalqlarning assimilyatsiyasi ham muhim rol o'ynagan. O'zga tilli xalqlar begona nomlarda o'zlariga tanish va o'xshash nomlarni ko'rgan.

Yuqorida qayd qilingan nomlarning tasodifiy va assimilyativ o'xshashligidan tashqari yana bir qator boshqa holatlarda ham nom ko'chish hodisasini ko'rish mumkin. Haqiqiy ko'chma nomlar nafaqat toponimika uchun, balki tarix, geografiya, etnografiya, lingvistika fanlari uchun ham qimmatli ilmiy ma'lumotlar beradi. Ular yordamida o'tmish davrlarda aholining ichki va tashqi siljishi va ko'chishi, o'zaro muloqotlari, yashab o'tgan hududlarini aniqlash mumkin.

V.A.Nikonovning yozishicha, «adash» nomlarni paydo bo'lishining ikkita asosiy sababi bor: birinchisi – aholi migratsiyasi natijasida eski nomlar to'g'ridan-to'g'ri yangi hududlarga ko'chirilgan, ikkinchisi–hududlar tabiiy sharoitining o'zaro o'xshashligi parallel nomlarning paydo bo'lishiga sababchi bo'lgan. Masalan, Yevropadagi Shveytsariya nomini Osiyo, Amerika, Avstraliyadagi xushmanzara landshaftlar tarqalgan hududlarda ko'rish mumkin. Toponimiyada har ikki jarayonni ham kuzatish mumkin, ularning har birining o'ziga xos ustunliklari bor.

Ko'chib kelganlar yangi joylariga o'zlari bilan birga nomlarni ham «ko'chirib» kelishgan. Amerika qit'asi kashf etilgandan keyin, yevropaliklar bilan birga Yevropa toponimiyasi ham «ko'chib» o'tdi. Masalan, AQSH da 12 ta Parij, 10 ta Varshava, 8 ta Moskva nomli aholi punktlari bor. Amerika geografiyasi – Yevropa geografiyasining takroriy kursi

degan xulosa behuda aytilmagan. Migrant toponimlar – aholi migratsiyasining bevosita hujjatlar bilan tasdiqlangan asosiy guvohlari hisoblanadi.

Avstraliyada Buyuk Britaniya shaharlarining «egizaklari» ko'p: Uels, Nyukasl, Kardiff va boshqalar. Yangi Zelandiyaga ko'chib kelgan britaniyaliklar mahalliy daryolardan birini V. Shekspir sharafiga, u sohilida tug'ilib o'sgan daryo nomi bilan Eyvon deb atashgan. Hozirda shu daryo sohilida joylashgan Kraystcherch (bu ham ko'chma nom) shahrining ko'chalari ham mashhur yozuvchining asarlaridagi qahramonlar (Juletta, Romeo, Qirol Lir, Makbet) nomi bilan ataladi.

Lotin Amerikasida Ispaniyadan «ko'chib» o'tgan Sevilya, Valensiya, Kordova, Barcelona, Kartaxena kabi nomlarni uchratish mumkin. Masalan, qit'alararo ko'chma nomga hozirgi Kartaxena (aslida Yangi Karfagen) shahrining nomi tipik misol bo'ladi. Gap shundaki, miloddan avvalgi 825 yilda, Afrika shimolida paydo bo'lgan qadimgi Karfagen shahar – davlatning nomi, arablar bosqini davrida Pireneya yarim oroliga, keyinchalik esa ispan kollonizatorlari bilan Lotin Amerikaga (Kolumbiya) «ko'chib» o'tgan. Migrant nomning asrlar davomida uch qit'ani bosib o'tganligi aniqlangan.

Venesuela mamlakatining nomi Venetsiya nomidan olingan bo'lib, kichik Venetsiya ma'nosini beradi. Mazkur nom XV asrning oxirlarida ispanlar tomonidan berilgan. Ular Janubiy Amerika qirg'og'ida uylari svoylarda qurilgan xushmanzarali aholi punktini uchratib, Venetsiyaga o'xshatishgan va shu nomni berishgan. Keyinchalik butun mamlakat shu nom bilan atalgan. Shimoliy Kavkazga ko'chib o'tgan armanlar shaharlarini, qadimiy Urartu va Armanistonning antik davrdagi poytaxti bo'lgan Armavir shahrini nomini berishgan. Toponim ko'p asrlar o'tib, XIX asrda yana qayta tiklandi.

H. Hasanovning yozishicha, Polsha kartograflarning hisobicha, bu mamlakat zaminida 19 ta Koreya, 18 ta Amerika, 13 ta Vengriya, 9 ta Kanada, 7 ta Venetsiya, 5 ta Braziliya, 4 ta Kiev, 3 ta Italiya degan nomlar bor. Ko'chma nomlarning asosiy qismini shahar va qishloq nomlari, ya'ni oykonimlar tashkil etadi. Tabiiy-geografik ob'ektlar ko'pincha, o'zlarining qadimiy nomlarini saqlab qolganlar. Bularning hammasi ko'chma, migrant nomlar yoki migrotoponimlarga misol bo'ladi. Shunday qilib, aytish mumkinki, ko'chma nomlar dunyoning ko'pchilik mintaqalari toponimiyasining an'anaviy komponenti hisoblanadi. Geografik nomlarning ko'chishiga -- kishilarning vatanidan xotira saqlashi,

o'xshash tabiiy sharoitlarni mavjudligi, hududni geografik o'rni, insonlarni xo'jalik faoliyati asosiy sabablari bo'lishi mumkin.

**Metaforik toponimlar.** Xalq geografik ob'ektlarning eng nozik va aniq belgilarini ilg'ab olib undan majoziy nom berishda foydalanadi. Shu sababdan, majoziy nomlar toponimiyada ko'p uchraydi va bu semantik so'z yasash usullaridan biri hisoblanadi. Majoziy nomlarni ilmiy toponimik adabiyotlarda metaforik (*metafora*, grekcha *μεταφορα* – «siljish, o'xshatish»), toponimlar deb atashadi. Metafora so'zi o'xshatishni nazarda tutadi va u bir ob'ektni boshqa bir geografik ob'ekt bilan haqiqatan yoki zohiran hamda shakli va tashqi ko'rinishini o'xshashligiga qarab geografik ob'ektlarga nom berishda qo'llaniladigan usuldir. Masalan *Tuyatosh, Odamtosh, Arratosh, Qo'yotosh* va hokazo.

Adabiyotda metafora usuli so'z yoki iborani o'xshatishga asoslab ko'chma ma'noda ishlatiladi. Aytish joizki, ilmiy adabiyotlarda istiora so'zi ham shu ma'noda qo'llanilgan. Istiora – arabcha, “qarz olish” ma'nosidagi so'z. Bu usul jonli til va badiiy adabiyotlarda keng qo'llaniladigan tasvir vositasi sanaladi. Chunonchi, *tosh yurak, metin iroda, xum kalla* va hokazo. Nomlovchi ob'ektni atalishiga asosiy turtki bo'lgan belgini (shakli, tashqi ko'rinishi), tasavvurida boshqa narsalar taqqoslash, o'xshash bo'lgan jihatlarini inobatga olib unga o'xshatma nom tanlaydi.

Xalq tabiiy geografik terminlarini maxsus o'rgangan M.Mirakmalov xalq og'zaki nutqida ishlatiladigan ayrim geografik terminlar inson tanasi a'zolari bilan atalishini o'rganib metaforik nomlarga qiziqarli misollar keltirgan: 4-jadval.

| №   | Atama          | Geografik ma'nosi  |
|-----|----------------|--|
| 1.  | <b>Barmaq</b>  | Tik qoya, col ishi natijasida hosil bo'lgan ustuncha   |
| 2.  | <b>Bel</b>     | Devon, oshuv, ko'tal   |
| 3.  | <b>Bosh</b>    | Daryoning boshlanish qismi, tog' cho'qqisi   |
| 4.  | <b>Burun</b>   | Quruqlikning suvga turtib chiqqan uchi   |
| 5.  | <b>Bo'yin</b>  | Quruqliklar, tog'larni (Rel'efning musbat shakllarini) tutashtirib turuvchi kambar joy           |
| 6.  | <b>Bo'g'iz</b> | Dengizlarni, ko'llarni va ularning qismlarini tutashtirib turuvchi kambar suv hududi, akvatoriya |
| 7.  | <b>Kindik</b>  | Tabiiy-hududiy birliklarning o'rta, markaziy qismi   |
| 8.  | <b>Ko'z</b>    | Buloq chiqqan joy  |
| 9.  | <b>Oyoq</b>    | Etak, quyi qism, odoq  |
| 10. | <b>Og'iz</b>   | Daryoning quyilish joyi (ko'rfaz), tog' darasining eng tor joyi                                  |

|     |                |  |
|-----|----------------|--|
| 11. | <b>Til</b>     | Ko'rfaz, (qo'ltiq), bo'yin   |
| 12. | <b>Tirsak</b>  | Daryoning burilish joyi  |
| 13. | <b>Tumshuq</b> | Tog', tepalik va orolning hurni, uch tomoni  |
| 14. | <b>Qovoq</b>   | Daryo va ko'llarning baland qirg'og'i, jarlik, baland terrasa  |
| 15. | <b>Qosh</b>    | Uzun cho'zilgan tepalik, marza, baland qirg'oq, o'rmon cheti   |
| 16. | <b>Quloq</b>   | Ariqning tarmoqlangan joyi   |
| 17. | <b>Qo'l</b>    | Tog' yonbag'ridagi tepaliklar, tog' chekkasidagi do'nglar, tog' tepasidan etagigacha to'g'ri tushgan do'ng, vodiyning o'rtasidan tepasigacha bo'lgan yo'l, daryo irmog'i |

M.Mirakmalov tomonidan tayyorlangan (2009).

O'zbekistonning qadimgi gidrotexnik inshootlari geografiyasini o'rgangan A.Nizomov Xorazm viloyatidagi majoziy nomga ega bo'lgan Kindiksoy haqida shunday ma'lumotlarni keltirgan: "Darhaqiqat Taxtako'pirdan sharq tomon avtomobil yo'li bo'ylab Kindiksoy deb atalgan keng quruq o'zan cho'zilib ketadi. Mahalliy aholining hikoya qilishicha, oxirgi yuz yil davomida Amudaryo ikki marta urib ketib, Dovqara pasttekisligini suv bosgan va har gal suv Kindiksoydan oqqan. Mahalliy aholi Kindiksoydan kichik – kichik kanallar qazib o'tkazib, dehqonchilik bilan shug'ullangan. Kindiksoyda suv kamayganda to'g'onlar qurib suvni kanallarga chiqarishgan". Mahalliy xalq tomonidan quruq o'zanni Kindiksoy deb atalishi, uni daryoning boshqa qadimiy o'zanlariga nisbatan markazda joylashganligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, hayvonlarning tanasi ham metaforik nomlar yasashda keng qo'llanilgan. Masalan, o'tmishda majoziy nomlarga sabab bo'lgan hayvonlardan biri tuyadir. Fan-texnika o'ta taraqqiy etgan hozirgi zamonda tuya o'zining jismoniy kuchi, suvsizlikka va jaziramaga o'ta chidamliligi va tashqi qiyofasi bilan har qancha e'tiborga molik bo'lmasin, bu jonivor nomi zamonaviy toponimlar yasash «tanlovida» ishtirok eta olmasligi aniq, ammo o'tmishda dono xalq nafaqat tashqi ko'rinishi g'alati, balki ichki tuzilishi ham jumboqli bo'lgan tuyadan ko'pgina o'xshatma nomlar yasagan.

Dastlabki to'liq bo'lmagan ma'lumotlarga qaraganda respublika hududida tuya so'zi ellikdan ortiq toponim tarkibida uchraydi. Masalan, *Tuyaboshi, Tuyabo'g'iz, Tuyatortar, Tuyaoshuv, Tuyayaylov, Tuyaqorin, Tuyaquyruq, Tuyaquduq, Tuyadala, Tuyachi, Tuyabuloq, Tuyabo'ynoq* va hokazo. Tuya benazir ulov bo'lishi barobarida gavda tuzilishining g'alatiligi bilan ham kishilar e'tiborni tortgan. Tuyachi so'zning lug'aviy ma'nosi sarbon, tuyakash, tuya karvonining boshlig'i

ekanligini hamma biladi, ammo tuyaquduqning suvi tuya kuchi bilan tortib chiqarilishini, ko'tarma ariqqa suv beradigan ulkan chig'irning tuya yordamida harakatga keltirilishining tuyatortar deb atalishini hamma ham bilmasligi mumkin.

Tuyaoshuv – eshak tugul tuya ham oshib keta oladigan yassi tog' dovoni; tuyabo'g'iz – daraning bo'g'iz singari tor joyi, yoki daryoning tuya bo'g'iziga – bo'yniga o'xshab oqadigan joyi; tuyatosh – baland tosh, yuksak tosh, uzoqdan tuya shaklida bo'lib ko'rinadigan baland toshli joy, yoki tuyadan ham yirik yakka tosh-qoya; tuyashoti – yolg'izoyoq yo'li bo'lgan katta balandlik, cho'qqi; tuyabo'yin – bo'yin uzunasiga cho'zilgan qirsimon balandlik, o'rtasida qirrasa bo'lib, ikki tomoni qiya tushgan cho'ziq do'nglik, yoki daryo suvi tuyaning bo'yniga o'xshab ilang – bilang bo'lib oqadigan joy; tuyamo'yin – tog', daryo, qumlik joylarning tor qismi – yo'lagi, tuya bo'yniga o'xshash egri joy; tuyabo'ynoq – XI asr turkiy tilida bo'ynoq – tog' bo'yni, bo'yin singari cho'ziq qirsimon balandlik, qirning bir ko'inishi; tuyaquyruq – poyasi tuyani dumini eslatadigan o'simlik; tuyatovon – tuya-ning tovoniga o'xshab yerda yoyilib o'sadigan o't; ekanligiga ishoradir.

Metaforik nomlarni boshqa tillarda ham ko'plab topiladi. Masalan, rus tilidagi rog termini yordamida ushbu qonuniyatni hammabop (universal) ekanligini kuzatish mumkin. Slavyan tillarda bu termin «o'tkir cho'qqi, cho'qqi, jar, bo'g'oz» ma'nosiga ega. Nemis va inglizcha – horn, xitoy tilidagi – tszyao, vetnam tilidagi – khau so'zlari ham shu ma'nolarda qo'llaniladi.

Ushbu termin asosida Taganrog (Rossiya), Rogachev (Belorus), Krivoy Rog (Ukraina), Alpdagi Finserarxorn va Matterxorn, Kordilera-dagi Bigxorn, Gorn bo'g'oz (Janubiy Amerikaning janubiy nuqtasi), Kxaufay tog'i (Vetnam) kabi geografik nomlar paydo bo'lgan. Jonli tildan olingan metaforik geografik nomlar – Turkiyada Tavr tog'lari – “buqa”, Alpdagi Yungfrau – “yosh kelinchak”, Patagoniya – “uzun oyoq, jun oyoq”, Magellan hamrohlari mahalliy hindular uzun oyoqlariga jun o'raganlarni ko'rgani uchun shunday atagan. Baxmal, G'allaorol toponimlari ham metaforik nomlarga misol bo'ladi.

Metaforik nomlarni paydo bo'lishi birinchidan, kishilarni tabiiy ob'ektlarga munosabatining umumbashariy xarakterga ega ekanligi bilan belgilansa, ikkinchidan inson tana a'zolari nomi tilda ko'p qo'llanadigan so'zlar hisoblanadi. Tabiat hodisalari va ob'ektlari insoniyat hayotida katta rol o'ynaganligi bois, ular qiyoslagan va o'xshatgan.

Metaforik nomlar tarjima qilinmaydi, talaffuzi qanday bo'lsa shunday yoziladi. Ular yordamida so'zlarni termin va toponimlarga aylanishi imkoniyatini yaqqol ko'rish mumkin.

**Savol va topshiriqlar:**

1. *Ikkilamchi toponimlarning paydo bo'lishi sabablarini izohlang.*
2. *Ko'chma (migrant) toponimlar qanday paydo bo'ladi?*
3. *Inson tana a'zolari asosida paydo bo'lgan majoziy (metaforik) nom va geografik ob'ekt orasidagi o'zaro uyg'unlikni taqqoslab sharhlang.*

**Test topshiriqlari**

**1. Bir xil geografik nomlarning bir ob'ektdan boshqasiga o'tish hodisasi qanday ataladi?**

- A. Toponimik metropoliya
- B. Toponimik metotaza
- C. Toponimik metonimiya
- D. Toponimik metofatsiya

**2. Ko'chma toponimlarni paydo bo'lishiga sabab ...**

- A. Aholi migratsiyasi
- B. Hududlar sharoitining o'zaro o'xshashligi
- C. Tasodufan paydo bo'lgan
- D. Barchasi to'g'ri

**3. Majoziy nomlar ilmiy toponimik adabiyotlarda qanday ataladi?**

- A. Metaforik
- B. Metabolik
- C. Metafizik
- D. Metagolik

**4. Toponimlar tarkibidagi "tumshuq, hurun, quloq, og'iz" kabi inson tana a'zolari asosida paydo bo'lgan nomlar qanday ma'noga ega?**

- A. Mavsumiy
- B. Majoziy
- C. Haqiqiy
- D. Qalbaki

**5. Jonli tildan olingan metaforik nomni belgilang.**

- A. Tavr
- B. Yungfrau



- C. Patagoniya
- D. Barchasi to'g'ri

## **5-mavzu: GEOGRAFIK NOMLAR TRANSFORMATSIYASI. AN'ANAVIY NOMLAR**

### **5.1. Geografik nomlar transformatsiyasi**

#### ***Reja:***

- 1. Geografik nomlar transformatsiyasi haqida umumiy tushuncha.*
- 2. Toponimlar transformatsiyasi turlari.*
- 3. Joy nomlarini qayta ma'no kasb etishi*

**Mavzuning maqsadi:** Talabalarga toponimlarning o'zgaruvchanligi, uning sabablari va turlari, nomlarni soddalashishi, tejamkorligi, turli tillarga moslashuvi, qayta ma'no kasb etishi haqida bilim va ko'nikmalar berish.

**Tayanch ibora va atamalar:** Transformatsiya, soddalashish, nomlarni tejamkorligi, abbreviatura, morfologik transformatsiya, qayta ma'no kasb etishi.

Ma'lumki, har qanday geografik nom tarixning ma'lum bir davrida ijtimoiy ehtiyoj tufayli paydo bo'ladi, ammo ana shu ehtiyojga turtki bo'lgan ijtimoiy, madaniy, ruhiy, lisoniy omillarni topish ancha murakkab masaladir. Sababi nomlarga o'zgaruvchanlik xos va bu o'zgarishlar turli bosqichda bo'lishi mumkin. Ba'zi nomlar ko'p asrlar davomida umuman o'zgarmagan bo'lsa, ayrimlarining shakli, talaffuzi vaqt o'tishi bilan ma'lum darajada o'zgarib tushunarsiz bo'lib ketgan. Masalan, Qizilqumda Jumurtov degan tog' bor. Qoraqalpoq toponimisti Q. Abdimuratov tog' nomini "yumaloq tog'" deb izohlagan. Haqiqatdan ham ba'zi turkiy tillarda, jumladan qoraqalpoq, qirg'iz tillarida jumur "yumaloq" degan ma'noni beradi.

Taniqli toponimist olim S. Qoraev esa tog' nomi qadimiy xorazmiy tilidagi Govmard – "ho'kiz odam" so'zi bilan bog'liq deb hisoblaydi. Sharqiy eroniy tillarga mansub bo'lgan xorazmiy tili muomaladan chiqqandan so'ng, turkiy tillar ta'sirida dastlab u jovmard, juvmart, keyincha nomni fonetik jihatdan o'zgarishi bilan ma'nosi ham o'zgarib

Jumurtov shaklini olgan. Bu juda asosli fikr, chunki g tovushining j ga aylanishi toponimlar tarkibida ko'p kuzatiladi.

Geografik nomlar transformatsiyasiga yana bir misolni S.Qoraevni "Toponimika" kitobidan topish mumkin. Olimning yozishicha, nomlar tarkibida tez-tez uchrab turadigan gul so'zini transformatsiyasi diqqatga sazovor. So'z ham deb yozadi S.Qoraev har qanday mavjudot singari tug'uladi, kamol va fano topadi, goho bir necha ming yillik umr kechirib bir o'lkadan boshqa yurtga, bir tildan boshqa tilga ko'chib, uzoq yo'lni bosib o'tadi. Zamon gardishi bilan, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar ta'sirida hamda o'zga tillar muhitida o'z qiyofasini shu qadar o'zgartiradiki, avvalgi shakli kishilar xotirasidan o'chib, unitilib ketadi.

Otashparastlarning muqaddas kitobi "Avesto"da qizil atirgul *varedzha* deb atalgan. Bu so'zning birinchi qismi, ya'ni vard tojik va o'zbek mumtoz adabiyotida, jumladan, Alisher Navoiy asarlarida *vard* shaklida (atirgul ma'nosida) uchraydi. Qadimiy eroniy tillar mutaxassisi, adib Muhsin Umarzoda fikricha, dastlab *vard* so'zidagi r tovushi l tovushiga aylangan va milodning ilk asrlarida *vard* so'zi *val* shaklini olgan (d tovushi tushib qolgan). Keyinchalik *vel*, nihoyat *vul* deb talaffuz qilinadigan bo'lgan. *Vul* so'zidagi v tovushining g tovushiga aylanishi ham o'sha davrlarda ro'y bergan.

Shunday qilib *vard* so'zi *gul* bo'lib ketgan va turkiy tillardagi chechak so'zini surib chiqargan. Gul so'zining ibtidoiy shakli toponimlar tarkibida saqlanib qolgan. Masalan, qadimda podsholarning qarorgohi "vardani", "vardona", "vardonzi" (gulxona, gulzor) deb atalgan. Buxoro viloyatidagi Vardonze xarobasi shu kishvarning oxirgi hokimi Vardonxudotning qarorgohi bo'lgan.

Mutaxassislarning fikricha, nomlardagi o'zgaruvchanlik sabablari ham turlicha bo'lishi mumkin. Ba'zan, toponimning o'zgarishi uni turli tilli xalqlar tomonidan qo'llanishi bo'lsa, ikkinchidan bir tildagi so'zning tovush o'xshashligi, ammo mazmunan farq qilishi, uchinchi holda esa tilning tovush va grammatik tuzilishida sodir bo'lgan o'zgarishlar sabab bo'lishi mumkin. Bu hodisa ilmiy toponimik tilda transformatsiya deyiladi. Geografik nomning transformatsiyasi bu— uning tarixiy qo'llash jarayonda o'zgarishidir.

Toponimlar transformatsiyasining ayrim turlari:

1. *Soddalashish*. V.A.Juchkevich yozishicha, nomlarni soddalashish qonuniyati toponimika uchun xos bo'lgan an'anaviy hodisa sanaladi.

Soddalashish – ko‘p komponentli nomlarning ixchamroq shaklga kirishi va chinakam toponimga aylanish jarayonidir. *Jo‘yi Langar – Jo‘langar; Bibi Ubayda – Buvayda*. Darhaqiqat, joy nomini mazmunini saqlab qolib, uni imkon qadar qisqa shaklda bayon etish toponimika uchun muhim qonuniyatdir. Geografik ob‘ektning nomlashda, uning to‘la tavsifi kerak emas, balki faqat umumiy va imkoni boricha ixchamroq ifodalash maqsadga muvofiq.

Ma‘lumki, toponimlar grammatik va semantik jihatdan hozirgi shaklga kelgunga qadar talay o‘zgarishlarga, jumladan, nomning tejash tamoyiliga asosan qisqarishga uchraydi. Masalan, yangi paydo bo‘lgan aholi punkti dastlab *nayman urug‘ining qishlog‘i* nomini olgan. Nomning chinakam toponimga aylanish jarayoni tugamaganligi bois, u butun bir gapdan iborat va ishlatish uchun qo‘pol bo‘lgan. Tilning leksik vositalarini tejash qonuniyatiga ko‘ra, uzoq yillar davomida qo‘llanilishi natijasida geografik nom sayqallanib, nihoyat *Nayman* shaklini olgan. Chunki, vaqt o‘tishi bilan shu hududda yashovchi xalq uchun ob‘ektning turini aytishga ehtiyoj qolmaydi. Sababi ob‘ektning o‘zi bilan hirga, unga xos bo‘lgan xarakterli belgi assotsiatsiyalashgan bo‘ladi. Natijada ob‘ektga xos helgi uning o‘zini ham ifodalaydi. Nomning qisqarish sur‘ati uni qanchalik ko‘p qo‘llanilishiga bog‘liq.

Nomlardagi tejamkorlik boshqa mamlakatlar toponimiyasida ham bor. Masalan, Sankt-Piterburgni – Piter, San-Frantsisko – Frisko, Los-Anjeles – El-Ey (inglizcha bosh harflari bilan) deb atashadi. Ispan tilli toponimiyaga ham tejamkorlik xos. Chunonchi, 1535 yili La-Plata daryosining quyi oqimida asos solingan shaharga ispanlar *Ciudad de la santissima Trinidad e Puerto de nuestra señora la virgen Maria de los Buenos aires*, ya‘ni *Trinidad muqaddas shahri, Bibi Maryam yoqimli shamollari porti Buenos-Ayres* nomini berishgan. Hozirda shahar Buenos-Ayres yoki yana ham qisqaroq Bayres deb ataladi.

2. *Abbreviatura*. Transformatsiyaning bu turi toponimlarga xos tejamkorlikni bir shakli deb hisoblash mumkin. Abbreviatura – bir necha so‘zlardan paydo bo‘lgan geografik nomlarni bosh harflari bilan ifodalash usuli. *BMT, YUNESKO, NATO, YUNISEF, OPEK* kabi toponim – abbreviaturalar xalqaro miqyosda keng qo‘llanadi. Toponim – abbreviatura yasashdan asosiy maqsad tejamkorlik, nomdagi hosh harflar yordamida geografik nomning mazmunini ilg‘ab olish mumkin. Bunday nomlar qisman tarjima qilinadi. Xalqaro tajribadan ma‘lumki, siyosiy – ma‘muriy ob‘ektlarning nomlariga ko‘ra, tabiiy geografik ob‘ektlar nomlari ko‘proq tarjima qilinadi.

3. *Morfologik transformatsiya.* Transformatsiyaning bu turi toponimlarni ma'lum tarixiy davrda turli tillarga moslashuvi oqibati sanaladi. Geografik nomlar ma'lum bir tilda paydo bo'ladi, ammo boshqa so'zlardan ularni farqi shuki, toponimlar barcha dunyo tillariga o'zlashishi mumkin. O'zga tillarga o'zlashishi jarayonida nomning tuzilishi va tarkibi o'zgarib, uning etimologiyasini aniqlash ancha qiyinlashadi.

Masalan, finikiyaliklar Pirineya yarim orolining g'arbiy sohilida aholi punkti barpo etib, uni shu joydagi qo'ltiq nomi bilan *Alisubbo* – «shodlik qo'ltig'i» deb atashgan. Keyinchalik bu nom lotin, got, arab va portugal tillari ta'sirida bir qancha o'zgarishlarga duchor bo'lgan: – Olisippo – Olissipona – al-Oshbuna – Lishbua. Rus tiliga bu nom Lissabon shaklida o'zlashgan, o'zbek tiliga esa rus tiliga xos varianti qabul qilingan. Geografik nomlar orasida transformatsiyaning bu turiga ko'plab misollar topish mumkin. Chunonchi, *Kar-Xadasht* – *Kartago* – *Kartadjanna* – *Karfagen* – *Kartaxena*, *Jabal-el-Tariq* – *Jabaltar* – *Gibraltar*, *Porasht* – *Forash* – *Forij* – *Forish* va hokazo.

4. *Nomlarning qayta ma'no kasb etishi.* Geografik nomlar transformatsiyaning bu turi natijasida shaklan va mazmunan o'zgaradi. Ba'zan, ana shunday shaklan va mazmunan tushunarsiz bo'lib qolgan nomlar talaffuzdagi o'xshashligiga qarab yoziladi va boshqacha talqin qilinadi. Natijada, nomning yozilishi va semantikasi o'zgarib u qayta ma'no kasb etishi mumkin. Taniqli toponimist olim V.A.Juchkevich toponimikadagi bu hodisani, o'simlikni avvalgi joyidan hoshqa joyga ko'chirib o'tkazib, uni aslida qaysi donadan unib chiqqanligi noaniq ekanligiga o'xshatadi.

Transformatsiyaning bu turiga hozirgi Volgograd shahrining qadimgi nomini paydo bo'lishi yaqqol misol bo'ladi. Tarixiy ma'lumotlardan ma'lumki, 1589 yili Saritsa daryosi sohilida *Saritsin* (hozirgi Volgograd) shahriga asos solingan. Mutaxassislarning yozishicha, ruslar Saritsa deb atagan daryo nomining ilk shakli Sarisu bo'lgan. Daryoning turkiy Sarisu nomi transformatsiya natijasida yangicha ma'no kasb etgan va shaklan o'zgarib rus tilida Saritsaga aylangan. Keyinchalik gidronim slavyan tillariga xos «-in» toponomanti yordamida Saritsin shaklida shahar nomiga aylangan.

Fransuzcha harbiy post, qarovulxona ma'nosidagi piket (*piquet*) so'zi rus tiliga beket va undan o'zbek tiliga bekat shaklida o'zlashgan. Chor Rossiyasi davrida O'rta Osiyoda o'rmonlarni qo'riqlash harbiylar qo'lida bo'lgan va o'rmon qarovullari yashaydigan joy, qarovulxona bekat deyilgan. Temir yo'l stantsiyalari ham harbiylar tamonidan qo'-

riqlangan va dastlab bekat deyilgan. Hozir ko'proq shaharlardagi transport vositalarini to'xtash joyini bekat deyishadi.

Xulosa qilib aytganda, nomlarga o'zgaruvchanlik xos va bu o'zgarishlar qaysi bosqichda va qanday sabablarga ko'ra sodir bo'lganligini bilish, geografik nomning asl ma'no-mazmunini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Savol va topshiriqlar:**

1. *Geografik nomlar transformatsiyasi deganda nimani tushunasiz?*
2. *Toponimlar transformatsiyasining qanday turlari bor?*
3. *Joy nomlarini qayta ma'no kasb etishi sabablarini bayon qiling.*

**Test topshiriqlari**

**1. Geografik nomning transformatsiyasi turi qaysi javobda to'g'ri ko'satilgan?**

- A. Tekstura
- B. Oykostura
- C. Klaviatura
- D. Abbreviatura

**2. Nomlarni soddalashishi bu ...**

- A. Ixchamroq shaklga kirishi
- B. Chinakam toponimga aylanishi
- C. Nomning tejash tamoyiliga asosan qisqarishi
- D. Barcha javoblar to'g'ri

**3. Toponim- ahbreviatura yasashdan asosiy maqsad nima?**

- A. Tejamkorlik
- B. Nomdagi bosh harflar yordamida uni mazmunini ilg'ab olish
- C. Geografik nomlarni bosh harflari bilan ifodalash
- D. Barchasi to'g'ri

**4. Morfologik transformatsiya natijasida geografik nom ...**

- A. Turli tillarga moslashmaydi
- B. Tuzilishi va tarkibi o'zgarmaydi
- C. Etimologiyasini aniqlash osonlashadi
- D. Boshqa tillarga o'zlashadi

**5. Hozirda qayta ma'no kasb etgan *hekat* so'zi aslida qaysi til mahsulidir?**

- A. O'zbek
- B. Turk
- C. Fransuz
- D. Nemis.

## 5.2. An'anaviy nomlar

### Reja:

1. An'anaviy nomlar haqida umumiy tushuncha.
2. Xalqaro talablar va an'anaviy nom.
3. An'anaviy nomlarning hududiy tarqalishi va ularga nisbatan qo'yilgan talablar.

**Mavzuning maqsadi:** O'zbek tilida an'anaviy bo'lib qolgan geografik nomlarning paydo bo'lish tarixi, yozilish xususiyatlari, ularga nisbatan qo'yilgan xalqaro talablar hamda tarjima qilinadigan va qilinmaydigan nomlarga nisbatan mavjud an'nalari haqida ilmiy tushuncha hosil qilishdan iborat.

**Tayanch ibora va atamalar:** An'anaviy nom, nomi integratsiyasi, ularga qo'yilgan xalqaro talablar, an'anaviy nomlarni kamaytirish talabidati, yagona milliy shaklni yaratish va qat'iylashtirish.

Qadimdan qo'llanib kelinayotgan va xalq tilida juda mustahkam o'tmush bo'lgan geografik nomlarni an'anaviy nomlar deyish mumkin. Ular toponimlar orasida ma'lum bir guruhni tashkil etadi. Taniqli toponimist olim H.Hasimov ta'kidlashicha, bunday nomlarning yozilishida va talaffuzida ikki xillik yo'q, bular ham matbuotda, ham darslik va kitoblarda, ham kartularda hamisha bir shaklda yozilib kelinadi. An'anaviy nomlarga ko'pincha mahalliy toponimiya hamda xalq tilida azaldan qo'llanib kelayotgan va juda mustahkam o'rin olgan geografik nomlar misol bo'ladi.

Ma'lumki, respublika toponimiyasi tarkibidagi *Buxoro, Samarqand, Xorazm, Farg'ona* kabi nomlar bir necha asrlardan buyon qadimiy tarixiy, ilmiy manbalarda, sayohatnoma va badiiy adabiyotlarda qo'llanib kelinmoqda. Ular nafaqat o'tmish «guvochlari» sifatida xalqimizga yaxshi tanish, balki dunyo xalqlari orasida ham ma'lum va mashhur nomlar hisoblanadi. Ushbu nomlar o'zbek tilida qanday talaffuz qilinsa, boshqa xalqlar tilida ham aynan shunday talaffuz qilish an'anaga aylanib ketgan.

Sharq mamlakatlar toponimiyasi tarkibidagi *Iroq, Misr, Hindiston, Arabiston, Yaman, Eron, Bag'dod, Hirot, Qashg'ar, Xuroson* kabi ko'plab nomlar o'zbek tiliga qadimdan o'zlashgan va ular doimo bir xil shaklda yoziladi. Bu nomlar o'sha mamlakat tilida qanday talaffuz etilsa, o'zbekchada ham ayni shunday talaffuz etiladigan bo'lib ketgan.

O'zbek tilida mustahkam o'rnashib an'anaviy bo'lib qolgan bunday nomlar respublika toponimiyasi tarkibida ham o'z aksini topgan. Bunga respublika hududidagi Bag'dod, Xuroson, Qashg'ar, Misr, Balx kabi aholi punktlari nomlari misol bo'ladi.

Ayrim sharq mamlakatlarining nomlari Yevropa xalqlari tilida o'z-gacha yozib va talaffuz qilinishidan qat'iy nazar, ularning nomi o'zbek tilida uzoq o'tmishda ham va hozirda ham bir xil yoziladi va talaffuz qilinadi. Masalan, hozirgi Eron davlati XX asrning o'ttizinchi yillarigacha Yevropada, jumladan Rossiyada *Persiya* deb atalgan, ammo O'rta Osiyo xalqlariga esa, qadimdan bu davlat *Eron* nomi bilan ma'lum. Boshqa misol, ruscha *Yegipet* esa inglizcha *Egypt* dan olingan, aslida bu mamlakatning mahalliy nomi *Misr*, shu sababdan o'zbek tiliga arabcha shakli aynan o'zlashgan va bugungi kunda davlat nomi o'zbek tilida *Misr Arab Respublikasi* deb yoziladi va talaffuz qilinadi.

O'tmishda mashhur bo'lgan, hozir tarixiy kartalarda muhrlangan Farangiston, So'g'diyona, Ustrushona, Chin, Shom, Rum, Dashti Qipchoq kabi an'anaviy nomlar ham bor. O'zbek tilida ko'p yillar davomida Xitoy nomi bilan birga Chin nomi ham sinonim sifatida qo'llanib kelingan. Aytish mumkinki, o'tmishda Chin nomi ko'proq mashhur bo'lgan va chin so'zidan ot va sifatlar ham yasalgan (chinni gul, chinni kosa, chinni piyola va hokazo). O'rta Osiyo xalqlari tilida, so'nggi asr davomida nomning Xitoy shakli ko'proq qo'llanilganligi tufayli, davlat nomi sifatida Chin so'zidan ustunlik qildi va an'anaviy nomga aylanib qoldi.

Hozirda bizga an'anaviy bo'lib qolgan, ba'zi bir nomlar rus tili orqali o'zbek tiliga o'tganligi bois, ular ko'pincha ruscha shaklida yoziladi va talaffuz etiladi. Masalan, (qavs ichida asl mahalliy shakli yozildi) *Rim (Roma)*, *Frantsiya (Frans)*, *Avstriya (Esterreyx)*, *Neapol (Napoli)*, *Norvegiya (Norge)*, *Parij (Pari)*, *Genuya (Henova)*, *Jeneva (Hinehra)*, *Finlandiya (Suomi)*, *Yaponiya (Nippon)* va boshqalar. H.Hasanov ta'biri bilan aytganda, an'anaviy nomlarning ishlatilishida geografiyada yana bir qonuniyat bor, ya'ni shuni unutmashlik kerakki, an'anaviy nom faqat bir joygagina taalluqli bo'ladi.

Boshqa yerdagi shu nomli joylar an'anaviy shaklda emas, balki o'sha mamlakatning o'zida qanday yozilsa, shunday yozilishi kerak. Chunonchi, Misrdagi *Iskandariya* biz uchun an'anaviy nom, ammo AQSH dagi *Aleksandriya* shahrini nomini Iskandariya deb yozish xato hisoblanadi. Avstraliyadagi yirik shaharlardan birining nomini *Sidney*

deb yozamiz, Angliya va AQSH dagi xudi shu nom bilan ataladigan shaharlar Sidni shaklida yozilishi kerak. Olimning yozishicha, AQSH ning turli shtatlarida nomiga **rus** (inglizcha **rash**) soʻzi qoʻshilib yasalgan 12 ta joy bor, lekin ular inglizcha talaffuzga toʻgʻrilab **Rash** deb yuzilaveradi. (Rash daryosi, Rash koʻli, Rashvill shaharchasi, Rashiti, Rashford va hokazo).

Uzoq yillar davomida bizga anʼanaviy boʻlib kelgan nomlarni keyinchalik yangi nomlar bilan almashtirish hodisasi ham kuzatiladi. Masalan, *Chin* – *Xitoy*, *Gurjiston* – *Gruziya*, *Yunoniston* – *Gretsiya*, *Dahri Xazar* – *Kaspiy dengizi*, *Mojoriston* – *Vengriya* va boshqalar. Bu nomlar hozirda anʼanaviy boʻlib qolgan, ularni almashtirishga hech qanday hojat yoʻq, lekin shu shaklda standartlash maqsadga muvofiqdir. Shuni ham unutmaslik kerakki, anʼanaviy nomni ham boshqa nomlar qatnashida hammat bilan tilga olish zarur va ularni barchasi har qanday maʼnodat toponimiyasida teng huquqli geografik nom hisoblanadi.

Oʻzbek tiliga oʻzlashgan nomlar orasida talabga javob bermaganligi tufayli, uni ormmahop va tushunarli bilan almashtirish hodisasi ham kuzatilgan. Hozirgi *Yevropa* nomi bunga yaqqol misol boʻladi. Maʼlumki, bu nom Oʻrta Osiyoga XIX asr oxirlarida *Ovrupo* shaklida kirib kelgan. Yarin asrdan koʻproq vaqt davomida bu nom – *Avropa*, *Yevropa*, *Yavropa* kabi shakllarda yozilgan. 1949 yildan boshlab, bu nomni *Yevropa* shaklida yozish maʼqul topildi. Barcha anʼanaviy nomlar bundan keyin ham shu shaklda yozilaveradi, deb boʻlmaydi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining geografik nomlarni standartlash yuzasidan oʻtkazgan xalqaro konferentsiyalarida anʼanaviy nomlarni kamaytirish va faqat milliy shakllarni qabul qilish tavsiya etilgan. Bu juda toʻgʻri, ammo murakkab va mashaqqatli ish.

Bir nomning bir necha xilda yozilishi uni anʼanaviy emasligidan darok beradi. Shu sababdan, ularning yagona milliy shaklini yaratish va qatʼiylashtirish masalasiga nisbatan befarq boʻlmaslik kerak. Anʼanaviy nomlar orasida tasodifiy yoki tushunarsiz boʻlib qolgan nomlar boʻlsa, ulardan voz kechish maʼqul. Bundan keyin, boshqa tilli toponimlarni oʻzbek tiliga qabul qilishda, avvalgi nuqsonlar takror boʻlmasligi uchun, geografik nom traskriptsiyasiga eʼtibor berib, uni hozirgi oʻzbek adabiy tili grammatikasi talablariga mos boʻlgan, tushunarli va ormmahop shaklini qabul qilish kerak.

Hozirgi kunda soha mutaxassisleri tomonidan geografik nomlarni tarjima qilish uchun qoʻllaniladigan va xalqaro talablarga toʻla javob



beradigan yagona tartib – qoida ishlab chiqilmagan. Bu esa o'z navbatida bu sohada muayyan chalkashliklarga olib kelishi mumkin. Balki, shu sababdan tarjima qilinadigan va qilinmaydigan nomlarning o'zbekcha shaklini qat'iylashtirishga nisbatan qo'yilgan talablar ko'pincha, ularning lisoniy xususiyatlari bilan bog'liqdir.

Nomlarni to'la yoki qisman tarjima qilish haqida so'z yuritib H.Hasanov shunday yozgan: "geografik nomlarni to'la yoki qisman tarjima qilishga ham ortiqcha urinmaslik kerak, chunki har qanaqa nom ham tarjima qilinavermaydi. Xalqaro tajribadan shunday xulosa chiqarish mumkin: nomlarni tarjima qilishning chegarasi bor, bir tomondan, tarjima siyosiy geografik va ma'muriy ob'ektlarda kam, ammo tabiiy geografik ob'ektlarda esa ko'proq qo'llaniladi; ikkinchi tomondan, kichikroq va uncha mashhur bo'lmagan geografik joy nomlari kamdan-kam tarjima qilinsa-da, yirikroq va mashhurroq joy nomlari birmuncha ko'proq tarjima qilinadi. Masalan, shahar va mamlakat nomlari mutlaqo tarjima qilinmaydi, faqat fonetik asosda – talaffuzga qarab yoziladi".

Shuni ham ta'kidlash joizki, umumiy qoidaga xilof tarzda, juda kam hollarda bo'lsa ham ayrim shahar yoki mamlakat nomining birinchi qismi – sifat tarjima qilinadi. Chunonchi, Yangi Orlean, Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya, Sharqiy Timor, G'arbiy Samoa, Yangi Dehli, Janubiy Sudan va hokazo. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ba'zi nomlar hamma tillarda qisman yoki butunlay tarjima qilinadi. Bunday xalqaro an'ana o'zbek tilida ham saqlanib qolgan. Barcha tillarda tarjima qilinadigan nomlar qatoriga Qora dengiz, Yaxshi Umid burni, Qizil dengiz, Qoyali tog'lar, Olovli yer, Yuqori ko'l, Janubiy Afrika Respublikasi, O'rta yer dengizi kabi ko'plab nomlarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Ikki tarkibiy qismdan iborat bo'lgan geografik nomlarning odatda, birinchi qismi – sifat tarjima qilinadi, ikkinchi qismi o'zgarmasdan fonetik asosda yoziladi. Bunday nomlarning tarjima qilinadigan qismi ko'pincha aniqlovchi sifatlardan tashkil topgan bo'ladi. Aniqlovchilarga rangni bildiruvchi (oq, qizil, ko'k, sariq, qora), dunyo tomonlarini ko'rsatuvchi (sharq, g'arb, janub, shimol), katta, kichik, yangi, eski, quyi, yuqori kabi sifatlar misol bo'ladi. Kichik Atlas, Yangi Zelandiya, Janubiy Dakota, Shimoliy Irlandiya, Katta Kanyon, Ko'k Nil, Buyuk Britaniya, Janubiy Sudan, G'arbiy Dvina va hokazo.

Mutaxassislarning fikricha, tarjima har qancha yaxshi bo'lmasin, u ma'lum darajada nomning ma'nosini buzadi, nom milliy va geografik xususiyatlarini qisman yo'qotadi. Shuni ham unutmaslik kerakki, tarjima

qilingan nomlar soni ko'paysa geografik karta bir xil, zerikarli, jarangiz nomlar yig'indisiga o'xshab qoladi. Shu sababdan, tarjima vaqtida har bir nomga alohida yondoshib, uning paydo bo'lishida turtki bo'lgan geografik, lingvistik va tarixiy omillar sinchiklab o'rganilib nom tarjima qilinsa, toponim ko'p yillar xizmat qilishi mumkin.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. *An'anaviy nomlarning tarixi va yozilishi haqida nimalarni bilasiz?*
2. *O'zbek tilida an'anaviy bo'lib qolgan nomlar deganda nimani tushunamiz?*
3. *An'anaviy nomlarga nisbatan qanday talablar qo'yilgan?*

#### **Test topshiriqlari**

1. **An'anaviy nomi nechta joyga taaluqli bo'ladi?**
  - A. 1 ta
  - B. 2 ta
  - C. 3 ta
  - D. 7 ta
2. **Bir nomning bir necha xilda yozilishi nimadan darak beradi?**
  - A. An'anaviy emasligidan
  - B. Tasoddiy nom ekanligidan
  - C. Rasmiy nom ekanligidan
  - D. Til xususiyatlari bilan bog'likligidan
3. **Uletushgan Millatlar Tashkilotining geografik nomlarni standartlash yuzasidan o'tkazgan xalqaro konferentsiyalarida an'anaviy nomlar to'g'risida qanday tavsiyalar berilgan?**
  - A. An'anaviy nomlarni ko'paytirish kerak
  - B. Umuman voz kechish kerak
  - C. An'anaviy nomlarni kamaytirish kerak
  - D. Barcha javoblar noto'g'ri
4. **Yevropa so'zi qachondan boshlab o'zbek tilida hozirgi shaklda yozilmoqda?**
  - A. 1991 yildan boshlab
  - B. 2000 yildan boshlab
  - C. 1917 yildan boshlab
  - D. 1949 yildan boshlab
5. **Ikki tarkihiy qismdan iborat bo'lgan geografik nomlar qanday tarjima qilinadi?**

- A. Birinchi qismi – sifat tarjima qilinadi, ikkinchi qismi o'zgarmasdan fonetik asosda yoziladi
- B. Har ikkala qismi tarjima qilinadi va fonetik asosda yoziladi
- C. Ikkinchi qismi tarjima qilinadi, birinchi qismi morfologik asosda yoziladi
- D. Umuman tarjima qilinmasdan fonetik asosda yoziladi

## **6-mavzu: GEOGRAFIK OB' EKT O'RNINI BELGILOVCHI TOPONIMLAR. EPOTOPONIMLAR. TRANSONIMIZATSIYA. NORASMIY NOMLAR**

### **6.1. Geografik ob'ekt o'rnini belgilovchi toponimlar**

#### *Reja:*

1. *Geografik ob'ekt o'rnini belgilovchi toponimlar haqida umumiy ma'lumot.*
2. *Manzilni aniq belgilovchi nomlarni hududiy joylashuvi va ahamiyati.*
3. *Geografik ob'ekt o'rnini belgilovchi toponimlar turlari.*

**Mavzuning maqsadi:** Geografik nomlarni muhim turlaridan biri bo'lgan manzilni belgilovchi joy nomlarining shakllanish tarixi, rivojlanishi, mo'ljal olish va orientirlashdagi ahamiyati hamda ularning turlari haqida ilmiy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

**Tayanch ibora va atamalar:** Manzilni belgilovchi toponimlar, geografik ob'ekt o'rnini aniq aks etuvchi nom, nom va orientirlash, mo'ljal olish va nom.

Geografik nomlar orasida kelib chiqishi bilan geografik ob'ektning manzilini, ya'ni muayyan mintaqaga yoki ma'muriy jihatdan mamlakat markaziga nisbatan joylashgan o'rnini aks etuvchi, belgilovchi nomlar guruhi mavjud. Ularni ko'pincha, orientirlovchi yoki manzilni aniq ko'rsatuvchi toponimlar deb atashadi. Bunday nomlar geografik ob'ektning joylashgan o'rniga nisbatan ko'pincha o'ziga xos juftlik hosil qilgan. Masalan, Yangi Zelandiyada Shimoliy va Janubiy orollar; Turkiya va Gretsiya oralig'ida joylashgan Shimoliy va Janubiy Sporada orollari; Xitoydagi Pekin («Shimoliy poytaxt») va Nankin shaharlari («janubiy poytaxt»); Yaponiyadagi Tokio («sharqiy poytaxt») va Kioto

(«g'arbiy poytaxt»); AQSH dagi shtatlar: Shimoliy va Janubiy Karolina; Shimoliy va Janubiy Dakota; Virjiniya va G'arbiy Virjiniya; Shimoliy, Janubiy va Sharqiy Xitoy dengizlari; Qozog'istondagi Janubiy, Shimoliy, G'arbiy va Sharqiy Qozog'iston viloyatlari va hokazo.

Geografik kartalarda e'tibor berib qaralsa, Tripoli (yunoncha, tripolis – “uch shahar”) shahri ikkita, ularni bir-biridan farqlash uchun arablar, hozirda Liviya poytaxti hisoblangan Tripoli shahrini *Trabulus al-G'arb* («G'arbiy Tripoli»), Lubnondagi Tripoli shahrini esa – *Trabulus ash-Shom* («Sharqiy Tripoli») deb atashadi. Qadimda Liviya poytaxti Tripoli shahri o'rnida fmikiyaliklarning koloniyasi Ea shahri bo'lgan. Keyincha ularning Ea, Sabrata va Leptis-Magna koloniyalari birgalikda Tripolis deb atalgan.

Manzil belgilovchi xususiyatga ega bo'lgan nomlar qatoriga Pireneya yarim orolini g'arbiy qismida joylashgan Trafalgar burni nomini ham kiritish mumkin. Trafalgar aslida arabcha, *Taraf al-G'arb* – «g'arbiy taraf» so'zidan olingan. Tarixiy manbalardan ma'lumki, Angliya floti admiral Nelson qo'mondonligi ostida Trafalgar burni yaqinida, frank – ispan flotiliyasi ustidan g'alaba qozongan. Ta'kidlash joizki, bu tarixiy g'alaba sharafiga London shahridagi eng katta maydonlardan biriga ham Trafalgar nomi berilgan.

Montevideo – Janubiy Amerikadagi Urugvay davlatining poytaxti. SHubuni bu nom bilan atalishini qiziqarli tarixi bor. Gap shundaki, o'rtin asrlarda ispan kartograflari tomonidan, yangi kashf qilingan yerlardagi tog'lar ko'pincha, rim raqamlari bilan belgilangan. 1520 yili La-Plata qo'ltig'ida sayyoh F. Magellan tomonidan aniqlangan tog' nomi kartaqa *MONTI VI DE O* shaklida yozilgan. Portugalcha, monte – “tog'”, VI – lotincha oltin raqami, de – qo'shimcha, O – ispan tilidagi oriente («sharq») yoki occidente («g'arb») so'zining qisqartirgan shaklidir. Demak, nom dastlab «oltinchi tog' sharqdan (yoki g'arbdan)» degan ma'noni ifodalagan.

Evropa, Afrika va Osiyo qit'alari tutashgan hududda joylashgan O'rta dengizi nomida uning geografik o'rni aniq aks etgan. Yunonlar, dengizni qit'alar oralig'ida joylashganligi va orientir vazifasini bajarishi mumkinligini inobatga olib uni *Mediterrano* – “o'rta dengiz” deb atashgan. Ilk o'rta asrlardan buyon dengiz shu nom bilan ma'lum, qadimda sharq manbalarida dengizni Shom dengizi, Rum dengizi, Mag'rib dengizi deb ham atalgan. Yaponiyaga tegishli bo'lgan Susima orollari nomiga ayinlar tilidagi twima – “chekka” so'zi asos bo'lgan va u

arxipelagni mamlakatni boshqa hududlaridan chekkaroqda joylashganligiga ishoradir.

Ekvador davlatining nomi ham, uni ekvator, ya'ni kurrai zaminni ikki – shimoliy va janubiy yarim sharga ajratadigan aylanma chiziq o'tadigan hududda joylashganligidan dalolat beradi. Shu sababdan, 1830 yilda paydo bo'lgan bu mustaqil davlatga Ekvador nomini berishgan. Mamlakat hududining shimolidan ekvator (lot. aequator-teng bo'luvchi), ya'ni yer sharini ikkiga – shimoliy va janubiy yarim sharlarga bo'ladigan chiziq kesib o'tganligi bois u shunday atalgan. Qozog'iston va Qirg'iziston kartasida kungay va terskay kabi mo'ljal belgilovchi (orientir) orografik terminlarni uchratish mumkin. Kungay Olatov – oftobga ro'para, quyosh nuri ko'p tushadigan, janubga qaragan – kungay tog'lar, Terskay Olatov – oftob tushmaydigan yoki quyosh nuri kam tushadigan, quyoshga teskari – terskay tog'lar.

Ma'lumki, ko'p xalqlar o'z vatanlari, yerlarini dunyo markaziga qiyoslashgan. Masalan, qadimgi inklar imperiyasi va uni poytaxtining nomi ham xuddi shu yo'sinda paydo bo'lgan. Inklar o'z mamlakatlarini *Tiuantisuyyu* – «dunyoning to'rt tomonini belgilaydigan davlat», poytaxtini esa – *Kusko*, ya'ni «kindik», aniqrog'i dunyo markazi deb atashgan. Shunday an'ana, xitoylar uchun ham xos bo'lgan. Ular qadim zamonlardan buyon o'z davlatlarini *Chjungo* – «O'rtadagi mamlakat» deb atashadi.

Tinch okeanini janubi-sharqida Pasxa oroli bor. Orolni 1722 yili gollandlik dengizchi *Ya.Roggeven* pasxa kuni kashf qilgan va xristianlar bayrami sharafiga unga Pasxa oroli deb nom bergan. Qadimda orolni tubjoy aholisi o'z yerlarini *Te-pito-no-te-Xenua* – «Er kindigi» yoki *Mataki-te-Rangi* – «samoni ko'ruvchi ko'z» deb atashgan. Ular dunyodagi eng katta okeanining cheksiz suvlari orasida bir parcha yerlarini shunday tasavvur qilishgan.

Ba'zi tadqiqotchilar, “rus” so'zini joy nomlari tarkibida kelganda manzil, hudud belgilovchi xususiyati borligini ta'kidlashgan. Ayrim mutaxassislar rus so'zi dastlab janubda, Qora dengiz sohillarida yashagan turli ko'chmanchi xalqlar orasida paydo bo'lgan deb taxmin qilishadi. Masalan, akademik *O.N.Trubachev*, bu taxminiy fikrni isbotlash maqsadida shunday yozgan: “ayrim xalqlarda hozirgacha, g'arbni oq, yorug' deb atash odati mavjud (g'arpga quyosh nuri ko'proq tushadi deb hisoblashgan).

Milodiy birinchi ming yillikning oxiridan boshlab sharqdan g'arpga tomon dasht orqali buyuk ko'chish vaqtida ko'chmanchi xalqlar uchun

Qora dengizning shimoliy hududlari g'arb hisoblangan. Mahalliy qabilalar o'zaro muloqotda bu hududlarni Oq sohil, Oq sohilli hudud yoki Ros deb atashgan. Hozirgi vaqtda mavhumlashib qolgan, Rus – "oq tomon", ma'nosidagi so'z ham aynan, shu davrlarda paydo bo'lgan deyish mumkin".

Ma'lumki, oq, qora so'zlarining areali toponimiyada ancha keng, barcha tip joy nomlarida uchraydi. Oq so'zi turkiy toponimlarda faqat birinchi unsur (komponent) bo'lib keladi. So'zning joy nomlari tarkibidagi o'rni uni yaqin o'tmishda yaratilganini emas, balki ularni ancha qadimiy turkiy nomlar ekanligidan dalolat beradi. Turkiy toponimlarni o'rganishda tarkibida oq, qora, qizil, sariq, ko'k kabi so'zlarning ma'no xususiyatlarini o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Oq, qora, ko'k, sariq, qizil kabi so'zlar har doim ham rang ma'nosini bildirmasligini akademik A.N.Kononov, qozoq toponimisti Ye.Koychubaev tadqiq qilishgan. Bu fikr H.Hasanov, G.Konkashpaev, T.Nafasov, S.Qoraev kabi olimlar tomonidan rivojlantirilgan. Qayd qilish joizki, o'zbek tilida ham bu so'zlar yordamida yasalgan toponimlar ko'p. Masalan, taniqli toponimist olim T.Nafasov, aholi maskanlari nomlari tarkibidagi oq va qora so'zlarini qiyoslab shunday yozgan: "quyosh nuri yo'nalishi yoki dunyo tomonlariga nisbatlab, ob'ektlarning o'rni qiyoslanganda oq so'zi kunchiqar (sharq), qora so'zi kunbotar (g'arb) ma'nolarini ham bildirganligi ma'lum. Ana shu ikki mezonning Oqqishloq, Qoraqishloq, Oqovul, Qoraovul nomlariga daxli bor. Oqqishloq, Oqovul kun chiqar tomondagi qishloq (ovul); Qoraqishloq, Qoraovul – kun botardagi qishloq (ovul)".

Manbalarni guvoh berishicha, rang orqali manzilni bildiruvchi nomlar qadimda ko'p xalqlarda Qizil va Qora dengizlar nomi misolida o'z ifodasini topgan. Qadimiy Mesopotamiya aholisi uchun, Hind okeanining barcha g'arbiy qismi janub sanalgan. Ularning dunyo tomonlarini belgilash tamoyillariga binoan, qizil rang janubni anglatgan. Shu sababdan, antik dunyo mualliflari hozirgi Qizil dengizni Eritreya yoki *mare Rubrum* (lotin va yunon tilida) – "qizil dengiz" deb atashgan. Mesopotamiyaliklar uchun qora rang shimolni bildirgan. Qora dengizning eng qadimgi nomlaridan biri *Axshaena* – qadimiy eroniy tilda «qora» ma'nosini ifodalagan. Qadimgi yunonlar ham bu dengizni *pontos Melos* – *Qora (Shimoliy) dengiz* deb bejiz atashmagan.

Arabiston yarim orolida yashagan qadimiy aholini ham dunyo tomonlarini belgilashda o'ziga xos an'analari bo'lgan. Ularda tomonlarni

aniqlash sharqdan boshlangan va u old tomon hisoblangan. Shuning uchun, Makka shahridagi musulmonlar uchun muqaddas bo'lgan Ka'ba toshi yonida sharqqa qaragan kishini orqa tomoni tabiiyki g'arb, o'ng tomoni janub, chap tomoni esa shimol hisoblangan. Yaman, Shom, Mashriq, Mag'rib kabi geografik nomlar ham shu yo'sinda paydo bo'lgan. Yaman so'zi – «o'ng», ash-Shom – «chap» tomon ma'nosida qo'llanilgan.

Qadimiy Hindistonda ham arablar kabi tomonlarni aniqlashda sharqni asos qilib olingan va shundan kelib chiqib tomonlarni aniqlash tizimi qo'llanilgan. Bunga geografik ob'ekt nomi sifatida yassi tog'liklar nomi bo'lgan Dekan so'zini misol qilish mumkin. Dekan – so'zi qadimiy sanskrit tilida, *Dakshina-Pantx* – «o'ng tomonga (janubga) yo'l» degan ma'noni anglatgan, ya'ni sharqqa qarab turgan holatda, janub o'ng tomon bo'ladi.

Okeaniya toponimiyasi tarkibidagi nomlarda ham mo'ljalni aniq belgilash, orientir olish kabi xususiyatlar mujassam. Chunki, hamma tomonni okeanning cheksiz suvlari egallagan hududda, kichik bir orolni topish ancha mushkil vazifa. Ma'lumki, aksariyat hollarda aholi maskanlariga nom o'zgalar tomonidan berilgan va aholi maskanini yaratuvchi bilan nomlovchi jamoa munosabati bu jarayonda muhim omil sanalgan. Bu nomshunoslikni muhim qonuniyatlardan biridir.

Masalan, Tonga va Fidji arxipelagi nomlari, ana shunday ikki o'zaro aloqador, manzil helgilovchi toponimlar hisoblanadi. Fidjiliklar tilida *tonga* so'zi «g'arb, g'arbiy shamol» ma'nosini bildirgan. Toponim shamol yo'nalishini ko'rsatgan va dengizchi – fidjiliklar, Tonga arxipelagiga mahalliy shamoldan foydalanib kemalarda suzib borishgan. Fidji so'zi esa aksincha, Tonga arxipelagida yashovchi mahalliy aholi tilida – «sharq, sharqiy shamol» degan ma'noda qo'llanilgan. Tongalik dengizchilar qo'shni Fidji orollariga borish uchun, sharqdan esadigan mahalliy shamollardan foydalanishgan.

Bir guruh toponimlar borki, ular geografik ob'ektni olis chekka hududlarda joylashganligini ko'rsatadi. Masalan, G'arbiy Sibirni shimoliy qismida joylashgan *Yamal* yarim oroli, nenets tilida – «erning cheti, yerning chekkasi» degan ma'nolarni bildiradi. Pireneya yarim orolining chekka shimoli-g'arbiy sohilida joylashgan burun *Finisterre* (lotincha, *finis* – «chekka, oxiri» va *terra* – «er») deb atalgan. Shunga o'xshash nom, Afrika materigida eng sharqiy nuqta hisoblangan – *Xafun* (arabcha, *Ras* – *Xafun* – «chekka burun»), hamda Kornuoll yarim orolining

janubi-g'arbidagi burunga ham – *Lends-End* – «erning chekkasi» degan nomlar berilgan.

Shuni ham aytish kerakki, aksariyat dunyo qit'alari nomlari asosida ham **ularning** hududiy joylashuvini belgilovchi ma'no mujassam. Geografik ob'ektning hududiy joylashuvi, o'rnini in'ikos etuvchi toponimlar yer yuzida keng tarqalgan. Ularning ko'pchiligi yaxshi tanish va ancha qadimdan qo'llanilib kelinadi.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. *Geografik ob'ekt o'rnini belgilovchi toponimlarning mazmun-mohiyati nimadan iborat?*
2. *Mo'ljalni aniq belgilovchi geografik nomlar haqida nimalar bilasiz?*
3. *Geografik ob'ekt o'rnini belgilovchi toponimlar turlari deganda nimani tushunasiz?*

#### **Test topshiriqlari**

1. **Pekin shahrining nomi qanday ma'noni bildiradi?**
  - A. Shimoliy poytaxt
  - B. Janubiy poytaxt
  - C. Sharqiy poytaxt
  - D. G'arbiy poytaxt
2. **Nima sababdan Okeaniya toponimiyasi tarkibidagi nomlarda ko'pincha mo'ljalni aniq belgilash, orientir olish kabi xususiyatlar mujassam?**
  - A. Nom o'zgaralar tomonidan berilganligi uchun
  - B. Quruqlikni tezda aniqlab olish uchun
  - C. Hamma tomonni okean suvlari egallaganligi uchun
  - D. Sababi noma'lum
3. **Turkiy toponimlar tarkibidagi oq va qora so'zlar qanday ma'noda qo'llanilgan?**
  - A. Rang ma'nosida
  - B. Past va yuqori ma'nosida
  - C. Sharq va g'arb ma'nosida
  - D. Barcha javoblar to'g'ri
4. **Muqaddas Ka'ba toshiga nisbatan Yaman va Shom kabi geografik nomlar qanday ma'noga ega?**
  - A. Chap va o'ng
  - B. Past va yuqori



C. Yaqin va uzoq

D. Janub va shimol

5. Qaysi nom geografik ob'ektni olis chekka hududda joylashganligidan dalolat beradi?

A. Yamal yarim oroli

B. Finisterre burni

C. Ras-Xafun burni

D. Barcha javoblar to'g'ri

## 6.2. Epotoponimlar. Transonimizatsiya. Norasmiy nomlar

### Reja:

1. Epotoponimlar va ularning turlari haqida qisqacha ma'lumot.

2. Geografik nomlar va transonimizatsiya hodisasi.

3. Norasmiy nomlarning vazifasi va mazmun-mohiyati.

**Mavzuning maqsadi:** Geografik nomlarni turdosh otlarga aylanishi, ularning turlari, maqsad va vazifalari, toponimiyani takomillashib borishini ta'minlovchi manbalar, nomlarning bir-biriga o'tishi, ya'ni transonimizatsiya, norasmiy nomlarni paydo bo'lishi haqida ilmiy tushuncha berish.

**Tayanish ibora va atamalar:** Epotoponim, detoponimizatsiya, norasmiy nomlar, transonimizatsiya, nom o'tishi, toponimni geografik terminlarga aylanishi, nomni boshqa turdosh otlarga aylanishi.

Ma'lumki, har qanday tilning so'z zaxirasi bir qancha manbalar hisobiga boyib boradi. Ana shunday manbalar qatoriga geografik ob'ektlarning nomlarini ham kiritish mumkin. Agar, «ular bilan til, topib muomala qilinsa», qanchadan-qancha qadimiy so'zlarni tiklash mumkin. Turdosh otlarni geografik nomga aylanishi – toponimikaning umumiy qonuniyati sanaladi. Shu bilan birga ba'zan toponimlarini aksincha, turdosh otga aylanish hodisasi ham uchraydi. E.M.Murzaev bu jarayonni geografik nomlarning «ikkinchi hayoti» deb atagan.

Shuni ham qayd qilish kerakki, toponimlar turdosh otga aylanib, ma'lum ma'noda o'zining toponimik asosidan uzoqlashadi. Joy nomlari asosida yaralgan yangi so'zlar E.M.Murzaev, H.Hasanov, S.Qoraev, T.Nafasov kabi olimlar tomonidan ilmiy jihatdan tadqiq qilingan. Turdosh otlarga aylangan so'zlarga asos bo'lib xizmat qilgan geografik

nomlar epotoponimlar (yunoncha, *ἔπωνυμος* – «nom beruvchi») deb ataladi.

Epotoponimlar barcha tillarda bor, shu jumladan o'zbek tilida ham bu hodisa keng tarqalgan. Ko'pincha ular bir tildan ikkinchi tilga ko'chib, internatsionallashib ketgan. Masalan, H.Hasanovning yozishi-cha, *boloniya, jersi, boston, krepdeshin, paplindan* tikilgan kiyimlarni kiygan kishi «geografiya»ni kiyganligini xayoliga ham keltirmaydi. Holhuki, Baloniya va Paplin – Italiyadagi shaharlar, Jersi – Frantsiya shimolidagi orol, Boston – AQSH dagi shahar, krepdeshin – «Xitoy matosi» (krep – «mato», shin – Chin, Xitoy) ni anglatadi.

Toponimlardan nom olgan ichimlik, buyumlar, o'simlik, hayvonlar, musiqa, raqs shu qadar ko'pki, ba'zan hatto ularning etimologiyasi to'g'risida o'ylab ham o'tirmaymiz. *Qo'qon-arava, Chust pichog'i, Baxmal olmasi* kabi so'zlarda o'sha joy nomlari esga kelishi mumkin. *Akademiya* (Afina yaqinidagi changalzor), *vulkan* (Tirren dengizidagi Vulkan o'roli nomidan), *kofe* (Afrikadagi Kaffa o'lkasi nomidan), *olimpiada* (Gretsiyadagi eng baland Olimp tog'i nomidan), *roman* (Rim shahri nomidan), *tamaki* (ruscha, tabak Kubadagi Tabaga vodiysi nomidan kelib chiqqan), *panama* (bosh kiyim – Panama davlati nomidan), kabi so'zlarning yaralishida ham aslida toponimlar asos bo'lgan.

**Toponimlarning geografik terminlarga o'tishi.** Geografik nomlarning xalq geografik terminlarga o'tish jarayoni quyidagi holat bilan belgilanadi: ba'zi geografik ob'ektlar alohida ko'zga tashlanadigan belgilarga ega bo'lganligi bois, ularning atoqli otlari tipologik xususiyat kasb etadi va turdosh ot sifatida qo'llaniladi. Bunday holatni quyidagi misollar yordamida izohlash maqsadga muvofiq. Masalan, geografiyada delta – daryoning quyilish joyida suvda oqib kelgan jinslarning cho'kib to'planishidan hosil bo'lgan tekislik. Deltada daryo suvi panjaga o'xshab yo'nalgan ko'pdan-ko'p tarmoqlarga bo'linib oqadi. Qadimda Nil daryosi kelib quyiladigan joy ikki tarmoqqa (hozirda *Dumyot va Rashid* deb ataladi) bo'linib, uning shakli yunon alfavitidagi *delta* – Δ harfiga o'xshash holatni kasb etganligi bois delta deb nomlangan. Keyinchalik daryolarning shaklan o'xshash quyilish joylariga nisbatan ham ushbu geografik termin qo'llanilgan.

Geografiyaga yaxshi ma'lum bo'lgan *karst* hodisasi, ya'ni suvda yaxshi eriydigan tog' jinslari (ohaktosh, bo'r, dolomit, gips, tuzlar)ni yer osti suvlari eritib olib ketishi natijasida ro'y beradigan jarayonning nomi, Bolqon yarim orolidagi asosan ohaktoshlardan iborat bo'lgan

Karst platosi nomi bilan bog'liq. Geyzer so'zining (islandcha *geyzir* – otilmoq, yer osti bo'shliq va yoriqlardan vaqt – vaqti bilan issiq suv va bug' otilib turishi) geografik termin sifatida paydo bo'lishida Islandiyadagi *Geyzer* deb ataluvchi issiq buloq nomi sabab bo'lgan.

Bir-biridan uncha uzoq bo'lmagan va odatda bir butun deb hisoblanadigan orollar to'dasiga nishatan umumgeografik termini bo'lgan *arxipelag* (yunoncha, arxi – “dastlabki”, pelage – “ochiq dengiz”) so'zi qo'llaniladi. Mutaxassislarining yozishicha, ilk o'rta asrlarda Egey dengizi Arxipelag deb nomlangan. Ma'lumki, hu dengiz orollar va orollar to'dasining ko'pligi bilan ajralib turadi. Dastlab har qanday orollarga boy dengiz arxipelag deyilgan. Keyinchalik esa bu geografik termin orollar to'dasiga nisbatan qo'llanilgan. Bir arxipelagga kiradigan orollar paydo bo'lishi, geologik tuzilishi, o'simliklari, hayvonot dunyosi jihatidan o'xshash bo'ladi.

Odatda nishabligi kichik bo'lgan tekisliklarda vujudga kelgan daryolarning egri-bugri, ilonizi shaklidagi o'zaniga nisbatan *meandr* termini qo'llaniladi. Meandr so'zi – Kichik Osiyo yarim orolida ilonizi o'zanli Menderes daryosi nomidan olingan. Toponimlarning geografik terminlarga o'tishi kam uchraydigan holat bo'lsa ham ularni toponimikada muayyan o'rni bor.

*Toponimlarni boshqa turdosh otlarga aylanishi.* Epotoponimlar – geografik terminlar hosil qilishidan tashqari boshqa funktsiyalarga ham ega. Ular madaniyat, sport, san'at, fan, o'simlik, hayvonot va boshqa bir qator sohalarning til lug'aviy boyliklarida ham uchraydi. Masalan, g'arbiy Yevropadagi Alp tog'lari nomidan *alpinizm*, *alpinist*, *alp o'tloqlari*, *alp hurmalanishi*, *alpid* kabi so'zlar olingan. Bir qator mamlakatlarning pul birligida ham epotoponimlarni uchratish mumkin. Chunonchi, Afg'oniston pul birligi – *afg'oni* (Afg'oniston davlati nomidan), Tojikiston pul birligi – *somoniy* (Somoniy davlati nomidan). Eng so'ngi misol Yevropa Ittifoqi pul birligi – *yevro*. Xususan, sportda (futbol, xokkey, basketbol) ko'pchilik jamoalar nomini toponimlar tashkil qiladi. Masalan, «*Liverpul*», «*Milan*», «*Barselona*», «*Bavariya*», «*Andijon*», «*Nasaf*», «*Zarafshon*» va boshqalar.

Mendelev davriy sistemasidagi 20 ortiq ximiyaviy elementlar joy nomlari bilan ataladi. Masalan, *amertsiy*, *germaniy*, *kaliforniy*, *frantsiy*, *skandiy*, *yevropiy*, *galliy* (Fransiya hududining antik nomi), *lyutetsiy* (Parijning qadimgi nomi) va boshqalar. Ayrim geologik davrlar, hurmalanishlar, tabiiy hodisalar nomlari ham joy nomlaridan olingan.

Geologik davrlardan *kembriy* Angliyadagi Uels viloyatining qadimiy nomi, *ordovik* va *silur* Angliya janubida yashaydigan qabilalar nomi, *devon* Angliyadagi graflik, *perm* Uraldagi shahar nomi, *gersin* Markaziy Yevropadagi tog'lar nomi va hokazo. *Gondvana* Hindustondagi gond qabilasi va *Vand* rayoni nomidan olingan. *Hisor* – tojik tilida qal'a, qo'rg'on ma'nosini anglatadi. Shundan Hisor shahri, Hisor vodiysi, Hisor tog'lari va hisori qo'y iborasi hosil bo'lgan.

Ko'pchilik minerallar topilgan joyi nomi bilan ataladi: *azorit*, *alebastr*, *amazonit*, *aragonit*, *birmit*, *gavanit*, *labradorit*, *tanzanit* va boshqalar. Aniqlangan kichik sayyoralar– asteroidlar orasida *Ulug'bek*, *O'zbekiston*, *Samarqand* kabi nomlar ham uchraydi. Sharq allomalari o'zlari tug'ilgan yoki yashagan joylar nomini taxallus yoki nisba qilib olishgan: *Muhammad al Xorazmiy*, *Ahmad al Farg'oniy*, *Abu Nasr Farohiy*, *Ahmad Yassaviy*, *Qozizoda Rumi*, *Hofiz Sheroziy*, *Kamol Xujandiy* va boshqalar. H.Hasanov yozishicha, Sadridin Ayniy Zarafshon vodiysidagi *Ro'dak* qishlog'i nomidan, mashhur shoir Abo'abdullo Ro'dakiyning vatanini aniqlagan ekan.

Juda ko'p kemalarga shahar, daryo va boshqa geografik ob'ektlar nomlari berilgan: "*Volga*", "*Vladivostok*", "*Toshkent*", "*Gruziya*", "*Neva*" va boshqalar. Avtomobillar, muzlatgichlar, kir yuvish mashinalari, radiopriyomnik va boshqalarga ham joy nomlari qo'yilgan. O'zbek tilida joy nomlariga bog'liq ravishda vujudga kelgan so'zlar juda ko'p. Chunonchi, *makkajo'xori*, *qo'qon jo'xori*, *hisori qo'y*, *angori echki*, *qorako'l qo'yi*, *shibirg'oni uzumi* (Afg'onistondagi Shibirg'on viloyati), *qurama guruchi*, *shotut* (shom tuti, Suriyaning qadimgi nomi Shom), *balx tuti*, *jilon jiyda* (Erondagi G'ilon viloyati), *kishmish* (Eronga qarashli Keshm oroli nomidan), *chust do'ppi*, *banorus to'ni*, *doka* (Dakka shahri nomidan), *tivit*, (Tibet so'zidan), *iroqi do'ppi*, *iroqi sovun* (Iroq nomidan) va hokazo.

Shuni qayd qilish joizki, epotoponimlar va ular asosida paydo bo'lgan so'zlar tilning lug'aviy boyligiga aylanib, yangicha ko'rinishda jamiyatning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Xalqning mahalliy shevalarida joy nomlaridan hosil bo'lgan juda ko'p so'zlar bor, ularni to'plash, izohlash, ilmiy jihatdan tadqiq etish muhim vazifa sanaladi.

**Transonimizatsiya. (Nomlar o'tishi).** Ma'lumki, toponimlar aslida umumiy tushunchalarning konkretlashishi va individuallashishi oqibati paydo bo'ladi. So'z toponimga aylangandan keyin asl ma'nosidan

muayyan darajada uzoqlashadi va ko'pincha konkret geografik ob'ektni boshqalardan ajratib ko'rsatishga xizmat qiladi. Aslida, geografik nomlar majmuini asrlar davomida boyib, takomillashib borishini ta'minlovchi manbalardan biri – nomlarning bir-biriga o'tishi hodisasi sanaladi. Bu xususiyat har qanday hududiy toponimiyaga va barcha tildagi geografik nomlarga xos. Joy nomlarining har bir guruhi (oykonimlar, gidronimlar, oronimlar va boshqalar) o'z ichida va o'zaro bir-biriga o'tishi mumkin. Geografik nomlarning bir turdan ikkinchisiga o'tish hodisasi nafaqat uzoq va yaqin o'tmishda balki, uni nomshunoslikni hozirgi holatida ham ko'rish mumkin.

Taniqli toponimist olim T.Nafasovning yozishicha, nom o'tishi, ko'chishi nomshunoslikda, umuman, tilda keng tarqalgan lisoniy va noli-soniy hodisa hisoblanadi. Nom o'tishi, ko'chishi bir nomning turli guruhlarda qo'llanishi xalqning yuksak ma'naviy– madaniy saviyasini ko'rsatuvchi voqelik sanaladi. Jizzax – shahar nomi, o'tgan asrning yet-mishinchi yillarida viloyat nomiga aylandi. Hozir esa tuman, mahalla, ko'cha, guzar va boshqa bir qator geografik ob'ektlar shu nom bilan ataladi. Etnonimlarning mahalla, qishloq, tuman, shahar nomiga o'tishi O'rta Osiyo toponimiyasida keng tarqalgan voqelik hisoblanadi. Bunga misol qilib *Qo'ng'iro't, Mang'it, Ming, Qirq, Nayman, Jaloyir, Kaltatoy, Turk, O'ymovut* kabi ko'plab etnonimlarni keltirish mumkin. Ularni O'zbekistonning barcha viloyatlar toponimiyasi tarkibida uchratsa bo'ladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tog'li hududlarida oronim sifatida shakllangan nomlarning oykonimga o'tishi ko'proq kuzatiladi. Bunday joy nomlari tarkibida tepa, kamar, tosh, tog', sang, jar, bel, dovon, ag'ba, chaqir, tangi kabi geografik terminlar ko'p uchraydi. Shuni ta'kidlash joizki, yer yuzasi shakllari ob'ektlari qishloqlarni nomlashda mo'ljal, orientir vazifasini bajaradi.

Rel'ef shakllari nomi ya'ni, oronimik ob'ektlar nomlari boshqa toponimik guruhlarga ham nom bo'lib o'tishi hodisasi dunyoning barcha mintaqalariga xos. Dastlab oronim sifatida shakllangan nomlar keyinchalik gidronimlarga yoki oykonimlarga aylanib mo'ljal, orientir vazifasini bajarishi mumkin. Ma'lumki, yer yuzasidagi ma'lum bir oronimik ob'ekt shu hududning belgisi hisoblangan, so'ngra shu atrofda paydo bo'lgan aholi punktiga ham nom qilib olingan. Bu qonuniyatni doimiy va mutlaq deyish qiyin, ammo ko'pchilik holatlarda oronimik ob'ektlar atrofida paydo bo'lgan aholi punktiga uning nomi o'tish hodisasi kuzatiladi.

Suv havzalari nafaqat choʻl, balki togʻ oldi va togʻli hududlarda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ular inson faoliyati va hayotida katta ijtimoiy, moddiy ahamiyatga ega boʻlganligi bois togʻli hududlardagi aholi punktlari nomlari orasida azaldan alohida maqomga ega. Maʼlumki, azaldan inson suv manbalarga yaqin joyni oʻziga yashash makoni etib tanlagan. Suv obʼektlari inson hayotida qadim zamonlardan buyon katta ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyat kasb etgan. Shu sababdan, suv obʼektlarini bildiruvchi nomlar sekin-asta ular yashagan joylarni, maskanlarni ham ifodalay boshlagan. Glidronimlarning boshqa geografik obʼektlarga nom boʻlib oʻtishi hodisasi bir hayotiy voqelik sanaladi.

Kishi tarqalib har qanday aholi punktlariga oʻtishi ham xususiy mulkiylik, yangi yerlarni oʻzlashtirish, yangi aholi punktlarni qurish kabi ijtimoiy voqelik bilan bogʻliq. Kishi ismlarini boshqa toponimik punktga nom boʻlib oʻtishi hodisasi kam, ammo bir voqelik. Turli puntlarga mansub nomlarning bir-biriga oʻtishi, koʻpincha yondosh obʼektlarida toʻy beradi. Yangi geografik obʼekt uchun nom uzoqdan qidirilmaydi, yonidagi obʼekt nomi nomlanayotgan obʼektga nom qilib tanlanadi. Geografik nomlarning bir turdan ikkinchi turga oʻtishi toponimlarning universalini belgisi hisoblanadi va bu hodisani xalqning yuksak maʼnaviy boyligini yaqqol ifodasi deyish mumkin.

**Norasmiy nomlar.** Geografik obʼektlarni belgilashda joy nomi bilan birga periferaza (yunoncha, περι – «atrofida, yonida» va παρά – «soʻzlayman», yaʼni norasmiy nomlardan ham keng foydalanish mumkin. Ular geografik obʼektni oʻziga shartlab u haqida oʻziga xos maʼlumot beradi. Ushbu maʼlumot yordamida nomi toʻgʻridan-toʻgʻri ifodalanmaydi, uni bilvosita, yaʼni turli xil soʻz yoki tasviriy iboralar bilan qoʻllaniladi. Rus toponimisti Ye.M.Paspelovning yozishicha, oxirgi vaqtlarda periferaza obʼektlarni norasmiy va original nomi sifatida, toponimist olimlar diqqatini koʻproq jalb qilmoqda.

Shuni ham taʼkidlash joizki, soʻngi paytlarda geografik nomlarni oʻziga xos tarzda ifoda etish usuli, yozuvchilar va jurnalistlar tomonidan amaliyotda keng qoʻllanilmoqda. Joy nomlari oʻrnini bosuvchi soʻzlardan foydalanish, matn yoki maʼruzada nomlarni takroran qoʻllanmaslik tunkonini beradigan stilistik usul hisoblanadi. Shu bilan birga ushbu usul muallifni geografik obʼektga boʻlgan munosabatini ham belgilaydi. Toponim oʻrnini bosuvchi soʻzlar qoʻshimcha maʼlumot manbai boʻlib, ular yordamida geografik obʼekt haqida toponimik vositalar orqali bayon qilishni iloji boʻlmagan maʼlumotlarni olish mumkin.

Geografik nomlarni oʻrmini bosuvchi soʻzlarni paydo boʻlishida, nomning axborot tashish funktsiyasini kamayishi yoki yetarli emasligi muhim rol oʻynagan. Boshqacha aytganda, ular obʼektning geografik oʻrni, hozirgi va oʻtmishdagi tabiiy holati, xoʻjalik ixtisoslashuvi va hokazo kabi xususiyatlarining inʼikosi sifatida paydo boʻlgan. Toponim oʻrmini bosuvchi soʻzlar ancha qadimdan maʼlum. Masalan, Samarqand – *sayqali roʻi zamin*, Toshkent – *sharq darvozasi, doʻstlik shahri*, Kiev – *rus shaharlari onasi*, Sankt-Peterburg – *Shimoliy Palmira* va hokazo.

Etti oʻr va qirda joylashgan shahar degan ibora keng tarqalgan va bu tushuncha, dastlab Rim shahriga tegishli boʻlgan. Shaharga haqiqatdan ham *Palatin, Kapitoliy, Aventin, Eskvilin, Seliy, Viminal, Kvirinal* nomli yettita tepalikda asos solingan. Toshkentni ham past – baland hududda joylashganligi bois, uni Rimga oʻxshatib yetti oʻr va yetti qirdan iborat shahar deyishadi. Germaniyada Rur viloyatini mamlakat poʻlat yuragi, industrial markazi, koʻmir va poʻlat yeri deb atashadi. Venetsiya kabi kanali koʻp va oʻziga xos hududiy joylashuvga ega boʻlgan shaharlarni *Shimoliy Venetsiya* deb atashadi. Ular qatoriga Amsterdam, Kopengagen, Stokgolm, Sankt-Peterburg, Strashburg kabi shaharlarni kirish mumkin.

Ikki qarama-qarshi tuzum (sotsialistik va kapitalistik) mavjud boʻlgan mafkuraviy kurash davrida, qarshi tomonga nisbatan joy nomi oʻrmini bosuvchi soʻzlar koʻp qoʻllangan. Masalan, AQSH prezidenti R.Reygan SSSR ga nisbatan *zulm imperiyasi* degan iborani ishlatgan, qarshi tomon Nyu-Yorkni sariq shayton shahri deb atagan. Bunday nomlarning koʻpchiligi semantik maʼnoga ega va ayovsiz mafkuraviy kurashni belgisi hisoblanadi. *Ozodlik oroli* (Kuba), *Ming koʻllar mamlakati* (Finlyandiya), *Muzlar va olovlar mamlakati* (Islandiya), *Dunyo-ning uchunchi quthi* (Jomolungma), *Oltin vodi* (Fargʻona), *Dunyo tomi* (Pomir), *Qora qitʼa* (Afrika) kabi soʻzlar ham norasmiy va original nomlarga misol boʻladi. Toponim oʻrmini bosuvchi majoziy soʻzlar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan, shu sababdan kelajakda jamiyat taraqqiyoti bilan bogʻliq holda, ulardan yana ham kengroq foydalanish mumkin.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. *Toponimlarni turdosh otlarga aylanishiga qanday omillar sabab boʻlgan.*

2. *Transonimizatsiya hodisasi va uni mazmun-mohiyatini aniq misollar yordamida tushuntiring.*

3. Toponim o'rnini bosuvchi so'zlar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanganligini misollar yordamida isbotlang.

### Test topshiriqlari

1. Toponimlarni turdosh otga aylanish hodisasini geografik nomlarning «ikkinchi hayoti» deb kim ta'riflagan?

- A. T. Nafasov
- B. V. A. Nikonov
- C. N. Qoraev
- D. E. M. Muzaev

2. Toponimlarning geografik terminlarga o'tishiga nima sabab bo'lgan?

- A. Geografik ob'ektning ulohida ko'zga tashlanadigan belgisi
- B. Geografik ob'ekt nomini turdosh ot sifatida qo'llanilishi
- C. To'g'ridan-to'g'ri atoqli otni turdosh otga aylanishi
- D. To'g'ri javoh berilmagan

3. Transsubstantiya hodisasi bu ...

- A. Nomni turli guruhlarda bo'linishi
- B. Nom ulpanatlyasi
- C. An'anaviy nom turi
- D. Nomni bir geografik ob'ektdan boshqasiga o'tishi

4. Normaniy nomlar nima?

- A. Bironi ko'chishi hodisasi
- B. Majoziy nomi
- C. Geografik ob'ektlarni original nomi
- D. Ma'nosini aniq bo'lmagan nom

5. "Ming ko'llar mamlakati" bu ...

- A. Finlandiya
- B. Grenlandiya
- C. Islandiya
- D. Yangi Zelandiya



## II bob. GEOGRAFIK NOMLARNING KLASSIFIKATSIYASI

### 7-mavzu: TOPONIMLAR KLASSIFIKATSIYASI TURLARI. GEOGRAFIK NOMLARNING STRATIGRAFIK QATLAMLARI

#### 7.1. Toponimlar klassifikatsiyasi turlari

##### *Reja:*

1. *Toponimlar klassifikatsiyasi turlari haqida umumiy tushuncha.*
2. *Geografik nomlarni klassifikatsiyalash tarixi.*
3. *O'zbekiston olimlarining joy nomlarini klassifikatsiyalash masalasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlari.*

*Mavzuning maqsadi:* Geografik nomlar klassifikatsiyasi, maqsadi va vazifalari, klassifikatsiya tarixi va turlari, klassifikatsiyalash masalasiga oid olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari haqida ilmiy tushuncha berish.

*Tayanch ibora va atamalar:* Klassifikatsiya, klassifikatsiya turlari, ob'ekt nomlariga qarab klassifikatsiyalash, semantik klassifikatsiya, morfologik guruh, semantik tip, joy nomlarni paydo bo'lishiga qarab guruhlarga bo'lish.

Har qanday klassifikatsiyalash ko'pincha ancha murakkab va bahstalab masala. Toponimlarni klassifikatsiyasi ham bundan mustasno emas, chunki geografik nomlar turli-tuman, ajoyib va g'aroyib, ularni turlarga ajratish, har bir nomni til qoidalari nuqtai nazardan, tarixiy shakllanishi va semantikasiga qarab tahlil qilish ancha murakkab masala hisoblanadi. Toponimist olimlar tomonidan geografik nomlarning turlicha klassifikatsiyasi taklif qilingan bo'lsa ham, ammo bu masalada yagona va mushtarak qarash mavjud emasligi tufayli, hozirga qadar toponimlarni sodda, universal va mantiqan to'g'ri ilmiy klassifikatsiyasi ishlab chiqilmagan.

E.M.Murzaev bu masalaga e'tibor qaratib shunday yozadi: «Har qanday davlat yoki hududiy birliklar murakkab, ko'p qatlamli tirik va o'zgaruvchan toponimiya tizimiga ega bo'lganligi bois barcha talab-

birga javoh beradigan, yagona geografik nomlar klassifikatsiyasini yaratish ancha qiyin va hattoki imkoni yo'q masala». Toponimlarning universal klassifikatsiyasini yaratish uchun chuqur ilmiy izlanishlar kerakligini V.P.Semenov-Tyan-Shanskiy, A.M.Selishev, V.A.Nikonov, V.A.Juchke-vich, A.V.Superanskaya kabi olimlar ham ta'kidlashgan.

Geografik nomlarning ilmiy hammabop klassifikatsiyasini yaratishning murakkabligini toponimikani integral fan ekanligi, lingvistika, tarix va geografiya fanlarining manfaatlari tutashgan joyda paydo bo'lganligi bilan ham izohlash mumkin. Hozirgacha har bir tadqiqotchi o'z oldingi qo'ygan maqsadi va tadqiqot yo'nalishidan kelib chiqib bu masalaga yondoshganligi bo'ls, mavjud klassifikatsiyalar ba'zan, tilshunos toponomistlarni qamrovlanmagan, tarixchi va geograflar uni ma'qullashmagan yoki aksincha, geograf toponomistlarga ma'qul bo'lsa ham tilshunos va tarixchilarni qamrovlanmagan va hokazo. Endilikda, asosiy vazifa toponimikaniq alohida fan sifatida bu sohada yaratilgan ilmiy tomonlardan kelib chiqib masalaga yondoshish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shubhasiz, har qanday klassifikatsiyada ijobiy tomonlari bilan birga muayyan kamchiliklari ham bo'lishi tabiiy, ammo bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar davom etishi kerak, chunki akademik V.V.Bartold ta'kidlaganidek, «har bir tadqiqotchi oldingilar ilg'amay qolgan nimanidir aniqlaydi, shu bilan birga har bir yangicha talqin shubhasiz xatolar sotilib ham ko'paytiradi. Kim ko'proq to'g'ri talqin qilganu, kim hamma-dan ko'p xatoga yo'l qo'ygan, degan masala yechimini bemalol kelajakka qo'yib berishi kerak».

Toponimlarni klassifikatsiyalash o'z tarixiga ega. XIX asrda ilk bor geografik nomlarni turli morfologik guruh va semantik tiplarga bo'lib ilmiy jihatdan klassifikatsiyalashga harakat qilingan. V.P.Semenov-Tyan-Shanskiy (1924), L.L.Gumetskaya (1932), A.M.Selishev (1939), V.Tashitskiy (1946), E.M.Murzaev (1979), A.V.Superanskaya (1985) kabi olimlar tomonidan geografik nomlarning turlicha klassifikatsiyasi taklif qilingan. Masalan, mashhur rus olimi V.P.Semenov-Tyan-Shanskiy (1924) joy nomlarini quyidagi guruhlarga bo'lgan: *kishilar ismi, familiyasi va laqabi; diniy bayramlar; tarixiy voqea-hodisalar; etnonimlar; voqea va kishilar sharafiga; joyning geografik xususiyatlari asosida paydo bo'lgan nomlar*.

Mutaxassislar geografik nomlarni klassifikatsiyalashda turli xil omillarni (lisoniy, tarixiy, geografik, ijtimoiy) asos qilib olishgan va ularning

har biri o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Taklif etilgan klassifikatsiyalar orasida E.M.Murzaevning (1979) toponimlarni ob'ekt nomlariga qarab (*oronimlar, gidronimlar, fitonimlar, zoonimlar, oykonimlar*) klassifikatsiyalash usuli eng oddiy va qiyosan maqbul hisoblanadi.

O'zbekiston toponimist olimlari tomonidan ham geografik nomlarni klassifikatsiyalash masalasida bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Xususan, H.Hasanovni xizmatlarini alohida e'tirof etish lozim. H.Hasanov ilk bor toponimlarni turlarga ajratishda har bir nomni birinchi navbatda til qoidalari nuqtai nazaridan va shakllanish bosqichlariga ko'ra tahlil qilish o'rinli bo'lur edi, degan fikrni bayon qilgan. Olim joy nomlarni bunyodga kelishiga qarab, shartli ravishda quyidagi turlarga bo'lib ko'rsatgan: *Joyning holati, xosiyati, yer yuzasi va iqlimiga bog'liq nomlar; Gidronimlar; O'simlik va hayvonlarga bog'liq nomlar; Foydali qazilmalarga bog'liq nomlar; Hunar kasbdan va ma'muriyatlardan olingan nomlar; Xalq, qabila va urug'larga bog'liq nomlar; Shaxslarning ism-familiyalariga qo'yilgan nomlar; Afsonaviy va diniy nomlar; G'aroyib nomlar; Yangi zamon nomlari;*

Keyingi vaqtda P.G'ulomov tomonidan geografik nomlarni klassifikatsiyalashni ikki bosqichli sistemasi taklif qilindi. Taniqli olim dastlab toponimlarni yirik guruhlariga ajratgan, keyin har bir yirik guruh ichida joy nomlari turlarini aniqlagan. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib P.G'ulomov toponimlarni quyidagi uchta yirik guruhga bo'lgan:

I. Joyning tabiiy xususiyatlariga bog'liq holda paydo bo'lgan nomlar;

II. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy holatlar bilan bog'liq holda paydo bo'lgan nomlar;

III. Afsonaviy va g'aroyib nomlar.

Har bir yirik guruh o'z navbatida yana alohida turlarga ajratilgan.

I. Joyning tabiiy xususiyatlariga bog'liq holda paydo bo'lgan nomlar;

1. Joyning geografik o'rni bilan bog'liq nomlar. Masalan, *Severnaya Zemlya orollari, Orqa Oloy, Shimoliy dengiz, Xokkaydo (Shimoliy) oroli.*

2. Joyning o'ziga xos xususiyatiga bog'liq nomlar. *Qoraqurum – suvsiz, xunuk tosh uyumlari, Grenlandiya – yashil yer, Islandiya – muz o'lkasi, Toshloq tumani, Terskay Olatovi.*

3. Joyning rel'efiga bog'liq toponimlar. *Qumtepa, Odamtosh, Qo'ytosh.*

4. Joyning iqlimi, meteorologik elementlariga bog'liq nomlar. *Bog'ishamol, Sovuqdara, Shamolli va Shamolsiz orollar.*

5. Suv bilan bog'liq nomlar – gidronimlar. Dengiz, ko'l, daryo, buleqlar, quduqlar nomlari va ular bilan bog'liq holda hosil bo'lgan nomlar. *Sarisuv, Sho'rbuloq, Shiringuduq, Korizquduq, Oynako'l, Jinnidaryo, Damariq.*

6. O'simliklar, ularning turlari bilan bog'liq nomlar. *Konibodom, Toldiqo'rg'on, Olmaliq, Dubrovka, Qoraqamish.*

7. Hayvonlarga bog'liq joy nomlari. *Qoplonqir, Bo'rijar, Chivintepa.*

8. Foydali qazilmalarga bog'liq hosil bo'lgan toponimlar. *Gazli, Oltintopgan, Qoramoy, Toshko'mir, Temirtov, Apatit, Gugurttog', Tuzkon.*

**II. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy holatlar bilan bog'liq holda paydo bo'lgan nomlar;** Bu guruhdagi toponimlar turli xalqlar, elatlar, urug'lar, ularning rivojlanishi, bosib o'tgan yo'llari, siyosiy tuzumi, tarixi, shug'ullangan kasb-hunarlari bilan bog'liq holda vujudga keladi va o'zida shunday voqea-hodisalarni aks etadi.

1. Kasb-hunar va ma'muriyatsdan olingan nomlar. *Ohangaron, Egarchi, O'qchi, Taqachi, Kamongaron, O'rda, Traktorsozlar.*

2. Tarixiy nomlar. Mamlakat tarixida ro'y bergan voqea-hodisalar bilan bog'liq holda paydo bo'lgan nomlar. *Jangoh, Xadra, Eskijuva, Beshog'och, Borodino maydoni.*

3. Xalq, qabila, urug'larning bilan bog'liq holda paydo bo'lgan nomlar – etnotoponimlar. *O'zbekiston, Shvetsiya, Mavritaniya, Qipchoq, Qirqqishloq.*

4. Kishilarning ism-familiyasi, taxallusi bilan bog'liq nomlar – antroponimlar. *Bering bo'g'oz, Livingston sharsharasi, Navoiy shahri.*

5. Diniy nomlar. *Avliyoota, Zangibuva, San-Marino, San-Salvador.*

6. Zamonaviy nomlar. *Chamanzor, Guliston, Bo'ston, Bunyodkor.*

### **III. Afsonaviy va g'aroyib nomlar.**

1. Afsonaviy nomlar. *Odamato tog'i, Alvasti ko'prigi, Ko'hi Qof.*

2. G'aroyib nomlar. *Borsakelmus hotig'i, Ajal vodiysi, O'lik dengizi.*

Geograf toponimist olimlar (E.M.Murzacov, H.Hasanov, P.G'ulomov) tomonidan taklif qilingan klassifikatsiyalar geotoponimika uchun ancha qulayligi va mukammalligi bilan e'tiborga molik. Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, toponimiyalarni taqsimlashda turli printsiplar asos qilib olingan bo'lsa ham, ammo mavjud muammoni yechi-

mini topish uchun barcha imkoniyatlardan to'la foydalanildi deb bo'lmaydi.

Ma'lumki, XX asrning oltmishinchi yillari respublika toponimiyasini lingvistik aspektda o'rganish boshlandi va geografik nomlarni lisoniy jihatdan klassifikatsiyalashga ham alohida e'tibor qaratildi. Masalan, tilshunos olimlardan Sh.Qodirovaning «Toshkent mikrotoponimiyasining nomlanish printsiplariga doir» (1966), S.Qoraevning «Geografik nomlar ma'nosi» (1978), Z.Do'simovning «Toponimlar tasnifi masalasiga doir» (1978), N.Oxunovning «Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari» (1989), K.Nazarov va T.Enazarovlarning «Joy nomlarini yig'ish so'roqligi» (1995) kabi asarlarida bu masala qisman o'rganilgan.

Filolog toponimist olim Z.Do'simov «Toponimlar tasnifi masalasiga doir» maqolasida klassifikatsiyalashni asosan ikki yo'nalishda, ya'ni toponimlarni leksik-semantik va grammatik tuzilishiga ko'ra amalga oshirishni eng qulay va maqsadga muvofiq deb hisoblagan. Geografik nomlar morfologik xususiyatlari, qaysi tilga mansubligi, etimologiyasi, tarixiyliigi, semantikasiga inobatga olinib ham klassifikatsiyalangan. Chunonchi, semantik klassifikatsiya quyidagicha ko'rinishga ega: *tabiiy-geografik omillar asosida shakllangan toponimlar, antroponimlar, etnotoponimlar, moddiy ishlab chiqarish bilan bog'liq toponimlar, savdo-transport va diniy e'tiqodlar bilan bog'liq toponimlar.*

Oxirgi yillarda soha mutaxassisleri ilmiy-tadqiqot ishlarida ko'pincha semantik klassifikatsiyani qo'llashmoqda. Taklif etilgan barcha klassifikatsiyalarni ijobiy jihatlari bilan birga, tarkibiy qismlarida muayyan darajada ziddiyatli va bahstalah tomonlari ham bor. Shu sababdan, ularning hech bittasi tugalligi va to'laligi bilan mezon bo'lolmaydi.

V.A.Juchkevich fikricha, ideal shaklidagi hammabop klassifikatsiya uchta asosiy talabga javob berishi kerak: *nima va qanday ob'ektlar nomlanmoqda, qanday tarzda nomlanmoqda, qaysi tilda va tilning qanday vositalari yordamida, nima uchun nomlanmoqda, nom qanday ma'noga ega.* Javoblardan toponimikani integral fan ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qilsa bo'ladi. Chunki, birinchi savolga – geografiya, ikkinchi savolga – lingvistika, uchinchi savolga toponimikaning o'zi javob berishi lozim bo'ladi. Shubhasiz, klassifikatsiyalash masalasi amaliy, xususan mintaqaviy toponimik tadqiqotlarda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, har qanday ilmiy tadqiqot ishlari to'plangan ma'lumotlarni tizimlashni, ya'ni klassifikatsiyalashni talab etadi. Shunday ekan, yagona va hammabop ilmiy klassifikatsiyani yaratilishi – yaqin kelajak ishidir.

**Savol va topshiriqlar:**

1. *Toponimlarni semantik klassifikatsiyasi haqida ma'lumot bering.*
2. *So'nggi yillarda geografik nomlarni klassifikatsiyalash masalasiga oid qanday ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi?*
3. *H.Hasanov toponimlarni turlarga ajratishda nimalarga ko'proq e'tibor qaratgan?*

**Test topshiriqlari**

1. **V.A.Juchkevich fikricha, ideal shaklidagi hammabop klassifikatsiya qaysi talablarga javob berishi kerak?**
  - A. Nima va qanday ob'ektlar nomlanmoqda
  - B. Qaysi tilda va tilning qanday vositalari yordamida
  - C. Nima uchun nomlanmoqda, nom qanday ma'noga ega
  - D. Barcha javoblar to'g'ri
2. **Toponimlarni ob'ekt nomlariga qarab klassifikatsiyalash usulini qaysi olim va qachon taklif qilgan?**
  - A. V.P.Semenov-Tyan-Shanskiy (1924)
  - B. E.M.Murzaev (1979)
  - C. H.Hasanov (1978)
  - D. A.V.Superanskaya (1985)
3. **H.Hasanov joy nomlarini hunyodga kelishiga qarab, shartli ravishda necha turga bo'lgan?**
  - A. 8 ta
  - B. 9 ta
  - C. 10 ta
  - D. 11 ta
4. **Toponimlarni leksik-semantik va grammatik tuzilishiga ko'ra klassifikatsiyalashni eng qulay va maqsadga muvofiq deb hisoblagan olim kim?**
  - A. T.Enazarov
  - B. S.Qoraev
  - C. H.Hasanov
  - D. Z.Do'simov
5. **Nima sababdan hozirgacha toponimlarni sodda, universal va mantiqan to'g'ri ilmiy klassifikatsiyasi ishlab chiqilmagan?**
  - A. Ilmiy hammabop klassifikatsiyasini yaratishning murakkabligidan
  - B. Toponimikani integral fan ekanligidan
  - C. Yagona va mushtarak qarash mavjud emasligidan
  - D. Barcha javoblar to'g'ri

## 7.2. Toponimlarning stratigrafik (tarixiy) qatlamlari

### *Reja:*

1. *Toponimlarning stratigrafik qatlamlari haqida umumiy ma'lumot.*
2. *O'rta Osiyo toponimiyasining stratigrafik qatlamlari va ularning farqlovchi xususiyatlari.*
3. *Mustaqillik davrida paydo bo'lgan geografik nomlar qatlami.*

**Mayzuning maqsadi:** Geografik nomlarning stratigrafik (tarixiy) qatlamlarini shakllanishi, taraqqiyoti, toponimik qatlamlarning o'zaro ta'siri, ularning hududiy tarqalishi haqida bilim va ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

**Tayanch ibora va atamalar:** Stratigrafik qatlam, davr va nom, toponimlarni evolyutsiyasi, monotilli toponimlar, lingvogeografik qatlamlar.

Ma'lumki, kishilik jamiyatining ilk hosqichidan boshlab odamlar uchun joy haqida tasavvurlar juda zarur bo'lgan. Tabiat bilan doimiy bog'liqlikda yashagan qadimiy odamlar uchun o'zlari istiqomat qilayotgan joy va uning tevarak atrofini nomlash ehtiyoji paydo bo'lgan. Bu zaruriyat, ya'ni geografik ehtiyoj kishilarga mo'ljal olish yoki bir manzilni ikkinchisidan farqlash uchun kerak edi. Demak, insoniyat tarixi qanchalik qadimiy bo'lsa, geografik nomlar ham shunchalik qadimiydir. Geografik nomlar turli tarixiy sharoitlar va tillar takomilining mahsuli, ular tarixning ma'lum bir davrida paydo bo'lgan. Har qanday toponim muayyan bir tarixiy davrda paydo bo'lgan, xalq tarixining kichik bir zarrachasi unda mujassam. Shuning uchun, nomning paydo bo'lishida turtki bo'lgan omil o'sha davrning tarixi, voqeligi, ijtimoiy-iqtisodiy muhiti bilan birga izohlanishi, tadqiq qilinishi yaxshi samara beradi.

Ayrim mutaxassislarning fikricha, toponimlarning asl mohiyatini ochib berish uchun tarixiy tahlil usuli eng maqbul va ishonchli hisoblanadi. Bu usul geografik nomlarning evolyutsiyasini, transformatsiyasini va yangi nom paydo bo'lishiga sabab bo'lgan ijtimoiy muhitni aniqlash imkonini beradi. Toponimik tadqiqotlarda ko'pincha tarixiy usulni qo'llash tarafdori bo'lgan, rus olimi *A.I. Popov* o'z ilmiy ishlarida shunday yozgan: «aniq tarixiy manba va tarixiy sharoitdan xabardor bo'lmasdan turib, geografik nomning kelib chiqishi to'g'risida xatosiz biron fikr aytish qiyin».

Har qanday geografik nomlarning majmuasi ma'lum vaqt davomida shakllangan. Ularning «umri, yashash davri» ham har xil bo'ladi.

Chunonchi, O'rta yer dengizi sohillari, Hindiston, Xitoyda yoshi bir necha ming yilni tashkil etadigan toponimlar mavjud. *Xorazm, Buxoro, Samarqand* kabi nomlar ham salkam uch ming yildan buyon yozma manbalarda uchraydi. Antraktidagi nomlarning asosiy qismi esa oxirgi 50-75 yilda paydo bo'lgan.

Har bir tarixiy davrning o'ziga xos xususiyatlari bor, ularni toponimiya orqali ham aniqlash mumkin. Masalan, XVIII asrda Rossiyada shaharlarni yunoncha nomlar bilan atash rasm bo'lgan. *Stavropol, Simferopol, Sevastopol, Mariupol, Melitopol* va hokazo. Yunoncha, polis – «shahar». Keyinchalik, Yevropadan andoza olgan Rossiyada, *Sankt – Piterburg, Yekaterinburg, Orenburg* kabi nomlar paydo bo'lgan. Golland tilida burg– «shahar». Sohiq Ittifoq davrida hukmron mafkura va siyosat ta'sirida kommunistik partiya va sho'rolar hokimiyatini tarannum etuvchi *Lenin, Marks, Engels, Oktyabr, Parts'ezd, Bolshevik* kabi nomlar bilan atash keng tus olgan.

Toponim qancha qadimiy bo'lsa uning ma'nosi shuncha mavhum, izohlash esa murakkab, faqat mutaxassislar bilishadi, ammo u juda qimmatli ma'lumotlarni saqlanayotgan «sandiq»ga o'xshaydi. Joy nomlari aniq bir tarixiy sharoitda paydo bo'lib, kelib chiqishi jamiyat hayoti, hududda yashayotgan yoki qachonlardir yashagan xalqlar tili bilan chambarchas bog'liq. Albatta, har bir tarixiy davr joy nomlarining muayyan qatlamini hosil qilgan, aniqrog'i har bir qatlamning joy nomlarida o'ziga xos «izi, tamg'asi» mavjud.

Monotilli toponimlarga ega bo'lgan hududlar kam, ammo topiladi. Bu holatni ko'p asrlar davomida aholisining milliy tarkibi o'zgarmagan yoki qisman o'zgargan yoki xalqning ijtimoiy hayoti, turmush tarzi, urf-odati, psixologiyasida juda kam o'zgarishlar sodir bo'lgan, mamlakatlar toponimiyasida kuzatish mumkin. Masalan, Islandiya, Mug'uliston kabi davlatlar monotilli toponimiyaga ega, ularning aksariyat qismi island va mug'ul tillarida yaratilgan. Natijada, necha asrlar ilgari paydo bo'lgan nomlar, o'zgarmasdan bizgacha yetib kelgan. Ular qadimiy bo'lganligi bois, qisman arxaiklashib qolgan.

Aksincha, O'rta Osiyo, Yevropa, Shimoliy Afrika, Kichik Osiyo kabi mintaqalarda xalqlar, tillar, tsivilizatsiyalarni aralashuvi natijasida, geografik nomlarning bir necha tarixiy qatlamlari paydo bo'lgan. Jamiyat tarixida sodir bo'lgan har qanday o'zgarishlar, voqea-hodisalar joy nomlarida muhrlanib qolgan. Shu sababdan, toponimik tadqiqotlarda nomning hamma tarkibiy qismlarini tahlil qilmasdan, aniq bir fikr aytish qiyin.



O'rta Osiyo toponimiyasining tarixiy qatlamlarini aniqlash uchun, mintaqa geografik nomlarining shakllanishi, taraqqiyoti, qaysi xalqlar tili asosida paydo bo'lganligi, mavjud toponimik qatlamlarning o'zaro ta'siri, ularning hududiy tarqalishi kabi masalalar tadqiq va talqin qilinishi lozim. Mintaqa toponimiyasining tarixiy qatlamlari hozirga qadar kam o'rganilgan va ilmiy jihatdan mukammal tadqiqot ob'ekti bo'lgan emas. Bu esa, hududiy toponimlarning tarixiy taraqqiyoti va lingvo-geografik qatlamlarining paydo bo'lishi sabablarini tadqiq qilishning ancha dolzarb masala ekanligidan dalolat beradi.

O'rta Osiyo va O'zbekiston toponimiyasining tarixiy qatlamlarini o'rganishda *V.V.Bartold, E.M.Murzaev, H.Hasanov, A.Muhammadjonov, S.Qoraev, A.Nabiev, T.Nafasov, Z.Do'simov, A.Nizomov* kabi olimlarning asarlari muhim ahamiyatga ega. Masalan, E.M.Murzaevning O'rta Osiyoni ko'pgina turkiy, eroniy, arab, mug'ul tillari asosida paydo bo'lgan toponimlarga bergan sharhi o'zining tarixiy manbalarga asoslanganligi, yorqin, sodda, ravon va ishonarlighi bilan alohida ajralib turadi.

E.Murzaev o'tgan asrning yetmishinchi yillarida geografik nomlarning stratigrafik tuzilishini, ya'ni joy nomlari tarkibidagi tarixiy qatlamlarning shakllanish jarayonini O'rta Osiyo respublikalari toponimiyasi misolida tahlil qilgan. Olimning fikricha, mintaqa joy nomlaridan tashkil topgan «ustuni», poydevori ostida ma'no-mazmunini aniqlash qiyin bo'lgan nomlar yotadi.

Bunday toponimlar hozirgacha «tirik» va amalda bo'lsa ham, ammo ularni aniq bir belgilangan davrga yoki qaysidir xalqqa tegishli ekanligini aniqlashni inkoni yo'q. Ularning shakllanish jarayoni ham juda uzoq o'tmishga borib taqaladi. Bu jarayon nafaqat mintaqa joy nomlariga, balki barcha xalqlar, mamlakatlarning geografik nomlar tizimiga xos va mushtarak xususiyat hisoblanadi. Balki, shu sababdan, rus toponimisti V.A.Nikonov eng qadimgi joy nomlari hanuzgacha noma'lumligicha qolmoqda, degan fikrni bayon qilgandir.

O'rta Osiyo – tabiiy xilma-xil o'lka, uni birinchi bo'lib tadqiq qilgan olimlardan biri *I.V.Mushketov*: «O'rta Osiyoni katta materik ichida joylashgan alohida materik desa bo'ladi», degan edi. O'rta Osiyoda okean sathidan past bo'lgan joylardan tortib balandligi yetti ming metr-dan ham ortiq tog'li o'lkalargacha uchraydi. Shuning uchun ham bu o'lkaning rel'efi, iqlimi, landshaftlari turlicha. Muzli cho'qillari bo'lgan o'lkaning tog'lar, tropik jazirama issiq va qutb sovug'i mavjud bo'lgan hududlar bu ajoyib o'lkada mujassamlashgan.

O'rta Osiyo etnik kartasi ham o'tmishda ancha rang-barang va murakkab bo'lgan, qadimda mintaqada hayot kechirgan har bir qabila, elat, xalq o'z tillarida joy nomlari yaratganlar. O'rta Osiyoning tubjoy xalqlari, tojiklardan tashqari barchasi – o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, qoraqalpoqlar – turkiy tilli xalqlar hisoblanadi. Faqat tojiklar – forsiy tilli xalqdir. Turkiy geografik nomlar eng haquvvat qatlam, u O'rta Osiyoning barcha hududlarida keng tarqalgan. Ularni Tojikiston, Afg'oniston, Eron hududida ham ko'plab uchratish mumkin.

Mintaqa xalqlarining ko'p asrlik ijtimoiy turmushi, tarixiy taraqqiyoti joy nomlarida ham o'z aksini topgan. Ular orasida ko'pchilik uchun ma'nosi noaniq geografik nomlardan tortib, yaqindagina paydo bo'lgan yangi toponimlarni uchratish mumkin. Mutaxassislar fikricha, O'rta Osiyo toponimiyasi tarkibidagi geografik nomlarining eng quyi, hozirgacha aniqlanmagan qatlami miloddan oldingi davrlarga to'g'ri keladi. Bunday nomlar qatoriga Samarqand, Omul, Xiva, Zomin, Urganch, Niso, Parapamiz va hokazo kabi, hozirgacha ma'no-mazmuni aniqlanmagan, substrat toponimlarni kiritish mumkin.

Yunonlar istilosi mintaqa toponimiyasida sezilarli iz qoldirmagan. Yunon tilidan o'zlashgan nomlar tez orada unutilgan yoki avvalgi joy nomlari qayta tiklangan. Makedoniyalik fotih Iskandar (Aleksandriyning arabcha shakli) Zulqarnayn (mil. av. 356, Pella-323, Bobil) nomi bilan bog'liq *Iskandar*, *Iskandarariq*, *Iskandardaryo*, *Iskandarquduq* kabi toponimlar ko'p. Iskandar haqidagi turli xil rivoyatlarning ko'pligi, bunday toponimlarning etimologiyasini aniqlashni ancha qiyinlashtiradi. Ko'pchilik mutaxassislar, Tojikistondagi Iskandarko'l nomini Iskandar Zulqarnaynga hech qanday aloqasi yo'q deb hisoblashadi. Bu fikrni V.V.Bartold ham tasdiqlab, o'rta asrlarda Iskandarko'l bu nom bilan ma'lum bo'lmagan deb yozgan.

H.Hasanovning yozishicha, Iskandar haqiqatdan ham yurtimizda bo'lgan, ammo Xo'janddan nariga o'tmagan. Shuning uchun, uzoq-uzoq joylardagi Iskandar nomlarini faqat ko'chirma deb tushinish ma'qul. Iskandar nomi bilan bog'liq nomlarni keyingi paytlarda paydo bo'lganlari ham bor. Masalan, Iskandarariq– Toshkentdan yuqoriroqda Chirchiq daryosidan chiqarilgan ariq. Bu ariqni 1883-1885 yillarda, mahalliy xalq orasida Iskandarto'ra laqabi bilan mashhur bo'lgan chor Rossiyasining knyazi Nikolay Konstantinovich qazdirgan.

Tarixchi A.Muhammadjonovning ta'kidlashicha, O'zbekistonda Iskandar nomi bilan joy nomlari ko'p, ulardan ba'zi birini xalq uning

nomi bilan bog'liq deb hisoblaydi. Masalan, Jizzax viloyatining Yangi-obod tumanida uzoq tarixga ega *Iskandar* nomli qadimiy qishloq bor. Mahalliy xalq orasida Iskandar Ustrushonaga yurish qilib katta talafot ko'rgan va shu qishloqda yaralangan askarlarini qoldirib davolagan, degan rivoyat bor. Uning qo'shinlariga mahalliy xalq qattiq qarshilik ko'rsatgan va u bundan jiddiy xavotirga tushgan, Ptolemeyning yozishicha, Iskandar asir olingan ustrushonaliklarni o'z jangchilariga bo'lib berib, to bu mamlakatdan chiqib ketmagunlaricha, ularni zanjirband holda saqlashni buyurgan.

Iskandar toponimining etimologiyasiga oid yana bir talqin A.G'afurovga tegishli. Olimning fikricha, qishloqning hozirgi nomi qadimiy so'g'd tilidagi iskodar – «baland», «yuqori» ma'nosidagi so'z bilan bog'liq. Bu talqin qishloqning joylashgan geografik o'rniga ham mos keladi. Hozirgi tilda tushunarsiz bo'lib qolgan sug'dcha iskodar so'zi, vaqt o'tishi bilan keyinchalik, mahalliy xalq talaffuzida nisbatan tushunarli bo'lgan Iskandar so'ziga aylangan, degan fikrni bayon qilgan.

E.Murzaevning yozishicha, O'rta Osiyo toponimiyasi tarkibidagi hozirgacha aniqlangan **birinchi** tarixiy qatlam eroniy tillarga tegishli. Ularni yaratuvchisi – qadimiy madaniyatga ega bo'lgan sug'dlar, boxtarlar, xorazmiylar hisoblanadi. Bu tarixiy qatlarga xos toponimlarni O'rta Osiyoning barcha hududlarida, jumladan Turon tekisliklaridan to Tojikiston tog'larigacha uchratish mumkin. Ular Qirg'iziston va Qozog'iston hududida nisbatan kamroq. Xorazm, Ashxobod, Murg'ob, Vaxsh, Jizzax, Miq, Varqin, Pishag'ar, Xo'jand kabi ma'no–mazmunini aniqlash qiyin bo'lgan substrat toponimlar shular jumlasidandir. Birinchi tarixiy qatlarga mansub toponimlar qisman asl shaklida, ba'zan ayrim o'zgarishlar bilan hozirgacha yetib kelgan. Eroniy va turkiy xalqlar qadimda uzviy iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqada bo'lishgan. Bu munosabat va aloqalar har ikki xalqning toponimlariga o'z ta'sirini o'tkazgan.

Akademik *A.Muhammadjonov* ushbu tarixiy qatlarga xos bo'lgan Savot toponimini izohlab shunday yozadi: Ustrushonaning Sebat rustoqida Buyuk Ipak yo'li uch tarmoqqa (Shosh, Farg'ona, Ustrushonaga) ho'linib ketgan. Ushbu yo'nalishlarning har birida bittadan rabot – karvonsaroy mavjud bo'lgan va Sebat (se-uch, bat – rabotning qisqargan shakli) «uch rabot» ma'nosini beradi. Sebat mahalliy xalq talaffuzida Sabot, Savot bo'lib o'zgargan. O'rta asrlarning arabiynavis geograflari Muqaddasiy, Ibn Havqal, Istaxriy asarlarida ham qishloq to'g'risida

ma'lumotlar mavjud va uning katta karvon yo'li ustida joylashganligi ta'kidlangan. Qulay geografik o'ringa ega bo'lgan Sebatda o'rta asrlarda Ustrushonadagi yagona mashhur yopiq bozor bo'lgan. Demak, Savot – aslida Seravot bo'lib «uch rabot», «uch karvonsaroy» degan ma'noni ifodalaydi.

Eroniy tilli toponimlarning **ikkinchi** tarixiy qatlamiga fors-tojik tiliga xos bo'lgan geografik nomlarni kiritish mumkin. Ularni turkiy va forsiy tillar yordamida tushinish mumkin hamda etimologik jihatdan tahlil qilish qiyin emas. Langar, Chorjuy, Farg'ona, Surxob, Dushanbe, Sangzor, Kuhiston, Zarafshon kabi nomlarni ana shu qatlamga kiritish mumkin. Masalan, Langar so'zini P.G'ulomov «to'xtash joy, qo'noq, manzil», deb izohlagan. Ilgarigi karvon yo'llaridagi qo'noq joylar, karvonsaroylar shu atama bilan yuritilgan. Langarlarda choyxona, mehmonxona, karvonsaroy, ba'zan guzarlar (bozori bilan) bo'lgan.

**Ma'lumki**, geografik nomlar yordamida har bir tarixiy qatlamning o'ziga xos xususiyatlarini o'qish mumkin. Ba'zan, ular o'tmish mahsuli sifatida, asrlar davomida tildan tilga o'tib shaklan o'zgaradi, mazmunan mavhumlashib qoladi. **Chunonchi**, Nurota tog'laridagi *Garasha* qishlog'i nomi bunga misol bo'lishi mumkin. Oykonimga fors-tojik tilidagi «girehkusho» so'zi asos bo'lgan. Girehkusho so'zi gireh-«tugun», «band» va kusho – «echmoq», «tugunlarni yechuvchi», «tilsimlarni ochuvchi», «hojatbaror», ma'nolarini ifodalaydi. Girehkusho nisbasi XII asr oxiri va XIII asrning boshlarida yashagan, yassaviya tariqatining izdoshlaridan bo'lgan hamda ilk bor shu qishloq hududida qo'nim topgan shayx Muhammadsharif ibn Aliasqarga tegishli. Girehkusho deb nom olishiga avliyoning ko'pgina karomat ko'rsatgani hamda muammolar yechimini to'g'ri topganligi sabab bo'lgan.

**Uchinchi**, eng baquvvat tarixiy qatlam turkiy toponimlardan tarkib topgan. Turkiy qatlam nafaqat O'rta Osiyo davlatlari hududida, balki Afg'oniston, Eron, G'arbiy Xitoy va boshqa mintaqalarda keng tarqalgan. Ular ko'pincha mintaqqa geografik nomlar sistemasini belgilaydi va etimologik jihatdan izohlash ancha oson. Turkiy qatlamga O'rta Osiyo hududidagi *Qorasoy*, *Tuyatortar*, *Qizilqum*, *To'rtko'l*, *Oqtosh*, *Yoyilma*, *Uchma*, *Egizbuloq*, *Tuyoqli*, *Ming*, *Qirq*, *Kaltatoy* kabi minglab geografik nomlar misol bo'ladi. Turkiy qatlamdagi geografik nomlarining katta qismini etnonimlar tashkil etadi.

E.Murzaev fikricha, turkiy qatlamdagi nomlar aholining xo'jalik yuritish faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi bois, boy va

rang-barang. Ayrim geografik tushunchalar chorva mollarning yaylov-lari va landshaftlar unumdorligi bilan bog'liq. Turkiy tillarda chorva ozuqalarning turli xususiyatlarini ifodalash uchun bir qator ixtisoslash-gan geografik terminlardan foydalaniladi. O'rta Osiyo mintaqasida ayrim geografik terminlar qaysi mamlakat hududida qo'llanilishiga qarab fonetik jihatdan o'zgargan. Masalan, O'zbekiston, Qirg'izistonda – soy, Qozog'istonda – say, Turkmanistonda - choy (chay).

**To'rtinchi** tarixiy qatlam arablarning ko'p asrlik istilosi bilan bog'liq, ular islom dinini olib kelish bilan birga kelib chiqishi arab tiliga mansub so'zlardan paydo bo'lgan toponimlarning shakllanishida faol ishtirok etganlar. O'rta Osiyoda arab tili elementlaridan vujudga kelgan toponimlar, xususan antroponimlar ma'lum hissani tashkil etadi. Arab tili elementlarining mintaqada paydo bo'lishi tarixan ayon, ammo ularni geografik ob'ektlarga nom sifatida shakllanishiga sabab bo'lgan omillar kam o'rganilgan. Bu qatlarga tegishli geografik nomlarning asosini tashkil qiluvchi so'zlar, ancha qadimgi davrlarda arab tilidan, turkiy tillarga o'zlashgan.

Hozirda mintaqada mavjud bo'lgan arabcha toponimlarning ko'pi mahalliy (o'zbek, tojik, turkman, qirg'iz) tillar grammatikasi asosida yaratilgan. Arab tilidan o'zlashgan so'zlarning ayrimlari hozirgi vaqtda ham geografik termin sifatida qo'llaniladi va ma'nosi tushuniladi. Bun-day geografik terminlar sirasiga hozirda O'rta Osiyo toponimiyasi tar-kibida uchraydigan *anhor, vaqf, mozor, mahalla, machit, rabot, aqba, supa, qal'a, qit'a* kabi so'zlarni kiritish mumkin.

Mutaxassislar arab elementlarini mintaqa toponimiyasi tarkibida saqlanib qolishi va tarqalishini O'rta Osiyo xalqlarining O'rta va Yaqin Sharq musulmon mamlakatlari bilan asrlar davomida saqlanib qolgan aloqalari bilan bog'liq deb hisoblashadi. Arab tilidan o'zlashgan so'zlar asosida paydo bo'lgan toponimlar orasida diniy terminlarning ko'pligini alohida qayd qilishgan. Arab geograflari mintaqadagi bir qator yirik geografik ob'ektlarni nomlashda o'z nomenklaturalaridan foydalanish-gan, ammo mahalliy xalq orasida ular keng qo'llanilmagan. Masalan, *Sayhun, Jayhun, Movarounnahr* va hokazo. Ko'p asrlik lisoniy aloqalar turkiy-arabcha – *Toshsaqo, Narpay, Qizilrvat, Jalolobod, Taxi Sulaymon* kabi gibril nomlarni paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

O'rta Osiyo hududida asli mo'g'ul tilidan o'zlashgan so'zlardan paydo bo'lgan geografik nomlarning kelib chiqishi XIII asrdagi mo'g'ullar istilosi bilan bog'liq. Hozirda mug'ulcha toponimlar mintaqa joy

nomlari tarkibidagi kichik bir guruh sifatida **heshinchi tarixiy qatlamni** taʼkid etadi. Mugʻul tili Oʻrta Osiyoda xalq tiliga aylanmadi. Shu sababdan, mugʻul toponimlari nisbatan kam va ularni aniqlash oson. Mutaxassislarimiz fikricha, Oʻrta Osiyo toponimiyasi tarkibida, moʻgʻulcha nomining kamligi, ularni mahalliy xalq bilan aralashib tili va dinini qabul qilganligi sabab boʻlgan.

S.Nomiryanov, F.Begmatov, T.Nafusov kabi olimlar, turkiy tillar ommaviylikasida mugʻulcha va mugʻulcha-turkiy soʻzlar asosida yasalgan katta toponim, etnonimlarni, toponimlarni tadqiq qilishgan. Masalan, T.Shadimov mugʻul va turkiy xalqlarning oʻzaro yaqinligiga ishora qilib, mugʻul va turkiy tillarga musharak soʻzlarning etnolingvistik taʼbirini taqdim etgan tadbir, ularni bitta tilga mansubligini belgilash qiyin deb yozgan. Hozirgi kunda toponimiyasining tahlili, mugʻul elementlari toʻgʻri moʻgʻulcha sharoiti tomon kuchayib borishini koʻrsatadi. Shuningdan, Oʻrta Osiyoning sharqiy qismida joylashgan Qirgʻiziston toponimiyasi tarkibida mugʻulcha soʻzlar koʻproq uchraydi. Bunga qirgʻiz va mugʻul tillarini yonma-yon hududlarda shakllanganligini tarixiy dalil sifatida keltirish mumkin. Tabiiyki, bunday qoʻshnichilik ayrim geografik terminlarni turkiy va mugʻul tillarida bir xil maʼnoda qoʻllanilishiga sabab boʻlgan.

Oʻzbekiston toponimiyasi tarkibida ham mugʻulcha soʻzlar asosida shakllangan geografik nomlar hozirgacha saqlanib qolgan. Masalan, katta viloyatidagi *Toʻqay, Yomchi, Yom, Sayxan, Koʻtal* kabi aholi punktlari nomlari aslida moʻgʻul tilidan oʻzlashgan soʻzlar asosida paydo boʻlgan. Yetuk toponimik tadqiqotlar muallifi E.M.Murzaevning yozishicha, *Sayxan* toponimiga, mugʻul tilida «chiroyli», «goʻzal» degan maʼnolarni anglatuvchi sayxan soʻzi asos vazifasini hajargan. Keyinchalik geografik termin sifatida bu soʻz oʻzbek tiliga oʻzlashgan va hozirda «katta», «tekis ochiq joy», «maydon» maʼnosini ifodalaydi.

Geografik nom sifatida tanilgan yom (dialektda jom) soʻzi ham mugʻul tilidan oʻzlashgan. Yom soʻzi hozirgi oʻzbek tili singari, XI asr yodgorligi «Devonu lugʻotit turk»da ham uchraydi. Mutaxassislarimiz fikricha, Yom, Yomchi, Jom, Jomboy, Jombotʻz, Jombuloq kabi toponimlarni paydo boʻlishi ham shu soʻz bilan bogʻliq. Masalan, Zomin tumanidagi Yom qishlogʻi tarixiy manbalarga koʻra XIII asrdan buyon, shu nom bilan maʼlum. Akademik *B.Ya.Vladimirsov* (1884-1931) yozishicha: «yoʻl maʼnosidagi yom soʻzi moʻgʻullardan turkiy tillarga oʻtib, moʻgʻullar hukmronligi davrida Oʻrta Osiyoda juda keng tarqalgan.

Yomlar chingiziyalar davrida qurila boshlagan. Keyinchalik yom soʻzi «choparlar, yoʻlovchilar qoʻnadigan va ot almashtiradigan joy», «bekat» maʼnosini ifodalagan. Yomda doim otlar shay turib, bir qancha kishi xizmat qilgan. Ugedeyxon koʻplab yomlar qurdirganligi bilan faxrlanganligi maʼlum».

Shuni aytish kerakki, Oʻrta Osiyoda moʻgʻullardan keyin ham yomlarga zarurat borligi uchun ular saqlanib qolingan. Bunga «Boburnoma»dagi quyidagi soʻzlar misol boʻla oladi: «... har oʻn sakkiz kuruhda olti yom oti bogʻlagaylar». XV – asr oʻzbek tiliga yomxona – yemxona, otlar saqlanadigan joy, yom oti – chopar ot, yomchi – yom xizmatchisi sifatida oʻzlashgan. Mugʻulcha yom soʻzi nafaqat turkiy tillarga balki slavyan, xususan, rus tiliga ham oʻtgan. Chunonchi, rus tilidagi «yamshik» soʻziga yom soʻzi asos boʻlgan.

Ayrim mutaxassislar, arab va moʻgʻul tillari bilan bogʻliq boʻlgan geografik nomlarni alohida tarixiy qatlamlarga ajratish shart emas, chunki bu tillardan oʻzlashgan soʻzlar allaqachon turkiy tillarning lugʻaviy boyligiga aylanib, xalq orasida singib ketgan, deb hisoblaydi. Bosqinchilar safida kelgan turli etnik birliklar, jumladan arab va mugʻullar davr oʻtishi bilan mahalliy xalq tarkibiga singib ketgan boʻlsa ham, ammo ularning «izi» geografik nomlar tarkibida hozirga qadar saqlanib qolgan. Oʻrta Osiyoni bosib olgan arablar etnik jarayonga taʼsir qilmasa-da, islom dini hukmronligini oʻrnatgan. Moʻgʻul istilosi esa, butun mintaqada oʻz taʼsirini oʻtkazib mahalliy xalqning irqiy tuzilishiga bir oz oʻzgarishlar kiritgan.

Mintaqa toponimiyasi tarkibidagi **oltinchi tarixiy qatlamni** slavyan (rus) tili asosida shakllangan geografik nomlar tashkil qiladi. Ularning paydo boʻlishi XIX asrning oxiri va XX asrning boshida Rossiya tomonidan Oʻrta Osiyoni bosib olishi bilan bogʻliq. Ruscha toponimlar mintaqada hududida turli sabablar bilan paydo boʻlgan. Masalan, *Skoblevo, Obruchevo, Lomakino, Milyutinskaya, Ursatevskoe, Xilkovo* kabi nomlar yangi qurilgan temir yoʻl stantsiyalariga chor hukumati hokimlarining qarorlari bilan qoʻyilgan rasmiy nomlar hisoblanadi.

E.M.Murzaevning yozishicha, mahalliy xalq bu nomlarni yaxshi qarshi olmagan. Koʻpincha, yangi nom bilan birga avvalgi anʼanaviy nomi ham qoʻllanib kelingan. Ruscha nomlarning bir qismi oʻlka tabiati va xoʻjaligini rus olimlari tomonidan tadqiq qilish jarayonida paydo boʻlgan. Masalan, 1878 yili Oʻrta Osiyo togʻlarini oʻrgangan rus olimi V.F.Oshanin, Pomir togʻlarida aniqlagan eng katta muzlikni Fedchenko

nomi bilan atagan. Abramov muzligi, Korjenevskiy cho‘qqisi, Petr I tizmasi kabi nomlar ham shu yo‘sinda paydo bo‘lgan.

Sohiy sho‘rolar davrida rus tili orqali kirib kelgan nomlarning katta qismi antroponimlardan iborat bo‘lgan. Lenin, Karl Marks, Engels kabi nomlar mintaqada keng tarqalgan. Xususan, cho‘l va dasht hududlarini o‘zlashtirilishi natijasida paydo bo‘lgan yangi geografik ob’ektlarga, hulkamon malkura va siyosat ta’sirida kommunistik partiya va sho‘ro hokimiyatini tarannum etuvchi nomlar berilgan. Chunonchi, 1975 yilda Izzat viloyati tarkibida yangi tashkil etilgan Armasoy tumaniga qarashli barcha aholi punktlari sohiy sovet davlatining harbiy sarkardalari nomlari *Chukov, Timoshenko, Grechko, Rokossovskiy, Konev, Vasilevskiy* va boshq. i bilan atalgan.

Sho‘rolar davrida geografik ob’ektlar nomlarini joylarda yozib olgan mutaxassslarning ko‘pchiligi rus bo‘lganligi bois, ular toponimlarni rus tili grammatikasiga asosan yozib olib kartaga tushirganlar. Geografik nomlarning kartalarda noto‘g‘ri yozilishi, ko‘pincha nomlarning mu‘nosabat izohlashda chalkashlikka olib kelgan. Toponimist olim N.P. Arkhangel’skiy sohadan ancha xahardor ziyoli sifatida bu haqda shunday yozgan: «O‘rta Osiyo geografik nomenklaturasining rus tilida tasniylashtirilgan shakli geografik ob’ektlarning mahalliy aholi tomonidan qabul qilingan nomlari shaklidan juda katta farq qiladi». Muayyan Nuratau toponimi kartada Nuratau shaklida xato yozilganligi bois, V.A. Nikonov uni mo‘g‘ulelu nuru – «tizma» va turkiy tov – «top» so‘zlaridan tarkib topgan deb noto‘g‘ri izohlagan.

O‘rta Osiyo respublikalari istiqlol sharolati bilan, mustaqil toponimik siyosat yangizib, mavjud chalkashliklarga barham berishdi. Mintaqadagi geografik nomlarning ko‘pchiligi davr talabini aks etadigan, xalqona, oddiy, sodda hamma uchun tushunarli bo‘lgan nomlar bilan almashtirildi yoki ularning tarixiy nomlari qayta tiklandi. Toponimik tadqiqotlardan ma’lumki, O‘rta Osiyo toponimiyasi shakllanishi va taraqqiyoti jarayonida bir necha tarixiy davrlarni bosib o‘tgan. Ular turli tillar mahsuli, turkiy toponimlar ular orasida eng baquvvat va keng tarqalganligi bilan mintaqada alohida ajralib turadi. Har bir tarixiy davrning o‘ziga xos toponimlari mavjud, ammo geografik nomlarning tarixiy qatlamlari orasidagi chegaralar shartli hisoblanadi. Mavjud stratigrafik (tarixiy) qatlamlar bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi bois, ularni aniq belgilab bo‘lmaydi, yangi qatlam avvalgisini to‘ldirsa, eskisi yangi qatlamlarga o‘z ta’sirini o‘tkazgan.



Yomlar chingiziylar davrida qurila boshlagan. Keyinchalik yom soʻzi «choparlar, yoʻlovchilar qoʻnadigan va ot almashtiradigan joy», «bekat» maʼnosini ifodalagan. Yomda doim otlar shay turib, bir qancha kishi xizmat qilgan. Ugedeyxon koʻplab yomlar qurdirganligi bilan faxrlanganligi maʼlum».

Shuni aytish kerakki, Oʻrta Osiyoda moʻgʻullardan keyin ham yomlarga zarurat borligi uchun ular saqlanib qolingan. Bunga «Boburnoma»dagi quyidagi soʻzlar misol boʻla oladi: «... har oʻn sakkiz kuruhda olti yom oti bogʻlagaylar». XV – asr oʻzbek tiliga yomxona – yemxona, otlar saqlanadigan joy, yom oti – chopar ot, yomchi – yom xizmatchisi sifatida oʻzlashgan. Mugʻulcha yom soʻzi nafaqat turkiy tillarga balki slavyan, xususan, rus tiliga ham oʻtgan. Chunonchi, rus tilidagi «yamshik» soʻziga yom soʻzi asos boʻlgan.

Ayrim mutaxassislar, arab va moʻgʻul tillari bilan bogʻliq boʻlgan geografik nomlarni alohida tarixiy qatlamlarga ajratish shart emas, chunki bu tillardan oʻzlashgan soʻzlar allaqachon turkiy tillarning lugʻaviy boyligiga aylanib, xalq orasida singib ketgan, deb hisoblaydi. Bosqinchilar safida kelgan turli etnik birliklar, jumladan arab va mugʻullar davr oʻtishi bilan mahalliy xalq tarkibiga singib ketgan boʻlsa ham, ammo ularning «izi» geografik nomlar tarkibida hozirga qadar saqlanib qolgan. Oʻrta Osiyoni bosib olgan arablar etnik jarayonga taʼsir qilmasa-da, islom dini hukmronligini oʻrnatgan. Moʻgʻul istilosi esa, butun mintaqada oʻz taʼsirini oʻtkazib mahalliy xalqning irqiy tuzilishiga bir oz oʻzgarishlar kiritgan.

Mintaqa toponimiyasi tarkibidagi **oltinchi tarixiy qatlamni** slavyan (rus) tili asosida shakllangan geografik nomlar tashkil qiladi. Ularning paydo boʻlishi XIX asrning oxiri va XX asrning boshida Rossiya tomonidan Oʻrta Osiyoni bosib olishi bilan bogʻliq. Ruscha toponimlar mintaqada hududida turli sabablar bilan paydo boʻlgan. Masalan, *Skoblevo, Obruchevo, Lomakino, Milyutinskaya, Ursatevskoe, Xilkovo* kabi nomlar yangi qurilgan temir yoʻl stantsiyalariga chor hukumati hokimlarining qarorlari bilan qoʻyilgan rasmiy nomlar hisoblanadi.

E.M.Murzaevning yozishicha, mahalliy xalq bu nomlarni yaxshi qarshi olmagan. Koʻpincha, yangi nom bilan birga avvalgi anʼanaviy nomi ham qoʻllanib kelingan. Ruscha nomlarning bir qismi oʻlka tabiati va xoʻjaligini rus olimlari tomonidan tadqiq qilish jarayonida paydo boʻlgan. Masalan, 1878 yili Oʻrta Osiyo togʻlarini oʻrgangan rus olimi V.F.Oshanin, Pomir togʻlarida aniqlagan eng katta muzlikni Fedchenko

nomi bilan atagan. Abramov muzligi, Korjenevskiy cho‘qqisi, Petr I fizikasi kabi nomlar ham shu yo‘sinda paydo bo‘lgan.

Sobiq sho‘rolar davrida rus tili orqali kirib kelgan nomlarning katta qismi antroponimlardan iborat bo‘lgan. Lenin, Karl Marks, Engels kabi nomlar mintaqada keng tarqalgan. Xususan, cho‘l va dasht hududlarini o‘zlashtirilishi natijasida paydo bo‘lgan yangi geografik ob‘ektlarga, hukmron malkara va siyosat ta‘sirida kommunistik partiya va sho‘ro hokimiyatini tanqid etuvchi nomlar berilgan. Chunonchi, 1975 yilda Jizzax viloyati tarkibida yangi tashkil etilgan Armasoy tumaniga qarashli bir nechta aholi punktlari sobiq sovet davlatining harbiy sarkardalari nomlari *Chukov, Tunaychenko, Grechko, Rokossovskiy, Konev, Vasilevskiy* va boshq. bilan atalgan.

Sho‘rolar davrida geografik ob‘ektlar nomlarini joylarda yozib olgan mutasaddislarining ko‘pchiligi rus bo‘lganligi bois, ular toponimlarni rus tilidagi grammatikaviyaga asoslanib yozib olib kartaga tushirganlar. Geografik nomlarning kartalarda noto‘g‘ri yozilishi, ko‘pincha nomlarning ma‘nosini izohlashda chalkashlikka olib kelgan. Toponimist olim N.P. Arxangelskiy so‘zidan ancha xabardor ziyoli sifatida bu haqda shunday yozgan: «O‘rta Osiyo geografik nomenklaturasining rus tilida rasmiylashtirilgan shakli geografik ob‘ektlarning mahalliy aholi tomonidan qabul qilingan nomlari shaklidan juda katta farq qiladi». Masalan, Nurata toponimi kartada Nuratau shaklida xato yozilganligi bois, V.A. Nikonov uni noto‘g‘ri «nuru» – «tizma» va turkiy tov – «tag‘» so‘zlaridan tarkib topgan deb noto‘g‘ri izohlagan.

O‘rta Osiyo respublikalari istiqlol sharofati bilan, mustaqil toponimik siyosat yutguzib, mavjud chalkashliklarga barham berishdi. Mintaqadagi geografik nomlarning ko‘pchiligi davr talabini aks etadigan, xalqona, oddiy, sodda hamma uchun tushunarli bo‘lgan nomlar bilan almashtirildi yoki ularning tarixiy nomlari qayta tiklandi. Toponimik tadqiqotlardan ma‘lumki, O‘rta Osiyo toponimiyasi shakllanishi va taraqqiyoti jarayonida bir nechta tarixiy davrlarni bosib o‘tgan. Ular turli tillar mahsuli, turkiy toponimlar ular orasida eng baquvvat va keng tarqalganligi bilan mintaqada alohida ajralib turadi. Har bir tarixiy davrning o‘ziga xos toponimlari mavjud, ammo geografik nomlarning tarixiy qatlamlari orasidagi chegaralar shartli hisoblanadi. Mavjud stratigrafik (tarixiy) qatlamlar bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi bois, ularni aniq belgilab bo‘lmaydi, yangi qatlam avvalgisini to‘ldirsa, eskisi yangi qatlama o‘z ta‘sirini o‘tkazgan.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. *Toponimikada stratigrafik qatlam tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?*
2. *O'zbekiston toponimiyasi tarkibidagi eng baquvvat va keng tarqalgan turkiy qatlam haqida ma'lumot bering.*
3. *So'nggi davrda paydo bo'lgan toponimik qatlamning ahamiyatini tushuntiring.*

### **Test topshiriqlari**

1. **Toponim qancha qadimiy bo'lsa ...**
  - A. Nomning ma'nosi shuncha mavhum bo'ladi
  - B. Barcha javoblar to'g'ri
  - C. Izohlash qiyin, faqat mutaxassislar bilishadi
  - D. Qimmatli ma'lumotlarni saqlanayotgan «sandiq»ga o'xshaydi
2. **O'rta Osiyo toponimiyasi tarkibidagi hozirgacha aniqlangan eng qadimiy stratigrafik qatlamni belgilang.**
  - A. Turkiy
  - B. Arabiy
  - C. Sug'diy
  - D. Forsiy
3. **O'rta Osiyo toponimiyasi tarkibida Skoblevo, Obruchevo, Lomakino, Milyutinskaya kabi ruscha toponimlar qachon paydo bo'lgan?**
  - A. XIX asrning o'rtasida
  - B. XIX asrning oxirida
  - C. XX asrning birinchi yarimida
  - D. XXI asrning boshida
4. **O'zbekiston toponimiyasi tarkibidagi To'qay, Yom, Sayxan, Ko'tal kabi nomlar qaysi til mahsuli?**
  - A. o'zbek
  - B. arab
  - C. mo'g'ul
  - D. tojik
5. **«O'rta Osiyo geografik nomenklaturasining rus tilida rasmiylashtirilgan shakli, geografik ob'ektlarning mahalliy aholi tomonidan qabul qilingan nomlari shaklidan juda katta farq qiladi» degan iborani muallifi kim?**
  - A. E.M.Murzaev

H. H. Hasimov  
C. N. P. Arxangelskiy  
D. S. Qoraev

## **8-mavzu: TABIIY-GEOGRAFIK OMILLAR ASOSIDA SHAKLLANGAN TOPONIMLAR**

### **8.1. Tabiiy-geografik omillar asosida shakllangan toponimlar**

#### **Reja:**

1. *Tabiiy-geografik omillar asosida paydo bo'lgan nomlar haqida umumiy tushuncha.*
2. *Oronimlar, iqlim va ob-havo xususiyatlari bilan bog'liq geografik nomlar.*
3. *Gidronimlar, fitotoponimlar, zootoponimlar va ularning nomlash xususiyatlari.*

**Ma'vzuning maqsadi:** Tabiiy-geografik omillar asosida shakllangan joy nomlarining paydo bo'lishidagi umumiy qonuniyatlar, ularning turlari va nomlanish xususiyatlarining mazmun-mohiyati haqida ilmiy tushuncha berish.

**Tayanch ibora va atamalar:** Oronim, gidronim, iqlim va ob-havo xususiyatlari bilan bog'liq toponimlar, fitotoponim, zootoponim.

Ko'p asrlar davomida tabiat hodisa va jarayonlarini kuzatgan mahalliy aholi tabiat hodisalarini va ularning komponentlarini joy nomlarida aniq aks etgan. Tabiat hodisalarini aks etuvchi toponimlar – yer yuzida keng tarqalgan. Ular orasida ko'pchilik geografik nomlarni rel'ef shakllari va elementlari (**oronimlar** – *tog'lar, cho'qqilar, tepalik, plato, do'nglik, vodiya, dara, jarlik, pastlik, pastekistik, qumliklar va hokazo*), iqlim va barcha suv ob'ektlari (**gidronimlar** – *okean, dengiz, ko'l, daryo, soy, jilg'a, buloq, suv ombori, kanal, quduq va hokazo*), barcha o'simliklar (**fitotoponimlar** – *har qanday o'simliklar turi bilan bog'liq nomlar*), hamda hayvonot olami (**zootoponimlar** – *har qanday hayvonot olami turlari bilan bog'liq*), barcha aholi punktlari (**oykonimlar** – *shahar, posyolka, qishloq, ovul, mahalla va hokazo*) nomlari tashkil etadi. Bu katta besh guruh salkam barcha geografik ob'ektlarning nomlarini qamrab oladi.

**Oronimik toponimlar.** Oronimlar (yunoncha, oros – «tog'») – tog'lar, tepaliklar, soyliklar, qirlar, daralar, jarliklar va boshqa orografik ob'ektlarning nomlari. Bu tur nomlar rel'ef shakli va elementlarining o'ziga xos xususiyatlarini ifoda etadi. Mutaxassislarning fikricha, toponimlarning boshqa turlariga nisbatan oronimlar kam o'rganilgan. Oronimik ob'ektlarning nomlari ancha turg'un va uzoq muddat o'z nomlarini saqlab qolishi bilan farq qiladi. Vaqt o'tishi bilan geografik ob'ekt rel'efi o'zgarishi mumkin, biroq o'sha rel'efni ifoda qilgan nom saqlanib qolaveradi. Chunonchi, «jar», «tepa» ma'nosini bildirgan geografik nomlarning ayrimlari hozirgi vaqtda o'sha joy rel'ef xususiyatini aynan anglatmasligi mumkin. Shuni ham ta'kidlash joizki, barcha geografik ob'ektlarda bo'lgani kabi oronimik ob'ektlarning nomlari orasida ham semantikasi tiniq bo'lmagan nomlar kam emas. Bu esa qo'shimcha toponimik tadqiqotlarni talab qiladi.

O'zbekistonda qadimgi turkiy tillarda faol qo'llanib, hozirda iste'moldan chiqib ketgan «yozi», «yor» kabi rel'ef shaklini bildiruvchi so'zlardan yuzaga kelgan joy nomlari ham topiladi. Masalan, cho'l, dasht, tekislik ma'nosidagi yozi so'zi tilning hozirgi holatida faol muomalada bo'lmasa ham, ammo toponimlar tarkibida saqlanib qolgan – *Oqyozi, Yozyovon, Qizilyozi, Sariyozi* va hokazo. Markaziy Farg'onada joylashgan Yozyovon tumanining nomi yozi va yobon so'zlaridan tashkil topgan.

Yobon so'zi ba'zi joylarda dala, yaylov ma'nosida ham qo'llaniladi. Shunidek, Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asarida qayd qilingan yor so'zi qadimiy turkiy tilda jar ma'nosini ifodalagan. Farg'ona vodiysi toponimlari tarkibida ko'p uchraydi. *Kuyganyor, Yorboshi, Yortagi, Yorqishloq, Keskanyor* va hokazo. Fors-tojik tilida «tall» – tepa, balandlik ma'nosini beradi. *Pushtital, Tallak, Tallisafed, Tallimarjon, Tagital* kabi joy nomlariga ana shu oronimik termin asos bo'lgan.

Tog' buyuklik, mangulik ramzi. Inson panoh, yegulik istab doimo toqqa intilgan. Insoniyatning yarimidan ko'pi tog' etaklarida va tog' oldi tekisliklarda yashaydi. Tog'larning atalish qonuniyatlaridan biri shuki, tog'li aholi yon-atrofdagi ayrim cho'qqi, qoya, yonbag'ir, zovlarning nomlarini yaxshi bilganlari holda tog' so'zi o'rniga ko'proq tosh terminini ishlatadi. Masalan, *Ayritosh, Qoratosh, Oqtosh* deganda cho'qqi, ayrim qoya yoki katta tog'ning bir bo'lagi tushuniladi.

Ba'zan, odam va uning birorta tana a'zosiga o'xshashligiga ko'ra atalgan oronimik ob'ektlarni ham uchratish mumkin. Qashqadaryo vilo-

yatidagi *Odamtosh*, Ohangaron vodiysidagi *Kelinchaktosh*, Molguzar tog'laridagi *Kuyovtosh*, *Kampirtosh* kabi toponimlar shular sirasiga kiradi. Oronimik nomlar orasida rel'ef shakllarini bildiradigan ko'pgina oronimik terminlarni ham uchratish mumkin. Oronimik terminlar barcha tillarda takrorlansa ham, ular haqida ilmiy adabiyotlarda yaxlit ma'lumotlar kam uchraydi. Ko'pchilik oronimik ob'ektlari nomlari tarkibida – *tog'*, *tov* kabi terminlar bor, ba'zan – *tosh*, *dovon*, *ko'tal* terminlari ham qo'shiladi.

Oronimik ob'ektlarga nisbatan qo'llanilgan *ko'h*, *jabal*, *shan*, *maunt*, *berg*, *montana*, *kordilera*, *serra*, *monte*, *ler*, *mta* kabi so'zlar ham tog' ma'nosini bildiradi. *Kordilera*, *Serra-Madre*, *Himolay*, *Karpat*, *Monblan*, *Kilimandjaro*, *Lernavan*, *Mtiskalta* va hokazo. Shunisi qiziqki, turkiy xalqlar yashaydigan hududlarda bu so'z turlicha talaffuz qilinadi. Qrim, Kavkaz, Ozarboyjon, Turkmanistonda – *dog'* (*dag'*), O'zbekiston, Tojikistonda – *tog'* (*tov*), Qozog'istonda – *tau* (*tau*), Qirg'izistonda – *too'* (*too*), Sibirda – *tu* (*tuu*) va hokazo.

T.Nafasov fikricha, hozirgi qiz komponentli joy nomlarini ham oronimik ob'ektlari nomlari qatoriga kiritish mumkin. *Qirqqiz*, *Uchqiz*, *Beshqiz*, *Yetimqiz*, *Qiztepa*, *Qizbuloq* va hokazo. Bunday nomlar hozir yaratilmaydi, uzoq o'tmishda oronimlar qisman gidronimlar sifatida paydo bo'lgan. Nomlar tarkibidagi *qiz* so'zi qadimgi turkiy *quz* so'zining o'zgargan shaklidir. Mahmud Qoshg'ariy tog' so'zining epiteli sifatida qo'llanuvchi bu so'zga bir necha o'rinda izoh bergan. Masalan, *quz tog'* – kun tushmas tog', tog'ning quyosh tushmaydigan joyi. Ayrim hududlarda *quz* so'zi yolg'iz balandlik, kichik cho'qqi, tog' yonbag'irlaridagi qoyasimon do'ngliklarga nisbatan ham qo'llanilgan. Qiz komponentli toponimlar areali ham buni tasdiqlaydi.

Oronimik ob'ektlar orasida *Oqtog'* va *Qoratog'* eng ko'p tarqalgan nomlardan biri hisoblanadi. Oronimlar tarkibidagi *oq* va *qora* so'zlari kam holatda rang ma'nosini bildiradi. *Oqtog'* – qorli tog', baland tog'. *Qoratog'* – past tog', qorsiz tog', qorong'u tog'. H.Hasanov yozishicha, Qirg'iziston va Qozog'iston yerlarida aksari tog'lar Olatov (buyuk, katta, qorli tog') deb ataladi. Mutaxassislar ularni bir-biridan kartada farq qilish uchun turli so'zlar qo'shganlar. Kungay Olatovi (oftobga ro'para, quyosh tushadigan), Terskay Olatovi (quyosh tushmaydigan), Orqaili Olatovi (Ili – daryo va vodiylar nomi), Talas Olatovi (Talas – daryo va vodiylar nomi) va hokazo. Oronimlarga xos xususiyatlardan biri shuki, mahalliy aholi tog'larni boshdan – oyoq yaxlit bitta nom bilan

emas, balki har yerda har xil ataydi. Faqat ilmiy kitoblar orqaligina tog'larning umumiy nomini bilib olish mumkin. Nurota tog'lari bunga yaqqol misol bo'lishi mumkin. Geografik kartalarda tog' Nurota deb atalsa ham, ammo turli qismlari mahalliy aholi tomonidan turlicha – *Baliqlitog'*, *Egarbellitog'*, *To'ng'izlitog'*, *Pistalitog'* kabi nomlar bilan atalgan.

Ba'zan, oronimik terminlarni oykonimlar tarkibida ham ko'rish mumkin. Orooykonimlar tarkibida *adir, bel, jar, kamar, tepa, ko'tal, tosh, tog', qir, qum* kabi indikator terminlar mavjud. Masalan, Jizzax viloyati Baxmal tumanida *Jamonjar* degan oykonim bor. Jamon yomon so'zining mahalliy shevadagi shaklidir. Yomon – xatarli, xavfli, qo'rqinchli ma'nosida, jar – geografik termin, oqar suvlarning yumshoq tog' jinslarini yuvishi natijasida hosil bo'lgan chuqurlik. Qishloq shunday jarlik yonida joylashganligi sababli jelovchi mahalliy xalq unga Jamonjar deb nom bergan. Bunday xosiyatsiz nomlar cho'pon-cho'liqlarni, soya-salqin ilinjida yurgan najotsiz yo'lovchilarni ogohlantirib turgan: *Yomontov, Yomonjar, Yomonqum* kabi ob'ektlardan yaxshilik kutib bo'lmaydi. Jumladan, Yomonqumda odam shamol paytida qum ostida qolib ketishi mumkin, Yomonjarning yon bag'ri o'pirilib insonlarni bosib qolishi hech gap emas.

Oronimik terminlar orasida tosh so'zi alohida o'rin tutadi. Tosh so'zi nafaqat qattiq tog' jinslarinig umumiy nomi, balki shu bilan birga «tog'», «alohida qoya», «cho'qqi» ma'nosini ham anglatadi. Respublikaning tog'li hududlarida *Oqtosh, Qoratosh* degan geografik nomlar bir necha marta takrorlanadi. Masalan, Zominsuv bo'yida Qoratosh degan 4-5 qavatli uy kattaligida qo'ng'ir-qoramtir yolg'iz yaxlit qoya bor, yoki shu tumandagi Tamtum qishlog'ida Cho'qmortosh nomli qoya cho'qqayib turadi.

S.Qoraevning yozishicha, oronimlar tarkibida ularning xususiyatini ifodalaydigan metaforik-majoziy nomlar ham uchraydi. Masalan, *Egarbellitog', Bukritog', Qizemchak, Yetimtog', Semiztepa, Tuyatosh, Qo'ytosh* va hokazo. Qadimdan tog'larni kishilar ismi bilan atash O'rta Osiyoda, jumladan O'zbekiston hududda rasm bo'lgan emas. Biroq kishi ismlaridan nom olgan mikrooronimik ob'ektlar ko'p. Bular ko'pincha tik qoyalar, harakatlanish qiyin va xavfli bo'lgan tog'u-toshlardan iborat joylar hisoblanadi. Masalan, Zomin tumani Tamtum qishlog'ining tepasida *Saodatuchgan, Nodiruchgan, Yaxshiboyuchgan, Yo'ldoshning oti uchgan* kabi qoyatoshlar bor. O'zbekistonda oronimik

ob'ektlarni nomlashda ba'zan aziz-avliyolarni qadamjoylari sifatida hobo, ota so'zlari qo'shib ham aytiladi. Mug'ulistonda esa tog'lar nomiga ko'pincha bogdo – «muqaddas», «ilohiy» so'zi qo'shib aytilgan. *Bogdo-Ula, Ixe-Bogdo, Baga-Bogdo* kabi oronimlar shu yo'l bilan hosil bo'lgan. Qadimda mo'g'ullarda tog'larga sig'inish odati bo'lgan. Ular hatto, begonalar oldida tog' nomini baland ovozda talaffuz qilishmagan, oila a'zolari va chorvalariga qarg'ishi tegadi deb qo'rqishgan.

Shunga o'xshash odat otashparastlikka e'tiqod qilgan qadimiy so'g'dlarda ham bo'lgan. Ular tog'larda ilohiy kuch bor, deb hisoblashgan va tog'ga chiqayotgan yo'lovchi tog' etagidan bir necha dona toshni olib, uning eng baland joyiga olib borib qalab qo'ygan. Tosh qalab qo'yilgan joylar so'g'd tilida sug'ch deb atalgan va ko'pincha ular belgi sifatida tog'ning eng baland nuqtasini yoki dovondan o'tadigan yo'lini ko'rsatib turgan. Yaponiyani ramzi sanalgan *Fudziyama* tog'i nomining paydo bo'lishi ham ancha qiziq. Olimlar uni turlicha sharhlagan bo'lsalar ham, ammo toponimga asos bo'lgan yama so'zini yapon tilida «tog'» ma'nosi borligini barcha mutaxassislar ta'kidlashgan. *Fudziyama* – «ulug' tog'», «ahadiy tog'», «olovli tog'» kabi ma'nolarga ega.

Tog' jinslari, foydali qazilmalar asosida paydo bo'lgan joy nomlari ham ko'p: *Kumushkon, Oltintopgan, Gazli, Zarafshon, Qumtepa, Qo'rg'oshinkon, Tuzkon* va boshqalar. Geografik nomlar yordamida foydali qazilma konlari ham aniqlangan. Masalan, Turkmanistondagi Gugurttog' nomi, Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan ushbu tog'da oltingugurtning tabiiy konlari borligidan aniq darak beradi. H.Hasanovning yozishicha: «O'rta Osiyodagi yirik konlarning aksariyati ular topilmasdan ancha ilgariyoq ota-bobolarga ma'lum bo'lgan. Chunonchi, Oltoy va Aldan nomlariga asoslanib, shu yerlardan oltin qidirib topganlar. Jezqazg'an nomi shu yerda mis horligini aytib berdi».

Vulkanlar va boshqa endogen geologik jarayonlar ham dunyo toponimiyasida o'z aksini topgan. Masalan, *Popokatepetl* – atsteklar tilida «tulinli tog'», *Vezuviy* – Italiyaning qadimgi xalqlaridan birining (osklar) tilida «tutun», «par», *Krakatau* – Yava oroli aholisi tilida «ovoz chiqaruvchi», *Etna* – qadimiy yunon tilida «olovli», *Pichincha* – kechua hindulari tilida qaynab turuvchi tog' kabi ma'nolarni ifodalaydi va hokazo. Rel'ef shakllari va elementlari (*tog'lar, cho'qqilar, tepalik, plato, do'nglik, vodiy, dara, jarlik, pastlik, pastekislik, qumliklar* va hokazo) bog'liq bo'lgan geografik nomlar, mazkur oronimik ob'ektlarga o'xshab ko'pincha uzoq vaqt saqlanib qoladi.



*Iqlim va ob-havo xususiyatlari bilan bog'liq toponimlar.* Iqlim va meteorologik sharoitlar bilan bog'liq toponimlarni paydo bo'lishi uchun, ularni aniq bir hududni ifoda etishi shart emas. Shunisi diqqatga sazovorki, toponimiyada bu guruhga tegishli nomlar keng tarqalgan bo'lsa ham, ammo geografik nomlar orasida meteorologik terminlar ancha kam. Bu holatni tabiiy meteorologik jarayonlarning davomiyligi (dinamikasi) bilan bog'lash mumkin. Bunday tabiiy hodisa va jarayonlarni toponim sifatida shakllanishi uchun kishilar tomonidan uzoq va bardavom kuzatilishi yoki ularning doimiy va barqaror hodisa ekanligi sabab bo'lishi mumkin.

Masalan, Jizzax viloyati G'allaorol tumanida Dovul nomli oykonim bor. P.G'ulomov bu geografik terminga quyidagicha ta'rif bergan: "dovul – juda qattiq shamol. Tezligi sekundiga 20 metrdan ortiq. Dengizda katta to'lqinlarga, quruqlikda ofatlarga, huzilishlarga sabab bo'ladi. Odatda, serharakat tsiklonlar bilan bog'liq holda vujudga keladi. Ba'zan kuchli qayun tarzida ro'y beradi". Mahalliy aholining kuzatuvlari bo'yicha, haqiqatdan ham qishloq serharakat tsiklonlar yo'lida joylashgan.

Dunyo kartasida Shamolli va Shamolsiz orollari (Markaziy Amerikada), Kuril orollari (Rossiyada) – ayn qabilasi tilida «tutun», «bulut» deyilgan, Vindxuk shahri nomining ma'nosi (Namibiya poytaxti) – «shamolli dovon», Nuakshot (Mavritaniya poytaxti) – «shamolli joy», Boro-Dala dashti (Mug'uliston) – «shamolli vodiya» kabi nomlar bor. Janubiy Amerikadagi Chili davlatining nomi mahalliy araukano hindulari tilida «sovuq», «qish» degan ma'noni beradi. Tekislikda yashovchi araukano qabilasi qor bilan qoplangan baland And tog'lari cho'qqilarini shunday atashgan. Ekvador davlati gerbida tasvirlangan Chimboraso vulkani nomi tarkibidagi *raso* so'zi, mahalliy hindular tilida «qor» ma'nosini ifodalaydi.

Gviana yassi tog'larining eng baland joyi *Neblina* (Sera-Neblina) tog'i ma'nosi – «tumanli», *Kelantan* shtatining (Malayziya) nomi, malaya tilida «chaqmoq, yashin» – (haqiqatdan ham yomg'irlar faslida kuchli bo'ron va chaqmoqlar kuzatiladi) degan ma'nolari bor. Gavay orollaridagi vulkanlarning biriga *Vayleleale* (to'la suv) nomi berilgan, bunga esa vulkan joylashgan tog' etaklariga yog'adigan katta miqdordagi yog'ingarchilik sabab bo'lgan. Bu joy dunyodagi eng ko'p namlik tushadigan hududlardan biri hisoblanadi. Yangi Zelandiya aborigenlari vatani *Aotearoa* deb atashgan. Mahalliy xalqi bo'lgan maorlar tilida

*Aotearoa* – «uzunchoq oq bulut» ma'nosini beradi. Himolayning janubiy yonbag'ridagi mashhur seryomg'ir hudud Cherrapunja – «jilg'alar qishlog'i» degan ma'noni anglatadi.

Baland tog'larga ko'pincha, ob-havo yoki yog'in turlari bilan bog'liq bo'lgan nomlar berilgan. Masalan, *Himolay* – dunyodagi eng baland tog' tizmalaridan biri. Sanskritcha *xima* – «mangu qor», *alayya* – «makon», ya'ni mangu qorlar makoni, *Kavkaz* – «qorli tog'» va hokazo. Turkiy xalqlarda ham baland tog'larni shu tarzda nomlash odati bo'lgan: *Muztog'*, *Muztog'ota* (Xitoy), *Muzdara*, *Muzbel*, *Sovuqdara* (O'zbekiston) va boshqalar. Afrikaning eng baland Kilimanjaro (suaxili tilida, klimangaro – «muqaddas tog'», «sovuqlik xudosi») tog'ining tepasi hamisha qor va muz qoplab turganligidan mahalliy xalq tog'ni muqaddas bilib unga sig'ingan.

Iqlim va meteorologik sharoitlar bilan bog'liq toponimlar qatoriga *Ajal vodiysi* – Shimoliy Amerikadagi eng issiq joy, mahalliy shoshon hindulari tilida *Tomesha* – «oyoq ostida yonayotgan yer», iqlimini haddan tashqari issiqligiga ishora yoki Hindistondagi *Srinagar* – «quyoshli shahar», kabi metaforik – majoziy nomlarni ham kiritish mumkin. Islandiya – davlat va orol nomi. Orolni kashf qilgan normanlarga qishda baliq ovlashga muzlar xalaqit bergan. Orolida yil davomida qorni ko'p yog'ishi hamda, hududining ko'p qismi muzlar bilan qoplanganligi bois, orolga Islandiya (norveg tilida, is – «muz», land – «er»), ya'ni muzlar o'lkasi nomi berilgan.

Hindukush tog'larining nomini kelib chiqishi to'g'risida, XIV asrda yashagan arab sayyohi Ibn Batuta bunday yozgan: «Hindukush deb ataladigan tog'lardan o'tdik, bu «hindular qotili demakdir». Chunki, Hindistondan keltirilayotgan juda ko'p qullar, qattiq sovuq va qalin qor dastidan bu tog'larda halok bo'lganlar». Taniqli toponist olim H.Hasanovning yozishicha: «Kola yarim orolida Afrika raz'ezdi bor. Nomning tarixi shunday: № 68 raz'ezdda geologlar titan koni topishgan. Shu yerdagi keksa bir temiryo'lchi ayni kun qizib turgan paytda juda ham issiq, Afrika bo'lib keldi-ku deb noligan. Raz'ezd keyinchalik shu nom bilan atalgan».

Avstraliya aborijenlari hayotida iqlim sharoitlari va hodisalari ko'pincha muhim ahamiyat kash etganligi tufayli bu guruhga tegishli nomlar ancha keng tarqalgan. Iqlim va obu-havo xususiyatlari bilan aloqador bo'lgan ogohlantiruvchi nomlar ham mavjud. Ular ko'pincha sayyohlar va dengizchilar tomonidan yangi joylarni kashf etish vaqtida

berilgan. Masalan, portugaliyalik dengizchi Bartolomey Diash 1488 yili uzoq sayohatdan keyin Afrika qit'asining eng janubiy nuqtasiga yetib borgan. Uzoq va xatarli yo'lni bosib kelgan B.Diash, janubiy Afrikada kuchli to'fonlarga duchor bo'ladi va yo'lida uchragan birinchi burunga *Cabo Tormentoso* – «To'fonlar burni» deb nom beradi. Portugaliya qiroli Juan II, boy va afsonaviy Hindistonga yo'l ochish ilinjida, keyincha burun nomini *Cabo da Boa Esperanza* – «Yaxshi Umid burni» deb o'zgartirgan.

Iqlim bilan bog'liq xalq geografik terminlari ham ko'p. Ular juda qadimda paydo bo'lgan. Kishilar qadimdan tabiatga, undagi iqlimiy o'zgarishlarga zehn solib, kuzatib kelishgan va shu orqali dehqonchilik taqvimlarini tuzishgan. M.Mirakmalov tadqiqotlariga ko'ra, iqlim bilan bog'liq bo'lgan xalq geografik terminlari qatoriga angqizoq, ayoz, heshqo'noq, hulduruq, bulut, burchoq, garmsel, girdbod, jala, jiltir, muzchopqun, shahnam, yut, tuman, kamalak kabi ko'plab xalq tabiiy geografik terminlarni kiritish mumkin.

Masalan, qish kunlari havo ilib qorlar erishni hoshlagan paytda, sovuq oqim kelishi natijasida ho'l qor muz bo'lib qotib qoladi. Xalq orasida bunday tabiat hodisasini *yut* yoki *shovush* deb atashadi. Yaylovda hoqiladigan chorva mollari uchun juda xavfli hisoblanadi. Yomg'ir aralash qor yog'ib, shamol esib turish hodisasi – chopqun yog'in deb atalgan. Issiq shamol – garmsel, sovuq shamol – sardsel, yog'insiz chang bo'ronli qattiq shamol – qoradovol deyilgan va hokazo.

**Gidronimlar.** Tabiiy yoki inson tomonidan yaratilgan har qanday suv ob'ektlari – okeanlar, dengizlar, ko'llar, daryolar, kanallar, suv omborlari, soylar, jilg'alar, quduqlar va hokazo gidronimlar (yunoncha, *hidro*-«suv») deyiladi. Yer yuzasidagi barcha geografik ob'ektlar orasida suv bilan bog'liq ob'ektlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Nomsiz suv ob'ektlari kam, aksincha bitta ko'l yoki daryo bir necha nomga ega bo'lishi ham mumkin. Boshqacha aytganda, har bir gidroob'ektning bir necha nomga ega ekanligini inobatga olsak, ularning soniga qaraganda, balki «suvlar» nomining umumiy soni ancha ko'pdir.

Ma'lumki, bitta daryo oqimi davomida turli hududlarda turlicha atalishi mumkin. Masalan, Amudaryo uning ikki irmog'i bo'lgan, Panj va Vaxsh daryolarining qo'shilishi natijasida paydo bo'ladi. Bunday ko'p nomlik tasodifiy hol emas, balki muayyan qonuniyatlarga asoslangan. Daryo yo'nalishi davomida turli xalqlarni yashashi uning turlicha nomlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Chunonchi, Nil daryosi

hoshlanish qismidagi tog'li hududda *Bahr-al-Jabal* («tog' daryosi»), deb nomlanadi. Buyuk daryo sohillarida yashagan turli etnik guruh vakillari daryoni o'z tillarida turlicha nomlashgan: arablar – *al-Bahr*, koptlar – *Yearo*, buganda tilida *Kipra*, bari tilida *Tkutsiri* va hokazo. Shunisi diqqatga sazovorki, bu nomlar mazmuni jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan «katta suv», «buyuk daryo» kabi ma'nolarni anglatadi.

Mutaxassislar gidronimlarni eng qadimiy toponimlar deb hisoblashadi. E.M.Murzaevning yozishicha: «gidronimlar vaqt eroziyasiga kam duchor bo'ladi. Shu sababdan, ularni qadimiy shakli va mazmunini tiklash ancha qiyin». Suv ob'ektlari inson hayotida qadim zamonlardan buyon katta ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyat kasb etganligi bois, dunyo aholisining ko'p qismi suv ob'ektlari bo'yida, sohilida yoki unga yaqin masofada yashaydi.

Ma'lumki, yer sharining salkam 71 foizini to'rtta – Tinch, Atlantika, Hintl, Shimoliy muz okeanlari (okean so'zi lotincha – «dunyo daryosi») egallagan. Okeanlarning ayrim qismlari dengiz deyiladi. Quruqlikda suv to'lib qolgan chuqurliklar ko'llar deb ataladi. Ba'zan, katta ko'llar ham dengiz (Kaspiy dengizi, Orol dengizi va hokazo) deb yuritiladi. Oqar suvlar katta-kichikligiga qarab bir necha turga bo'linadi. Yer osti va yer usti suvlaridan hosil bo'ladigan katta oqar suvlar daryolar deyiladi.

Dunyodagi eng katta daryolar sifatida Afrikada *Nil*, *Kongo*, Janubiy Amerikada *Amazonka*, Shimoliy Amerikada *Missisipi*, Osiyoda *Xuanxe*, *Ganga*, *Ob*, *Yenisey*, Yevropada *Dunay*, *Volga*, O'rta Osiyoda *Amudaryo* va *Sirdaryo* qayd etilgan. Kichikroq daryolar *soylar*, kichik soylar *jilg'alar* deyiladi. Daryo yoki soyga qo'shiladigan suvlar irmoqlar, daryo yoki soydan ajrab chiqadigan ariq yoki suvlar esa tar-moqlar deyiladi. Kishilar tomonidan biror maqsadni ko'zlab bunyod etilgan suv havzasi suv ombori, qo'lda qazilgan suv yo'li kanal yoki anhor, kichik sun'iy suv yo'li ariq, ro'd deb ataladi. Albatta, cho'l hududlarda har qanday suv manbai beqiyos ahamiyatga ega. Shu sababdan, bunday tabiiy qiyin sharoitlarda yashaydigan aholi suv manbaiga qarab ularni turli xillarga taqsimlashgan. Masalan, minglab quduqlar mamlakati hisoblangan Turkmanistonda quduqlar suv sifati va xusus-siyatlariga qarab turli guruhlarga bo'linadi: *ajiguyi* – achchiq suvli quduq, *sujuguyi* – shirin suvli quduq, *shorguyi* – sho'r suvli quduq, *uzunguyi* – uzunquduq va hokazo.

Yuqorida qayd qilgandek, insoniyatga qadim zamonlardan buyon ma'lum bo'lgan yirik suv ob'ektlarining nomi ko'pincha suv, katta suv,

daryo, ko'l kabi ma'nolarni ifodalaydi. Bu haqida H.Hasanov quyidagicha yozadi: «Bordi-yu o'ntacha asosiy tilni biladigan kishi kartadagi nomlarni shu tillarga tarjima qilib o'qisa, aksari shahar, tog', daryo va ko'llarning nomlari deyarli bir ma'noda ekanini ko'rib hafsalasi pir bo'lar edi». *Reka, sipi, rio, river, shtat, xe, yoki, jayxun, ob, ganga, szyan* kabi turli tillarga mansub bo'lgan so'zlar zamirida – daryo, suv ma'nosi mujassam. Masalan, Amerika qit'asidagi Missisipi mahalliy hindular tilida «ulug' daryo» ma'nosini beradi. Afrikadagi Niger daryosi (berberlar tilida negiren – «daryo») mahalliy xalqlar tilida, boshlanishida Djoliba («katta daryo»), o'rta va quyi oqimida Kuara, Kvara («daryo»), Issa-Bari («buyuk daryo»), Mayo («daryo») deb ataladi.

Xitoydagi Yantszi daryosi ham turli qismlarida bir necha nomga ega. Tibetda Muruy – Us (us – «daryo»), xitoycha Szinshatszyan, Yantszitszyan (szyan-«daryo»). Ispan tilida daryo ma'nosini ifodalovchi rio so'zi Amerikada ko'pgina suv ob'ektlari nomlariga asos bo'lib xizmat qilgan. Masalan, Rio-Grande («katta daryo»), Rio - Kolorado («qizil daryo»), Rio - Solado («sho'r daryo») va hokazo.

Jahonning yirik suv havzalari nomi tarkibida ko'l («katta suv») so'zi mavjud. Masalan, Nyasa, Chad, Michigan kabi ko'llar nomi ham shu ma'noga ega. Finlyandiya ko'llar mamlakati hisoblanadi. Ularning aksariyati nomlari tarkibida yarvi – «ko'l» so'zi mavjud (Inariyavi, Ouluyarvi, Kemiyarvi va boshqalar). Bu xususiyat turkiy gidronimlar uchun ham xos. Issiqko'l, Qorako'l, Yashilko'l, Olako'l va boshqalar. Bir qator ko'llarni kattaligi bois, mahalliy xalq dengiz deb atagan. Masalan, Kaspiy dengizi, Orol dengizi, Baykalni evenklar Lamu – «dengiz», Mug'ulistonning eng katta ko'li Xubsugulni ba'zan, Dalay – «dengiz», deb atashadi. Ayrim hollarda yirik suv omborlarini ham xalq dengiz deydi. Chorvoq suv ombori – Toshkent dengizi, Qayroqum suv ombori – Tojik dengizi va hokazo.

Gidroob'ektlar nomlarini paydo bo'lishida turli xil omillar sabab bo'lgan. Ular qanday sabablarga ko'ra yaratilganligini aniqlash va nomlanish printsiplarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Suv ob'ektlarning qanday va qaysi tipdagi nomlar bilan atalganligi, ya'ni semantikasiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1. Kishi ismlari asosida vujudga kelgan gidronimlar. Ko'pincha bunday suv ob'ektlarining (*ariq, quduq, huloq, kanal* va boshq.) bunyod etilishiga (qazilishiga) rahbarlik qilgan shaxslar nomi bilan atalgan. *Chunonchi, Nazarboyquduq, Qosimbekquduq, Omonbuloq, Mirzabuloq, Toshbekariq* va boshqalar.

2. O'simlik va hayvonlar nomlari asosida paydo bo'lgan gidroob'ektlar, ya'ni suv ob'ektlarining nomlanishida muayyan bir o'simlik yoki hayvon nomlari asos qilib olingan gidronimlar. Masalan, *O'rik-lisoy, Yakkaarchasoy, Teraklisoy, Qo'ybuloq, Ilonlisoy* va boshqalar.

3. Yer qatlamining ustki tuzilishi, tuproqning tarkibiga ko'ra nomlangan gidroob'ektlar. Bunday gidronimlar tarkibida *qum, tosh, jar* kabi so'zlarini ko'p uchratish mumkin. Masalan, *Sangzor, Dashtariq, Yoyilma, Yonbuloq, Gumsoy, Qumariq* va boshqalar. *Arnabuloq* – mutaxassislar arna so'zini qadimiy xorazmiy tilga mansub deb hisoblashgan. Tog' etaklari va adirliklarda arna – sel, tabiiy yog'in suvlari yerni yuvib, o'yib ketishidan hosil bo'lgan jarsimon o'yi.

4. Suvning rang xususiyatiga qarab nomlangan gidroob'ektlar. Bu gidroob'ektlarning nomlanishida *oq, qora, ko'k, qizil* kabi ranglar ma'nosidagi so'zlar ko'proq uchraydi. Chunonchi, *Oqbuloq, Qorasoy, Oqko'l, Qorasuv, Ko'kbuloq, Qizilquduq* va boshqalar.

Mutaxassislarning fikricha, gidroob'ektlar nomlari tarkibida qo'llangan ranglar turli ma'noni ifodalashi mumkin. Masalan, toponomist olim N.Oxunovning yozishicha, doimo oqib turadigan, tog'dan, muzliklardan keladigan qor suvlari bilan to'yingan, o'z tabiiy o'zanida oqadigan, yozda qurimaydigan, rangi oqish tusda bo'lgan, ichishga yaroqli suvga nisbatan oq so'zi ishlatilgan va ular – *oqsuv, oqsoy* deb nomlangan. Tog' etaklarida, vodiylarda sizot suvlaridan to'yinadigan, tiniq qoramur tusda, tabiiy o'zanida oqmaydigan, kanal qazib oqizilgan suvlarga nisbatan esa qora so'zi qo'llanilib – ular *qorasuv, qorasoy* nomlari bilan yuritilgan. *Ko'ksuv, Ko'kdaryo* gidronimlari haqida shuni aytish mumkin, bu xil gidroob'ektlarning ko'lami chuqur, suvning oqish sur'ati sokin, rangi shishadek ko'm-ko'k, g'oyat tiniq va toza bo'ladi. Gidroob'ektlarning nomlanishida qizil, sariq, yashil kabi ranglardan ham foydalanilgan.

5. Suvning harorati, hidi va maza-ta'miga qarab nomlangan gidroob'ektlar. Bunday gidronimlarni nomlashda ko'pincha *sovuq, issiq, sassiq, achchiq, shirin, sho'r* kabi so'zlardan foydalanilgan. Masalan, *Issiqko'l, Sovuqbuloq, Jilibuloq* (jili-iliq ma'nosida), *Muzbuloq, Sho'rquduq, Sho'rbuloq, Sassiqbuloq* va boshqalar.

6. Miqdori, hajmi, shakl tuzilishi, paydo bo'lgan vaqtiga qarab nomlangan gidroob'ektlar. Bunday nomlar gidronimning miqdorini, son-sanog'ini va hajmini belgilashga qaratilgan. Ko'pincha *ikki, besh, olti, qirq, yuz, ming, gala, qo'sh, to'da* so'zlaridan foydalanib gidronimlar

yasalgan. *Chunonchi, Beshbuloq, Duoba* (tojikcha, du – “ikki”, ob – “suv”), *Beshariq, Oltiariq, Uzunquduq, Uzunbuloq, Kichiksoy, Kattasoy, Tovoqsoy, Yangiariq, Eskihovuz* va boshqalar.

7. Aholi punktlari nomlari bilan ataladigan gidroob'ektlar. Respublika hududida oykogidronimlar asosan tog'li tumanlarda ko'proq uchraydi va ko'pincha suv ob'ektlarining turini bildiradi. Masalan, *Savruksoy, Novqasoy, Pishag'arsoy, Zominsoy, Uxumsoy, Andaginsoy* va boshqalar.

8. Urug', qabila, qavm, to'p (etnonimlar) nomlari bilan atalgan suv ob'ektlari. Bularni ko'pincha etnogidronimlar deyishadi. Misol, *Naymansoy, Qipchoqariq, Jaloyirsoy, Boyqa'ng'irsoy* va boshqalar. Etnonimlar gidronimlarga o'tganda nom tarkibida hech qanday o'zgarish ro'y bermaydi. Etnogidronimlar qadimdan ushbu hududda qaysi etnik guruh vakillari yashaganligidan darak beradi.

Ayrim gidroob'ektlarning nomlanishiga suvning sekin damlanib oqishi *Damariq* (Forish tumani), yoki tez, sharillab *Sharilloq, Sharildoqsoy* oqishi, oqimda o'z o'zanining o'zgartirib turishi ham asos bo'lib xizmat qilgan. Ma'lumki, daryo har doim bir o'zandan oqmaydi, muayyan vaqtdan keyin, o'zanini o'zgartirib turadi. Mutaxassislarning aniqlashicha, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimining hozirgi o'rni, kaynozoy crasining to'rtlamchi davri oxirlarida Sirdaryoning o'zani bo'lgan. Shu sababdan, Aydarko'lning ikkinchi nomi sifatida ba'zan Qolgan Sir birikma – nom ishlatiladi.

N.Oxunovning yozishicha, gidronimlar aholi turar joylariga nom bo'lib o'tganida ular o'rtasida ma'no va vazifa jihatidan ba'zi bir ayirmaliklar yuz beradi. Bunda ikki holatni hisobga olmoq kerak. Birinchidan, gidronim ifodalagan suv ob'ekti hozirda mavjud bo'lsa, u holda bu nom gidronim sifatida tilda keng tarqalgan bo'ladi, uning oykonimik nomni ifodalashi ikkinchi darajali hisoblanadi. Masalan, *Qaynarbuloq, Oydinbuloq* deganda darhol *buloq* nomi tushuniladi, chunki mazkur suv ob'ektlari bugungi kunda bor. Ikkinchidan, gidronim ifodalagan suv ob'ekti hozirda mavjud bo'lmasligi, u ma'lum bir davr o'tishi bilan yo'q bo'lib ketgan bo'lishi mumkin.

Bunday holatlarda nomning gidronimik ma'nosi emas, oykonimik ma'nosi yashashni davom etadi. Bu nomlar paydo bo'lishi jihatidan suv ob'ektlarining nomlari bo'lsa ham, hozirda suv ob'ektlari tamoman yo'q bo'lib ketgan. Qayd qilingandek, yirik suv ob'ektlarning nomlari eng qadimgi davrlardan mavjud. Ko'p hollarda suv havzalari nomlari ular

atrolida paydo bo'lgan aholi punktlari nomlariga asos bo'lib xizmat qilgan. Ba'zan, suv ob'ektining nomi ikkilamchi bo'lishi ham mumkin.

**Fitotoponimlar.** O'simliklar insoniyatning asosiy ozuqa manbai bo'lishi bilan birga, ular ba'zan, tabiiy mo'ljal (orientir) sifatida dunyoning turli mintaqalari toponimiyasida o'z aksini topgan. Shu sababdan, o'simliklar bilan bog'liq joy nomlari O'zbekiston toponimiyasi tarkibida ham, boshqa mamlakatlar geografik nomlari tarkibida ham uchraish mumkin. Fitotoponimlar (yunoncha, fitos— «o'simlik», har qanday o'simlikning atochi oti) ko'pincha, o'simliklar formatsiyalarining tarqalish areallari, ma'lum hududdagi o'simliklar dunyosining muhim xususiyatlari, ularning turlari haqida ham ma'lumot beradi.

Fitotoponimlar toponimlarning paydo bo'lishida o'simliklarni o'ziga xosligi bilan birga ularning umumiy xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etgan. O'zbekistonda inson hayotida hozirga nisbatan o'simlik dunyosi ko'proq bog'liq bo'lganligi bois bu turdagi nomlar ancha qadimiy hisoblanadi. S.Qornevning yozishicha, Mahmud Koshg'ariy «Devonu lug'atit-turk» asarida, bir qator o'simlik nomlarini izohlashdan tashqari, o'simlik nomidan kelib chiqqan toponimlarni ham keltirgan: Ar-ar daraxti — qora archa. Qashqarda bu nomdagi ikkita qishloq bor deb yozgan.

«Buharonnoma»da ham bevosita o'simliklar olami bilan aloqador bo'lgan bir qator joy nomlari keltirilgan: Jiydalik, Kandihodom, Oltindiq, Hodomchuduma, Hog'ichinor, Hog'ibinafsha va boshqalar. O'simliklar kumudlik hayotida muhim ahamiyat kasb etganligi tufayli insoniyatning maadliy tarixi, ijtimoiy hayoti va xo'jalik faoliyatida muhim rol o'ynagan. Tabiiyki, ular kishilar uchun xomashyo manbai, chorvaga mo'l-ko'l ozuqa bazasi bo'lib xizmat qilgan. Xususan, ko'chmanchi chorvachilik sharoitida, chorva mollari uchun ozuqa manbai bo'lgan o'simlik turlari kishilar uchun mo'ljal vazifasini bajargan.

Ma'lumki, inson qadim zamonlardan boshlab o'simliklarni o'rgatish, arealini aniqlash, ulardan me'yorida foydalanishga harakat qilgan. Makilau, respublikamiz Andijon, Toshkent, Jizzax viloyatlari toponimiyasi tarkibida Betaga, Betagali, Betagalisoy kabi joy nomlari uchraydi. Betaga — mayda o't, mahalliy xalq uning chorva uchun ozuqaboh o'simlik ekanligini bilgan holda ushbu joylarga shunday nom bergan. Bobur betaga o'simligiga ajoyib ta'rif bergan. «Andijonda bu o'tni butka derlar, vajhi tasmiyasi ma'lum emas edi, bu viloyatlarda ma'lum bo'ldi. Bu o't huta-butka chiqar uchun uni butaka derlar emish». Bu o't



haqiqatdan ham to'p-to'p bo'lib o'sadi. Z.M. Robur aytganidek, betagani ayniqsa yilqi yaxshi ko'radi, betagali yaylovda yurgan hiya yaxshi semiradi, qimizi yog'li va yoqimli bo'ladi.

Umuman olganda, gidronimlar va oronimlarga nisbatan fitonimlar toponimlar tarkibida kam uchraydi. Bunga asosiy sabab, inson o'z hayoti uchun birinchi galda qandaydir suv manbai yaqinidan makon tanlagan va yashash manzilni ham ko'proq shu suv manbai nomi bilan atagan, hamda aholi punktining tevarak – atrofdan farq qiladigan geomorfologik xususiyatlari geografik ob'ekt nomi uchun muhim ko'rsatkich hisoblangan.

Fitotoponimlar o'simlik turlarini ma'lum hududda ko'p yoki kamligidan ham darak beradi. O'simlikning ko'p ekanligi ma'nosini bildiruvchi toponimlar tarkibida "to'p", "qator", "ming" kabi son va miqdorni bildiruvchi qo'shimcha so'zlar mavjud. Masalan, Mingchinor, Qatortol, Qatortarak, To'ptol va boshqalar. Tarkibida "-li", "-zor", "-lik" singari qo'shimchalari mavjud nomlar ham ushbu o'simlik turini boshqa hududlarga ko'ra ko'proq ekanligini bildiradi. Chunonchi, *Bodomzor, Jiydali, Yong'oqli, Yantoqli, Terakzor, Shilvili, Betagali* va hokazo.

O'simlik sonini cheklanganligi, kamligini yoki aniq miqdorini bildiruvchi joy nomlari tarkibida "yakka", "qo'sh", "chor" kabi qo'shimchalar bo'lishi mumkin. Yakkachinor, Qo'shtut, Uchtol, Chorchinor, Yakkatut va boshqalar. Ba'zan hech qanday qo'shimchasiz ham fitonimlar toponimlarga aylangan. Sada, Chinor, Archa, Qayrag'och va hokazo. Geografik nomga asos bo'lgan o'simlik turini o'sha hududda miqdorini kamligi, ammo ko'zga tez tashlanadigan, xarakterli belgi sifatida alohida ajralib turadi. Fitotoponim uni ifoda etgan o'simlik turidan ko'ra uzoqroq, yashashi mumkin. Natijada o'simlik turi yo'q bo'lib ketgan taqdirda ham, joy nomi uni bir vaqtlar ushbu hududda ko'p tarqalganligidan darak berib turadi. Floristik nomlar tarkibida yovvoyi (*ajriq, bodom, do'lana, lola, shilvi, betaga, jing'il, qamish* va hokazo) va madaniy (*paxta, anjir, beda, arpa, olma, uzum, terak, tol, tut, pista* va hokazo) o'simliklar nomlari ko'proq uchraydi.

Jizzax cho'lini o'zlashtirishi munosabati bilan yangi tashkil etilgan tumanlar toponimiyasi tarkibida *Paxtazor, Uzumzor, Gulzor, Olmazor* kabi joy nomlari ko'p uchraydi. Ularni fitooykonimlar tarkibiga kiritish mantiqan xato bo'lmasa ham, ammo ularni kishilarni moddiy ishlab chiqarish faoliyatini aks etadigan joy nomlari qatoriga kiritish maqsadga

muvofiq. Yangi aholi maskanlariga berilgan bu kabi nomlar o'sha davrning ijtimoiy mahsuli bo'lib, xalqning dehqonchilik madaniyati bilan bog'liq orzu-istaklarini nom sifatida mo'hlagan. Gap shundaki, tarixan yovvoyi o'simliklarning nomlari bilan atalgan qishloqlargina haqiqiy etimologiyalar hisoblanadi. Masalan, Zomin tumanida *Shilbili* degan oylabon bor. Qishloq nomi O'rtasiy tog'larining pastroq joylarida o'sadigan butasimon shilvi (ikkinchi bir turi uchqal) butasi nomidan olingan. Qadimda undan duk (yik), panjshaxa kabi buyumlar yasalgan.

Dunya toponimiyasida ham o'simlik turiga nisbat berilib atalgan nomlar ko'p. Qatag'anda – *qatag'an* (*qora akatsiya*), Bangkok – *yovvoyi olcha*, Dekat – *yulq'an*, Yava – *javdar*, Licpaya – *lipa*, Madeyra – *o'rmon*, Almati – *almalt* va *lokazo*, Madeyra – Afrikaning shimoliy qismidagi orol nomi. Orollar nomining paydo bo'lish tarixi XV asrga borib taqabadi. 1498 yili Portugaliya taxt vorisi Burike qimmatbaho yoq'och boradigan olcha (daraxti) daraxti o'sadigan orollarni topish ekspeditsiya tashkil etadi. Notanish orollarga yetib kelgan ekspeditsiya a'zolari, qalin o'rmonlar bilan qoplangan orollarni ko'rib uni Madeyra (ispancha, maclero – «o'rmon») deb atashadi.

Braziliya davlatining nomi ham – *brazil* daraxti bilan bog'liq. Daraxtdan qizil buyoq uchun ishlatiladigan suyuqlik olingan va bu xomashyo portugal mustamlakachilarining dastlabki yillarda asosiy eksport mahsuloti bo'lgan. Buyoq portugal tilida *braza*, daraxti esa *brazil*, keyincha butun mamlakat ham shu nom bilan atalgan (Braziliya o'ntug ruscha nomi). Manila – Filippin davlatining poytaxti. Mahalliy tilda manila – *nilzor*. Ma'lumki, *nil*, *nila* hindi so'z bo'lib, indigo daraxti, ko'k bo'yoq olinadigan daraxt demakdir. H.Hasanovning yozishicha, Ruminiyadagi bir qishloqning nomi Kiroiaya, ya'ni "Olcha qishlog'i". Bu yerda chaqaloq tug'ilishi bilan olcha daraxti o'tqazish rasm bo'lganki, natijada qishloq olchazorga aylangan.

Mutaxassislarining fikricha, geografik nom o'zi ifodalagan ob'ektga nisbatan uzoqroq yashaydi. Shu sababdan, geografik ob'ektlarning floristik nomlari yordamida hozirda yuqolib ketgan, ammo qadimda muayyan hududda keng tarqalgan o'simlik turlari, ularning tarqalish arellarini bashorat qilish mumkin. O'rtasiy xalqlari qadimdan shifobaxsh va dorivor o'simliklarni aniqlab ulardan xalq tabobatida keng foydalanishgan. Bu holat, dorivor va ziravor (zira, kavar, so'g'on, isiriq va boshqalar) o'simliklar tarqalgan hududlarda, ular bilan bog'liq joy nomlari ko'payishiga sabab bo'lgan.

Xuddi shunday, bog'dorchilik va dehqonchilik rivojlangan vohalarda ko'proq mevali daraxtlar va ekinlarning nomlarini toponimlar shaklida uchraydi. Boshqacha aytganda, fitotoponimlar ko'pincha, toponim-indikator vazifasini bajaradi. Fitotoponimlarning shakllanishida floristik topoterminlarni ham alohida o'rni bor. Ular toponimlar tarkibida ishtirok etib, joy nomlarini atalishida o'simlik olami turlarini ifoda etadi. M.Mirakmalov tadqiqotlariga ko'ra, *jiyda* (*Jiydali*), *tol* (*Qatortol*), *tut* (*Yakkatut*), *qayrag'och* (*Beshqayrag'och*), *olma* (*Olmazor*), *chinor* (*Mingchinor*), *terak* (*Qo'shterak*), *o'rik* (*O'rikli*), *bodom* (*Bodomzor*) kabi o'simliklar joy nomlari tarkibida topoterminlar sifatida ko'p uchraydi.

**Zootoponimlar.** Toponimikada geografik nomning kelib chiqishi, agar hayvonot olami bilan bog'liq bo'lsa *zootoponim* (*yunoncha, zoo – hayvon*) deb ataladi. Joy nomlari tarkibida, aslida zootoponimlar uncha ko'p emas va ularning paydo bo'lish sabablari ham turlicha. Toponimik ma'lumotlar yordamida hayvonot olamining muayyan turlarini tarqalish areallarini aniq belgilab olish mumkin. Ular son jihatdan fitotoponimlardan kam bo'lsa ham, ammo ko'plab mamlakatlar toponimiyasi tarkibida uchraydi. Chunonchi, O'zbekiston toponimiyasida hayvonot olami namoyandalari bilan bog'liq joy nomlarning salmog'i 1-2 foizdan oshmaydi. Mutaxassislar fikricha, respublika toponimiyasi tarkibida *bo'ri, laylak, jayra, qoplon, tulki, bedana, ayiq, qulon, burgut, kaptar* kabi hayvonlarning nomlari toponimlar yasashda faol qatnashgan.

Zootoponimlar chindan ham biron hayvon turi nomi bilan atalganini to'la ishonch bilan aniqlash qiyin, chunki har qanday hayvon nomi boshqa ko'chma ma'noda qo'llangan bo'lishi ham mumkin. Masalan, Forish tumanidagi *Jayraxona* qishlog'iga ko'chma ma'noda shunday nom berilganmi yoki haqiqatdan ham jayralar in qurgan joy bo'lganligini aniqlash oson emas. Ba'zan zootoponimni paydo bo'lishi bevosita hayvonni o'zi bilan bog'liq bo'lsa, ko'pincha undan majoziy ma'noda ham foydalanilgan. Binobarin, zootoponimlar chindan ham biron hayvon turi nomi bilan atalganini to'la ishonch bilan aniqlash qiyin, chunki har qanday hayvon nomi boshqa ko'chma ma'noda qo'llangan bo'lishi ham mumkin.

Taniqli toponimist olim S.Qoraev ularni qanday qilib aniqlash mumkinligi haqida shunday yozgan: «Agar joy nomi qandaydir hayvonni nomi bilan bog'liq bo'lsa, unda toponimdan keyin *-li, -lik, -xona* kabi qo'shimchalar, agar etnonim bo'lsa hayvon nomi hech qanday qo'shim-

chusiz yoki ko'plikni bildiruvchi **-lar** qo'shimchasi bilan ifodalangan bo'ladi. Diqqatga sazovor narsa shuki, ayrim holatlarda etnonimlar tarkibida ham **-li** suffiksi bo'lishi mumkin. Masalan, *Boymoqli, Qulonli, Qoraqo'yli, Ilonli* kabi etnonimlar shu asosda paydo bo'lgan.

Zootoponimlarni farqlashning qiyinligini yana bir tomoni shundaki, qadimda bir qancha etnik guruhlarning (urug'-aymoq) muqaddas hayvonlari bo'lib, kishilar o'zlarini shu hayvonlardan tarqalgan, deb hisoblaganlar. Bu toponimik hodisa «totem» deb ataladi. S.Qoraevning yuzishiicha, «Ilonli» o'zbek qavmlaridan biri. *Ilonni, jilontamg'ali, Ilonni* deb ham atalgan. Tang'asi (totem) ilon shaklida bo'lgani uchun shunday nom olgan. O'tmishda ilon mazkur etnik jamoa turmush tarzida faqat o'tiqochida katta o'ringa ega bo'lgan. Ilonchi toponimi ham shu eronim bilan bog'liq bo'lishi mumkin, chunki sudralib yuruvchi hayvon hisoblangan ilon ko'p bo'lgan joylar ko'pincha ilonlidara, ilonliqat'a, ilonsoy deb atalgan.

Iqlimiy o'zgarishlar va kishilarni xo'jalik faoliyati ta'siri oqibatida, ayrim hayvonot turlari kamayib yoki umuman yo'q bo'lib ketgan. Ularning tarqalish areallarini aniqlash va qayta tiklash muhim hisoblanadi. Bunday hollarda toponimika yordamga kelishi mumkin. Masalan, Ozarboyjonlik toponimistlar *R.M.Yuzbashev va E.B.Nuriev* geografik nomlar yordamida jayronlarni tarqalish areallarini aniqlaganlar. *Jayronli, Jayronko'l, Jayron bulog'i* kabi joy nomlari jayronni o'tmishda respublika hududida ancha keng tarqalganligidan dalolat beradi. Hozirda Ozarboyjonda jayronlar faqat qo'riqxonalarda saqlanib qolgan.

Shimoliy Amerikadagi bir qator daryo nomlari ilgari ushbu hududda yashagan hayvonlar nomlari bilan atalgan: *Deer* – bug'u, *Buffalo* – bizon, *Elk* – los, *Grizzly* – grizli ayig'i, *Racoon* – yenot, *Rabbit* – quyon va hashqalar. Shimoliy Karolina shtatidagi *Alligatorlar* daryosi, timsohlarning ushbu turi yashaydigan eng Shimoliy chegarasida joylashgan. Norvegiya dengizidagi Farer orollari nomi norveg tilida far – «qo'y», yny – «orollar» ma'nosini beradi. VIII asrda tarki dunyo qilib ushbu orollarga qochib kelgan irland monaxlari o'zlari bilan birga bir necha bosh qo'y keltirishgan, qo'ylar keyinchalik ko'paygan. IX asrda bu yerlarga bostirib kelgan normanlar behisob qo'ylarni ko'rib orollarni shu nom bilan atashgan.

Dunyo okeanidagi bir qancha orollar hayvonot olami namoyandalari nomlari bilan atalgan: *Azor* («qirg'iy»), *Galapogos* («toshbaqa»), *Kanar* («it»), *Kayman* (kayman – timsoh turi), *Samoa* («mao qushi joyi»).

Galapagos orollariga ilk bor qadam qoʻygan yevropaliklar, koʻp sonli yirik dengiz toshbaqalarini koʻrib hayron qolishgan. Arxipelagga bu nom 1574 yili flamand kartografi *A.Orteliy* tomonidan berilgan. Galapagos orollari Ch.Darvin sayohati va uning «Turlarning paydo boʻlishi» nomli kitobi nashr etilgandan keyin yana ham mashhur boʻlgan.

Kanar orollarining nomini ham oʻziga xos paydo boʻlish tarixi bor. Dastlab orollarga italyanlar va portugallar kelishgan. Orollarda sayyohlardan qolgan itlar koʻpayib yovvoyilashgan. 1402 yili orollarni qayta kashf etgan ispanlar itlar ovozi eshitib unga Ispas Kanarias («itlar orollari») (lotin tilida kanis – «it», ispancha kan – «it», «boʻribosar») deb nom berishgan. Ispan sayyohlari diqqatini yovvoyilashgan yirtqich itlardan tashqari, orollarda yashaydigan kichik jussali, chiroyli, yoqimli ovozli sayroqi qush ham oʻziga tortgan. Ular vataniga qaytgach gʻaroyib orollar haqida gapirib berishgan. Koʻpchilik ishonmagan boʻlsa ham, ammo mahalliy savdogarlardan biri Kanar orollariga borishga ahd qilgan. Tanish kapitani orqali orollarga borgan ishbilarmon vataniga koʻplab sayroqi qushlarni olib qaytgan va gʻaroyib sayroqi qushlarni sotib tez orada boyib ketgan. Yevropa – kanareyka qushi bilan shu tarzda tanishgan.

Bosfor – Qora dengizdan Oʻrta yer dengiziga oʻtiladigan boʻgʻoz. Qadimda Bosfor (yunoncha, *bosfor* – buqa), boʻgʻozidan suzib oʻtadigan kemalarning egalari boj haqini qoramol bilan toʻlagan. Dubay – Birlashgan Arab Amirliklaridagi amirlik va shaharning nomi «chigirtka» degan maʼnoni anglatadi. Yukatan yarim orolining tubjoy xalqi hisoblangan mayya hindulari yarim orolni *Ulumit-Kis-el-Etel-Zet* – yaʼni «xoʻroz va bugʻular mamlakati», deb atashgan. Uganda davlatining poytaxti Kampala shahri nomiga antilopa maʼnosidagi impala (luganda tilidan) soʻzi asos boʻlgan. Baykal koʻlining oʻrtasidagi orollardan toʻrttasi Tushkani deb ataladi. Mahalliy aholi tushkan deb, quyonni aytadi. Darhaqiqat, bu orollarda quyonlar koʻp tarqalgan.

Avstraliyaning janubiy qirgʻogʻida Kenguru nomli orol bor. Nomidan payqash mumkinki, orolda shu nomli hayvon koʻp. 1802 yili ingliz tadqiqotchisi *M.Flinders* orolni kashf qilganda kenguruning koʻpligini koʻrib orolga shunday nom bergan. Mashhur dengizchi *J.Kuk* mahalliy xalq bilan qilgan muloqotlarining birida notanish hayvonni koʻrib yoʻlboshchidan uning nomini soʻraydi. Aborigen gangaru – «men tushunmadim» deb javob beradi. *J.Kuk* xaltali va sakrab yuruvchi gʻaroyib

hayvonni shunday nomlansa kerak, deb kundaligida «kenguru», deb yozgan. Jeyms Kuk soʻzlarini aborigen tushunmagan boʻlsa ham, kenguru oʻz nomiga ega boʻlgan.

Toponimlar yordamida yer yuzidagi turli mintaqalarning hozirgi zoogeografiyasini ham oʻrganish mumkin. Baliqlikoʻl, Chumchuqorol, Toʻngʻizlitogʻ, Boʻrixona kabi geografik nomlar, ushbu hududda maʼlum bir hayvon turining koʻpligidan darak beradi. Ayrim hollarda, hayvon nomi koʻchma maʼnoda qoʻllangan boʻlishi ham mumkin. Shu sababdan, har bir faunistik nomni alohida tadqiq va tahlil qilish maqsadga muvofiq. Masalan, turkiy oronimlar orasida Boʻzaygʻir, Qoraaygʻir, Oqbaytal kabi yer yuzasi relʼefiga aloqador boʻlmagan nomlarni ham uchratish mumkin.

Etimologiyasi ravshandek koʻrinadigan bu nomlar, aslida izohi ancha murakkab boʻlgan toponimlar sirasiga kiradi. Qozoq toponimisti G.K.Konkashpaev ularni tahlil qilib, aygʻir soʻzini geografik nomlar tarkibida kelganda «katta», «baland» degan maʼnoni anglatadi, degan xulosaga kelgan. Nurota togʻlarining shimoliy etagida joylashgan Baliqlitogʻning eng baland nuqtasini Boʻzaygʻir deb atalishi zahirida ham shu maʼno ifodalangan boʻlsa ajab emas. Umuman olganda zootoponimlar hayvonot olamining real tabiiy xususiyatlarini ifoda etadi.

#### **Savol va topshiriqlar:**

- 1. Oronimlarni boshqa geografik ohʻektlar nomlariga qaraganda ancha turgʻunligi, davrlar oʻtishi bilan ham oʻz nomini saqlab qolishini qanday izohlaysiz?*
- 2. Hidronimlarni semantikasiga koʻra qanday guruhlariga boʻlish mumkin?*
- 3. Fito va zootoponimlarni farqlashning qiyinligini sababi nima?*

#### **Test topshiriqlari**

- 1. Qaysi geografik ohʻektlarga qoʻyilgan nomlar uzoq davr saqlanadi?**
  - A. Fitotoponimlar
  - B. Hidronimlar
  - C. Zootoponimlar
  - D. Oronimlar
- 2. Buyuk daryo sohillarida yashagan turli etnik guruh vakillari daryoni oʻz tillarida turlicha nomlashgan: arablar– al-Hahr,**

**koptlar – Yearo, huganda tilida Kipra, hari tilida Tkutsiri va hokazo. Gap qaysi daryo haqida bormoqda?**

- A. Kongo
- B. Amazonka
- C. Shat al-Arab
- D. Nil

**3. Daraxt nomi bilan bog‘liq bo‘lgan davlat nomini belgilang.**

- A. Shveysariya
- B. Braziliya
- C. Malayziya
- D. Iordaniya

**4. O‘zbekiston toponimiyasi tarkibida hayvonot olami bilan bog‘liq bo‘lgan geografik nomlar salmog‘i qancha?**

- A. 5-6 foizdan oshmaydi.
- B. 3-4 foizdan oshmaydi.
- C. 1-2 foizdan oshmaydi.
- D. 11-12 foizdan oshmaydi.

**5. Oronim qanday nom ?**

- A. Urug‘, qabila, xalq nomi
- B. Kishilarni taxallusi bilan bog‘liq nom
- C. Rel’ef shakllari bilan bog‘liq nom
- D. O‘simliklar bilan bog‘liq nom

## **9-mavzu: ANTROPOTOPONIMLAR. ETNOTOPONIMLAR**

### **9.1. Antropotoponimlar**

#### **Reja:**

1. Antropotoponimlar haqida umumiy ma’lumot.
2. Antropotoponimlar va ularning paydo bo‘lishi sabablari.
3. O‘zbekiston antropotoponimlarining farqlovchi xususiyatlari.

**Mavzuning maqsadi:** Geografik nomlarning eng sarmabsul qatlamlaridan biri bo‘lgan antropotoponimlarni paydo bo‘lish tarixi, shakllanish xususiyatlari, ijtimoiy voqealik bilan bog‘likligi haqida ko‘nikmalar hosil qilishdan iborat.

**Tayanch atamalar va iboralar:** Antroponim, antropotoponim, ijtimoiy voqealik va antropotoponim, xususiy mulkchilik va antropotopo-

nim, geografik kashfiyotlar va antropotoponim, memorial nomlar, mafkuraviy nomlar.

Joy nomlari va kishilar nomlari o'zaro chambarchas bog'liq. Shu sababdan, bir qator geografik ob'ektlar nomlariga antroponimlar (**yunoncha, antropos – odam**), ya'ni kishilarni ismi, familiyasi, laqabi, taxallusi, nisbasi va shaxsni atashlikning turli usullari asos bo'lib xizmat qilgan. Har qanday antroponimdan nom olgan geografik ob'ekt *antropotoponim* deyiladi. Antropotoponimlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ular joy nomlarini boshqa turlariga qaraganda ancha beqarordir. Ba'zan ularni tuzilishi va semantikasi ham o'zgaradi, ko'pchilik hollarda geografik ob'ektni yo'qolishi antropotoponimlarni iste'moldan chiqishiga sabab bo'ladi.

Antroponimlarning toponimga aylanishi jarayoni turli omillar ta'sirida kechadi. U avvalo ikki tizimning bir-biri bilan yaqin munosabati va ularning o'zaro xarakterli xususiyatlari bilan bog'liq. Ma'lumki, antroponimlar ham xuddi toponimlar singari individuallashadi, kishini, ma'lum bir shaxsni etnik belgisi, milliy xususiyatlari, urf-odatlarini, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini o'zida ifoda etadi. Shu sababli ham ular orasidagi o'zaro munosabat juda qadimdan boshlangan. Ko'plab kishi nomlarining joy nomiga yoki aksincha joy nomlarining kishi nomlariga aylanishi xuddi shu omillar bilan bog'liq hisoblanadi. Antroponimlar toponimga aylanib, barcha geografik nomlar kabi o'zining eng muhim vazifasi bo'lgan ob'ektni farqlovchi, boshqalardan ajratuvchi, ya'ni adreslik funksiyasini bajaradi.

Taniqli toponimist olim Z.Do'simovning aniqlashicha, antroponimlarni toponimga aylanishida shaxs va ob'ekt munosabati muhim rol o'ynaydi. Avvalo biror hududdagi kishilar yoki shaxsning jamiyatda tutgan o'rnini muhim belgi bo'lib xizmat qiladi. Bu belgilar turlicha ifodalinishi mumkin, kishilarning kasbi, mashg'uloti, mansabi, etnik taaluqliligi, laqabi kabi qator individual turlarda aks etadi. Darhaqiqat ko'pgina ijtimoiy terminlarning, laqablarning va ba'zi etnonimlarning toponimga aylanishida antroponimlar muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu xildagi belgilarning ko'pchiligi o'z-o'zidan joy nomiga aylanmaydi. Ular dastavval kishi nomi bilan birga qo'llaniladi. Vaqt o'tishi bilan turli omillar asosida joy nomiga o'tadi. Masalan, Turdiquilning chorbog'i, Qurbon otaliqning yeri, Xo'jamurod yuzboshining ovuli va hokazo.



Ma'lumki, antropotoponimlarning asosiy qismini oykonimlar tashkil etadi. Kishi ismlarining oykonimlarga o'tishi xususiy mulkchilik, yangi yerlarni o'zlashtirish, yangi qo'rg'onlar qurish kabi ijtimoiy voqelik bilan bog'liq. Yuqorida qayd qilingandek, ko'p xalqlarning toponimlari tarkibida antroponimlar qadimdan mavjud. Yu.Ahmadalievning yozishicha, antropotoponimlarning vujudga kelishi jamiyatda sinflar paydo bo'lishi, quldorlik tuzumini shakllanishi kabi ijtimoiy voqelik bilan bog'liq. Xususiy mulkchilikka asoslangan feodalizm davriga kelib hududning asosiy farqlovchi belgisi sifatida uning kimga qarashli ekanligi nisbat qilib olingan. Natijada katta hududlar, qishloq va mahallalarga yirik feodallar, urug' va jamoa boshliqlari, mahalliy hukmdorlar nomi berilgan.

Antropotoponim ko'pincha nom uchun asos bo'lgan shaxsning tarixda egallagan mavqeini eslatib turadi. Masalan, *Iskandar* (ruscha, Aleksandr) dunyoni zabt qilish maqsadida, bosib olgan hududlarida Iskandariya (Aleksandriya) nomi bilan bir necha shaharga asos solgan. O'rta yer dengizi sohilidagi port shahar Iskandariya shulardan biridir. Qolganlari asta sekinlik bilan o'z nomini o'zgartirgan. Miloddan oldin O'rta Osiyoni zabt etgan Iskandar, g'alabasi sharafiga Aleksandriya Esxata (Chekka Iskandariya) shahrini barpo etgan. Qadimiy shaharning xarobalari hozirgi Xo'jand shahri atrofida topilgan.

Boshqa misol, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Xorazm viloyatlarida Chig'atoy degan qishloqlar bor. Chig'atoy (1242 yilda vafot etgan) – Chingizxonning ikkinchi o'g'li. Chingizxon hayotligida-yoq zabt etgan yerlarini o'g'illariga mulk qilib taqsimlab berganda, Movarounnahr ikkinchi o'g'li ixtiyoriga o'tgan. Binobarin, XIII asrning oxiridan boshlab, Movarounnahr Chig'atoy ulusi deb atalgan. Ma'lumki, keyinchalik nomning ma'no va qo'llanish doirasi kengaygan va kishi ismi bo'lishidan tashqari, ijtimoiy-siyosiy, harbiy hamda etnik ahamiyat kash etgan. Shu sababdan, XV asrdan e'tiboran Movarounnahr va sharqiy Xurosonning barcha turkiy aholisini chig'atoylar deyishgan.

Shaxslarning ism-familiyalariga qo'yilgan nomlar haqida *H.Hasanov* shunday yozgan: "Agar geografik karta tilga kirsa edi, jami sayyoh va jasur yo'lbosarlarning xizmatlari namoyon bo'lar edi. Karta ko'pgina olim va dengizchilar – o'sha yerni tekshirgan, o'sha yerdan suzib o'tgan yoki muhim asar yozganlarning nomlarini mangu saqlaydi". *Fedchenko* muzligi, *Mikluxo-Maklay* qirg'og'i, *Ismoil Somoniy* cho'qqisi, *Mirzo Ulug'bek* metro bekati, *Amir Temur* darvozasi kabi minglab nomlar shular sirasiga kiradi.

Buyuk geografik kashfiyotlar davrida, yangi kashf qilingan geografik ob'ektlarga ko'pincha, yangi yer ochuvchi, noma'lum o'lkalarga borib, jonini garovga qo'ygan tadqiqotchi olimlar, sayyohlarni nomlari berish ancha keng tarqalgan. Ular qatoriga *Levingston* sharshara; *Magellan* bo'g'oz; *Kuk* – orol, bo'g'oz, tog'; *Stenli* – sharshara; *Bering* – bo'g'oz, dengiz; *Amundsen* – dengiz; *Flinders* – orol, tog', daryo va boshqalarni kiritish mumkin. Arktika va Antarktidada *Dejnev*, *Laptev*, *Litke*, *Cherskiy*, *Vrangel*, *Makarov*, *Belinssgauzen*, *Lazerev*, *Skott*, *Chelyuskin*, *Barens* kabi tadqiqotchi va sayyohlar nomlarini uchratish mumkin. Bular asosan tabiiy – geografik ob'ektlar bo'lib, ularni kashfiyotchilari yoki tadqiqotchilari nomlari bilan atashgan.

Osiyo va Amerika qit'alari hamda Tinch va Shimoliy muz okeani oralig'ida *Bering bo'g'oz*i va dengizi joylashgan. Dengiz va bo'g'oz ushbu hududlarni o'rgangan 1-chi va 2-chi Kamchatka ekspeditsiyalari kapitani *V.Bering* sharafiga atalgan. Nom XVIII asr oxirida shimoliy-sharqiy Osiyoni tadqiq etgan ingliz dengizchisi *J.Kuk* tomonidan berilgan. Rus sayyohi *V.Golovin* tashabbusi bilan dengizni ushbu nom bilan atash rasmiy tus olgan.

Hozirgi Avstraliyada *Bayron* burni, *York* burni, *Vass bo'g'oz*i, *Myorchison*, *De-Grey*, *Mitchel*, *Gregori*, *Viktoriya* daryolari, *Uels* ko'li, *Ogastes*, *Makdonell* tog'lari mashhur kishilar, materikni tadqiq etgan va o'rgangan sayyohlar nomiga qo'yilgan. Antraktida materigidam ham turli dengizchi sayyohlar va boshqa shaxslar nomi bilan atalgan geografik ob'ektlar ko'p: *Viktoriya* yeri, *Uilkins* yeri, *Adeli* yeri, *Jekson* tog'i, *Uedell*, *Bellinsgauzen*, *Amundsen*, *Ross* dengizlari, *Petr I*, *Skott* orollari. Darvoqe', *Adeli* yeri frantsuz sayyohi *J.Dyumon-Dyurvil* tomonidan 1840 yilda kashf etilgan va unga xotini *Adel* sharafiga shunday nom bergan.

Kartalarda tarixiy shaxslar, sarkardalar, davlat arboblari nomlari ham uchraydi. *Petr I*, *Vashington*, *Xoshimin*, *Viktoriya*, *Mak-Kinli*, *Aleksandr* va hokazo kabi davlat va siyosat arboblari nomiga qo'yilgan toponimlar bunga yaqqol misol bo'ladi. O'rta Osiyoning eng baland cho'qqisi (*Pomirda*, 7495 m.) – *Somoniylar* davlatining asoschisi *Ismoil Somoniy* nomi bilan atalgan. *Mikluxo-Maklay*, *Prejevalskiy*, *Severtsov*, *Shokalskiy*, *Anuchin*, *Korjenevskiy*, *Mushketov*, *Oshanin*, *Fedchenko* kabi atoqli olimlarni nomlari ham, turli geografik ob'ektlar nomlari sifatida mo'hlangan.

Jahon fani, madaniyati, ma'naviyati taraqqiyotiga buyuk hissa qo'shgan allomalarning, vatan ozodligi, mustaqilligi uchun kurashgan.

jonini fido qilgan vatanparvarlarning nomlari ham joy nomlarida mangu saqlanadi. Bunday nomlarga *Beruniy, Navoiy, Ulug'bek, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Al-Farg'oniy, Jaloliddin Manguberdi* kabi nomlarni kiritish mumkin. Ba'zan, davlat boshliqlari, podshohlar, sayyoh va tadqiqotchilarning sevikli kishilari, hatto qaroqchilar nomlari ham kartada abadiylashib qolgan. Masalan, Angliya qirolichasi *Viktoriya* nomi bilan ko'l, mashhur dengiz qaroqchisi *Dreyk* nomi bilan bo'g'oz atalgan.

Kishilarning ism-sharifi, taxallusi bilan bog'liq nomlarni memorial va oddiy nomlarga ajratish mumkin. Memorial nomlarga haqiqiy buyuk kishilar, ya'ni zamon, jamiyat qanday bo'lishidan qat'iy nazar hurmat bilan tilga olinadigan, butun insoniyatga xizmat qilgan shaxslar nomlarini kiritish mumkin. Bunday nomlar har qanday jamiyatda saqlanib qoladi. Qanday nomlar memorial ekanligini vaqt belgilaydi.

Mikrotoponimlar orasida shaxslarning ism-shariflari, taxalluslari bilan bog'liq nomlar juda ko'p. Ularning ko'pchiligi zamon o'zgarishi bilan o'zgarib ketadi yoki yangi nomlar bilan almashtiriladi. Bunday nomlar memorial nomga kiritilmaydi. General *Chernyaev* nomi bilan atalgan *Chernyaevka*, general *Kaufman* sharafiga qo'yilgan *Kaufmanskaya* stantsiyasi, *Skobelev* shahri, sho'ro qo'mondonlaridan *Frunze, Kuybishev* nomlari bilan atalgan shaharlar nomlarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Sobiq Ittifoqda maskuraviy nomlarga katta e'tibor berilgan edi. Ularning ko'pchiligini kommunistik partiya dohiylari hamda sovet tuzumi jonkuyarlarining nomlari tashkil etgan. *Lenin, Ulyanov, Kalinin, Kirov, Sverdlov, Dzerjinskiy, Jdanov* kabi ko'plab nomlar ana shunda paydo bo'lgan. Sho'rolar tuzumini yo'q bo'lishi bilan, «qizil» nomlardan voz kechildi, ularga yangi nomlar berildi yoki tarixiy nomlari qayta tiklandi.

Hozirgi vaqtda antropotoponimlarni dunyoning barcha mintaqalari toponimiyasi tarkibida ko'rish mumkin. Chunonchi, O'zbekistonda ko'cha, maydon, xiyobon, bog'lar, guzar, mahalla, korxonalar, muassasalar, aholi punktlari, geologik, tabiiy va boshqa bir qator geografik ob'ektlarga davlat, jamoat arboblari, vatan himoyachilari, fan, madaniyat arboblari va boshqa alohida xizmat ko'rsatgan odamlarning nomini berish orqali antropotoponimlarni katta qatlami yaratilgan.

Shuni aytish kerakki, o'tmishda O'rta Osiyoda, jumladan O'zbekistonda ham ma'lum – mashhur kishilarning nomlarini shahar-qishloqlarga qo'yish rasm bo'lmagan, aksincha shoirlar, olimlar va

boshqa mashhur kishilar o'zlari tug'ilib o'sgan joylarning nomlarini ko'pincha nisba qilib olib, jonajon o'lkalarini dunyoga mashhur qilganlar. Masalan, *Buxoriy, Xorazmiy, Samarqandiy, Termiziy* va hokazo. Keyinchalik ayrim geografik ob'ektlarga ulamolar, aziz-avliyolar, islom dinining yirik namoyandalari nomi berilgan. Bunday nomlashlar birinchiidan, o'sha maskanlarga ziyoratchilar sonini ko'paytirgan bo'lsa, ikkinchiidan, hudud tabiatini asrab – avaylash uchun xizmat qilgan.

2011 yilda qabul qilingan «Geografik ob'ektlarning nomlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida geografik ob'ektlarga odamlarni ismi-sharifini berish to'g'risida shunday yozilgan: «Viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar ovullar, aholi punktlariga odamlarning ismi-sharifining berishga, shuningdek ularni tarixiy voqealar sharafiga nomlashga, qoida tariqasida yo'l qo'yilmaydi.

Ko'chalar, shohko'chalar, mahallalar, maydonlar, bog'larga va aholi punktlarining boshqa tarkibiy qismlariga ayrim odamlar, jamoat arboblari, shaxsiy arboblari ismi-sharifini berishga, qoida tariqasida, yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston tarixida chuqur iz qoldirgan shaxslar bundan mustasno». Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, faqat istisno tariqasida O'zbekiston tarixida chuqur iz qoldirgan shaxslarning nomi geografik ob'ektlarga berilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Agar, shunday zarurat paydo bo'lib qolgan taqdirda antropotoponimlar modelining grammatik jihatdan o'zbek tiliga mos, eng to'g'ri va mukammal tipi antroponim hamda obod, qishloq, ovul, mahalla, qo'rg'on, tepa, dasht, bog' kabi geografik terminlardan (*Haydarobod, G'aniqishloq, To'xtaovul, Sobirtepa, O'rozbog'* va hokazo) ihorat bo'lgan shakli hisoblanadi. O'zbekiston toponimiyasining eng ustki stratigrafik qatlami antropotoponimlarning ko'pligi bilan ajralib turadi.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. Antroponim va toponim orasida qanday bog'liqlik mavjud?
2. Kishilarning ism-sharifi, taxallusi bilan atalgan, memorial va oddiy nomlar haqida ma'lumot bering.
3. 2011 yilda qabul qilingan «Geografik ob'ektlarning nomlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida geografik ob'ektlarga odamlarning ismi-sharifini berish to'g'risida qanday normalar belgilangan?

## Test topshiriqlari

### 1. Antropotoponim qanday nom?

- A. Kishilarni taxallusi bilan bog'liq nomlar
- B. Kishilarni ism-familiyasi asosida paydo bo'lgan nomlar
- C. Tarixiy shaxslar, sarkardalar, davlat arboblari nomlari
- D. Barcha javoblar to'g'ri

### 2. "Geografik ob'ektlari nomlari haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qachon qabul qilingan?

- A. 2010 y.
- B. 2011 y.
- C. 2012 y.
- D. 2013 y.

### 3. Antropotoponim qatorini belgilang.

- A. Kanberra
- B. Cherapunji
- C. Islomobod
- D. Everest

### 4. O'tmishda O'rta Osiyoda, jumladan O'zbekistonda ham ma'lum-mashhur kishilarning nomlarini shahar-qishloqlarga qo'yish .... To'g'ri javobni belgilang.

- A. rasm bo'lmagan
- B. rasm bo'lgan
- C. an'anaga aylangan
- D. odat tusiga kirgan

### 5. Geografik ob'ektlarga ulamolar, aziz-avliyolar, islom dinining yirik namoyandalari nomlarini berilishi qanday vazifalarni bajar-gan?

- A. O'sha maskanlarga ziyoratchilar sonini ko'paytirgan
- B. Hudud tabiatini asrab-avaylash uchun xizmat qilgan
- C. Vatanga nisbatan faxr va g'urur tuyg'usini shakllantirgan
- D. Barcha javoblar to'g'ri

## 9.2. Etnotoponimlar

### Reja:

1. Etnonim va toponimni o'zaro aloqadorligi
2. Etnotoponimlarning shakllanishi va hududiy xususiyatlari
3. O'zbekiston etnotoponimlari

**Mavzuning maqsadi:** Etnonim va etnotoponimni uzviy bog'liqligi, etnonimik omillar asosida vujudga kelgan etnotoponimlarni xarakterli xususiyatlari, ularni paydo bo'lish tarixi, etnotoponimlarni o'rganilish holati hamda O'zbekiston etnotoponimlari haqida bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

**Tayanch ibora va atamalar:** Etnonim, etnotoponim, etnonim va toponimni uzviy bog'liqligi, hududiylik va takroriylik, etnik belgi va mezon, etnonim va totemistik qarash, etnonimlarni tarqalish areallari.

Qadimiy karta-luqa e'tibor berib qaralsa, asosiy toponimik yukni qabila va xalqlar nomlari, ya'ni etnonimlar tashkil etadi:- skiflar, sug'dlar, yunonlar, saktlar, keltlar va hokazo. Ma'lumki, xalqning eng ibtidoiy etnonimidan belgisi va eng muhim qadriyatlaridan biri uning nomidir. Har qanday etnik birlik qadimda hududiy, iqtisodiy, lisoniy va kelib chiqishi jihatidan nasl-nasabidan tashqari, maxsus nomga ega bo'lishi shart bo'lgan. Shu sababdan, aholisining tarkibi bir xil (urug', qabila, elat, xalq) bo'lganligi sababli har bir etnik birlik nomi ular yashagan hududning nomi vazifasini ham bajargan.

Keyincha, etnik birlikni anglatadigan nom, nafaqat ular yashagan manzilni balki, shu etnik birlikka tegishli bo'lgan mulklarni, joylarni nomiga ham aylangan. Har qanday etnik birlikni nomi *etnonim* (yunoncha, etnos – xalq, onim – nom) deb ataladi. Juda ko'p joy nomlari etnonimlar bilan bog'liq holda paydo bo'lgan. Etnonimlardan nom olgan har qanday geografik oh'ekt *etnotoponim* hisoblanadi.

Etnotoponimlarning aksariyat qismi oykonimlar, ular har qanday mintaqa aholisining tarixiy shakllanishi, taraqqiyoti, xalqlarning qadimiy munosabati, integratsiyasi va migratsiyasini ko'rsatuvchi muhim manba hisoblanadi. Suv bo'ylari, dehqonchilik va chorvachilik uchun qulay joylarda, yirik aholi punktlarida, turli etnik guruh vakillari aralash yoki yonma-yon yashagan joylarda etnotoponimlar zichroq tarqalgan. Ba'zan, yo'qolib ketgan xalqlar va tillarni tarqalish hududlarini aniqlashda etnotoponimik ma'lumotlar yordam beradi.

Etnonimlar juda qadimiy soʻzlar boʻlganidan xalqlar etnogenezini oʻrganishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, Xorazm etnografiyasini oʻrgangan S.P.Tolstov bu haqda shunday maʼlumot yozib qoldirgan: “Avestoda yozishicha, jamiyat asosini urugʻ tashkil qilgan. Urugʻlar “vis” deb atalgan. U maʼlum bir qishloq aholisidan tashkil topgan boʻlib, qishloqning oʻzi ham “vis” deb yuritilgan. Bu soʻzning keyingi davrlardagi shakli “diz” dir. Bir necha urugʻ birlashib zantuni tashkil qilgan. Nihoyat qabilalar ittifoqi yoki viloyat daxu yoki daxyu deb yuritilgan”.

Joy nomlarida aks etgan etnonimlarning tahlili shuni koʻrsatadiki, koʻpincha qabila yoki urugʻ nomi, haʼzan ularning atrofdagi aholidan etnografik jihatlari bilan farqi etnonimning toponimga aylanishiga sabab boʻlgan. Nomlashni oʻziga xos qoidalaridan biri shuki, aksariyat hollarda aholi maskanlariga nom oʻzgaralar tomonidan berilgan. Aholi maskanini yaratuvchi bilan nomlovchi jamoa munosabati bu jarayonda muhim omil sanalgan.

V.A.Nikonov yozishicha, etnotoponimlar etnik guruh yaxlit yashaydigan hududda emas, balki uning chekka qismida, yaʼni boshqa bir etnik birlik bilan chegaradosh hududlarda paydo boʻlgan. Masalan, qoʻngʻirot yoki qangʻililar yaxlit yashagan hududlarda *Qoʻngʻirot*, *Qangʻli* kabi toponimlar uchramaydi. Shu narsa muhimki, boshqa etnik birliklar miqdoriy koʻpchilikni tashkil qilgan hududlarda emas, ozchilikni tashkil qilgan hududlarda etnik belgi nomlanish uchun mezon, asos, belgi vazifasini oʻtagan.

Etnonim va toponim orasida uzviy bogʻliqlik mavjudligini S.S.Gubaeva oʻz ilmiy ishlarida Fargʻona vodiysi misolida koʻrsatib bergan. Olimaning yozishicha, «oʻtmishda aholisi koʻchmanchi yoki yarim oʻtroq hayot kechirgan hududlardagi joy nomlarida etnonimlar soni koʻp, aksincha aholisi qadimdan oʻtroq boʻlgan hududlardagi joy nomlarida etnotoponimlar kam». Bu qonuniyatni, koʻchmanchi yoki yarim oʻtroq tarzda hayot kechirgan aholini hududiy tarqalishida etnik mansublik muhim rol oʻynaganligi, bilan izohlash mumkin.

Etnonimlar tarix taqozosi bilan ancha qadimiy davrda muayyan hududda yashaydigan etnik guruhni nomi sifatida paydo boʻlgan. Shu sababdan, etnonimlarni eng qadimiy geografik nomlar turiga kiritish mumkin. Gap shundaki, kishilik jamiyatining dastlabki bosqichlaridan buyon aholining etnik tarkibi hududni belgilash uchun asos boʻlib xizmat qilgan. Etnik belgi bilan nomlashda ijtimoiy voqelik bosh meʼyor,

manzori yozilishini o'tagan. Masalan, *Sug'diyona, Baktriya, Iberiya, Axtaroniya, Galliya, Parfiya* kabi nomlarni eslash kifoya, chunki ulardagi hududlarda etnik nom mujassam.

Etnotoponimlar – tarkibi faol kategoriya sanaladi. Bu tur toponimlarga hududiylik, takroriylik xos va u tarixiy geografik sabablar, ya'ni ommaviy tarqalishi, etnik aholilar hamda xo'jalik faoliyatini xususiyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Nomning takroriyliги nom asosidagi ma'nodagi boshqa ijtiroiy, etnik, rulliy, falsafiy xususiyati borligini ko'rsatadi. Etnotoponimlikdagi asosiy qonuniyatlardan biri takroriylik. Ushbu tur bilan shima eib. Asosiy sababi xalq tafakkuridagi umumiylik, etnik hududlarini bir xil idrok qilinishidir. Inson tafakkuridagi, ma'naviyatidagi bir belgi joy nomlariga ko'chgan.

Etnotoponimlarning ma'lum hududda qayta takrorlanishiga etnik guruh vakillari ijtiroiy hayot tarzi ham ta'sir ko'rsatgan. Boshqacha so'zda, bir joyda yoki bir-boriga yaqin masofalarda aynan bir etnotoponimning yoki o'zining joy nomining takrorlanishi tasodifiy hol emas. Masalan, Jizzas viloyati hududida yarim o'troq va ko'chmanchi tarzda hayot kechirgan aholining o'troq hayotga o'tishida muayyan tafovutlar bo'lgan. Shu sababdan, Zamin tumanida ikkita *Qutchi*, ikkita *Tig'iriq*, Hasanali tumanida uchta *O'ray*, uchta *Mo'g'al* nomli aholi punktlari joyda bo'lgan. Mutaxassislarning fikricha, ushbu etnik guruh vakillari hamda uzoq yuldan o'tib, balki nisbatan kichik bo'laklarga bo'linib o'troqlikka o'tganligi, nomlarning takrorlanishiga asosiy sabab bo'lgan.

Etnotoponimlar joy o'zgarishi shaklida qayta-qayta takrorlanishida ijtiroiy xarakter ham muhim rol o'ynagan. S.Qorayev ma'lumotlariga ko'ra o'zbekdagi toponimiyasi tarkibida *ayronchi, arg'in, achamayli, bag'anali, beshkapa, burqut, galabotir, kenagas, tama, ming, mitan, oytamg'alt, uyay, qutchi* kabi etnonimlar shahar va qishloqlar nomlari tarkibida 5 dan 10 marta gacha; *bolg'ali, bolta, bahrin, qang'li, qiyot, qirq, qutrishkor, mo'g'al* kabi etnonimlar 11-20 marta gacha; *beshkapa, do'rmon, jahoyir, qo'ng'iroq, mang'it* kabi etnonimlar 21-30 marta gacha; *qipchoq, saroy* etnonimlari 31-40 marta gacha takrorlanadi.

Xorazm toponimiyasini tadqiq qilgan Z.Do'simovni yozishicha, Xorazm etnotoponimlarining xarakterli xususiyatlaridan biri shuki, ayrim etnik nomlar bir necha hatto o'nlab toponim sifatida uchraydi. Bu fakt mazkur territoriyada urug'-qabilaga bo'linish, urug'chilik xususiyati uzoq davom etganligidan dalolat beradi. Etnotoponimlar Shimoliy Xorazmda juda sermahsuldir. Urug'-qabila nomi bilan ataluvchi topo-



nimlarning ko'plab takrorlanishi bu yerdagi xalqlarning keyin ko'chib kelganligini ko'rsatadi. Etnotoponimlar Janubiy Xorazmda shimolga nisbatan ancha barqarordir. Janubda etnotoponimlar deyarli uchramaydi. Masalan, Nukus etnotoponimi Shimoliy Xorazmda o'n ikki marta, janubda esa atigi bir marta uchraydi.

Xorazm etnotoponimlarining diqqatga sazovor joyi shundaki, ular respublikadagi aksariyat mintaqalardagi kabi kichik aholi maskanlarini nomini emas, balki ancha katta shaharlar (Qo'ng'iro't, Mang'it, Qipchoq, Nukus) nomini tashkil etadi. Buni Xiva xonligida urug'chilik boshqa hududlarga nisbatan kuchliroq bo'lganligi va har qaysi urug' o'troqlikka o'tganda o'zini yaxlit turkum deb his qilganligi hamda mayda qishloqlarga sochilib ketmaganligi bilan izohlash mumkin.

Shahar va qishloqlar nomini tashkil etgan etnotoponimlarga qarab qadimda ushbu hududda qanday etnik guruhlar istiqomat qilganligini bema'lol bashorat qilish mumkin. Chunonchi, Qoraqalpog'iston poytaxti Nukus – no'kis qabilasi nomidan olingan, Boysun tog'ining g'arbidagi Qarluq g'ori va sharqidagi Qarluq qishlog'i – VII asrda shu hududda yashagan qarluq qabilasining nomi bilan atalgan. Savay, Boyovut, Olot, Baliqchi, Do'rmon, Qurama, Qipchoq, Qang'li kabi mashhur nomlar ham etnonimlar asosida paydo bo'lgan.

Ta'kidlash joizki, har bir etnonimning o'ziga xos kelib chiqishi tarixi bor. Ularni bilmasdan turib O'zbekiston toponimikasi bilan shug'ullanish ancha qiyin, chunki urug', qabila nomlari ko'pincha muayyan ma'noni anglatadi. Masalan, urug' nomlarini bilmagan kishi *Taroqli, Bolg'ali, Cho'michli, Qarg'ali, O'roqli, Oytamg'ali* kabi etnonimlarni «-li» affiksli toponimlarga kiritishi mumkin. *Qirq, yuz, ming* qabilalari nomlari toponimlar tarkibida kelganda sonni bildirmaydi.

O'zbekiston etnotoponimlari orasida jonivorlar, xususan, uy hayvonlari nomi bilan atalgan etnonimlar eng qadimiydir, chunki odamlar birinchi bo'lib ana shu hayvonlarni xonakilashtirgan. Urug'larning muqaddas hayvonlari (totemi) bo'lgan. Totemistik qarash insoniyatning tabiatga, tabiat hodisalariga, mavjudotlarga (hayvonlar, parrandalar, hasharotlar va boshqa turli jonzotlarga) munosabati majmui sanaladi. Totemistik dunyoqarash majusiylar davrida paydo bo'lgan.

Ko'pgina etnonimlar urug' – aymoq tamg'asi nomi bilan atalgan. Har bir urug'ning o'z tamg'asi bo'lgan. Tamg'alar dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi o'rtasida emas, chorvador aholi uchun muhim belgi vazifasini o'tagan. Chorvachilik bilan shug'ullangan har bir etnik

qurilish o'z tamg'asi bo'lgan. Tamg'alar shakli, tuzilishi, tasviri, anglatgan ijtimoiy mazmuni va mohiyati bilan bir-biridan farqlangan. Tamg'a ramziy nishon, belgi vazifasini o'tagan. Ko'pincha chorvachilik bilan shug'ullanganligi sababli ular qo'ylarni, echkilarni, otlarni, tuyalarni boshqalarnikidan farq qilish uchun turli shaklda tamg'alab qo'yilgan.

Masalan, Jizzax viloyati toponimiyasini o'rgangan A.Zokirovning ta'kidlashicha, viloyat hududidagi etnotoponimlar tarkibida uchraydigan *taqqit*, *cho'michli*, *qirg'ili*, *bolg'ali* kabi urug'larning tamg'alari shakli ana odat uy-to'zg'or anjomlariga o'xshash bo'lgan. Bulardan tashqari, etnonimlar orasida kishi ismlari, joy nomlaridan kelib chiqqan, kadetunlar nomi bilan yuritiladigan, jamiyatlardagi ijtimoiy mavqesiga qarab, urug'ajdodlarni laqabi bilan atalgan va boshqa joy nomlarini ham ko'rish mumkin.

Ta'kidlash joziki, dunyo kartasida etnotoponimlar juda ko'p. Ko'pchilik mamlakatlarning nomlari xalq nomidan olingan, xalq nomiga -iya, -iston qo'shimchalari qo'shilib, mamlakat nomi hosil qilingan. Bu hodisa davlatlarni nomlashda asosiy qonuniyatlardan biri sanaladi. Masalan, *alban* – Albaniya, *Portugal* – Portugaliya, *rumin* – Ruminiya, *bolgar* – Bolgariya, *turk* – Turkiya, *turkman* – Turkmaniston, *qirg'iz* – Qirg'iziston, *tatar* – Tatariston, *tojik* – Tojikiston va hokazo.

Etonimlar negizida paydo bo'lgan davlatlar nomini barcha qit'alarda uchantish mumkin. Xususan, qadimiy davlatlari bilan mashhur bo'lgan Yevropada bunday nomlar ko'plab topiladi. Yevropada – Bolgariya, Bolgariya, Gotsiya, Italiya, Ruminiya, Shvetsiya; Osiyoda – Hindudesh, Laos, Tailand, Mug'uliston, Turkiya; Afrikada – Botsvana, Hindudi, Mavritaniya, Mahavi kabi davlatlar nomiga etnonimlar asos bo'lib xizmat qilgan.

Faqat davlatlar nomigina emas, balki etnonimlardan hosil bo'lgan boshqa geografik ob'ektlar nomlari ham ko'p uchraydi. Masalan, *Malik cho'li* (malik – urug'i nomi), *Baraba* dashti (baraba – urug'i nomi), *Parij* qurzi (qabila nomi), *Eri*, *Guron* ko'llari (hindu qabilalari nomi), *Appalachi* tog'lari (appalachi – hindu qabilasi), *Dakota*, *Yuta*, *Ayova*, *Delaver*, *Oklaxoma* kabi shtatlar nomlari ham hindu qabilalari nomlari bilan bog'liq.

Tobora unitilib borayotgan urug'-aymoq nomlarini to'plash, tahlil va tadqiq qilish, etnonimlar bilan toponimlar munosabatini aniqlash toponimikaning bugungi kundagi dolzarb masalaridan biri hisoblanadi.

Endilikda, xalqning etnik guruhlariga taqsimlash faqat tarixiy qiziqishlar bilan bog'liq. Etnonimlar geografik nomlar tarkibida uzoq muddat saqlanib qolsa ham, ammo vaqt o'tishi bilan tushunarsiz bo'lib qoladi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, «odam, inson, o'zimizning kishilar» kabi ma'nolarni anglatadigan etnonimlar eng qadimgi etnonimlar hisoblanadi.

Toponimlar tarkibida ma'lum hududda yashovchi aholining ijtimoiy holatini ifoda etadigan nomlarni ham topish mumkin. Bunday nomlar O'zbekistonning deyarli barcha shahar qishloqlarda mavjud bo'lgan. Biroq ular keyinchalik boshqa (yangi) nomlar bilan almashtirilgan. Masalan, O'rta Osiyoning bir qator qadimiy shaharlarida *Qalandarxon*, *Darveshxon*, *Qoziko'cha*, *Qoziyon*, *Xo'jalar*, *Pirxon*, *Eshonguzar* kabi joy nomlari bo'lgan, ammo ularning harchasi jamiyatda va ijtimoiy hayotda ro'y bergan o'zgarishlar natijasida o'zgaragan.

Aholini ijtimoiy ahvolini ifodalovchi nomlarni boshqa mamlakatlar hududida ham uchratish mumkin. Masalan: Belarusda *Besxlebechi* – «nonsizlar», *Koroedi* – «po'stloqxo'rlar», *Moxoedi* – «moxxo'rlar» kabi nomlar bor. Shu bilan birga, aristokratik toponimlar ham mavjud bo'lgan. Qadimda Rossiyaning ko'p shaharlaridagi eng katta ko'chalar *Dvoryanlar*, *Meshanlar* kabi nomlar bilan atalgan, ular sobiq sovet davrida yangi nomlar bilan almashtirilgan.

Etnotoponimlarni paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi uzoq va murakkab tarixiy jarayon bo'lib, turli-tuman ijtimoiy, tarixiy, lingvistik faktorlar bilan bog'liq. Aholining etnik tarkibi, ularning qaysi urug', qabila, xalq, millatga mansubligini ifodalovchi geografik nomlar har qanday hududiy toponimiya orasida katta bir guruhni tashkil etadi. Ular ma'lum hududlarda qadim zamonlardan boshlab hayot kechirgan turli etnik guruhlarining tarqalish areallarini aniqlashda muhim manba hisoblanadi.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. Etnonim va etnotoponimlarning tarixi va shakllanish jarayonini qisqacha ta'riflang.
2. Etnotoponimlarni hududiy tarqalishi haqida ma'lumot bering.
3. Etnonim va toponim orasida qanday uzviy bog'liqlik mavjud?

#### **Test topshiriqlari**

1. Totemistik dunyoqarash qachon paydo bo'lgan?  
A. Sobiq sho'rolar davrida

B. Islom dini tarqalgan keyin

C. Majusiylar davrida

D. To'g'ri javob yo'q

**2. Etnonimni etnotoponimga aylanishiga sabab nima?**

A. Aholi maskunini yaratuvchi bilan nomlovchi jamoa munosabati bu jihatda muhim omil sanalgan.

B. Nom o'zgarar, ya'ni atrofdagi boshqa etnik guruhlar tomonidan berilgan.

C. Ularning atrofdagi aholidan etnografik jihatlar bilan farqi sabab bo'lgan.

D. Harcha javoblar to'g'ri

**3. Oltiq, yuz, ming kabi qabila nomlari toponimlar tarkibida kelganda qanday ma'no kasb etadi?**

A. Hech qanday ma'no kasb etmaydi

B. Sonni bildiradi.

C. Raqamlar tartibini bildiradi

D. Sonni bildirmaydi

**4. Etnonimlardan hosil bo'lmagan geografik ob'ektlar nomlari qatorini belgilang.**

A. Dakota, Yuta, Oklaxoma

B. Rur, Lissabon, Hern

C. Garaba, Appalachi, Chiron

D. Ayuya, Parij, Delaver

**5. Ayrin etnonimlar tung' = ayniqq tang'asi nomi bilan atalgan.**

**Tung'a qanday vazifani bajaragan?**

A. Chorvador aholi uchun muhim belgi vazifasini bajargan

B. Tung'a ramziy nishon/belgi vazifasini o'tagan

C. Chorvani turli shaklda tung'alab qo'yish uchun foydalangan

D. Harcha javoblar to'g'ri

## 10-mavzu: MODDIY ISHLAB CHIQRISH, SAVDO-TRANSPORT VA DINIY E'TIQODLAR BILAN BOG'LIQ TOPONIMLAR

### 10.1. Moddiy ishlab chiqarish bilan bog'liq toponimlar

#### *Reja:*

1. *Moddiy ishlab chiqarish bilan bog'liq toponimlar haqida umumiy tushuncha.*
2. *Foydali qazilmalar va xalq hunarmandchiligi bilan bog'liq toponimlar.*
3. *Geografik nom va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarmoqlari.*

**Mavzuning maqsadi:** Moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari, aholining iqtisodiy turmush tarzi – shug'ullanuvchi kasb-kori, xo'jalik faoliyati hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi negizida shakllangan joy nomlari haqida tushuncha berish.

**Tayanch ibora va atamalar:** Tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar va nom, ishlab chiqarish turlari bilan bog'liq bo'lgan toponimlar, xalq hunarmandchiligi bilan bog'liq toponimlar, agronimlar.

Geografik ob'ektlarning nomlanishida ma'lum hududda yashovchi aholining iqtisodiy turmush tarzi – shug'ullanuvchi kasb-kori, xo'jalik faoliyati muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Bu turdagi toponimlarni paydo bo'lishida jamiyatning muayyan tarixiy rivojlanish davrlarida ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni o'zgarishi hamda ishlab chiqarish shakllarini rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etgan. Ularning asosiy fazilati shundan iboratki, joy nomlariga qarab ishlab chiqarish shakllari, foydali qazilmalar konlari, kasb-hunar turlari, dehqonchilik madaniyati va boshqa xil ma'lumotlarni bilib olish mumkin, bularning hammasi xalq xo'jaligi tarixi uchun juda muhim hisoblanadi. Geografik nomlarda xalq turmushining turli ijtimoiy-iqtisodiy jabhalari, ya'ni aholining xo'jalik faoliyati, jamiyatdagi ko'p asrlar davomida sodir bo'lgan tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar ham o'z aksini topgan.

**Foydali qazilmalar bilan bog'liq toponimlar.** Mutaxassislarning aniqlashicha, ishlab chiqarish turlari bilan bog'liq bo'lgan toponimlar ko'pincha foydali qazilmalar mavjud bo'lgan hududlarda joylashgan aholi punktlari nomlari tarkibida ko'proq uchraydi. Masalan, tuz konlari topilgan hududlarda Galle (Germaniya, kelt tilida hala – «tuz»),

Zaltsburg (Avstriya, nemis tilida «tuz shahri»), Shahrituz (Tojikiston, «tuz shahri»), Tuzkon (O'zbekiston), Rossiyadagi Usole, Solikamsk, Soltsi, Soligalich kabi oykonimlar shular jumlasidandir. Hozirda qazib olinmayotgan yer osti boyliklari ham joy nomlarida o'z aksini topgan: *Uglegorsk, Uglezavodsk, Uglekamensk, Ugleuralsk, Antratsit* kabi nomlar, ko'mir, *Nefteyugansk, Neftekamsk, Nebit-Dag* (turkman tilida, «neft tog'li») – neft; *Jezqo'rg'an* (qozoq tilida, «mis qazib olingan joy»), *Mednogorsk, Shaba* (Kongo, suuxili tilida «mis») – mis; *Gazli* – gaz qazib olish bilan bog'liq va hokazo. *Apatiti, Magnitogorsk, Marganets, Mednits, Mednogorsk, Neftegorsk, Nikel, Olovyannaya, Slantsi, Solikamsk, Tselvanoy, Shayti, Shaytinsk* kabi nomlar ham qazilma boyliklar nomlari asosida paydo bo'lgan.

Uzoq yillardagi (Rossiya) Nelemijn daryosi nomi evenk tilida «tosh» degan ma'noni beradi. Daryo havzasida temir rudasining yirik koni topilgan. Afrikadagi shimoliy sharqiy qismida Nubiya cho'li joylashgan. Tarixi ancha qadimgi davrlarga borib taqaladigan cho'l nomining asosini nubi – «oltin» so'zi tashkil etadi. Shu joydagi yirik oltin konlardan qadimgi misr fir'avnlari saroyiga oltin qazib olinganligi ma'lum. Ratnapura – «qimmatbaho toshlar shahri» (Shri-Lanka) shahrining nomi ushbu hududdan qazib olinadigan qimmatbaho toshlar bilan bog'liq. Shu yer atrofida topaz va safir kabi qimmatbaho toshlar qazib olinadi. Shri-Lanka oroli qadimda Ratnadvipa – «qimmatbaho toshlar oroli» deb atalgan.

Qirg'izistondagi *Toshko'mir* shahri, Turkmanistondagi *Nebitdog', Gurguridog'*, Uraldagi *Magnitnaya tog'i, Magnitogorsk, Solikamsk*, Kola yarimorolidagi *Apatit* shahri nomi foydali qazilmalar bilan bog'liq. Janubiy Amerikadagi *And tog'lari* (mis tog'lari), *Argentina* (Argentus – kumush), Turkiyadagi *Marmara* dengizi nomiga ham foydali qazilmalar konlari borligi asos bo'lib xizmat qilgan. Dunyoda eng uzun hisoblangan *And tog'larining* nomi mis konlari bilan bog'liq. Ma'lumki, miloddan avval ham ushbu hududdan mis qazib olingan. *And* so'zi ham kechua hindulari tilida anta – «mis» degan ma'noni ifodalaydi. Oltoy tog'idagi *Terliqoya* degan joyda tog'ning yonbag'ridan yaltiroq suyuqlik tomchilab turgan, geologlar tekshirib ko'rganda suyuqlikni simob ekanligi aniqlangan.

O'zbekistondagi *Konsoy, Kontepa, Oltinbel, Oltintog', Kumushkon, Miskon, Ko'hisim, Tuzkon, Surmatosh, Qo'rg'oshinkon* kabi geografik ob'ektlarning nomlari bu joylardan ilgari er osti boyliklari qazib olin-

ganidan dalolat beradi. Masalan, Parkent tumanida joylashgan *Kumushkondan* qadimda ham, yaqin–yaqinlarda ham qo‘rg‘oshin qazib olingan. Nima uchun Kumushkon qo‘rg‘oshinkon deb atalgan emas? Buning siri yaqindagina aniqlandi. Ma‘lum bo‘lishicha, **Kumushkonning** qo‘rg‘oshin rudalari boshqa kon rudalaridan o‘zining kumushga boyligi bilan ajralib turarkan. Ko‘hisim o‘rta asrlarda Iloqdagi mashhur konlardan bo‘lgan. Mutaxassislar Qurama tog‘larining shimolida joylashgan hozirgi *Lashkarak* polimetall rudalari konini, qadimgi Ko‘hisim (tojikcha, «kumush tog‘») **ning** o‘zginasi ekanligini aniqladilar. Bu kondan qadimgi davrlarda ko‘plab kumush qazib olinganligi ma‘lum.

*Xalq hunarmandchiligi bilan bog‘liq toponimlar.* Ma‘lumki, O‘rta Osiyo xalqlari qadimdan turli kasb-hunarlar bilan shug‘ullanib kelganlar. Shahar xalqining asosiy mashg‘uloti, yashash manbaidan biri hunarmandchilik hisoblangan. T.Nafasovning yozishicha, o‘tmishda shahar maqomiga erishish uchun, shaharda kamida 32 ta kasb-hunar turi bo‘lishi talab qilingan. Kasb-hunar nomi ikki xil vazifa bajargan: kasb va koshilik nomi hamda yashagan guzari, mahallasi, qishlog‘i nomi. O‘tmishdagi kasb-hunarlarining aksari yo‘q bo‘lib ketgan bo‘lsa ham, ammo ular geografik nomlar tarkibida hozirgacha, tarix dalili, madaniyat yodgorligi sifatida muhrlanib qolgan.

Shahar va shaharchalardagi mahalla, ko‘cha, guzar, xiyobon, bozor kabi geografik ob‘ektlarni hunar-kasb nomlari bilan atash Sharqning qadimiy qadriyatlaridan biri hisoblangan. Masalan, Dushanbe shahrining bir qismi *Shishaxona* deb ataladi. Arxeologlar bu yerda karvonsaroy qoldiqlari, qadimgi lagan-piyola siniqlarini topishgan, demak bu yerda qadimda kulolchilik-chinnisozlik yaxshi rivojlangan. Ko‘pchilik shaharlarda shu kabi kasb-hunardan olingan nomlarni uchratish mumkin. Bu ko‘hna qadriyat zamonaviy qadriyatga aylansa, xalq madaniyati va ma‘rifati madaniy yodgorlik maqomiga erishgan bo‘lar edi.

Jumladan, O‘zbekistonning turli mintaqalaridagi *Pichoqchi, O‘qchi, Sandiqchi, Temirchi, Mahsido‘z, Parchabof, Misgaron, Naqqoshon, Taqachi, Degrez, Zargarlik, Qassoblik, Sovungarlik* deb, atalgan joy nomlari mahalliy xalqning kasb-hunarlaridan darak beradi. Masalan, *Ohangaron* shahrini nomi temirchilar degan ma‘noni beradi va toponim aholining o‘tmishdagi kasb-koriga ishoradir. Xuddi shu kabi Samarqand shahridagi *So‘zangaron* mahallasi aholining asosiy mashg‘uloti igna, juvaldiz, bigiz kabi mahsulotlar tayyorlash bo‘lgan.

*Egarchi* deb nomlangan mahalla aholisining ota-bobolari ot-ulov ustiga uriladigan va minib yurish uchun moslangan abzal – egar tayyor-

lash ish bilan mas'ul bo'lganlar. Egarlar katta-kichikligi, naqsh bezalari, somushyo turlarishi bilan bir-biridan farq qilgan. Egar asosan qayrag'och, yong'och, tut, o'rik, chinor kabi yog'ochi qattiq daraxtlardan yasalgan. Egarlarni xuridorgir bo'lishi uchun unga turli naqshlar ham chiqdigan. Egarchilik hunari avloddan-avlodga o'tgan.

Hozir O'zbekistonda uch yuzdan ortiq kash-kor turi mavjud. Yangi paydo bo'layotgan kash-hunar turlari ham ko'p va ular ham joy nomlarot bo'lmishi tabiiy. Kash-hunar bilan bog'liq holda paydo bo'lgan geografiya nomlar o'ziga va ayniqsa kichik (mikro) toponimlar orasida ko'p uchraydi. Respublika joy nomlariga nazar tashlab, boshqa kash-hunarlardan qatorida kadobchilik ham ancha rivojlanganligini aniqlash mumkin. *Kadobchi, Kadobchi, Kadoblik, Tundirchi, Kosagaron, Tavoqchi* kabi qadimgi va mahalla nomlari hozirga yuqori misoldir. Joy nomlari tarkibida to'quvchilik kashiga aloqador qator geografik nomlar uchraydi va ular to'quvchilik kashi tarixi ancha qadimgi davrlarga borib taqabildan dalolat beradi. *Baxmalbof, G'ulambof, Buyrabof, Parchabof* kabi aholi punktlari nomlarida mahalliy xalqni to'quvchilik kashining «iz»-lari saqlanib qolgan.

Tikuvchilik kashi ham xalqimiz orasida keng tarqalgan sohalardan biri bo'lgan. Uning *yo'rmado'z, mahsido'z, etikdo'z, toqido'z, kashtado'z* kabi ayrim tarmoqlarining nomlari joy nomlariga o'tgan. Masalan, Marg'ilon shahar mahallalaridan birining nomi *Yo'rmado'z*. *Yo'rma* kashtachilikda keng qo'llaniladigan chok turlaridan biri, mahalla ahli o'tmishda shu ish bilan shug'ullangan. Buxoro shahrida *Mahsido'zon*, Chust shahrida *Do'zanda*, Samarqand shahridagi *Zardo'zon* kabi mahalla nomlari ham kishilarni kash-koriga nisbat berib atalgan. Teri oshlab undan charm tayyorlash bilan shug'ullanuvchi kash egalari *ko'nchi* nomini olgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent kabi shaharlarda, Farg'ona vodiysida, Xorazmda ko'nchilik do'konlari ko'p bo'lgan. Ularda qo'y, echki, qoramol, tuya terilaridan turli navlardagi ko'n tayyorlangan. Toshkent shahridagi *Ko'nchilar*, Marg'ilon shahridagi *Ko'nchilik*, Chust shahridagi *Charmgaron*, Samarqand shahridagi *Charmgar* mahallalariga shu kash nomi asos bo'lgan.

Bundan tashqari respublika toponimiyasi tarkibida *Ko'mirchi, Nosgar, Sangtarosh, Buyrachi, Ohakchi, O'roqchi, Somsapaz, Egarchi, Toshkesar, Karnaychi* va yana yuzlab toponimlarda mahalliy xalqning o'tmishda shug'ullanib kelgan turli kash-hunarlari o'z aksini topgan. Xalqning kundalik ehtiyoji uchun zarur bo'lgan, turli xil mahsulotlarni



ishlab chiqaradigan qurilmalar asosida ham joy nomlari paydo bo'lgan. Mazkur qurilmalar nomlari keyinchalik aholi punkti nomlariga o'tgan, bunga *Objuvoz, Tegirmonboshi, Sariosiyo, Galaosiyo, Qo'shtegirmon, Tagiosiyo, Tegirmonovul, Qo'shjuvoz* kabi toponimlar misol bo'ladi.

Geografik nomlar tarixiy geografiya uchun ham qimmatli ilmiy manba hisoblanadi. Masalan, *Aravakashlar, Aravachilar, Asalchi, Astarhof, Attoron, Ayoqchi*, (idish-tovoq ustasi) *Ayoqchiovul, Baydoqchi*, («bayroqchi») *Baqirchi*, («misgar») *Baliqchi, Baliqchilar, Baliqchima-halla, Baxmalhof, Baxshilar, Baxshiyon, Baxshitepa, Bofandalar*, («to'quvchilar») *Bo'lamiqchi* («atala – bo'lamiq sotuvchilar»), *Binokor, Bichoqchi*, («pichoq ustasi» – bir qancha turkiy tillarda pichoqni bichoq deyishadi. Aslida ham shunday, ya'ni bichoq so'zi bichmoq fe'lidan kelib chiqqan), *Bo'zachi, Bo'zchi, Bo'yrabof, Bo'yrabofchi, Bo'yrachi, Bo'yoqchi, Vaximkor* (vaqfkor, vaqf erlarda ishlaydigan dehqon), *Gilambhof, Go'spandjallob* (qo'y olib sotuvchi savdogar), *Dabhoqi* (kunchi), *Dastorbhof* (salla to'quvchi), *Dorigar* (dori-darmonlar tayyorlovchi mutaxassis), *Devorzan* (paxsachi), *Degrez, Dugdo'z, Dukchi, Dukchilar, Dukchilik, Jevachi* (sovutchi), *Zargar, Zargarlar, Zargaron, Kamongaron* (o'q-yoy ustalari) *Konchilar, Kirakashxona, Karvonboshi, Karvonguzar, Karnaychi, Kosagar* (kosa ustasi) *Kosagaron, Ketmonchi, Kigizchilik, Kulol, Kuloh, Kulolon, Kuloltepa, Kundakor* (kunda ustasi), *Ko'nchi, Mokusozon*, (moki ustasi), *Mergan, Merganlar, Mergancha, Miltiqchi, Mirob, Mirolar, Mixchagar* (mix yasovchi usta) *Mixchagaron, Mo'zado'zon* (etikdo'zlar), *Murdashuy, Navkar, Nag'orachi, Naqqosh, Nalbandon* (taqachilar) *Namadgaron* (kiygiz ustalari) *Nonvoyon* (nonvoylar), *Nosfurush, Olachabof* (olacha to'quvchi), *Podachi, Polizchi, Paxtakash, Paxtachi, Pillakor, Pillakash, Pichoqchi, Po'latchi, Po'stindo'z, Sobungaron, Sovungar, Saqachi* (kanalning bosh inshooti ustasi), *Salloq* (mol so'yib terisini shilib oladigan qassob), *Sartarosh, Somsapaz, Tandirchi, Tanobchi, Taqachi, Toqado'z* (do'ppi tikuvchi), *Temirchi, Tirgaron* (o'q-yoy ustalari), *Harrotlar* (taroqchilar), *Charmgar* (ko'nchi), *Chitgaron* (chitga gul bosuvchilar), *Egarchi, O'qchi, O'roqchi, Qamchinhof, Qamishchi, Qassoblar, Qassobon, Qiymado'z* (qiyqimlardan quroq buyumlar tikuvchi), *Qutisozon* (sandiqchilar) kabi geografik nomlar ma'lum hududda yashovchi xalqning xo'jalik faoliyati hamda ularning hududiy mehnat taqsimotida tutgan o'rini aniqlashda katta yordam beradi.

Hunar-kash bilan bog'liq geografik nomlar har qanday mintaqada toponimiyasining muhim va ajralmas qismi sanaladi. Hozirda ayrim

baʼzi hujjatlarini yoʻqolgan yoki ularni ifodalovchi soʻzlar jonli muomaladan chiqib ketgan boʻlishi mumkin. Shu sababdan, tushunarsiz boʻlib qolgan bunday geografik nomlar tarixiylik nuqtai-nazardan alohida tadqiq qilinishi lozim.

**Agrocentrlar.** Qishloq xoʻjalik ishlab chiqarishi eng qadimiy tarixiy muomaladan biri hisoblanadi. Shu sababdan, geografik nomlar tarkibida qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishi bilan bogʻliq joy nomlari koʻp uchraydi. Hozir Oʻzbekiston toponimiyasi misolida ham yaqqol koʻrish mumkin. Dengiz, daryo, koʻl, buloq va boshqa yer osti va yer usti suv manbalariq tutash va yondosh hududlar azal-azaldan aholining dehqonchilik qiladigan sarhaddari boʻlganligi aniq.

Suvli sugʻorishga moʻljallangan dehqonchilik uchun, daryolardan kanal va ariqlar chiqarib hamda davriy suvlardan oqilona foydalanish maqsadida band va toʻgʻonlar qurib qadimda dehqonchilik va chorvachilik bilan shugʻullangan aholining qishloq xoʻjalikka oid kasb-kori joy nomlarida oʻz aksini topgan. Qishloq, mahalla nomlarida qadimiy dehqonchilik madaniyatini isbotlovchi maxsus soʻz – atamalar mavjud. Bu qatorga band, dargʻat, vargʻ kabi suv taqsimlovchi gidrotexnik inshootlarni belgilovchi terminlarni kiritish mumkin.

Soy va daryolarda quriladigan toʻgʻon, togʻ daralariga qurilgan qadimiy gidrotexnik inshoot band deyilgan. Masalan, Jizzax viloyati Forish tumanida Xonbandi nomli gidrotexnik inshoot mavjud. Nurota togʻlaridan oqib chiqadigan Osmonsoy va Ilonchisoyning suvlarini toʻplab yozda qishloq xoʻjalik ekinlarini sugʻorish maqsadida X asrda suv ombori qurilgan, uning toʻgʻoni granit toshlar va suvga chidamli maxsus qotishmalardan ishlangan. Suv sigʻimi 1,6 mln metr kubga teng boʻlgan. Xonbandi suv ombori tufayli Qizilqumning Mirzachoʻl bilan tutashgan chegarasida 1500 ga. yer maydoni oʻzlashtirilgan. Suv ombor yaqinida mustahkam rabot qad koʻtargan. Arxeologik qidiruvlar bu kichik voha X asrda obod etilib, XVII asrning oxirilarigacha hayot davom etganini aniqlagan. Mutaxassislarning fikricha, mazkur toʻgʻon inshooti Oʻrta Osiyo – koʻhna Turon xalqlari bunyod etgan sugʻorish inshootlari orasida eng qadimgisi hisoblanadi.

Bunday toponimlarning paydo boʻlishi koʻpincha hududning tabiiy sharoiti bilan ham bogʻliq, dehqonchilikning qaysi turini rivojlantirish uchun yaxshi imkoniyat boʻlsa u joy nomiga asos boʻlgan, yaʼni paxta yetishtirish uchun qulay sharoit boʻlgan joylarda *Paxtakor*, *Paxtachi*, *Paxtazor*, gʻalla yaxshi hosil beradigan hududlarda *Gʻallakor*, *Bugʻdoy*

*chi, G'allaorol, Lalmikor, Sholikor* kabi geografik nomlar shu yo'sinda paydo bo'lgan. Masalan, tuman va shahar nomi bo'lgan *Paxtakor* so'zi – paxta – g'o'za o'simligining chigitda hosil bo'ladigan tolalardan tashkil topgan oppoq yumshoq mahsuli, momiq, «kor» – biror maqsadda qilinadigan faoliyat, harakat, ish.

G'o'za ekish, paxta yetishtirish bilan shug'ullanuvchi dehqon – paxtakor deyiladi. O'zbekiston miqyosida paxta asosiy qishloq xo'jaligi ekinini hisoblanadi, shu sababdan paxta so'zi asosida shakllangan joy nomlari respublika toponimiyasi tarkibida tez-tez uchrab turadi. *Paxtakor, Paxtachi, Paxtazor, Paxtali, Oltinqo'l, Oqoltin, Paxtaobod* kabi aholi punktlari nomlari bevosita paxtachilik kasbida erishgan yutuqlarning natijasi sifatida tarix sahifalaridan joy olgan nomlar sirasiga kiradi.

Boshqali ekinlar ham qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, lalmi yerlarda g'alla ekuvchi va hosil yetishtiruvchi dehqonlar sha'niga XX asming o'ttizinchi yillaridan keyin *G'allakor, G'allaorol, G'allachi, Bug'doychi* kabi geografik nomlar respublika hududida ancha ko'paydi. Masalan, G'allaorol so'zining geografik nom sifatida paydo bo'lishi tarixi uncha uzoq emas. 1930 yilning kuzida o'sha davrdagi respublika rahbarlaridan biri (Y.Oxunboboev) *Yangiqo'rg'on* (G'allaorol tumaning avvalgi nomi) tumanida bo'lib, tumanning lalmikor yerlarini haqiqiy g'alla oroliga aylantirish maqsadida, g'alla yetishtirishga bag'ishlangan yig'ilishda qatnashib nutq so'zlagan. «Men, tumaningizning lalmi yerlari bilan tanishdim, bu yerlar rizq-ro'zimiz hisoblangan g'allaga kon bo'ladigan joy ekan. Shunday ekan, tumaningiz nomi ham *G'allaorol* bo'lsin» degan fikrini bayon qilgan. Shu voqeadan so'ng ko'p o'tmasdan 1931 yili tuman nomi G'allaorol deh o'zgartirilgan.

Er osti suvlarning tabiiy holda yer yuzasiga chiqishi ham dehqonchilik va chorvachilikni rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Buloq, quduq so'zli toponimlarning paydo bo'lishida chorvadorlarning ham hissasi katta. Boshqacha aytganda, geografik nomlarning turidan darak beruvchi indikator so'zlarga qarab mintaqada ixtisoslashgan qishloq xo'jalik tarmoqlarini payqash qiyin emas. Chunonchi, cho'l hududlarida oqar suvlarning yo'qligi, ammo yaylovlar va yer osti suvlarining mavjudligi chorvachilikni rivojlantirish imkonini bergan.

Chorva mollari uchun asosiy ozuqa manbai bo'lgan o'simlik turlari hamda cho'llarda asosiy gidronimik ob'ekti bo'lgan quduqlar nom tan-

hudda darak beruvchi vazifasini bajargan. Masalan, *Yantoqli, Jusandi, Betagall* kabi toponimlar ushbu hududlarda chorva mollari uchun oziq-ovqat o'simliklarni qaysi bir turini ko'pligidan darak bersa, ular orqali chorvachilikni qaysi turini rivojlantirishga qulay imkoniyatlar mavjudligini aniqlashi mumkin.

Ohangboq so'zlik madaniyati bilan bog'liq bo'lgan geografik nomlar tarkibida *daha, maydon, bog', dushu, qo'riq, bo'z, marza, ariq, quduq* kabi so'zlar toponimlik termindur sifatida faol qatnashgan. *Chunonchi, Bog'zon, Bog'bon, Bog'iston, Bog'obod, Bog'ot* kabi toponimlar xalqning bog'dorchilik madaniyati bilan bog'liq tarzda yuzaga kelgan. Agronimlarning muhim xususiyatlaridan biri ularning o'zgaruvchan xarakterga ega bo'lishidir. Hudda, agronimlar boshqa toponimlarga nisbatan oson o'zgaradi yoki o'zgartirilishi mumkin. Ularga hududiylik xususiyati xos, chunki bunday nomlar chegaralangan kishilar nutqida qo'llaniladi.

Agronimlarning «yashash» davri nisbatan qisqa bo'lganligi bois ma'no-mazmunini aniqlash qiyin emas. Joy nomlari aniq bir tarixiy sharoitda paydo bo'lganligi sababli tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar ularga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Shu bois, jamiyat hayotida asrlar davomida ro'y bergan tarixiy, ijtimoiy va siyosiy hodisa-voqealar ham nomlarda o'z aksini topgan.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. *Moddiy ishlab chiqarishi tarmoqlari bilan bog'liq bo'lgan toponimlar qanday fazilatlarga ega?*
2. *Xalq hunarmandchiligi bilan bog'liq toponimlar haqida ma'lumot bering.*
3. *Agronimlar boshqa moddiy ishlab chiqarishi tarmoqlari bilan bog'liq bo'lgan toponimlardan qanday farq qiladi?*

#### **Test topshiriqlari**

**1. Foydali qazilmalar bilan bog'liq toponimlar qatorini belgilang.**

- A. Zargarlik, Ohangaron, So'zangaron
- B. Ko'mirchi, Ohakchi, Toshkesar
- C. Pichoqchi, O'qchi, Sandiqchi
- D. Kumushkon, Ko'hisim, Tuzkon

2. Taniqli toponimist olim T.Nafasovning yozishicha, o'tmishda shahar maqomiga erishish uchun, shaharda kamida ... ta kasbhunar turi bo'lishi talab qilingan.

- A. 12 ta
- B. 22 ta
- C. 32 ta
- D. 42 ta

3. Afrikaning Shimoliy-sharqiy qismida joylashgan Nubiya cho'li nomining asosini tashkil etadigan *nuba* so'zi qanday ma'noga ega?

- A. Tuz
- B. Suv
- C. Oltin
- D. Kumush

4. To'quvchilik kashiga aloqador bo'lgan joy nomini belgilang.

- A. Parchabof
- B. Yo'rmado'z
- C. Charmgar
- D. Mahsido'z

5. Agronimlarning muhim xususiyatlaridan biri bu ...

- A. O'zgaruvchan xarakterga egaligi
- B. Nisbatan oson o'zgarishi yoki o'zgartirilishi
- C. Chegaralangan kishilar nutqida qo'llanilishi
- D. Barcha javoblar to'g'ri

## 10.2. Savdo-transport va diniy e'tiqodlar bilan bog'liq toponimlar

### *Reja:*

1. *Savdo-transport va diniy e'tiqodlar bilan bog'liq toponimlar haqida umumiy ma'lumot.*

2. *Savdo va transport ob'ektlari asosida paydo bo'lgan nomlarning maqsad va vazifalari haqida.*

3. *Afsonaviy va diniy e'tiqodlar negizida shakllangan toponimlarning mazmun-mohiyati.*

**Mavzuning maqsadi:** Savdo-transport, afsonaviy va diniy e'tiqodlar bilan bog'liq toponimlar turlari, ularning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi haqida bilim va ko'nikmalarni hosil qilish.

**Tayanch ibora va atamalar:** Savdo-sotiq va nom, transport va toponim, afsonaviy nomlar, diniy nomlarning hududiy tarqalishi. xalqning ma'naviy dunyosi va nom.

**Savdo va transport bilan bog'liq toponimlar.** Har bir geografik nomning o'ziga xos «yuk»i bor, zero unda aniq ma'noga ega bo'lgan turlicha tarixiy, lisoniy, geografik ma'lumotlar mujassam, shu sababdan toponimga tarixiylik nuqtai nazardan to'g'ri yondoshib, uning hamma tarkibiy qismlari to'g'ri tahlil qilinsagina izoh ishonarli bo'ladi. Qadimgi yunon faylasufi Platonning ta'biri bilan aytganda, “kim nomning haqiqiy ma'nosini to'g'ri anglasa, u joyni ham yaxshi biladi”.

Savdo-sotiq va transport bilan bog'liq geografik nomlar turli davrlarda paydo bo'lgan, jamiyat hayotida, kishilar turmush tarzida sodir bo'lgan o'zgarishlar natijasida ularning soni ham ko'paygan. Xalqning iqtisodiy turmushida savdo-sotiq katta ahamiyatga ega bo'lgan. Savdo hududning rivojlanishiga, aholi turmush darajasining farovonligiga ham ta'sir o'tkazgan. Xususan, bozor sharqda qadimdan nafaqat savdo-sotiq joyi, balki kishilar uchun savdo munosabatlari o'rnatish, dam olish va yangiliklardan xabardor bo'lish maskani ham hisoblangan. Shu sababdan, bir qator geografik nomlar tarkibida bozor belgilovchi so'z sifatida muhim ahamiyat kasb etgan.

Bozorlar oldi-sotdi, savdo – sotiq qilinadigan joy bo'lishi bilan birga shu hudud iqtisodiyotining ko'zguisi hamdir. Dastlab, savdo-sotiq qilinadigan joylar – bozor va rastalar ko'pincha ma'lum bir mahsulotni sotishga ixtisoslashgan va shu mahsulot nomi bilan atalgan. *Bedabozor, Egarbozor, Yog'bozor, Xodabozor, Somonbozor, Unbozor, Guruchbozor, Tovuqbozor, Buyrabozor, Tustabozor* kabi toponimlar shu yo'sinda vujudga kelgan. Toshkent shahar mikrotoponimiyasini o'rgangan Sh.Qodirovaning ma'lumotlariga qaraganda, XIX asr oxirlarida Toshkentda bozor va rastalar soni 1500 taga yetgan. Shaharda rasmiy bozor va rastalardan tashqari, turli kasb egalari yashaydigan mahalla, ko'cha, guzarlarda ham oldi-sotdi avjida bo'lgan. Ko'pincha rastalar bilan hunarmandchilik ustaxonalarini farq qilib bo'lmagan. Hunarmandlar turli mahsulotlar tayyorlab shu joyning o'zida sotishgan. Ba'zan, bozor bo'ladigan kunga qarab aholi punktlariga nom ham berishgan. Masalan, *Chorshanba* (Shahrisabz), *Payshanba* (Qattaqo'rg'on), *Juma* (G'allaorol), *Jumabozor* (Qorako'l) deb atalgan aholi manzilgohlarida haftaning shu kuni bozor bo'lgan. Tojikiston poytaxti *Dushanbe* shaharining nomi ham, shu yo'sinda paydo bo'lgan nomlar sirasiga kiradi.

Transport har qanday jamiyatning rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblangan. Shu sababdan, qadimda aholi manzilgohlari ko'pincha transport chorrahalari atrofida paydo bo'lgan. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, Sahroi Kabirda ham karvon yo'llari tutashgan hududlarda savdo-sotiq yaxshi rivojlangan. XV asrda Air davlatining tuareglar sultoni yangi shaharga asos solib, uni Agades- «yo'lovchilar uchrashadigan joy» (hozirgi Niger davlati hududida) deb nomlagan. Transport bilan bog'liq toponimlar ancha qadimiyligi bilan ajralib turadi, chunki yo'l doimo harakat timsoli hisoblangan.

H.Hasanov «joy nomlariga qarab qadimiy savdo yo'llari, etnik guruhlarning tarqalish areali, qal'a va manzillarning o'rinlari, suv va dovonlarning xosiyatlari, foydali qazilmalar, cho'llarda quduqlar bor-yo'qligi, joyning iqlimiy xususiyatlari, hunar-kasb turlari, tarixiy voqealar va boshqa xil ma'lumotlarni bilib olish mumkin, bularning hammasi xalq xo'jaligi, madaniyatimiz tarixi uchun juda muhimdir» deb ta'kidlagan.

Shunday ekan, geografik nomlarning ko'pgina fazilatlari qatoriga ular yordamida qadimiy karvon yo'llarini aniqlash imkoni borligini ham kiritish mumkin. Masalan, Jizzax viloyati toponimiyasi tarkibida qadimiy karvon yo'llari bilan bog'liq ayrim geografik nomlar hozirgacha saqlanib qolgan. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, Jizzaxning qulay geografik o'rni O'rta asrlarda *Mo'g'uliston, Xitoy, Sharqiy Turkistonni Bag'dod, Hamadon, Nishopur, Marv, Buxoro, Samarqand, Shosh, Taroz* bilan bog'laydigan karvon yo'llarining ushbu hududdan o'tishida muhim ahamiyat kasb etgan. Shu sababdan, viloyat toponimiyasi tarkibida bevosita karvon yo'llari bilan bog'liq joy nomlari ko'p va ular qatoriga *Xayrobod, Ravot, Yom, Sardoba, Savot, Sarbozor, Ko'hnabozor, Bozorjoy, Qarovultepa, Jo'langar* kahi aholi punktlari nomlarini kiritish mumkin. Qadimiy karvon yo'llaridan darak beruvchi hunday toponimlar hozirgacha asl holida yoki qisman o'zgarishlar bilan saqlanib qolgan.

Masalaga oydinlik kiritish uchun, qadimiy karvon yo'llarida joylashgan ayrim oykonimlarni sharhlash maqsadga muvofiq. Ana shunday qadimiy karvon yo'llari bilan bevosita bog'liq bo'lgan, aholi punktlaridan biri hozirgi Jizzax viloyati hududidagi *Savot* qishlog'idir. Akademik *A.R.Muhammadjonov* aholi punkti nomi haqida shunday yozadi: – Ustrushonaning Sebat rustoqidan Buyuk Ipak yo'li uch tarmoqqa (*Shosh, Farg'ona, Ustrushona*) bo'linib ketgan. Ushbu yo'nalishlarning har birida hittadan rabot – karvonsaroylar mavjud bo'lgan va

*Sebat* (se – uch, bat – rabotning qisqargan shakli) uch rabot ma'nosini bildiradi. O'rtta asr arab geograflari *Muqaddasiy, Ibn Havqal, Istaxriy* asarlarida ko'ra qolliq to'g'risida ma'lumotlar mavjud va uni katta karvon yo'li sifatida joylashganligi ta'kidlangan. *Ibn Havqal* ma'lumotlariga ko'ra, qolliq geografiya o'rtida qolliq bo'lgan *Sebatda* o'rtta asrlarda *Uzbekistandagi* yopiq mashhur yopiq bozor (tim) ham joylashgan.

Kayinchi yillarda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida hozirgi davr bozorining oldindiy shaklidan *Mirzacho'l* orqali karvon yo'llari o'tganligi va shuni o'z ichiga o'z ichiga o'z ichiga yopiq joylarda ravot-karvonsaroylar, sardobalar qurilganligi ta'kid qilinagan. *Xorazm* va *Buxorodan* kelib *Shahar* va *Uzoq* nomli tomon boradigan karvonlar uchun eng qisqa yo'l, Uzoqbozorning oldindiy shakllari bilan *Nurota* tog'larining *Shimoliy* tomonidan o'tadigan, yo'l bo'lagi *Forish* tumani hududidan o'tadigan karvon yo'li bo'lgan. *Mirzacho'l* orqali o'tadigan bu karvon yo'li nihoyatda qisqa, suvi bo'lgan qolliq, yo'li qisqa bo'lganligi tufayli o'rtta asrlarda uning samarali bo'lganligi ta'kidlangan.

Forish tumanida yozilishicha, hozirgi *Forish* tumani hududida karvonsaroy va sardoba qurilgan, ular *Mirzacho'l* orqali harakat qiladigan karvonlar uchun dan olib, suv va oziq-ovqat g'amlash imkonini bergan. Karvon yo'li *Chinqo'rg'onda* ikkiga bo'lingan, biri *Sangzor (Qili)* dar-yisi yoqalab janubi-sharqqa *Jizzaxga*, ikkinchisi shimoli-sharqqa qarab *Toshkentga* boragan. *Mirzacho'l* orqali *Toshkentga* boradigan bu karvon yo'li bir necha sardobalar qurilgan. *Ayrim sardobalar* buzilib ketgan, sardobalar qolgan. Ulardan faqat bittasi hozirgi *Sirdaryo viloyatining Sardoba* tumani hududida saqlanib qolgan.

*Sardoba* – suvi kam joylarda suvning ko'p bug'lanib ketishiga va ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik uchun g'ishtdan maxsus qurilgan gidro-teknik inshoot. Sardobalar ko'pincha qadimiy karvon yo'llarida qurilgan. Usti gumbazsimon qilib yopilgan, tagiga tosh terilgan, o'rtasida suv yerga shimilib ketasligi uchun ba'zilarini tagiga g'isht yotqizilgan hovuzi bo'lgan. Sardoba gumbazida uch tomondan ventilyatsiya darchasi, yomg'ir suvini to'plash uchun ustida mo'risi va suvdan foydalanish uchun odam kirib chiqadigan eshigi bo'lgan. Sardobalarning suvi tiniq va chuchuk bo'lib, uzoq muddat ichishga yaroqli bo'lgan. *M.E. Masson* ba'zi bir sardobalarning suvi uch yilgacha ichishga yaroqli bo'lganligini aytadi. Sardoba so'zi fors-tojik tilida sard – “sovuq, muzdek”, ob – “suv” ma'nosini bildiradi.

Respublika toponimiyasi tarkibidagi *Sarbozor, Bozorjoy, Ko'hna-bozor, Yangibozor, Bozortepa* kabi geografik nomlar ham bevosita



karvon yo'llarida tashkil etilgan karvon savdosi, bozorlar bilan bog'liq. Masalan, Forish tumanida Ko'hnabozor nomli qishloq bor. H.Haydarovning yozishicha, o'rta asrlarda hozirgi qishloq hududida katta bozor bo'lgan, unda chorva va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari ko'tarasiga sotilgan hamda qo'shni mamlakatlardagi narx-navoni bilish mumkin bo'lgan.

Bozorga qo'shni mamlakatlardan ham (Afg'oniston, Xitoy, Eron) savdogarlar kelib turgan. Savdo-sotiq bilan bog'liq geografik nomlar boshqa mamlakatlar toponimiyasi tarkibida ham uchraydi. Bir qator Sharqiy Yevropa davlatlari toponimiyasida slavyan tillariga xos *torg*, *torjok* – «bozor» ma'nosidagi so'z asosida *Torjok* (Rossiya), *Tirgovishte* (Bolgariya), *Novi-Targ* (Polsha) kabi toponimlar mavjud. *Torgau* (Germaniya), *Turku* (Finlyandiya), *Tirgu-Muresh*, *Tirgu-Megurele*, (Ruminiya), *Kapreshi-Tirg* (Moldova), *Trgovishte* (Slovakiya) kabi toponimlarda ham bozor so'zi asos vazifasini bajargan.

Osiyo mamlakatlari hududida ham tarkibida bozor so'zi bo'lgan nomlar ko'p. Bozormahalla, Pirbozor (Eron), Bozorturk, Xitoybozor (Qirg'iziston), Bozorchay, Armanibozor (Ozarboyjon), Islombozor (Xitoy) va hokazo. Ba'zan, bu turdagi nomlar Yevropaga dunyoning boshqa mintaqalaridan kiritilgan. Masalan, Bolgariya hamda Serbiyadagi *Pazardjik* va *Novi-Pazar* kabi shaharlar nomlarining paydo bo'lishi usmoniy turklarning ushbu hududlarni bosib olishi bilan bog'liq. Har bir davr ishlab chiqarish tarzi, xo'jalik faoliyati va boshqa siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy omillarga tayanib nomlar majmuini yaratadi va aynan joy nomlarida kishilik jamiyati taraqqiyotidagi davr ruhi, xalqning turmushi va madaniyati bilan bog'liq turli xil voqea-hodisalar muhrlanib qoladi.

*Afsonaviy va diniy e'tiqodlar bilan bog'liq toponimlar.* Har bir davrni, ijtimoiy tuzumni o'ziga xos nomlash tamoyillari va talablari bo'lganligini ko'pchilik biladi. Shu sababdan, har qanday geografik nomni ijtimoiy ehtiyoj mahsuli sifatida qabul qilib, uning ma'lum tarixiy davrda, aniq bir hududda paydo bo'lganligini tushunish qiyin emas. Joy nomi xalq xotirasida, rasmiy hujjatlarda, kartalarda hamda turli yozma manbalarda yashaydi. Mutaxassislar, nomning bag'rida yashiringan tarixni, ma'naviyatni ochib berish uchun nomlanishga asos bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, lisoniy omillarni o'sha davr voqealigi bilan birga taqqoslab o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblashadi.

Inson faoliyatining mahsuli bo'lgan har qanday joy nomi o'tmish voqeligi hisoblanishi bilan birga, u aniq manzilni belgilaydi va muayyan

mafkuraviy maqsadlarga ham xizmat qiladi. Aniqroq qilib aytganda, har bir davr, tuzum o'z g'oya va mafkurasiga tayangan holda joy nomlari majmuasini yaratadi. Masalan, diniy g'oyalarning targ'ibotchilari davr mafkurasini va ma'naviyatiga tayangan holda toponimikani ham o'z maqsadlar yo'lida foydalanishga va ular yordamida e'tiqod qiluvchilarning patsidologiyani, daryoqarishi va diniy hissiyotlariga ta'sir o'tkazishga harakat qilishgan.

Mesopotamiyadagi ta'kidlashicha, nasroniy va huddizm dinlariga e'tiqod qiluvchi umudaladlar toponimiyasida diniy toponimlarning salmoqli orolga boradi. Xususan, katolikizm hukmron bo'lgan davlatlar toponimiyasida faqat yiladan tashqari dillarga daxldor bo'lgan diniy toponimlar ko'proq uchraydi mumkin. Masalan, B.M.Murzaevning yozishicha, «Xorijiy umudaladlar geografiya nomlari lug'atida» (M.H.Yuldasheva va boshq. M., 1978, b.297-304 va 311-312) tarkibida *buqat, vob, vob, vanki, vanki, ven, vent*, ya'ni «muqaddas» qo'shimchalar bilan yasalgan toponimlar uchun 16 qator joy ajratilgan.

Ispaniya, Portugaliya, Gollandiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlar tomonidan yangi yerlarni zabt etish maqsadida tashkil etilgan ekspeditsiyalar tarkibidagi nasroniy rahiblar tubjoy aholini cho'qintirib, diniy g'oyalarini sinchilash maqsadida, yangi harpo etilgan aholi punktlariga kristian dinining aziz avliyolari nomlarini berishgan. Ular orasida geograflar tomonidan yasab chiqarilgan *San-Salvador, Santo-Domingo, San-Sava, San-Xose, Santyago, San-Frantsisko, Sent-Luis, San-Paulu* kabi shaharlarni ko'rsatib beriladi.

Hu to'xtatuv yana ham davom ettirish mumkin, agar orol, qo'ltiq, ko'l, daryo, tog' va boshqa geografik ob'ektlarning nomlari ham qo'shilgan ularning soni bir necha mingga tashkil etishi aniq. Masalan, *Muqaddas Lavrentiy, Muqaddas Yelena, Muqaddas Pavel, Muqaddas Ilya yoki Santa-Krus* (muqaddas salib), *Santa-Fe* (muqaddas e'tiqod) kabi diniy toponimlarni ham shular qatoriga kiritish mumkin. Markaziy Amerikada joylashgan Gvatemala davlati hududidagi Tikal vodiysining uontl unyyn indeyslari tilida – "arvohlar ovozi eshitiladigan joy" ma'nosini ifodalaydi.

Mesopotamiyadagi qadimgi davlat poytaxti bo'lgan Vavilon shahrining nomi «xudo darvozasi» degan ma'noga ega. Hindistondagi *Mumbai* (Bombey) va *Kalkutta* shaharlari induizm xudolari Mumbi va Kali (Siva xudosi)ning rafiqasi) sharafiga shunday atalgan. Ganga daryosining yirik irmog'i hisoblangan *Braxmaputra* so'zining ma'nosi

«Braxma xudosining o'g'li» demakdir. Budda diniga sig'inadigan mamlakatlar toponimiyasida ham o'xshash holatni kuzatish mumkin. Masalan, ana shunday diniy nomlar qatoriga Himolay tog'larida joylashgan, aholisi hozir ham Budda ahkomlariga qat'iy rioya qiladigan *Mustang* vodiysi nomini kiritish mumkin. Mutaxassislarning fikricha, vodiya nomiga asos bo'lgan smong-tan so'zi – «muqaddas, sajdagoh» ma'nosini beradi. Yer yuzidagi eng baland cho'qqi hisoblangan *Jomolungma* (8848 m.), nomi ham tibet tilida «muqaddas tog'», «ilohiy yer onasi» degan ma'nolarni ifoda etadi.

Mug'uliston toponimiyasini alohida tadqiq etgan rus olimi F.M.Murzaevning so'zlariga ko'ra, mahalliy xalq tog'lar nomiga ko'pincha bogdo – «muqaddas», «ilohiy» so'zini qo'shib talaffuz qilishgan. Masalan, *Bogdo-ull*, *Ixe-Bogdo uul*, *Baga-Bogdo uul*, *Tavan Bogdo uul*, *Gurvan-Bogdo uul* kabi oronimlar shu yo'sinda paydo bo'lgan. Bunga asosiy sabab, mo'g'ullar o'tmishda tog'larga sig'inishgan. Hattoki, oila a'zolari va chorvalariga tog'larni qarg'ishi tegishi mumkin deb, ular nomini begonalar oldida baland ovozda talaffuz qilishmagan.

Shunga o'xshash odat otashparastlikka e'tiqod qilgan qadimiy so'g'dlarda ham bo'lgan. So'g'dlar tog'larni buyuk mo'jiza sifatida ulug'lab, ularda ilohiy kuch bor, deb hisoblashgan va tog'ga chiqayotgan yo'lovchi tog' etagidan bir necha dona toshni olib, uning eng baland joyiga olib borib qalab qo'ygan. Tosh qalab qo'yilgan joylar so'g'd tilida «sug'ch» deb atalgan va ko'pincha helgi sifatida tog'ning eng baland nuqtasini yoki dovondan o'tadigan yo'lini ko'rsatib turgan.

Islom davlatlari toponimiyasida ham diniy e'tiqodlar bilan bog'liq toponimlarni ko'plab uchratish mumkin. Ularning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar ham turlicha. Bunday geografik nomlar qatoriga *Bog'dod* – (Olloh in'om etgan) Iroq poytaxti, *Ollohobod* – (Olloh–islom dinida butun mavjudotni yaratgan oliy kuch; xudoning nomi) – Hindustondagi yirik shahar, *Islomobod* – (islom shahri) Pokiston Islom Respublikasi poytaxti yoki dastlab *Tangritog'* (turkiy tilli xalqlarda Tangri bosh xudo hisoblangan), keyinchalik xitoylar uni *Tyanshan* (tyan-«tangri», shan-«tog'») deb o'zgartirgan toponimlarni kiritish mumkin.

Saudiya Arabistonda musulmonlarning muqaddas shaharlari *Makka* va *Madina* joylashgan. Islomda Makka shahrini *Umm ul-Quro* («shaharlar onasi»), Madinani esa, *Madinai Rasulolloh* («Olloh rasulining shahri»), yoki *Madinat un-Nabi* – «payg'ambar shahri» deb e'zozla-

shadi. Ma'lumki, arablar O'rta Osiyoga islom dinini olib kelishi bilan barcha diniy toponimlarning shakllanishida ham faol ishtirok etganlar. Diniy toponimlarning shakllanish tarixi aniq, ammo ularni geografik aloqalarga, jumladan aholi punktlari nomlariga aylanib qolish sabablari haliqacha kani o'rganilmagan.

O'rta Osiyo davlatlari toponimiyasi tarkibida mo'zor (arabcha-mo'jazot qildigan joy, qudunjo) so'zi topoformant vazifasini bajargan muqaddas o'zlar ko'proq uchraydi. Masalan, *So'fimo'zor, Qobilmo'zor, Mo'zori, Qoramo'zor, Qipmo'zor, Mo'zorqo'rg'on, Mo'zorboshi* kabi toponimlar shular qatoriga kiradi. Shu jumladan, Xivadagi me'moriy yodgorlik, Alp qonilarning shimoliy qismidagi shahar, Tojikistonda bir nechta qadimgi *Mo'zori Sharif* deb atiladi.

Uzoq davrlarning o'tishi bilan O'zbekiston toponimiyasi tarkibidagi diniy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan toponimlarning negizini tashkil qiluvchi so'zlar ancha qadim davrda mahalliy xalqlar tiliga o'zlashgan va ular bevosita arablarning Mo'vino'nnaturni ko'p asrlik istilosi bilan bog'liq. Ulmlar, diniy toponimlar orasida avliyolar, payg'ambarlar va barcha diniy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan nomlarning ko'pligini alohida qayd qilishgan. Buni Jizzax viloyati toponimiyasi misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, aziz-avliyolarni qadamjolari (*Sayidon, So'fajamushkent, So'fimo'zor, Parpiota*) muqaddas oy va hafta kunlari nomlari (*Ramazon, Juma*), antroponimlar (*Usmon, Haydar, Abdukarim, Umar*) aholi punktlari nomlari sifatida o'z aksini topgan.

Jizzax viloyatining G'allaorol tumanida *Avliyo* nomli oykonim bor. Avliyo so'zi arab tilida xudoga yaqin odam. Islom an'anasida avliyolar qaytdir bir ishi, xizmati yoki xislati tufayli Ollohga yaqin bo'lib qolgan, diolari mustajob, solib, qobil kamtar kishilardir. Qishloq nomi Sa'd ibn Abu Vaqqos ziyoratgohi bilan bevosita bog'liq. Og'a Burgutli-ning yozishicha, Sa'd ibn Abu Vaqqos arabistonlik sarkarda, hozirgi Avliyo qishlog'i yaqinida o'tgan bir jangda yaralangan, keyinchalik qoni to'kilgan joyda xonaqoh bunyod etilgan.

Geografik kartalarda o'sha joyga hech qanday aloqasi bo'lmagan nomlar ham uchraydi. Bunday nomlar kishilarning eshitgan ertak, hikoyalari, o'qigan kitoblari qahramonlari, afsonaviy mahluqlar nomlari bilan bog'liq holda vujudga keladi. Bunday nomlarga O'sh shahridagi *Taxti Sulaymon*, Toshkentdagi *Kaykovus arig'i*, Shri-Lankadagi *Odumota tog'i*, Uraldagi *Shaytonmakon*, Sirdaryodagi *Farhod qoyasi*, Xorazmdagi *Duldulotlagan*, Ohangarondagi *Ali qoyasi* misol bo'ladi.

Bu turdagi toponimlar **kishilarni** xayoliy to'qimasi bo'lib, real voqelikni aks etmasa ham, joy nomi sifatida saqlanib qolgan.

H.Hasanovning yozishicha, afsonaviy nomlar orasida xayoliy va faraziy nomlar, ya'ni biror voqea yoki mish-mish gaplar sababli bor deb taxmin qilingan, aslida mutlaqo bo'lmagan joylarning nomlari ham uchrah turadi: *Sannikov Yeri, Ko'hi Qof, Ya'juj-Ma'juj yeri* ana shunday nomlardir. Hindistonni Shri-Lanka orolidan ajratadigan *Polk* bo'g'ozida marjon riflari tashkil topgan orollar mavjud. Mahalliy musulmon va xristianlarning e'tiqodiga binoan, *Odamota* jannatdan quvilgandan keyin dastlab Shri-Lanka oroliga qadam qo'ygan va marjon qoyalardan tashkil topgan orollar orqali materikka o'tgan. Zahiriddin Muhammad Bobur Markaziy Farg'onadagi qumli cho'l haqida bir rivoyatni keltirgan. Bir necha darvesh qumli cho'lida ketayotgan ekan, birdan qumli bo'ron (tund yel) ko'tarilib, darveshlar bir-birini topolmay, «ho darvesh», «ho darvesh» deya halok bo'luhturlar, andin **beri** bu bodiyani (cho'lni) *Hodarvesh* derlar.

Bunday xildagi rivoyat va afsonalarni ko'plab qishloqlar to'g'risida ham eshitish mumkin. Masalan, T.Nafasov yozishicha, Qashqadaryo viloyatida bir necha *Achamayli* nomli qishloqlar bor. Xalq rivoyatining qisqacha talqiniga ko'ra, Jillisuv daryosi toshgan. Navro'z bayrami kunida voyaga yetgan qiz onasi bilan daryodan o'tolmay turgan. Otliq yigit kelib ona-qizni daryodan o'tkazib qo'ygan. Qizni otga mindirib o'tkazayotganda daryo o'rtasida otni to'xtatib, menga tegsang, o'tkazib qo'yaman, bo'lmasa, suvga sho'ng'itaman degan. Qiz onasiga ocha, ocha deb qichqirgan. Onasi tushunmasa ham, mayli, mayli degan. Daryodan sog'-salomat o'tib to'y qilishgan, manzil qurishgan. Qishloqni odamlar Achamayli deb atashgan. Bu oddiy xalq tomonidan to'qilgan rivoyat. Aslida, achamayli – o'zbek xalqi tarkibiga singib ketgan etnik guruh nomi. Kenagas va mang'it qabilalari tarkibida achamayli urug'i bo'lgan.

Afsonaviy va diniy e'tiqodlar bilan bog'liq nomlar o'tmishda son jihatdan ancha ko'p bo'lgan, har bir davr va tuzum o'z mafkurasi va ma'naviyatiga asoslanib turli maqsadlarda afsonaviy va diniy e'tiqodlar bilan bog'liq toponimlar majmuasini yaratgan. Bunday nomlar xalqning ma'naviy dunyosining in'ikosi hisoblanadi. Ularni o'rganish va ilmiy jihatdan to'g'ri talqin qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Savdo va transport ob'ektlari bilan bog'liq toponimlarning paydo bo'lish sabablari haqida ma'lumot bering.
2. Hudda dini ta'limoti negizida paydo bo'lgan nomlarni izohlang.
3. Afsona va rivoyatlar asos bo'lgan nomlarni mazmun-mohiyati nuqtidan iborat.

### **Test topshiriqlari**

1. Dushanbu, Chorshanba, Payshanba, Juma ... kabi toponimlarning paydo bo'lishiga asosiy sababi nima?
  - A. Rivoyat va afsonalar asosida paydo bo'lgan nomlar
  - B. Diniy e'tiqodlar bilan bog'liq nomlar
  - C. Hattani shu kunda paydo bo'lgan nomlar
  - D. Bazar bo'ladigan kunga qarab berilgan nomlar
2. O'zbekiston toponimiyasi tarkibidagi islom dinni bilan bog'liq bo'lgan geografik nomlar qachon paydo bo'lgan?
  - A. O'rta Osiyoga islom dinini olib kelishi bilan
  - B. Arablarni Movarounnahri zabt etishi bilan
  - C. Islomni hukmron dinga aylanishi bilan
  - D. Barcha javoblar to'g'ri
3. Qanday nuqadlarni ko'zlab nasroniy rohiblar geografik ob'ektlarga xristian dinining uzir-uvliyolari nomlarini berishgan?
  - A. Diniy g'oyalarni umumlashtirilish uchun
  - B. Tuljoy ahadini cho'qutirish niyatida
  - C. Xatirani dindni targ'ib qilish maqsadida
  - D. Harcha javoblar to'g'ri
4. Ohangarondagi All qoyasi, O'sh shahridagi Taxti Sulaymon, SHel-Lankadagi Odamoto tog'i kabi toponimlar nomlarning qaysi turiga mansub?
  - A. Diniy e'tiqodlar bilan bog'liq nomlar
  - B. Afsonaviy nomlar
  - C. Xayoliy yoki faraziy nomlar
  - D. Rivoyat nomlar
5. Qadimdan savdo-sotiq joyi bo'lgan bozor Sharqda yana qanday vazifalarni hajargan?
  - A. Savdo munosabatlari o'rnatish joyi
  - B. Dam olish joyi vazifasini bajargan
  - C. Yangiliklardan xabardor bo'lish maskani
  - D. Barcha javoblar to'g'ri

### III bob. AMALIY TOPONIMIKA

## 11-mavzu: GEOGRAFIK KARTALARDA TOPONIMLARNING ASOSIY KONVERSIYALASH TAMOYILLARI. TOPONIMIKA VA JAHON TILLARI

### 11.1. Geografik kartalarda toponimlarning asosiy konversiyalash tamoyillari

#### *Reja:*

1. *Geografik kartalarda toponimlarni konversiyalash usullarining mazmun-mohiyati.*
2. *Toponimlarni rasmiy shakli, transliteratsiya va transkripsiyasi.*
3. *Joy nomlarining an'anaviy shakli, tarjima yoki qisman tarjima shakli, geografik ob'ektni rasmiy qayta nomlash.*

**Mavzuning maqsadi:** Toponimlarning asosiy konversiyalash tamoyillarini o'rganish, joy nomlarini yagona tizimini yaratish, yozish qoidalarini aniqlash, milliy va xalqaro miqyosda standartlashtirish kabi masalalar haqida ilmiy tushunchalar hosil qilishdan iborat.

**Tayanch ibora va atamalar:** Geografik nomning rasmiy shakli, transliteratsiya, transkripsiya, joy nomini an'anaviy shakli, ekzonim, tarjima yoki qisman tarjimasi, geografik ob'ektni rasmiy qayta nomlash, nomni qat'iylashtirish.

Ma'lumki, xalqning tarixi va taqdiri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan geografik nomlarni bexato yozish, ularni to'g'ri qo'llash, qat'iylashtirish va nomlarni kartalarda to'g'ri ifoda etish kabi masalalarga kam e'tibor berilmoqda. Shu sababdan, toponimik an'anaviylik, tarixiylik va milliylikni saqlab qolish toponimikani bugungi kundagi eng muhim amaliy vazifalaridan hisoblanadi. Geografik nomlar katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga, muhim siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy funksiyalarni bajaradi va jamiyatning turli ehtiyojlariga xizmat qiladi. Nomlarda o'lka tabiatining

ko'pgina xususiyatlari, aholining xo'jalik faoliyati va etnografiyasi, asrlar davomida mamlakatlarda ro'y bergan tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar hamda voqea-hodisalar aks etgan bo'ladi.

Geografik ob'ektlarning nomlash qonuniyatlarini o'rganish, ularni yagona tizimga solish, yozilish qoidalarini yaratish, milliy va xalqaro miqyosda standartlashtirish kabi masalalar toponimikaning hozirgi kundagi eng muhim amaliy vazifalaridan hisoblanadi. Binobarin, bugungi kunda jahon hamjamiyatida bu muhim masalalar bilan BMT ning geografik nomlar bo'yicha Ekspertlar guruhi (UNEGN), YUNESKO, Xalqaro onomastika fanlari qo'mitasi (IGOS), Xalqaro fonetika assotsiatsiyasi (IPA), Antarktikaning o'rganish ilmiy qo'mitasi (SGAR), Xalqaro gidrografiya tashkiloti (IHO), Jahon pochta uyushmasi (UPI), Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) va boshqa bir qancha xalqaro tashkilotlar ham shug'ullanmoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, toponimlar geografik kartalarni ajralmas tarkibiy qismi bo'lishi bilan birga rasmiy hujjatlarda, jumladan, hokimiyat qonun va qarorlarida, ma'muriy boshqaruv organlari faoliyatida, transport, aloqa ishlarida, fan, ta'lim, axborotga oid manbalarda va boshqa nashrlarda ko'plab uchrab turadi. Ular bugun ham jamiyatning turli ehtiyojlariga xizmat qilmoqda. Geografik nomlar har qanday davlatning hayotida hamda xalqaro munosabatlarida muhim vosita sanaladi. Shu sababdan, barcha davlat idora organlari, transport va aloqa muassasalari, fan va maorif, madaniyat muassasalari, matbuot, radio, televideniya joy nomlarini milliy tilda to'g'ri va qat'iy yozilishidan manfaatdor. Binobarin, toponimlarni qat'iylashtirish va standartlashtirishni xalqaro ahamiyatga molik muhim masala deb qarash kerak.

Har qanday geografik ob'ekt nomi yozilishining rasmiy va umumiy iste'mol uchun yagona shaklini aniqlash va qat'iylashtirish geografik nomlarni standartlashtirishning mohiyati va vazifasi sanaladi. Hozirda dunyo mamlakatlarining ko'pchiligida geografik nomlarni milliy standartlashtirish keng yo'lga qo'yilgan. Ushbu davlatlarda geografik ob'ektlar nomlarni o'rganadigan maxsus muassasalar mavjud bo'lib, ular geodeziya, topografiya va kartografiya korxonalarini bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi.

Ma'lumki, uzoq davr davomida mustamlaka bo'lib kelgan, ayni paytda mustaqillikka erishgan bir qator mamlakatlardagi geografik ob'ektlarning nomlari metropoliyalardan kelgan topograflar tomonidan belgilangan. Bunda mahalliy nomlar e'tihordan chetda qolgan yoki



Yevropa tillaridan birining qonun-qoidalariga moslab yozilgan. Oqibatda tub joy aholiga yot bo'lgan geografik nomlar kartalarda, geografik ma'lumotnomalarda hamda boshqa nashrlarda muhrlanib qolgan va xalqaro maydonga chiqqan.

Masalan, sho'rolar davrida O'zbekistonning mukammal kartasi biron marta o'zbek tilida chop etilmagan (o'quv kartalari bundan mustasno). Respublikadagi millionlab geografik nomlarni o'z ichiga olgan topografik kartalar o'zbek tilini yaxshi bilmaydigan mutaxassislar tomonidan tuzilgan. Bunday kartalarda nafaqat mikrotoponimlar (kichik geografik ob'ektlarning nomlari), balki makrotoponimlar (katta geografik ob'ektlarning nomlari) ham ba'zan tanib bo'lmaydigan darajada o'zgartirib yuborilgan.

Mabodo, hozirda O'zbekistondagi barcha geografik ob'ektlarning nomlarini mahalliy talaffuz shakllarini aniqlab, to'g'ri yozish ehtiyoji tug'ilsa, ko'p sonli mutaxassis topograflar va toponimistlar bir necha yil xizmat qilishi kerak bo'ladi, ammo afsuski, ana shu bebaho ma'naviy yodgorliklarning ko'plari unutilgan. Afrika va Osiyodagi bir qancha mamlakatlarda shunday bo'lgani uchun ham, unitilgan va o'zgartirilgan nomlarni tiklash uchun topograf, kartograf, toponimist olimlar va mahalliy mutaxassislar katta tadqiqot ishlarini olib borishga majbur bo'lishgan.

Toponimikada konversiya tamoyili, ya'ni, bir tilning fonologik yoki morfologik hamda leksik elementlarini boshqa bir til vositasida yoki yozuvi orqali yetkazib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ishni bir necha usullar yordamida amalga oshirish mumkin. Bu bag'oyat muhim ishni murakkab va mashaqqatli ekanligini bir necha dalillar (turli alfavit, tillarni fonetik xususiyatlari, mahalliy an'anaviy toponimlarni mavjudligi va hokazo) bilan izohlash mumkin. Masalan, ilgari kirill alfavitidagi ruscha yozilgan toponimlar respublika hududida original sifatida tan olingan edi.

Natijada, bir qator geografik nomlarni o'zbek tilida yozishda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. Endilikda, geografik nomlarni lotin alifbosiga asoslangan o'zbek tilida yozishda har qanday chekinish va istisnolarga yo'l qo'ymaslik va mumkin qadar chalkashliklarni kamaytirish yoki umuman bartaraf etish lozim. Hozirgi vaqtda o'zga tilli toponimlarni milliy geografik kartalarga tushirishning turli konversiyalash usullari mavjud. Ulardan ayrimlarini sharhlashni maqsadga muvofiq deb hisobladik:

**1. Rasmiy shakl.** Bu usul geografik nom yaratilgan tilda qanday talaffuz qilinsa va yozilsa, aynan shu tarzda geografik kartaga tushirishni nazarda tutadi. Bunday holatda geografik nom kartaga vatanidagi kabi to'liq talaffuzga mos shaklda o'tkaziladi. Masalan, Kot d'Ivuar, Nepal, Burkina-Faso, Peru, Lesoto toponimlari mamlakatlarida qabul qilingan shaklga to'la mos keladi.

**2. Transliteratsiya.** Transliteratsiya (lotincha, trans – «orqali» i litera – «harf») – chet so'zlarni biron tildan ko'chirganda harfma-harf yozish, chet tillar alifbasidagi harflarni qabul qilayotgan til harflari bilan almashtirish demakdir. Bunda so'zning qanday talaffuz qilinishi mutlaqo e'tiborga olinmaydi. Geografik nomni aniqlashda ko'pincha uning talaffuzidan ko'ra yozish shakli muhimroqdir. Transkripsiyadan farqli ravishda transliteratsiya muayyan tilning grafik tizimiga asoslanib ish ko'radi.

Transliteratsiya dastlab XIX asrda Prussiya ilmiy kutubxonalaridagi lotin, kirill, arab, hind va boshqa tillarda yozilgan asarlarni yagona katalogga kiritish ehtiyojidan kelib chiqqan. Hozirgi transliteratsiyaga oid tavsiyalar Xalqaro standartlar tashkiloti – ISO (International Standard Organisation) tomonidan ishlab chiqilagan. Transliteratsiya usuli o'zining universalligi tufayli ko'p tamonlama xalqaro munosabatlarda amaliy masalalarni hal qilishning yagona standarti bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Xususan, qadimiy nomlarni o'rganishda transliteratsiya usuli muhim ahamiyatga ega.

Transliteratsiya usuli yordamida talaffuzni inkor qilib, toponimlarni bir tildan ikkinchi tilga o'tkazish vaqtida paydo bo'ladigan tafovut va o'xshashliklarni aniq misollar yordamida ko'rsatish mumkin. Masalan, nemis tilidagi Prussiya (Prussia) nomini harfma-harf o'tkazib o'qiganda ingliz tilida Prasha, ispan tilidagi Mexiko (Mexico), inglizcha Meksikou, mashhur yozuvchi U.Shekspirni familiyasini ispanchaga aynan harfma-harf o'tkazganda Shakespeare, shoir J.Bayron familiyasi frantsuzcha Biron shaklida o'qiladi.

**3. Geografik nomlar transkripsiyasi.** Ma'lumotlarga qaraganda, yer yuzida uch mingdan ortiq til borligi aniqlangan, ularning barchasida geografik nomlar mavjud. Ularni har birini milliy tildagi o'ziga xos yozuvi va talaffuzi bor. Masalan, turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqining asrlar davomida turli shevalarda so'zlashib kelayotganligi geografik nomlarda ham o'z aksini topgan. Geografik nomlarni yozishda va talaffuzida xatoga yo'l qo'yimaslik uchun, ular mahalliy xalq tomonidan

qanday talaffuz qilinsa xuddi shunday yozib olish kerak. Ma'lumki, joy nomlarini to'g'ri talaffuz etish, hamma manbalarda xatosiz bir xil yozish, madaniyatning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Darsliklar, ilmiy va ommabop kitoblarda, davriy matbuot, karta va atlaslarda, radio va televideniya har kuni yuzlab joy nomlari qayd etiladi. Shaharlarda yurib bir kunda ko'plab ko'cha, xiyobon, idora, tashkilot nomlariga ko'zingiz tushadi.

Bunday son-sanoqsiz geografik nomlarning o'zbek va boshqa tillarda qanday yozilishi hammani qiziqtiradi. Biroq, toponimlarni to'g'ri yozish murakkab ish, buning uchun joy nomining tarixidan xabardor bo'lish, etnik guruh nomlarini farqlash, ba'zan nomning etimologiyasi haqida tasavvurga ega bo'lish, o'zbekcha va xorijiy transkripsiya qoidalarini o'rganib olish kerak bo'ladi. Transkripsiya – (lotincha, transcriptio – ko'chirib yozish) deb, boshqa tildagi geografik nomlar (fonemalar)ni o'z tilidagi grafemalar (harflar) bilan ifodalab yozishga nisbatan aytiladi. Boshqacha aytganda, transkripsiya deganda so'z va matn talaffuzi hisobga olinib, ularni muayyan yozuv vositalari yordamida yozish yoki ifodalash usuli tushuniladi.

Mutaxassislar, transkripsiyani ikki xilga ajratishgan: ilmiy va amaliy transkripsiya. Ilmiy transkripsiya ko'pincha nutqni lisoniy (lingvistik) jihatdan tadqiq qilishda qo'llaniladi. Geografik nomlarni ifodalashda esa ko'pincha, amaliy transkripsiyadan foydalaniladi. Amaliy transkripsiya muayyan milliy alifbo vositalari orqali boshqa tillardagi atoqli otlar, terminlar, maxsus nomlar va shu kabi tarjima qilinmaydigan so'zlarni aks ettiradi va shu yo'l bilan ularni qabul qiluvchi tilning bosma matnlariga kiritadi.

Amaliy transkripsiya qabul qiluvchi til alifbosidagi belgilar chegarasidan chiqmaydi, lekin belgilarning ayrim g'ayriodatiy qo'llanishlariga yo'l qo'yadi. Amaliy transkripsiyaga qo'yiladigan asosiy talablardan biri qabul qilinayotgan birlik (toponim) ning talaffuzi imkon qadar aniq saqlab qolishdir. Demak, bu usul nomni talaffuziga qarab quloqqa qanday eshitilgan bo'lsa, shunday yozib olishni hamda uni oson o'zlashishini ta'minlashni talab etadi.

Amaliy transkripsiyani mukammal deb bo'lmaydi. Chunki bir xil tillarda mavjud bo'lgan harf va tovushlarning ba'zilar boshqa tillarda bo'lmasligi mumkin. Bunday tovushlar o'zbekchada ularga yaqinroq tovushlar (harflar) bilan yozilaveradi. Masalan, ruscha «ы» harfi o'rniga o'zbekchada «i» harfi ishlatiladi. O'zbekistonda geografik nomlar

transkripsiyasi deganda quyidagi masalalar tushuniladi: joy nomlarining o'zbekcha imlosi, milliy nomlarning xorijiy tillarda yozilishi va xorijiy toponimlarning o'zbekcha yozilishi.

Respublikadagi geografik nomlarning ruscha yozilishi masalasi alohida e'tiborga molik. Shu sababdan, respublikadagi geografik nomlarning ruscha yozilishi bo'yicha yo'riqnoma yaratib, uni qo'llanma sifatida tavsiya qilinsa maqsadga muvofiq bo'lur edi. Chunki, hozirgacha, O'zbekistondagi joy nomlarining ruscha yozilishida ko'p nuqsonlar ko'zga tashlanadi. Masalan, Farg'ona, Muborak, Urganch, Zomin, Nurota kabi nomlarni Fergana, Mubarek, Urgench, Zaamin, Nuratau shaklida yozilishi va talaffuz qilinishiga umuman qo'shilib bo'lmaydi. Rus tili ta'sirida Ohangaron nomi talaffuz va yozuvda o'zgarib, hech qanday ma'no kasb etmaydigan Angren shaklini oldi va u alohida shahar nomi sifatida kartalarda mo'hrilanib qoldi.

Demak, soha mutaxassislari o'zbekcha geografik nomlarning ruscha yozilishi masalasini tubdan qayta ko'rib chiqib, ularning asliyatga yaqin shaklini tavsiya etishlari zarur. Boshqacha aytganda, toponimist olimlar oldida respublikadagi geografik nomlarni boshqa tillarga transkripsiya qilishning mukammal qoidalarini ishlab chiqishdek dolzarb masala turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «Ergeodezkadast» davlat qo'mitasining Toponimika laboratoriyasida Qirg'iziston, Qozog'iston va Tojikiston Respublikalari geografik nomlarining o'zbekcha yozilishi yo'riqnomalari yaratildi va qo'llanma sifatida tavsiya etildi. Respublikada xorijiy mamlakatlar geografik nomlarini bevosita asliyatidan o'zbekchaga transkripsiya qilish ishi allaqachon boshlangan bo'lsa ham, ammo uni yetarli darajada deb bo'lmaydi. Yaqin kelajakda hamdo'stlik mamlakatlari geografik nomlarining transkripsiyasi bo'yicha tajriba davom etishi kerak. Qo'shni turkiy tilli respublikalarni istisno qilganda, hozircha ko'pchilik mamlakatlar joy nomlarning o'zbekcha yozilishi rus tili transkripsiyasi asosida amalga oshirilmoqda. Bizningcha, sharq mamlakatlari, xususan arab va fors tilli davlatlarning geografik nomlarini bevosita mahalliy tillar yordamida transkripsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

**4. An'anaviy shakl yoki ekzonim.** An'anaviy shakl yoki ekzonim (grekcha, ἐξὸ – «tashqi, tashqaridan») – ma'lum bir tilda o'rnatilgan geografik ob'ekt nomi. Nom – yaratilishida asos bo'lib xizmat qilgan tilni tarqalish arealidan tashqarida joylashgan va uning hozirgi

shakli asliga to'g'ri kelmasligi mumkin. Masalan, Warsaw-Warszawa toponimiga inglizcha ekzonim; Londres-London toponimiga frantsuzcha ekzonim; Mailand-Milano toponimiga nemischa ekzonim; Moscow, Moskau-Moskva toponimi uchun inglizcha va nemischa ekzonim hisoblanadi. Xususan yaqin qo'shni davlatlarga nisbatan ko'p ekzonimlar qo'llaniladi. Chunonchi, polyaklar Italiyani-Vloxi, finlar Rossiyani - Venyayya, frantsuzlar Germaniyani - Alemaniya, latishlar Belarusni - Baltkrieviya deb atashadi va hokazo.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti xalqaro miqyosda ekzonimlarni qo'llashni kamaytirishni taklif qilmoqda. O'zbek tili tarkibiga noto'g'ri shaklda kirib hozirda an'anaviy bo'lib qolgan toponimlar ham mavjud. Masalan, Ulan-Bator (aslida Ulanbatar), Parij (Paris), Rim (Roma), Oslo (Uslu), Xitoy (Chin) va boshqalar. Ushbu nomlar o'zbek tilida ko'p yillar davomida qo'llanib kelayotganligi va an'anaviy nomlarga aylanganligi tufayli ularni o'zgartirish shart emas.

**5. Tarjima yoki qisman tarjima shakli.** Ushbu shakl geografik nomni bir tildan ikkinchi tilga to'la yoki qisman tarjima qilishni nazarda tutadi. Toponimlarni to'la yoki qisman tarjima qilish – eng qadimiy va xalqaro miqyosda keng qo'llanadigan usuldir. Tarjima yoki qisman tarjima qilingan nomlar: Olovli Yer, Yashil burun orollari, O'rta yer dengizi, Tinch okean, Yangi Orlean, Janubiy Dakota, Shimoliy Karolina, Yangi Kaledoniya va boshqalar.

Shuni ta'kidlash joizki, ikki so'zdan iborat bo'lgan bir qator geografik nomlarning, qisman tarjima qilish an'anasiga ko'ra, odatan nomning birinchi qismi – sifat tarjima qilinadi, ikkinchi qismi atoqli ot o'zgarmaydi, fonetik asosda yoziladi. Ko'pincha, atoqli ot oldida, uni aniqlab keluvchi sifatlar tarjima qilinadi. Masalan, Katta Kanyon, Sharqiy Tavr, Kichik Atlas, Yangi Janubiy Uels, G'arbiy Irian va hokazo. Geografik ob'ekt nomini rasmiy shaklini belgilash, yozma variantini yaratish va uni qo'llash usullarini ishlab chiqish bag'oyat muhim masala hisoblanadi.

**6. Rasmiy qayta nomlash.** Bu avvalgi nomdan voz kechish va uni muayyan sabablarga (ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy va hokazo) ko'ra yangisi bilan almashtirish demakdir. Geografik ob'ektlarni turli sabablarga ko'ra, qayta nomlash mumkin. Ko'pincha bu jarayon siyosiy sabablar (inqilob, urushlar, eski davlatni tanazzuli va yangi davlatni barpo bo'lishi, mafkuraviy nomlar, milliy toponimiyani takomillashuvi) bilan bog'liq bo'lganligi sababli yuzaga kelgan. Geografik ob'ektlarni

qayta nomlash doimiy jarayon, uning intensivligi esa tarixiy davr bilan bog'liq va dunyoning turli burchaklarida turlicha bo'lishi mumkin. Xususan, inson qo'li bilan yaratilgan geografik ob'ektlar nomlari tez o'zgaradi. Bu ko'pincha, har xil tarixiy voqealar yoki siyosiy, iqtisodiy, ilmiy o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Rus toponimisti Ye.M.Pospelovni yozibicha, geografik ob'ektni qayta nomlashning bevosita ikkita sababi bo'lishi mumkin:

a) mavjud nomlarni bekor qilishning asosiy sabablaridan biri, nomlarni o'tirishdagi ism va tushunchalar bilan bog'liqligi hamda ularni o'zgargan sharoitga mos kelmasligi;

b) yangi paydo bo'lgan davlat yoki hokimiyatni, joriy qilgan joy nomlari orqali, bevosita o'zini g'oya va mafkura, ism hamda tushunchalarini tarq'ib qilishi.

Ko'pincha, qayta nomlash jarayoniga betaraf nomlar ham qo'shilib ketishi mumkin. Ularning bir qismi tasoduf tufayli o'zgartirilgan bo'lsa, qolgan qismi esa, yangi mafkuraviy ma'no va mazmunga ega bo'lgan nomlarni joriy qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Inqilobiy qayta nomlashlar tarixi, XVIII asr oxiridagi buyuk frantsuz revolyutsiyasi davridan boshlangan. Dastlabki, qayta nomlashlar qirolik hokimiyati, unvonlar va diniy tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, Sen-Pens nomi talaffuzda o'xshash bo'lgan Sapens («oqil»), Sen-Lo nomi Roshe-de-la-Liberte («ozodlik qo'ysib»), Il-de-Burbon oroli («Burbonlar shajarasi oroli») ni Reyunon («Hirlashish»), Parijdagi Lyudovik XVI maydoni, Revolyutsiya maydoni deb o'zgartirilgan.

Sobiq sho'rolar davlati o'zini dastlabki kunlaridan boshlab geografik ob'ektlarni qayta nomlashga harakat qilgan. Birinchi navbatda podshoh, dvoryanlar unvonlari, pravoslav cherkovi va boshqa diniy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan toponimlar almashtirildi. Natijada, Aleksandrovska – Zaporozje, Novo-Nikolaevsk – Novosibirsk, Sarevo-Kokshaysk – Yoshkar-Ola (mari tilida, “qizil shahar”), Romanov-na-Murmansk – Murmansk, Petrograd – Leningrad deb qayta nomlandi.

Qayta nomlash jarayoni qisqa muddatda ommalashib, geografik ob'ektlarga memorial va ramziy nomlar berish keng tus oldi. Bunday qayta nomlashlarni foydasidan ko'ra zarari ko'proq edi. Bir qator noyob tarixiy, xalqona nomlar unitilishga mahkum etildi. Shunga qaramasdan, tarixiy nomlarning bir qismi xalq tilida hozirgacha saqlanib kelmoqda. Harbiy harakatlar ham toponimiyaning o'zgarishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Masalan ikkinchi jahon urushidan keyin Dantsig – Gdansk,

Breslau – Vrotslav (Polsha), Kenigsberg – Kaliningrad, Pillau – Baltiysk (Rossiya) kabi bir qator nomlar o'zgartirildi.

Mustamlakachilik tuzumining qulashi natijasida geografik nomlarda ham sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Ozodlikka chiqqan yangi davlatlar esa, o'z navbatida eski tuzumdan qolgan tomonimik merosdan tezroq qutilishga harakat qilishdi. Natijada yangi va qayta tiklangan eski nomlar qatlami paydo bo'ldi. Masalan, SSSR ni yemirilishi barcha sobiq ittifoqdosh respublikalarda qayta nomlash jarayonini tezlashtirdi. Qirg'iziston poytaxti Frunze avvalgi nomi bilan – Bishkek, Qozog'istonni yangi poytaxti Selinograd – Astana deb qayta nomlandi. Sobiq Ittifoqni eng baland nuqtasi Kommunizm – Ismoil Somoniy cho'qqisi, Krasnovodsk shahri – Turkmanboshi deb o'zgartirildi va hokazo.

Keltirilgan misollar geografik nomlarni dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan ko'p jihatdan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. O'ylamasdan, asossiz ravishda amalga oshirilgan qayta nomlashlar xalqning madaniy, tarixiy, ma'naviy merosiga katta zarar yetkazadi. Shu sababdan, geografik ob'ektlarga nom berish va ularni qayta nomlashda quyidagi ilmiy talab va mezonlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- geografik ob'ektlarga xalqning milliy an'analari va mentalitetiga yot bo'lgan nomlar berilishiga hamda ularning nomlari shu ruhda o'zgartirilishiga yo'l qo'ymaslik kerak;

- nom mazkur geografik ob'ekt joylashgan yerdagi toponimik tizimga mos tushishi lozim;

- nom joyning ma'lum tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy geografik xususiyatlarini ifodalab, joy va nom o'zaro hir-biriga mos bo'lmog'i lozim;

- nom o'sha hududda yashovchi aholi tilining lisoniy xususiyatlariga yot bo'lmasligi, hamda toponimik an'anaviylik, tarixiylik, milliylik sezilib turmog'i kerak;

- nom shaklan sodda, o'ziga xos (original), tushunarli, aniq, qisqa, lo'nda, ko'pi bilan ikki yoki uch tarkibiy qismdan (ularni biri qo'shimcha bo'lishi mumkin) ihorat ho'lib, mo'ljal (orientir) vazifasini bajarishi lozim;

- yangi nom o'sha hududda avval mavjud bo'lgan nomlarni takrorlamasligi, esda oson saqlanib qoladigan, talaffuzda yengil va qulay bo'lmog'i darkor;

- geografik nom iloji boricha, mafkuraviy qarashlardan xoli bo'lmog'i kerak;

- tarixiy nomlar o'tinish guvohlari, ularni geografik, lisoniy, tarixiy, siyosiy va ilmiy ahamiyatga ega ekanligi inobatga olib o'zgartirmaslik lozim;

- geografik ob'ektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish chiq'ib tashlanmaganlik, oshna-og'aynichilik, xizmat mavqeini suilis- to'atol qilish hollari istisno etish zarur.

**Savol va topshiriqlar:**

1. *Toponimlarni konversiyalash usullarining mazmun-mohiyati nimadan iborat?*

2. *Nomlarni transliteratsiya va transkripsiyasi deganda nimani tushunasiz?*

3. *Geografik nomning an'anaviy shakli, tarjima yoki qisman tarjima shakli va ob'ektni ravmiy qayta nomlashni tushuntirib bering.*

#### **Test topshiriqlari**

1. **Toponimlarni konversiya usullaridan biri bo'lgan nomi ravmiy shakl qanday ma'noni anglatadi?**

A. Geografik nom yaratilgan tilda qanday talaffuz qilinsa, aynan shu tarzda kartaga tushiriladi.

B. Joy nomi yaratilgan tilda qanday yozilsa, aynan shu tarzda kartaga tushiriladi.

C. Toponim vatandagi kabi to'liq talaffuzga mos shaklda kartaga o'tkaziladi.

D. Barcha javoblar to'g'ri

2. **Toponimlarda konversiya tamoyili bu ....**

A. Bir tilning fonologik yoki morfologik hamda leksik elementlarini boshqa bir til vositasida yoki yozuvi orqali yetkazib berish

B. Bir til vositasida leksik elementlarni boshqa bir yozuv orqali yetkazib berish

C. Bir tilning morfologik elementlarini boshqa bir yozuv orqali yetkazib berish

D. Bir tilning fonologik hamda leksik elementlarini boshqa bir til vositasida yetkazib berish

3. **O'zbekistonda geografik nomlar transkripsiyasi deganda nimani tushunasiz?**

A. O'zbekistondagi joy nomlarining o'zbekcha imlosi

B. O'zbekistondagi geografik nomlarning xorijiy tillarda yozilishi



C. Barcha javoblar to'g'ri

D. Xorijiy mamlakatlardagi geografik nomlarning o'zbekcha yozilishi

**4. Toponimikada transliteratsiya bu ...**

A. Chet so'zlarni biron tildan ko'chirganda chet tili yordamida yozish

B. Chet tili yordamida so'zlarni biron tildan ko'chirib yozish

C. Chet so'zlarni biron tildan ko'chirganda harfma-harf yozish

D. Chet tillar alifbesidagi harflar bilan o'zbek tilida yozish

**5. Rasmiy qayta nomlash nima?**

A. Avvalgi nomdan voz kechish va uni muayyan sabablarga (ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy va hokazo) ko'ra yangisi bilan almash-tirish

B. Geografik ob'ektlarni turli sabablarga ko'ra, qayta nomlash

C. Yangi mafkuraviy ma'no va mazmunga ega bo'lgan nomlarni joriy qilish

D. Barcha javoblar to'g'ri

## **11.2. Toponimika va jahon tillari**

*Reja:*

*1. Toponimika va jahon tillarini aloqadorligi haqida umumiy tushuncha.*

*2. Tillar klassifikatsiyasi va ularning turlari.*

*3. Geografik nom va tilning mintaqaviy xususiyatlari.*

**Mavzuning maqsadi:** Jahon tillarining shakllanishida tabiiy-geog-rafik sharoitlar va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'siri, tillar klassi-fikatsiyasi va ularning turlari, dunyo bo'yicha keng muomaladagi tillar, geografik nom bilan tilni o'zaro aloqadorligi haqida bilim va ko'-nikmalar hosil qilishdan iborat.

**Tayanch ibora va atamalar:** Til, tilning shakllanishi va rivojlanishi, dunyo tillari, xalqlarning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti va til, tillar klas-sifikatsiyasi, tillar areali, tillar oilasi, tillar guruhi, rasmiy til, davlat tili.

Til xalqlar, millatlar o'rtasidagi muomala vositasi hamda ularning farqlovchi asosiy omildir. Mutaxassislarining e'tiroficha, tilning shakl-

tabiiy-geografik sharoitlar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar kabi omillar ta'sirida kechadi. Kishilik jamiyatining birlamchi so'zlashuv tili qabilalar shakllangan davrlarda rivojlana boshlagan. Bunday til lug'ati juda kambag'al, grammatik jihatdan tizimlashmagan bo'lgan. Ibtidoiy qabilalarning hududiy ajralishi va dunyo bo'ylab tarqalishi yangi tillarning paydo bo'lishi va rivojlanishini kuchaytirdi.

Tilning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy-geografik omillari haqida juda qiziqarli fikrlar bildirilgan. Masalan, shimol xalqlarining undosh tovushlarni just talaffuz qilishini iqlimning sovuqligi bilan izohlaydilar. Xalqlarning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti turli omillar ta'sirida har-xil kechganligi tillarning rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatgan. Shuning uchun bugungi kunda dunyoda bir necha o'nlab kishilar so'zlashuvchi, yozuvsiz qabila tillari ham, bir necha millatlarga tegishli millionlab kishilar foydalanadigan, hoy adabiyotga ega jahon tillari ham mavjud.

Ayni vaqtda dunyoda mavjud tillarning sonini uch ming atrofida dehq taxmin qilinadi. Ularning aniq miqdorini ko'rsatishni iloji yo'q, chunki juda ko'plab xalqlarning tillari to'liq o'rganib chiqilmagan va hamda qaysi til oilasi yoki guruhiga mansubligi aniqlanmagan. Ba'zan til va sheva tushunchalarining chalkashish holatlari ham uchraydi. Shunga qaramay dunyodagi tillarning klassifikatsiyasi birmuncha o'rganib chiqilgan, aytish mumukinki, dunyoda keng ishlatiladigan, shuningdek muayyan millatlar tillarining kelib chiqishi, mansublik holati aniqlanmagan.

So'nggi davrda, ma'lum ob'ektiv sabablar tufayli avvaldan saqlanib qolgan minoraqaviy xalqaro tillar guruhi bilan bir qatorda dunyo miqyosida qo'llanuvchi jahon tillari ham paydo bo'ldi. Dunyo bo'yicha keng muomaladagi tillar (ingliz, fransuz, nemis, arab, xitoy, rus, hind, portugol, ispan) jahon tillari deyiladi va rasmiy muzokaralar, barcha aloqalar ushbu tillarda olib boriladi. Qayd qilingan tillar orasida eng ko'p qo'llaniladigan ingliz, fransuz va ispan tili hisoblanadi. Masalan, dunyoning 76 mamlakatida ingliz tili, 34 davlatda fransuz tili rasmiy davlat tili sifatida tan olingan. Jahon tillarining xalqaroligi ularning xalqaro tashkilotlar yoki konferensiyalarning (BMT, YUNESKO) "rasmiy" yoki "ishchi" tili sifatida tan olinishi tufayli ushbu maqomda yuridik jihatdan mustahkamlanishi bilan belgilanadi. Chunonchi, ingliz, arab, ispan, xitoy, rus, fransuz tillari BMTning rasmiy va ishchi tillari hisoblanadi.

Til xalqniki, joy nomlarini ham xalq yaratadi. Shu sababdan, geografik nomlarni qaysi tilga taaluqli ekanligini aniqlash masalasi toponimika fani uchun juda muhimdir. Chunki, joy nomini qaysi (hozirgi zamon yoki o'lik) tilga mansubligini aniqlamasdan, uni asl ma'nosini, aniqlashni iloji yo'q. Toponimlarni tahlil qilganda tilni boyih borishi va uning lug'aviy tarkibi doimo o'zgarib turishi inobatga olinishi kerak. Tilga hududiylik xos va uning areali esa o'zgaruvchan. SHu sababdan, tarixiy va boshqa omillarga ko'ra geografik nomlarning areali tilning tarqalish hududiga unchalik to'g'ri kelmasligi, ba'zan tor yoki ancha kengroq hududda tarqalgan bo'lishi ham mumkin. Geografik ob'ektlarning nomlashda jonli so'zlashuv tili asos vazifasini bajaradi, shu sababdan u uzoq yashaydi, xususan tabiiy-geografik omillar asosida vujudga kelgan nomlar deyarli o'zgarmaydi.

Toponimlarning ma'lum gurubi jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar tufayli almashgan taqdirda ham, nomlar muayyan areallarda, ba'zan, xalq og'zaki nutqida saqlanib qolishi mumkin. Masalan, akademik B.A.Serebrennikovning yozishicha, toponimlar g'ayrioddiy turg'unlikka ega. Yer yuzida xalqlar va tillar yo'q bo'lib ketishi mumkin, ammo joy nomlari geografik ob'ektlarning ifodasi sifatida uzoq muddat saqlanib qoladi hamda boshqalar tomonidan oson o'zlashtiriladi.

Taniqli toponimist olim N.Oxunov ta'biri bilan aytganda, geografik nom bu – xalq ijodi, uning bir yoki ikki so'z yordamida ifodalagan ixcham tarixidir. Toponim nutqda muayyan geografik ob'ektning boshqalardan farqli helgilarini ta'kidlash bilan birga, uni ikkinchi ob'ektdan ajratib ko'rsatishga ham xizmat qiladi. Shu sababdan, geografik nomga aylangan so'z aniq, yagona bir geografik ob'ektni ifodalaydigan tushunchadan boshqa ma'no anglatmay qo'yadi.

Lingvistikada tillar klassifikatsiyasining ikki – morfologik va genealogik turlari keng tarqalgan. Geotoponimika uchun tillarni kelib chiqishining genealogik turi muhim. Bu turda tillarni yagona oilaga mansubligi asos qilib olingan. Mazkur umumiylik tillarning lug'at boyligi va grammatik tuzilishini taqqoslashi orqali helgilanadi. Barcha tillar – til oilasi, gurubi va asosiy tilga bo'linadi. Ayrim mutaxassislarning ta'kidlashicha, klassifikatsiyalanmagan tillar ham bor, ular hozirgacha aniqlangan hech bir til oilasi yoki til gurubi tarkibiga kirmaydi.

Ma'lumki, turkiy tillarning shakllanish tarixi oltoy tillari oilasi bilan bevosita bog'liq. Oltoy bobotili (asos til) dastlab ikkiga – tungus-manjur

va turk-mo'g'ul tillariga, so'ngra turk-mo'g'ul tili ham ikkiga – turk va mo'g'ul tillariga ajralgan. Turkolog olimlarning e'tirof etishicha, hozirda turkiy tillarning soni 25 tadan ortiq, ular Sibir o'lkasidan Bolqon yarim oroligacha bo'lgan, ulkan geografik hududda keng tarqalgan. Shu sababdan, turkiy tillarni klassifikatsiyalash doimo murakkab va dolzarb masala hisoblangan. Tilshunos olimlar tomonidan, turkiy tillar ko'p marta tasniflangan bo'lsa ham, ammo bu ishni birinchi marta amalga oshirgan olim Mahmud Koshg'ariydir.

Har bir mutaxassis o'z oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqib uni turlicha klassifikatsiyalagan. Ammo, ular orasida professor N.A.Haskakov tomonidan taklif qilingan turkiy tillar klassifikatsiyasi o'zining mukammalligi bilan alohida ajralib turadi. Ushbu klassifikatsiya barcha turkiy tillarni to'liq qamrab olganligi va ularning ham til xususiyatlari, ham genetik qarindoshligi atroflicha o'rganilganligi bilan qimmatlidir. Shu sababdan, mazkur klassifikatsiya ko'pchilik turkiyshinoshlar tomonidan tan olingan. Aytish joizki, hozirgi vaqtda turkiy nomlar keng tarqalgan va eng haquqval nomlar qatlamini tashkil etadigan O'rta Osiyo mintaqasi uchun, turkiy tillarni klassifikatsiyasi muhim ahamiyatga ega.

Quyidagi jadvalda namuna sifatida oltoy tillar oilasining genealogik klassifikatsiyasi ko'rsatilgan.

5- jadval

| Tillar oilasi | Tillar guruhi | Asosiy tillar  | Tarqalgan hududi   |
|---------------|---------------|--|--|
| Oltoy oilasi  | Turk guruhi   | turk, o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, ozarboyjon, tatar, boshqird, chuvash, yoqut, uyg'ur | Turkiya<br>O'zbekiston<br>Qozog'iston<br>Qirg'iziston<br>Turkmaniston<br>Ozarboyjon<br>Rossiya (Tatariston, Boshqirdiston, Chuvashiya, Yakutiya)<br>Xitoy (Shinjon-Uyg'ur avt. rayoni) |

|                      |                                |   |
|----------------------|--------------------------------|---|
| Mogul gurubi         | mo'g'ul, buriyat, tuva, qalmaq | Mo'g'uliston<br>Rossiya (Buriyatiya,<br>Tuva, Qalmaq) |
| Tungus-manjur gurubi | manjur, evenk, even, tungus    | Xitoy,<br>Rossiya                                     |

Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti davomida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqea-hodisalar (mustamlakachilik, bosqinchilik urushlari, yangi yerlarning o'zlashtirilishi, davlatlarning tashkil topishi va h.k.) ha'zi tillarning dunyo bo'ylab keng tarqalishi va ayrim xalqlar tomonidan rasmiy til sifatida tan olinishiga sabab bo'lgan.

**Savol va topshiriqlar:**

1. Jahonda keng tarqalgan tillar oilasi haqida ma'lumot bering.
2. Tillar klassifikatsiyasi va ularning turlari haqida nimalar bilasiz?
3. Til va geografik nomning mintaqaviy xususiyatlaridagi o'xshashlik va tafovutlarini izohlang.

**Test topshiriqlari**

1. Mutaxassislar tomonidan aniqlangan tilning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy-geografik omilni belgilang.

- A. Rel'ef
- B. Shamol
- C. To'g'ri javob yo'q
- D. Iqlim

2. Lingvistikada tillar klassifikatsiyasining qaysi turlari keng tarqalgan?

- A. Fonetik va morfologik turlari
- B. Morfologik va genealogik turlari
- C. Genealogik va lingvistik turlari
- D. Lingvistik va fonetik turlari

3. Mutaxassislar ayni vaqtda dunyoda mavjud tillarning sonini qancha deb taxmin qilishadi?

- A. Ikki ming atrofida
- B. To'rt ming atrofida
- C. Uch ming atrofida
- D. Besh ming atrofida

4. Tilga hududiylik xos va uning areali o'zgaruvchan deganda nimani tushunasiz?

- A. Toponimlarning areali tilning tarqalish hududiga unchalik to'g'ri kelmaydi
  - B. Joy nomi ma'muriy chegaralarni tan olmaydi
  - C. Geografik ob'ektlarning nomlashda jonli so'zlashuv tili asos vazifasini bajaradi
  - D. Geografik nom davlat chegarasidan tashqariga chiqmaydi
5. **Ita'li tillarning dunyo bo'ylab keng tarqalishi va ayrim xalqlar tomonidan rasmiy til sifatida tan olinishiga nima sabab bo'lgan?**
- A. Bosqinchilik urushlari
  - B. Yangi yerlarning o'zlashtirilishi
  - C. Yangi davlatlarning tashkil topishi
  - D. Barcha javoblar to'g'ri

## **12-mavzu: GEOGRAFIK NOMLARNING YOZISH QOIDALARI VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI. TOPONIMLARNI STANDARTLASHTIRISH MUAMMOLARI**

### **12.1. Geografik nomlarning yozish qoidalari va grammatik xususiyatlari**

#### **Reja:**

1. *Geografik nomlarning yozish qoidalari va grammatik xususiyatlari tavsifi.*
2. *Geografik nomlarni qo'shib va ajratib yozish tartibi.*
3. *Tarjima qilinadigan va qilinmaydigan nomlarni yozish tartibi.*

**Mavzuning maqsadi:** Geografik nomlarning yozish qoidalari va grammatik xususiyatlari, ularni qo'shib va ajratib yozish tartibi, qo'shma toponimlarning morfologik tarkibi, joy nomlari tarkibidagi geografik terminlarni yozish tartibi, toponimlarni yozishda defisni o'rni hamda tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan nomlarni yozish qoidalari haqida qisqacha ma'lumot berishdan iborat.

**Tayanch ibora va atamalar:** Sodda va murakkab toponimlar, qo'shimchali va qo'shimchasiz nomlar, joy nomi tarkibidagi terminlarni yozish tartibi, nom va defis, nomlarni qo'shtirnoq ichiga olinishi va son bilan yozish qoidalari.

Toponimlar atoqli otlarning boshqa turlaridan grammatik jihatdan farq qiladi. Ular aksariyat hollarda “ikki yarim bir butun” degandek ko‘p komponentli so‘zlardir. Bir tarkibiy qismdan iborat toponim ko‘pincha, toponimikaning tejalish qonuniyatiga ko‘ra uzoq iste’molda bo‘lishi oqibatida biror unsurini yo‘qotgan geografik nom yoki toponimik funksiyasini bemalol uddalab kelayotgan rudiment – qadimiy unsur bo‘lishi mumkin. Ideal toponimlar polikomponentlikni yomon ko‘radi, chunki ular hali uzil-kesil toponimlik “pasport”ini olmagan mikrotoponimlar monopoliyasi hisoblanadi. Shu bilan birga ideal toponimlar monokomponentlikni ham yoqtirmaydi, ya’ni ular birgina tarkibiy qismdan iborat bo‘lmasligi kerak.

Geografik nomlarning to‘g‘ri yozilishi juda muhim va murakkab masala. Muhimligi shundaki, geografik nomdagi biror harf noto‘g‘ri yozilib qolsa, fonetik o‘zgarishlar oqibatida butunlay boshqa ma’noli toponimga aylanib ketishi mumkin. Toponimlarning to‘g‘ri yozilishi masalasining murakkabligi shundaki, ular turli tillarda bo‘lib, aslida o‘sha tillar qoidalariga muvofiq yoziladi. Boshqa tillarga o‘tganda talaffuzida ham, yozilishida ham o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.

Ko‘pchilik mamlakatlarda geografik nomlarning to‘g‘ri yozilishiga katta ahamiyat beriladi. Masalan, *Buyuk Britaniyada Geografik nomlar qo‘mitasi*, *AQSH da Geografik nomlar Kengashi*, *Belgiyada Toponimika va dialektlar komissiyasi* geografik nomlarning to‘g‘ri yozilishini tartibga solib turadi. *Rossiya Federatsiyasida Entsiklopediya Bosh tahririyati* toponimlar va terminlarning to‘g‘ri yozilishini boshqaradi. O‘zbekistonda bu ish hilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi “*Ergeodezkadastr*” davlat qo‘mitasi, *Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi* hamda ularni viloyat, shahar va tumanlardagi hududiy komissiyalari shug‘ullanadi. Shunga qaramay geografik nomlarning yozilishida chalkashliklar ko‘p uchraydi. Joy nomlarini to‘g‘ri yozish juda nozik masala. Ularni nuqsonsiz to‘g‘ri yozish, xalqning umumiy imloviy savodxonligining uzviy bir qismi bo‘lib, ma’lum darajada kishilarni bilim va madaniy saviyasini ham belgilaydi.

Kundalik matbuotda, xususan, gazeta va jurnallarda, radio va televideniya, darsliklarda, badiiy adabiyotlarda respublika va chet mamlakatlarga oid minglab geografik nomlar uchraydi. Bularning hammasini ham to‘g‘ri ekanligiga hech kim kafolat berolmaydi. Geografik nomlarning o‘zbekcha yozilishi ma’lum bir qat’iy printsiplarga asoslangan,

amaliy, bir-biriga bogʻliq qoidalardan iborat boʻlishi va bugungi kun talabi darajasiga javob berishi lozim.

Oʻzbekiston hududidagi geografik nomlar oʻzbek tili imlosining amaldagi qoidalari asosida yozilar ekan, bu qoidalarning asosiy maqsadi va vazifasi – oʻzbek tilidagi darsliklarda, ilmiy-ommabop va siyosiy kitoblarda, davriy matbuot va kartalarda, turli tipdagi lugʻatlarda geografilik nomlarning yozilishida umumiy birlik boʻlishini taqoza qiladi. Mavjud boʻlgan geografik nomlari grammatik tuzilishiga koʻra *sodda* va *qoʻshma* toponimlarga ajratish mumkin. Sodda toponimlar oʻz navbatida, qoʻshimchasiz va qoʻshimchali nomlarga boʻlinadi. Joy nomi tarkibi birgina otdan iborat boʻlib, unga boshqa biron unsur qoʻshilmasa bunday nomlar qoʻshimchasiz toponimlar hisoblanadi. S.Qoraev qoʻshimchasiz toponimlarni tahlil qilib ularni bir necha xilga boʻlib koʻrsatgan:

a) oddiy geografik yoki ijtimoiy – iqtisodiy terminlar shaklidagi toponimlar: *Anhor, Ashob, Gaza, Yom, Supa, Uchma, Quduq* va hokazo;

b) urugʻ-aymoq va boshqa etnik guruhlar nomlari hilan ataladigan geografik nomlar (etnonimlar): *Abdal, Burqut, Dugʻlat, Mangʻit, Sayyod, Turk* va boshqalar;

v) kishilarning ism-familiyalari, taxallus, laqablaridan iborat toponimlar: *Abdukarim, Beruniy, Mustafu, Navoiy, Shodmon* va hokazo;

g) oʻsimlik va hayvon nomlaridan kelib chiqqan joy nomlari: *Bodom, Doʻlta, Yongʻoq, Terak, Chinor, Yantoq* va boshqalar;

Qoʻshimchali toponimlar tarkibida otga qandaydir qoʻshimcha-affiks qoʻshib yasaladi. Bunday geografik nomlar tarkibida quyidagi qoʻshimchalar (affikslar) koʻp uchraydi:

- **goh** – *Jangoh, Namozgoh, Sayilgoh, Shamolgoh;*

- **zor** – *Bodomzor, Olmazor, Sangzor, Chilonzor;*

- **iston** – *Bahoriston, Bogʻiston, Turkiston, Shoʻriston;*

- **iya** – *Mingiya, Shohruhiya, Yuziya, Qodiriya;*

- **kor** – *Lalmikor, Paxtakor, Sholikor;*

- **lar** – *Arablar, Beklar, Boylar, Shayxlar;*

- **li** – *Anjirli, Alamli, Burganli, Betagali, Tolli;*

- **lik** – *Attorlik, Zargarlik, Jizzaxlik, Tepalik;*

- **loq** – *Sangloq, Toshloq, Qumloq;*

- **on** – *Mingon, Namatgaron, Sayidon, Telpakfuroʻshon;*

- **ot** – *Bogʻot, Rabotot, Qishloqot;*

- **cha** – *Doʻrmoncha, Naymancha, Qizilcha, Qoʻrgʻoncha;*



**-chi** – *Aravachi, Bo'yrachi, Taqachi, Temirchi;*

Qo'shma toponimlar ikki va undan ortiq tarkibiy qismlardan tashkil topadi: *Beshariq, Yangiqo'rg'on, Yakkatut, G'ishtko'prik, Oqtepasoy* va hokazo. Bunday geografik nomlar grammatik jihatdan bir necha turga bo'linadi. O'zbek tilida ikki va undan ortiq so'zlardan (turdosh otlardan) iborat (murakkab) geografik nomlar qo'shib yoziladi. Masalan:

**Ot + ot:** *Turkravot, G'aniqishloq, Qorovulbozor, Qunqo'rg'on*

**Sifat + ot:** *Yomonjar, Kattaqishloq, Uzunquduq, Yetimtog', Uzunsoy*

**Son + ot:** *Beshbuloq, Yettikechuv, Mingchinor, To'qsonkamar, O'ttizadir*

**Ot + fe'l:** *Soykeldi, Qo'yqirilgan, Tangatopdi, Qumbosdi*

Birinchi tarkibiy qismi sifatdan, ikkinchi tarkibiy qismi geografik atamadan iborat bo'lganda: *Balandmachit, Balandravot, Oqgo'rg'on, Oqtepa, Ko'kbuloq, Ko'kgumbaz, Sarisuv, Sariatpepa, Qizilsuv, Qizilsoy, Qizilqum, Yuqoriovul, Etakovul, Quyimahalla, O'rtachek, O'rtasaroy* kabi yoziladi.

Birinchi tarkibiy qismi sondan, ikkinchi tarkibiy qismi geografik atamadan iborat bo'lganda: *Beshariq, Beshayvon, Yolg'izbog', Yolg'izqutchi, Yakkasaroy, Yakkatol* shaklida yoziladi. Birinchi tarkibiy qismi tartib sondan, ikkinchi qismi geografik atamadan iborat bo'lganda: *Ikkinchisolma, Yettinchiqo'tir* shaklida yozish maqsadga muvofiqdir.

Aytish joizki, qo'shma geografik nomlar tadqiqida ularning yasalish usullarini belgilash, aniqlash ayniqsa muhimdir. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, til taraqqiyoti jarayonida ma'lum tipdagi so'z birikmasi yagona leksik ma'no kasb etishi natijasida sintaktik birlikdan leksik birlikka aylanadi— qo'shma so'z yuzaga keladi. Masalan, *Oqjar, Sho'rsuv, Yangiqo'rg'on, Qoratepa* kabi joy nomlari shu yo'l bilan paydo bo'lgan qo'shma so'zlar sirasiga kiradi.

**Qo'shma geografik nomlar morfologik tarkibiga ko'ra quyidagi tiplarga bo'linadi:**

1. **Ot + ot:** Bu tipdagi qo'shma toponimlarning ikkinchi qismi ko'pincha geografik termindan (qishloq, ovul, tepa, cho'l, hog', buloq, quduq va hokazo) tashkil topgan bo'ladi. Ularning birinchi tarkibiy qismi esa kishi ismlari (famiyasi)dan (*Abdiqishloq, Shofayziquduq, Hoshimdasht, Ismoiltepa*), etnonimlardan (*Naymanariq, Arabmozor, Afg'onbog', Qozoqovul, Turkravot*), fitonimlardan (*Terakmozor, Jiyydaqishloq, Tolqishloq*) iborat bo'lishi mumkin. Har ikkala tarkibiy qismi terminlardan (geografik va ijtimoiy – iqtisodiy) tashkil topgan

toponimlar ham mavjud. (*Qorovulbozor, Toshbuloq, Qumquduq, Sharilloqsoy*).

2. **Sifat + ot:** Bu qolipdagi qo'shma toponimlarning birinchi qismi rang-tus bildiruvchi (*Oqtepa, Ko'kjar, Qizilbuloq, Qoraqum, Qorasoy*), ko'lam bildiruvchi (*Kattaqishloq, Pastqishloq, Kichikqo'rg'oncha, O'rtaqo'rg'on, Chuqurqishloq, Etakmahalla*), maza-ta'm ifodalovchi (*Achchiqko'l, Shiringudug, Sho'rsuv*), ikkinchi qismi geografik atamalardan iborat bo'ladi.

3. **Son + ot:** Ushbu qolipda yasalgan qo'shma geografik nomlarning birinchi tarkibiy qismi sondan (uch, besh, olti, to'qqiz, qirq, ming va hokazo), ikkinchi tarkibiy qismi geografik atamadan (*Beshbuloq, Uchhariq, Yolg'izqum, Yakkasaroy, Uchtol, Oltihovuz, Beshqayrag'och*) tashkil topgan bo'ladi.

4. **Ot + fe'l va fe'l + ot:** Bu qolipdagi qo'shma nomlar ot bilan fe'lning hamda fe'l bilan otning birikuvidan (*Toshkesar, Qaynarbuloq, Oxunqaynar, Soykeldi, Qolgandaryo*) tashkil topadi.

**Geografik nomlar quyidagi hollarda ajratib yoziladi:**

Geografik nom oldida qandaydir sifat kelganda:

a) *Katta Oqtepa, Katta Beshkapa, Katta Naymancha;*

b) *Kichik Aravon, Kichik Ko'rg'oncha, Past Oqqo'rgon, Past Burqut;*

s) *Pastki Oyoqchi, Pastki Qoraqiya, Pastki Uyshun;*

g) *Quyi Janafar, Quyi Beshravot, Quyi Sho'robot, Quyi Navmetan;*

d) *Eski Hayitohod, Eski Elbayon, Eski Xo'jaobod, Eski Haqqulohod;*

e) *Etak Boybo'ta, Etak Saroy, Etak Oqqo'rg'on, Etak Qoramozor;*

i) *O'rta Qorabog', O'rta Rahimobod, O'rta Sho'rchi, O'rta Saydov;*

j) *Yuqori Arabxona, Yuqori Olot, Yuqori Qoraqiya, Yuqori Jirmiz;*

z) *Yangi Naynova, Yangi Baliqchi, Yangi Gulhog', Yangi Mirishkor.*

Kishilarning ism-familiyalaridan, taxalluslaridan iborat geografik nomlar alohida (ayrim holda) yoziladi: *Kimyoxon Xo'jaeva ko'chasi, Parda Tursun ko'chasi, Alisher Navoiy shohko'chasi, Sharof Rashidov shohko'chasi, Habib Abdullaev ko'chasi* kabi ko'p so'zli nomlar ajratib yoziladi.

**Geografik nomlar quyidagi hollarda qo'shtirnoq ichiga olinadi:**

Zavod-fabrikalar, shirkat xo'jaliklari, firmalarning nomlari qo'shtirnoq bilan yoziladi: «*GM-O'zbekiston*» qo'shma korxonasi, «*Atlas*» to'qimachilik kombinati, «*Toshkent*» shirkat xo'jaligi, «*Zomin*» jamoa xo'jaligi, «*Malika*» trikotaj fabrikasi, «*Zilolateks*» aktsiyadorlik jamiyati va hokazo.

Matbuot organlari nomi bilan atalgan geografik ob'ektlarning nomlari kartalarda qo'shtimoqsiz yoziladi: *O'zbekiston ovozi gazetasi ko'chasi, Turkiston ko'chasi, Sharq yulduzi suv iste'molchilari uyushmasi.*

#### **Geografik nomlarni sonlar bilan yozish tartibi:**

Geografik nomlar tarkibiga kirgan tartib sonlar nomning oldingi qismida, birinchi o'rnida so'z bilan yoziladi: *Yettinchi qo'tir, Beshinchi bo'lim, Sakkizinchi xo'jalik* va hokazo.

#### **Toponimlar tarkibidagi geografik terminlarni yozish tartibi:**

Geografik ob'ektning turini bildiradigan so'zlar geografik terminlar hisoblanadi. Masalan, *ko'l, cho'l, tog', adir, ariq, orol, quduq, muz, botqoq, qirg'oq, sharshara, qir, botiq, vodiy, soy, kanal, tekislik* va hokazo. Geografik terminlar turdosh otlar bo'lganida geografik nomdan keyin kichik harflar bilan alohida yoziladi.

Geografik terminlar toponimlar tarkibiga kirganda qo'shib yoziladi va shu geografik nomlardan keyin yana takrorlanishi mumkin: *Qoratog' tog'i, Oqtepa tepaligi, Sirdaryo daryosi, Kattaqishloq qishlog'i, Issiqko'l ko'li, Tandirqum qumligi.* Xaritalarda aholi punktlarining nomlari yonida ularning turlarini bildiradigan so'zlar (shahar, qishloq, ovul, shaharcha va boshqa) yozilmaydi.

**Geografik nomlar tarkibidagi terminlar va boshqa so'zlarning talaffuz shaklidagi xilma-xillik.** Ayrim geografik nomlar tarkibida jonli tilda qo'llanib kelayotgan terminlar ham uchraydi. Ular ilmiy adabiyotlarda qabul qilingan terminlardan farq qilib, faqatgina shevalarda qo'llanilishi mumkin. Bunday hollarda shevalarda foydalanadigan terminlar o'rniga adabiy til atamalari ishlatilmaydi, aksincha ularni asl shakli nomlar tarkibida saqlanib qolinadi. Mahalliy terminlar turli joylarda turlicha talaffuz qilinishi mumkin. Shu sababdan, jonli til so'zlaridan iborat terminlarning talaffuz shakli joy nomlari yozilishida saqlanib qoladi. Masalan: *Jamonjar, Jellig'uli, Suluvo'na* va hokazo.

**Geografik nomlar yozilishida defisning o'ri.** Birinchi tarkibiy qismi ot yoki sifatdan, ikkinchi komponenti atoqli otdan iborat bo'lgan nomlarning har ikki tarkibiy qismi katta harflar bilan yoziladi va birbiridan defis (lotincha, divisio – "ajralish, bo'linish") orqali ajratiladi. Defis – nomlarni qismga bo'lishda qo'llaniladigan belgi, chiziqcha (-). Toponimlar defis orqali ajratilganda, har ikki komponenti ham katta harflar bilan yoziladi: *Chig'atoy – Oqtepa, Ko'kcha – Oqtepa, Ozod – Buxoro, Isori – O'roqli, Qo'shtepa – Saroy, Xaroba – Qulonchi, Chek-*

*Naxchivan, Jo'ja Arab, Loyqa O'ray* va boshqalar. Ba'zi qo'shaloq so'zlardan iborat toponimlar orasida delis qo'yiladi va nomning ikkinchi tarkibiy qismi kichik harf bilan yoziladi: *Ana-muna, Chuqur-chuqur*. Uchinchi tarkibiy qismi le'l, ikkinchi tarkibiy qismi toponim bo'lgan geografik nomlar: *Qolgan-Sir, Qolgan-Chirchiq* kabi yoziladi.

Ko'pchilik xalqlarda geografik nomlarni yozishda transkripsiya usuli eng ko'p qo'llaniladi. Yuqorida qayd qilingandek, transkripsiya deganda geografik nomlarni talaffuziga qarab yozish, ya'ni quloqqa qanday eshitilgan bo'lsa, shunday yozish tushuniladi. Shuni ta'kidlash joizki, toponimikada transkripsiya kengroq ma'noda ham qo'llaniladi. Bunda geografik nomlar transkripsiyasi deganda talaffuziga ko'ra yozish ham, ta'jima ham, qanday yozish masalasi ham, umuman geografik nomlar inilosining barcha masalalari nazarda tutiladi.

Geografik nomlarni talaffuziga qarab yozish ko'pincha to'liq bo'lmaydi. Chunki, boshqa tillarda mavjud bo'lgan ba'zi bir harf va tovushlar o'zbek tilida bo'lmasligi mumkin. Masalan, rus tilidagi *u, w* harflari o'zbek tilida yo'q yoki o'zbek tilida mavjud bo'lgan *q, o', g', h* harflari rus tilida qo'llanilmaydi. Bunday hollarda tilda yo'q tovushlar ularga yaqinroq bo'lgan boshqa tovushlar (harflar) bilan almashtiriladi.

Xorijiy tillaridagi geografik nomlarni yozishda ba'zan transliteratsiya usuli qo'llaniladi. Bunda nomlar biron boshqa tildan ko'chirilganida harfma-harf yozish, ya'ni, chet tili alifbosidagi harflarni o'zbek tilidagi harflar bilan almashtirilib yoziladi. So'zning qanday talaffuz qilinishi e'tiborga olinmaydi. Umuman, olganda har bir geografik nomning mahalliy tildagi asl talaffuziga yaqinlashtirib yozishga harakat qilinadi.

Keyingi yillarda bir qancha nomlarning asli tiklandi. Qozog'istondagi Shevchenko – Aqtov, Olmaota – Almati, Qirg'izistondagi Frunze – Bishkek, Tojikistondagi Leninobod – Xo'jand deb ataladigan bo'ldi. Agar biror mamlakat o'z nomini, poytaxti, shahar, qishloq va boshqa geografik ob'ektlari nomini o'zgartirishni rasmiy ravishda taklif etsa, o'zbek tilida ham o'sha nom qabul qilinadi. Masalan:

*Avvalgi nomi: Hozirgi nomi:*

|             |                       |
|-------------|-----------------------|
| RSFSR       | Rossiya Federatsiyasi |
| Moldoviya   | Moldova               |
| Belorussiya | Belorus               |
| Habashiston | Efiopiya              |
| Birma       | Myanma                |

Qo'shma geografik nomlarni yozishda ko'pincha xatoga yo'l qo'yiladi. Ayrim geografik kartalarda bunday nomlar bir joyda qo'shib yozilgan (*Kattaqo'rg'on, Qorasuv*) bo'lsa, boshqa joyda ularni ajratib yozilganini (*Moyli suv*) ko'rish mumkin. Agar, murakkab (qo'shma) geografik nomlarning ikkinchi o'zagi (komponenti) atoqli ot bo'lsa, ularning har biri alohida-alohida va bosh harf bilan yoziladi. Masalan, *Eski Toshkent, Yuqori Chirchiq, Yangi Urganch, Qo'hna Urganch* va hokazo. Mabodo, murakkab geografik nomlarning ikkinchi komponenti turdosh ot bo'lsa, u holda qo'shib yoziladi. *Kattaqo'rg'on, Yangiyo'l, Jumabozor, Bekobod*. Murakkab geografik nomlarning har ikkala komponenti bosh kelishikdagi atoqli otlardan iborat bo'lsa, u holda defis orqali bosh harf bilan yoziladi; *Orexovo – Zuevo, Volga – Don, Qozi – Muhammad* va boshqalar.

Ilgari geografik nomlarni o'zbek tilida yozishni osonlashtirish uchun rus tilidagi manbalar – atlas, karta, lug'at va qo'llanmalar asos qilib olingan edi. Bu holat geografik nomlarni o'zbek tilida yozishni osonlashtirgan bo'lsa ham, ammo ruscha yozishda yo'l qo'yilgan xatolarni o'zbek tilida takrorlanishiga olib kelgan. Natijada, nomlarni ruscha yozishda yo'l qo'yilgan xatolar o'zbek tilidagi toponimlarda ham takrorlangan. Masalan, *Lishboa – Lissabon, Glasgou – Glazgo, Hamburg – Gamburg, Holland – Gollandiya, Xenova – Genuya, Norge – Norvegiya, Napoli – Neapol, Kyobentavn – Kopengagen, Tems – Temza, Oxayo – Ogayo* deb xato yozilgan. Yo'l qo'yilgan xatolarning bir qismini to'g'rilash mumkin, ammo, ularning ko'plari an'anaviy nomlarga aylanib ulgurgan va endilikda shunday holatda yozilaveradi.

Rus tilida geografik nomlar ba'zan bosh kelishikda (*m. Chelyuskin, g. Amundsen, o. Rudolf*), ko'pincha qaratqich kelishikda (*mis Dejneva, ostrov Vrangelya, gora Kuka, proliv Laperuza*) yoziladi. O'zbek tilida bunday nomlarning hammasi, rus tilida qanday yozilganidan qat'iy nazar, bosh kelishikda yozish kerak bo'ladi. Masalan, *Chelyuskin burni, Amundsen tog'i, Rudolf ko'li, Dejnev burni, Vrangel oroli, Kuk tog'i, Laperuz bo'g'ozi*.

O'zbek tilida an'anaviy bo'lib qolgan va qadimdan muayyan shaklda yozilib kelinayotgan joy nomlarining talaffuzi ham, yozilishi ham bir xil, ularni o'zgartirishga hojat yo'q. Ular o'zbek tilida o'nlab va yuzlab yillar davomida bir xil yozilib kelmoqda. Bu turdagi toponimlar qadimgi ilmiy, tarixiy, sayohatnoma hamda badiiy asarlarda ko'p uchray-

digan, asosan sharq mamlakatlaridagi nomlardir: *Bag'dod, Iroq, Misr, Tehron, Hirot, Eron, Marokash, Damashq, Bombey, Karochi, Balx* va boshqalar. Rus tilida an'anaviy bo'lib qolgan bir qator geografik nomlar o'zbek tiliga o'tib, shundayligicha saqlanib qolgan: *Angliya (England), Vashington (Uashington), Oslo (Uslo), Rim (Roma), Finlyandiya (Suomi), Frantsiya (Frans), Yaponiya (Nippon)* va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

An'anaviy nomlar ham o'zgarishi yoki ijtimoiy ehtiyoj tufayli jonli tildagi yangi nomlar bilan almashishi, agar xato bo'lsa tuzatilishi mumkin. Masalan, *Afriqa – Afrika, Amriqa – Amerika deb tuzatildi. Bahri Muhiti Kabirni – Tinch okean, Bahri Muhiti Atlasiyini – Atlantika okeani, Bahri Muhiti Hindiyini – Hind okeani, Bahri Hazarni – Kaspiy dengizi*, deyiladigan bo'ldi. Shuni ham ta'kidlash zarurki, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan keyin (1989 yil) o'zbek tilini chetdan, asosan rus tilidan kirib kelgan yot so'zlardan tozalash bahonasi bilan yangi an'anaviy nomlarni yana eski nomlar bilan almashtirishga urinishlar bo'ldi. Okean – ummon, materik – qarrat, tropika – mador, hatto geografiya so'zi o'rniga jo'g'rofiya kabi eskirib, muomaladan chiqib ketgan terminlar taklif etilgan. Soha mutaxassislarining fikricha, bu ishda xatolar bo'lsa tuzatish lozim, ammo eskisiga noo'rin qaytish hech ham kerak emas.

**Tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan nomlar.** Ko'pincha ismlar tarjima qilinmaydi. Geografik ob'ektlar nomi ham aslida ismlardir. Shu bilan birga, jahon geografiyasi va kartografiyasi tajribasida ba'zi nomlarni hamma tillarda qisman yoki butunlay tarjima qilish an'anasi mavjud. Bunday an'ana o'zbek tiliga ham tadbiiq etildi va ba'zi xalqaro nomlar o'zbekchaga tarjima qilingan. Odatda bir qancha xalqlar yashaydigan hududlarga tegishli yirik geografik ob'ektlar nomlari, ob'ektning tabiiy xususiyatiga bog'liq holda paydo bo'lgan geografik nomlar to'liq tarjima qilinadi. Masalan:

O'zbek tilidagi – *Qora dengiz*

Rus tilida – *Chernoje more*

Nemis tilida – *Shvarzes Meers* deb tarjima qilingan.

Xuddi shunday *Yaxshi Umid burni, Ko'k Nil, Qizil dengiz, O'rta dengiz, Katta Suvayirg'ich tizmasi, Qoyali tog'lar, Olovli Yer oroli* kabi ko'pchilik nomlar ham tarjima qilinadi. Ikki va undan ortiq so'zdan iborat bo'lgan geografik nomlar qisman tarjima qilinadi. Bunda murakkab geografik nomlarning aniqlovchidan iborat bo'lgan qismi tarjima

qilinib, atoqli otdan iborat qismi tarjima qilinmaydi. Ruscha yozilgan geografik nomlardan misol keltiramiz. *Yujniy (janubiy), severniy (Shimoliy), vostochniy (sharqiy), zapadniy (g'arbiy), heliy (oq), goluboy (ko'k), zeleniy (yashil), krasniy (qizil), cherniy (qora), dalniy (uzoq), blijniy (yaqin), verxniy (yuqori), nijniy (pastki), bolshoy (katta), maliy (kichik), sredniy (o'rta), stariy (eski), noviy (yangi)* kabi sifat aniqlovchilar odatda tarjima qilinadi.

Asosiy nom fonetik transkripsiyaga muvofiq o'zicha yozilaveradi. Masalan, *Novaya Gvineya – Yangi Gvineya, Maliy Atlas – Kichik Atlas, Severnaya Amerika – Shimoliy Amerika, Novaya Kaledoniya – Yangi Kaledoniya* va boshqalar. To'liq va qisman tarjima qilish usuli ma'muriy va siyosiy geografik nomlarga, shaharlar, qishloqlar nomlariga qo'llanilmaydi. Masalan, O'zbekistondagi *Yangiqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Yangiyo'l, Yangibozor, Yakkabog', Kattaqo'rg'on, Ko'kterak* boshqa tillarda tarjima qilinmay yozilaveradi. Xuddi shunday *Velikie Luki, Jeleznovodsk, Krivoy Rog, Nijniy Tagil, Nijniy Novgorod* kabi nomlar ham o'zbek tilida o'z shaklida yozilaveradi.

Tarkibida ruscha *zemlya* (er) so'zi bo'lgan geografik nomlarni yozishda ikkita qoida mavjud:

a) *zemlya* (er) so'zi turdosh ot (termin) bo'lsa tarjima qilib yoziladi. Masalan, *Zemlya Amudseni – Amudsen Yeri, Zemlya Fransa Iosifa – Frans Iosif Yeri* deb yoziladi.

b) *zemlya* (er) so'zi atoqli ot bo'lib kelsa, u tarjima qilinmaydi. Masalan, *Novaya Zemlya, Severnaya Zemlya* ko'rinishida yozilaveradi. Agar geografik nomlar faqat aniqlovchidan iborat bo'lsa, u holda tarjima qilinmaydi. Masalan; *Beloe ko'li, Tixaya daryosi, Issiqko'l, Qorako'l, Muzko'l* va boshqalar hamma tilda ham tarjima qilinmay yozilaveradi. *Tov, too, dog'* so'zlari geografik nomlar tarkibida kelgan hollarda *tov, too, dog'* deb yoziladi. Masalan, *Kopetdog', Qoratov, Saritov, Olatov* va hokazo.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. *Toponimlarni yozish qoidalari va grammatik xususiyatlarini tushintiring.*

2. *Sodda va qo'shma toponimlarga misollar keltirib izohlang.*

3. *Geografik nomlarni qo'shib va ujratiib yozish tartibi qunday?*

## Test topshiriqlari

1. O'zbekistonda geografik nomlarni to'g'ri yozilishini kim nazorat qiladi?

A. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Yozma belgilash" davlat qo'mitasi

B. Geografik ob'ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari haqida respublika komissiyasi

C. Geografik ob'ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari haqida viloyat, shahar va tumanlardagi hududiy komissiyasi

D. O'zbekiston Geografiya jamiyati

2. 3-Qoray qo'shilmasiz toponimlarni necha xilga bo'lib ta'riflagan?

A. 5 ta

B. 4 ta

C. 3 ta

D. 2 ta

3. Murakkab geografik nomlarning ikkinchi komponenti (erdosh ot bo'lsa, u holda qanday yoziladi?

A. Taftib kelgan bilan yoziladi

B. Taftima qilib yoziladi

C. Qo'shib yozilmaydi

D. Qo'shib yoziladi

4. Ishlatiladigan komsimulard nomlarini yozish tartibi qanday?

A. Qo'shilmasiz yoziladi

B. Delta bilan yoziladi

C. Qo'shilmasiz bilan yoziladi

D. Son bilan qo'shib yoziladi

5. 'Fov, too, dog' so'zlari nomlar tarkibida kelgan hollarda qanday yoziladi?

A. O'zgartirilib yoziladi

B. Asl holda yoziladi

C. Qo'shimcha bilan yoziladi

D. Faqat tog' shaklida yoziladi



## 12.2. Toponimlarning yozilishini standartlashtirish muammolari

### *Reja:*

1. *Geografik nomlarni standartlashtirish muammolari haqida umumiy ma'lumot.*
2. *Toponimlarni standartlashtirish va ularni asosiy tamoyillari.*
3. *O'zbekiston toponimlarini yozilishini standartlashtirish.*

**Mavzuning maqsadi:** Geografik ob'ekt nomini rasmiy va umumiste'molda qat'iy bir shaklda yozilishi, ularni milliy va xalqaro miqyosda standartlashtirish, mustaqillik davrida joy nomlarining milliy talaffuz va yozilish shakllarini tiklash va milliy lashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar bilan tanishtirishdan iborat.

**Tayanch ibora va atamalar:** Toponimlarni milliy va xalqaro miqyosda standartlashtirish, nomlarni davlat katalogi, yagona elektron bazasi, davlat tilidagi shakli, kirill va lotin alifbosidagi yozuvi.

Davlat hokimiyati va fuqarolarni o'z-o'zini hoshqarish organlarida, aloqa, transport, statistika, ommaviy axborot vositalarida, geografik kartalar va atlaslarda hamda boshqa nashrlarda, shunidek iqtisodiyot, fan, madaniyat, sport, jamoat birlashmalarida, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan geografik nom qat'iy bir shaklda yozilishiga erishish davlatning suverenligini ko'rsatuvchi dalillardan biridir.

Boshqacha aytganda, har bir geografik ob'ekt nomining rasmiy va umumiste'molda bir xilda yozilishini qat'iylashtirish, qonunlashtirish geografik nomlarni standartlashtirish deyiladi. Agar bunday vazifa birgina davlatning manfaatlarini ko'zlab bir til vositasida amalga oshiriladigan bo'lsa, bu geografik nomlarni milliy standartlashtirish deb yuritiladi. Bu ish xalqaro aloqalar tobora avj olayotgan hozirgi davrda bir necha davlatlarning mushtarak manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilsa, unda geografik nomlarni xalqaro miqyosda standartlashtirish lozim bo'ladi. Xalqaro standartlashtirish esa doimo milliy standartlarga asoslanishi kerak.

Hozirgi vaqtda geografik nomlarni milliy standartlash bir qator rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda amalga oshirilyapti. Joy nomlarini standartlashtirish muammolari nafaqat milliy, balki xalqaro ilmiy va hukumatlararo tashkilotlarning ham diqqat e'tiborini tobora ko'proq o'ziga jalb qilmoqda. *Xalqaro onomastika fanlari qo'mitasi (IGOS), Xalqaro fonetika assotsiatsiyasi (IPA), Antarktikasi o'rganish*

*Ilmiy konventsiya (ICAC), Jahon pochta shirkati uyushmasi (UPI), Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) ana shular jumlasidandir.*

U qayd etilgan joyda, so'nggi yillarda geografik nomlarni standartlashtirish muammasidagi *Ittifoqlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)* katta ahamiyat taqdim etgan. BMT tomonidan chaqirilgan va geografik nomlarni standartlashtirishga bog'liq bo'lgan bir necha konferentsiyalarni o'tkazishda hamda BMT ning geografik nomlar bo'yicha Ekspertlar guruhi tashkiloti tomonidan tuzilgan BMT ning geografik nomlar bo'yicha Ekspertlar guruhi (*UNGEGN*) tavsiyasiga ko'ra kartografik tashkilotlar va ofislar ishlab chiqarish korxonalarini aholi punktlari registri, toponimik ma'lumotlar bazasini yaratishda hamda turli maqsadlarda atlas va kartalar, standartlashtirilgan geografik nomlar ro'yxatini tuzishda hamda bunda asoslangan ma'lumotlar va kartografik mahsulotlar ishlab chiqarishda quyidagi umumiy printsiplarga amal qilishi kerak:

❖ *ro'yxatga olinadigan geografik ob'ektning nomi rasmiy va arxiv ma'lumotlar bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim;*

❖ *geografik nomlar davlatning mas'ul tashkiloti tomonidan standartlashtirilgan bo'lishi kerak;*

❖ *geografik ob'ektga faqat bitta geografik nom berilishi mumkin;*

❖ *kiril va boshqa lotin alifbosidan foydalanmaydigan davlatlar, BMT tomonidan tasdiqlangan va xalqaro miqyosda qo'llanishga mo'ljallangan hamda o'zlarida ishlab chiqilgan transliteratsiya usuliga muvofiq geografik nomlarni lotin alifbosida yozishi kerak;*

❖ *geografik nomlarni yozilishi va to'g'ri talaffuzi lisoniy (lingvistik) qoidalarga asoslangan bo'lishi lozim.*

Shunday qilib, toponimlarni standartlashtirish muammasi endilikda davlatni ichki masalasi bo'lib qolmay, balki, xalqaro ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakat ichida milliy shakli rasman tan olingan va qat'iy-lashgan toponimlar, xalqaro miqyosda to'g'ri qo'llanishi hamda xalqaro shartnoma va kelishuvlarda, davlatlararo chegaralarni demarkatsiya va delimitatsiya qilishda, xalqaro dengiz, havo va quruqlikdagi yuk tashishda, kartografik ma'lumotlar to'plashda, pochta va telegraf orqali xalqaro axborotlarni almashtirishda tan olinishi va to'g'ri aks etishi shart.

Geografik ob'ektlar nomlarini standartlash, ya'ni, qo'llash uchun majburiy bo'lgan shaklini aniqlash va belgilash har bir davlatning ichki ishidir. Shuni ham unutmash lozimki, geografik ob'ektlarning nomlarini standartlash uchun, uning milliy shakli asos vazifasini bajarishi

kerak. Buning ma'nosi shuki, mamlakat ichida rasmiy tan olingan nomlarga xalqaro iste'mol uchun tavsiya etiladi. Geografik ob'ektlar nomini standartlash va ularni boshqa tillarda qo'llash uchun ishlab chiqilgan tartib-qoidalar kartograf va toponimistlar ishini ancha yengillash-tiradi va tartibga soladi.

Shuni ham e'tirof etish kerakki, ayrim davlatlar nomining an'anaviy shakli mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan tartib-qoidalarga to'la mos kelmaydi. Bunday davlatlar nomi mustasno tariqasida tarjima qilinadi yoki ularni an'anaviy shakli qanday bo'lsa shunday yoziladi. Masalan, "Frans" -- Fransiya, "Bxarat" -- Hindiston, "Nippon" -- Yaponiya, "Suomi" -- Finlandiya, "Esterrayx" -- Avstriya va hokazo. An'anaviy bo'lib qolgan ayrim davlatlar nomi, hozirgi o'zbek tiliga boshqa tillar, jumladan, rus tili orqali o'zlashganligi tufayli, ularni ruscha shakli yoki muayyan o'zgarishlar bilan qabul qilingan. Quyidagi jadvalda ayrim hozirgi davlatlar nomining o'zbek tilidagi an'anaviy shakli ko'rsatilgan:

| Yaratilgan tilda | O'qilishi kerak | Ruscha shakli | O'zbekcha shakli |
|------------------|-----------------|---------------|------------------|
| Argentina        | Arxentina       | Argentina     | Argentina        |
| Brasil           | Brazil          | Braziliya     | Braziliya        |
| Ekvador          | Ekvador         | Ekvador       | Ekvador          |
| Norge            | Norge           | Norvegiya     | Norvegiya        |
| Romania          | Romania         | Ruminiya      | Ruminiya         |

*O'zbekiston geografik nomlarini yozilishini standartlashtirish.* Ma'lumki, uzoq vaqt qaram bo'lib kelgan va mustaqil taraqqiyot yo'liga kirgan O'zbekistonda, ilgari geografik ob'ektlarning nomlari topografik kartalarda metropoliyadan kelgan mutaxassislar va topograflar tomonidan aniqlangan shakllarda muhrlangan edi. Mustaqillikdan keyin xalqning milliy ongi, tafakkuri va toponimik madaniyatini o'sishi natijasida geografik nomlarning milliy talaffuz va yozilish shakllarini tiklash va milliy lashtirish jarayoni tez sur'atlarda avj oldi. Respublikada birinchi bo'lib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «Yergeodezkadastr» davlat qo'mitasi qoshidagi Geodeziya va kartografiya milliy markazining toponimika laboratoriyasi mamlakatdagi geografik ob'ektlarning standartlashtirilgan va qat'iylashtirilgan nomlar lug'atini yaratish ustida ish olib bordi.

Shuningdek, «Yerqudezkadastr» davlat qoʻmitasi tomonidan keyingi yillarda 1:1000000, 1:500000 va 1:200000 masshtabdagi topografik kataloqlar uchraydigan barcha geografik nomlarga kartochkalar ochildi. Ularning barchasi kompyuter xotirasiga kiritildi va geografik nomlarning yagona elektron bazasi yaratildi. Geografik ob'ektning oʻrni, turi, nomining davlat tilidagi shakli, kirill va lotin alifbosidagi yozuvi aniqlanib yagona elektron bazaga kiritildi. Bu oʻz navbatida respublikadagi yirik geografik ob'ektlar nomlarining qatʼiylashtirilgan shakllari yuzasidan davlat hokimiyati organlari va kartografik korxonalarining ehtiyoqlarini qondirishi imkonini beradi.

Yaqin yillarda 1:100000 va 1:50000 masshtabli topografik kartalardagi geografik ob'ekt nomlarini yagona elektron bazasini yaratish nazarda tutilgan. Shu yoʻsinda geografik nomlarning avtomatlashtirilgan davlat katalogi vujudga keladi. Bunday katalogni yaratish jarayonida maʼlum asborot, dasturiy va texnikaviy taʼminotlarini ishlab chiqish talab etiladi. Asborot taʼminoti deganda – geografik nomlarni jamlash, saqlash, nazorat qilish, axborot kodlari, hujjat koʻrsatgichlari va ularni doimo nazorat qilish usullari tushuniladi. Dasturiy taʼminot – kataloglarni doimo bir maromda ishlab turishiga imkon beradigan dasturiy vositalarni oʻz ichiga oladi. Texnikaviy taʼminot deganda – axborotlarni kiritish, saqlash va qayta ishlashga moʻjallangan va bir-biriga ulangan texnikaviy vositalar, yaʼni, eng soʻnggi rusumli kompyuterlar yigʻindisi nazarda tutiladi.

2011 yil 12 oktyabrda «Geografik ob'ektlarning nomlari toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni» qabul qilindi. Mazkur Qonunning asosiy talablaridan biri geografik ob'ektlarning nomlarini standartlashtirish, geografik nomlarning davlat reestrini yuritish, geografik ob'ektlar nomlarini davlat ekspertizasidan oʻtkazish kabi bir qator ishlarini amalga oshirishdan iborat. Geografik nomlarning yozilish shakllarini standartlashtirish, yaʼni, karta, atlas, rasmiy hujjatlar, ilmiy asarlar, darsliklar, matbuot organlarida bir xilda yozilishini taʼminlash, respublika tarixida ilk bor amalga oshirilayotganligi sababli, oʻta qiyin va masʼuliyatli vazifa hisoblanadi. Bu ishning qiyinligi shundaki, necha minglab joy nomlari shaklida uchraydigan yoki ularning tarkibidagi geografik terminlar, oʻsimlik va hayvonlar nomlari, etnik birliklar nomlari, hatto kishi ismlari ham turli joylarda turlicha fonetik, semantik shakllarda muhrlanib qolgan.

Geografik nomlarni standartlashtirish, yaʼni, joy nomlarining yozilishini qatʼiylashtirishda joy nomining oʻrni, nomlangan ob'ekt xili, nom-

ning semantikasi, etimologiyasi kabi ma'lumotlarni yig'iladi. Barcha ma'lumotlar, geografik nomlarning avtomatlashtirilgan ma'lumot jamlamasiga (kompyuterga) kiritiladi va har bir nom raqamlanib hisobga olinadi. Murakkab va mas'uliyatli bo'lgan bu ishga geograf, filolog, tarixchi toponimist olimlar jalb qilinadi. Ular yordamida geografik nomlarning o'zbekcha (kirill va lotin alifbolarida) va ruscha yozilishi qat'iylashtiriladi.

Qonunda geografik ob'ektlar nomlarini davlat reestrini tuzish nazarda tutilgan. Geografik ob'ektlar nomlarini davlat reestri – bu geografik nomlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish maqsadida yuritiladigan va ob'ektlar nomlariga taaluqli bo'lgan barcha ma'lumotlarni tizimlashtirilgan va avtomatlashtirilgan to'plami (bazasi) hisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, turistik aloqalar rivojlanayotgan hozirgi davrda, geografik nomlarning milliy shakllarini o'zbek tilida va lotin alifbosida chop etish shart. Sababi, yuqorida qayd qilingandek, geografik nomlarning milliy shakli ularni standartlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Buning ma'nosi shuki, mamlakat ichida rasmiy tan olingan nomlarga xalqaro iste'mol uchun tavsiya etilishi mumkin.

Umuman olganda, geografik nomlarni standartlashtirishda o'zbek adabiy tili me'yorlariga amal qilish zarur, istisnolar esa hamma tillarda va barcha leksik qatlamalarda uchraydi. O'zbekiston toponimlarini yozish shakllari hozirgacha qat'iylashtirilmaganligi sababli, hujjatlarni rasmiylashtirishda hamda geografik kartalarni yaratishda salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababdan, geografik nomlarning mahalliy shaklini tezroq rasmiy qo'llashga kiritish zarur.

Boshqacha aytganda, geografik nomning mahalliy shaklini rasmiy nom sifatida tan olish kerak va ularni o'zbek tilini hozirgi zamon qonuniyatlariga asosan rasmiylashtirish zarur. Har qanday sharoitda ham, asosiy talab joy nomining xalq orasida qo'llanidigan shaklini tanlash maqsadga muvofiqdir. Aks holda, mintaqaviy toponimiyaning o'ziga xos xususiyatlariga hamda, uning noyob milliy etno-madaniy landshaftiga putur yetadi.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. *Standartlashtirilgan geografik nomlar ro'yxatini tuzishda qanday printsiplarga amal qilish kerak?*

2. *Geografik ob'ekt nomini rasmiy va umumiste'molda bir xil yozish sababini tushuntiring.*

1. *Geografik nomlarni standartlashtirish muammolari bilan qanday xalqaro ilmiy va hukumatlararo tashkilotlar shug'ullanadi?*

### **Test topshiriqlari**

1. **Geografik nomlarni standartlashtirish nima?**

- A. Joy nomlarining yozilishini qat'iy yagona shaklini yaratish
- B. Har bir nom raqamlanib uni elektron bazaga (kompyuterga) kiritish
- C. Nomi milliy va xalqaro miqyosda bir xil qo'llanishi
- D. Harchu javoblar to'g'ri

2. **2011 yil 12 oktyabrda qabul qilingan «Geografik ob'ektlarning nomlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida geografik ob'ektlarning nomlarini standartlashtirish bo'yicha qanday asosiy talablar qo'yilgan?**

- A. Geografik nomlarning davlat reestrini yuritish
- B. Geografik ob'ektlar nomlarini davlat ekspertizasidan o'tkazish
- C. Joy nomining mahalliy shaklini rasmiy nom sifatida tan olish
- D. Barcha javoblar to'g'ri

3. **Geografik ob'ektlar nomlarini davlat reestri bu ...**

- A. Geografik nomlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish
- B. Nomning xalq orasida qo'llanidigan shaklini tanlash
- C. O'zbek tilini hozirgi zamon qonuniyatlariga asosan rasmiylashtirish
- D. To'g'ri javob berilmagan

4. **Xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, turistik aloqalar uchun qanday nom tavsiya etiladi?**

- A. Mamlakat ichida rasmiy tan olinmagan nomlar
- B. Faqat yangi nomlar tavsiya etiladi
- C. Mamlakat ichida rasmiy tan olingan nomlar
- D. Har qanday nom tavsiya etiladi

5. **O'zbekistonda geografik nomlar davlatning qaysi mas'ul tashkiloti tomonidan standartlashtiladi?**

- A. Madaniyat va sport vazirligi tomonidan
- B. O'zbekiston Geografiya jamiyati tomonidan
- C. «Yergeodezkadastr» davlat qo'mitasi tomonidan
- D. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan

## 13-mavzu: GEOGRAFIK NOMLARNI MUHOFAZA QILISH ZARURIYATI. TOPONIMIKANING JAMIYATDAGI AMALIY AHAMIYATI

### 13.1. Geografik nomlarni muhofaza qilish zaruriyati

#### *Reja:*

1. Joy nomlarini muhofaza qilishning mazmun-mohiyati.
2. Toponimlarni muhofaza qilishning ilmiy va huquqiy asoslari.
3. O'zbekistonda geografik nomlarni muhofazasiga qo'yilgan talablar.

**Mavzuning maqsadi:** Geografik nomlarni muhofaza qilishning mazmun-mohiyati, ilmiy va huquqiy asoslari, tarixiy nomlarni daxlsizligi, joy nomlarini muhofaza qilishning amalga oshirish yo'llari va uning dolzarbligi, nom qo'yish va ularni muhofaza qilish shartlari bilan tanishtirishdan iborat.

**Tayanch ibora va atamalar:** Nomlarni muhofaza qilish, ilmiy va huquqiy asoslari, nomlarni daxlsizligi, muhofaza shartlari, muhofaza yo'llari, nomning sirti va ichi, nom va davlat nazorati.

Geografik nomlar xalq tilining ulkan tarixiy milliy boyligi sifatida muhofaza qilinishi kerak. Chunki, joy nomlari tabiat va insoniyat tarixi bilan bog'liq bo'lgan turli boy ma'lumotlarni o'z bag'rida saqlaydi. Shu sababdan, ularga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, avaylab-asrash davlat ahamiyatiga molik bo'lgan tadbirlar sirasiga kiradi. Ko'pincha, geografik nomlar muhofaza qilinishi kerak deganda tarixiy nomlar tushuniladi. Muhofaza qilinishi lozim bo'lgan nomlar haqida gap ketganda har bir joy nomiga alohida yondashish lozim bo'ladi.

Aytish joizki, geografik nomlarni muhofaza qilishning muhim omillaridan biri, kishilarni geografik ob'ektlarning nomiga to'g'ri va oqilona munosabatda bo'lish tushuniladi. Buning asosiy shartlaridan biri geografik nomlarni o'rinsiz, yetarli asoslarsiz o'zgartirmaslik kerak. Joy nomlarini turg'unligi, tarixiy nomlarni daxlsizligini ta'minlaydi va geografik nomlarni stratigrafik (tarixiy) qatlamlarini saqlash va asrashda muhim ahamiyat kash etadi.

Geografik ob'ektlarga nom berish yoki qayta nomlash ishi butunlay mafkuraviy va siyosiy qarashlarni ifoda etuvchi va targ'ib qiluvchi vositaga aylanib ketmasligi kerak. Bunda muayyan me'yor, chegarani saqlash lozim. Shu bilan birga, geografik nomlar xalq va davlat

nomlarining mos keluvchi ob'ektiv va qonuniy jarayonlarni ifodalashga ma'lum darajada xizmat qilishini ham unitmaslik lozim. Joy nomlarini muhofaza qilish ishi, o'tmishda turli sabablarga ko'ra, ko'pincha topilmadi, zup'unu tufayli iste'moldan chiqqan va unutilgan nomlarni qaytadan tiklashdek muhim vazifani ham o'z ichiga oladi.

Hazir qanday tarixiy nomni qayta tiklash masalasi, bir vaqtlar uni o'z ichiga olgan nomqabul nomni bartaraf qilishni talab qiladi. Sobiq davrda davrda O'zbekistondagi ko'pgina geografik ob'ektlar (shahar, qishloq, makedda va hoshqalar) o'sha davr mafkurasiga mos nomlar bilan atalmasdirligini edi. Hozirda mana shu salbiy hodisaning oqibatlari tugatilib, tarixiy nomlar qayta tiklandi. S.Qoraevning ma'lumotlariga ko'ra, 1989-2004 yillar davomida, faqat Toshkent shahrining o'zida mustaqil nomlarga ega bo'lgan mingdan ortiq ko'chalar qayta nomlangan. Dunyodagi biron shaharda ko'cha-ko'ylarni qayta nomlash sohasida tumandik katta o'zgarish hech qachon bo'lmagan desak xato bo'lmaydi.

Mutaxassislarning fikricha, geografik nomlarni muhofaza qilishni quyidagi yo'llar bilan amalga oshirish mumkin:

a) *geografik ob'ekt nomini o'zgartirish ishiga jiddiy va ma'suliyat bilan yondashish va markazlashgan kartotekasini tuzish;*

b) *joylarda azaldan mavjud tarixiy an'anaviy nomlarni yetarli asostarsiz o'zgartirmaslik;*

v) *joy nomlariga tarixiy va madaniyat yodgorligi maqomini berish;*

g) *geografik nomlarni davlat muhofazasiga olish;*

d) *har bir viloyat, tuman, shaharlar hududida mavjud tarixiy-milliy ahamiyatga ega nomlarning «Qizil kitobi»ni tuzish.*

Shu bilan birga, ilmiy-ma'rifiy muassasalar, jamoalar, uyushmalar, jamiyathar va yukka shaxslarning geografik nomlari haqidagi ma'lumotlarni to'plash, asrashi va o'rganishga qaratilgan har qanday harakat va tushabbusni o'z vaqtida qo'llab-quvvatlanishi lozim. Joy nomlarini o'rnatishga va ular haqidagi bilimlarni targ'ib qilishga qaratilgan ilmiy-amaliy konferentsiyalar, seminarlar, davra suhbatlari, ilmiy munozaralarni tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Geografik nomlarning mohiyati va ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazishga xizmat qiladigan ilmiy-ommabop kitoblar, risolalar, lug'atlar, ma'lumotnomalar, plakatlar, markalar tayyorlash va nashr etishni yo'lga qo'yish lozim. Radio, televideniya, ommaviy axborot vositalari va texnologiyalari imkoniyatlaridan oqilona foydalanib, keng jamoatchilikda geografik nomlarga hurmat va to'g'ri munosabatda bo'lish madaniyatini tarbiyalash kerak.



Joy nomlari aksariyat hollarda **kishilarning** nomlari bilan atalayotganligi, bir xildagi nomlar ko'payib ketayotganligi, nomlar shaklan noqulay va uzunligi, ma'no – mazmunini sayozligi, mafkura va qarashlar bilan aloqador bo'lgan nomlarning hali ham saqlanib kelayotganligi va ayniqsa nomlarni to'g'ri yozishda yo'l qo'yilayotgan xato va nuqsonlar bu sohada mavjud kamchiliklarni to'la bartaraf qilinmaganligidan dalolat beradi. Birgina misol, Sovet hokimiyati yillarida **shahar** – qishloqlarni va boshqa geografik ob'ektlarni kommunistik mafkura dohiylari, partiya – sovet organlarining taniqli arboblarning familiyalari bilan qayta nomlash keng rasm bo'lgan edi. Mustaqillik yillarida bunday bedodlikka barham berildi. Shu bilan birga aholi punktlariga, ko'chako'ylarga o'z hududida hiron sohada dong qozongan kishilarning nomlarini berish inertsiyasi hamon davom etmoqda.

Ta'kidlash joizki, kishilik jamiyatining hozirgi bosqichida geografik ob'ektlarni kishilar sharafiga nomlash nomaqbul printsip hisoblanadi. Aholi punktlari, mahalla-ko'ylarni va boshqa ob'ektlarni kishilarning nomlari bilan atash shu zaylda davom etaversa, oradan bir necha o'n yil o'tgandan so'ng toponimlar nuqul antroponimlardan iborat bo'lib qoladi. Shunday salhiy holatlarning takrorlanmasligi uchun geografik ob'ektlarni nomlashda yagona ilmiy dasturlar yaratilishi, umuman toponimiyaning ilmiy va milliy asosga qurilishi kun tartibidagi muhim masala sifatida qaralmog'i lozim.

Geografik ob'ektlarga nom berishda yana bir masalaga, ya'ni, toponimning ichki xususiyatiga ham e'tibor qaratilishi lozim. Taniqli toponimist olim A.V.Superanskaya bu haqda shunday yozgan: "yaxshi me'mor o'z asarini yaratayotganda imoratning ichki imkoniyatlarini, uning tashqi qiyofasiga mos bo'lishi uchun harakat qiladi. Geografik ob'ektga nom tanlayotganda ham xuddi shunday yo'lni tanlash kerak. Toponimda ham ortiqcha, qalbaki va keraksiz elementlar bo'lmasligi lozim. uning ichki tuzilishi tashqi qiyofasiga har doim mos bo'lishi darkor".

Bu masala H.Hasanovni ham e'tiborini tortgan. Olim har bir geografik ob'ekt nomiga juda ehtiyotkorona yondoshish kerakligiga ishora qilib, «har bir joy nomining ikki tomoni bor: sirti va ichi. Sirtidan qaraganda har bir nom atoqli ot bo'lib ko'rinadi. Ammo. nomning ichki tomoni ham borki, uni ko'rish uchun «rentgen»ga solish lozim, bu nom qaerda, nega shunday atalgan, qaysi tildan olingan? Joyning bu ichki xususiyatini har kim bilavermaydi, u faqat tatqiqotchiga muyassar bo'ladi» deb yozgan.

Geografik ob'ektlarning nomlari (oykonim, etnonim, gidronim, antroponim, oronim va boshqalar) nominatsiya printsiplari jihatidan bir-biridan farq qiladi. Kishilar tomonidan tabiiy geografik ob'ektlar birinchi bo'lib nomlanganligi aniq, ammo tarixiy manbalarda boshqa toponimlarga nisbatan oykonimlar ko'proq qayd qilinganligi sababli xronologik jihatdan ularni eng qadimiy toponimlar deb hisoblash mumkin. Tabiiy-geografik ob'ektlarga nisbatan aholi punktlari nomlarining muhimligini jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va xo'jalik faoliyati bilan bog'lik ekanligi bilan izohlash mumkin.

Geografik ob'ektlarga nom qo'yish va ularni muhofaza qilish shartlarini H.Hasanov quyidagicha ko'rsatgan: «birinchi sharti shuki, nomning aniq ma'nosi bo'lishi, yuz, ikki yuz yildan keyin ham jaranglab, ma'nosi anglashilib turishi lozim. Ikkinchidan, nomda kamsitish alomatlari, uyat va dag'al so'zlar bo'lmasligi kerak. Uchinchidan, qo'yiladigan nom tilning grammatik qoidalariga mos kelishi zarur. To'rtinchidan, bir xildagi nomlar ko'payib ketmasin. Chunki, bir viloyat, shahar yoki tumanning o'zida bir xil yoziladigan nom ikkita bo'lsa, chalkashlik tug'iladi».

Geografik nomlar, jumladan oykonimlar muayyan tarixiy sharoitning mahsuli, ularning paydo bo'lishi jamiyat hayoti va ushbu hududa yashovchi xalq tili bilan chambarchas bog'liq. E.M.Murzaevning ta'kidlashicha, tarixiy sharoit, til va xalqlarning o'zgarishi toponimlar arealining o'zgarishiga olib kelgan. Shu sababdan hech bir mamalakatning geografik nomlarida bir xillik kuzatilmaydi. Ma'lumki, nomlar muhim ijtimoiy funktsiyani ham bajaradi, ya'ni jamiyatning turli ehtiyojlariga xizmat qiladi. Shu sababdan, ularni tartibga solish, yozilish qoidalarini yaratish, milliy va xalqaro miqyosda standartlashtirish, toponimlar nominatsiyasini aniqlash soha mutaxassislarining muhim vazifasi hisoblanadi.

Geografik nomlarni tartibga solish, yozilish shakllarini qat'iyalashtirish va ularning muhofaza qilish masalasi hech qachon hozirgichalik dolzarb bo'lgan emas. Sababi, geografik nomlar matbuot sahifalarida, ilmiy manbalardagina emas, balki rasmiy hujjatlarda, jumladan mukammal topografik kartalarda ham faqat rus tilida qayd qilib kelingan. Mahalliy tildan bexabar topograflar geografik ob'ektlar nomlarini asliyatidan ancha uzoq shakllarda yozib qoldirganlar. Bu esa joy nomlarining yozilishini qat'iyatirish ancha mehnat talab va murakkab masala ekanligidan dalolat beradi.

Har qanday bo'lganda ham joy nomlarini tartibga solish, zarur bo'lib qolgan hollarda geografik ob'ektlarni qayta nomlash, tarixiy nomlarni tiklash, geografik ob'ektlar nomlarining mukammal ro'yxatini tuzish, geografik va topografik kartalar nashr qilish, geografik nomlarning yozilish qoidalari va yo'riqnomalarini tayyorlash kabi ishlar soha mutaxassisleri oldida dolzarb masala bo'lib qolaveradi.

Xalqning ijtimoiy ehtiyoj mahsuli bo'lgan geografik ob'ektlar nomlari ilmiy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga ega, shu sababdan boshqa tarixiy va madaniy yodgorliklar qatorida ular ham qonun va davlat himoyasida bo'lishi yangi qabul qilingan Qonunda aniq belgilangan. Mazkur Qonun va qonun osti normativ hujjatlarda geografik ob'ektlar nomlari jamoatchilik va davlat himoyasida ekanligi rasman tasdiqlangan. Zarur bo'lib qolgan hollarda geografik ob'ektlarni nomlarini o'zgartirish yoki qayta nomlash kim tomonidan va qaysi miqdorda amalga oshirishi hamda bu ishlarga javobgar tashkilot ham aniq ko'rsatilgan.

Mutasaddiy tashkilotlar geografik ob'ektlarga nom berishda va ularni qayta nomlashda tarixiy an'analarga qat'iy rioya qilib, hozirgi zamon talablarini ham unutmashligi kerak. Shu nuqtai nazardan, geografik ob'ektlarni nomlash va qayta nomlash hamda ularni keyinchalik muhofaza qilishda quyidagi talab va mezonlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- nom joyning ma'lum tabiiy yoki iqtisodiy-geografik xususiyatlarini o'zida mujassam etishi shart;

- qo'yilayotgan nom o'sha hududda yashovchi aholi tilining lisoniy xususiyatlariga yot bo'lmasligi, unda toponimik an'anaviylik, tarixiylik, milliylik sezilib turmog'i kerak;

- nom shaklan sodda, tushunarli, aniq, qisqa, lo'nda, ko'pi bilan ikki yoki uch tarkibiy qismdan (ularni biri qo'shimcha bo'lishi mumkin) iborat bo'lib, mo'ljallik (orientirlik) vazifasini bajarsin;

- yangi nom o'sha hududda avval mavjud bo'lgan nomlarni takrorlamasligi, esda oson saqlanib qoladigan, talaffuzda yengil va qulay bo'lmog'i dardkor;

- toponim iloji boricha, mafkuraviy qarashlardan xoli bo'lmog'i kerak;

- viloyatlar, tumanlar, shaharlar va boshqa xil yirik geografik ob'ektlarga kishilarning nomlari qo'yilmasligi lozim.

Yuqorida qayd qilingandek, geografik ob'ektlarni nomlarini saqlash va muhofaza qilish nihoyatda muhim va mas'uliyatli ish ekanligi aniq. Shu sababdan, O'zbekiston Respublikasi «Geografik ob'ektlarining

nomlari to'g'risida»gi Qonunning (2011 yil 12 oktyabr № O'RQ - 303) 19-moddasida geografik ob'ektlarning nomlari davlat tomonidan muhofaza qilinadi va nomlarning birini boshqasiga o'zboshimchalik bilan almastirishga, geografik ob'ektlarning buzib ko'rsatilgan nomlaridan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi, deb aniq belgilab qo'yilgan.

Mazkur Qonunda (19-modda) Geografik ob'ektlarning nomlaridan foydalanilishi va ularning saqlanishi ustidan nazoratni belgilangan vakolatlar doirasida: davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari; respublika komissiyasi, O'zbekiston Respublikasi Yergeodezkadastr davlat qumitasi; fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi deyilgan.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. O'zbekistonda geografik nomlarni muhofaza qilish uchun qanday talablar belgilangan?

2. Geografik nomlarni muhofaza qilishni qanday yo'llar bilan amalga oshirish mumkin?

3. O'zbekiston Respublikasi «Geografik ob'ektlarining nomlari to'g'risida» gi Qonunda (2011 y. 12.10. № O'RQ-303) geografik nomlarni muhofazasi bo'yicha belgilangan normalar haqida ma'lumot bering.

#### **Test topshiriqlari**

1. O'zbekiston Respublikasi «Geografik ob'ektlarining nomlari to'g'risida» gi Qonunning (2011 y. 12.10. № O'RQ-303) 19-moddasida geografik ob'ektlarning nomlaridan foydalanilishi va ularning saqlanishi ustidan nazoratni belgilangan vakolatlar doirasida kimga yuklatilgan?

- A. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga
- B. O'zbekiston Respublikasi "Yergeodezkadastr" davlat qumitasiga
- C. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga
- D. Barcha javoblar to'g'ri

2. Mutaxassislarning fikricha, geografik nomlarni muhofaza qilishni qanday yo'llar bilan amalga oshirish mumkin?

A. Geografik ob'ekt nomini o'zgartirish ishiga jiddiy va ma'suliyat bilan yondashish va markazlashgan kartotekasini tuzish

B. Joylarda azaldan mavjud tarixiy an'anaviy nomlarni yetarli asoslarsiz o'zgartirmaslik

C. Joy nomlariga tarixiy va madaniyat yodgorligi maqomini berish

D. Geografik nomlarni davlat muhofazasiga olish

3. "Toponimda ortiqcha, qalbaki va keraksiz elementlar bo'lmashligi lozim, uning ichki tuzilishi tashqi qiyofasiga har doim mos bo'lishi kerak" degan ibora kimga tegishli?

A. A.V.Superanskaya

B. E.M.Murzaev

C. H.Hasanov

D. T.Nafasov

4. "Arab yozuvi tufayli shaharlar va boshqa ob'ektlarning nomlari tanib bo'lmaydigan darajada o'zgarib ketdi" degan olim kim?

A. A.Beruniy

B. V.Bartold

C. E.Murzaev

D. H.Hasanov

5. O'zbekiston Respublikasi «Geografik ob'ektlarining nomlari to'g'risida»gi Qonunning (2011 y. 12.10. № O'RBQ-303) 18-moddasida geografik ob'ektlarning nomlarini davlat tomonidan muhofaza qilish uchun qanday normalar belgilangan?

A. Nomlarning birini boshqasiga o'zboshimchalik bilan almashtirishga yo'l qo'yilmaydi

B. Geografik ob'ektlarning buzib ko'rsatilgan nomlaridan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi

C. Geografik ob'ektlarning nomlari davlat tomonidan muhofaza qilinadi

D. Geografik ob'ektlarning nomlarini muhofaza qilishni davlat tavsiya etadi

### 13.2. Toponimikaning jamiyatdagi amaliy ahamiyati

#### *Reja:*

1. *Toponimika va uni jamiyatning hozirgi rivojlanish bosqichidagi ahamiyati.*

2. *Toponimikaning amaliy ahamiyatini belgilaydigan asosiy tamoyillar.*

3. *Toponimika va tabiiy landshaftlar himoyasi.*

*Mavzuning maqsadi:* Toponimika fanining hozirgi zamon amaliy ahamiyati, jamiyatda sodir bo'layotgan turli o'zgarishlarni (siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, fan taraqqiyoti) nomlarda aks

etishni, joy nomlarining amaliy ahamiyatini tadqiq etishning asosiy tamoyillari hamda nomlarning ekologik funksiyasining mazmun-mohiyati haqida ilmiy tushunchalar berish.

**Tayanch ibora va atamalar:** Nom davr indikatori, uning adreslik funksiyasi, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati, ta'lim va tarbiyaviy ahamiyati, geografik ob'ektlarni nomlash va qayta nomlash, nomlarning ekologik funksiyasi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, geografik nom – jamiyatdagi real voqelikni ifoda etadi. Shu bois, nom geografik ob'ektning qaysi bir xususiyatini o'zida mujassam etishidan qat'iy nazar, u jamiyat manfaatlarini uchun xizmat qiladi. Yana shuni ham aytish zarurki, geografik nom har qanday ijtimoiy hodisa kabi, muayyan tarixiy davrda paydo bo'ladi va ularda insoniyatning anglash qobiliyatining evolyutsiyasi mujassamlashgan. Mutaxassislarning fikricha, har bir nomning salmog'i birinchi navbatda u bilan bog'liq bo'lgan geografik ob'ektning qanchalik mashhurligi bilan belgilanadi. Nomning tanilishiga esa, geografik ob'ektning hududiy joylashuvi, davr va zamonda egallagan mavqei kabi bir qancha boshqa ijtimoiy-tarixiy omillar ham ta'sir ko'rsatadi.

Demak, geografik nomlar kishilik jamiyati taraqqiyotining dastlabki bosqichida ijtimoiy ehtiyoj tufayli paydo bo'lgan va davr indikatori sifatida, doimo jamiyatda sodir bo'layotgan turli o'zgarishlarni (siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, fan taraqqiyoti) o'zida aks etib boradi. Ma'lumki, hozirgi jamiyatga toponimika qanday amaliy yordam ko'rsatishi mumkin, degan masala ko'pchilikni qiziqtiradi. Mashhur rus toponimisti E.M.Murzaev bu masalaga e'tibor qaratib, toponimikaning jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichidagi amaliy ahamiyatini quyidagi besh tamoyil asosida o'rganishni tavsiya etgan:

**Birinchi** – nomning adreslik funksiyasi. Hozirgi zamonda ham, uzoq tarixiy davrlarda ham, ma'nosidan qat'iy nazar, geografik nomlarning kishilik jamiyati uchun eng muhim va zaruriy vazifasi, uning adreslik funksiyasi hisoblangan. Shu sababdan, har qanday nom-geografik ob'ektning yorlig'i, unga birkirilgan maxsus so'zdir.

Geografik nomning bu o'ta muhim va amaliy funksiyasi doimo bir maronida uzliksiz ishlab turishi lozim. Ba'zan, muayyan hududda bitta nomni bir necha bor takrorlanishi, joy nomini adreslik funksiyasiga putur yetkazadi. Xususan, bir viloyat yoki ayniqsa bir tuman miqyosida bitta nom bir necha bor takrorlansa, nom mazmun jihatdan qashshoqla-

shadi va eng muhimi davlat idoralari, transport, aloqa, meditsina, yong'in xavfsizligi kabi tashkilotlar ishida chalkashliklarni keltirib chiqaradi.

Geografik tamoyillar asosida yaratilgan toponimlar bir qancha afzalliklarga ega. Ular orasida eng muhimi nomlar tez-tez o'zgarmaydi, uzoq vaqt saqlanib qoladi, joyning hozirgi kunda o'zgarib, unitilib ketgan tabiiy va iqtisodiy geografik xususiyatlari, dastlabki landshaft turi haqida qimmatli ma'lumot beradi. Geografik omillar asosida paydo bo'lgan nomlarning yana bir afzalligi, ularni adreslik funktsiyasini to'la bajarishga imkon paydo bo'ladi, sababi nomlashda ko'cha yoki mahalladagi asosiy, o'ziga xos tabiiy yoki iqtisodiy- ijtimoiy ob'ektga mo'ljal olinib, geografik nomning darakchilik xususiyati namoyon etiladi.

**Ikkiinchisi** – nomning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati. Har bir geografik nomda muayyan ma'no va mazmun yashirin, ularni o'rganish kishida o'tgan ajdodlariga nisbatan faxr va g'urur hissini uyg'otib, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantiradi. Masalan, Fransiyaning Sankt-Peterburgdagi konsuli, diplomatik qabul vaqtida shaharning sobiq hokimi V.Matvienkoga murojaat qilib, shahardagi hozirda Robesper nomi bilan ataladigan ko'chani, uning avvalgi nomi bilan Fransiya ko'chasi deb atashni iltimos qilgan. V.Matvienko hayron bo'lib: «Naxodki, siz Robespenni yomon ko'rsangiz» deb iltifot ko'rsatganda, konsul «aslo unday emas, men Fransiyanı sevaman!» deb javob bergan.

Geografik ob'ektlar nomi «o'lik» so'zlar emas, balki zamirida xalq hayoti, tarixi, tili va shunga o'xshash boshqa ko'plab sirlarni asrayotgan ma'naviy ozuqa manbaidir. Shu sababdan, radio va televideniya, davriy matbuot, ilmiy-tadqiqot muassasalariga aholining turli qatlamlaridan shahar va qishloqlari nomlarini izohlashni so'rab murojaat qilishadi. Qiziquvchilarning istak va xohishi inobatga olinib, so'ngi yillarda gazeta va jurnallar sahifalarida, ilmiy-ommabop nashrlarda toponimik mavzularga oid bir qator maqolalar e'lon qilindi. Geografik nomlar haqida ommabop qitoblar, toponimik lug'atlar, ma'lumotnomalar nashr qilinmoqda. Bularning hammasi, shubhasiz xalqning, xususan yoshlarning kamol topishi, ong va tafakkurini shakllanishi hamda ularning ma'naviy, ma'rifiy saviyasini yuksaltirishda xizmat qiladi.

**Uchinchi** – nomning ta'lim va tarbiyaviy ahamiyati. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, geografiya darslarida toponimik ma'lumotlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Toponimlar ma'nosini izohlash, geografik ob'ektning o'ziga xos xususiyatlari haqida qo'shimcha ma'lumot beradi va o'quvchilar bilimlarini mustahkamlaydi. Ma'lumki,

geografik nomlar tulli tarixiy sharoitlar va tillar takomilining mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun ham tarixchilar, arxeologlar va etnograflar toponimikaga tobora ko'proq murojaat qilishmoqda. Toponimist olimlar, yer buyi-yerastini anglash hamda buyuk geografik kashfiyotlar tarixini o'rganish davridaya toponimika bilan chambarchas bog'liq deb hisoblanadi.

Xususan, geografiya tarixi boshqa fanlarga nisbatan toponimikaga ko'proq murojaat qiladi. Toponimika asoslarini bilish kartograf va topografiklar uchun ham juda muhim. Filologlar til tarixi, uning shakllanish jarayoni, rivojlanish bosqichlari kabi muammolarni yechimini topishda ko'proq atoqli otlarga, ya'ni til tarkibini boshqa lug'aviy qatlamlar bilan birga uzviy aloqada rivojlangan toponimik leksikaga murojaat qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblashadi.

**To'rttunchisi** – geografik ob'ektlarni nomlash va qayta nomlash. Ma'lumki, joy nomlarining o'zgarishi hamda yangi nomlarning berilishi doimiy jarayon, u jamiyatdagi o'zgarishlarga befarq emas va ko'pincha tabiiy sharoit taqozosi bilan amalga oshadi. Geografik nomlar orasida, maon qo'li bilan yaratilgan ob'ektlar (shahar, qishloq, ko'cha va hokazo) nomlari ko'proq o'zgaradi. Shuni ham qayd qilish kerakki, geografik nomlarni o'zgartirishga ko'p ham maftun bo'lish kerak emas, zamonaviy toponimlar ishtiyoqida tarixiy joy nomlaridan voz kechish muvofiq yaramaydi.

Yuqorida qayd qilingandek, bu jarayon ko'proq tarixiy voqealar davrida jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, lisoniy va boshqa o'zgarishlar bilan bog'liq. Geografik ob'ektning avvalgi nomini o'zgartirish zaruriyati paydo bo'lgan taqdirda, har bir holatga alohida yondashgan ma'qul, nima sababdan almashtirish zaruriyati paydo bo'lganligini aniqlash darkor. Joy nomi o'zgaridimi ob'ekt va uning nomi bilan bog'liq axborotlar ham o'tmishga aylanadi, har bir toponim o'z davrini mahsuli ekan, yangi nom bilan atalgan ob'ekt qancha qadimiy bo'lmasin, xuddi endigina harpo etilgan aholi punktidek tuyuladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, viloyat, shahar va tumanlarda eski tuzum mafkurasi bilan bog'liq bo'lgan, sho'rolar davri g'oyalarini turg'ib qiluvchi, hech qanday milliy ma'no, xususiyat kash etmaydigan nomlar bilan atalib kelingan yuzlab geografik ob'ektlar nomlari o'zgartirildi. Ba'zan, toponimning asl ma'nosini bilmasdan turib, uni o'zgartirish hollari ham uchraydi. Shuni ta'kidlash joizki, real hayotda nomning paydo bo'lishiga asosiy turtki bo'lgan sababni aniqlamasdan turib, uni



o'zgartirish qonunga xilof hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi «Geografik ob'ektlarning nomlari to'g'risida» gi Qonunida (2011 yil 12 oktyabr № O'RQ – 303) belgilangandek, geografik ob'ektlar nomlarining birini boshqasiga o'zboshimchalik bilan almashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

**Beshinchisi** – nomlarning ekologik funksiyasi. Keyingi yillarda olib borilgan geografik tadqiqotlarda nomlarning ekologik funksiyasiga ko'proq e'tibor berilmoqda. Chunki, joy nomlari hamma davru zamonda atrof-muhitni muhofazasi uchun muayyan darajada xizmat qilgan. Ba'zan, qo'yilgan nom shu joyni avaylab-asrashga, uni muqaddas bilishga, ilohiylashtirishga sabab bo'lgan. Bunday nomlar mahalliy xalqning ma'naviy dunyosini in'ikos etgan, ular yordamida yer, suv, havo, hududning flora va faunasi, bir so'z bilan aytganda, barcha tabiat komponentlari muhofaza qilingan. Natijada, geografik nomlar yordamida atrofdagi tabiat komponentlariga zarar tegmagan, aksincha tabiiy boyliklardan oqilona va tejimli foydalanishga harakat qilingan. Shuningdek, toponimlar xalqning tinch va osuda yashashi hamda aholi maskanlarini toza va obod bo'lishiga xizmat qilgan.

Ma'lumki, turkiy xalqlar qadimdan yer va suvni muqaddas bilishgan. Xususan, suv ularning hayoti va xo'jalik faoliyatida muhim rol o'ynagan. Etnograf olim G.P.Snesarev (1978), yozishicha, uzoq o'tmishda hozirgi Amudaryoni xorazmliklar Vaxsh deb atashgan. Zardushtiylikka e'tiqod qilgan qadimgi xorazmliklarda har yili bahor faslida, suv ma'budi Vaxshvara va hosildorlik ma'hudi Anaxita sharafiga, "suv bo'lsin, hosil bo'lsin, to'qchilik bo'lsin" degan, yaxshi niyat bilan daryoga qoramol qurbonlik qilish odati bo'lgan.

Xalq huquqiy muhofaza usulini qo'llab, joy nomlari yordamida ona tabiatdagi biologik xilma-xillikni saqlab qolishga, atrof-muhitni asrab-avvaylashga harakat qilgan. Bunday toponimlar manzilni aniq belgilab turishidan tashqari aholida yuksak etno-ekologik madaniyatni shakllanishiga ham xizmat qilgan.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. *Jamiyatning hozirgi bosqichida toponimikani amaliy ahamiyati nimadan iborat?*
2. *Toponimikani amaliy ahamiyatini belgilaydigan tamoyillarni tahlil qilib ko'ring.*
3. *Joy nomlarining atrof-muhitni himoyasi funksiyasiga ta'rif bering.*

### Test topshiriqlari

1. Hozirgi zamonada ham, uzoq tarixiy davrlarda ham geografik nomlarning eng muhim vazifasi bu uning ...

- A. Etimologik funktsiyasi
- B. Ta'lim va ma'naviy ahamiyati
- C. Axborotik funktsiyasi
- D. Ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati

2. Iy-mondulug ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati nimadan iborat?

- A. Ma'naviy ozuqa manbai bo'lib xizmat qiladi.
- B. Eshiklarini ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltiradi.
- C. Odamlarini ong va tafakkurini shakllantiradi
- D. Yodlarning kamol topishi xizmat qiladi.

3. Geografik ob'ektning avvalgi nomini o'zgartirish zaruriyati paydo bo'lgan huddirda ...

- A. Tezda muhalla bilan kelishib o'zgartirish kerak.
- B. Nomi bilan bog'liq axborotlar o'tmishga aylanadi deb o'zgartirish kerak.
- C. Nima sababdan almashtirish zaruriyati paydo bo'lganligini aniqlash kerak.
- D. Har bir holatga alohida sinchkovlik bilan yondashgan ma'qul.

4. Geografiya darslarida toponimik ma'lumotlardan foydalanish qanday samana beradi?

- A. Toponimik ma'lumotlardan foydalanish ortiqcha vaqtni oladi.
- B. Foydalanish ma'nosi tizohlashda qo'l keladi.
- C. Geografik ob'ektning o'ziga xos xususiyatlari haqida qo'shimcha ma'lumot beradi.
- D. O'quvchilar bilimini mustahkamlaydi.

5. Toponimlar birinchi navbatda jamiyatda sodir bo'layotgan qanday o'zgarishlarni o'zida aks etadi?

- A. Siyosiy o'zgarishlarni
- B. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni
- C. Ilmiy-texnikaviy o'zgarishlarni
- D. Fan taraqqiyotini

## IV bob. MINTAQAVIY TOPONIMIKA

## 14-mavzu: QIT'ALAR VA DUNYO OKEANLARI NOMLARI

Mintaqalar toponimiyasi tahlili asosan geografik nomlar tizimidagi mavjud umumiy qonuniyatlar va ularning hududiy shakllanish xususiyatlariga bag'ishlangan. Har bir makromintaqa o'ziga xos noyob toponimiyasiga ega, ularning shakllanishida bir qancha o'zaro bog'liq bo'lgan geografik, tarixiy va lisoniy omillar muhim ahamiyat kasb etgan.

## 14.1. Qit'alar, dunyo okeanlari va ularning qismlarini nomlari

*Reja:*

1. *Qit'alar va dunyo okeanlari nomlari haqida umumiy ma'lumot.*
2. *Qit'alar nomi va ularning jamiyat rivojlanishi bilan bog'liqligi.*
3. *Dunyo okeanlari va ularning tarkibiy qismlarini nomlanishi.*

**Mavzuning maqsadi:** Dunyo qit'alari va okeanlari hamda ayrim qismlarining nomlarini paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi tarixi, ularni kishilik jamiyatining rivojlanishi bilan bevosita bog'liqligini o'rganishdan iborat.

**Tayanch ibora va atamalar:** Qit'a, osiyo, yevropa, afrika, amerika, avstraliya, antraktida, okean, atlantika, hind, shimoliy muz, tinch, pelagonim, golfstrim, kurosio, oyasio.

**Qit'alar nomlanishi.** Qit'a – (arabcha, bo'lak, qism) yer yuzidagi quruqliklarning atrofidagi orollar bilan birga shartli ravishda ajratilgan qismlari. Quruqlikning eng katta bo'laklari sifatida har bir qit'a nomini o'ziga xos paydo bo'lishi tarixi bor. Qit'alar nomlari kishilik jamiyatining rivojlanishi bilan bevosita bog'liq, ularning har biri yer sayyorasini anglashdek murakkab jarayonlarni o'zida aks etgan.

**Osiyo** – yer sharidagi eng katta qit'a (butun quruqlik maydonining 30 foizini egallagan). Yevrosiyo materigining sharqiy qismi. Osiyo qit'asi shimoliy yarim sharning barcha geografik mintaqalarini o'z ichi-

ga nisbat. Ushundan Avin shaklida Guberning «Iliada» asarida tilga olingan (miloddan avvalgi VIII asr). Ushbu termin millet maktabining asoschilari *Polos, Anakymandri, Gekatey* (miloddan avvalgi VI asr) tomonidan ilmiy adabiyotlarga kiritilgan. Dastlab toponim Egey dengizining sharqqa soʻllab ketgan nisbatini qoʻllanilgan. Keyinchalik ushbu hududda yuzaga kelgan Perjaning podshohligini rimliklar Osiyo deb atashgan. Keyinchalik avvalgi III yilda, rimliklar ushbu hududlarni bosib olib Egey yarimorasini tashkil etgan. Geradot asarlarida (mil. avv. V asr) Osiyo deb hozirgi Turkiyaning gʻarbiy qismigina taʼriflangan.

— Xullas, Osiyo nomi Oʻrta dengizning sohillariga xos atoqli ot hisoblangan. Keyinchalik bu nom sharqiy yerlarga ham yoyilib, umumlashib bergan va dastlab Quyi Osiyo, soʻngra Buyuk Osiyo nomlari, XVIII–XX asrlarda Kichik Osiyo, Janubiy-SHarqiy va Janubiy-Gʻarbiy Osiyo, Oʻrta Osiyo, Markaziy Osiyo singari qitʼaning ayrim qismlarini anglatuvchi nomlar paydo boʻlgan. Osiyo— dastlab kichik bir yerning nomi boʻlgan boʻlsa, zamonlar oʻtishi bilan sharqqa tomon areali kengayib bordi va eng katta qitʼaning umumlashgan nomiga aylandi. Uning Yevropaga eng yaqin qismi Kichik Osiyo— Asia Minor nomini hozirgacha saqlab qolgan.

Mutaxassislar toponimni turlicha talqin qilishgan. Masalan, Aziya shahri nomidan, filosof Aziya ismidan, Aziya vodiysi nomi asos boʻlib shizmat qilgan va hokazo. Osiyo nomi osuri tilidagi asu «kun chiqish tomoni», «sharq» maʼnosidagi soʻzdan kelib chiqqan degan izoh ham mavjud. Ammo, Mesopotamiyada yashagan osuriylar nima sahabdani vatandani gʻarbda joylashgan hududlarga nisbatan sharq soʻzini qoʻllashgan degan savolga javob topish qiyin. Boshqa talqinda, nom Assuva shaklida Kichik Osiyo yarim orolining uncha katta boʻlmagan gʻarbiy hududlariga nisbatan qoʻllanishi taʼkidlangan. Yunonlar tomonidan mazkur hududlar bosib olingandan keyin, nom qisman oʻzgarib Asiya (Aziya) shaklida talaffuz qilingan.

— Buyuk «Ipk yoʻli»ning ochilishi, rimliklarning harbiy bosqinlari, yevropaliklarning salib yurishlari natijasida Osiyo haqida koʻplab maʼlumotlar toʻplangan. Oʻrta asrlarda Osiyo haqida oʻrtaosiyolik olimlar (Beruniy, Mahmud Koshgʻariy, Muhammad Xorazmiy va boshq.) ham ancha maʼlumotlar yozib qoldirganlar. Xususan, X asr oxirida yozilgan «Hudud ul olam» asarida Osiyo geografiyasi oʻsha zamonga nisbatan ancha toʻgʻri bayon etilgan. Ikk sivilizatsiya markazlari qadimda Osiyoda paydo boʻlgan. Bu yerda asrlar davomida buyuk davlatlar (Babil,

Shumer, Ossuriya, Xarappa, Urartu va boshqalar) hamda saltanatlar (Boburiylar, Usmonlilar) yuzaga kelgan va parchalanib ketgan.

*Evropa* – qit'a nomi, Yevrosiyo materigining g'arbiy qismi. *Yevropa* – yunon mifologiyasida finikiylar podshosi Agenorani qizi. Qadimgi yunonlar rivoyati bo'yicha, osmon xudosi hisoblangan Zevs, ho'kiz qiyofasida qizni o'g'irlab Krit oroliga olib ketgan. Go'zal malika sharafiga quruqlikni katta bir bo'lagi uning nomi bilan Yevropa deb atalgan. Malika Yevropani o'g'irlash sahnasi bir qator buyuk rassomlarni (Titsian, V.Serov) mashhur asarlar yaratishga ilhomlantirgan. Bu shunchaki rivoyat, bo'lsa ham qadimgi greklar shu yo'l bilan ma'no-mazmuni mavhum bo'lgan toponimni izohlashga harakat qilishgan.

Ko'rinib turibdiki, toponim miloddan ancha avval paydo bo'lgan. Mutaxassislarning yozishicha, miloddan avvalgi VI asrdagi qadimgi Yunon hadiy adabiyotlarida Yevropa so'zi uchraydi. Masalan, Apollon xudosi haq'ishlangan madhiyada Yevropa nomi, Bolqon yarim orolidagi uncha katta bo'lmagan hududlarga nisbatan qo'llanilgan. Qit'a nomi sifatida toponim dastlab miloddan avvalgi VI-V asrda qadimgi Yunon olimlari *Geradot* va *Gekatey* tomonidan fanga kiritilgan. Mutaxassislar tomonidan toponimni ilmiy etimologiyasi hozirgacha aniqlanmagan bo'lsa ham, ammo uni ikki xil izohlashadi.

Birinchisi, toponim Old Osiyoda paydo bo'lgan va yevropa so'zi osuri tilida erab – «kun botish tomon», «qorong'ulik», «g'arb» ma'nosini ifoda etgan. Osuriylar vatanidan g'arbda joylashgan barcha yerlarga nisbatan erab so'zini qo'llashgan. Ikkinchisi, Yevropa so'zi lisoniy jihatdan hind-evropa tillar oilasiga mansub, ammo etimologiyasi noma'lum. U Europiya shaklida qadimgi Yunondagi Fessalii va Etolii tarixiy viloyatlari joylashgan hududlarga nisbatan qo'llanilgan.

Ko'p asrlar davomida iste'molda bo'lgan nom, barcha hozirgi hududlarni qamrab olgan. Evropa so'zi o'zbek tiliga o'tgan asr boshida rus tili orqali o'zlashgan. Salkam yarim asr mobaynida bu nom o'zbekcha *Ovrupo*, *Avropa*, *Yovropa*, *Yovrupo*, *Yavropa* kabi bir necha shakllarda yozib kelingan. 1941 yildan boshlab o'zbek tilida nomni uzil-kesil Yevropa shaklida yozish ma'qul topilgan.

*Afrika* – qit'a, maydoni jihatdan Yevrosiyodan keyingi ikkinchi o'rinda turuvchi materik. Qit'a qadimda kam o'rganilgan, shu bois uni yagona nomi ham bo'lmagan. XVI asrga kelib materik qiyofasi ma'lum bo'ldi. Yunonlar hozirgi Afrika materikning o'zlariga ma'lum qismini *Libiya* (libu – qabilasi nomidan) deb atashgan. Masalan, *Gomer*

asarlarida (indusidan avvalgi VIII asr) qit'a nomi **Libiya tarzida** tilga olingan.

**Mutawassit** qit'a nomini qadimda hozirgi Tunis va Jazoir davlatlari hududida yashagan afriqi («g'orda yashaydigan odamlar» nom) mutawassit qabilasi nomi bilan bog'liq deb hisoblashadi. Bu nom, dastlab qadimdan avvalgi III asrda imikiylar shahri **Karfagen** (hozirgi Tunis shahri atrofida) joylashgan yerlarga nisbatan ishlatilgan. **Karfagen** shahri aslidan avvalgi 146 yilda parchalangan, rimliklar uni o'rnida **Etra** imperiyasiga qo'shilib Afrika provintsiyasini tashkil etgan. O'rta asrlarda topografiya hududi asta-sekin kengayib, dastlab materikning shimoliy – g'arbiga, keyinchalik esa ushbu nom butun materikka nisbatan qo'llanilgan.

Afrika atrofining qadimgi afri – «soyvuq eritma» ma'nosini anglatadi degan talqin ham bor. Haqiqatdan ham Afrika dunyodagi eng issiq materik hisoblanadi. Toponimshunos Afrika nomiga etnonim asos bo'lganligini haqiqatga yaqinroq deb hisoblashadi. Afrika va uning xalqlari to'g'risidagi ba'zi ma'lumotlarni **Movarounnahr xalqlari qadimdan bilganlar**, **Chunonchi**, Afrika qit'asini **Muhammad Xorazmiy** «Surat ul-ard» asurida tilga olgan. Ushbu materik to'g'risidagi ba'zi ma'lumotlarni **Ahmad Farg'oniy**, **Abu Rayhon Beruniy**, **Mahmud Koshg'ariy**, **Muhammad Najib Bakro**, **Hofizi Abru** asarlarida ham uchratish mumkin. Masalan, **Beruniy** chizgan dunyo kartasida Afrika qit'asining ham shakli bor.

**Amerika** – ikki materik, ya'ni Shimoliy va Janubiy Amerikadan iborat qit'a nomi. Ular orasidagi chegara odatda **Daryen bo'yni**, ba'zan esa **Panama bo'yni** orqali o'tkaziladi. **Dunyodagi eng katta Grenlandiya oroli** va **yon-atrofidagi bir qancha boshqa orollar ham Amerika tarkibiga kiradi**. Amerika qit'asi g'arbiy yarim sharda, **Atlantika va Tinch okeanlari** orasida joylashgan. Shimoliy Amerikada ko'pincha **Markaziy Amerika va Vest-Indiya orollari** alohida ajratiladi.

**Grenlandiya va Shimoliy Amerikaning shimoliy-sharqiy sohili X-XI asrlarda normandlar tomonidan kashf etilgan** deb hisoblanadi. Antil orollari, Janubiy Amerika sohilining Shimoliy qismi hamda **Karib dengizi sohilining janubiy qismini 1492-1503 yillarda X.Kolumb kashf etgan**. Amerika rasmiy kashf etilishidan besh asr ilgari **Beruniy G'arbiy yarimsharda ham quruqlik bo'lishi mumkin** degan fikrni aytgan.

H.Hasanov yozishicha, dunyo kartasida, umuman geografiya tarixida, eng xato nom – Amerika. Sababi: birinchidan, mahalliy tub aholi

o'z yurtini bunday atamagan. Ikkinchidan, agar Xiristofor Kolumbning 1492 yilda bu qit'ani kashf etganligi tan olinsa, qit'aning nomi Kolumbiya bo'lishi kerak edi. X.Kolumb tomonidan yangi qit'a kashf etilgan bo'lsa ham, ammo u Hindistonni bir qismiga kelib qoldim deb o'ylagan.

Amerika nomi florentsiyalik dengiz sayyohi Amerigo Vespuchchi nomi bilan bog'liq. U Janubiy Amerikaning shimoliy-sharqiy va sharqiy sohillarini o'rgangan va 32 betdan iborat maktubida noma'lum yerlarga borganligini yozgan. 1507 yili nemis kartografi *M.Valdzemyuller* o'z kartasida bu yerlarni «Amerigo yerlari» (Amerigo Vespuchchi tilga olgan yerlar ma'nosida) deb yozgan. *M.Valdzemyuller* ushbu nomni dastlab hozirgi Janubiy Amerika materigiga nisbatan qo'llagan, keyinchalik u butun qit'a nomiga aylangan. Flamandlik kartograf *G.Merkator* ilk bor nomni har ikki materik uchun qo'llagan va XVI asrning ikkinchi yarimidan boshlab Amerika qit'aning yagona nomiga aylangan.

Amerika nomining boshqa talqinlari ham bor. Masalan, 1497 yili dengizchi J.Kabot boshchiligidagi ekspeditsiyaga sarmoya ajratgan ingliz metsenati Vinsenta Amerika ismi bilan atalgan. Qadimda hozirgi Nikaragua davlati hududida yashagan mahalliy hindularning amerikos qabilasi nomidan olingan va boshqalar. Ammo, bu izohlar soha mutaxassisleri tomonidan qo'llab-quvvatlanmagan.

**Avstraliya** – janubiy yarim sharda joylashgan qit'a nomi. Avstraliya – materiklar orasida eng kichigi. Qadimgi dunyo olimlari janubiy yarim sharda noma'lum quruqlik – *Terra Incognita* («noma'lum yer») yoki *Terra Australis Incognita* («noma'lum janubiy yer) borligini bashorat qilishgan. Avstraliyani 1606 yili gollandiyalik dengiz sayyohi V.Yanszon kashf qilgan va *Yangi Gollandiya* deb atagan.

Avstraliya qit'asi gollandlar tomonidan kashf etilgandan so'ng, bu yerda dastlab gollandcha nomlar paydo bo'lgan. Derk Xartog va Piter Nayt orollari– shu yerlarni kashf etgan golland dengizchilari nomi bilan, Luven burni va Arnemland yarim oroli gollandlar kemalari– «Luven» hamda «Arnem» sharafiga qo'yilgan. Avstraliyaning janubiy qismini o'rgangan va eng yirik orolini kashf etgan Abel Tasman sharafiga orol Tasmaniya deb atalgan.

Jeyms Kuk 1770 yilda Avstraliyaga ekspeditsiya uyushtirib uning sharqiy sohillarini kashf etdi va uni *Yangi Janubiy Uels* deb atagan. 1795 yilda Avstraliya qirg'oqlarini o'rganishga kelgan ingliz gidrografi *M.Flinders*, qit'ani Avstraliya (lotincha, australis– «janubiy yer») deb

atadun taklif qilgan. Mashhur dengizchi Flinders sharafiga Avstraliya-  
dagi orol, daryo, tog' uni nomi bilan atalgan. Avstraliya– nom sifatida  
qit'aning haqiqiy geografik o'rnini o'zida mujassam etganligi tufayli u  
tinchaga mu'qul bo'lgan. Keyinchalik ushbu nom *Yangi Gollandiya*,  
*Yangi Janubiy Uels* kabi muvaqqat nomlarni siqib chiqargan va XIX  
asrdan o'tiboran, qisqacha Avstraliya shakli qaror topdi.

**Antarktika** – qit'a nomi. Antarktika materigi, Atlantika, Hind va Tinch okeanlarining shu materikka tutash qismlari,  
shundaydek Antarktida yaqinidagi orollar kiradi. Antarktida – janubiy  
qutbning markaziy qismini egallagan materik. Antarktida – nomini  
puydo bo'lishi ham Antarktika so'zi bilan bevosita bog'liq. Toponim  
tarkibidagi – id suffiksi yunon tilida, eydos – «o'xshash», «monand»  
ma'nosida qo'llaniladigan so'z. Rus dengizchilari (F.F.Bellinsgauzen va  
M.P.Lazarev) tomonidan 1820 yilda kashf etilgan. Materikning umumiy  
qiyofasi XIX asrda kartaga tushirilgan. Xalqaro – huquqiy shartnomaga  
asosan Antarktikadan butun dunyo mamlakatlari umumiy va teng miq-  
yosda, faqat tinchlik maqsadida foydalanadi va turli davlatlardan kelgan  
mutaxassislar erkin ilmiy tadqiqot ishlari olib borishi mumkin.

Antarktika qit'asi nomi tarkibidagi anti – «teskari», «qarama –  
qarshi» ma'nosidagi qo'shimcha. Arktika – so'zi yunon tilida, arktikos  
– «shimoliy». Qadimgi yunonlar shimoliy qutb atrofida joylashgan  
yerlarni arktikos – «shimoliy» yer deb atashgan va uni Katta Ayiq (Etti  
qaroqchi) yulduzlar turkumi ostida joylashgan deb hisoblashgan.  
Antarktika – arktikaga qarama-qarshi tomonda joylashgan janubiy qutb.  
1886 yili ingliz okeanografi Jon Merrey tomonidan janubiy qutbdagi  
qit'a Antarktika nomi bilan kartaga kiritilgan. Shu davrdan boshlab, eng  
so'ngi kashf etilgan qit'a, landa va barcha turdagi geografik kartalarda  
shu nom bilan mustahkam o'rnatilgan qoldi.

**Okeanlar nomlanishi** – (grekcha, okeanos – «dunyo daryosi») yerning materik va orollarni o'rab turuvchi suv qobig'i. Okeanlar gidrosferaning katta qismi (94%) ni, yer yuzasining taxminan 71% ini egallaydi. Kishilik jamiyatining rivojlanishi va kundalik ehtiyojlarning ortib borishi yangi hududlarni va tabiatning tarkibiy qismlarini o'zlashtirishga olib keldi, bu esa o'z navbatida joy nomlari ko'payishiga sabab bo'ldi. Yangi yerlarni izlash, qisqa savdo yo'llarini topish kabi holatlar, dunyo okeani va ularning tarkibiy qismlari (dengiz, bo'g'oz, qo'ltig') haqida ko'plab toponimik ma'lumotlarni to'plash imkoniyatini berdi.

Gidrologik rejimining tabiiy-geografik xususiyatlariga ko'ra, dunyo okeani alohida okeanlar, dengizlar, qo'ltiqlar, buxta va bo'g'ozlarga



ajratilgan. Yuqorida qayd qilgandek, yer shari yuzasining salkam 71 foizini 4 ta – Tinch, Atlantika, Hind va Shimoliy Muz okeanlari egallagan. Okeanlarning ayrim qismlari dengiz deyiladi. Quruqlikda suv to‘lib qolgan chuqurliklar ko‘llar deb ataladi. Ba‘zan o‘ta katta ko‘llar dengiz (Kaspiy, Orol, Baykal) deb ham yuritiladi. Yer osti va yer usti suvlardan hosil bo‘ladigan katta oqar suvlar daryolar deyiladi. Kichikroq daryolar soylar, kichik soylar esa jilg‘alar nomini olgan. Daryo yoki soyga qo‘shiladigan suvlar irmoqlar, ulardan ajralib chiqadigan suvlar tarmoqlar deb yuritiladi.

1650 yilda golland geografi *B. Varrenius* Dunyo okeanini 5 ta alohida qismga: Tinch, Atlantika, Hind, Shimoliy Muz va Janubiy Muz okeanlariga bo‘ldi. 1845 yilda London geografiya jamiyati ham buni tasdiqladi. Keyinroq ba‘zi olimlar Dunyo okeanini faqat 3 ga ajratadilar: Tinch, Atlantika va Hind okeanlari. XX asrning 30 yillaridan boshlab Arktika havzasi sinchiklab tekshirilgandan keyin, 4 alohida okean ajratildi: Tinch, Atlantika, Hind va Shimoliy Muz okeani.

*Tinch okeani* – dunyodagi eng katta va chuqur (Marianna cho‘kmasi – 11022 metr) okean. Dunyo okeani maydonining yarimini Tinch okeani tashkil etadi. U g‘arbda Osiyo va Avstraliya, sharqda Shimoliy va Janubiy Amerika, janubda Antraktida oraliq‘ida joylashgan. Bering bo‘g‘ozi orqali Shimoliy Muz okeanidan ajraladi. Atlantika va Hind okeanlari bilan umumiy chegarasi mavjud. O‘rtacha chuqurligi 3984 metr.

1513 yili ispaniyalik konkistador *Vasko Nunyes de Balboa* Panama bo‘yini orqali o‘tib, bepoyon suvni ko‘rgan va unga *Mar del Sur* – «Janubiy okean» deb nom bergan. 1520 yili dunyo bo‘ylab aylana sayyohatga chiqqan *Fernando Magellan* ekspeditsiyasi uch oydan ko‘proq muddat okean suvlarida suzib hiron bir katta to‘lqin yoki bo‘ronga duch kelmagan. Dastlabki taasurotlarga asoslanib *F. Magellan* uni *Mar Pacifico* – «Tinch okean» deb atagan.

Fransuz geografi *Byuash* 1752 yili maydon jihatdan dunyodagi eng katta okeanni *Ulug‘ okean* deb nomlashni taklif qilgan. Bu yasama nom geografik nuqtai nazardan to‘g‘ri bo‘lsa ham, ammo ko‘pchilikka ma‘qul bo‘lmagan. Shu sababdan, dunyo geografiyasida *F. Magellan* tomonidan berilgan Tinch okeani nomi saqlanib qoldi. 1917 yilgacha nashr etilgan rus kartalarida Sharqiy okean nomi bilan qayd qilingan. Ahu Rayhon Beruniy kartasida Sharqiy okean, XX asrning boshlarida nashr etilgan o‘zbekcha kitoblarda Bahri muhiti Kabir deb yozilgan.

**Atlantika okeani.** Er sharida kattaligi jihatdan Tinch okeanidan keyin ikkinchi o'ringda turadigan okean. Atlantika okeani shimolda Grenlandiya va Islandiya orollari, sharqda Yevropa hamda Afrika, g'arbida Shimoliy va Janubiy Amerika, janubda Antraktida orasida joylashgan. Uzunligi shimoldan janubga 15 ming km, enining eng kambartoyi 2000 km (ekvator yaqinida), o'rtacha chuqurligi 3926 metr.

Atlantika okeani insoniyatga qadim zamondan ma'lum bo'lgan, eng katta orv lavzasi hisoblanadi. Uni sharqda Uqyonus, Akbar (buyuk), A'zam (tulug'), kun botish tomonida joylashganligidan – Mag'ribiy, Zulmat deb atashgan. Hozirda u muhim iqtisodiy va strategik ahamiyatga ega. Atlantika okeaniga dunyo kemalarida tashiladigan yuklarning 60 foizi, baliq ovlashning 40 foizi to'g'ri keladi. Dunyodagi eng katta portlarning ko'pchiligi Atlantika okeani havzasida joylashgan.

Qadimgi Yunon tarixchisi Geradot (miloddan avvalgi V asr) asarlarida nom ilk bor Atlantis dengizi shaklida uchraydi. Rimlik olim Pliniy (milodiy I asr) okeanga nisbatan *Oceanus Atlanticus* – Atlantika okeani nomini qo'llagan. O'rta asrlarda okean qismlari Shimoliy dengiz, G'arbiy dengiz, Tashqi dengiz kabi nomlar bilan atalgan. Okeanning hozirgi holati bilan bog'liq bo'lgan tasavvurlar XVII asrda paydo bo'lgan.

Atlantika nomining paydo bo'lishini mutaxassislar, qadimgi Yunon mifologiyasida osmonni o'z yelkasida ko'tarib turgan samo xudosi Atlant nomi bilan bog'liq deb hisoblashadi. Qadimgi yunonlar, quruqlik O'rta yer dengizidan g'arbroqda tugaydi, osmon gumbazini esa Zevs tomonidan umrbod jazoga mahkum etilgan pahlavon Atlant o'z yelkasida ko'tarib turadi deb, tasavvur qilishgan.

Okean nomining hoshqacha izohlari ham bor. Atlantika– afsonaviy Atlantida oroli nomidan olingan. Platon asarlaridagi rivoyatlarga ko'ra, Atlantida taxminan, Gibraltar bo'g'ozining g'arbida joylashgan qadimiy o'lkan orol. Yeri serhosil, aholisi zich joylashgan. Zilzila natijasida okean qo'riga cho'kib ketgan. Atlantidani mavjud bo'lganligi va halokatga uchrashi sabablari fanda hanuzgacha muammo bo'lib qolmoqda. Boshqa talqinda, finikiyaliklar g'arbiy tomonni atlat – «tun», «qaron-g'ulik» deb ataganlar va Atlas tog'lari, Atlantika – «g'arbiy qaron-g'ulik» nomlari paydo bo'lgan.

**Hind okeani.** Dunyo okeanlari orasida kattaligi jihatdan Tinch va Atlantika okeanlaridan keyin uchinchi o'ringda turadi. Shimoliy tropik chizig'idan butunlay janubda joylashgan. Hind okeani Atlantika va

Tinch okeani bilan katta masofada tutashgan. Atlantika okeani bilan chegarasi shartli ravishda Afrika janubidagi Igna burni, Tinch okeani bilan chegarasi Tasmaniya orolidagi Janubiy burun orqali o'tkaziladi. Hind okeani juda katta masofada Antraktida bilan tutashib tursada, boshqa okeanlarga nisbatan ancha iliq. O'rtacha chuqurligi 3711 metr.

Hind va Hindiston O'rta Osiyoliklarga azaldan ma'lum nom. Hind – so'zi qadimiy sanskrit tilida sind, sindxu – «daryolar otasi». Hind dastlab daryo nomi bo'lgan, keyincha bu yerning aholisi ham hindular deb atalgan. Hozirgi zamon tarixida davlat, yarim orol, tog' tizmasi, okean nomiga ham shu so'z asos vazifasini bajaradi. Hind okeani haqidagi dastlabki tasavvurlarga uning sohillarida yashagan xalqlar ega bo'lganlar.

O'rta Osiyolik Abdurazzoq Samarqandiy Hindistonga dengiz orqali sayohat qilgan. Hind okeani va Hindiston to'g'risida to'plagan ma'lumotlarni o'z asarlarida yozib qoldirgan. Toponim ilk bor milodiy I asrda Pliniy asarlarida – *Oceanus Orientalis Indicus* – Sharqiy Hind okeani shaklida qayd qilingan. XVI asrdan boshlab nom dunyo kartalarida Hind okeani shaklida yozilmoqda.

**Shimoliy Muz okeani.** Shimoliy Muz okeani (avvalgi nomlari: Shimoliy Qutbiy dengiz, Shimoliy Muz dengizi) – shimoliy qutb atrofida, Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerikaning shimoliy qirg'oqlari oralig'ida joylashgan okean. Maydoni bo'yicha okeanlar orasida eng kichigi, o'rtacha chuqurligi 1220 metr. Atlantika va Tinch okeanlari bilan bo'g'ozlar orqali tutashgan. Shimoliy Muz okeani dastlab mustaqil okean sifatida 1650 yilda golland geografi B.Varrenius tomonidan ajratilgan va o'sha davrda Giperborey okeani deb atalgan.

Giperborey qadimgi yunon tilida *ὐπέρ* – ko'plikni bildiruvchi qo'shimcha, *Βορέας* – borey, shimoliy shamol xudosi, shimolning ramzi, ya'ni Chekka Shimoliy okean ma'nosini ifodalovchi sun'iy yaratilgan nom. 1845 yilda uni London geografiya jamiyati Shimoliy Muz okeani deb atadi. XVII-XVIII asrlar davomida Muz dengizi, Murmansk dengizi, Shimoliy dengiz, Tatar dengizi deb atalgan.

XIX asrdan boshlab bir qator Yevropa mamlakatlarida Arktika okeani degan nom ham qo'llanilgan. Arktikada XIX asrning 20 yillarida ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan rus dengizchisi, admiral F.R.Litke ham uni Shimoliy Muz okeani deb nomlashni taklif etgan. 1935 yildan boshlab alohida okean sifatida ajratilgan. So'ngi yillarda, janubiy yarim sharda – Antarktika atrofida beshinchi okean– Janubiy Muz okeani ham ajratilmoqda.

*Dunyo okeani qismlarini nomlanishi.* Qadimgi finikiylar va antik davr dengiz sayyohlariga ma'lum bo'lgan O'rta yer dengizi va uni tarkibiy qismlari nomlarini hisobga olmaganda, aytish mumkinki, qolgan pelagonimlar (pelagos – «dengiz») asosan o'rta asrlarda va undan keyin paydo bo'lgan. Hozirgi davrda ham ularni nomlash davom etmoqda. Ma'lumki, ko'pchilik dengiz, qo'ltiq, bo'g'oz nomlari yon-atrofida davlat, orol, shahar nomlarini takrorlaydi. Masalan, Sharqiy Xitoy va Janubiy Xitoy, Arabiston, Yapon dengizi; Fors, Meksika, Biskay, Kaliforniya qo'ltig'i; Malakka, Mozambik, Florida bo'g'ozi va hokazo. Memorial nomlar ham ko'p uchraydi: Tasman, Amundsen, Laptevlar dengizi, Magellan, Laperuza, Kuk, Dejnev bo'g'ozi va boshqalar.

Ayrim dengiz nomlari qiziqarli tarixga ega. Ular qatoriga Azov dengizi nomini ham kiritish mumkin. Miloddan avvalgi I-ming yillikga qadar, qadimgi yunonlar Azov dengizini botqoqli ko'l hisoblashgan va uni atrofida yashagan meotlar qabilasi nomi bilan Meotida deb atashgan. Meotlar uzoq o'tinishda dengizni Temerinda – «dengizlar onasi» deb ta'riflashgan. Sahabi meotlarning geografik tushunchasi bo'yicha, Qora dengizni «dunyoga keltirgan onasi» Azov dengizi hisoblanadi. Meotlar bilan qo'shni yashagan skiflar Azov dengizini Kargalik, rimliklar esa *Meotis palus* – «Meotlar botqog'i» deb ataganlar.

Dengiz yonida paydo bo'lgan Azov qishlog'ining nomi keyincha, suv havzasiga ham berilgan. Hozirgi Azov shahri o'rnidagi qishloq taxminan 1067 yili qipchoqlar tomonidan egallangan va unga qipchoqlar xoni Azuv (Azoq)xon nomini berganlar. Shahar XIII asrdan boshlab Oltin O'rdaga qaragan. 1395 yilda uni Amir Temur egallagan. 1471 yildan boshlab Turkiyaga qarashli qal'a bo'lgan va 1739 yili Rossiya tarkibiga o'tgan. Toponim hozirgi shaklda, nomlarni «ko'chish» qonuniyatiga asosan, nisbatan yaqin o'tinishda dengiz nomiga aylangan.

Dengiz nomlari tarkibida uchraydigan rang ko'rsatkichlar qora, oq, sariq, ko'k kamdan-kam hollarda aynan rang ma'nosida ishlatilgan. Masalan, Qorasuv – tekis yerlarda huloqlardan, sizot suvlaridan hosil bo'lgan suv, Qoradaryo – sun'iy o'zandan oqizilgan daryo, Oqdaryo – eski o'zandan oqib turgan daryo, Oqsuv – qor va muzliklardan suv olib ko'payib tez oqadigan suv, Ko'ksuv – zilol suv, tiniq suv va hokazo. Oqdaryo va Oqsuv degan daryolarda suv miqdori Qoradaryo, Qorasuvga nisbatan ko'p, qurimaydigan, oqish, bo'tana ko'rinish rangdagi, o'zani tog'ning ancha yuqori qismidan boshlangan daryo. Qoradaryo, Qorasuv ham ko'pincha Oqdaryo. Oqsuv atrofida bo'lgan va belgilari qiyoslanib nomlangan.

Geografik nomlar haqida bahslar ko'p bo'ladi. Masalan, Fors qo'ltig'i nomi ba'zan Eron qo'ltig'i deb yoziladi. Bu qo'ltiqni asl fors tilidagi nomi xaliji Fors, ya'ni Fors qo'ltig'idir. 1976 yili Birlashgan Arab Amirliklari axborot agentligi tuzib, uni «Arab qo'ltig'i axborot agentligi», deb atamoqchi bo'lgan. Ammo, bunga javoban Eron hukumati norozilik bildirib, hech qachon va hech qanday sharoitda Fors qo'ltig'i nomini o'zgartishga rozi bo'lmasligini rasman e'lon qilgan. Darhaqiqat, tarixiy manhalarda, jumladan, Abu Rayhon Beruniy, Abdurazzoq Samarqandiy va boshqa O'rta Osiyolik sayyohlarning asarlarida, bu joy Fors qo'ltig'i nomi bilan tilga olingan. Bu nomning butun Eronga daxli yo'q, u mamlakat janubidagi Fors viloyati (oston) nomi bilan bog'liq.

Yapon dengizi nomi ham keyingi vaqtlarda bahs va munozaralarga sabab bo'layapti. Uni Koreya Respublikasi Sharqiy (Uzoq Sharq), dengiz deb atashni taklif qilmoqda. Shu maqsadda, 2002 yili Berlin shahrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti homiyligida, geografik nomlarni standartlashtirish bo'yicha tashkil etilgan xalqaro konferentsiyaga Koreya Respublikasi mutaxassislari ham tashrif buyurishgan. Ular konferentsiya qatnashchilariga Koreyada ushbu muammoni hal qilish uchun maxsus tashkil etilgan «Sharqiy dengiz jamiyati» tashkilotining talabi bilan bir qator xalqaro ilmiy anjumanlarda qabul qilingan hujjatlarni taqdim etishgan.

Keyingi yillarda xalqaro miqyosda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari ma'lumotlariga qaraganda, okean tubining rel'efi murakkabligi jihatidan materiklar rel'efidan aslo qolishmaydi. Hozirgi kunda dunyo okeani tubining rel'efi va geologik tuzilishini tadqiq etish xalqaro miqyosda olib borilmoqda. Buni okean tubida joylashgan geografik ob'ektlarning nomlarida ham tasdiqlaydi. Masalan, okean qa'ridagi tog' tizmalari Lomonosov, Mendeleev, okean botiqlari esa Nansen, Amundsen kabi memorial nomlarga ega. Suv ostidagi katta rel'ef shakllari ko'pincha okean, dengiz, materik, qit'a, arxipelag, davlatlar (Gviana botig'i, Marianna botig'i, O'rta Atlantika tizmasi, Afrika – Antarktida tizmasi, Avstraliya – Antraktida tizmasi va hokazo) nomi bilan atalgan.

Okean oqimlari toponimiyasi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ma'lumki, okean oqimlarini doimiy shamollar harakatga keltiradi. Shu sababdan, ko'pincha oqimlar nomlari shamollar nomlarini takrorlaydi. Masalan, Mussonlar oqimi, Shimoliy va Janubiy Passatlar oqimi, G'arbiy shamollar oqimi va hokazo. Okean oqimlari orasida Golfstrim

nomi ulohida diqqatga sazovor. *Golfstrim* – (inglizcha, *Gulf Stream* – “qo‘ltiq oqimi”) – Atlantika okeanining shimoliy qismidagi iliq oqim. Aslida *Golfstrim* bir qancha iliq (*Antil*, *Shimoliy Atlantika*, *Irminger*, *Shpitsbergen*) oqimlardan iborat bo‘lib, Florida yarim oroli qirg‘oqlaridan *Shpitsbergen* va *Novaya Zemlya* orollarigacha 10 ming km. masofaga oqib boradi. *Golfstrim* oqimining hajmi okeanga kiraverishda sekundiga 25 mln. metr kub (sutkasiga 2160 km. kub)ga yetadi, bu esa butun yer sharidagi barcha daryolarning suv sarfidan 20 marta ortiqdir.

Ko‘pincha oqimlar qo‘ltiq, bo‘g‘oz, dengizlarga o‘xshab yaqin atrofidagi quruqlik nomini olgan: *Kaliforniya oqimi*, *Labrador oqimi*, *Mozambik oqimi*, *Foklend oqimi*, *Peru oqimi*, *Kanar oqimi*, *Kuril oqimi*, *Sharqiy Avstraliya oqimi* va hokazo. Yapon orollari qirg‘oqlari bo‘ylab oqadigan oqimlarning o‘ziga xos nomi bor. *Kuroshio* – (yaponcha, *kuro* – «qora», *sio* – «oqim») oqimi – Tinch okeanidagi iliq oqim. Yaponiyaning janubiy va sharqiy qirg‘oqlari bo‘ylab harakatlanadi. *Kuroshio* oqimi Sharqiy Xitoy dengizining Shimoliy qismi bilan, okeanning unga tutash bo‘lgan hududlardagi suv sathining har xilligi natijasida paydo bo‘ladi. *Oyashio* (ikkinchi nomi *Kuril sovuq oqimi*) – «ajdodlar oqimi».

Dunyo okeani va uning qirg‘oqlarida o‘ziga xos ogohlantiruvchi toponimlar ko‘plab topiladi. Masalan, *I.Kuk* va *M.Flinders* Avstraliya sohillaridagi bir qator geografik ob‘ektlarga ogohlantiruvchi nomlar berishgan. Buni asosiy sababi shundaki, Avstraliyaning shimoliy-sharqiy qirg‘og‘ida joylashgan *Katta To‘siq rifi* (suv osti qoyalari) atrofida dengiz tubi rel‘efi notekis, o‘r-qirli va aylanma oqimlar mavjud, ular kema yurishi uchun juda xavfli hisoblanadi.

Dengizchilarni ana shunday xavf-xatardan ogohlantiradigan, *Avoid Bay* – «xatarli qo‘ltiq»; *Anxious Vau* – «tinchimas qo‘ltiq»; *Falokat burni* (kemalardan biri falokatga uchragan); *Qiynoq qo‘ltig‘i* kabi nomlar uchraydi. Britaniyalik dengizchilar xatarli bo‘lgan geografik ob‘ektlarni shunday nomlab, dengiz kemalarini halokatdan saqlash uchun ogohlantirishgan. *Somali yarim orolidagi Gvardafuy* («somali tilida – «saqlan») burni, *Adan qo‘ltig‘ini* Arabiston dengizidan ajratib turuvchi *Bob ul-Mandab* (arab tilida, «motam darvozasi») bo‘g‘ozi kabi nomlar ham o‘ziga xos ogohlantiruvchi funktsiyani bajaradi. Fanning rivojlanishi va texnikani taraqqiyoti natijasida bunday geografik nomlar avvalgi ahamiyatini yo‘qotgan bo‘lsa ham, ammo ular tarixiy davr guvohi sifatida hozirgacha saqlanib qolgan.

Dunyo okeani kartasida dengizchi sayyohlar nomi bilan birga, dengizchi qaroqchilar nomini ham uchratish mumkin. Ulardan eng mashhuri «Temir qaroqchi» nomini olgan ingliz *Frensis Dreyk* (1540-1596) hisoblanadi. U 1577-80 yillarda Magellandan so'ng, ikkinchi bo'lib dunyo bo'ylab aylanma sayohat qilgan. Frensis Dreyk Vest-Indiyaga qilingan qaroqchilik ekspeditsiyasini rahbari bo'lgan. Hozir dunyodagi eng keng bo'g'oz uning nomi bilan ataladi. Dunyo okeanini o'rganish davom etmoqda. Demak, yirik suv havzalari bilan bog'liq bo'lgan geografik ob'ektlarni nomlash jarayoni kelajakda ham davom etadi.

**Savol va topshiriqlar:**

1. *Dunyo qit'alari nomlari haqida qisqacha ma'lumot bering.*
2. *Qit'alar nomi va kishilik jamiyatining rivojlanishi o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjudligini asoslang?*
3. *Dunyo okeanlari nomlarining mazmunini izohlang.*

**Test topshiriqlari**

**1. Osiyo nomi dastlab qaysi hududlarga nisbatan qo'llanilgan?**

- A. Egey dengizining sharqiy sohillariga nisbatan
- B. Turkiyaning g'arbiy qismiga nisbatan
- C. Hozirgi Kichik Osiyo yarim oroliga nisbatan
- D. Balqon yarim oroliga nisbatan

**2. Shimoliy Muz okeaniga ushbu nom qachon va kim tomonidan berilgan?**

- A. 1845 yil London geografiya jamiyati tomonidan
- B. 1945 yil Frantsiya fanlar akademiyasi tomonidan
- C. 1905 yil Ispaniya qiroli tomonidan
- D. 1855 yil Rossiya geografiya jamiyati tomonidan

**3. Avstraliya – qit'a nomi sifatida nima uchun barchaga ma'qul bo'lgan?**

- A. Qit'aning haqiqiy tabiiy sharoitini o'zida mujassam etganligi tufayli
- B. Qit'aning haqiqiy boyliklarini o'zida mujassam etganligi tufayli
- C. Janubiy materik degan ma'noni anglatgani tufayli
- D. Qit'aning haqiqiy geografik o'rnini o'zida mujassam etganligi tufayli

**4. Antarktika qit'a nomi sifatida qachon va kim tomonidan kartaga kiritilgan?**

A. 1820 yili rus dengizchilari F.F.Bellinsgauzen va M.P.Lazarev tomonidan

B. 1886 yili ingliz okeanografi Jon Merrey tomonidan

C. 1620 yili polland geografi B.Varrenius tomonidan

D. 1786 yili ingliz sayyohi J.Kuk tomonidan

3. Gaffatuleba oqibotlilig nomi qaysi tildan olingan va qanday ma'noga ega?

A. G'arbiy tilda, dengiz oqini

B. Ispan tilda, qo'lliq oqini

C. Portugaliyada, okean oqini

D. Italiya tilda, qo'lliq oqini

## 15-mavzu: OSIYO TOPONIMIYASI

### 15.1. Osiyo toponimiyasi

#### *Reja:*

1. Osiyo toponimiyasi haqida umumiy tushuncha.

2. Submintaqalar toponimiyasining farqlovchi xususiyatlari.

3. Markaziy Osiyo davlatlari toponimiyasiga qisqacha ta'rif.

**Ma'ruhaing maqaddi:** Murakkab va xilma-xil toponimik landshaftga ega bo'lgan Osiyo qit'asi toponimiyasini paydo bo'lishi, shakllanishi, o'zgarishi va farqlovchi xususiyatlarini boshqa makromintaqalar toponimiyasi bilan taqqoslab o'rganishdan iborat.

**Tayanch ibora va atamalar:** Qit'a toponimik landshafti, submintaqa, toponimik qatlam, turli xil toponimlar.

Osiyo qit'asi nihoyat murakkab va xilma-xil toponimik landshaftga ega. Shu sababdan, qit'a toponimiyasini submintaqalar doirasida o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblandi.

**Janubiy-G'arbiy Osiyo toponimiyasi.** Janubiy – G'arbiy Osiyo – ko'lna sivilizatsiya beshigi hisoblanadi. Arabiston yarim oroli va unga yondosh hududlarni birlashtirgan bu submintaqa toponimiyasining qadimiyligi bilan alohida ajralib turadi. Ma'lumki, aynan Mesopotamiyada miloddan avvalgi IV asrda, shumerlar tomonidan eng qadimiy yozuv – mixxat yaratilgan va u insoniyat tsivilizatsiyasida yangi davmi boshlab bergan. Mesopotamiya (ikki daryo oralig'i) – Dajla va Furot daryolari



oralig'ida yashagan – shumer, akkad, bobil, ossuriylar, O'rta yer dengizidan sharqdagi – finikiylar, filistiyamlar (qadimgi falastinlar), qadimgi yahudiylar, Kichik Osiyoni egallagan va Misr fir'avnlari bilan kurashgan xetlar, buyuk Ahamoniylar davlatini barpo etgan qadimgi forslar, ellada va rim madaniyati mintaqa toponimiyasida o'z «izlarini» qoldirgan. Ushbu hududda dunyoning uchta asosiy dini paydo bo'lgan.

Mintaqadagi ayrim toponimlarning (Damashq, Bag'dod, Halab) yoshi bir necha ming yilga teng, ularni qaysi tilga mansubligini aniqlash ham qiyin. Dajla (shumerlarda Tigrushu) va Furot (shumerlarda Buranunu, assiriylarda Purattu) kabi gidronimlar, asrlar davomida turli tilli xalqlar ta'sirida bir necha bor shakl-shamoyilini o'zgartirib (transformatsiya) hozirgacha yetib kelgan. Iroq davlati hududida xarobalari saqlanib qolgan afsonaviy Bobil (shumercha, Kadingirra, akkadcha Bahilu, aynan– «tangri darvozasi», oliy ma'bud Marduk nazarda tutilgan) shahning nomi dastlab Akkad shohi Sargon (mil. av. 2364–2314 y.) haqidagi afsonada va Ur davlatining uchinchi sulolasiga oid hujjatlarda tilga olingan.

Isroil va Falastin davlatlari hududida ko'hna somiy tillarga tegishli bo'lgan butun bir toponimlar qatlamini ajratish mumkin. Masalan, *Quddus* shahri tarixiy yozma manbalarda, jumladan qadimiy yahudiy tilida *Ierusalim*, *Ierushalaim*, *Urshalaim* shaklida qayd qilingan. Quddus shahri O'lik dengizining g'arbidagi chala cho'lli yassi tog'likda joylashgan va u musulmon, yahudiy va nasroniylarda «muqaddas shahar» hisoblanadi. Quddus haqidagi dastlabki ma'lumotlar miloddan avvalgi ikki ming yillikning o'rtalariga to'g'ri keladi. Dastlab Rushalimum (Shalim xudosi shahri), yozma manbalarda miloddan avvalgi XV asrdan Ierushalaim nomi bilan tilga olingan. Ierushalaim qadimiy yahudiylar tilida «tinchlik shahri», arabcha, al-Quds – «muqaddas» shahar ma'nolarini anglatgan.

Qora va O'rta yer dengizi atrofidagi mamlakatlar toponimiyasida qadimgi davrlarga mansub geografik nomlar hozirgacha saqlanib qolgan. Ularning bir qismi hozirgi Turkiya davlati hududida joylashgan va turk tili ta'sirida shaklan o'zgargan: *Smirna* – *Izmir*, *Pergam* – *Bergama*, *Selevkiya* – *Silifke*, *Sebastiya* – *Sivas*, *Galipolis* – *Galibolu*, *Trepezund* – *Trabzon*, *Antioxiya* – *Antakya*, *Aleksandriya* – *Iskanderun* va boshqalar. Turkiyaning yirik port shahri Istanbul qadimda Konstantinopol, Sargrad, Vizantiya deb ham nomlangan. Toponimist olimlar, Istanbul shahri nomiga grekcha, stin poli – «shaharda, shahar

ishda soʻz asos boʻlgan deb hisoblashadi. Oykonomni turk tilidagi sistem boʻl boʻl soʻzi bilan bogʻlab izohlash toʻgʻri emas.

Mittotapala keyingi davrlarda paydo boʻlgan toponimlar qatlamlari orasida arabcha nomlarning salmogʻi katta. Ularning shakllanishi va mittotapala boʻyida koʻp tarqalishida, islom dini paydo boʻlishi hamda arablar tomonidan yurisdiktsiya (VII-IX asr) muhim rol oʻynagan. Arabcha geografiya nomlari koʻpincha, ikki soʻz hamda qoʻshimchadan tarkib topgan: *Harat al-Arab* – «Arablar daryosi», *Rub al-Holi* – «chorak qismini egallagan choʻl», *Bahr al-Arab* – «Arabiston dengizi» va hoshqalar. Arabcha bir nomdagi tarkibida jahul – «top», rus – «boʻgʻoz», tal – «tuproq», ashq, shart – «daryo», ayn – «uloq», nuadina – «shahar», rabot – «qishloq», qalʼah – «oldi toponimlik terminlar koʻp uchraydi. Mutaxassislar nomlarga toponimiyasida aytilgan, paygʻamburlar va har xil diniy eʼtiborlar bilan bogʻliq boʻlgan nomlarning koʻpligini alohida qayd qilishgan. Janubiy – Gʻarbiy Osiyo mintaqasidagi uncha katta boʻlmagan toponimlik qatlamlar orasida Iroq, Suriya va Turkiyada kurd, arman va moʻgʻulcha nomlarning baharishi mumkin.

**Eron va Afgʻoniston** toponimiyasi tarkibidagi geografik nomlarning aksariyati eroniy tillarga xos. Eron – soʻzi oriylar (qadimiy eroncha «ayama» «oriylar mamlakati») qabilasi nomidan olingan. Miloddan avvalgi 550 yilda hozirgi Eronning janubi-gʻarbiy hududlarida Fors pahloligi paydo boʻldi. Yunonlar, keyinchalik Yevropani boshqa xalqlar Fors nomini mamlakatni barcha qismiga taaluqli deb bilib, uni Persiya (Persiya) deb atashgan. Fors (ruscha, Persiya) soʻzi – mamlakat nomi sifatida uzoq vaqt qoʻllanildi va u 1934 yili hozirgi Eron hukumatining rasmiy taklifi bilan Eron nomiga almashtirildi.

Eron va Afgʻoniston koʻp millatli davlatlar hisoblanadi. Bu holat mintaqa toponimiyasida oʻz aksini topgan. Eron va Afgʻonistondagi geografik nomlarning bir qismi Oʻrta Osiyo joy nomlariga oʻxshash boʻlgan anʼanaviy toponimlardan iborat. Oʻrta Osiyo hamda Eron va Afgʻoniston xalqlari oʻrtasida qadimdan yaqin aloqalar mavjud boʻlgan. Mintaqa xalqlarining tili, urf-odati, oʻtmishi bir-biriga yaqinligi bois, geografik nomlari tanish va tushunarlidir. Tarixiy kitoblarda tilga olingan *Xuroson*, *Sheroz*, *Nishopur*, *Astrohod*, *Hirod*, *Balx*, *Mazori-Sharif*, *Gʻazna*, *Kobul*, *Badaxshon*, *Hindikush* kabi nomlarning maʼno-mazmunini koʻpchilik biladi. Eron va Afgʻoniston davlatlari toponimiyasida *rud*, *obod*, *dasht*, *koʻh*, *chashma*, *iston* kabi soʻzlar asosiy toponim hosil qiluvchi geografik terminlar hisoblanadi.

*Kavkaz toponimiyasini* hozirgi vaqtda lisoniy jihatdan uchta asosiy guruhga bo'lish mumkin – arman, gruzin, ozarboyjon. Mutaxasislarning yozishicha, mintaqadagi eng qadimgi geografik nomlar hozirda o'lik hisoblangan tillarga tegishli va ularning asl shaklini tiklash qiyin. Qora dengiz sohillari qadimgi davrlardan boshlab kishilarga ancha yaxshi tanish bo'lgan. Masalan, qadimgi yunonlar Kolxida vodiysida bir necha shaharlar bunyod etishgan. Ular orasida Dioskuriada (hozirgi Suxumi atrofida), Pitiunt (Pitsunda), Fasis (Rioni daryosining qadimgi yunoncha nomi bilan) kabi shaharlar alohida ajralib turgan.

Armaniston geografik nomlarining tarkibi deyarli bir xil, ularning negizini armancha nomlar tashkil etadi. Hind-evropa tillar oilasida alohida shoxani tashkil etadigan arman tili bir necha ming yillik tarixga ega. Shu sababdan, uning tarqalish areali ham ancha keng, Armanistonning hozirgi hududidan tashqari, Turkiyaning shimoli-sharqida hamda Eronning shimoli-g'arbida ham armancha nomlar ko'p. Tarixchi olimlarning yozishicha, taxminan miloddan avvalgi IX asr o'rtalarida ushbu hududlarda, hozirgi armanlarni ajdodlari bo'lgan urartu qabilalari kuchli Urartu quldorchilik davlatini tashkil etgan.

Armanistonda urartu toponimlari eng quyi qatlamni tashkil etganligi hois, ularni izohlash ancha qiyin. Arxeologik qazishlarda topilgan mixxatli tosh bo'lagidan ma'lum bo'lishicha, Urartu podshosi Argishti I miloddan avvalgi 782 yilda Erabuni qal'asini qurdirgan. O'sha qal'a yonida hozirgi Yerevan shahri vujudga kelgan, qal'a nomi bilan shahar atalgan. Mutaxasislar, nomga eri (erixi) etnonimi asos bo'lgan deb hisoblashadi. 1936 yilga qadar shahar Erivan, keyincha rasmiy nom sifatida hozirgi mahalliy talaffuzga yaqin bo'lgan, Yerevan shakli qabul qilingan. 1921 yilda Yerevan Armaniston poytaxti deb e'lon qilingan. Mamlakat geografik nomlari tarkibida qadimgi negizdan tashqari kar – «tosh», lich – «ko'l», antar – «o'rmon», avan – «qishloq», spitak – «oq», kapuyt – «ko'k», pokr – «kichik», mets – «katta» kabi armancha geografik terminlar ham ko'p uchraydi.

Gruziya toponimiyasi qo'shni Armanistonga nisbatan lisoniy jihatdan ancha xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Gruzinchacha toponimlardan tashqari mamlakat hududidagi geografik nomlarning bir qismini qadimgi yunoncha (asosan g'arbda), turkiy (Adjariya turklar tasarufida bo'lgan), eroniy (osetincha, mamlakat shimolida), abxazcha joy nomlari tashkil etadi. Boshqa mintaqalardagi kabi gruzinchacha toponimlarning aksariyati mahalliy geografik terminlar yordamida shakllangan.

Gruzinecha joy nomlari tarkibida tskali, tsxali – «daryo», tba – «ku'l», ru – «kanal», letu – «tog'», klde – «qoya», kedi – «tizma», vake – «tekislik», tsixu – «qul'a», kaluki – «shahar», sapeli – «qishloq», axali – «yul», dzveli – «akni», tetra – «oq» kabi toponimik terminlar uchraydi. Masalan, mamlakat poytaxti Tbilisi (tbili – «issiq») shahrining nomlari ham geografik termin asos bo'lib xizmat qilgan. Shahar issiq hudud yonida barpo etilganligi uchun shunday atalgan. Mamlakat toponimiyasi tarkibidagi bir qator nomlarning paydo bo'lishi fitonim va zoonimlar bilan bog'liq. Gruziyadagi Kaxetiya, Svanetiya, Imeretiya kabi tarixiy viloyatlar nomlariga etnonimlar asos bo'lgan.

Mutaxassislarning fikricha, Ozarbayjondagi eng quyi toponimik qatlami eroniy tillarga tegishli. Mamlakat joy nomlari tarkibida *ob-* «suv», *obod-* «shahar» kabi eroniy tillarga xos geografik terminlar ko'p uchraydi. Tog'li Qarobog' viloyatida esa armancha toponimlarning salmog'i katta. Ozarbayjoncha joy nomlarning asosini su – «suv», chay – «soy, daryo», gyol – «ko'l», dag' – «tog'», qala – «qal'a», gara – «qora», aq – «oq», demir – «temir» kabi turkiy geografik terminlar tashkil etadi. Mamlakat hududidagi turkiy toponimlar keyingi tarixiy davrlar mahsuli degan fikrga javoban, ayrim mutaxassislar turkiy (ozarbayjoncha) geografik nomlarning mintaqada qadimdan mavjudligi va ularni milodning ilk asrlarida eroniy nomlar bilan bir davrda shakllangan deb hisoblashadi.

Ozarbayjon poytaxti Boku (ozarbayjoncha Baki) shahrining nomi ana shunday tarixiy nomlar sirasiga kiradi. U dastlab V asr yozma manbalarida, keyincha IX-X asrlarda Sharq geograflari (Istaxriy, Muqaddasiy, Ma'sudiy) asarlarida qayd etilgan. Qadimgi nomning ikkita o'zaro yaqin talqini mavjud. Birinchisi, baki qadimgi turkiy tilda – «tepa, do'ng». Ikkinchisi, nomga qadimda Apsheron yarim orolida yashagan va otashparastlikka e'tiqod qilgan, bagana (bag'ana) etnik guruh nomi asos bo'lgan.

*O'rta Osiyo va Qazog'iston toponimiyasi* ko'p asrlik tarixga ega. Mintaqada hozirgacha aniqlangan va saqlanib qolgan joy nomlarining eng quyi qatlami eroniy tillarga xos. Ular mintaqaning barcha hududlarida, Pomir tog'laridan to To'ron tekisliklarigacha keng tarqalgan. Ma'lumki, O'rta Osiyo hududida turkiy nomlar ham juda qadimiy davrlarda shakllangan. Masalan, O'rta Osiyoni qadimiy turkiy toponimiyasini maxsus o'rgangan Sh.S.Kamoliddinni yozishicha, kelib chiqishi turkiy bo'lgan nomlar juda qadim davrlardan buyon, ushbu

hududda keng tarqalgan va ular ilk o'rtta asrlarda son jihatdan sharqiy eroniy tillarga xos bo'lgan toponimlardan keyin ikkinchi o'rinni egallagan. Turkiy toponimlar o'rtta asrlardan boshlab to hozirga qadar mintaqa toponimiyasining eng baquvvat hamda barcha hududlarda keng tarqalgan geografik nomlar qatlamini tashkil etadi.

O'rtta Osiyoning boshqa hududlariga nisbatan Yettisuv, Tyan-Shanning ichki qismlari va Qozog'istonning dasht mintaqasida azaldan turkiy nomlar ko'p bo'lgan. Turkiy toponimlarning shakllanishida o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Mutaxassislarning yozishicha, turkiy toponimlar ko'pincha geografik terminlar yordamida paydo bo'lgan va bu holatni olimlar mahalliy xalqlarning yashash tarzini bevosita ularni o'rab turgan tabiat bilan chambarchas bog'liqligi bilan izohlashgan.

O'rtta Osiyo va Qozog'iston toponimiyasining shakllanishida faol qatnashgan ayrim toponimik terminlar.

6-jadval

| Toponimik terminlar | Tillar  |        |         |            |
|---------------------|---------|--------|---------|------------|
|                     | Turkman | Qozog  | Qirg'iz | Tojik      |
| daryo               | chay    | jilg'a | jilg'a  | daryo, rud |
| suv                 | suv     | su     | suu     | ob         |
| tog'                | dog'    | tau    | too     | ko'h       |
| qum                 | gum     | qum    | qum     | reg        |
| huloq               | hulag'  | bulaq  | bulaq   | chashma    |
| shahar              | qala    | qala   | shaar   | shahar     |
| yangi               | yangi   | jana   | jani    | nav        |
| eski                | kene    | eski   | eski    | ko'hna     |

Ta'kidlash joizki, mintaqa toponimiyasining o'ziga xos xususiyatlardan yana biri, shuki joy nomlari tarkibida etnonimlar salmoqli o'rin egallaydi. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, o'tmishda ularning soni bundan ham ko'p bo'lgan. Masalan, XIX asrning oxirlarida Zarafshon vodiysini o'rgangan rus olimlari tomonidan yozib olingan 1300 aholi punkti nomi orasida 900 dan ortiq etnonim borligi qayd qilingan.

**Qozog'iston Respublikasi toponimiyasi.** Qozog'iston toponimik landshafti nihoyat xilma-xil. Mamlakat hududidagi geografik nomlar shimoldan janubga qarab o'zgarib boradi. Toponimist olimlarning yozishicha, mamlakatning shimoliy hududlaridagi toponimlar ko'proq Sibir mintaqasidagi nomlarga o'xshaydi, janubiy hududlarda esa O'rtta Osiyoga xos bo'lgan nomlarni ko'rish mumkin. Qozog'istonda turkiy (qozoqcha) nomlardan tashqari so'g'diy, mo'g'ul, arab, ruscha toponim-

bu toponim uchraydi. Mutaxassislar, respublika hududidagi eng qadimgi va qiyat geografiyaviy nomlar qatnashiga Chimkent, Jarkent, Mankent, Tekes kabi ko'pchilik toponimlarni kiritishgan.

Qozoqcha nomlar respublikaning g'arbiy va janubiy qismlarida keng tarqalgan. Muntazimlik shahar va ovullar nomlarini ko'pincha, suv ob'ektlari, to'rtburchaklar, o'simliklar, tog'lar va yaylovlar nomlari bilan o'zaro aloqadorligi (Ko'kshetov, Qarag'anda, Jezqazg'an, Balqash va hokazo) mahalliy aholini turmush tarzi bilan bog'liq. Respublikada slavyan tili tillari orasida shakllangan toponimlar (Ust-Kamenogorsk, Pavlodar, Semipalatinsk va hokazo) ham ko'p. Xususan, mamlakatning shimoliy va sharqiy qismida bunday nomlarning paydo bo'lishida, o'tgan asrning o'rtalarida qo'riq yerlarni o'zlashtirilishi va sanoatlashgan shaharlarni barpo etilishi sabab bo'lgan.

Ushbu hududida boshqa tillar negizida paydo bo'lgan yoki o'zgartirilgan nomlarni ham uchratish mumkin. Masalan, Qozog'istonning barcha poytaxti Astana shahri qisqa vaqt ichida bir necha bor o'z nomini o'zgartirdi. Dastlab u Oqmo'la (qozoqcha, mo'la – «qabr, mozo») nomi bilan 1830 yilda paydo bo'lgan. Oradan ikki yil o'tgandan keyin, ya'ni 1832 yili aholi punktiga okrugning ma'muriy markazi sifatida shahar maqomi berilgan va nomning qozoqcha asosi saqlangan holda Akmolinsk deb o'zgartirilgan.

Qozog'istondagi qo'riq yerlarni o'zlashtirishda shaharning alohida o'rmini ta'kidlash maqsadida, unga 1961 yili Selinograd (ruscha, Selina – «qo'riq», grad – «shahar») nomi berilgan. Respublika mustaqillikka erishganidan keyin, 1992 yili shaharga uning tarixiy nomi Oqmo'la qaytarib berildi. 1994 yili poytaxtni ushbu shaharga ko'chirish to'g'risida qaror qabul qilindi va 10 dekabr 1997 yili u Qozog'iston poytaxti deb rasman e'lon qilindi. Shundan keyin, poytaxtga yangi nom tanlash uchun respublika miqyosida tanlov e'lon qilindi va unda Astana nomi g'olib chiqdi.

**Tojikiston Respublikasi toponimiyasi.** Tojikiston hududidagi toponimlarning kelib chiqishi ancha murakkab. Tojik tili hind-evropa tillar oilasining eron guruhiga mansubligi bois, respublika toponimiyasining asosiy qismini eroniy (tojikcha) nomlar tashkil etadi. Tojikiston turkiy tilli davlatlar bilan chegaradosh va bu holat joy nomlarida o'z aksini topgan. Respublikani barcha hududlarida turkiy (o'zbekcha, qirg'izcha) toponimlarni uchratish mumkin. Xususan, O'zbekiston bilan chegaradosh bo'lgan, So'g'd viloyati toponimiyasi tarkibida o'zbekcha nomlarning salmog'i ancha katta.

Mutaxassislarning fikricha, mintaqada o'zbekcha nomlarning ko'plab uchrashi hamda keng tarqalishiga tojik va o'zbek xalqlarining qadimiy aloqalari, siyosiy-iqtisodiy, madaniy va yaqin qo'shnichilik munosabatlari sabab bo'lgan. O'zbekcha nomlar son jihatdan tojikcha toponimlardan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi va tarqalish areali ham ancha keng.

Respublikaning Tog'li Badaxshon viloyatida qirg'izcha va Pomir tillari mikro guruhiga (vanj, yazg'ulom, shug'non, rushon, vaxon, bartang) kiruvchi tillarda ham nomlar mavjud. Ta'kidlash lozimki, Shimoliy Tojikistondagi Yag'nob vodiysida qadimiy va hozirda kam sonli aholi so'zlashadigan yag'nob tilida ayrim reliktlar joy nomlari uchraydi. Mutaxassislar, hozirgi yag'nob tilini qadimiy so'g'd tilining dialektlaridan biri deb hisoblashadi. So'g'd tili to'la saqlanib qolmagan bo'lsa ham, hozirgi tojik tilida yaratilgan joy nomlarining tarkibida genetik jihatdan so'g'd tiliga mansub bo'lgan terminlar ko'plab topiladi.

Tojikiston poytaxti Dushanbe shahri nomining o'ziga xos tarixi bor. O'rta va Markaziy Osiyo hududida hafta kunlari (yakshanba, dushanba, seshanba, chorshanba, panjshanba, juma, shanba) nomi bilan atalgan aholi punktlari ko'p. Mahalliy aholi hayotida muhim o'rin egallagan bozor haftani ikkinchi kuni bo'lgan va bu voqea aholi punktini nomlashda asos vazifasini bajargan. Shahar nomi 1929 yili Stalinobod deb o'zgartirilgan va 1961 yili uning avvalgi tarixiy nomi qayta tiklangan.

Tojikcha geografik nomlar tarkibida ko'pincha deh (qishloq), guzar, dovon, ob, obod, reg (qum), garm, buzurg (katta), dara, tangi, dasht, ko'hna (eski), qal'a, qo'rg'on kabi toponimik terminlari uchraydi va ular joy nomlari yaratishda ancha faol terminlar hisoblanadi. Masalan, Dehinav, Surxob, Qal'ai Xumb, Qo'g'ontepa, Fayzobod, Registon va boshqalar.

*Qirg'iziston Respublikasi toponimiyasi.* O'rta Osiyoning boshqa mintaqalariga ko'ra Qirg'iziston toponimiyasi o'ziga xosligi bilan alohida ajralib turadi. Respublika toponimiyasi tarkibida turli tillarga xos bo'lgan toponimlar salmog'i katta va ular har xil yo'llar va sabablar bilan paydo bo'lgan. Mintaqa geografik nomlari tarkibida qozoq tili elementlari ancha ko'p va bu holat ularni qadimdan yaqin qo'shni xalqlar bo'lganligidan dalolat beradi. Masalan, Terskey Alatau – qozoqcha, Terskey Alatau – qirg'izcha, Ichkilitau – qozoqcha, Echkilutoo – qirg'izcha va hokazo.

Sof qirg'izcha nomlardan tashqari respublika hududida arab, mo'g'ul, rus va boshqa boshqa tillardan o'zlashgan so'zlardan tashkil

toponimlarni ham uchratish mumkin. Chunonchi, XIX asrning o'rtalarida hozirgi Qirg'iziston hududi Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shib olingandan keyin Talas va Chu vodiylariga Rossiya va qisman Ukrainadani ko'plab slavyan xalqlari ko'chib kelib o'rnatishgan va ular o'z tili bilan birga joy nomlarini ham olib kelishgan. Slavyan tillaridan kelib chiqqan geografik nomlar Talas vodiysida Pokrovka, Ivanovo, Alekseyevka, Chu vodiysida Stavropolka, Bistrovka, Issiqko'l vodiysida Dudenko, Ananovo, Grigorevka ana shu tarzda paydo bo'lgan. Qirg'izistonning mo'g'ul tili asosida shakllangan joy nomlari ko'p va ularning aksariyatini gidronimlar tashkil etadi. Norin, Kyokyomenen, Toluk, Irtogal va boshqalar. Mintaqada, mo'g'ulcha nomlarning ko'pligini qirg'iz va mo'g'ul tili o'zaro yaqin hududda paydo bo'lganligi bilan izohlash mumkin. Hunday yaqin qo'shniçilik geografik terminlarni ham bir tildan ikkinçigacha o'tishini ta'minlagan.

Qirg'iziston mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin shahar va qishloqlarni qayta nomlash borasida jiddiy tadbirlarni amalga oshirdi. Olib borilgan milliy toponimik siyosat natijasida, slavyan (rus) tillarga xos nomlarning soni keskin kamaydi. O'zgartirilgan nomlar qatoriga respublika poytaxti Bishkek shahri nomini ham kiritish mumkin. Hozirgi Bishkek o'rnida 1825 yili Qo'qon xonligi tomonidan Pishpak (qo'qonlik tarixchilar asarlarida Pishkak) qal'asiga asos solingan va 1926 yilgacha shu nom bilan atalgan.

1926 yili shaharga sobiq sho'rolar harbiy qo'mondoni va davlat arbobi M.V.Frunze nomi berilgan. 1991 yili mamlakat poytaxti nomi o'zgartirildi va Bishkek deb qayta nomlandi. Qirg'iz toponimisti Ye.Qo'ychiboev toponimni «besh tepa» deb ta'riflagan. Qirg'izistonni qo'shni Tojikiston bilan chegaradosh mintaqasidagi oronim va gidronimlar asosan qirg'izcha nomlarga ega bo'lsa, oykonimlarni shakllanishida esa tojik tili muhim rol o'ynagan.

**Turkmaniston Respublikasi toponimiyasi.** Turkmaniston joy nomlarining asosiy qismini turkiy (turkman) tillardan kelib chiqqan nomlar tashkil etadi. Respublika toponimiyasi tarkibida tabiiy omillar asosida shakllangan geografik nomlar (yaylov, qum, quduq, buloq) keng tarqalgan. Tipik turkmancha nomlarga Qizilsu, Toshliq, Qumdog', Qoraqum, Nehitdog', Kopedog' va boshqalar misol bo'ladi. Turkmanistonda forsiy (eron) tillardan kelib chiqqan geografik nomlar ham ko'p. Masalan, Feruza, Sumbar, Bodxiz, Murg'ob, Herirud, Serhedobod, Lebap, Chorjuy kabi nomlar shular jumlasiga kiradi. Masalan, tarixiy manba-



larda **Hirot** bilan **Saraxs** oraliq'i, hozirgi Turkmaniston bilan Afg'oniston chegarasidagi uncha baland bo'lmagan qirlar **Bodxiz** nomi bilan ataladi. **Bodxiz** so'zi fors tilida **bod** – "shamol", **hez** – "turmoq", ya'ni "shamollar makoni", "sershamol joy" kabi ma'nolarni anglatadi.

Forsiy tillardan kelib chiqqan geografik nomlar (gidronimlar, oykonimlar, oronimlar) eng quyi qatlamni tashkil etadi va ularni respublikaning janubiy qismida ko'proq uchratish mumkin. Arab (Xo'jamboz, Imombobo va slavyan (rus) tilidan (**Krasnovodsk**, **Udarnik**, **Pogranichnik**) o'zlashgan nomlar ham bor, ammo ular son jihatdan ancha kam. Turkmanistonda mustaqillik yillarida olib borilgan milliy toponimik siyosat natijasida, turkmancha nomlar soni ancha ko'paydi.

Turkmaniston poytaxtiga 1881 yili asos solingan va unga voha markazi bo'lgan **Ashgabad** qishlog'ining nomi asos bo'lib xizmat qilgan. Shahar nomi 1919 yilga qadar **Asxabad** shaklida yozilgan. U dastlab **Ahaltaka** vohasi markazi, keyincha **Kaspiyorti viloyati** markazi hisoblangan. 1919 yili shahar nomi **Poltoratsk** (**Turkiston Respublikasi Xalq Xo'jaligi Kengashi** raisi **N.G.Poltoratskiy** (1888-1918) sharafiga) deb o'zgartirilgan. 1924 yili Turkmaniston SSR tashkil etilgan so'ng **Poltaratsk** poytaxtga aylangan. 1927 yili shaharga uning tarixiy nomi **Ashgabad** qaytarib berilgan. Toponimist olimlar (**H.Hasanov**, **S.Ataniyazov**) shahar nomini «havas qiladigan joy» deb ta'riflashgan.

*Markaziy va Sharqiy Osiyo toponimiyasi* ko'p tilli va qadimiyligi bilan ajralib turadi. **Markaziy Osiyoda** joylashgan **Mug'ulistonning** toponimiyasi hozirgacha kam o'rganilgan. Mavjud nomlarning mutlaq ko'pchiligi mug'ulcha va ularni izohlash qiyin emas. Shu bilan birga ta'kidlash joizki, har qanday boshqa mamlakatlardagi kabi, ushbu hududda ayrim talqin qilishi qiyin yoki maxsus etimologik tadqiqotlarni talab qiladigan murakkab geografik nomlar ham uchraydi. Shu sababdan, **Mug'uliston** tarixi va geografiyasidan yaxshi xabardor bo'lmasdan turib ularni izohlash ancha murakkab masala.

Mutaxassislar **Mug'ulistonni** toponimik oqimlar chorrahasida (**tungus-manjur**, **turkiy**, **ket**, **hind-evropa**) joylashgan davlat deb hisoblashadi. Ularning fikricha, mamlakat geografik nomlarida turli tillarda so'zlashuvchi xalqlarning «izi» bor. Bu xalqlar hozirda ushbu hududda yashamasa ham, ammo nomlar o'tmishdagi voqea-hodisalarning tarixiy guvohi sifatida saqlanib qolgan. Masalan, eng so'ngi toponimik qatlamlaridan biri sifatida e'tirof etilgan tibetcha toponimlarni **Mug'uliston** hududida keng tarqalishiga buddizm-lamaizm dinini kirib kelishi sabab

bo'lgan. Shu bois, bu toponimik qatlam tarkibida diniy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan nomlar ko'p.

Maballiy xalqning ko'chmanchi chorvador hayot tarzı mamlakatda o'ziga xos nomlar va geografik terminlarni paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Masalan, ko'chmanchi chorvador bo'lgan mug'ullar uchun gidrografik va orografik ob'ektlarni aniq belgilash nihoyat muhim ahamiyat kash etgan. Shu sababdan, mamlakat toponimiyasi tarkibida *ula* – «tog'», *bulug'* – «buloq», *daban* – «dovon», *gol* – «daryo», *muren* – «katta tarziy daryo», *nur* – «ko'l», *gov* – «cho'l», *xoto* – «shahar» kabi geografik terminlar alohida o'rin egallaydi. Mug'uliston toponimiyasi tarkibida antropotoponimlar kam va ular ham keyingi davr mahsuli hisoblanadi. Etnonimlar esa toponimlar tarkibida mamlakatning barcha hududlarida uchraydi. Turkiy xalqlarning urug' va qabilalari nomlari bilan bog'liq bo'lgan etnotoponimlar ko'proq mamlakatning g'arbida, mug'ul etnonimlari asosida shakllangan nomlar esa mamlakatning sharqiy qismida ko'p tarqalgan.

Xitoy davlati katta hududga ega bo'lishi bilan birga, toponimik jihatdan ham nihoyat xilma-xillik kash etgan. O'zbek tilida Xitoy so'zi so'ngi asr davomida davlat nomi sifatida ko'proq ishlatilib, mamlakatni O'rta Osiyoda qadimdan qo'llanib kelgan va an'anaviy bo'lib qolgan Chin so'zidan g'olib chiqdi. Chin so'zini endilikda tarixiy adabiyotlarda hamda chin so'zidan yasalgan turdosh otlar (chinni idish, chinni gul, chinni kaptar va hokazo) tarkibida uchratish mumkin.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, kelib chiqishi xitoycha bo'lgan geografik nomlarning asosiy qatlami mamlakatning sharqiy qismiga to'g'ri keladi. Ushbu hududda joy nomlari juda qadimiy davrlarda shakllangan va ularning asosiy qismi qadimgi xitoy tsivilizatsiyasi (miloddan avvalgi III asr) davriga to'g'ri keladi. Xitoycha geografik nomlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular asosan bir xil toponim hosil qiluvchi aniqlagichlar yordamida paydo bo'lgan va ikki yoki uch tarkibiy qismlardan tashkil topgan. Ma'lumki, Xitoy ierogliflari uzoq tarixiy davr davomida shaklan kam o'zgargan. Shu boisdan, ierogliflar yordamida tarixiy hujjatlarda bitilgan qadimiy toponimlarning aksariyati asl holida bizgacha yetib kelgan. Xan (xitoylar o'zlarini shunday atashadi) tili va uni dialektlarida yaratilgan toponimlarning ko'pchiligi geografik ob'ektning hududiy joylashuvi va tabiiy sharoitini o'zida aks etgan.

Mamlakat geografik nomlari tarkibida *shan* – «tog'», *fu* – «tepa», *fin* – «qir», *sya* – «vodiy», *an* – «qirg'oq», *xe*, *shuy*, *xa* – «daryo», *tszyan* –

«katta daryo», *chi, xo* – «ko'l», *tszin* – «katta shahar», *tun* – «qishloq», *lu* – «yo'l» kabi terminlar hamda *da* – «katta», *chjun* – «o'rta», *shan* – «yuqori», *nan* – «janub, janubiy», *bey* – «shimol, shimoliy» kabi aniqlovchi qo'shimchalar ko'p takrorlanadi. Xitoyda kompartiya hokimiyati o'rnatilgandan so'ng, mamlakat hududida kommunistik mafkurani targ'ib qiluvchi nomlar soni ko'paygan bo'lsa ham, ammo keng tus olmadi va eng muhimi tarixiy toponimlar asl holida saqlanib qolindi.

Tibet va unga chegaradosh hududlarda tibet toponimlari tarqalgan. Tibet joy nomlari tarkibida *gan* – «past tog' (nagore)», *ganri* – «qorli tog'», *ron, rong, long* – «vodiy», *tang* – «dasht», *nag* – «o'rmon», *tsang-po* – «daryo», *tso* – «ko'l», *dzong* – «shahar», *yul* – «mamlakat» kabi geografik terminlar ko'p uchraydi. Lama cherkovi tomonidan diniy e'tiqodlar bilan bog'liq nomlar keng targ'ib qilingan. Mahalliy kartalarda diniy terminlar (*hogdo* – «muqaddas», *chindman* – «tumor», *mandal* – «qurbonlik idishi», *sum* – «masjid» va *hokazo*) asosida shakllangan toponimlarni ko'plab topish mumkin. Geografik kartalarda tibet toponimlari bilan birga ko'pincha, ularni xitoycha va mug'ulcha shakllari ham qo'llaniladi.

Ta'kidlash joizki, Koreya yarim oroli toponimiyasi bir xilligi bilan ajralib turadi. Buni mahalliy aholining etnik tarkibini bir xilligi va geografik nomlarning qadimiyligi bilan izohlash mumkin. Koreya so'zi o'zbek tilida Koriyo, Quriya, Ko'riya kabi shakllarida yozilgan, ammo ular kun talabiga javob bermaganligi sababli davlat hamda xalq nomini Koreya va koreys deb atash ma'qul topilgan. Koreys toponimlari tarkibida *ak* – «tog'», *gan* – «daryo», *xo* – «ko'l», *to* – «orol», *kok* – «vodiy», *san* – «qal'a», *chxon* – «manzilgoh», *li* – «qishloq», *de* – «katta», *go* – «baland» kabi toponim hosil qiluvchi geografik terminlar ko'p uchraydi. Koreya Xalq Demokratik Respublikasida kommunistik g'oyalarning hukmronligi tufayli mafkuraviy nomlar bilan birga, geografik ob'ektlarni partiya dohiylari nomlari bilan atash keng tus olgan.

Yaponiya (yaponcha Nippon, Nixon – «quyoshli o'lka». Epitet nomi, «kun chiqar mamlakati») toponimiyasi o'ziga xosligi va boshqa mamlakatlar geografik nomlaridan alohida farq qiluvchi belgilari bilan ajralib turadi. Bir millatli mamlakat hisoblangan Yaponiya, o'ziga xos tarixiy yo'lni bosib o'tgan. Yaponlar o'zlarini nixondzin – «quyoshli o'lka odamlari» deb atashadi. Mintaqa geografik nomlarning shakllanishida mamlakatni orollarda joylashganligi va uzoq muddat tashqi dunyodan ajralgan holda rivojlanganligi sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Xitoy ieroglifik yozuvi (yaponcha, kandzi – «xitoy yozuvi»), Yaponiyaning IV–V asrlarda kirib kelgan va oʻsha davr ziyolilari uchun oʻrganish majburiy hisoblangan. Keyinchalik ierogliflar bilan bir qatorda ularning xitoycha oʻqilishi («on») ham muayyan fonetik oʻzgarishlarga uchragan holda oʻzlashtirilgan. Bunday oʻzlashtirish qadimiy yapon tilida mavjud boʻlmagan bir qator soʻz va nomlarning paydo boʻlishiga sabab boʻlgan.

Ayni paytda ierogliflarning maʼno jihatdan mos keladigan yaponcha oʻqilish shakli («kun») ham paydo boʻlgan. Yaponiyaning oʻzida ijod qilingan ierogliflarning barchasi faqat «kun» usulida, yaponcha oʻqiladi. Ierogliflarning fonetik qoʻllanishi milliy yozuvning paydo boʻlishiga imkon yaratgan. Yaponcha soʻzlarni ifoda etish uchun, baʼzi ierogliflar boʻgʻinli belgi sifatida qoʻllanilgan va ular hech qanday maʼno kash etmagan. Shu sababdan, ierogliflar yordamida yozilgan soʻz va nomning yaponcha maʼnosi, uning xitoycha shaklidantamoman farq qilgan. Bu usulda yozilgan nomlar koʻpincha boshqacha maʼno-mazmun kash etgan va ularning asl etimologiyasini tiklashni iloji yoʻq.

Mamlakat toponimiyasi tarkibida, yaponcha nomlar mutlaq koʻpchilikni tashkil etadi. Shu bilan birga, shimoliy hududlarida (Xokkaydo oroli) mamlakatning eng qadimiy aholisi hisoblangan aynlar (50 ming kishi atrofida) tiliga xos nomlarni uchratish mumkin. Taʼkidlash joizki, mutaxassislar Yaponiya geografik nomlarining shakllanishida ayn toponimlari oʻrni turlicha baholashgan.

Mamlakat joy nomlari tarkibida *yama*, *dzan*, *sen* – «togʻ», *dasi* – «qoya», *tapi* – «vodiy», *gama* – «qirgʻoq», *sima* – «orol», *koti* – «tepa», *gava*, *sen* – «daryo», *ike* – «koʻl», *kyo* – «katta shahar, poytaxt» kabi xalq geografik terminlari koʻp uchraydi. Yaponiyaning eng yirik orollari (*Xokkaydo*, *Xonsyu*, *Sekoku*, *Kyusyu*) nomlari mamlakatda oʻrta asrlarda mavjud boʻlgan, maʼmuriy-hududiy boʻlinishi (hozirda tarixiy viloyat) nomlari bilan bevosita bogʻliq. Shu sababdan, ushbu toponimlar tarkibida *syu*, *do*, *koku* – «viloyat, provintsiya» kabi maʼnolarni anglatuvchi sinonim soʻzlar mavjud.

**Janubiy va Janubiy – Sharqiy Osiyo toponimiyasi.** Tropik mintaqada joylashgan Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari toponimiyasi kam oʻrganilgan. Mintaqadagi joy nomlari lisoniy jihatdan turli tillarga tegishli, ularda oʻziga xos tropik tabiat va murakkab relʼef shakllari oʻz aksini topgan. Binobarin, mintaqaning koʻp tilli toponimiyasi yer yuzidagi eng murakkab toponimik tizimlaridan biri hisob-

lanadi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, miloddan avvalgi III asrda Hind daryosi vodiysida Mohenjo-Daro va Xarappa kabi yirik shaharlar paydo bo'lgan. Bu shaharlarning aholisi 100 ming kishiga yetgan. Mutaxassislarning fikricha, oriylar tomonidan Hindiston istilo qilingandan keyin, miloddan avvalgi I ming yillikdan boshlab, qadimgi hind tsivilizatsiyasi ancha tez rivojlangan. O'tmishda eroniy zabon qabilalarning umumiy nomi bo'lgan oriyon so'zi – «kelgindi, begona, boshqa yerlik» ma'nolarini anglatgan bo'lsa, keyinchalik vaqt o'tishi bilan bu so'zning ma'no-mazmuni o'zgarib – «xo'jayin, aslzoda» ma'nosini kasb etgan.

Mintaqadagi geografik nomlarning bir qismi qadimgi hind tili – sanskrit (*Hind, Gang* – «daryo», *Braxmaputra* – «xudo Braxma farzandi», *Jamna* – «egizak», *Xaulagiri* – «oq tog'», *Maldiv* – «baland orollar», *Lakkadiv* – «yuz ming orollar» va hokazo), bilan bog'liq. Sanskrit (qadimgi hindcha, sam skrta – «mukammal, sayqallangan») – hind-evropa tillari oilasiga kiruvchi qadimiy hind tillardan biri. Sanskrit tili asosida bir qator hozirgi zamon tillari (hind, bang'ol, urdu, panjob va boshqalar) shakllangan. So'ngi davrlarda shakllangan geografik nomlar aynan shu tillar negizida paydo bo'lgan. Masalan, tarkibida pur – «shahar» termini bo'lgan nomlarni (*Kanpur, Jabalpur, Nagpur, Shohjahonpur* Hindistonda, *Bxavalpur* Pokistonda, *Lalitpur* Nepalda, *Chandpur* Bangladeshda va hokazo) shular qatoriga kiritish mumkin.

Ma'lumki, mintaqada hinduizm va buddizm dinlari keng tarqalgan. Shu sababdan, sanskrit va keyincha uning asosida shakllangan tillarga xos toponimlarni Hindixitoy va Zond orollarida (Sumatra, Yava, Siam qo'ltig'i, Singapur va boshqalar) ham uchratish mumkin. Pokiston va Hindistonda tarkibida eroniy tillarga xos bo'lgan obod – «shahar» termini (Haydarobod, Feysalobod, Allohobod, Ahmadobod va boshqalar) bo'lgan toponimlar ko'p. Bunday toponimlarni paydo bo'lishini, o'rta asrlarda islom dini tarqalishi hamda XX asr boshlarigacha mintaqada fors tilini keng ommalashganligi bilan izohlash mumkin.

Himolay tog'larida atrofidagi hududlarda tibetcha (*Kanchenjanga* – «qorni beshta katta xazinasini», *Dardjiling* – «muqaddas lama yeri»), nepalcha (*Katmandu* – «yog'ochdan qurilgan», *Kastxamandap* ibodatxonasi nomidan olingan) kabi nomlar uchraydi. Hindiston janubida qadimiy dravid (telugu, tamil, gond va boshqalar) tillariga (*Devakotay, Pudukkotay*) mansub toponimlar tarqalgan. Shri-Lanka orolidagi toponimlarning aksariyati singal tili (*Shri-Lanka* – «xudo yorlaqagan yer»,

*Kolombo* – «bandarqoh», *Pidurutalagala tog'i* – «xatarli qoya») asosida shakllangan.

Myanma toponimiyasi tarkibida *nam* – «daryo», *ye* – «suv», *loy*, *ngmya* – «tog'», *to* – «o'rmon», *meng* – «shahar», *van* – «qishloq» kabi geografik terminlar ko'p uchraydi. Myanmadagi geografik nomlarning bir qismi (*Chauchi* – «katta tosh», *Shuedaun* – «oltin cho'qqi», *Yuadji* – «suv bo'yidagi qishloq» va hokazo) tuzilish jihatdan sodda va tushinishi oson bo'lgan oddiy so'zlardan tashkil topgan. Kelib chiqishi jihatidan myanma tiliga xos bo'lgan toponimlarni mamlakat hududidan tashqirida ham (Hindiston, Bangladesh) uchratish mumkin.

Hindixitoy yarim orolida vietnam, kxemer va tay tillariga mansub toponimlar nisbatan keng tarqalgan. Ko'p asrlik Xitoy istilosi va xitoylashtirish siyosati Vetnam toponimiyasiga kuchli ta'sir o'tkazgan. Shu sababdan, Vetnam nomlari tarkibida xitoycha siyosiy–ma'muriy hamda geografik terminlarni ko'rish mumkin. Ba'zi hollarda parallel ravishda vietnam va xitoycha nomlar qo'llaniladi. Vetnam toponimlari tarkibida *xa* – «daryo», *xo* – «ko'l», *suy* – «suv» kabi xitoycha geografik terminlar uchraydi. Vetnamcha nomlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, sifatdan oldin turuvchi termin aniqlovchi mavqega ega. Masalan, *Song-Xong* – «qizil daryo», *Nui-Kao* – «baland tog'», *Xo-Tey* – «g'arbiy ko'l», *Nui-Kon-Von* – «fillar tog'i» va hokazo. Bu toponimik model, vietnam va xitoy geografik nomlari orasida farqlovchi xususiyat hisoblanadi.

Tailand davlati hududidagi geografik nomlar o'zining uzunligi bilan alohida ajralib turadi. Bunga *Nakxonsitxammarat*, *Nakxonratchasima*, *Ubonratchatxani* kabi aholi punktlari nomlari misol bo'ladi. Malayya toponimiyasi Malayziya va Indoneziyada (*Kalimantan* – «mango daraxti mamlakati», *Bandung* – «to'g'on», *Bandjarmasin* – «sersuv», *Kuala-Lumpur*, *Kuala-Lepis*, *Kuala-Trenganu*, *kuala* – «quyi, etak», ikkinchi qismi – gidronim va boshqalar) keng tarqalgan.

Dunyodagi eng katta Malay arxipelagida (17,5 ming orol) joylashgan Indoneziya («orollardagi Hindiston»)da 150 yaqin elat va etnik guruh yashaydi. Mamlakat aholisining asosiy qismi malayya-polinezziya til oilasining indonez guruhida so'zlashadi. Bulardan eng yiriklari yavaliklar, sundlar, tagallar, maduralar, batakalar, achelar, dayaklar va boshqalar. Binoharin, orollarda o'ziga xos geografik nomlar shakllangan. Mamlakat toponimiyasi tarkibida *karta* – «qal'a, qo'rg'on», *bang* – «shahar» (*Jakarta*, *Surakarta*, *Jokyakarta*, *Palembang*, *Sabang*, *Rembang* va hokazo) kabi geografik terminlar ko'p uchraydi.

**Tinch okeanidagi Filippin arxipelagini** (hozirda shu nom bilan davlat mavjud) 1521 yili F. Magellan katoliklar taqvimiga binoan Muqaddas Lazar kuni kashf etgan va unga Muqaddas Lazar orollari deb nom bergan. Oradan ko'p vaqt o'tmasdan 1543 yili Ispaniya hukumati orollarni egallagan va arxipelagni yangi nom – Ispaniya qiroli Karl I ning o'g'li valiahd shahzoda Filipp (keyinchalik Ispaniya qiroli Filipp II) nomi bilan atagan. Filippin orollaridagi geografik nomlar kam o'rganilgan, ammo mutaxassislar ularning paydo bo'lishini Indoneziya va Mikroneziya toponimiyasi bilan chambarchas bog'liq deb hisoblashadi. Filippin orollari toponimlaridan ayrim namunalar: *Manila* – «indigo daraxti o'sadigan joy», *Luson* – «sholi tozalaydigan do'nglik», *Mindanao* – «ko'llar mamlakati».

**G'arbiy Sibir toponimiyasi.** G'arbiy Sibir toponimiyasi bir necha stratigrafik qatlamlardan tashkil topgan. Ular orasida eng qadimiysi – paleosiyoy, paleosibirь (chukcha, koryak, alyutor, kerek, itelmen, eskimos, aleut) tillariga mansub nomlar hisoblanadi. Mazkur tillarning mushtarakligi, umumiyligi haqidagi farziya XIX asr o'rtalarida rus olimi L. I. Shrenk tomonidan ilgari surilgan. Bu farziyaga muvofiq, tegishli sibirlik elatlar Sibir tub aholisining avlodlaridir. Mintaqa geografik nomlarining keyingi qatnalariga nenets (shimolda), selkup (sharqda), ket (janubda), nishatan so'ngi davrlarda paydo bo'lgan qatlamlarga finn-ugor (xanti va mansi) shimol va markazda, turkiy – janubda hamda eng oxirgi tarixiy qatlamga slavyan (rus) toponimlarini kiritish mumkin.

Rossiya Federatsiyasining shimolida, tundra va tayga tabiat zonalarida istiqomat qiluvchi nenetslar (o'zlarini xasova atashadi; eski nomlari samoedlar, yuraklar) ko'pincha tabiiy ob'ektlarni nomlashgan. Bu ularning turmush tarzi bilan bevosita bog'liq, ya'ni hug'uchilik, ovchilik, baliqchilik bilan shug'ullangan nenetslarni aynan tabiiy ob'ektlar ko'proq diqqatini jalb qilgan. Ko'chmanchi nenetslarda doimiy yashash manzili bo'lmaganligi sababli, ularning tilida shahar so'zi o'rinda *xarad*, *xard* – «uy» termini qo'llanilgan.

Keyinchalik mintaqada qishloq va shaharlarning paydo bo'lishi bilan bu termin «qishloq, shahar» ma'nosini kash etgan (*Salexard*, *Peyaxaxard*). Nenets toponimlari asosan geografik termin va sifatlovchi so'zdan tashkil topgan. Nenets tiliga xos toponim hosil qiluvchi geografik terminlar: *yaxa* – «daryo» (*Peyaxa*, *Yatayaxa*, *Limbadyaxa daryolari*), *made* – «soy» (*Madeyaxa daryosi*), *yar* – «qum» (*Yarotosyo*,

*Yosuyaxa daryolari*). *sale* – «burun, yarim orol» (*Tarka-Sale yarim oroli*, *Saleyaxa daryovi*), *ayo* – «irmoq» (*Soyeletosyo*, *Tesusyo daryolari*) va hokazo.

Mintaqadagi boshqa toponimiyasiga Unja daryosi («yomg'irdan keyin paydo bo'lgan daryo»); Neyto, Amdento, Chandjeltu ko'llari (to, tu – «ko'lb»), Kangarak aholi punkti (sok – «burun»); Polga, Polto daryolari (po – «abarast»), Pa-Ke, Chit-Par daryolari (par – «cho'qqi») kabi nomlar umumiy bo'ladi. Ket tili asosida shakllangan geografik nomlar G'arbiy Sibirda shimoliy va janubi-sharqiy qismida keng tarqalgan. Ko'llardag' tortil shoyalarda «suy, daryo» ma'nosini anglatuvchi *ses*, *zes*, *ses*, *set*, *dat*, *shet*, *chet* kabi geografik terminlar yordamida ko'plab joy nomlari paydo bo'lgan. Masalan, G'arbiy Sibirdagi *Ayzas*, *Tolzes*, *Alsat*, *Ita*, *Ayba*, *Bakchet*, *Taychet* gidronimlari bunga yaqqol misol bo'ladi.

G'arbiy Sibirda suniti va mottel xalqlariga tepishli toponimik qatlam ham ancha keng tarqalgan. Hoshqar xalqlardagi kabi ular tomonidan yaratilgan geografik nomlarda mintaqa tabiiy sharoiti, kishilarning xo'jalik faoliyati va turmush tarzi xususiyatlari o'z aksini topgan. Joy nomlari tarkibida qo'llanilgan terminlar geografik ob'ektni, ularning tabiati (o'rmon va o'simlik tiplari) xususiyatlarini aniq ifodalashi bilan farq qiladi. Toponimlar tarkibida *yegan*, *yugan*, *igay*, *ya* – «daryo», *tor*, *tur*, *lor* – «ko'lb», *sunt* – «o'zan», *uriy* – «irmoq», *gort*, *kurt* – «muntzilgoh» kabi terminlar ko'p uchraydi.

Turkiy toponimlar mintaqaning janubida – Tog'li Oltoy va Kuzbirkda tarqalgan. Ular turkiy geografik terminlar (*ko'l*, *tog'*, *tau*, *tosh*, *mu*, *qum* va hoshqalar) yordamida shakllangan va etimologiyasini aniqlash qiyin emas. Mintaqadagi turkiy tillarning uyg'ur – o'g'uz guruhiga mansub bo'lgan shor tilida ham geografik nomlar mavjud. Shorlar – Rossiya Federatsiyasining Kemerovo viloyati (Tog'li Shoriya), qisman Oltoy va Xakas Respublikasida yashaydi. Shor tili hozirda adabiy til sifatida mavjud bo'lmasa ham, ammo bu tilda yaratilgan nomlarning diqqatga sazovor tomoni shundaki, ularda turkiy va mo'g'ul tili elementlari mujassamlashgan (*Sarigol* – «sariq daryo», *Tashtagol* – «toshloq daryo» va hokazo). Slavyan xalqlariga tegishli bo'lgan toponimik qatlam oykonimlar tarkibida ko'proq kuzatiladi. Ularni semantik jihatdan patronim, tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy, diniy va mafkuraviy nomlarga bo'lish mumkin.

Umuman olganda, G'arbiy Sibir geografik nomlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib uni quyidagi toponimik rayonlarga bo'lish



mumkin: Shimoliy – samodiy xalqlari (nenetslar, entslar, nganasanlar, selkuplar) tillarga xos gidronimlar; g'arbiy sibir taygasi finn-ugor gidronimlari va ayrim slavyan tillari asosida paydo bo'lgan aholi punktlari nomlari; o'rmon dasht va dasht zonasidagi turkiy va slavyan oykonimlari; Tog'li Oltoy turk-mo'g'ul toponimlari; Kuzbassdagi turkiy va finn-ugor gidronimlari hamda slavyan oykonimlari.

**Sharqiy Sibir va Uzoq Sharq toponimiyasi.** Sharqiy Sibir geografik nomlarining asosiy qismini lisoniy jihatdan evenk, yakut, tuva, buryat, yukagir tillariga tegishli nomlar hamda so'ngi davrlarda paydo bo'lgan slavyan toponimik qatlami tashkil etadi. Evenklar (o'zlarini orochon deb atashadi; eski nomlari tunguslar) – Krasnoyarsk o'lkasi va Sibirning boshqa mintaqalarida yashovchi xalq. Evenk toponimlarining areali ancha keng va ularni ushbu xalqning hozirgi yashash hududlaridan tashqarida ham uchratish mumkin. Evenk tiliga xos geografik nomlar Krasnoyarsk o'lkasi hududida nisbatan zich joylashgan.

Evenk toponimlari tarkibida «-nga», «-ngna», «-mba» kabi mahalliy topoformantlarni ko'pligi, uning o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi (*Birringa, Xatnaga, Tomba, Selenga*). Selenga – Baykal ko'li havzasidagi eng yirik daryo. Daryo nomi dastlab VI-VIII asr yozma manbalarida Selene shaklida tilga olingan. XVII asr manbalarida esa Selenga ko'rinishida uchraydi. Evenklar tilida *sele* – «temir» ma'nosini bildiradi. Selenga vodiysi haqiqatdan ham temir rudasi zaxiralariga boy, hudud hisoblanadi. Demak, Selenga gidronimi «temir rudasi ko'p joy» ma'nosini anglatadi. Amur va Chita viloyatlaridagi gidronimlarning aksariyati kelib chiqishi jihatidan evenk tiliga mansub. Masalan, Chita aslida daryo nomi va u evenk tilida «balchiq, loy» degan ma'noni anglatadi. Daryo vodiysi to'qayzor, o'tloq, pastqam bo'lganligidan daryo shunday atalgan. Evenk tili asosida paydo bo'lgan nomlarning bir qismi boshqa tillar (rus, buryat, saxa (yakut) ta'sirida shaklan o'zgargan.

Saxa (yakut) tili bilan bog'liq bo'lgan geografik nomlar qatlami Lena daryosi havzasida aniq ko'rinadi. Saxa (yakut) tili – turkiy tillarning sharqiy tarmog'iga mansub til hisoblanadi. Yakutlar (yoqut shaklida yozish xato, chunki yoqut so'ziga uning umuman daxli yo'q) o'zlarini saxalar deb atashadi. XIV-XV asrlarda Baykal bo'yidan Lena daryosining o'rta oqimiga ko'chib o'tgan saxalarni, ular bilan yonma-yon yashagan evenklar, yakotlar (yakutlar) – «boshqalar, begonalar» deb atagan va bu holat, yakut nomini paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

Yakut tilidagi asosiy toponim hosil qiluvchi soʻz va geografik terminlar *uu* – «suvi», *yuyuy* – «daryo», *kyuel* – «koʻl», *tas* – «tosh», *luunay* – «qum», *saya* – «top», *yuring* – «oq», *xara* – «qora», *saroʻg* – «sariq», *imur* – «tuz», *sanga* – «yangi», *ulaxan* – «katta». Yakutiya toponimiyasida tabiiy omillar asosida shakllangan nomlar, antroponimlar va xosonon etnonimlar salmoqli oʻrin egallaydi. Sharqiy Sibirning shimoliy va markaziy qismida ket va nenets gidronimlari tarqalgan. Ketlar tilidagi nomi – yenisey ostyaklari, yeniseylar) – hozirda Yenisey daryosining oʻlta va quyi oqimi boʻylarida yashaydi (1,3 ming kishi). Professor A.P. Dulzon toponimik maʼlumotlar asosida ket xalqi yashagan joylarini aniqlagan. Nenets tiliga xos boʻlgan nomlarning areali ancha keng, ular asosan Kola yarim orolidan Yenisey daryosining oʻng qirgʻopʻigacha boʻlgan tundra zonasida va Pur daryosi havzasidagi tuya zonasida tarqalgan.

Tiva Respublikasida *xem, kem* – «daryo» maʼnosidagi geografik termin yordamida bir qancha gidronimlar mavjud (*Qizil-Xem, Bash-Xem* va boshqalar). Tiva va Buryatiyada moʻgʻulcha nomlar ham uchraydi. Buryat tili moʻgʻul tillari guruhiga kiradi. Shu sababdan, buryat toponimlari tuzilishi va maʼno-mazmuni jihatidan moʻgʻulcha nomlarga oʻxshaydi. Buryat soʻzi moʻgʻul tilida «oʻrmonda yashovchilar yeri» degan maʼnoni bildiradi. Mintaqa janubidagi geografik nomlar tarkibida tungus-manchjur nomlaridan tashqari, moʻgʻul tiliga xos boʻlgan *daban*– «dovon», *murin* (*muren*) – «daryo», *ula*– «togʻ» kabi geografik terminlar yordamida ham joy nomlari yaratilgan.

Chukotkadagi eng quyi toponimik qatlami eskimoscha nomlar tashkil etadi. Ularda geografik obʼektning eng muhim belgilari oʻz aksini topgan. Masalan, *Pevek* – «shishgan togʻ», *Yanranay* – «alohida turgan choʻqqi» va hokazo. Chukotkada ruscha nomlar bilan koʻpincha aholi punktlari atalgan. Kolima va Alazeya daryolari vodiysida hamda qisman Magadan viloyatida yukagir toponimlari uchraydi. Yukagir tili (odul tili)– yukagir-chuvan tillari oilasidan saqlanib qolgan yagona amorf til hisoblanadi. Kamchatka toponimiyasi tarkibida esa itelmen, koryak va keyingi davrlarda paydo boʻlgan rus toponimlarini uchratish mumkin. Ruscha nomlar temir yoʻl va dengiz qirgʻoqlari atrofida tarqalgan (*Xabarovsk, Vladivostok, Naxodka* va boshqalar).

Saxalinda tubjoy xalqlar (nivx, oroch, ayn) tili bilan bogʻliq nomlar kam saqlanib qolgan va ular asosan gidronim va oronimlardan iborat. Ularga ayn tilli shahar va qoʻltiq nomi *Aniva* – «qoya», Tomari –

«qo'ltiq» hamda nivx tilidagi Moskalvo – «kichik qo'ltiq» ma'nosini anglatuvchi nomlar misol bo'ladi. Saxalin to'la Rossiya tarkibiga o'tgandan keyin, barcha yaponcha nomlar almashtirilgan.

Orolda so'ngi davrlarda paydo bo'lgan, ruscha nomlarning asosiy qismi memorial va tabiiy omillar asosida shakllangan toponimlardan iborat. Osiyoning sharqiy qirg'oqlari yonida joylashgan orolni Saxalin deb atalish tarixi juda qiziq. Nomning paydo bo'lishida bir tushinmovchilik sabab bo'lgan. XVIII asrda Frantsiyada chop etilgan kartada Amur daryosining quyilish joyiga *Saghalien anga hata* – «Qoradaryo oqimi» yoki «Qoradaryo quyilish joyidagi qoya» deb yozib qo'yilgan. (Amur daryosining mahalliy nomi Saxalyan-ula-«Qorasuv»).

Kartadagi yozuv orolgacha cho'zilganligi sababli frantsuz geografi J.B. d'Anvil uni orolni nomi deb, o'zining Xitoy va unga yaqin hududlar kartasiga orolni shu nom bilan kiritgan. Nomshunoslikni soddalashish qonuniyatiga binoan, toponim uzoq muddat qo'llanishi natijasida, hozirgi Saxalin shakliga o'tgan. Orolni tubjoy xalqi – nivxlar uni *Tromif* – «katta», aynlar – *Karaptu* – «erto'lada yashovchilar» oroli deb atashgan. Yaponlar janubiy Saxalinda hukmronlik qilgan davrda, orolni ayn tilidagi nomini o'zgartirib unga *Karafuto* nomini berishgan.

XVII asrda Uzoq Sharqni o'rgangan rus tadqiqotchilari kartalarga uni nomini Katta orol deb yozib qo'yishgan. Kuril (ayn tilida kuri – «tutun, bulut») orollaridagi geografik nomlarning ko'pchilik qismi ayn qabilasi tilida yaratilgan. Uzoq Sharqni Rossiyaga tegishli qismida, keyingi davrlarda paydo bo'lgan rus toponimlari keng tarqalgan.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. Osiyo qit'asi toponimiyasiga qisqacha ta'rif bering.
2. Janubiy-G'arbiy Osiyo submintaqasining qadimiy va hozirgi zamon toponimiyasini o'zaro taqqoslab tafovutlarini aniqlang.
3. Markaziy Osiyo davlatlari toponimiyasining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?

#### **Test topshiriqlari**

1. Dunyoning uchta asosiy dini paydo bo'lgan va mintaqa toponimiyasida sezilarli iz qoldirgan joy bu...

- A. Mesopotamiya
- B. Kichik Osiyo
- C. Janubiy-G'arbiy Osiyo
- D. Yunoniston

2. Turkiy toponimlarning ko'pchiligi geografik terminlar yordamida paydo bo'lganligini qanday izohlash mumkin?

A. Mahalliy xalqlarning tilida geografik terminlar ko'pligi bilan bog'liq

B. Mahalliy xalqlarning yashash tarzi o'rab turgan tabiat bilan afandora bog'liq

C. Mahalliy xalqlarning til xususiyatlari bilan bog'liq

D. Mahalliy xalqlarning tilida geografik terminlar kamligi bilan bog'liq

3. Turkiy tilidagi turkiy toponimlar tarqalgan mintaqasini belgilang.

A. Sharqda – Ermoniyarok o'lkasida

B. G'arbda – O'zbek va Turon viloyatlarida

C. Shimolda – Lyman viloyatida

D. Janubda – To'g'ri Oltay va Kuzbassda

4. Xitoycha toponimlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu...

A. Tarkibida toponim hosil qiluvchi aniqlagichlar yo'qligi

B. Ko'pincha uch yoki to'rt tarkibiy qismlardan tashkil topganligi

C. Asosan bir xil toponim hosil qiluvchi aniqlagichlar yordamida paydo bo'lganligi

D. Turli xil toponim hosil qiluvchi aniqlagichlar yordamida paydo bo'lganligi

5. Saxa (yakut) tili– turkiy tillarning qaysi tarmog'iga mansub?

A. Shimoliy tarmog'iga

B. Janubiy tarmog'iga

C. Sharqiy tarmog'iga

D. G'arbiy tarmog'iga

## 16-mavzu: YEVIROPA TOPONIMIYASI

### 16.1. Yevropa toponimiyasi

#### *Reja:*

1. *Yevropa qit'asining toponimik landshafti haqida umumiy tushuncha.*
2. *Shimoliy va G'arbiy Yevropa toponimiyasi o'ziga xos xususiyatlari.*
3. *Janubiy va Sharqiy Yevropa toponimiyasining shakllanishi.*

**Mavzuning maqsadi:** Qit'a toponimiyasini shakllanishi, rivojlanish tarixi, hozirgi toponimik landshafti, hududiy farqlovchi xususiyatlari, toponimik submintaqalari, ularning o'rganilganlik darajasi haqida bilim va ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

**Tayanch ibora va atamalar:** toponimik landshaft, substrat toponimlar, toponimik submintaqalar, Yevropa va Rossiya toponimiyasi, makromintaqa turkiy toponimlari.

Yevropa qit'asining toponimik landshafti nihoyat xilma-xil va murakkab tuzilishga ega. Bu mintaqaning turli hududlaridagi o'ziga xos etnik va til taraqqiyoti tarixi hamda tabiiy va madaniy, ma'naviy xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Yevropa geografik nomlari qadimiyligi bilan farq qiladi va ular tarixiy hujjatlarda qayd qilingan. Qit'adagi eng quyi toponimik qatlamni qadimgi substrat nomlar, ya'ni hozirgi tillar yordamida izohlab bo'lmaydigan, maxsus etimologik tadqiqotlarni talab qiladigan toponimlar tashkil etadi.

Ma'lumki, Yevropa toponimiyasi boshqa qit'alarga qaraganda yaxshi o'rganilgan. Mintaqa geografik nomlarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, uni shartli ravishda bir necha submintaqaga bo'lish mumkin. Shuni ham ta'kidlash joizki, bunday bo'linish shartli bo'lib, ularning aniq chegarasi belgilanmagan hamda kamchiliklardan xoli bo'lmasligi mumkin.

**Shimoliy Yevropa toponimiyasi.** Shimoliy Yevropa toponimik jihatdan dunyoda eng yaxshi o'rganilgan hududlardan biri hisoblanadi. Submintaqadagi geografik nomlarning yagona shakli aniq va qat'iy belgilab qo'yilganligi tufayli ular kam o'zgargan va ko'p yillik tadqiqotlar natijasida yaxshi o'rganilgan. Mutaxassislarning yozishicha, qadimiy sagalarda tilga olingan ko'pchilik nomlar, muayyan tarixiy

sharoitlarga ko'ra, hech qanday o'zgarishsiz hozirgacha yetib kelgan va ularni etimologiyasini aniqlash qiyin emas.

Skandinaviyada aholining sezilarli migratsiyasi yuz bermaganligi tufayli, uning etnik tarixida ham jiddiy o'zgarishlar bo'lmagan. Olimlarning aniqlashicha, submintaqadagi geografik nomlarning quyi qatlamni german tili xalqlarga tegishli va ular hozirgacha asl holida saqlanib kelmoqda. Ushbu hududda fin toponimiyasi ham katta salmoqqa ega ekanligi unutmazlik kerak. Shu sababdan, ularni o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib alohida tadqiq etish maqsadga muvofiq. Shimoliy Yevropa toponimiyasini semantik jihatdan bir necha guruhlariga bo'lish mumkin: tabiiy omillar (rel'ef, gidrografiya, flora, fauna), iqtisodiy-ijtimoiy omillar (kishilarning xo'jalik faoliyati) hamda aholi manzilgohlari tiplari asosida shakllangan nomlar.

Qadimgi skandinaviyaliklar tilida ko'p qo'llanilgan geografik terminlardan biri *angr* («qo'ltiq») so'zidir, u Norvegiyadagi 70 ortiq ford nomi tarkibida uchraydi. Masalan, *Varanger-ford* («baliq ovlanadigan qo'ltiq»), *Xardanger-ford* va boshqalar. Mintaqa toponimiyasida *vik* – «qo'ltiqcha», *sund (zund)* – «qo'ltiq», *golm (xolm)* – «orol», *fyord, hugt* – «qo'ltiq», *fors* – «sharshara», *berg* – «tog'», *elv, dalen, o* – «daryo», *stad (sted)* – «qishloq, aholi punkti, borg – «qal'a, shahar» kabi terminlar keng qo'llanilgan. Tabiiy sharoitlarni o'zida aks etgan toponimlar: *Smoland* («kichik yer»); *Skagerrak* («tik burun»), *Katta va Kichik Belt (belt* – «bo'g'oz»), *Lund* («o'rmonli»), *Malmyo* («qumli orol»), *Narvik* («tor qo'ltiqcha»), *Bergen* («tog'li yaylov»), *Fyun* («yaylov»), *Orxus* («etak») va boshqalar. Daniya va Shvetsiyada *borg* («qal'a, shahar») (*Silkeborg, Olborg, Trelleborg, Geteborg*) termini yordamida paydo bo'lgan geografik nomlar alohida qatlamni tashkil etadi.

Skandinaviyada diniy e'tiqodlar bilan bog'liq toponimlar soni ham ko'p. Ularning ayrimlari xristian dinigacha bo'lgan an'anaviy e'tiqodlar bilan bog'liq (*Yutunxeymen* – «o'ltanlar (gigant) manzili», *Trollxetten* – «ajinalar makoni», *Viborg* – «muqaddas joy» va hokazo). Mintaqada qadimdan toponimlar yasashda maxsus formantlardan foydalanishgan. Masalan, nomlar tarkibidagi – *rud* formanti kishilarni kasb faoliyati bilan bog'liq, *-xeym, -ing, -stadir* kabi formantlar esa ularning yashash manzilini belgilagan. Shimoliy Skandinaviyada saam (saam tili – finugor tillardan biri) toponimlari uchraydi. Shvetsiyadagi temir rudasini qazib olish sanoati markazi hisoblangan Kirunavara shahrining nomi saam tilida – «kakliklar tog'i» ma'nosini anglatadi. Hozirgi vaqtda saam

toponimlarini yig'ish, o'rganish, saqlash va tadqiq etish bo'yicha Skandinaviya davlatlarida alohida tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Islandiyani o'ziga xos toponimiyasi bor. Sababi oroldagi geografik nomlar substratsiz shakllangan, ularni birinchi bo'lib kimsasiz orolni kashf qilgan normannlar (skandinavcha, northman– «shimol odami») qo'yishgan. Tarixiy manbalardan ma'lumki, normannlar Skandinaviya yarim orolida yashagan, ularni Yevropada vikinglar, Rossiyada varyaglar deb atashgan. Orolagi geografik nomlar qat'iy belgilanganligi sababli etimologiyasini aniqlash qiyin emas.

Islandiyada skandinaviya toponimiyasiga xos terminlardan (masalan, *vik* – «qo'ltiq» toponimlar tarkibida *Reykjavik*, *Keflavik* va boshqalar), *tashqari yokudl* («muzlik»), *vatn* («muzlik ko'li»), *geyzer (otilmoq)* kabi mahalliy terminlar ham geografik nomlar tarkibida uchraydi. Mahalliy nomlarning aksariyati geografik ob'ektlarning tabiiy xususiyatlari va birinchi qo'nim topgan shaxslarning nomlarini o'zida aks etgan. Islandiya toponimlarning yana bir diqqatga sazovor xususiyati, shuki, ular murakkab tuzilishga ega va qiyin talaffuz qilinadi. Masalan, *Xvannadalsxnukyur*, *Yokudlsau-au-Fyodlum*, *Tingvadlavatn*, *Oudadax-reyn* va hokazo.

Finlandiya (fin – xalq nomi, land – «yer») toponimiyasi Skandinaviyadagi boshqa german tilli mamlakatlar geografik nomlaridan jiddiy farq qiladi. Quyidagi fin tiliga xos bo'lgan geografik terminlar mamlakat joy nomlari tarkibida ko'p uchraydi: *yoki* – «daryo», *laxti*– «qo'ltiq», *myaki* – «tepa», *koski* – «ostona», *yarvi* – «ko'l», *suo* – «botqoq, botqoqli ko'l», *ranta* «qirg'oq», *selkya* – «do'nglik, balandlik», *ma-er*, *sari*– «orol», *linna*– «qal'a» va boshqalar. Finlandiya hududida gibril (shved, slavyan) nomlar ham topiladi (*Turku* shahrining nomi slavyancha «torg» so'zidan olingan).

**G'arbiy Yevropa toponimiyasi.** *Britaniya orollari* geografik nomlari turli etnoslar ta'sirida shakllangan va u arxipelagning o'tmishdagi ancha murakkab etnik tarixidan dalolat beradi. Hozirgacha, orollarda aniqlangan va o'rganilgan eng quyi geografik nomlar qatlamini kelt toponimlari tashkil etadi. Keltlar (gallar) – miloddan avvalgi I-ming yillikning ikkinchi yarimida Yevropani bir qator hududlarida, jumladan Britaniya (keltlar tarkibidagi brittlar qabilasi nomidan) orollarida yashagan qadimiy hind – yevropa qabilalaridir.

Kelt toponimlari (*Llanguirivon*, *Aberginoliun*, *Donvegan*, *Donegol*, *Kilmanrok*, *Adrigol* va boshqalar) barcha orollarda mavjud, ammo

ularni boshqa hududlarga nisbatan Irlandiya, Shotlandiya, Uels va Kornuoll yulim orolida zichroq joylashganligi aniqlangan. Geografik nomlar yomashda *llan, lan, tre* kabi kelt toponimlari qo'shimcha vazifasini bajaradi. Kelt gidronimiyasi tarkibidagi mahalliy geografik terminlar *myon, knon, eyvon* – «daryo», *lox* – «ko'l» va hokazo.

Keltli chiqishi kelt tiliga mansub bo'lgan mashhur toponimlar: *Temza* («qora suv»), *Glazgo* («yashil o'rmon»), *Dublin* («qora moy»), *London* («lotqoqlagi qal'a»), *Lox-Nes, Lox-Ney, Lox-O, Lox-Ri* va boshqalar. Kelt toponimlari orasida boshqa tillarning leksik va morfologik elementlaridan tarkib topgan nomlar ham ko'p uchraydi. Rimliklar ta'siri Britaniya geografik nomlarida ham ko'rinadi. Masalan, *Manchester, Donkaster, Lankaster, Chester* kabi nomlar tarkibidagi *chaster, kaster* («qarorgoh, lager») terminlari, qadimda rimliklar Britaniya orollarida yo'llar va harbiy qarorgohlar qurib, keyinchalik ular o'rnida shaharlar paydo bo'lganidan dalolat beradi.

VI asrdan boshlab orollarga german qabilalari angllar va sakslar bostirib kirib, Britaniya hududida anglosakslar qiroliklariga asos solishgan. O'sha davrda german qabilalari (angllar, sakslar, yutlar) tomonidan qo'yilgan nomlar, Buyuk Britaniya tarkibidagi grafliklar nomi sifatida hozirgacha saqlanib qolgan: *Uesseks* («g'arbiy saks»), *Susseks* («janubiy saks»), *Esseks* («sharqiy saks») va hokazo. Geografik nomlar tarkibidagi *ham* «manzilgoh, qishloq», *hampton, ton* – «qishloq», *wic, borough (bergh, burh)* – «qo'rg'on, qal'a» kabi formantlar, toponimlarni anglo-sakslar tomonidan yaratilganidan darak beradi. Masalan, *Birmingem, Nottingem, Rokingem, Vulverxempton, Sautgempton, Nortxempton, Uorvik, Midsbro* kabi nomlarda anglo-saks formantlari o'z aksini topgan.

IX asr boshida orollarga normannlar kelishgan. Normannlar tomonidan egallagan viloyatlar chegarasini Britaniya toponimiyasini o'rganib aniqlasa bo'ladi. Sababi inglizcha nomlar tarkibida skandinaviya tillariga xos elementlar hozirgacha saqlanib qolingan. Toponimist olim P.Soyerning yozishicha, normannlar skandinaviyaning bir qator landshaft xususiyatlari (tepa, daryo, o'rmon, maydon), hamda aholi maskanlarini ifoda etgan geografik terminlarni o'zlari bilan birga olib kelishgan.

Mintaqa geografik nomlarida skandinavlariga xos bo'lgan va aholi yashash manzilini ifoda etuvchi *by* va *thorp* formantlari eng ko'p qo'llanilgan. Mutaxassislarining hisob – kitoblariga ko'ra ular taxminan 700



ta inglizcha toponimlar tarkibida uchraydi. (*Grimshi, Derbi, Uitbi, Nyutorp, Dantorp* va hokazo). Bu yana bir bor ingliz terminalogiyasida skandinaviya ta'sirini naqadar sezilarli ekanligini ko'rsatadi. Joy nomlari tarkibida keng qo'llaniladigan inglizcha geografik terminlar: *lend* – «er, joy», *bruk* – «jilg'a», *bridj* – «ko'prik», *vud* – «o'rmon», *ford* – «kechuv», *church* – «cherkov» va hoshqalar. (*Svellend, Sharnbruk, Kembridj, Grinvud, Oksford, Kraystcherch*).

Hozirda Angliya va Buyuk Britaniya bir davlatning sinonim nomlari sifatida qo'llanilmoqda. Ma'lumki, Angliya so'zi qadimgi german qabilalari tarkibidagi angllar etnik guruhi nomidan olingan. Ular dastlab Yutlandiya yarim orolida yashashgan va keyinchalik V-VI asrlarda Britaniya orollarini anglosaksonlar tomonidan bosib olinishida faol qatnashgan. Mutaxassislarning aniqlashicha, ikkinchi nom qadimiyroq, u antik geograflarga ma'lum bo'lgan, kelt qabilalari tarkibidagi britt etnik guruhi nomi bilan bog'liq. Buyuk Britaniyani epitet nomi ham bor – *Tumanli albion*. Bu nom ko'proq davriy mathuot yoki hadiiy adabiyotlarda qo'llaniladi. Nomning hirinchi qismi barchaga tushunarli, chunki tuman Angliyada tez-tez takrorlanadigan hodisa. Ikkinchi qismi *albion* (lotincha, *albus* – «oq») so'zi ilk bor rim yozma manbalarida qayd qilingan.

*Fransiya toponimiyasi* bir necha toponimik qatlamdan iborat. Ular orasida eng qadimgi qatlamni – keltlargacha (qadimgi hind-evropa) bo'lgan substrat toponimlar tashkil etadi. *Luara* (*Ligos* gidronimining qadimiy shakli), *Garonna* (qadimgi *Garumna*), *Marsel* (qadimgi yunon koloniyasi *Massaliya*). Nitsa – Fransiyaning janubiy-sharqiy qismidagi shahar. Unga qadimgi yunonlar *Nikeya* koloniyasi sifatida asos solishgan va g'alaba ma'budasi sharafiga *Nika* deb atashgan.

Fransiya toponimiyasi tarkibidagi keyingi toponimik qatlamni kelt (gallar) geografik nomlari tashkil etadi. Gallar keltlarning rimliklar tomonidan atalishi. Gallar miloddan avvalgi VI asr boshlarida Reyn ortidan Fransiyaning g'arbiy va janubiy-g'arbiy viloyatlariga kelib o'r-nashishgan. Gallar tili – hind-evropa tillar oilasining kelt guruhiga mansub, hozirda o'lik til. Bu qatlam uchun xos bo'lgan toponimik formantlar: *-akos*, *-akum*, *-anum*, *anikum*, *-yevr*, terminlar: *dun* – «shahar», *magos* – «maydon», *hriva* – «ko'prik». *Bretan* (keltlar tarkibidagi britt qabilasi nomidan, etnonim) – Fransiyaning g'arbiy qismidagi tarixiy viloyat, *Elzas* (alisauc – «qoyalar etagida»), *Parij* (gallar tarkibidagi parizi qabilasi nomidan, etnonim), *Sena* (soghan – «tinch»), *Rona* (rho-

«lezoqa»), *Ardenni* (ard – «balandlik»), *Lion* (lucodunus – «yorug' tog'») kabi nomlar kelt geografik nomlariga yaqqol misol bo'ladi. Kelt toponimlari Bretan va Akvitaniyada ham yaxshi saqlangan.

Fransiyada kelib chiqishi lotin tili bilan bog'liq bo'lgan geografik nomlar (*Provans, Shampan, Orlean, Kann, Vishi* va boshqalar) rimliklar hukmronligi davrida paydo bo'lgan. Shimoliy Fransiyada skandinaviya toponimiyasining ta'siri hozirgacha seziladi. *Brest – breze* – «daraxt», *Dyunkerk* – «dyunadagi cherkov, – *xolm*, – *gard*, – *lund*, – *xolt* kabi formantlar yordamida pado bo'lgan toponimlarni ularga misol qilib ko'rsatish mumkin. Mamlakatning janubi – g'arbida *hask (Gaskon)*, toponimlari, sharqda german toponimik elementlari (*Lotaringiya, Strashburg, Lemberg*) ko'proq uchraydi.

Sof fransuzcha nomlar, *mon* – «tog'», *ans* – «qo'ltiq», *valle* – «vodiy», *vil* – «shahar», *il* – «orol», *gran* – «katta», *pti* – «kichik» kabi terminlar va toponim hosil qiluvchi so'zlar yordamida shakllangan. O'rta asrlarda paydo bo'lgan va tarkibida *shato* – «qasr» (*Shatoru*) termini bo'lgan geografik nomlar alohida guruhni tashkil etadi. Fransiyada diniy e'tiqodlar bilan bog'liq toponimlar ham ko'p. Ularda ko'pincha nasroniy dinining aziz-avliyolari nomi muhrlangan: *Sent-Etenn, Sen-Jermen, Sen-Iak, Sen-Pyer, Sen-Marten, Sen-Deni* va boshqalar.

**Pireneya yarim oroli toponimiyasi.** Mutaxassislar Pireneya yarim oroli toponimiyasini bir necha toponimik qatlarga bo'lib o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblashadi. Toponimist olimlarning yozishicha, mintaqa geografik nomlarining eng quyi qatlami – iberlar tiliga mansub. Iberlar – Pireneya yarim orolining janubi – sharqida yashagan qadimiy tubjoy xalq. Iberiya atamasi dastlab yunon tarixchisi Gekatey Mileflik (miloddan avvalgi VI asr) asarlarida uchraydi. Ular tomonidan yaratilgan nomlar qadimiyligi tufayli mavhumlashgan va etimologiyasini aniqlash ancha qiyin. (*Taxo, Esla, Mino, Salamanka, Asturiya, Aragon* va boshqalar). Miloddan avvalgi III-II asrlarda Iberiyani rimliklar bosib olgan va iberlar roman tillarida so'zlashadigan bo'lishgan.

Ikkinchi toponimik qatlamni tashkil etadigan qadimiy kelt tili asosida shakllangan nomlar yarim orolning shimoliy qismida aniqlangan. Mintaqadagi kelt gidronimlari qatoriga *Ebro* – ibr – «daryo», *Duero* – dur – «suv» kabi daryo nomlarini kiritish mumkin. Ispaniyaning shimoli – g'arbiy qismida joylashgan Galisiyada qadimda keltlar tarkibidagi galleklar qabilasi yashagan, keyinchalik viloyat ham qabila nomi bilan

atalgan. Kelt toponimlarida – *briga* («ko'prik») topoformanti ko'p uchraydi: *Konimbriga* (hozir – *Koimbra shahri*), *Mundobriga*, *Arkobriga* va boshqalar.

Yarim oroldagi keyingi geografik nomlar qatlami finikiylar tomonidan yaratilgan va u qirg'oq bo'ylab joylashgan geografik ob'ektlar nomlarida yaqqol ko'rinadi. Ular asrlar davomida turli tilli xalqlar ta'sirida jiddiy o'zgarishlarga duchor bo'lib hozirgacha saqlangan. Bunday toponimlar qatoriga *Malaga* (*Malaxlax*) – «baliq tutadigan joy», *Sevilya* (*Sefela*) – «pastki», *Kadis* (*Gadir*) – «devor», *Barselona* – karfagen qo'mondoni Gamilkara Barka nomidan, *Kartaxena* (*Kartxadasht*) – «yangi shahar» kabi nomlarni kiritish mumkin. Ispaniya nomini ham ba'zi mutaxassislar finikiylar tilidagi *shpanim* – «quyon» so'zi bilan bog'liq deb hisoblashadi.

Qadimda Pireneya yarim oroli Rim imperiyasining eng g'arbiy provintsiyasi hisoblangan. Shu sababdan, uning barcha hududlarida qadimgi rim toponimlari uchraydi: *Badaxos* (*Paks Augusta* – «Avgust olami»), *Saragosa* (*Sezarea Augusta* – Sezar Avgust sharafiga), *Valensiya* (*Valentia* – «mustahkam, qattiq»), *Bilbao* (*Bellum Vadum* – «yaxshi kechuv»), *Kastiliya* (*kastellum* – «mustahkamlangan qarorgoh»), *Leon* – (legion so'zidan), *Ovedo* (*Vetus* – «eski») va boshqalar.

German tilli (*vestgotlar*, *vandallar*) toponimlar soni yarim orolda ikki mingtadan oshadi. Ular asosan vestgotlar va vandallar tomonidan yaratilgan. Vestgotlar – gotlarning g'arbiy tarmog'iga mansub. V asrning ikkinchi yarimida vestgotlar Ispaniyaning katta qismini egallab olganlar. Vestgotlar davlatining poytaxti Toledo shahri bo'lgan. 711–718 yillarda vestgotlar davlati arablar tomonidan zabt etilgan.

Vandallar ham qadimiy german xalqlarining sharqiy tarmog'iga mansub qabila. Ular Rimga yollanma askarlar yetkazib berishgan va V asr boshida Ispaniyaga qadar yetib borishgan. Bu to'g'rida hozirgi *Andalusiya* (*Vandalusiya*) provintsiyasining nomi hanuzgacha eslatib turadi. Vandallar tarixda o'zlarining talonchilik, bosqinchiliklari bilan mashhur bo'lishgan. Shu tufayli madaniy qadriyatlarni bekordan bekor-ga yo'q qilinishini anglatuvchi *vandalizm* tushunchasi paydo bo'lgan. Pireneya yarim orolidagi german tilli toponimlar: *Goda*, *Godin*, *Gotones*, *Alanis*, *Andalusiya* («vandallar yeri») va boshqalar.

VIII asrdan boshlab Pireneya yarim orolida arabcha nomlar tarqalgan. Ular orasida shaharlar nomi ham bor. Masalan, *Madrid* – «qal'a, qo'rg'on», *Alkantara* – «ko'prik», *Alnaden* – «kon», *Almeriya* –

«kuzatuvchi minora», *Almodovar* – «ihota» va boshqalar. Bir qator uncha katta bo'lmagan aholi punktlari nomi tarkibida *alqal'a* («qal'a») va *madina* («shahar») kabi terminlar uchraydi. Yarim orolning janubidagi ko'plab daryolar arabcha nomlangan: *Gvadalkvivir* (Vodiy-al-Kubir – «daryo vodiysi»), *Gvadarama* (Vodiy-al-Rama – «qumli daryo»), *Gvadiana* («o'rdakli daryo») va hokazo.

Ispancha geografik nomlar tarkibidagi asosiy termin va toponim hosil qiluvchi so'zlar: *rio* – «daryo», *lago* – «ko'l», *kabo* – «burun», *monte* – «tog'», *villa* – «qishloq», *kastilo* – «qal'a, qo'rg'on», *gran* – «katta», *alto* – «baland», *baxo* – «past» va boshqalar. **Pireneya** yarim orolining shimolida bask toponimlari uchraydi (*Pireneya* – *pyren* – «tog'», *Navarra* – nava – «tekislik», *Andorra* – andurrial – «yalang»).

Portugalcha toponimlar boshqalardan tarkibida *-ish*, *-ush*, *-eyra* formanti borligi bilan farq qiladi: *Sagrish*, *Lagush*, *Vidigeyra*, *Vieyra* va boshqalar. **Pireneya** yarim oroli toponimiyasi tarkibida diniy e'tiqodlar, xususan nasroniy (katolik) rohiblar nomi bilan bog'liq geografik nomlar keng o'rin olgan: (*San-Sebastyan*, *Santyago*, *San-Martin*, *San-Pedro*, *San-Antonio* va hokazo).

**Germaniya va Avstriya toponimiyasi.** Germaniya va Avstriya geografik nomlarining kelib chiqishi va shakllanish xususiyatlari bir-biriga o'xshash, huni birinchi navbatda nemis tilini hukmronligi bilan izohlash mumkin. Mintaqa gidronimlarida qadimgi hind – yevropa qatlami qayd qilingan (*Vezer*, *Zale*, *Mayn*, *Saar*, *Elba*, *Rur*). Ayrim gidronim kelt tiliga daxldor. Masalan. *Reyn* (*renos* – «oqar suv»), *Bonn* (*bona* – «shahar»), *Vena* (*Vindobona* – «oq shahar»), *Bavariya* (keltlar tarkibidagi *boyi* qabilasi nomidan) va hokazo.

Germaniya va Avstriyaning bir qator shaharlari rim qarorgohlari sifatida paydo bo'lgan. Ular lotin tilli oykonimlar qatlamini tashkil etadi. *Keln* (*Agrippina koloniyasi. Rim imperatori Klavdiyning (41-54 y) xotini Agrippina sharafiga*), *Vaduts* (*Vallis Dulstis* – «shirin vodiy»), *Kassel* (*Kastellum* – «qal'a, qo'rg'on»), *Trir* (*Augusta – Treverorum*. Keltlar tarkibidagi *trever* qabilasi nomidan) va boshqalar. Mintaqaning sharqiy qismida nomlarning slavyan qatlami mavjud. Ular nemis tili ta'sirida qisman (transformatsiyalashgan) o'zgargan. Saksoniya toponimiyasining yarimidan ko'pi slavyan tillariga tegishli nomlardan iborat. Slavyan toponimlari: *Leyptsig* (*Lipsk*), *Drezden* (*dredjani* – slavyan qabilasi nomidan), *Grahov*, *Rihnits* – *Darmgarten*, *Lipen*, *Teterev* va boshqalar.

Nemischa nomlarga xos toponimik tiplar paydo bo'lgan. Nemischa toponimlar ko'pincha ikki tarkibiy qismdan iborat, ulardan ikkinchisini termin yoki terminologiyaga oid topoformant tashkil etadi. Geografik nomlar yaratishda faol qatnashadigan terminlar: *bax* – «soy», *verder* – «ko'kalamzor», *vald* – «o'rmon», *berg* – «tog'», *feld* – «maydon», *burg* – «qal'a», *dorf* – «qishloq», *gof* – «hovli», *xauzen* – «uy», *kirxen* – «cherkov», *shtadt* – «shahar» va boshqalar. Toponim hosil qilishda geografik terminga quyidagi sifallar qo'shilishi mumkin: *alten* – «baland», *nider* – «past», *gross* – «katta», *vays* – «oq», *shvarts* – «qora» va hokazo. (*Altenkirxen, Altenxaym, Niderbrexen, Nidermarsberg, Grosenbrode, Groshaytenbax, Vaysenburg, Vaysenfels, Shvartsvald, Shvartsenbek*).

Mintaqa geografik nomlarining o'n foizga yaqinini patronimlar tashkil etadi. Ko'pincha kishilar ismi bilan geografik termin birga toponim hosil qilgan: (*Karlsfeld, Leopoldsxagen, Paulinenaue* va hokazo). Mutaxassislar nemischa geografik nomlarning bir necha tarixiy qatlamini aniqlashgan: germanlarni ko'chishi bilan bog'liq toponimlar; franklar davlati davridagi toponimlar; so'ngi feodal davridagi toponimlar. Avstriya geografik nomlari tarkibida uchraydigan oronimik terminlar: (*felze* – «qoya», *shpittse* – «tepa», *xorn* – «cho'qqi», *xoe* – «balandlik» va hokazo). Avstriya va Germaniyada o'xshash toponimik tiplar qo'llaniladi. Ularda mintaqaning geografik landshaft xususiyatlari, muayyan tarixiy davrning xarakterli alomatlari o'z aksini topgan. (*Zaltsburg* – «tuz shahri», *Inshruk* – «Inn daryosidagi ko'prik», *Noyshtadt* – «yangi shahar» va hokazo).

**Benilyuks davlatlari va Shveytsariya toponimiyasi.** Maydoni uncha katta bo'lmagan ushbu davlatlar turli tilli toponimik landshafga ega mamlakatlar chegarasida joylashgan. Geografik nomlari ancha tanish bo'lgan hududning qadimgi german va kelt toponimlari substrat qatlamni tashkil etadi. Benilyuks (Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg) davlatlari toponimiyasida golland va flamand tillari ta'sirida qisman shakli o'zgargan umumgerman toponim hosil qiluvchi geografik terminlarni ko'rish mumkin.

Shu bilan birga, Niderlandiyada tabiiy landshaft komponentlari, agrolandshaft va aholi maskanlarining mahalliy xususiyatlarini ifoda etuvchi *-pas, -bosh, -laar, -xaar, -eng, -akers, -ingen, -beemd, -maat* kabi terminlar mavjud. Gollandiyani (Holland – *holt* – «o'rmon», *land* – «er», ya'ni «o'rmonli yer») hududiy joylashuvini anglatuvchi toponim-

lar orasida *dam* – «to'g'on, damba» termini qo'llanilgan nomlar ko'p: *Amsterdam, Rotterdam, Zandam, Sxidam* va hokazo. Niderlandiya (Niderland – nider – «past», land – «er», ya'ni «past yer» nomi dastlab XV asrni oxiridan boshlab qo'llanilgan va keyinchalik u shimoliy dengiz sohilida joylashgan mamlakat– Niderlandiya qirolligi nomiga aylangan.

Belgiya va Lyuksemburg toponimiyasida frank va german tili nomlar qatlami alohida ajralib turadi. Masalan, Belgiyani janubidagi *Lyej, Sharlerua, Arlon, Namyur, Mons* kabi toponimlarni frantsuzcha nomlar ekanligini tushinish qiyin emas. Shu bilan birga mamlakat shimolidagi *Bryussel* – brok – «botqoq», sela «turar joy», *Bryugge*– brug– «ko'priq», Antverpen – andwerp– «to'g'on, damba» kabi geografik nomlar flaman tilini toponimlarga yaqqol misol bo'ladi.

Shveysariya qadimgi kelt tili geografik nomlar qatlami aniq ko'rinadi. Ma'lumki, mamlakat hududi antik davrda keltlar tarkibidagi gelvet qabilasi nomi bilan Gelvetsiya deb atalgan. Shveysariya hududidagi bir qator ma'lum va mashhur nomlarning paydo bo'lishi (*Alp* – alp – «tog', cho'qqi», *Jeneva* – gena – «etak», *Syurix* – dur – «suv», *Bern* – bren – «tepa»), bevosita kelt tili bilan bog'liq. Shveysariya geografik o'rmining yana bir o'ziga xos xususiyati, shundan iboratki, u nemis, fransuz va italyan nomlarning chegara hududida joylashgan. Shu sababdan, mamlakat joy nomlarining qaysi tilga tegishli ekanligi, uning joylashgan hududi bilan belgilanadi. Masalan, mamlakatning nemis tilida so'zlashuvchi shimoliy qismida Germaniyaga xos bo'lgan toponimik tiplar (*Aldorf* – «baland qishloq», *Tal* – «vodiy», *Shvartseneng* – «qora vodiy», *Bazel* – «shoh joyi» va hokazo) tarqalgan.

**Markaziy Yevropa toponimiyasi Polsha, Chexiya va Slovakiya toponimiyasi.** Polsha, Chexiya va Slovakiya geografik nomlari barcha g'arbiy slavyan (polyaklar, chexlar, slovaklar) toponimiyasiga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarni o'zida aks etgan. Mutaxassislarning fikricha, mintaqa oykonimlariga nisbatan gidronimlari ancha ilgari shakllangan. Markaziy Yevropa mintaqasidagi eng qadimiy substrat toponimlar g'arbiy slavyan tillariga mansub yirik gidronim va oronimlar hisoblanadi: *Visla, Bug, Odra, Morava, Karpat* va boshqalar. Mintaqa toponimik qatlamlari orasida slavyan qatlami eng baquvvat va barcha hududlarda keng tarqalgan. Slavyanlar – kelib chiqishi bir va tillari o'zaro yaqin bo'lgan Yevropa xalqlarining eng yirik guruhi. Uning tarkibiga:

sharqiy slavyanlar (ruslar, ukrainlar, beloruslar); g'arbiy slavyanlar (polyaklar, chexlar, slovaklar, lujichanlar); janubiy slavyanlar (bolgarlar, serblar, xorvatlar, slovenlar, makedonlar, bosniyaliklar, chernogoriyaliklar) kiradi.

P.V.Sedov fikricha, slavyanlar etnos sifatida miloddan avvalgi V-II asrlarda Visla va Oder daryolari oralig'ida shakllangan. Slavyanlarga shimoli-g'arbda balt qabilalari (Polshadagi balt substrat gidronimlar *Bebja*, *Sheshupa*, *Gancha*), janubi-sharqda keltlar (Chexiyadagi Bogemiya toponimi keltlar tarkibidagi boyi qabilasi nomidan olingan) yaqin qo'shni bo'lgan. Mintaqadagi slavyan toponimlarini etimologiyasini izohlash qiyin emas, uni mahalliy tillarining hozirgi holati bilan ham aniqlash mumkin. Ayrim slavyan toponimlari va terminalarining areali ancha keng, ularni ushbu mamlakatlar hududidan tashqarida ham uchratish mumkin. Masalan, tarkibida *vulya* terminini bo'lgan geografik nomlar nafaqat Polshada, balki G'arbiy Belorusda ham tarqalgan.

Olimlar Polsha hududini toponimik jihatdan bir necha qismga bo'lishgan: a) asosan slavyan (qadimgi polyak) tilli toponimlar tarqalgan mamlakatning markaziy va sharqiy qismi; b) balt substrat toponimlari ko'p bo'lgan mamlakatning shimoli-sharqiy qismi; v) ikkinchi jahon urushidan keyin slavyan toponimlari qayta tiklangan mamlakatning shimoli-g'arbiy qismi; Slovakiya geografik nomlar tizimi slavyan (slovak) tilli nomlarning ko'pligi hamda ayrim vengr va german toponimik elementlarni mavjudligi bilan ajralib turadi. Chexiya toponimiyasi tarkibida esa asosan slavyan (chex) tilli nomlar hamda qadimgi kelt va so'ngi davrlarda nemis tili asosida shakllangan toponimlar uchraydi.

**Vengriya va Ruminiya toponimiyasi.** Vengriya geografik nomlari qo'shni mamlakatlar toponimiyasidan tubdan farq qiladi. Bu birinchi navbatda til xususiyatlari bilan bog'liq, chunki vengr tili fin-ugor tillar oilasining ugor guruhiga mansub. Hozirgi vengrlarning ajdodlari dastlab Kama daryosining o'rta va quyi oqimi bo'ylarida yashab, so'ngra milodiy davr boshlarida Qora dengiz sohillariga ko'chib borishgan. Ko'chmanchi chorvador vengr qabilalari IX asr oxirlarida g'arbgacha siljib, hozirgi Vengriya hududiga kelib joylashgan. Vengercha nomlarni qo'shni tillarda so'zlashuvchi xalqlar tushinishi qiyin, ammo til xususiyatlariga qarab ularni tezda aniqlash mumkin. (*Surdokpyushpyoki*, *Xodmezyova-sharxey*, *Sabolchvereshmart*).

Geografik nomlar hosil qiluvchi asosiy so'zlar: *nud* – «katta» (*Nadbayom*, *Nadbanxedesh*, *Nadmanok*), *kish* – «kichik» (*Kishkunshag*,

*Kichiyod, Kishterene*), *uy* – «yangi» (*Uypesht, Uyfexerto, Uybarok*), *varosh* – «shahar» (*Dunayvarosh, Varoshlyod, Varoshfyold*), *var* – «qasr» (*Seleshveverva* – «poytaxtdagi oq qasr» – vengriya qirollariga toq kiyiltirilgan nomdagi oʻtkaziladigan joy, *Kaposhvar, Tisafyoldvar*), *banya* – «skoni» (*Tatabanya, Brenbergbanya, Tardoshbanya*) va boshqalar.

Uy nomlari hosil qilishda geografik terminlar faol qatnashadi. *Mosdava, pusta (pushta)* – «dashit» termini yordamida bir qator nomlar yaratilgan. (*Pustamadyarod, Pustamegegesh, Pustamonoshtor, Pustamegexsh* va hokazo). Diniy eʼtiqodlar bilan bogʻliq toponimlar ham koʻp, ularda katolik avliyolar nomlari muhrlangan: *Sent-Miklosh, Sent-David* (*Georgiy*), *Sent-Laslo* (*Vasiliy*), *Sent-Shimon* (*Simeon*) va boshqalar. Vengriya toponimiyasi tarkibida ancha haquvvat slavyan toponimik qatlami mavjud. *Budapesht, Balaton, Suxa, Krasna* kabi toponimlar slavyan nomlariga yaqqol misol boʻladi. Mamlakat hududida oz miqdorda turkiy, german, rumin tillarida yaratilgan geografik nomlari uchraydi.

Ruminiya geografik nomlari qoʻshni hududlarning slavyan va arablar qatlamlari bilan oʻzaro yaqin aloqada rivojlangan. Rumin tili – roman tillarining bolqon – roman guruhiga mansub til. Rumin tilida slavyan tillariga xos soʻz yasovchi qoʻshimchalar ishlatiladi, leksikasida ham janubiy slavyan tillarining taʼsiri kuchli. Bu holat uning toponimiyasida ham oʻz aksini topgan. Ruminchalik nomlar lotin, dak tili slavyan va dialektlarida hamda boshqa Rim imperiyasi davrida ushbu hududlarda yashagan xalqlar tillari taʼsirida shakllangan. Mutaxassislar mamlakat geografik nomlarini qadimgi substrat, turkiy, slavyan, venger (*Transilvaniya*) va rumin toponimik qatlamlarga ajratishgan.

Ruminchalik nomlarni yaratishda faol qatnashgan asosiy toponimlar: *-eshti, -ani, -ul, -luy, -en* (*Bukureshti* – Ruminiya poytaxtining milliy nomi, *Ploeshti, Botoshani, Fokshani, Krishul – Alb, Farul, Toʻrgul – Lepshuluy, Unguren* va boshqalar). Mamlakat geografik nomlari tarkibida mintaqaning tabiiy sharoiti, xoʻjalik faoliyatini aks etgan nomlar hamda etnonim va patronimlar koʻpchilikni tashkil etadi.

**Janubiy Yevropa toponimiyasi. Appenin yarim oroli toponimiyasi.** Appenin yarim oroli toponimiyasi turli qiyofali va turli yoshdagi toponimlardan tashkil topgan. Mutaxassislarining aniqlashicha, yarim orol joy nomlarining eng quyi qatlami etrusklar tomonidan yaratilgan. Etrusklar (lotincha, *Etrusci, Tusci* – oʻzlarini *rasna* deb atashadi) – miloddan



avvalgi I – ming yillikda Appenin yarim orolining shimoliy-g'arbida, qadimda Etruriya (hozirgi Toskana) deb atalgan viloyatda yashagan qadimiy qabilalar. Etrusk tili hozirda o'lik til, uni milodiy I asrda lotin tili siqib chiqargan. Etrusk toponimlari: *Rim, Tibr, Parma, Modena, Toskana, Kapri* va boshqalar.

Yarim orolning Adriatika dengizi sohillarida illiriylar tiliga xos bo'lgan nomlarni uchratish mumkin. Illiriy tili hind-evropa tillar oilasiga mansub. Illiriylar miloddan avvalgi III asrning oxirlarida rimliklar ta'sirida lotin tiliga o'tishgan. Illiriylar toponimlari: *Livorno* (illiriylar tarkibidagi liburn qabilasi nomidan), *Brindizi* (brentas – «bug'u»), *Taranto* (darandos – «emanli»), *Triest* (trega – «savdo joyi») va boshqalar. O'rta yer dengizidagi bir qator orollar nomi finikiy tiliga mansub: (*Sardiniya* (sardo – «lovon»), *Korsika* (khorsi – «o'rmonli»).

Qadimgi yunon toponimlari sobiq mustamlaka (Janubiy Italiya) hududlarida tarqalgan. Ular qatoriga ancha tanish bo'lgan toponimlar kiritish mumkin: *Neapol* («yangi shahar»), *Ankona* («qayirma»), *Lipar* orollari («hosildor»), *Etna* («alangalamoq»), *Palermo* («langarli bekat»), *Stromboli* («dumaloq»). Lotincha toponimlar asosan, Rim hukmronligi davrida shakllangan (*Paduya, Trento, Kampaniya*).

Appenin yarim oroli geografik nomlarining eng muhim qatlamlardan birini kelt tiliga mansub nomlar tashkil etadi. Turli kelt qabilalari uzoq vaqt davomida rim imperiyasi hukmronligiga qarshi kurashgan. Kelt toponimlari: *Verona* (Vergomanos – «olxali maydon»), *Milan* (Mediolanum – «tekislik markazi»), *Apennin* (pen – «tog'. cho'qqi»), *Bergamo* va *Breshia* (briga – «tog'»), *Kalahriya* (kal – «oq»), *Bolonya* (keltlar tarkibidagi boyi qabilasi nomidan), *Genuya* (gena – «etak») va hokazo.

Yarim orolda *langobardlar* va *gotlar* hukmronlik qilgan (V-VII asr) davrida german tilli toponimlar paydo bo'lgan. Hozirgi Italiyaning tarixiy Lombardiya viloyati nomi ham germanlar tarkibidagi *langobardlar* – «uzun soqollilar» qabilasi nomidan olingan. Ko'char mulk hisobiga pul qarz berish bilan shug'ullanadigan *lombard* kredit muassasasi nomi ham. savdogarlari shunday faoliyat bilan shug'ullangan Italiyaning tarixiy Lombardiya viloyati nomidan kelib chiqqan. Italiyaning alpoldi hududlarida german tillariga xos bo'lgan geografik nomlar keyingi davrlarda paydo bo'lgan. Sitsiliya orolidagi arabcha nomlarning paydo bo'lishi, arablar hukmronligi davri bilan bog'liq. Ularning oroldagi umumiy soni uch yuztadan ko'p. Masalan, *Marsala* shahrining nomi arabcha, *Mars-al-Allah* – «alloh bandargohi» so'zidan olingan.

Italiyan tili asosida shakllangan geografik nomlar Appenin yarim oroli toponimiyasining nisbatan yangi va eng baquvvat toponimik qatlami tashkil etadi. Ularga *Pьемont* («tog' etagi»), *Rivera* («qirg'oq»), *Gran-Paradizo* («buyuk jannat»), *Monte-Vizo* («ko'rimli tog'»), *Lago-Mudjore* («katta ko'l»), *Ferrara* («temirxon»), *Kortina d'Ampezzo* («maydondagi delqon hovlisi»), *San-Marino* («muqaddas Marina») kabi tipik italiyancha nomlar misol bo'ladi.

**Bolqon yarim oroli toponimiyasi.** Bolqon yarim orolining shimoliy chegarasi Dunay va Sava daryolaridan o'tadi. Kichik Osiyo yarim orolidan Marmar dengiz, Bosfor va Dardanel bo'g'ozlari orqali ajratilgan. Bolqon yarim orolining etnik va til tarixi nihoyat murakkabligi tufayli u Yevropaning toponimik jihatdan tahlil qilishi ancha qiyin va muammoli bo'lgan hududlaridan biri hisoblanadi. Mintaqadagi kelib chiqishi noma'lum bo'lgan qadimgi substrat toponimlarni (shimol-eyropacha, va qadimgi hind-evropa) izohlash ancha qiyin. Faktusy hujjatlarda milodiy I asr boshlarida yarim orolning g'arbida illiriylar, sharqida frakiyaliklar, janubida yunon tilida so'zlashuvchi xalqlar yashaganlari qayd qilingan. Aynan ushbu xalqlar Bolqon yarim oroli gidronimiyasi va oronimiyasida sezilarli «iz» qoldirgan.

Qadimgi illiriylar tilida yaratilgan toponimik qatlam sohiq Yugo-Slaviya (Sloveniya, Xorvatiya, Bosniya va Gertsegovina, Serbiya, Chernogoriya, Makedoniya), hamda Albaniya va Gretsiya hududida uchraydigan *Drava*, *Morava*, *Sava*, *Vardar*, *Bosna*, *Adriatika dengizi* (qadimgi Adriya shahri nomidan) kabi aslida «suv», «daryo», «atirnoq» degan ma'nolarga ega bo'lgan gidronimlar illiriylar tili haqida ma'lumot beradi. Shimoliy manbalarda Bolgariya va Ruminiyadagi *Struma*, *Seret*, *Muritsa*, *Vit* kabi gidronimlar frakiyaliklar tili asosida shakllanganligi e'tirof etilgan. *Dunay* daryosining antik davrdagi nomi (*Istr* – «oqmoq, intilmoq») va *Stara-Planina* tog'larining qadimgi (*Xemus* – «tog' tizmasi») nomi ham frakiyaliklar tili bilan bog'liq.

Mutaxassislar Gretsiya hududidagi ko'pchilik oronimlarning kelib chiqishini, yunonlardan oldin ushbu hududlarda yashagan (dalmatlar, pelasglar, ardieylar va boshqa qadimgi etnoslar) xalqlar tillari bilan bog'liq deb hisoblashadi: *Egey*, *Olimp*, *Parnas*, *Peloponnes*, *Korinf*, *Afina*, *Larisa* va boshqalar. Umuman olganda, grekcha toponimlarni ko'pchiligini yunon tilining qadimgi va hozirgi holati bilan izohlash mumkin: *Bosfor* – «buqa to'lanadigan bo'g'oz», *Rodos* – «atirgulli», *Lesbos* – «o'rmonli», *Kikladi* – «atrofi ko'rinadigan joy», *Saloniki* – Aleksandr Makedonskiy singlisi *Fessalonika* nomi bilan va hokazo.

Bolqon yarim orolining keyingi davrlardagi toponimiyasida (asosan oykonimlarda) Rim imperiyasining ta'siri aniq ko'rinadi. Milodiy V asrdan boshlab ushbu hududlarga slavyan xalqlarini ko'chib kelib o'r-nashishi, qadimgi joy nomlarini qisman o'zgarishi hamda yarim orolda (janubidan tashqari) mintaqadagi eng baquvvat slavyan toponimik qatlamini shakllanishiga sabab ho'ldi. Makedoniya, Serbiya va G'arbiy Bolgariyada slavyan toponimlari nisbatan zich joylashgan. Yarim orol-dagi slavyan toponimlarini yaratishda faol qatnashgan topoforantlar Sharqiy slavyan formantlarini eslatadi: Masalan, *-ovtso'*, *-intso'*, *-itsa*, *-acha*, *-ich*, *-och*, *-ovo*, *-evo*, *-ka* kabi qo'shimchalar joy nomlari tarkibida keng qo'llangan. *Novosel'tso'*, *Bojidar*, *Peschank*, *Bo'stritsa*, *Ovchepole*, *Belgrad*, *Novi-Sad*, *Dubrovnik* va boshqa shunga o'xshash toponimlarni barcha slavyan tilli xalqlar oson tushinadi.

Qadimgi turkiy toponimlarni Bolgariyada uchratish mumkin, bu mamlakatning o'ziga xos etnik tarixi bilan bog'liq. VII asrning ikkinchi yarimida Bolgariya hududiga xon Asparux (Isperix) boshchiligidagi protobolgarlar— qadimgi bulg'orlar (ko'chmanchi turkiy elat) hostirib kirdi. IX asr oxiriga kelib ular slavyanlar bilan qo'shilishi natijasida bolgar deb nomlangan slavyan xalqi vujudga keldi. Keyinchalik usmonli turklar imperiyasini kengayishi yangi turkiy nomlar qatlamini paydo bo'lishiga olib keldi. *Balkan*, *Fundukli*, *Kazanlik*, *Kirdjali*, *Kaynardja* kabi nomlar turkiy tillar asosida yaratilgan.

Alban toponimiyasi alohida ajralib turadi. Sababi alban tili hind-evropa tillar oilasining maxsus guruhiga kiradi. Alban tilida lotin, yunon, turk, janubiy slavyan va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar ko'p. Mamlakatning barcha hududlarida alban tili ta'sirida o'zgargan yunon, slavyan toponimlarini uchratish mumkin. Albancha terminlar *lum* — «daryo», *playa* — «tog'», *liken* — «ko'l» yordamida bir qancha geografik nomlar hosil qilingan. Kosovo o'lkasida ham albancha nomlar ko'p, Chunki o'lka aholisining 90 % foizdan ko'prog'ini albanlar tashkil etadi.

**Sharqiy Yevropa toponimiyasi. Boltiqbo'yi mamlakatlari toponimi-yasi.** Toponimik jihatdan Boltiqbo'yi mamlakatlari hududini ikkiga bo'lish mumkin: balt va finn-ugor zonalari. Balt (boltiq) tillari hind-evropa tillar oilasiga mansub. Bu guruhga hozirgi latish (Latviyaning asosiy aholisi) tili va litvaliklar (Litvaning asosiy aholisi) tili kiradi. Balt toponimlari, ayniqsa gidronimlarining areali ancha keng, ular Latviya va Litvaning hozirgi hududidan tashqarida (Belarus, Rossiya, Polsha,

shimoliy Ukraina) ham tarqalgan. Mutaxassislarning fikricha, bu holat balt qabilalarining o'tmishdagi hududiy tarqalishi bilan bog'liq.

Latva va Latviyadagi gidronimlarning aksariyati balt tiliga mansub. Mintaqa gidronimlari tarkibida *upe* – «daryo» geografik termini ancha normalashib: *Upe, Upele, Upelyukas, Upite* (Litva), *Melnupe, Ziemele, Lielupe* (Latviya). Ayrim gidronimlarda suv ob'ektining tabiiy sharoiti va uning o'ziga xos xususiyatlari o'z aksini topgan. Masalan, *Dube, Dubys, Dubisa* – *dubus* – «chuqur», *Purvis, Purvinas* – *purva* – «loyqa», *Pushine, Pushinelis* – *pushis* – «qarag'ay», *Juvintas, Juvinchyay* – *zuvis* – «shulpa» va hokazo). Baltika dengizi nomi ham latish tilidagi *baltas-*soqa so'zidan olingan va qirg'oqdagi qumlar rangi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Latviyada *kalns* – «tog'» termini geografik nomlar tarkibida ko'p uchraydi: *Kalntiens, Gajvinkalns, Krievukalns*. Latviya va Litva davlatlari oykonimlari tarkibida patronimlar salmoqli (salkam 2/3 qismi) o'rta egallaydi. Mamlakatlarning chegara hududlarida slavyan va finn-ugor tillariga mansub toponimlar tarqalgan.

Estoniya geografik nomlarining asosiy qismi eston tilida yaratilgan. Ular substrat asosga ega, chunki finn-ugor tillariga tegishli eston toponimlari mamlakat toponimiyasining eng quyi qatlamini tashkil etadi. Estoncha toponimlarni paydo bo'lishida mahalliy geografik terminlar muhim rol o'ynagan. Mamlakat toponimiyasiga xos bo'lgan geografik terminlar: *maa* – «er», *saare* – «orol», *yigi* – «daryo», *yarv* – «ko'l», *kosk* – «daryo sohili», *kallas* – «qirg'oq», *myagi* – «tog'», *yoa* – «sharshara», *laxt* – «qo'ltiq», *linna* – «qal'a», *selbg* – «tepa» va boshqalar.

Estoniyada tabiiy landshaft turlarini aks etadigan joy nomlari ham ko'p uchraydi. Masalan, *Kirvemaa* – «o'rmonli yer», *Laane* – «katta archali o'rmon», *Karpisaari* – «o'rmonli orol» va boshqalar. Mamlakat poytaxti Tallin shahrining nomi dastlab yozma manbalarda *Kolaven*, keyinchalik *Revel* shaklida qayd qilingan. XIII asrda shaharni daniyaliklar bosib olgan va ular shahar o'rnida qal'a qurishgan. Estonlar uni Tallin taani *linna* – «dan shahri», ya'ni daniyaliklar shahri deb atashgan. Estoniyaning chegara hududlaridagi joy nomlari tarkibida balt va slavyan elementlari uchraydi.

**Ukraina, Moldova va Belarus toponimiyasi.** Ukraina hududining kattaligi va tarixiy rivojlanishida murakkab davrlarni bosib o'tganligi uning toponimiyasida ham o'z aksini topgan. Binobarin, respublikaning barcha mintaqalarida turli davr va tillarga xos toponimik qatlamlar paydo bo'lgan. Chunonchi, mamlakat janubida eroniy tillarga mansub

gidronimlar soni ko'p, Qora va Azov dengizi sohillarida qadimgi yunon tiliga xos toponimlarning salmog'i katta bo'lsa, Quyi Dnepr bo'yida esa ancha baquvvat bo'lgan turkiy nomlar qatlamini uchratish mumkin va hokazo.

Mamlakatning etnik tarixi ham ancha murakkab yo'lni bosib o'tganligini 70 dan ortiq oykonimlarda mo'hlangan etnik guruh nomlaridan ham bilib olsa ho'ladi. (Ukraina oykonimlarining 1.5 %). Eroniy tilli gidronimlar eng yirik daryolar nomi sifatida saqlanib qolgan: *Dunay*, *Dnepr*, *Dnestr* (*don*, *dan* – «daryo»). Dnepr daryosining quyi oqimida turkiy gidronimlar, Zakarpate va Bukovinada vengr va rumin toponimlarini uchratish mumkin. Ta'kidlash joizki, XVIII asrda mamlakatning hozirgi hududida antik davr nomlariga o'xshatma sifatida qadimgi yunon tilidagi «psevdoklassik» toponimlar paydo bo'lgan: *Nikopol* – «g'alaba shahri», *Sevastopol* – «ulug'vor shahar», *Simferopol* – «fayzli shahar» va hokazo.

Ukrainada eng baquvvat qatlamni keyingi davrlarda paydo bo'lgan va barcha hududlarda keng tarqalgan slavyan toponimlari tashkil etadi. Slavyan toponimiyasi tarkibida qadimiy dinij e'tiqodlar bilan bog'liq nomlar ham bor: *Perun*, *Svarij*, *Striboj*, *Stribuj*, *Velesnitsa*, *Mokushin*, *Radogosh*, *Mislohij* va boshqalar. Mamlakatning tog'li hududlarida, jumladan Karpat tog'lari atrofidagi joy nomlari tarkibida ob'ektni aniq belgilovchi oronimik terminlar ko'proq uchraydi. Ukrainadagi slavyan toponimlari tuzilishi jihatidan Rossiya va Belorus toponimlariga o'xshash, shu sababdan, ularning etimologiyasini aniqlash ham qiyin emas. Mintaqa joy nomlari tarkibida *-ka*, *-ivtsu*, *-intsu*, *-ichi*, *-sk* kabi slavyan tillariga xos bo'lgan topoforantlar ancha faol qatnashgan. Sohiq Ittifoq davrida ayrim shaharlarning tarixiy nomlari rasmiy tarzda o'zgartirilgan edi. Ular hozirda qayta tiklandi: *Voroshilovgrad* – *Lugansk*, *Kommunarsk* – *Alchevsk*, *Pershotravnevoe* – *Mokvin*, *Gotvald* – *Zmiev* va boshqalar.

Qrim yarim oroli murakkab toponimik tizimga ega. Shu sababdan, mintaqadagi geografik nomlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, uni uchta toponimik qatlarga bo'lish mumkin: turkiy (qrim-tatar) qatlam, asosan yarim orolning tog'li qismida keng tarqalgan: *Ayudag'*, *Karadag'*, *Baxchasaray*, *Chatirdag'*, *Karasu*, *Burulcha* va boshqalar; qadimgi yunon tilli qatlam, asosan yarim orolning dengiz bo'yi qismida tarqalgan: *Ay-Petri*, *Yevpatoriya*, *Yalta*, *Alupka*, *Livadiya* va nishatan keyingi davrlarda paydo bo'lgan slavyan toponimlari qatlami. Ularni

nomlari yulduz orolni dastlab qismida ko'proq uchratish mumkin: Orlovka, Holopotsak, Olenevka, Novobelskoe, Juravki va hokazo.

Moldavan tili – roman guruhiga mansub bo'lsa ham, ammo slavyan tillari unga ancha seziladigan ta'sir ko'rsatgan. Bu holatni mamlakat toponimiyasida ham ko'rish mumkin. Masalan, Moldova oykonimlarining 29 tasi slavyan, 7 tasi turkiy nomlar tashkil etadi. Maydoni uncha katta bo'lmagan va aholisining asosiy qismini moldavanlar tashkil etadigan Moldovaga bir vaqtlar skiflar, yunonlar, rimliklar, gotlar, xunlar, ranyarlar, qipchoqlar, turklar, no'g'aylar kelib o'rinishgan. XIX asrning boshida Moldova va Bukovinaga ruslar, bulg'orlar, nemislar, gagauzlar, albanlar ko'chib kelishgan. Tabiiyki, bunday hududida turli tili toponimlarni topish qiyin emas. Mutaxassislarning ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat hududidagi 123 ta daryoning 7 tasi turkiy, 20 tasi venger, 23 tasi moldavan va 74 tasi slavyan tillariga xos nomlarga ega.

Mintaqa geografik nomlari tarkibida *-a*, *-ya*, *-esht*, *-erie*, *-ishte* (*balta* – «hotqoq», *valya* – «vodiy», atropotoponimlar *Borzesh*, *Grozesh*, *Luperie* – «bo'rili», *Kinepishte* – «kanopli maydon» va hokazo) kabi ancha sermahsul topoformlar uchraydi. Ma'lumki, Moldova Respublikasida kelib chiqishi turkiy xalq bo'lgan gagauzlar yashaydi. Ularning tili turkiy tillarning janubiy – g'arbiy (o'g'uz) guruhiga mansub. Mintaqadagi Komrat, Chok – Maydan, Baymaxliya, Taraxliya kabi nomlar gagauz tilida yaratilgan.

Belorus tilida yaratilgan geografik nomlar tuzilish jihatidan barcha umumslavyan toponimiyasiga o'xshaydi. Ammo, uning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, bu hozirda boshqa slavyan tillarda uchramaydigan, ya'ni arxaik bo'lib qolgan so'zlar asosida paydo bo'lgan toponimlarni uchratish mumkin. XIII asrning ikkinchi yarimida ilgari Kiev Rusi tarkibida bo'lgan mamlakatning hozirgi hududlarini Buyuk Litva knyazligi bosib olgan. Shu paytdan boshlab bu yerlar «Belaya Rus» («Oq Rus») deb yuritiladigan bo'ldi. Belaya Rus so'zining etimologiyasi turlicha talqin qilinadi. Masalan, Ye.F.Karskiy etnografik jihatdan kelib chiqib, ularning rangi, kiyadigan kiyimi uchun oq ruslar nomini olgan deb izohlaydi. Belorus tili– slavyan tillarining sharqiy guruhiga mansub.

Belorus toponimiyasining o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etgan V.A.Juchkevich respublika hududini shartli ravishda bir necha toponimik rayonlarga bo'lgan: 1) arxaiklashgan slavyan toponimiyali O'rta va G'arbiy Polesya; 2)–ka,–chi qo'shimchali yangi nom-

lar keng tarqalgan Sharqiy Polesya; 3) siyrak balt gidronimlari va slavyan oykonimlari tarqalgan Yuqori Dneprho'yi; 4) murakkab toponimiyali respublikaning markaziy qismi; 5) balt va slavyan gidronimlari hamda relik toponimli Shimoliy Belarus; 6) balt toponimik qatlami aniq ko'rinadigan Shimoliy-G'arbiy Belarus. Mamlakat geografik nomlarini yaratishda sermahsul bo'lgan formantlar: -sk, -chi, -ka, -yov, -ki (Bobruysk, Baranovichi, Vileyka, Mogilyov, Xoyniki). Belarus toponimiyasi tarkibida balt, finn-ugor, german (got) va boshqa qo'shni mamlakatlar tillari asosida shakllangan geografik nomlar ham uchraydi. Belarus sobiq ittifoq davridan qolgan nomlarning aksariyatini hozirgacha saqlab kelayotgan yagona mamlakat hisoblanadi.

**Rossiyaning Yevropa qismi geografik nomlari.** Rossiyaning shimoliy-g'arbiy qismida joylashgan Kola yarim oroli toponimiyasi tarkibida saam tiliga (saam tili finn-ugor tillaridan biri) xos bo'lgan nomlar ko'pchilikni (toponimlarni 80 %) tashkil etadi. Saam tili toponimlarga *Kola* daryosi («haliqli»), *Murmansk* (*murmaa* – «dengiz yeri»), *Kandalaksha* (*kanta laksha* – «burchakdagi qo'ltiq»), *Xibin* (*xiben* – «tog'»), *Karnasyarv* («qarg'alar ko'li») misol bo'ladi. Saamlar qadimdan bug'uchilik, haliq ovlash va ovchilik bilan shug'ullangan, ularning xo'jalik faoliyati joy nomlarida ham o'z aksini topgan.

Kareliya toponimiyasida karel tilida yaratilgan geografik nomlar mutlaq ko'pchilikni (90 % ko'proq) tashkil qiladi. Nomlarning qolgan qismi slavyan (rus) tili asosida shakllangan. Karel tilida joy nomlari yasashda faol bo'lgan geografik terminlar (*laxti*, *yoki*, *yarvi*, *koski* va boshqalar) fin tilidagi terminlarga o'xshaydi. Kareliya va Kola yarim oroli daryolari nomida *yoki* so'zi ko'p uchraydi: *Tulema-Yoki*, *Koyto-Yoki*, *Yauri-Yoki*, *Yokanga* va boshqalar. Karel tilida *yoki* – «daryo, suv». Kareliya toponimiyasiga xos yana bir xususiyat, uning tarkibida ikki tili (karel va rus) kompozit toponimlar ko'p. Buni ko'llar nomida ham kuzatish mumkin: *Pilozero*, *Nyalozero*, *Syamozero*, *Segozero*, *Topozero*, *Yustozero*, *Lumbozero* va hokazo.

Kaliningrad viloyati toponimiyasi Rossiyaning boshqa hududlaridan alohida ajralib turadi. Bunga sabab shuki, viloyat hududi ikkinchi jahon urushidan keyin sobiq sho'rolar davlati tarkibiga qo'shib olindi va barcha mavjud oykonimlar ruscha nomlarga almashtirildi. *Kyonigsherg* – *Kaliningrad*, (M.I.Kalinin (1875-1946) nomiga qo'yilgan), *Tilzit* – *Svetlogorsk*, *Pilau*– *Baltiysk* va hokazo. Ta'kidlash joizki, qadimgi nemischa nomlarning asosiy qismi o'zgartirildi, faqat gidronimlar

tarkibida qadimiy balt nomlari saqlanib qolgan. Ikkinchi jahon urushiga qadar ushbu hudud Sharqiy Prussiya, uning markazi Kyonigsberg (nemischa, *konig* – "xon", *berg* – "tog") deb atalgan.

Rossiyaning shimoliy-g'arbiy mintaqasi toponimiyasini (Novgorod, Leningrad, Pskov viloyatlari) o'rgangan V.A.Juchkevich uni uch toponimik qatlarga ajratgan: a) qadimgi substrat toponimlar (g'arbda finn-ugor toponimlari); b) keyingi davrdagi pribaltika-fin toponimlari; va uchinchi toponimik qatlami. Hududning chekka janubi-g'arbida esa balt toponimlari kuzatiladi. Mintaqada *Velikaya, Kunya, Mshaga, Redya, Sneja* kabi tipik slavyan gidronimlarini ham uchratish mumkin.

Komi, Udmurtiya, Mari-El Respublikalari hududida finn-ugor tillari negizida shakllangan geografik nomlar keng tarqalgan. Ushbu mintaqaning joy nomlarini tadqiq etgan mutaxassislar, uni uchta asosiy toponimik qatlarga ajratishgan: finlargacha, finn-ugor, rus. So'ngi davrlarda paydo bo'lgan ruscha nomlar asosan oykonimlarga tegishli. Shimoliy-g'arbiy mintaqadagi ko'p daryolar nomi «va» qo'shimchasi bilan tugaydi: *Lisva, Kojva, Sosva, Yayva* va hokazo. Komi tilida va – «suv, daryo», *Vilva* – «yangi daryo», *Koyva* – «qushlar daryosi», *Inva* – «ayollar daryosi».

Rossiyani markazidagi joy nomlari o'ziga xos xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi. Masalan, mintaqa gidronimiyasi asosan slavyan tilli nomlardan (*Lipovitsa, Plavitsa, Oleshnya, Xmelna* va hokazo) iborat. Bu esa mintaqada ilgari yashagan mahalliy xalqlar bilan slavyanlar o'rtasida uzoq muddat yaqin aloqalar bo'lmaganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari ko'pchilik mutaxassislar, markazning janubiy qismida uncha ko'p bo'lmagan turkiy, balt va finn-ugor toponimlari borligini e'tirof etishgan.

Toponimist olimlar markazning shimoliy qismidagi geografik nomlarni o'rganib ular tarkibida haquvvat finn-ugor, g'arbida esa balt gidronimlari qatlami mavjudligini aniqlashgan. Masalan, Moskva va uni atrofida *Vazuza, Nara, Ruza, Tarusa, Mojayka, Meleja, Paxra* kabi 400 ga yaqin balt gidronimlari ro'yxatga olingan. Rus toponimistlari G.A.Ilinskiy va V.N.Toporov Moskva nomini kelib chiqishini ham balt tilidagi «zax, loyqa, botqoqlik joy» ma'nosidagi so'z bilan bog'liq deb hisoblashgan. Markaz toponimiyasini chuqur o'rgangan V.A.Nikonov, «-ov» (markazdan shimolda) va «-ka» (markazdan janubda) suffikslari ustunlik qilgan hududlardan o'tadigan chegarani, rus toponimiyasining asosiy xronologik chizig'i deb atashni taklif qilgan. Ushbu chiziq



Rossiyaning markaziy qismidan o'tadi va XVI asrda mavjud bo'lgan Moskva davlatining chegarasiga to'g'ri keladi.

Ural toponimiyasini tadqiq etgan A.K.Matveev, uni tabiiy geografik jihatdan bo'linishiga mos ravishda, uchta asosiy toponimik rayonga bo'lgan: Shimoliy, Markaziy va Janubiy Ural. Shimoliy Uralning g'arbida komi (komi tili – finn-ugor tillar oilasining perm shoxobchasiga mansub) toponimiyasi, sharqida esa mansi (finn-ugor tillar oilasiga mansub) geografik nomlari ko'pchilikni tashkil etadi.

Geografik kartalardan ma'lumki, Ural tog'ining eng baland cho'qisi Narodnaya (1895 m.) deb ataladi. XX asr boshigacha tog' nomini faqat mahalliy xalq bilgan. Nomning kelib chiqishini ikki talqini bor, birinchisi, sobiq sovet xalqi nomiga berilgan, ikkinchisi, Naroda daryosi nomidan olingan. Daryo nomiga nenets tilidagi *naro*– «o'rmonzor» so'zi asos bo'lgan deyishadi. Keyinchalik daryo nomi cho'qqiga ham berilgan.

Mintaqa janubida qalmiqlar yashaydi va mazkur hudud toponimiyasi asosan qalmiq nomlaridan iborat. Budda diniga sig'inib, azaldan Jung'ariyada yashagan qalmiqlar, XVII asrning boshida Markaziy Osiyodan Volganing quyi oqimi va Kaspiy bo'ylariga ko'chib kelishgan. Qalmiq millatining shakllanishida oyrotlar muhim rol o'ynagan. Qalmiq toponimlariga *Elista* (ilis – «qum»), *Yergeni* (erge – «jar»), *Sarpa*, *Ulan-Xol*, *Ulan-Erge* (*ulan* – «qizil») kabi joy nomlari misol bo'ladi.

Toponimist olimlar, Shimoliy Kavkazni toponimik jihatdan dunyodagi eng murakkab hududlardan biri deb hisoblashadi. *Kavkaz* so'zining etimologiyasi hozirgacha aniqlanmagan bo'lsa ham, ammo talqinlar ko'p. Ayrim tarixiy manbalarda, Kavkaz so'ziga qadimda Qora dengizning janubiy sohilida yashagan «kaz-kaz» xalqining nomi asos bo'lgan deb qayd qilingan. Kavkaz atamasi haqidagi ilk ma'lumotlar, miloddan avvalgi 479 yilda yunon dramaturgi Esxil tomonidan yozilgan «Zanjirband Prometey» tragediyasida uchraydi.

Mintaqada 50 ga yaqin til mavjud va ularning barchasida geografik nomlar yaratilgan. Masalan, *Kuban* (balqar tilida k'oban– «toshqin, o'jar») vodiysi toponimiyasida adigey, turkiy, eroniy, kabarda, balkar va rus toponimik qatlamlari ajratiladi. Kavkaz tillaridan biri bo'lgan cherkes tilida ham bir qator joy nomlari yaratilgan va asosiy topoformantlari qatoriga *psi* – «suv» (*Tuapse*, *Psou*), *ko* – «jar» (*Dzaluko*, *Mashuko*), *kuaja* – «qishloq» (*Dzalukokuaje*, *Noxtakuaje*) kabi terminlarni kiritish mumkin.

Osetin tilida yaratilgan joy nomlari turkiy nomlardan keskin farq qiladi, chunki osetin tili hind-evropa tillar oilasining eroniy guruhiga mansub. Gidronimlar tarkibida sernahsul bo'lgan geografik termin *don* – «daryo, suv». *Xaznidon, Gizeldon, Fiagdon, Ardon, Karmadon* va boshqalar. Masalan, Shimoliy Osetiya hududidan oqib o'tadigan Ardon daryosi nomining ma'nosi, *arra*– «bebosh, vahshiy», *don*– «daryo», ya'ni «bebosh, tezoqar» daryo demakdir. Kelib chiqishi chechen va tugush tillari bilan bog'liq toponimlar ko'pincha tabiiy landshaft turlari va aholining etnik xususiyatlarini o'zida mujassam etgan.

Maydoni uncha katta bo'lmagan (50,3 ming km.kv.) Dog'istonda yigirmadan ortiq tilda so'zlashuvchi xalqlar yashaydi. Ularning barchasida joyning tabiiy xususiyatlari, xalqning hayoti, tarixi, etnik tarkibi, xo'jalik faoliyatini ma'lum darajada aks etgan geografik nomlar yaratilgan. 1834 yili Dog'istondagi mahalliy ko'l sohilida hozirgi Buynaksk shahariga harbiy qal'a sifatida asos solingan.

Tarixiy manbalarda yozishicha, qadimda qal'a o'rnida sohibqiron Amir Temur sharafiga qo'yilgan *Temurxon-shura* (shura– qumiq tilida «ko'l»), nomli qishloq bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra, Amir Temur Kichik Osiyodan g'alaba bilan qaytayotgan vaqtda, ushbu ko'l sohilida bir muddat dam olgan va mahalliy xalqqa ko'p muruvvatlar ko'rsatgan. Mintaqada joy nomlari hosil qilishda sernahsul bo'lgan topoterminlar: *xur* – «qishloq», *or* – «daryo», *suva*– «tog'», *gel* – «do'ng», *raza* – «vodiy», *katsi* – «dovon», *umali* – «maydon» va boshqalar. Turkiy toponimlar ko'pincha mintaqaning tekislik qismida (No'g'ay dashti) va Kavkaz tog' oldi hududlarida tarqalgan. Mintaqada slavyan toponimlari eng kenja qatlamni tashkil etadi va ular ko'pincha quyi Don, Stavropol va Krasnodar o'lkalari oykonimlari tarkibida uchraydi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. *Yevropa toponimik landshaftining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?*

2. *Yevropa qit'asidagi turkiy toponimlarni kartadan toping va ularni paydo bo'lish sabablarini aniqlang.*

3. *Rossiyaning Yevropa qismi toponimiyasini o'zaro taqqoslab umumiy xususiyatlariga izoh bering.*

### Test topshiriqlari

**1. Shimoliy Yevropa toponimiyasi semantik jihatdan qanday guruhlarga bo'lish mumkin?**

- A. Tabiiy omillar (rel'ef, gidrografiya, flora, fauna).
- B. Iqtisodiy-ijtimoiy omillar (kishilarning xo'jalik faoliyati).
- C. Aholi manzilgohlari tiplari asosida shakllangan nomlar.
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

**2. Frantsiyada kelib chiqishi lotin tili bilan bog'liq bo'lgan geografik nomlar qatorini belgilang.**

- A. Parij, Sena, Rona.
- B. Provans, Shampan, Kann.
- C. Lotarengiya, Strasburg, Dyunkerker.
- D. Sent-Etenn, Sen-Jermen, Sen-Jak.

**3. Bolgariyada qadimgi turkiy toponimlar qachon va qanday paydo bo'lgan?**

- A. XVII asrda Bolgariyani usmonli turklar egallagan.
- B. IX asrgacha hozirgi bulg'orlar turkiy tilda so'zlashgan.
- C. XIV asrda Temuriylar busib olishgan.
- D. VII asrda Bolgariyani ko'chmanchi turkiy elatlar bosib olgan.

**4. Balt toponimlari, ayniqsa gidronimlarining areali ancha kengligini sababi ko'rsatilgan qatorni belgilang.**

- A. Balt qabilalarining urushlari natijasida paydo bo'lgan
- B. Slavyan xalqlari balt qabilalari nomlarini tarqatgan
- C. Balt qabilalarining o'tmishdagi hududiy tarqalishi bilan bog'liq
- D. Balt qabilalari o'z nomlarini ko'chirib olib borishgan

**5. Toponimik jihatdan dunyodagi eng murakkab hududlardan biri bo'lgan Shimoliy Kavkazda qancha til mavjud?**

- A. 50 ga yaqin
- B. 50 dan ortiq
- C. 40 ga yaqin
- D. 40 dan ortiq

## 17-mavzu: AFRIKA TOPONIMIYASI

### 17.1. Afrika toponimiyasi

#### *Reja:*

1. Afrika toponimiyasining shakllanish tarixi va uning farqlovchi xususiyatlari.
2. Shimoliy Afrika, Sudan-Gvineya va Efiopiya-Somali toponimik submintaqasi.
3. Markaziy va Sharqiy Afrika, Janubiy Afrika va Madagaskar toponimik submintaqasi.

**Mavzuning maqsadi:** Qit'adagi murakkab geografik nomlar tizimining tahlili, ko'p sonli tillar va etnik birliklar, submintaqalardagi murakkab tarixiy taraqqiyot jarayonlarning toponimiyaga ta'siri haqida ko'nikma va ilmiy xulosalar hosil qilishdan iborat.

**Tayanch ibora va atamalar:** Antropogenez markazi, toponimik makromintaqa va submintaqa, qit'a tub aholisining tillar tasnifi, "etiketka nomlar", joy nomlarini standartlash va unifikatsiyalash.

Afrika antropogenez markazlaridan biri. Minglab yillar davomida aholining turli irqiy va etnik guruhlarini tarkib topgan joy. Qit'a tub aholisining tillar tasnifi tugal ishlangan emas. Shu sababdan, toponimik makromintaqadagi geografik nomlar nihoyat murakkab tizimga ega. Afrika toponimiyasini hattoki, yuzaki tahlili ham ko'p sonli tillar va etnik birliklarning mavjudligi, materikning turli qismlaridagi murakkab tarixiy taraqqiyot jarayonlari, makromintaqa toponimiyasining kam o'rganilganligi hamda ayrim sabablarga ko'ra joy nomlarini kartalarda turlicha yozilishi uni naqadar murakkab ekanligini ko'rsatadi.

Materikni yevropaliklar tomonidan bosib olinishi uni geografik nomlar tizimiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Ikkinchi jahon urushidan keyin mustamlaka tuzumining yemirilib borishi va milliy ozodlik harakatlarning kuchayishi natijasida Afrika toponimik landshafti keskin o'zgardi. Tarixdan ma'lumki, mustamlakachilar o'zlari bosib olgan mamlakatdagi mahalliy va tarixiy nomlarni tan olmasdan, ularni o'zgartirgan. Mustamlaka davlatlarning o'z erkinligini qo'lga kiritishi hamda o'nlab yangi davlatlarni tashkil topishi bilan, milliy va tarixiy nomlar qayta tiklandi, majburan kiritilgan yot nomlar bekor qilindi.

Afrika kartasidan avvallari Yevropaning qaysi bir davlatiga mustamlaka hududi bo'lganligini bildiruvchi o'ziga xos «etiketka nomlar»

(Fransiya G'arbiy Afrikasi, Belgiya Kongosi, Portugaliya Gvineyasi, Ispaniya G'arbiy Saxarasi va hokazo); mustamlakachi davlatlarning oliy rahbarlari, siyosiy arboblari madh etuvchi nomlar (Lorennu-Markish – Maputu, Leopoldvil – Kinshasa, Baterst – Banjul, Fort-Lami – Ndjamena, Solsberi – Xarare va hokazo) olib tashlandi.

Ta'kidlash joizki, ba'zan ayrim davlatlardagi siyosiy tuzumning o'zgarishi ham yangicha nomlarni paydo bo'lishiga olib kelgan. Masalan, 1965 yili Kongoda hokimiyat boshiga prezident Mobutu-Sese-Seko keldi va uning taklifi bilan mamlakat Zoir deb qayta nomlandi. O'sha davrning siyosati ta'sirida Kongo hududida joylashgan Albert ko'li ham yangi prezident nomi bilan ataladigan bo'ldi. 1997 yili davlat to'ntarishi natijasida prezident Mobutu-Sese-Seko lavozimidan chetlatilgandan keyin, mamlakatda avvalgi nomlar qayta tiklandi va ko'lga Albert nomi qaytarib berildi.

G'arbiy Afrikada joylashgan Burkina-Faso davlati, avvalari mahalliy daryo nomi bilan Yuqori Volta deb atalgan. 1984 yili mamlakatda sodir bo'lgan siyosiy voqealar, davlat nomini o'zgarishiga olib keldi. Mamlakatning hozirgi nomi mahalliy xalqlarning (mosi, bobo, senufo, fulbe) tili negizida paydo bo'lgan. Burkina– “munosib, hurmatga loyiq”, faso– “ota makoni”, “vatan”, agar mamlakat nomi bo'lgan Burkina-Faso so'zi tarjima qilinsa, “munosib, hurmatga loyiq odamlar vatani” degan ma'noni beradi. Aytish joizki, Afrika qit'asidagi bir qator mamlakatlarda joy nomlarning hozirgi holati va kelajagi uchun javobgar bo'lgan davlat muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ular asosan qit'a toponimiyasining atalish qonuniyatlarini o'rganish, yagona yozilish qoidalarini yaratish, xalqaro miqyosda standartlashtirish kabi masalalar bilan shug'ullanadi.

Masalan, BMT homiyligida toponimikaga bag'ishlab o'tkazilgan oxirgi (Berlin, 2008) xalqaro konferentsiyada Afrika qit'asining 20 dan ko'proq davlatlaridan namoyandalar qatnashgan. Ular mintaqa toponimlarini to'plash, reestrini tuzish, yagona elektron-axborot bazasini yaratish, nomlarni standartlash va unifikatsiyalash hamda joy nomlarining tarixiy, madaniy, ma'rifiy, amaliy ahamiyati kabi masalalar bo'yicha ma'ruzalar qilishgan. Soha mutaxassislari (Basik S.N. 2006) Afrika toponimiyasining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, uni toponimik jihatdan quyidagi submintaqalarga taqsimlashgan: Shimoliy Afrika; Sudan-Gvineya; Efiopiya-Somali; Markaziy va Sharqiy Afrika; Janubiy Afrika; Madagaskar.

**Shimoliy Afrika toponimiyasi.** Mutaxassislarning aniqlashicha, shimoliy Afrika toponimiyasi boshqa submintaqalardan bir qancha

o'ziga xos xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi: a) *somiy tillarga (arab va barbar tili) xos nomlarni ustunligi*; b) *Misr va O'rta yer dengizi atrofida turli tilli qadimgi toponimik qatlamlarning mavjudligi*; v) *submintaqaning janubiy toponimik chegarasini aniqligi*. Shimoliy Afrika submintaqasini ikkita yirik toponimik rayonga ajratish mumkin: 1) *Misr va Afrika O'rta yer dengizi sohillari*; 2) *Sahroi Kabir*.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Misr sug'oriladigan dehqonchilik asosida paydo bo'lgan qadimiy tsivilizatsiya markazlaridan biridir. Shu sababdan, Misr va Afrika O'rta yer dengizi atrofidagi toponimlar dunyodagi eng qadimgi nomlar sirasiga kiradi. Mintaqa joy nomlarida finikiylar, qadimgi yunonlar, rim kolloniyalari «izi»ni topish mumkin. Misr toponimiyasini o'rgangan olimlar, uni quyidagi toponimik qatlamlarga ajratishgan: *qadimgi misr*; *qadimgi yunon*; *kopt (qibtiy)*; *arab*. Ba'zi mutaxassislar *Misr* so'zini kelib chiqishini qadimda ushbu hududda yashagan (injildagi) Hom o'g'li Misraim va uning avlodlari nomi bilan bog'liq deb hisoblashadi.

Misr davlatini yevropaliklar *Yegipet* deyishadi, bu nom ham juda qadimiy bo'lib, u miloddan avvalgi III asrdan buyon ma'lum va ushbu hududga nisbatan qo'llanib kelinadi. *Yegipet* – so'zi qadimgi misr tilida *Ta-Kipet* – «qora tuproq» ma'nosini anglatgan, misrliklar Nil vodiysidagi hosildor yerlarni, atrofdagi qizil qumli cho'llar bilan qiyoslab o'z yurtini shunday deb atashgan. *Yegipet* so'zi qadimgi yunon tilida *Aigiptos*, lotincha *Aegyptus*, shaklida talaffuz qilingan. Mutaxassislarning aniqlashicha, o'tmishda Misr davlati hududida keng tarqalgan qadimgi misr tili, milodiy V asrdan boshlab o'lik tilga aylangan. Bunga hozirgi arab tilining misr lahjasi uni asta-sekin muomaladan siqib chiqarishi sabab bo'lgan.

Qadimgi misr tilida yaratilgan dastlabki toponimlar miloddan avvalgi to'rtinchi ming yillik oxiri va uchinchi ming yillik boshiga to'g'ri keladi. O'sha davrning geografik nomlari bitilgan yozma lavhalar ham topilgan. Mintaqadagi bir qator tabiiy ob'ektlar, shaharlar nomi juda qadimiy, ular ko'p asrlardan buyon o'zgarmasdan hozirgacha yetib kelgan. Uzoq o'tmishda nomni yaratgan xalq tarix sahnasidan ketgan bo'lsa ham, toponimlarni tildan-tilga o'tib kelishi real voqelik hisoblanadi.

Nil deltasida joylashgan *Tal-al-Fir'avn* – «fir'avn teppaligi» Misrdagi qadimiy shahar, u miloddan avvalgi IV asrda quyi misr davlatchiligi markazlaridan biri bo'lgan. Nilni qadimgi misrliklar daryo ma'budi nomi bilan *Xapi* deb atashgan. Suv ma'nosidagi nil so'zi misrlik-

larga qo'shni libu qabilasi tilidan o'zlashgan. Hozirgi misrliklar tilida – al-Bahr – “daryo”; lotincha – Nilus; yunon tilida – Neilos deb talaffuz qilinadi. So'ngi davrlarda yunonlar daryo nomini Neilos shaklida keng tarqatganlar.

Ushbu hududda keyinchalik paydo bo'lgan turli tillar ta'sirida qadimgi misr toponimik qatlami shaklan ancha o'zgargan bo'lsa ham, ammo nomlarning ko'pchiligi hozirgacha saqlangan. Masalan, hozirgi Asvon shahri nomiga qadimgi misrliklar tilidagi Siena– “bozor” so'zi asos bo'lgan. XX asrning oltmishinchi yillarida Nil daryosining o'ng sohilida joylashgan shahar yaqinida eski va yangi baland Asvon to'g'oni qurilgan. Qadimgi yunon tiliga xos bo'lgan nomlar qatlamini paydo bo'lishi Iskandar Maqduniy tomonidan Misrni bosib olishi bilan bog'liq. Miloddan avvalgi 331 yilda Iskandar axomaniylarga qarshi yurishi chog'ida Misrni egallagan. Shundan so'ng, Misr ellanistik dunyoning bir qismiga aylangan. Makedoniyalik Iskandar tomonidan asos solingan Iskandariya (arabcha, al-Iskandariya) shahri hozirda eng yirik savdo va madaniy markazga aylangan.

Qadimgi yunon tili asosida shakllangan nomlar vaqt o'tishi bilan transformatsiyalashgan, ayrimlariga esa keyingi tillar ta'sirida yangi nomlar berilgan. Mintaqada nisbatan tanish bo'lgan nomlar: *Geliopolis* («quyosh shahri», hozirgi *Ayn-al-Shams*), *Kenopol* (*Kene*), *Bubastis* (*Abusir*), *Fiva* va boshqalar. Qadimgi kopt (qibtiy) toponimik qatlamga quyidagi nomlar misol bo'ladi: *Qibt* (etnik guruh nomi), *Giza* («qum»), *Girga*, *Isna* va hokazo. Qibtiylar (koptlar) – xristian diniga e'tiqod qiluvchi Misr arablarining etnokonfessional guruhi. Ular Misrning arablargacha bo'lgan qadimiy aholisi avlodlari hisoblanadi.

Afrika o'rta yer dengizi sohili toponimiyasi (libu-barbar), finikiy, yunon-lotin, arab-barbar kabi juda qadimiy toponimik qatlamlarga ajratiladi. Mintaqadagi eng qadimiy toponimlarga arxaiklashgan *Atlas* (barbar tilida *adrar* – «tog'»), *Kayraun*, *Telemsen* kabi nomlar misol bo'ladi. Finikiylar tilida yaratilgan nomlar ko'proq Shimoliy Afrikaning O'rta yer dengizi va Atlantika sohillariga yaqin hududlarda qayd qilingan. Misol: Shimoliy Afrikadagi shahar – davlat *Karfagen* («yangi shahar»), *Agadir* (*gadir* – «qal'a, devor»), *Tunis* (finikiylar oy ma'budi Tanit nomidan), *Russadir* («qoyali bo'g'oz», hozirgi *Melilya*), *Tanjer* (*tigisis*– «bandar») va boshqalar.

Qadimgi yunon toponimlariga *Tripoli* – «uch shahar» nomi misol bo'ladi. Hozirgi arabcha shakli *Trubulus-al-G'arb* – «G'arbiy Tripoli»

«Oq uy» Tripoli, *Trabulus-al-Sharq* – Livanda). Mag'ribda yevropa tillariga (ispan, frantsuz) xos toponimlar sanoqli, ular asosan mustamlaka davridan qolgan nomlar hisoblanadi. Masalan, *Kasablanka* – ispancha «oq shahar», arab dunyosida shaharni *Dar-ul-Bayda*– «oq uy» deb atashadi. Geografiyadan xabardor kishi qo'shimcha tarzda Kasablanka – Marokashdagi yirik port shahar deb izoh berishi mumkin. Shaharda ko'plab sayyohatchilar uydagi ko'plab inoratlar oq marmar bilan bezalganligi esa qayishmuri ta'sirida binolar, kishi ko'zini qamashtiradigan qal'alar, ma'mur binalar kabi etishi to'g'risida ma'lumotlar yozib qoldirilgan.

Ikkinchi jahon urushi davrida, Germaniya maxsus xizmat vakillari Ispaniya yashirin radiostantsiyasi tutqigan Ruzvelt va Cherehillni bo'lib o'tay davridagi uchrashuvi haqidagi xabarni eshitib, uni xato tarjima qiladigan. Natijada ular Britaniya bosh vazirini, Amerika Qo'shma Shtatlar Prezidentidagi rezidentsiyasi bo'lgan– «Oq uy»ga tashrif buyuradi degan noto'g'ri xulosaga kelishgan, aslida esa uchrashuv joyi Marokashning Kasablanka shahri bo'lgan.

Shimoliy Afrikadagi eng so'ngi va nisbatan baquvvat toponimik qatlarni arabcha geografik nomlar tashkil etadi. Tarixiy manhalardan ma'lumki, 639-642 yillarda Misr va keyincha butun shimoliy Afrika arablar tomonidan ishg'ol qilingan. Arabcha nomlar hozirda shimoliy Afrikada keng tarqalgan va ularni izohlash qiyin emas. *Qohira*– («g'olib»), *Jazoir* («orol»), *Al-Abyod* («oq bo'g'oz»), *Rabat* («qo'rg'on»), *Al-Zaviya* («ihodatgohi»).

Mintaqa toponimlari tarkibida arabcha geografik terminlar keng qo'llanilgan. Ular orasida gidrografik terminlar alohida o'rin egallaydi: *ayn* – «buloq, quduq»; *bir* – «yakka buloq»; *nahr* – «ariq, kanal», *shott* – «sho'r ko'l, salonchak»; *sebha*– «cho'llardagi katta sho'r ko'l»; *bahr* – «katta daryo, dengiz» va boshqalar. Bularga *Ayn-Saloh*, *Ayn-Bayda*, *Bir-Abu-Husseyin*, *Bir-Terfavi*, *Vodi-al-Kabir*, *Al-Uedd*, *Shott-al-Garsa*, *Sebha*, *Sebha-Tamimu*, *Bahr-al-Bakar* kabi toponimlar misol bo'ladi.

*Sahroi Kabir* toponimiyasi Misr va O'rta yer dengizi atrofidagi geografik nomlardan qisman farq qiladi. Hududda juda qadimgi toponimik qatlamlar aniqlanmagan. Hozirgi toponimlarning asosiy qismini arab va barbar tillariga mansub nomlar tashkil etadi. Mintaqa geografik nomlarida ko'pincha cho'l landshafti o'z aksini topgan. Ularda cho'l-larni landshaft xususiyatlariga ko'ra tiplari (xillari), rel'ef shakllari, quduqlar va boshqa oqar suvlar manhalari aniq belgilangan. Sahroi Kabir



(arabcha, sahro – «cho'l»; kabir– «katta») – yer yuzidagi eng katta tropik cho'l. Sahroi Kabir so'zining sinonimi sifatida qo'llaniladigan Saxaraga ham, arabcha sahro so'zi asos vazifasini bajargan. Shimoliy Afrikadagi ayrim cho'llarni nomi: *As-sahra-al-Libia* – Liviya cho'li, *As-sahra-al-Nubia* – Nubiya cho'li va hokazo.

Geografik nomlar tarkibida keng qo'llanilgan arabcha terminlar: *Hamada* – «toshloq cho'l», *erg* – «qum do'ngli cho'llar», *aftut* – «shag'alli tekislik», *serir* – «shag'alli cho'l», *goz* – «to'lqinsimon katta qum uyumi», *reg* – «toshloq cho'l» (*Hamada-al-Hamra*, *Erg-Shosh*, *Serir*, *Reggan* va boshqalar). Barbar tilidagi geografik nomlar ham mintaqada ancha keng tarqalgan (*Air*, *Tamanrasset*, *Idehan-Murzuk*, *Tanezruft*, *Ahaggar*, *Agadir* va boshqalar). Barbarlar ajdodlari qadimda Misrdan g'arbdagi hududlarda yashashgan, ular Misr bitiklarida miloddan avvalgi to'rtinchi ming yillikdan e'tiboran texenu yoki lebu (liviyaliklar nomi shundan olingan) nomi bilan uchraydi. H.Hasanov yozishicha, yevropaliklar barbar qabilalarini mavrlar deb atashgan. Keyinchalik shu so'z faqat bir mamlakatga (Mavritaniya – «mavrlar mamlakati») nom bo'lgan.

Toponimlar tarkibida sermahsul bo'lgan barbar (tuareg) tilidagi geografik terminlar: *tassilin* – «yassi tog'», *idexan* – «qumli cho'l», *dru* – «qumtepa», *gxurd* – «dyuna», *adrar* – «tog'». Submintaqa janubidagi *Sohili* – (arabcha, «qirg'oq, chekka, cho'l chegarasi») deb ataladigan hududdan boshlab asta – sekin arab – barbar toponimlari o'rmini sudan tillariga xos bo'lgan geografik nomlar egallaydi.

*Sudan-Gvineya submintaqasi toponimiyasi* nihoyat murakkab tizimga ega. Buni submintaqadagi joy nomlari turli guruhlariga mansub tillarda yaratilganligi hamda ularni tuzilishini o'ziga xosligi bilan izohlash mumkin. Sudan tillari termini 1905 yilda nemis tilshunosi K.Maynxof tomonidan taklif qilingan. Eng keng tarqalgan Sudan tillari – malike va gambara, fula, akan, yoruba, igbo, edo va boshqalar. Sudan – Gvineya xalqlarining hayot tarzi, xo'jalik faoliyati, migratsion jarayonlarda faol qatnashishi hamda etnik aralashuvi submintaqa nomlarida ham o'z aksini topgan.

Arablar o'rta asrlarda Sahroi Kabirdan janubda joylashgan hududlarni *Bilod-as-Sudan* – «qora tanlilar mamlakati» deb atashgan. *Gvineya* nomini paydo bo'lishi haqida bir qancha talqinlar mavjud, ulardan nisbatan ishonchlisi, *iguawen* – «til bilmaydiganlar», barbarlar tilni tushinmaydigan janubiy qora tanli qo'shnilarini shunday deb atashgan.

Davlatqirat, submintaqada turli tilli xalqlar yashaydi. Masalan, xaus tili arab va barbar tillariga yaqin bo'lsa, mande (mandingo, malinke, mounke va boshqalar) guruhiga mansub tillar agglyutinativ (lotincha, *agglutina* – "qo'shilish") tillar hisoblanadi. Sudan hududida nilot tillari tarqalgan, ulur Nil – Sahroi Kabir tillari makrooilasiga mansub. Nilotlar (lotuko, nuer, luo, bari, lotuko, misai va boshqalar) Uganda, Keniya, Tanzaniya kabi davlatlar hududida ham yashaydi.

Mintaqa xalqlarining migratsiyasi va etnik aralashuvlari tubjoy toponimlarni assimilyatsiya va transformatsiyalashuviga hamda yangi toponimik qatlamlarni paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Shu bilan birga o'z vaqtida ayrim xalqlarning arab dunyosi bilan yaqin aloqada bo'lishi hamda davlatchilik va yozma adabiyotni (Mali, Gana, Benin) mavjudligi, bir qator qadimiy nomlarni saqlab qolishga yordam bergan.

Submintaqaning shimoliy qismida Nil – Sahroi Kabir tillari makrooilasiga mansub bo'lgan toponimlar bilan barbar (tuareg) va arabcha nomlar ham salmoqli o'rin egallaydi. Masalan, *Niger* – «daryo», *Agades* – «yo'lovchilar uchrashadigan joy», *Tombuktu* – «Boktu ismli ayolni joyi» kabi toponimlar tuareglar tilida yaratilgan. Sharqiy Sudanda *bahr*, *vodi*, *bir*, *jabal* kabi terminlar yordamida paydo bo'lgan arabcha nomlar ko'p uchraydi.

Sudan-Gvineya submintaqasi geografik nomlari tarkibida etnonimlar ham salmoqli o'rin egallaydi. Ularga *Bissau*, *Bobo-Diulaso*, *Gaksa*, *Efik*, *Ankyenga*, *Heruba*, *Ashanti*, *Senegal* kabi nomlar misol bo'ladi. Mintaqa tabiatini aks ettirgan toponimlarga ham ko'plab misollar keltirish mumkin: *Dakar* – «tamarak», *Abidjan* – «palma barglari kesilgan joy», *Bamako* – «timsohlar daryosi», *Mali* – «begemot», *Kaduna* – «timsohlar», *Kotonu* – «hayotsiz laguna», *Togo* – «lagunadan keyin», *Benue* – «katta suv, suvlar onasi», *Chad* – «katta suv», *Shari* – «daryo» va hokazo.

Mintaqaning mandingo tili tarqalgan hududlarida joy nomlari tarkibida *dugu* – «uy, manzilgoh» (ko'pincha shaxs ismi bilan birgalikda) termini ko'p qo'llanilgan: *Ugadugu*, *Kudugu*, *Dedudgu*, (Burkina-Faso), *Satadugu*, *Madugu* (Mali), *Baramadugu*, *Musadugu*, *Kisidugu* (Gvineya), *Feremandugu*, *Ferkessedugu* (Kot d'Ivuar). Mandingo til birligi tarkibida (bamana, diula bilan birga) bo'lgan malinke tilida ham bir qator joy nomlari yaratilgan. Masalan, *Bafing* («qora daryo»), *Bakoy* («oq daryo»), ikki daryo qo'shib Senegal daryosini hosil qilgan joyni *Bafulabe* – «ikki daryo» deb atashadi.

Sudan-Gvineya submintaqasining g'arbiy qismida yevropaliklar tomonidan (fransuz, ingliz, portugal) yaratilgan geografik nomlar qatlami ham uchraydi. Masalan, hozirgi Serra-Leone davlati hududiga yevropaliklardan birinchi bo'lib, 1462 yili portugaliyaliklar kelgan va unga Serra-Leone – "*Sherlar tog'i*" deb nom berishgan. Uning poytaxti hisoblangan Fritaun – "erkinlar shahri"ga esa, XVIII asrda qul savdosi rasman taqiqlangach, inglizlar tomonidan ozod qilingan bir necha yuz qul asos solishgan. Kelib chiqishi yevropaliklar tili bilan bog'liq bo'lgan toponimlar asosan qirg'oq bo'ylab tarqalgan: *Sent-Pol, Keyp-Kost, San-Pedro, Lagos, Porto-Novo, Tristan, Robertsport, Fritaun, Merilend, Agbovil, Gran-Berebi va boshqalar*. Ular orasida afrika va yevropa xalqlari tillaridagi so'zlardan tashkil topgan kompozit toponimlarni ham uchratish mumkin. Sharqiy Sudanda yevropaliklar tiliga xos toponimlar yo'q.

**Efiopiya-Somali submintaqasi toponimiyasi.** Ushbu hudud juda qadimiy davrlardan buyon ma'lum. Uning toponimiyasi tarkibida efiop va kushit tillarida yaratilgan nomlar ko'pchilikni tashkil etadi. Efiopiya qadimgi nom, hozirda u tog'lik va davlat nomi sifatida saqlanib qolgan. Qadimda Misrdan janubda, Nubiya va hozirgi Efiopiya hududida yashagan aholini efioplar (yunoncha, *aithions* – «quyoshda qoraygan») deb atashgan. Som-hom tillari oilasiga mansub bo'lgan efiop (geez) tili, miloddan avvalgi V asrda janubiy Arabistondan ko'chib kelgan aholining tili sifatida paydo bo'lgan va o'sha davrning *Punt, Aksum* kabi davlatlarning tili hisoblangan. Milodiy I-II ming yilliklar chegarasida so'zlashuv tili sifatida iste'moldan chiqib, o'rmini amxara tili egallagan. Efiop (geez) tili asosida shakllangan qadimiy mahalliy toponimik qatlam juda kam saqlangan.

Efiopiyadagi geografik nomlarning asosiy qismi hozirda davlatning rasmiy tili hisoblangan amxarada yaratilgan. Masalan, mamlakat poytaxti *Addis-Abeba* shahri nomi amxara tilida – «*yangi gul, bahor guli*» ma'nosini anglatadi. Shaharga 1887 yili imperator Menelik II asos solgan va dastlab unga *Finfinna* deb nom bergan. Addis-Abebaga nisbatan «*mangu bahor shahri*» degan epitet nom ham qo'llaniladi. *Ko'k Nil* daryosi mahalliy tilda *Abay* – «ota», Tis-Isat sharsharasi – «tutayotgan olov» degan ma'noni beradi.

Somali yarim oroli va uni atrofidagi hududlarda kelib chiqishi kushit tillari (oromo, somali, afar, agav, kaffa, iraku va boshq.) bilan bog'liq geografik nomlar uchraydi. Mintaqa gidronimlari tarkibida *uebi* –

«dunyosi» (*Uebi-Shebelle* – «leopardlar daryosi»), *tug* – «irmoq» (*Tug-Darroo* – «tumanli irmoq»). Mintaqada arab va fors toponimlari ham salmoqli oʻrin egallaydi. Hududda arab va mahalliy tillar negizida shakllangan gibrid nomlar ham bor. Bunday kompozit nomlarning paydo boʻlishida oʻtta asrlarda mintaqani musulmon dunyosi bilan yaqin aloqada boʻlganligi muhim rol oʻynagan. Oʻziga xos bunday nomlarning qitʼomiy ehtiyoj tufayli davr tavsiya qilgan va ular qirgʻoq boʻylari keng tarqalgan: *Ras-Xafun* («chekka boʻgʻoz»), *Ras-Asir* («qullar boʻgʻoz»), *Ras-al-Xayl* («otlar boʻgʻoz»), *Ras-Filuk* («fil boʻgʻoz»), *Bandar – Beyla* (*Bandar* – «port»), *Mogadisho* («muqaddas», mahalliy nomi *Xamar* – «qizil»), *Ras-Djibuti* («qoyali boʻgʻoz») va boshqalar.

Mintaqa davlatlari toponimiyasi tarkibida kelib chiqishi yevropaliklar (italyan, fransuz, ingliz) tili bilan bogʻliq nomlar koʻp boʻlgan, ammo ular ozodlikka erishgach, mustamlaka davridan qolgan va begona tilda yaratilgan barcha toponimlarni milliy nomlarga almashtirishgan. Taʼkidlash jozki, Somali yarim orolining sharqiy chekkasida, joylashgan *Guardafuy* (portugalcha, «ehtiyot boʻl») burni nomi hozirgacha saqlangan va u ogohlantiruvchi xususiyatga ega. Nomning kelib chiqishi tarixi aniq emas. Ayrim mutaxassislar, oʻsha davrda qoʻshni Sokotra orolini oʻziga makon qilib, savdo kemalarni ayovsiz gʻorat qilgan dengiz qaroqchilardan ehtiyot boʻlish uchun, ushbu nom berilganligini taʼkidlashgan boʻlsa, boshqalari Adan qoʻltigʻiga kiraverishdagi xavfli qoyalardan kemalarni ogohlantirish maqsadida bu nom paydo boʻlgan deb taxmin qilishadi.

**Markaziy va Sharqiy Afrika toponimiyasi.** Markaziy va Sharqiy Afrikada yashaydigan xalqlar soni koʻp va ularning koʻpchiligi bantu tillar guruhida soʻzlashadi. Shu sababdan, mintaqa toponimlarining asosiy qismi ana shu tillar guruhida yaratilgan nomlardan iborat. Bantu tillari orasida eng koʻp tarqalganlari: nyamvezi, sukuma (Tanzaniya), kikuyyu, kamba (Kenya), kongo, luba (Kongo), ruanda (Ruanda), ganda (Uganda) va boshqalar. Pigmeylar – (yunoncha, *pygmaios* – mushtdek) tropik Afrikaning past boʻyli tub joy aholisi. Pigmey nomi yunoncha *pigma* – tirsakdan mushtgacha boʻlgan oraliq masofaga teng uzunlik oʻlchovidan olingan. Koʻpgina pigmeylar darbadar hayot tarzini, arxaiik madaniyatni, anʼanaviy diniy eʼtiqotlarini saqlab qolishgan.

Sharqiy Afrikadagi bir qator mamlakatlar aholisi aloqa vositasi sifatida, bantu guruhidagi suaxili tilidan foydalanadi. Shu sababdan, sub-

mintaqa toponimiyasi tarkibida kelib chiqishi suaxili tili bilan bog'liq toponimlar soni ancha ko'p. Mintaqa toponimiyasi tarkibida, tabiatining o'ziga xos xususiyatlarini aks etadigan toponimlar soni ham kam emas. Masalan, gidronimlar tarkibidagi *-lu, -lo, -lva, -lve* kabi qo'shimchalar «suv, daryo», (*Lualaba, Lukuga, Luhudi, Lungvebungu, Lovua, Lvele, Lvange, Lvembe, Lvia* va hokazo). va *Kasai, Kubango, Okvango, Zambezi, Zair* kabi gidronimlar «katta daryo» degan ma'nolarni bildiradi.

Bantu xalqlari tilida *nyasa, nyanza, nyantsa* – «ko'l» ma'nosini anglatadi. Shu bois, mahalliy xalqlar Afrikaning buyuk ko'llarini (*Nyasa, Viktoriya, Malavi*) shu bitta so'z bilan atashadi. Shunisi diqqatga sazovorki, mahalliy aholi geografik ob'ektlarni nomlashda tabiiy-geografik omillarga alohida e'tibor berishgan. Masalan, *Mbuji-Mayo* («suv echkisi»), *Kigali* («keng, baland tog'»), *Ruvenzori* («bulutlar sohibi»), *Lusaka* (butta turi), *Tanganika* (*nika* – suaxili tilida «tashlandiq yer» – quruq savannani shunday atashadi), *Nayrobi* («sovuq suv»), *Keniya* («uq tog'»), *Kampala* («impala antilopasi nomidan»), *Bangi* («ostona») va hokazo. Markaziy va Sharqiy Afrika geografik nomlarining katta guruhini etnotoponimlar tashkil etadi. Masalan, *Kongo daryosi, Yaunde shahri, Duala shahri, Masai platosi, Turkana ko'li, Burundi, Uganda, Ruanda, Malavi* kabi davlatlar nomi aslida etnotoponimlardir.

Hind okeani sohili va uni atrofidagi geografik nomlar tahlili, qadimdan mintaqani musulmon dunyosi bilan yaqin aloqada bo'lganligidan dalolat beradi. Xususan, arab va fors toponimik elementlari alohida o'rin egallaydi. Tanzaniya poytaxti Dorussalom shahrining nomi arabchada «tinchlik uyi» degan ma'noni bildiradi. Zanjibar (fors tilida, zangi – «qora tanli, negr», bar – «joy»)– Tanzaniyadagi orol va shahar nomi. O'rta asrlarda (VII-IX asr) oroldagi shahar Afrikani Hind okeani sohilidagi yirik qul savdosi markazi hisoblangan. Arab va fors qul savdogarlari oroldan qullarni Iroqqa olib kelib, maxsus lagerlarda saqlashgan. O'sha davrda Shatt-al-Arab daryosi sohilidagi sho'rxok yerlarni tozalashda, qo'riq ochishda, sug'orish ishlarida, shakarqamish yetishtirishda qullardan foydalanishgan.

O'tgan asrning 60-chi yillaridan boshlab, Afrika kartasida kelib chiqishi yevropaliklar tili bilan bog'liq bo'lgan toponimlar soni asta-sekin kamayib bormoqda. Ular orasida mintaqadagi ayrim davlatlarning nomi sifatida (*Kamerun, Gabon*) mustahkam o'rnashib qolganlari ham bor. Bunga Kamerun davlati nomi yaqqol misol bo'ladi. 1480 yilda

portugallik sayyohlar Markaziy Afrikadagi Vuri daryosining dengizga quyilish joyiga kelib to'xtagashgan. Daryo deltasida qisqichbaqalarni juda ko'pligini ko'rib, daryoga *Riu-dush-Kamaronesh* – «qisqichbaqalar daryosi» deb nom berishgan. 1960 yilda gidronim Kamerun shaklida davlat nomiga o'tgan va so'ngra harakatdagi vulkan (mahalliy nomi, Manga-Ma-Loba – «tangri g'ori») nomiga aylangan.

Qit'ada hozirgacha saqlanib kelayotgan yevropacha toponimlarga *Brazzavil*, *Viktoriya ko'li*, *Librevil*, *Puent-Nuar* kabi nomlar misol bo'ladi. Masalan, Brazzavil – Kongo davlatining poytaxti, 1880 yilda fransuz dengiz ofitseri Savorgnan de Brazza (1852-1905) tomonidan harbiy post sifatida unga asos solingan. Keyincha post aholisi ko'payib shaharga aylangan va uni asoschisi nomi bilan Brazzavil (fransuzcha, ville – «shahar») deb atashgan.

**Janubiy Afrika toponimiyasi.** Geografik o'ri jihatdan Janubiy Afrikaga quyidagi davlatlar kiradi: Botsvana, Zimbabve, Lesoto, Namibiya, Svazilend, Janubiy Afrika Respublikasi va boshqalar. Mintaqada qit'aning deyarli barcha landshaft tiplari kichaytirilgan masshtabda takrorlanadi, shuning uchun ham, uni ba'zan Kichik Afrika deb atashadi. Xuddi shu qonuniyat mintaqa geografik nomlarida ham o'z aksini topgan. Ta'kidlash joizki, Janubiy Afrika toponimlarining asosiy qismi bantu va koysan (bushmen – gollandcha, *bosjesman* – «o'rmon odami» va gottentot) tillarida yaratilgan. Gottentotlar o'zlarini koy-koin – «haqiqiy odam»lar deb atashadi. Koysan tillari JAR, Namibiya, Angola, Tanzaniyada keng tarqalgan va qit'a tillari orasida alohida o'rin tutadi.

Koysan xalqlari toponimlar yasashda mintaqadagi tabiiy-geografik omillarga jiddiy e'tibor qaratishgan: *Karru* platosi (gottentot tilida, karusa-«quruq, suvsiz»), *Augrabis* sharsharasi (aukyorbis – «shovqinli joy»), *Vindxuk shahri* (*Windhoek* – «shamolli vodiya»), *Kalaxari* cho'li (karaha – «mayda shag'alli-qumli joy») va hokazo. Bantu tillariga xos toponimlar ko'proq mintaqaning janubida tarqalgan: (*Iimpopo* – «timsohli daryo», *Botsvana* – «tsvana yeri» *Mbabane*, *Tabana-Ntlenbyana* va boshqalar.

Mutaxassislar, Janubiy Afrika Respublikasi hududida kelib chiqishi yevropa tillari (golland, ingliz, nemis), xususan, afrikaans tili (german tillari guruhiga kiradi) bilan bog'liq bo'lgan, ancha baquvvat toponimik qatlamni aniqlashgan. Afrikaans tilida gapiradigan afrikanerlarni ko'pincha burlar (gollandcha, bur – «dehqon») ham deyishadi. Ular XVIII

asrda qit'aning janubiga ko'chib kelgan golland, fransuz, va nemis mustamlakachilarning avlodlari hisoblanadi.

So'nggi yillarda yevropacha toponimlarni mahalliy nomlar bilan almashtirish keng tus oldi. Chunonchi, ko'p yillar davomida Janubiy Afrika Respublikasi poytaxti bo'lgan Pretoriya shahrini nomi ham o'zgartirildi. 2005 yildan boshlab, shahar uning hududidan oqib o'tadigan daryo nomi bilan Tshvane deb atalmoqda. Qizig'i shundaki, daryoga mahalliy qabila boshlig'ini nomi berilgan. Tshvane – «maymuncha» degan ma'noni anglatadi.

Evropacha nomlarning aksariyati memorial, ko'chma va tasviriy xususiyatiga ega (*Keyptaun, Nyukasl, Utrext, Durban, Uolfish-Bey, Vaal, Kaledon* va hokazo). Masalan, memorial nomlar qatoriga Durban oykonimi kiritish mumkin. Shaharga 1835 yilda dengiz porti sifatida asos solingan va u dastlab Port-Natal deb atalgan. 1846 yili shahar o'sha davrdagi Natal kolloniyasi gubernatori *Bendjamin D'Urban* (1777-1849) sharafiga D'Urban deb qayta nomlangan. Vaqt o'tishi bilan oykonim tarkibidagi apostrof tushib qolgan va nom hozirgi Durban shaklini olgan.

Yuqorida qayd qilingandek, mintaqa toponimiyasi tarkibida kelib chiqishi afrikaans tili bilan bog'liq bo'lgan nomlar ko'p. Xuddi boshqa tillarda yaratilgan joy nomlaridek, afrikaans toponimlarida ham mintaqaning turli tabiiy landshaft elementlari o'z aksini topgan. Masalan, *veld* (afrikaans tilida *veld* – «maydon») Janubiy Afrikadagi qurg'oqchil platoning nomi (*Past, O'rta va Yuqori Veld*). Shu bilan birga, *veld* termini boshqa ma'no ham kash etgan. Chunonchi, ayrim mahalliy xalqlar chorva uchun ozuqabob bo'lgan, har qanday tabiiy o'simliklar qoplamini *veld* deyishadi.

Janubiy Afrikaning yer yuzasi, murakkab tuzilishga ega, ya'ni asosan plato, yassitog'lik va tog'lardan iborat. Shu sababdan, oronimik terminlar ko'p: *nek* (aynan – «bo'yin») – tog'lardagi kambar joy, tabiiy oshuv; *ruens* (aynan – «elka») – yer yuzasi erozion jarayonlar ta'sirida bir oz parchalangan pastroq plato landshafti; *kop* (aynan – «hosh») – alohida turgan tepa yoki tog'; *krans* (aynan – «toj») – tog'lardagi tik qoya; *dans* – keng, ammo chuqur bo'lmagan vodi; *poort* (aynan – «darvoza») – daryolarni oqimga ko'ndalang tog'larni kesib o'tishi natijasida hosil bo'lgan joy; *pen* (aynan – «tova») – odatan mavsumiy suvlar bilan to'ldirilgan, doira shaklidagi kichik depressiyalar; *rant* – tik jarlik hosil qilgan tepaliklar. Janubiy Afrika oykonimiyasida *fonteyn* –

«huloq, suv» termini ancha sermahsul: (*Blumfonteyn, Ritfonteyn, Kupmansfonteyn, Koffifonteyn, Ryultfonteyn va boshqalar*).

**Madagaskar toponimiyasi.** Madagaskar – Hind okeani g'arbida, Afrikaning janubiy-sharqiy qirg'og'idan 400 km sharqda joylashgan orol. Miloddan avvalgi X-VI asrlarda orolga indonezlar (hozirgi malagasilar avlodi), polinezlar, melanezlar, keyinchalik arablar va Afrika-ning sharqiy sohilidan bantu xalqlari ko'chib kelishgan. XIV asrda orolning markaziy qismida Imerina davlati tashkil topgan. XVI-XVII asrlarda orolning g'arbida sakalava, sharqida betsimisaraka va markazda betsileular davlati paydo bo'lgan. XIX asrga kelib barcha davlatlar markazlashgan Malagasi qitolligi tarkibiga kirgan. Malagasi, malgash tili – avstronez tillari oilasidagi indonez tillari tarmog'iga mansub va ko'p jihatdan Malay arxipelagidagi tillarga o'xshaydi.

Madagaskar Respublikasida malagasi davlat tili hisoblanadi va u Afrika qit'asidagi boshqa tillardan tubdan farq qiladi. Malagasi tilining lug'at tarkibida sanskrit, arab, suaxili tillaridan o'zlashmalar ancha ko'p. Uning rivojlanish jarayonida arab va keyinchalik fransuz tili sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ta'kidlash joizki, Madagaskar toponimiyasi tarkibida malagasi tilida yaratilgan geografik nomlar mutlaq ko'pchilikni tashkil etadi va u butun orol bo'ylab keng tarqalgan: *Antananarivu* («ming askar shahri»), *Antseranana* («port shahar», shaharga 1841 yilda asos solingan va 1977 yilgacha u portugaliyalik dengizchi nomi bilan *Diego-Suares* deb atalgan), *Marumukutru tog'i* («mevali daraxtlar joyi») va hokazo.

Madagaskarning shimoli-g'arbida suaxili tili bilan bog'liq bo'lgan ayrim toponimik elementlar va yevropacha toponimlarni (asosan fransuzcha nomlarni) uchratish mumkin. *Madagaskar* toponimining etimologiyasi hozirgacha aniqlanmagan. Orol nomining kelib chiqishi haqida talqinlar ko'p. Masalan, H.Hasanovning yozishicha, orol nomi mahalliy xalq *madegas* nomidan olinib, yevropaliklar talaffuzida Madagaskar bo'lib ketgan. Boshqa mutaxassislar, Madagaskar so'zini *malagasi* etnonimini transformatsiyalashgan shakli deb hisoblashadi. Shunisi diqqatga sazovorki, tubjoy xalq vakillari boshqa orollarga nisbatan kattaligini hisobga olib uni *Tani-Be* – «buyuk orol» deb atashadi.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. Afrika toponimiyasining farqlovchi xususiyatlari haqida referat yozing.



2. *Shimoliy va Janubiy Afrikadagi toponimik qatlamlarlarni o'zaro taqqoslang, ularning o'xshashlik va tafovutlari haqida ma'lumot bering.*

3. *Madagaskar orolining toponimiyasi nima sababdan boshqa toponimik submintaqalardan tubdan farq qiladi?*

### **Test topshiriqlari**

1. **Afrikada "etiketka nomlar"ni ko'payishi sababi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A. Yevropa davlatlari nomi sharafiga qo'yilgan
- B. Mustamlakachi davlatlarning siyosiy arboblari nomi berilgan
- C. Qaysi davlatga mustamlaka hudud ekanligini bildirgan
- D. Sababi aniqlanmagan

2. **Markaziy va Sharqiy Afrikaning Hind okeani sohilida arab va fors toponimik elementlarni alohida o'rin egallashini qanday sababi bor?**

- A. Hudud yirik qul savdosi markazi hisoblangan.
- B. Arab va fors savdogarlari ushbu hududga tez-tez kelib turishgan.
- C. Qadimdan mintaqa musulmon dunyosi bilan yaqin aloqada bo'lgan.
- D. Arab va fors qullarini shu hududda saqlashgan.

3. **H.Hasanov yozishicha, yevropaliklar barbar qabilalarini ... deb atashgan. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zni qo'ying.**

- A. libular
- B. efioplar
- C. tuareglar
- D. mavrlar

4. **«Ming askar shahri» ma'nosini anglatuvchi poytaxt shahar nomi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A. Qohira
- B. Dorussalom
- C. Dakar
- D. Antananarivu

5. **Bushman so'zining ma'nosi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni helgilang.**

- A. Inglizcha, "shahar odami"
- B. Gollandcha, "o'rmon odami"
- C. Afrikaans tilida, "maymuncha"
- D. Frantsuzcha, "yovvoyi odam"

## 18-mavzu: AMERIKA TOPONIMIYASI

### 18.1. Shimoliy Amerika toponimiyasi

#### *Reja:*

1. *Shimoliy Amerika mamlakatlari toponimiyasi haqida qisqacha ta'rif.*
2. *Amerika Qo'shima Shtatlari, Kanada va Grenlandiya toponimiyasining o'ziga xos xususiyatlari.*
3. *Meksika, Markaziy Amerika va Vest-Indiya toponimiyasining stratigrafik qatlamlari va ularning o'zaro aloqadorligi.*

**Mavzuning maqsadi:** Shimoliy Amerika toponimiyasining shakllanish tarixi, rivojlanish bosqichlari, makromintaqa toponimik qatlamlarining o'zaro aloqadorligi hamda geografik terminlarining hududiy xususiyatlari haqida ilmiy tushuncha berish.

**Tayanch ibora va atamalar:** Asosiy toponimik qatlam, toponimik submintaqalar, substrat, gibrid, ramziy va kompozit nomlar, indeyscha toponimlar, tabiiy, tasviriy xususiyatlarga ega bo'lgan nomlar.

Shimoliy Amerika – g'arbiy yarim sharning shimoliy qismidagi materik, unga Markaziy Amerika ham kiradi. Mutaxassislarning fikricha, normannlar X-XI asrlarda Grenlandiya va Shimoliy Amerikaning shimoliy-sharqiy sohillarigacha yetib borishgan bo'lsa ham ammo, yangi qit'a noma'lumligicha qolib ketgan. 1492-1503 yillarda Kristofor Kolumb rahbarligida amalga oshirilgan sayohatlar natijasida, ilk bor Antil orollari va Karib dengizining janubiy sohillari kashf etilgan. Ma'lumki, materik aholisining asosiy qismini XVI-XIX asrlarda Yevropa va Osiyodan ko'chib kelgan muhojirlar va Afrikadan keltirilgan qullar avlodlari tashkil etadi. Shu bilan birga, mintaqa aholisining ozroq qismini mahalliy aholi – indeyslar, eskimoslar, aleutlar tashkil etadi.

Meksika va Markaziy Amerika aholisining asosiy qismi, ispanlar va mahalliy indeyslarning aralashishi natijasida paydo bo'lgan. Ularning ko'pchiligi ispan hamda ingliz va fransuz tillarida gaplashishadi. Shimoliy Amerikaning hozirgi siyosiy kartasi bir qator davlatlarning mustaqillik uchun olib borgan kurashi hamda jahon tarixida ro'y berayotgan siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar natijasida vujudga kelgan.

Shimoliy Amerika toponimiyasi yaxshi o'rganilgan bo'lishiga qaramasdan, geografik nomlarning hozirgi holati va mavjud muammolarni

tadqiq etish uchun bir qator milliy va xalqaro ilmiy tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ular tomonidan mintaqa toponimiyasining atalish qonuniyatlari, nomlarni yagona yozilish qoidalari, milliy va xalqaro miqyosda standartlashtirish va unifikatsiyalash kabi masalalar o'rganilmoqda. Mutaxassislar Shimoliy Amerika toponimiyasining farqlovchi xususiyatlarini inobatga olib, uni toponimik jihatdan quyidagi submintaqalarga bo'lishgan: AQSH, Kanada va Grenlandiya; Meksika va Markaziy Amerika; Vest-Indiya.

**AQSH, Kanada va Grenlandiya toponimiyasi.** Toponimist olimlar, AQSH, Kanada va Grenlandiya toponimiyasini ikkita asosiy qatlamga ajratishgan: substrat (tub joy xalq – eskimoslar, aleutlar, indeys xalqlari tilida) va yevropacha (ingliz, ispan, fransuz, nemis, rus, skandinaviya va boshqalar) nomlar. Shuni ta'kidlash joizki, qadimgi (substrat) toponimiya mintaqa bo'ylab notekis taqsimlangan va o'ziga xos xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi. Substrat toponimlarning farqlovchi xususiyatlaridan biri shuki, eskimos va aleut tillari bir oilaga mansubligi bois, ushbu tillarda yaratilgan nomlarning tarqalish areallari ham bir-biridan uncha uzoq emas.

Alyaska, Aleut va Komandor orollari hamda Kanadaning shimolida aleutcha nomlar keng tarqalgan. Alyaska so'zi – aleut tilida, *ala'sx'a* – «kitlar makoni, kitlari ko'p joy» degan ma'noni bildiradi. Dastlab bu nom yarim orolning janubiy-g'arbiy qismiga nisbatan qo'llanilgan. Keyincha, nomning areali ancha kengayib, u hozirgi Alyaska yarim orolning barcha hududlarini qamrab olgan. Alyaskani XVIII asrning birinchi yarimida ruslar egallashgan. 1867 yili Rossiya hukumati Alyaskani AQSH ga 7,2 mln. dollarga sotib yuborgan. Shundan keyin, AQSH Senati tomonidan uni qayta nomlash bo'yicha bir necha takliflar muhokama qilingan va Alyaska nomi ma'qul topilgan. Ma'lumki, Alyaska 1958 yildan buyon AQSH ni 49 shtati hisoblanadi.

Aleut orollari – XVIII asrda rus dengizchilari tomonidan kashf qilingan va tub aholisi nomi bilan orolni *aleut*– «odam» deb atashgan. 1867 yili Rossiya imperiyasi orollarni Alyaska bilan birga AQSH ga sotgan. Aleutcha nomlar asosan turli tabiiy geografik ob'ektlar – rel'ef shakllari, qo'ltiq, bo'g'oz nomlaridan iborat va ular ko'pincha tabiiy landshaft xususiyatlarini o'zida aks etgan. Ayniqsa, tasvirlash xususiyatiga ega bo'lgan aleutcha toponimlar bir necha so'zlardan tashkil topgan va murakkab tuzilishga ega (*Inuarfigsuak, Tingimiarmiut, Iglosaataliaukali* va hokazo).

Kelib chiqishi eskimos tili bilan bog'liq bo'lgan geografik nomlar Grenlandiya orolida ko'p. Tarixiy manbalardan ma'lumki, orolni 982 yili islandiyalik Eyrik Torvaldsson kashf etgan va uni Grenlandiya-«yashil o'lka» deb atagan. Eskimos so'zi – *atabaska indeyslari tilida* – «xom baliq iste'mol qiluvchi» ma'nosini bildiradi. Ushbu tilda yaratilgan nomlar orasida geografik ob'ektning katta yoki kichikligini helgi-lovchi – *suak* va – *nguak* terminlari ancha sermahsul. Masalan, *Kagsersuak, Nugsuak, Nguak, Kagsernguak* va boshqalar. Eskimos – aleut joy nomlari tarkihida *umanak, unimak, enivak, kvinertak* – «orol», *nuk, kangek* – «bo'g'oz», *narsak* – «vodiy», *nunivak* – «tundra», *vik, ivik* – «qo'litiq», *aluk, iluk* – «daryo» kabi terminlar ko'p uchraydi.

Submintaqada indeyslar tili asosida shakllangan toponimlar ham ancha keng tarqalgan. Ma'lumki, indeyslar – Amerika qit'asining tub joy aholisi hisoblanadi. Qit'ani kashf etgan X.Kolumb uni Osiyoning bir bo'lagi – Hindiston, aholisini esa hindlar degan noto'g'ri xulosaga kelingan. Kolumb xatosi aniqlangandan keyin ham qit'a Vest-Indiya (G'arbiy Hindiston), tub aholisi Amerika indeyslari deb nomlanib kelingan. Aytish joizki, so'nggi davrlarda paydo bo'lgan ilmiy adabiyotlarda, indeys tillari bilan qadimiy turkiy tillar orasida yaqinlik mavjud degan qarashlar ilgari surilmoqda.

Submintaqada indeyslarning quyidagi etnik guruh vakillari yashaydi: AQSH hududida *siu, ritvan, algonkin, atabaska, irokez, atstek*, Kanadada – *atabaska, irokez, algonkin* va boshqalar. Umuman olganda, o'rganilayotgan submintaqa toponimiyasi tarkibida kelib chiqishi indeys tillari bilan bog'liq bo'lgan nomlar son jihatdan ancha kam va hozirda ular taxminan 10 %ni tashkil etadi. Shimoliy Amerikani ayrim hududlarida ularni soni ancha ko'p bo'lishi ham mumkin. Masalan, Kanada limnonimlarining (yunoncha, *limne* – «ko'l») 80 % ni indeys tillariga xos nomlar tashkil etadi.

Kanada so'zining paydo bo'lishi ham indeyslar bilan bog'liq. Fransiya qiroli farmoni bilan, Jak Karte boshchiligidagi fransuz ekspeditsiyasi Xitoyga boradigan shimoliy yo'lni ochish maqsadida g'arbga qarab suzadi. 1535 yili ekspeditsiya a'zolari oldindan tanish bo'lgan Muqaddas Lavrentiya bo'g'oziga kiradi va shu nomli daryo orqali yuqoriga qarab harakat qilishadi. J.Karte daryo sohilidagi irokez indeyslari manzilini ko'rib qoladi va ulardan mamlakatingiz qanday ataladi deb so'raydi. Irokezlar esa o'zlari tilida *kanata* – «qishloq» deb javob berishadi. Sayohat davomida xuddi shu holat bir necha bor takrorlangan

bo'lsa ham yana kanata degan javob olingan. Shundan so'ng, J.Karte ishonch bilan kanata so'zini nom sifatida kartaga tushirgan. Keyincha, kanata so'zining qo'llash areali kengaygan va hozirda Shimoliy Amerikani katta hududini qamrab olgan Kanada davlatining nomiga aylangan.

Mutaxassislarning aniqlashicha, indeyslar toponimiyasi semantik jihatdan bir necha turga bo'linadi: tabiiy sharoitlarni aks etuvchi toponimlar, etnotoponimlar, diniy e'tiqodlar bilan bog'liq nomlar, antroponimlar va hokazo. Submintaqa gidronimiyasida indeys elementlari salmoqli o'rin egallaydi va ba'zan buni indeys gidroformantlarining tarqalish areali orqali kuzatish mumkin. Masalan, atabaska gidronimlari tarkibida *-tin*, *-din*, *-ti* topoformantlari ancha sermahsul hisoblanadi.

Yirik gidronimik ob'ektlar, xususan daryo va ko'llar nomlarida submintaqaning tabiiy xususiyatlari mujassam: *Ayova* – «tinch daryo», *Viskonsin* – «ming orollar daryosi», *Missisipi* – «katta suv», *Missuri* – «loyqa suv», *Niagara* – «shovqinli suv», *Yukon* – «katta daryo», *Vinnipeg* – «loyqa suv», *Michigan* – «katta ko'l», *Ogayo* – «ko'rkam daryo», *Ontario* – «chiroyli ko'l», *Saskachevan* – «qayirma daryo», *Tennesi* – «daryo» va hokazo. Mintaqada etnonimlar asosida paydo bo'lgan gidronimlar ham bor: *Arkanzas*, *Assiniboyni*, *Atabaska*, *Guron*, *Illinoys*, *Kanzas*, *Moxok*, *Onayda*, *Ottava*, *Tanana*, *Eri* va boshqalar. Shuni ham ta'kidlash joizki, submintaqa oronimlarining kelib chiqishi ko'p hollarda yevropa tillari bilan bog'liq, ammo ular orasida mahalliy tillar asosida shakllangan nomlar ham mavjud. Masalan, *Allegani*, *Appalachi*, *Adirondak* va hokazo.

Submintaqadagi ayrim yirik shaharlar nomiga indeys etnonimlari va gidronimlari asos bo'lgan. Bular qatoriga *Miluoki* («ko'rkam joy»), *Chikago* («sasiq suv»), *Mayami* («yarim orolda yashovchilar»), *Kvebek* («daryo qayiri»), *Konnektikut* («uzun daryo»), *Massachusets* («baland tepa odamlari»), *Kentukki* («tekislik»), *Yuta* («balandda yashovchilar»), *Alabama* («o'tdan tozalovchilar») kiritish mumkin. Amerika Qo'shma Shtatlaridagi 23 ta shtatni (jami 50 ta) nomlashda (Alabama, Arkanzas, Ayova, Dakota, Kanzas, Missuri, Michigan, Oklaxoma, Texas, Yuta va boshqalar) indeys etnonimlari asos bo'lib xizmat qilgan.

Indeyslar tili negizida shakllangan joy nomlari orasida tasodifiy yoki rasmiy tarzda, ya'ni bosqinchilar xohishi bilan paydo bo'lgan nomlar ham bor. Ulardan biri, 1890 yilda yangi tashkil etilgan *Vayoming* shtati nomidir. Dastlab, shtatga *Shayenn* – mahalliy indeyslar qabilasining

nomi taklif qilingan. Ammo, oq tanli amerikaliklarga vatanga muhabbat va sadoqat timsoli bo'lgan *Vayoming* nomi ma'qul bo'lgan. Gap shundaki, XVIII asrda Pensilvaniyani bosib olgan inglizlar *Vayoming* vodiysida yashovchi kolonistlarni qirib tashlagan.

Amerikalik taniqli shoir *T.Kempbell* bu fojiali voqea haqida «*Vayomingli Getruda*» nomli doston yozgan. Asar tez vaqtda shuhrat qozongan va bu fojiali voqeani abadiylashtirish maqsadida, amerikaliklar mamlakat sharqidagi uncha katta bo'lmagan *Vayoming* vodiysi (indeys – delavarlar tilida *vayoming*– «keng tekislik») nomini, g'arbdagi maydoni ancha katta bo'lgan (253,6 ming km.kv.) yangi shtatga berishgan. Qabila nomi *Shayenn* shtatning ma'muriy markazi nomiga aylangan.

Submintaqaning yevropa tili toponimiyasi nihoyat xilma-xil va ularda Shimoliy Amerikani zabt etish va o'zlashtirish bosqichlari aniq aks etgan. Yevropacha geografik nomlarning asosiy qismini inglizcha nomlar tashkil etadi. Ularni ingliz tilining hozirgi holati bilan oson talqin qilish mumkin: *Leyk – Plesid*– «linch ko'l», *Blu-Mauntins* – «yashil tog'lar», *Biver – Krik* – «qunduzli daryo», *Rok-Springs* – «qoyali irmoq», *Solt-Leyk-Siti* – «katta tuz ko'li shahri», *Uayt-River* – «oq daryo» va hokazo.

Tabiiy, tasviriy xususiyatlarga ega bo'lgan nomlar hamda antropotoponimlar submintaqada ancha keng tarqalgan. Ular orasida diniy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan geografik nomlar alohida bir guruhni tashkil etadi: *Filadelfiya* (1682 yili dindorlar tomonidan asos solingan va «birodarlik muhabhati shahri» deb izohlanadi), *Palestayn* (Falastin), *Betlexem* (Vifleem), *Lebanon* (Livan), *Nyu-Galili* (Galileya), *Nuzaret*, *Ierusalim* (Quddus), *Golgofa* (Iso chormix qilinish qatl etilgan joy) kabi nomlarni shular qatoriga kiritish mumkin. Submintaqada psevdoklassik nomlar ham uchraydi (*Ilion*, *Kroton*, *Itaka*, *Arkadiya*, *Troy*, *Sirakuza*, *Delfi* va hokazo).

Shimoliy Amerikaga birinchilar qatorida ko'chib kelganlar tomonidan ramziy nomlar ham berilgan: *Liberti* – «ozodlik», *Payoners* – «pioner», *Prosperiti* – «taraqqiyot», *Independens* – «mustaqillik», *Yunion* – «ittifoq», *Eldorado* – «oltinli o'lka» va boshqalar. Ba'zan mintaqa geografik ob'ektlarining rasmiy nomi bilan bir qatorda ularni norasmiy nomlari ham bor. Masalan, AQSH ning ayrim shtat va shaharlarining norasmiy, laqabsimon nomi barchaga tanish va ular keng va hamaol qo'llaniladi. Ta'kidlash joizki, bunday norasmiy nomlarni

ko'pchilik hiladi, u hatto geografik ob'ektning asl nomiga qaraganda ham mashhurroq. Chunonchi, Kolorado – «yuz yillik shtat», Nyu-Meksiko – «serquyosh shtat», Texas – «bo'ronlar shtati» va hokazo.

«Yangi dunyo» nomi bilan tanilgan Amerika qit'asi kashf etilgandan keyin, yevropadan ko'plab odamlar yangicha hayot va katta boylik topish ilinjida ko'chib kelishgan. Ular bilan birga Yevropadan ayrim nomlar ham «ko'chib» borgan. Shu sababdan, ko'chma toponimlar orasida *nyu* – «yangi» qo'shimchali nomlar ko'p: *Nyu-York*, *Nyu-Boston*, *Nyu-Gloster*, *Nyu-London*, *Nyu-Kamberlend*, *Nyu-Jersi*, *Nyu-Xempshir* va hokazo. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, AQSH ni shimoliy-sharqiy qismidagi (Yangi Angliya) oykonimlarning salkam 20 foizi ko'chma nomlar hissasiga to'g'ri keladi. Masalan, Boston shahri (*Massachusetts shtati*) atrofida *Kembridj*, *Bedford*, *Nortvud*, *Manchester*, *Portsmut*, *Gloster*, kabi Buyuk Britaniyadagi shaharlar nomi uchraydi.

XIX asrning mashhur fransuz geografi *Elize Reklyu*, o'zining «Er va odamlar» asarida bu haqda shunday yozgan: «Amerikaliklar o'z avlodlari singari yangi joylarga nom tanlashda ko'pincha tabiiy-geografik omillarni inobatga olgan yoki tarixiy vatanlarini qumsab nomlashdan boshqa iloji qolmagan. Shu sababdan, «Ko'hna dunyo»da hozirda mavjud bo'lgan yoki bo'lmagan har bir shaharni, «Yangi dunyo» da o'z egizagi bor: *Vavilon* va *Memfis*, *Kanton* va *Deli*, *Afina* va *Rim*, *Parij* va *London*. Shubhasiz, vatan tuyg'usi ularning har biriga qadrdon bo'lgan ona shahri nomini, yangi vatanlarida takrorlashga undagan ...».

AQSH ning janubiy-g'arbida hamda Floridada ispancha nomlarning areali ancha keng va ular hudud toponimiyasi tarkibida salmoqli o'rin egallaydi. Chunonchi, Arizona (Ali-shonak – «kichik irmoq o'rni») va Kaliforniya (California – «oltin va qimmatbaho toshlarga boy joy») shtatlarining ayrim hududlarida ispancha nomlar 50 foizgacha yetadi. Ispancha toponimlar orasida tabiiy-geografik omillar va diniy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan nomlar yetakchilik qiladi: *Florida* – «guliston, ko'kalamzor» (1513 yili – pasxa kunida shu zaminga ispanlarni ilk qadam qo'yganlari sharafiga shunday atalgan), *Los-Andjeles* – «farishtalar shahri», *San-Diego* (san, santa – «muqaddas»), *Santa-Barbara*, *San-Antonio*, *Santa-Monika*, *Sakramento* – «sirli hadya», *Sangre-de-Kristo* – «Iso Masih qoni», *Santa-Fe* – «muqaddas e'tiqod»; *Kolorado* – «qizil», *Rio-Grande* – «katta daryo», *El-Paso* – «kechuv», *Salinas* – «sho'r» va boshqalar.

Ma'lumki, Florida yarim orolining janubidagi burun *Kanaveral* deb ataladi. Nom yarim orolning eng janubiy nuqtasiga birinchi bo'lib kelgan ispan dengizchilari tomonidan berilgan. Ispan tilida *Canaveral* – «shakarpani uch ko'p o'sadigan joy». Ushbu nomning inglizcha kalkasi *Sane brake* – «shakarpani uchli joy» va u ham hozirgacha qo'llanib kelinadi. 1963-1973 yillarda AQSH prezidenti *Jon Kennedi* (1917-1963) atamaga Kennedi burni deb ham atalgan. Kanaveralda AQSH ni maktablari shu yerdan o'tkaziladigan poligoni va kosmik kemalar uchiriladigan kosmonavtlar joylashgan.

Submintaqada fransuzcha toponimlarning ikkita asosiy uchog'i mavjud: birinchisi – Kanadani Kvebek provintsiyasi, ikkinchisi – AQSH ni mag' cheparadosh hududlari hamda Luiziana shtati. Kelib chiqishi fransuz tili bilan bog'liq bo'lgan geografik nomlarga *Detroit, Montreal, Val-d'Or, Tena River, Vermont, Yangi Orlean, Baton-Ruj* va boshqalar misol bo'ladi. Baton-Ruj – Luiziana shtatining ma'muriy markazi. Shaharga 1719 yili fransuz muhojirlari asos solgan. Ular joyning mahalliy indeyscha *Istrouma* – «qizil langar» nomini, fransuz tiliga *Baton-Ruj* (*Baton Rouge*) – «qizil tayoq» shaklida aynan tarjima qilib, aholi punktiga berishgan. Indeyslarda qizil langar belgi sifatida qabila chegarasi yoki uning ov qilish hududini bildirgan.

Submintaqada slavyanacha (ruscha) nomlarning areali uncha keng emas, ular ko'proq Alyaska, Kanada va Kaliforniyada uchraydi. Muta-xassislarining fikricha, faqat ayrim orollar (*Semisopohniy, Rabi, Dalguy* va boshqa va aholi punktlari (*Beluga, Baranovo*) slavyanacha (ruscha) nomlari saqlanib qolgan. Odatda, slavyanacha toponimlar ingliz tili ta'sirida qisman o'zgargan yoki inglizcha nomlar bilan almashtirilgan. Submintaqadagi slavyanacha toponimlarning bir qismini memorial va ko'chma nomlar tashkil etadi. Ular qatoriga *Odessa, Borodino, Sankt-Piterburg, Kiev*, 20 ga yaqin *Moskou* – Moskva kabi nomlarni kiritish mumkin.

Skandinaviyaga xos toponimlar Grenlandiya orolida ko'proq uchraydi. Ular asosan X asrda normann Eyrik Torvaldsson (*Raudi*) tomonidan orol kashf etilgandan so'ng paydo bo'lgan. Orolida *sunn* – «bo'g'oz», *xavn* – «handargoh», *fyord, borg* – «qal'a, shahar» kabi skandinaviya toponimiyasida an'anaviy bo'lgan terminlar toponimlar tarkibida ko'p uchraydi. Ular qatoriga *Kraulxavn, Karrats-fyord, Danels-fyord, Xolsteynshorg, Skorbisunn, Feringexavn, Syonre-Stremfyord* kabi joy nomlarini kiritish mumkin. Grenlandiyada dan tiliga (*Daniyaning*



rasmiy tili) mansub bo'lgan *xob* – «umid» terminini yordamida ham bir qancha geografik nomlar yaratilgan: *Gotxob*, *Frederiksxob*, *Yulianexob*, *Kristiansxob* va boshqalar. *Gotxob* – orolning ma'muriy markazi. Shaharga 1727 yili asos solingan, dat tilida *Godthab* – «yaxshi umid» (*god* – «yaxshi», *hab* – «umid») ma'nosini bildiradi.

Submintaqada yevropani boshqa tillari asosida paydo bo'lgan nomlar ham ko'plab topiladi: portugolcha (*Nyufaundlend*), nemischa (*Pensilvaniya*), fin tilidagi (*Minnesota*) va boshqalar. Tarixiy manbalardan ma'lumki, Grenlandiya va Kanada Arktikasi arxipelagi turli davlatlar sayyohlari tomonidan tadqiq qilingan. Shu bois, ushbu hududagi memorial nomlar internatsional xarakterga ega. Masalan, *Morris-Djesup* (quruqlikdagi eng shimoliy nuqta), *Gunbern* (orolining eng baland nuqtasi), *Qirol Xristian IX yeri*, *Knud Rasmussen yeri*, *Piri yeri*, *Merchison burni*, *Gudzon qo'ltig'i* va hokazo. AQSH va Kanadadagi memorial nomlarda davlat arboblari, sayyohlar, sarkardalar va boshqa buyuk shaxslarning nomlari mo'hlangan. Chunonchi, Shimoliy Amerikaning eng baland nuqtasi *Mak-Kinli* (6193 m.), AQSH ning 25-prezidenti (1897-1901) Uilyam Mak-Kinli (1843-1901) sharafiga berilgan nom.

**Meksika va Markaziy Amerika toponimiyasi.** Markaziy Amerika – Shimoliy Amerikaning janubiy qismi. Meksika tog'ligining janubiy etagidagi *Balsas* botig'idan *Daryen* bo'ynigacha bo'lgan hudud (ba'zan Markaziy Amerika chegarasini *Teuantepek* va *Panama* bo'yinlari orqali o'tkazadilar). Markaziy Amerika hududida *Meksika*, *Gvatemala*, *Gonduras*, *Nikaragua*, *Kosta-Rika*, *Panama*, *Beliz* davlatlari joylashgan. Meksika va Markaziy Amerika toponimiyasi ikkita asosiy toponimik qatlamdan iborat: tub joy (substrat) hozirgacha yaxshi saqlangan indeys va yevropa (ispan) toponimlari.

Indeys toponimik qatlami mintaqada bo'ylab notekis taqsimlangan va substrat nomlar turli mahalliy tillarda (naxua, meskito, mayya va boshq.) yaratilgan. Ular orasida naxua toponimlari salmoqli o'rin egallaydi (atsteklar tili ham shu guruhga kiradi). Geografik nomlar tarkibidagi asosiy topofomantlar: *-tla*, *-tlan*, *-ko*, *-pan*, *-kan* (*Akaxutla*, *Uistla*, *Tesyutlan*, *Masatlan*, *Okotlan*, *Mexiko*, *Tlaxyako*, *Tekpan*, *Tuspan*, *Kulyakan*, *Teuakan* va boshqalar). Naxua indeyslari tilida *-galpa* – «uy» ma'nosidagi formant ancha sermahsul hisoblanadi: *Teugusigalpa*, *Matagalpa*, *Uigalpa*. Submintaqa oronimlari tarkibida *tepetl*– «tog'», (*Popokatepetl*, *Sitaltepetl*, *Koatpetl*), va atstek indeyslari

tilidagi *tepek* – “tog” terminlari ko‘plab joy nomlari hosil qilgan: *Mamalan, Siguatepek, Tetsontepek, Teotepek, Xikotepek* va hokazo.

*Chichen Itza, Ushmal, Tikal, Mayyapan, Yukatan, Kopan* kabi geografik nomlarning kelib chiqishi mayya tili bilan bog‘liq. Mayya ayollari Meksika, Gonduras, Gvatemala davlatlari hududida yashaydi va Amerikaning eng qadimgi madaniyatini yaratgan xalqlardan biridir. Yukatan yarim orolining janubiy-sharqida joylashgan *Beliz* davlatining oqim havo mayya tili bilan bog‘liq. Tarixiy manbalarga qaraganda, XVI asrdan Beliz hududida indeys qabilalari yashagan. XVI asr boshida ushbu hududni ispanlar bosib olgan va ularning mustamlaka yeri bo‘lgan. Davlat nomiga aylangan *Beliz* so‘zi mayya indeyslari tilida – «Itsa yo‘lida» degan ma‘noni beradi. Mayyaliklarni qadimiy shahri bo‘lgan *Chichen Itzami* («Itza qabilasi qudug‘i») hozirda faqat xarobalari saqlanib qolgan.

Hozirgi kunda ko‘pchilikka tanish bo‘lgan *Yukatan* (indeyslar tilida – «to‘shumadim») yarim orolining nomini paydo bo‘lish tarixi qiziq: 1492 yili ispan konkistadori *Fransisko Kordoba* yangi yerlarni ochish va ko‘p boyliklar topish ilinjida Kubadan yo‘lga chiqadi. Noma‘lum sohil yuqinida ispan kemalarini indeyslar qurshab oladi. Kapitan Kordoba bu qanday yer deb mahalliy aholidan so‘raganda, indeyslar *Yukatan* deb javob berishgan. *Yukatan* yarim orolining rel‘efi asosan oloktoshlardan tashkil topgan tekislik, oqar suvlar yo‘q, suv bilan ta‘minlanadigan kars qadug‘larining ahamiyati katta. Shu sababdan, yarim orolda mayya tilidagi kars hodisasi bilan bog‘liq bo‘lgan *senote* – «qum, g‘ondagi toza suv manbai» termini joy nomlari tarkibida keng qo‘llanilgan. Meksikaning markaziy qismida atsteklargacha bo‘lgan va arxivlashgan qadimiy joy nomlari uchraydi. Ularni talqini alohida tadqiqotlarni talab qiladi.

Turli tillarga mansub bo‘lgan indeyslar toponimiyasi semantik jihatdan ham bir necha toifalarga bo‘linadi: antrotoponimlar – *Kuautemok, Nikaragua* (Nikarao – indeyslar qabilasi boshlig‘ining nomi), diniy-afsonaviy nomlar – *Mexiko* (atsteklarda urush xudosi), *Koatsakoalkos* va boshqalar. Mintaqaning tabiiy sharoitini aks etadigan geografik nomlar alohida ajralib turadi. Masalan, *Panama* – «baliqli joy», *Tepanapan* – «toshloq joy», *Teuantepek* – «yovvoyi hayvonlar tog‘i», *Gvatemala* – «o‘rmonli joy», *Akapulko* – «shakarqamish ko‘p o‘sadigan joy», *Tenochtitlan* – «kaktusli qoya» va hokazo.

Ispan va indeys tillari elementlaridan tarkib topgan gibrid nomlar mintaqa toponimiyasining yana bir o‘ziga xos xususiyatidir. Kompozit

nomlar asosan keyingi davrlarda paydo bo'lgan va ularga *Myauatlan-de-Porfirio-Dias*, *San-Andres-Tustla*, *Uaxuapan-de-Leon*, *Tustla-Guterres* kabi toponimlar misol bo'ladi. Markaziy Amerikani bosib olgan ispanlar ko'pincha boy yerlarni, xususan, oltinga boy hududlarni topish maqsadida turli ekspeditsiyalar tashkil etgan. Bu holat mintaqa davlatlari nomida ham o'z aksini topgan. Masalan, Kosta-Rika – “boy sohil”, dastlab Costa del Oro – “oltin sohil”, Puerto-Riko – “boy qo'ltiq” va hokazo.

Submintaqa toponimiyasida ispancha nomlar eng baquvvat qatlamni tashkil etadi. Tabiiyki, ular Amerika kashf etilgandan keyin paydo bo'lgan. Kristofor Kolumb to'rtinchi ekspeditsiyasi vaqtida (1502 y.) Markaziy Amerikadagi qirg'oq suvlari ancha chuqur bo'lgan qo'ltiqni aniqlagan va unga Onduras – (ispancha, hondura – «chuqurlik») deb nom bergan. Keyincha, bu nom Gonduras shaklida qo'ltiq sohilidagi hududlarga nisbatan ham qo'llanilgan. 1821 yili yangi paydo bo'lgan mustaqil davlatga ham *Gonduras* nomini berilgan. Panama hududini ispanlar mustamlaka qilib olgunga qadar, bu yerda kuna, guarani, chokova va boshqa 60 dan ortiq indeys qabilalari yashagan. Panama nomi – kuna indeyslari tilida – “baliqqa boy joy” degan ma'noni anglatadi. Gvatemala – atstek indeyslari tilida Guauhtemallan – “o'rmonli joy”.

Ispancha joy nomlari orasida diniy marosimlar, katoliklar bayramlar va ilohiylashgan shaxslar nomi bilan atalgan toponimlar alohida bir guruhni tashkil etadi. Bunday nomlar tarkibida ko'pincha *san-*, *santa* – “muqaddas” termini uchraydi. *San-Salvador*, *San-Lasaro*, *Santa-Margarita*, *San-Fernando*, *San-Markos*, *San-Xose*, *Santo-Domingo*, *Santiyago* va hokazo. *Nombre-de-Dyos* – «xudo nomi», *Verakrus* – «muqaddas salib», *Salvador* – “xaloskor”, *Las-Tres-Virxenes* – «uch farishta», *Todos-Santos* – «harcha avliyolar» kabi geografik nomlarni ham shu toifaga kiritish mumkin.

Ispaniyadan muhojirlar bilan birga Markaziy Amerikaga kelgan ko'chma (migrant) toponimlar soni ham ancha ko'p: *Gvadalaxara*, *Salamanka*, *Leon*, *Kordova*, *Valyadolid* va boshqalar. Masalan, Gvadalaxara – arab tilida *wadi al-xajra* – «toshloq joydagi daryo» ma'nosini anglatadi. Ushbu nomni arablar Perineya yarim orolini bosib olingan vaqtda Ispaniyadagi daryoga berishgan. 1530 yilda Markaziy Amerikani bosib olgan ispan bosqinchilari shaharga asos solib, uni Gvadalaxara deb atashgan. Keyincha, Gvadalaxara – butun Markaziy Amerikani mustamlakaga aylantirishda tayanch punkti vazifasini bajar-

gan. Hozirda ushbu millioner shahar G'arbiy Meksikaning iqtisodiy markazi hisoblanadi.

Suhurintaqada ispan tilidagi *serra* – «tog'», *agua*– «suv», *bayya*– «qo'lliq», *ayudad* – «shahar», *vilya* – «qishloq» kabi terminlar toponimlar tuzilishida faol qatnashgan. Meksika va Markaziy Amerika xalqlarining ozodlik uchun kurashini ifoda etadigan ramziy toponimlar ham bor, ammo ular keyingi davrlar mahsulidir. *La-Libertad* – «ozodlik», *Epoca de Independensiya* – *independens*– «mustaqillik», *Progreso* – «taraqqiyot» va hokazo. Yevropani boshqa tillariga xos bo'lgan geografik nomlar mintaquda son jihatdan ko'p emas. Tahlillarga ko'ra faqat Heliz va Panama kumoli atrofida ayrim inglizcha nomlarni (*Stann-Krik*, *Nyu Providens*, *Gold Xill*) uchratish mumkin.

**Vest-Indiya toponimiyasi.** Vest-Indiya – (inglizcha *West Indies* – aynan G'arbiy Hindiston), Atlantika okeanining Karib dengizi havzasida joylashgan, shimoliy Amerikaga mansub, bir necha ming orolning umumiy nomi. Vest-Indiyada *Antigua va Barbuda*, *Bagama Orollari*, *Barbados*, *Gaiti*, *Grenada*, *Dominikan Respublikasi*, *Kuba*, *Sent-Vinsent*, *Trinidad va Tabago*, *Yamayka* davlatlari hamda *Buyuk Britaniya*, *Niderlandiya*, *Frantsiya* va *AQSH* mulklari bor. Xristofor Kolumb orollarning ko'pchiligini 1492-1502 yillarda Hindistonga dengiz orqali g'arbdan boradigan yo'lni qidirish vaqtida kashf qilgan va ularni Hindiston deb atagan. XVI asr boshida yevropaliklar tomonidan, haqiqiy Hindiston kashf qilingandan keyin, ushbu orollarning umumiy nomiga *West* – «G'arbiy» so'zi qo'shilgan.

Vest-Indiya toponimiyasi boshqa mintaqalarga qaraganda bir qator o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Shu sababdan, toponimist olimlar mintaqa toponimiyasini ikkita son jihatdan o'zaro teng bo'lmagan toponimik qatlama ajratishadi: birinchisi, deyarli saqlanmagan substrat tubjoy (aborigen) nomlar; ikkinchisi, bir-biridan katta farq qiladigan yevropacha nomlar qatlami.

Toponimist olimlarning fikricha, Amerika qit'asining boshqa mintaqalariga nisbatan Vest-Indiyaning tubjoy toponimiyasi ko'proq talafot ko'rgan. Bunga arxipelagni kashf etilishi va turli Yevropa davlatlari mulkiga aylantirish jarayoni asosiy sabab bo'lgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, yevropaliklar qisqa muddat ichida ko'pgina mahalliy xalqlarni qirib tashlagan. Natijada, tubjoy toponimlar saqlanib qolmagan yoki transformatsiyalashgan holda, ma'no-mazmuni mavhumlashib hozirgacha yetib kelgan.

Orollarda yashovchi mahalliy aholi (aravaklar, kariblar va boshq.) tomonidan yaratilgan nomlar kam bo'lsa ham, hozirgacha saqlanib qolgan va ularga *Bagama*, *Kuba*, *Gaiti* (*Axiti* – «tog'li»), *Yamayka* (*Xaymaka* – «buloqlar oroli»), *Tobago* (*tambaka* – «chekish uchun moslama»), *Aruha* (aravak etnonimidan), *Karib* dengizi (karib – «mard, jangchi» etnonimidan) kabi nomlar misol bo'ladi. Yamayka orolida qadimdan aravak qabilalari yashagan. Orolga yevropaliklardan birinchi bo'lib, 1494 yili X.Kolumb ekspeditsiyasi borib tushgan va unga *Santyago* nomini berishgan. 1601 yili orolni qadimiy indeyscha *Xaymaka* – «buloqlar oroli» nomi qayta tiklandi. 1655 yili orolni ingliz mustamlakachilari bosib olib uni nomini *Jamaica* deb talaffuz qilishgan. Orolida joylashgan davlat nomining ruscha shakli Yamayka, keyincha u hech qanday o'zgarishsiz o'zbek tiliga ham o'zlashgan.

Vest-Indiyada yevropaliklar tili bilan bog'liq bo'lgan toponimik qatlam lisoniy va semantik jihatdan turlicha. Ular orasida ayniqsa ispancha geografik nomlar mintaqada keng tarqalganligi va son jihatdan boshqalarga (ingliz, fransuz, golland, portugal) nisbatan ko'pligi bilan ajralib turadi. Masalan, Kuba toponimiyasi tarkibida ispancha *sabana* – «ochiq maydon, baland o'tli tekislik», ma'nosidagi termin yordamida bir qancha joy nomlari yaratilgan. *Gavana*, *Sabana*, *Sabanaso* kabi nomlar bunga misol bo'ladi. Yuqorida ta'kidlagandek, ispancha toponimlar orasida diniy e'tiqodlar bilan bog'liq nomlar ustunlik qiladi. Sababi, buyuk geografik kashfiyotlar davrida yangi orolni kashf qilinishi yoki shaharga asos solinishi biron-bir diniy marosim yoki katolik avliyolari kuniga to'g'ri kelsa, ispanlarda yangi geografik ob'ektga uni nomini berish an'anasi mavjud bo'lgan.

Sodda qilib aytganda, *Dominika* – «yakshanba», *Santo-Domingo* – «muqaddas yakshanba», *Sankti-Spiritus* – «muqaddas ruh», *Virginiya* – lotincha, *virgo* – «bokira», *Santyago-de-Kuba* – «Kubadagi avliyo Yakov», *San-Xuan* – avliyo Xuan, *San-Antonio* – avliyo Antonio, *Santa-Krus* – «muqaddas salib» kabi nomlar shu yo'sinda paydo bo'lgan. Mintaqada tabiiy landshaft turlarini aks etadigan va tasviriy xarakterga ega bo'lgan toponimlar ham ko'p uchraydi: *La-Tortuga* – «toshbaqali», *Pinos* – «qarag'ayzor», *Aves* – «qushlar makoni», *Los-Rokes* – «qoyali joy», *Los-Kolorados* – «qizil orollari», *Xardines-de-la-Reyna* – «qirolicha bog'lari», *Margarita* – «marvaridli» va hokazo.

Vest-Indiya orollari bir necha asrlar davomida turli yevropa davlatlari mulkiga aylangan va bu holat geografik nomlarda ham o'z aksini

topgan. Shu sababdan, maydoni uncha katta bo'lmagan mintaqada yevropani turli tillariga (ingliz, fransuz, golland, portugal, dat tili) mansub bo'lgan toponimik elementlarni uchratish mumkin. Masalan, Fransiya qaramog'ida bo'lgan Gaiti g'arbida (*Jeremi, Ans d'Eno, Dam-Mari* va boshq.), Kichik Antil orollarida (Martinikada – *Mon-Pele* – «so'qir top'», *For-de-Frans* – «fransuzlar qal'asi», *Sen-Pyer, Sen-Mari, Fransua* va boshq.; Gvadelupada – *Bas – Ter* – «past yer», *Port-Lui, Le Mal* va boshq.) kabi fransuzcha geografik nomlar uchraydi.

Yana bir qator Kichik Antil orollari Angliya tasarrufida bo'lganligi bois, inglizcha toponimlar keng tarqalgan (*Kingston, Uilyamsfild, Kingstaun, Djorjtaun, Bridjtaun, Plimut, Kodrington* va boshq.). Niderlandlar Vest-Iudiyasida esa gollandcha nomlarni (*Oranestad, Villedstad* va boshq.) uchratish mumkin. Virginiya orolining Daniya qaramida bo'lgan qismida dat tiliga xos (*Frederiksted, Kristiansted*) bo'lgan nomlar paydo bo'lgan.

Qizig'i shundaki, Vest-Iudiya tarkihidagi ayrim orollarda turli yevropa tillariga xos bo'lgan toponimik areallarning o'zaro kesishuvini ham ko'rish mumkin. Bunday hodisaga orollar va arxipelaglarni o'tmishdagi tarixi hamda yuqorida qayd qilingandek, yevropa davlatlarining hukmronligini o'zgarishi sabab bo'lgan. Masalan, Gaiti orolini 1492 yilda X.Kolumb kashf etgan va uni Espanola deb atagan. XVII asrning oxirida orolning g'arbiy qismi Fransiya qaram hududga aylangan va ushbu hududda fransuzcha nomlar ko'paygan. Orolning qolgan qismi o'sha davrda Ispaniyaga tegishli bo'lganligi bois, ispancha nomlar paydo bo'lgan.

Dominika orolini 1493 yili X.Kolumb kashf etgan bo'lsa ham, orol uzoq vaqt fransuzlar va inglizlar o'rtasida talash bo'lib kelgan va bu holat, orolda fransuzcha (*Rozo, Dyablolen*) va inglizcha (*Skots-Xed, Uesli, Portsmut*) nomlarning alohida areallarini paydo bo'lishiga olib kelgan. 1763 yilgi Parij shartnomasiga asosan orol uzil-kesil Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylandi.

Xuddi shu holatni Trinidad va Tabago orollari toponimiyasi tarkihida ham kuzatish mumkin. Ushbu orollarda qadimdan indeyslar yashab kelgan. XV asrda orollarga yetib kelgan ispanlar bu yerni mustamlakaga aylantirdi va mahalliy aholining deyarli hammasini qirib tashladi. 1797 yili inglizlar Trinidadni bosib oldi va u 1802 yildan boshlab, rasman Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylandi. 1814 yili Tobago ham inglizlarga qaram bo'ldi. Hozirgi vaqtda maydoni uncha katta bo'lma-

gan bu orollarda indeys (*Guayaguayare, Chaguanas*), ispan (*Rio-Klaro, Sangre-Grande*), fransuz (*Puent-a Pyer, San-Susi*), ingliz (*Port-of-Speyn, Poynt-Fortin*) tillariga xos bo'lgan nomlarning alohida toponimik areallari mavjud.

**Savol va topshiriqlar:**

1. Alyaska va Grenlandiya toponimiyasining o'zaro taqqoslab ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.

2. Meksika va Markaziy Amerikada ispancha toponimlar orasida diniy e'tiqodlar bilan bog'liq nomlarni ko'pligini qanday izohlaysiz?

3. Vest-Indiya toponimiyasi boshqa mintaqalarga qaraganda qanday o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi?

**Test topshiriqlari**

1. Indeyslar tilidan olingan AQSH shtatlari nomining soni qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. 33 ta shtat
- B. 23 ta shtat
- C. 43 ta shtat
- D. 13 ta shtat

2. Shimoliy Amerikadagi kelib chiqishi fransuz tili bilan bog'liq bo'lgan geografik nomlar qatorini belgilang.

- A. Bagama, Kuba, Gaiti.
- B. Mexiko, Florida, Texas
- C. Detroyt, Monreal, Vermont.
- D. Djorjtaun, Bridjtaun, Plimut.

3. AQSH ni qaysi qismida ispancha nomlarning areali ancha keng?

- A. Alyaska va Gavay orollarida
- B. Arizona va Kaliforniya shtatlarida
- C. Texas va Florida shtatlarida
- D. Washington va Nyu-Yorkda

4. Markaziy Amerikadagi gibrid nomlarning asosiy qismi qaysi tillarga mansub?

- A. Ispan va indeys tillariga
- B. Ingliz va ispan tillariga
- C. Fransuz va indeys tillarga
- D. Indeyslar va ingliz tillarga

5. Vest-Indiya tubjoy toponimiyasining ko'proq talafot ko'rishiga sabab nima?

A. Arxipelagni kashf etilishi va yevropa davlatlari mulkiga aylantirish jarayoni asosiy sabab bo'lgan.

B. Yevropa tillariga xos toponimik areallarning o'zaro kesishuvi sabab bo'lgan.

C. Yevropaliklar qisqa muddat ichida ko'pgina mahalliy xalqlarni qirib tashlagan.

D. Bir necha asrlar davomida turli yevropa davlatlari mulkiga aylanganligi sabab bo'lgan.

## 18.2. Janubiy Amerika toponimiyasi

### *Reja:*

1. Janubiy Amerika toponimiyasining asosiy rivojlanish bosqichlari va hududiy tafovutlari.

2. And toponimiyasining farqlovchi xususiyatlari.

3. Anddan tashqari Sharq toponimiyasi.

**Mavzuning maqsadi:** Janubiy Amerika toponimiyasining asosiy rivojlanish bosqichlari va ularning hududiy tafovutlari hamda submintaqadagi mavjud toponimik qatlamlar haqida ilmiy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

**Tayanch ibora va atamalar:** Toponimik qatlamlar, tubjoy va yevropacha nomlar, ko'chma toponimlar, kompozit nomlar, indeyscha geografik terminlar, And va Anddan tashqari Sharq toponimiyasi.

Janubiy Amerika – g'arbiy yarim sharning janubiy qismidagi materik. Sharqdan Atlantika okeani, g'arbdan Tinch okean o'rab turadi. Shimolda Panama bo'yni orqali Shimoliy Amerika bilan tutash, janubda Dreyk bo'g'ozini orqali Antarktidadan ajraladi. Janubiy Amerika aholisining ko'pchiligi portugal va ispan tillarida gaplashadi. Mahalliy xalqlardan, *kechua*, *aymara*, *atsteklar* o'z ona tilini saqlab qolganlar. Janubiy Amerikaning hozirgi siyosiy kartasi, asosan, submintaqadagi ko'pgina davlatlarning mustaqillik uchun olib borgan kurashi va so'ngi davrlardagi siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar natijasida vujudga kelgan. Hozirda, Janubiy Amerikada *Argentina*, *Boliviya*, *Braziliya*, *Venesuela*,



*Gayana, Kolumbiya, Paragvay, Peru, Surinam, Urugvay, Chili va Ekvador* davlatlari joylashgan.

Submintaqa toponimiyasini o'rgangan olimlar, uni ikkita toponimik qatlamga ajratishgan: tubjoy (indeys) va yevropa (asosan ispan va portugal). Tubjoy (substrat) hisoblangan indeys tillaridagi geografik nomlar mintaqaning barcha hududlarida tarqalgan. Mahalliy xalqlar tiliga xos bo'lgan geografik terminlar, toponim hosil qiluvchi qo'shimcha sifatida keng qo'llanilgan. Diqqatga sazovor joyi shuki, ayrim mahalliy terminlar ispan va portugal tilidagi terminlar bilan birga toponimlar hosil qilishda teng qo'llanilgan.

Buyuk geografik kashfiyotlar davrida (XVI-XVII asr) Janubiy Amerika materigi Ispaniya va Portugaliya tomonidan tadqiq etildi va bu holat butun mintaqa bo'ylab ispan va portugal tillari tez sur'atlar bilan tarqalishiga sabab bo'ldi. Shu sababdan, ispancha va portugalcha nomlar yetakchi mavqega ega va submintaqa toponimiyasining salkam 50 foizini tashkil etadi. Shu narsa diqqatga sazovorki, Yevropaga nisbatan, Janubiy Amerikada ispancha va portugalcha nomlar soni ko'p va ular yaqqol ko'zga tashlanadi. Yevropacha toponimlar so'ngi davrlar mahsuli bo'lganligi bois, ularni tillarning hozirgi holati bilan izohlash mumkin.

Janubiy Amerikani tabiiy sharoiti, siyosiy, ijtimoiy rivojlanish tarixi, aholisining etnik xususiyatlari va hududiy tarqalishini inobatga olib toponimik jihatdan uni shartli ravishda ikki qismga bo'lish mumkin:– *And va Anddan tashqari Sharq*.

**And toponimiyasi.** And – dunyodagi eng uzun (salkam 9000 km.) va eng baland (*Akonkagua* cho'qqisi, 6960 m.) tog' tarmoqlaridan biri. And tog'lari Janubiy Amerikani butun uzunligi bo'ylab g'arb tomonidan o'rab turadi. And – so'zi *ink* indeyslari tilida *anta* – «mis» degan ma'noni anglatadi. Ma'lumki, And tog'larida mis konlari ko'p va mis mintaqasi salkam 4 ming km. masofaga cho'zilgan. Shu bilan birga, qadimda ink indeyslari mis eritishgani ham tarixiy manbalardan qayd qilingan, bu And so'zini etimologiyasini yana bir bor tasdiqlaydi. And toponimiyasi bir qancha o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Birinchidan, indeys toponimlari yaxshi saqlangan va hudud bo'ylab keng tarqalgan. Ularning ko'pchiligi tarixiy manbalarda qayd qilingan. Ikkinchidan, inklarning rivojlangan sivilizatsiyasi ta'sirida mintaqada muayyan toponimik tizim shakllangan.

*Kechua, aymara, araukan* kabi mahalliy xalqlar tilida yaratilgan nomlar mintaqadagi indeyslar toponimiyasining asosiy qismini tashkil

etadi. Kelib chiqishi kechua tili bilan bog'liq bo'lgan geografik nomlar: *Kalyao* («qirg'oq»), *Kusko* («kindik»), *Titikaku* («rudali qoya»), *Ukayali* («qo'shilish»), *Kochabamba* («botqoqli yer») va hokazo. And toponimiyasida sermahsul bo'lgan kechua geografik terminlari: *mayo*, *yako*, *yaku* – «daryo» (*Pilkomayo*, *Putumayo*, *Chachiyako*, *Sarayaku*, *Kopalyaku*, *Amaka-Yaku*), *marka* – «qishloq» (*Bambamarka*, *Kaxamarka*, *Andamarka*), *yunga* – «nam va issiq vodiylar» (*Yungas*, *Yungamarka*, *Yunka Yunka*), *puna* – «baland tog'li tekislik» (*Puna*, *Puna de Atakama*, *Puna de Kakapara*).

Kechua indeyslari tilida *pampa* termini «daraxtlarsiz tekislik» ma'nosiga ega. Ammo, shuni ham qayd qilish kerakki, *pampa* so'zini tarqatish areali kengaygan sari uni ma'no-mazmuni ham o'zgargan. Masalan, Argentinada *pampa* termini hozirda subtropik dasht ma'nosida qo'llaniladi. Chilida bu termin vodiylar orasidagi tekislik, Markaziy And hududida esa balandlikka aloqador bo'lmagan tekis maydon *pampa* deyiladi. And indeyslari toponimlari tarkibida *pampa* (*pamba*, *hamba* shaklida) juda sermahsul termin hisoblanadi: *Atunpamba* *Atsopampa*, *Kilyabamba*, *Kochabamba*, *Moyobamba*, *Pampaxuasi*, *Urubamba* va hokazo. Aymara indeyslari tilidagi *yaguira* – «daryo» va *chuki* – «tog'» terminlari yordamida ham ko'plab geografik nomlar hosil qilingan: *Lakayaguira*, *Challayaguira*, *Salleyaguira*, *Chukisaka*, *Chukihamba*, *Chukikamata* va boshqalar.

Submintaqadagi ko'pchilikka tanish bo'lgan *Atakama* («cho'l»), *Chili* («sovuq») kabi geografik nomlarning kelib chiqishi araukano indeyslari tili bilan bog'liq. Chilida yangi geografik ob'ektlarni nomlashda etnonimlardan foydalanish an'anasi hozirgacha saqlanib qolgan. Masalan, mamlakatda tashkil etilgan yangi viloyatga, araukano indeyslari qabilasi sharafiga *Araukaniya* nomi berildi. Boliviya araukano tiliga xos bo'lgan *churiche* – «botqoqli ko'l», *laufken*, *lauken* – «ko'l» ma'nosidagi terminlar toponimlar tarkibida ko'p uchraydi. *Churiche-de-Paragua*, *Churiche-de-Marimono*, *Uxulaufken*, *Karilauken*, *Futalaufken* kabi nomlar bunga misol bo'ladi.

And toponimiyasida boshqa indeys tillari asos bo'lgan toponimlarni ham uchratish mumkin. Masalan, Kolumbiya poytaxti Bogota shahri nomiga hozirda o'lik hisoblangan *chichba* indeyslari tili asos bo'lgan. Chili va Argentina toponimiyasi tarkibidagi *gasta* – «manzilgoh» termini yordamida paydo bo'lgan *Antofagasta*, *Kalingasta*, *Vichigasta* kabi geografik nomlar, hozirda muomaladan chiqib ketgan *kakana* indeyslari

tili mahsulidir. Tahlillarga ko'ra, And tog'larining eng baland cho'qqilari ham asosan indeyscha nomlar bilan atalgan: *Koropuna*, *Lyulyalyako* – «firibgar», *Uaskaran* – «oq tog'», *Kotopaxi*, *Yerupaxa*, *Akonkagua* va hokazo.

And toponimiyasining yana bir asosiy xususiyati, bu– ispancha nomlarni mintaqada yagona yevropa ustki toponimik qatlamni tashkil etishidir. Mintaqada yevropani boshqa tillariga mansub nomlar deyarli yo'q. Faqat, Chilining janubiy qirg'oqlari atrofida joylashgan ayrim orollarning inglizcha (*Gannover*, *Londonderri*, *Vellington*) nomlari bundan mustasno. Ispancha geografik nomlar semantik jihatdan boshqa mintaqalarga o'xshaydi va ularning asosiy qismini katoliklarni avliyolari va diniy marosimlari bilan bog'liq nomlar hamda ko'chma (migrant) toponimlar tashkil etadi.

E'tirof etish lozimki, o'rganilayotgan hududda ham diniy e'tiqodlar bilan bog'liq nomlar ancha keng tarqalgan: *Santyago*, *San-Silvestre*, *San-Markos*, *Santa-Mariya*, *Magdalena*, *Santa-Klotilde*, *San-Lorenzo* va hokazo. Ba'zan, diniy toponimlar tarkibida mahalliy indeyslar tilida joy bilan bog'liq bo'lgan so'zlarni ham topish mumkin. Masalan, *Santa-Fe-de-Bogota* (hozir Bogota), *Santyago-de-Leon-de-Karakas* (hozir Karakas) va boshqalar.

Karakas – Venesuela poytaxti. Shahar Karib And tog'lari orasidagi vodiya joylashgan. Unga ispanlar 1567 yili, *karakas* indeyslari qishlog'i o'rta asos solishgan va shu davrning an'anasiga ko'ra, katoliklar cherkovi avliyosi *Leonlik Yago* sharafiga *Santyago-de-Leon-de-Karakas* – «Karakaslik va Leonlik avliyo Yago shahri» deb nom berishgan. Shahar nomi tarkibidagi *Leon* Ispaniyadagi tarixiy viloyat va shahar nomi, *Karakas* esa Venesueladagi *karakas* qabilasi yashagan joy. Toponimikadagi soddalashish qonuniyatiga ko'ra, uch tarkibiy qismdan iborat bo'lgan murakkab nomdan, faqat oxirgi qismi saqlanib qolgan.

Ko'chma toponimlarga mintaqadagi *Kartaxena*, *Valensiya*, *Barselona*, *Merida* kabi oykonimlar misol bo'ladi. And toponimiyasida memorial nomlar ham alohida bir guruhni tashkil etadi. *Kolumbiya*, *Kristobal-Kolon shahri*, *Boliviya*, *Bolivar cho'qqisi*, *Sukre*, *Syudad-Oxeda*, *Valdiviya*, *Orelyano* kabi joy nomlari hunga yaqqol misol bo'ladi. Mintaqa tabiiy landshaftlarini aks etgan toponimlar tarkibida oronimik terminlar ko'p uchraydi. Buni real tabiiy sharoit, turli rel'ef shakllari hamda baland va serviqor And tizma tog'larining mavjudligi bilan izohlash mumkin.

Oronimik terminlar orasida *kordilera* – «togʻ tizmasi», aynan «arqon, zanjir» – *Kordilera-Blanka, Kordilera-Merida, Kordilera-Real, Sharqiy va Gʻarbiy Kordilera; altiplano* – «baland plato» – Markaziy Anddagi yassi togʻlar nomi; *nudo* – «togʻ tizmasi» – *Nudo-de-Pasto, barranko* – «jar, chuqur vodiy» – *Barranka, Barrankas* kabi terminlar toponimlar tarkibida koʻproq uchraydi. And toponimiyasida *pueblo, syudad* («shahar»), *puerto* («port»), *bayya* («qoʻltiq»), *ofisina* («pochta stantsiyasi») kabi ispancha terminlar oykonimlar yaratishda keng qoʻllaniladi. Mintaqada tasviriy xususiyatga ega boʻlgan toponimlar ham koʻplab topiladi: *Valparaiso* – «jannat vodiysi», *Vinya-del-Mar* – «dengiz sohilidagi uzumzor», *Portovexo* – «eski port» va hokazo.

**Anddan tashqari Sharq toponimiyasi.** Submintaqa toponimiyasi-ning boshqa hududlardagi joy nomlaridan asosiy farqi shuki, uning ustki toponimik qatlami yevropani turli tillari yordamida shakllangan. Shu sababdan, Anddan tashqari Sharq toponimiyasida ispancha va portugalcha nomlar bilan birga, areallari uncha katta boʻlmagan ingliz, fransuz, golland, nemis tiliga mansub toponimlar ham uchraydi. Submintaqadagi tubjoy (substrat) toponimiya yaxshi saqlangan boʻlsa ham, ammo ularning bir qismi ispan va portugal tillari taʼsirida shakllan oʻzgargan. Binobarin, mintaqada kompozit (gibrid), yaʼni nomning bir qismi yevropacha, ikkinchisi qismi esa mahalliy indeyslar tiliga xos boʻlgan soʻzlardan tarkib topgan toponimlar soni koʻpaygan.

Yuqorida qayd qilgandek, indeyscha toponimlar mintaqa boʻylab keng tarqalgan va ular asosan *aravak* (shimolda), *kechua* (gʻarbda) hamda *tupi-guarani* tillariga xos nomlardir. Xususan, tupi-guarani toponimlarining areali ancha keng va ularni Karib dengizidan to Argentina-gacha boʻlgan hududlarda uchratish mumkin. Mintaqa joy nomlari tarkibida geografik terminlarni ham alohida oʻrni bor. Masalan, materikning sharqiy sohili boʻylab *para* – «daryo» maʼnosidagi gidronimik termin keng tarqalgan. Shu bois, ushbu termin yordamida paydo boʻlgan joy nomlari, jumladan gidronimlar koʻp: *Para, Parana* («katta daryo»), *Paraiba* («yomon daryo»), *Parakuta* («yaxshi daryo»), *Paragvay, Paranaiha, Parapanema, Paramaribo, Parakatu, Paraopeba, Paranan* va hokazo.

Tupi-guarani indeyslari kichik daryo va irmoqlarga nisbatan *igarape* (aynan, «qayiq uchun yoʻl») terminini qoʻllashgan va ular yashaydigan hududlarda *Igarapava, Igarape-Abiu, Igarape-Makako* kabi gidronimlar shu termin bilan bogʻliq holda paydo boʻlgan. Mahalliy indeyslar tilida

*chako* termini alohida ma'no kash etgan. Sababi, ular qadimda to'da bo'lib ov qilishgan va uning alohida bir turini *chako* deb atashgan. Unda bir guruh ovchilar katta hududni o'rab olib, o'ljani markazga haydash maqsadida, maydonni asta-sekin qisqartirib borishgan. Keyinchalik ispanlar orasida Argentina va Paragvaydagi katta hududni egallagan tekisliklarni *chako* deb atash rasm bo'lgan. Masalan, *Gran-Chako* («katta ov maydoni»), unga keyinchā, *Chako-Boreal* («Shimoliy»), *Chako-Sentral* («markaziy») va *Chako-Austral* («janubiy») kabi alohida nomlar berilgan.

Ta'kidlash joizki, tupi-guarani tillarida yaratilgan boshqa toponimlar turi ham ko'p: *Iguasu* («katta suv»), *Urugvay* («qushlar daryosi»), *Jurua* («quyilish joyi»), *Kuritiba* («igna bargli daraxtlar joyi»), *Pernambuku* («daryo irmog'i»), *Itaypu* («sayroqi tosh»), *Guanabara* («yashiringan qo'ltiq»), *Ibera* («zilol suvlar o'lkasi»), *Piaui* («yangi»), *Gviana* («serob o'lka») va hokazo. Aravak indeyslari tilida yaratilgan joy nomlari mintaqaning shimoliy qismida ko'proq uchraydi. Ushbu qabila tarkibidagi *purupuru*, *surina*, *karakas* kabi etnik guruhlar nomi keyinchā, *Purus*, *Surinam*, *Karakas* kabi geografik nomlarning paydo bo'lishida asos vazifasini bajargan.

Orinoko – mintaqadagi daryo nomi, mahalliy *tamanuk* indeyslari qabilasi tilida *orinuku* – «katta daryo» ma'nosini beradi. Orinokoning quyilish joyini 1498 yilda X.Kolumb, 1499 yilda A.Oxeda va A.Vespuchchi ekspeditsiyasi, o'rta oqimini ispan sayyohi Diego Ordas tadqiq qilgan. 1800 yili nemis tabiatshunosi A.Gumbold, fransuz botanigi E.Bonplan bilan birga, Orinoko bo'ylab sayohatga chiqib, uning Amazonka tizimiga tutash ekanligini aniqlashgan.

Amazonka – yer yuzidagi eng sersuv daryo, havzasi maydonining kattaligi jihatidan dunyoda birinchi o'rinda, uzunligi jihatidan esa Nildan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Amazonka nomini paydo bo'lishi haqida quyidagi tarixni bayon qilishgan: 1542 yili hali hech kimga ma'lum bo'lmagan daryo orqali suzib borayotgan ispan konkistadori F. de Orelyani hoshchiligidagi otryad, daryoning o'rta oqimida to'xtab sohilga chiqishadi va qirg'oqda mahalliy xalq bilan to'qnashuv sodir bo'ladi. Mustamlakachilar indeyslarga ayollar rahbarlik qilayotganini ko'rib hayratda qolishadi. Bu voqea ularga qadimgi yunon rivoyatlaridagi jangari ayollar – amazonkalarni eslatadi. Shu sababdan, ular daryoni Rio de las Amazonas – «Amazonkalar daryosi», deb atashgan.

Mintaqada toponim hosil qiluvchi termin sifatida kechua indeyslari tilidagi *pampa* – «o'tloq» so'zi ancha faol, u gibrid nomlar (indeys-

ispan) ham hosil qilgan: *Pampa*, *Pampa-de-las-Salinas*, *Pampa-Tamargual* va hokazo. Shuni ham ta'kidlash joizki, hozirda pampa so'zini geografik termin sifatida qo'llash areali ancha keng va ilmiy geografik adabiyotlarda Janubiy Amerikadagi barcha subtropik dashtlar pampa deyiladi.

Ma'lumki, Braziliyada portugal tili davlat tili hisoblanadi va shu bois, eng haquvvat toponimik qatlamni aynan, portugalcha nomlar tashkil etadi. 1500 yili portugaliyalik dengizchi Pedru Alvares Kabral Braziliya qirg'oqlariga birinchi bo'lib borgan va o'sha davrning an'anasiga ko'ra yangi kashf qilgan o'lkaga portugalcha diniy – *Terra do Vera Cruz* – «muqaddas salib yeri» nomini bergan. Taxminan chorak asrdan so'ng o'lka nomi *Terra do Brasil* – «Brazil yeri» deb o'zgartirilgan va keyinchalik nom soddalashib *Brazil* (-iya) shaklini olgan. Mamlakat nomi *brazil* (portugal tilida *brusa* – «cho'g'; qizargan ko'mir») – daraxti nomi bilan bog'liq. Daraxtdan bo'yoq uchun ishlatiladigan suyuqlik olingan va bu xom ashyo mustamlakachilikning dastlabki yillarida asosiy eksport mahsuloti bo'lgan. Shu sababdan, ushbu daraxt nomi davlat nomiga o'tgan va uning ramziga aylangan.

Portugalcha nomlarning tarkibida geografik terminlar ko'p uchraydi. Ularga tabiiy landshaft turlarini ifoda etuvchi *kabu* – «bo'g'oz» (*Kabu-Branku*, *Kabu-Friu*), *serra* – «log' tizmasi», aynan – «arra» (*Serra-du-Mar*, *Serra-du-Mantikeyra*, *Serra-Dorada*, *Serra-du-Espinyasu*), *kampina* – «ochiq tekislik» (*Kampina-Grandi*, *Kampina-Verdi*, *Kampinas*), *shapada* – «plato» (*Shapada-Diamantina*, *Shapada-du-Araripe*, *Shapadinya*), *kashueyra* – «ostona, sharshara» (*Kashueyra-Grandi*, *Kashueyra-du-Sul*, *Kashueyra-Alta*) kabi terminlar misol bo'ladi.

Mintaqa gidronimlari tarkibida riu– «daryo» so'zi (*Riu-Branku* – «oq daryo», *Riu-Negru* – «qora daryo») ancha sermahsul geografik termini hisoblanadi. Braziliyaliklar nishabligi kichik bo'lgan tekisliklar orqali, ilon izi (meandr) o'zan hosil qilib sokin oqadigan hamda qirg'oqlarni yuvishi natijasida suvi tarkibida oq-sarg'ish zarrachalarni ko'p bo'lganligi sababli ushbu daryoni *Riu-Branku* deyishadi. Braziliyaning janubi-sharqiy qismida tarkibida *pinyal* (*pinerush*, *pineraya pinha* – «qarag'ay» so'zidan) floristik termini mavjud toponimlar ko'p tarqalgan. Igna bargli aukariyalar va doimiy yashil buttalardan iborat kam daraxtli subtropik o'rmonlarni *pinyal* deb atashadi. Mutaxassislarning aniqlashicha, hozirda fitotoponimlar areali o'rmonlarga nisbatan ancha keng va bu holatni o'rmonlar maydonini kamayishi bilan izohlash mumkin.

Braziliya geografik nomlari tarkibida tasviriy va metaforik nomlarni sezilarli o'ri bor: *Belu-Orizonti* – «go'zal ufuq (gorizont)», *Jardineziya* – «bog'zor», *Panorama*, *Kalkanyar* – «tovon», *Korkovado* – «bukri», *Pan-de-Asukar* – «qandli bosh»), memorial nomlar: *Juan-Pesoa*, *Prezidenti-Prudenti*, *Governador-Valadaris* va «yangi dunyo» katolik davlatlarida an'anaviy bo'lgan diniy e'tiqodlar bilan bog'liq nomlar: *Natal*, *San-Fransisku*, *San-Paulu*, *Santa-Katarina*, *Espiritu-Santu* va hokazo.

Braziliyada ayrim psevdoklassik toponimlar ham uchraydi. Masalan, tarkibida qadimgi yunonlarning *polis*– «shahar» termini mavjud bo'lgan *Itapolis*, *Kirinopolis*, *Fernandopolis*, *Anapolis* kabi oykonimlar paydo bo'lgan. Tarkibida *landiya*– «er, o'lka», qo'shimchasi bo'lgan nomlar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi: *Kofelandiya* («kofe o'lkasi»), *Aurilandiya* («oltinli yer»), *Kasilandiya* va boshqalar. Andan tashqari Sharq mintaqasida ispancha nomlar, asosan ispan tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda keng tarqalgan. Mahalliy indeyslar tilida yaratilgan toponimlarning salmog'i bir oz kam. Sababi, ularning aksariyat qismi ispanlar tomonidan yangi nomlar bilan almashtirilgan.

Mintaqada tipik ispancha terminlardan (*rio*, *bayya*, *serra* va boshqalar), tashqari mahalliy terminlar ham uchraydi. Ularga *kuchilya*– «cho'zilgan qir», aynan, «katta pichoq» (*Kuchilya-Grande*, *Kuchilya-de-Aedo qirlari*), *serraniya* – «cho'qqilar guruhi» (*Serraniya-de-la-Serbatana*), *arroyo* – «irmoq» (*Tres-Arroyos*, *Arroyo-Seko*, *Arroyos-i-Esteros*), *kanyada* – «tor vodi, chorva haydaladigan yo'l» (*Kanyada*, *Kanyada-de-Gomes*), *korrientes* – «girdob» (*Korrientes* – Argentina-dagi shahar va provintsiya), *lyanos* – «tekislik» (tekis joylarning umumiy nomi – Boliviya-dagi *Lyanos-Moxos*, *Lyanos-Orinoko*), *rio-salado* – «sho'r daryo» (Argentinadagi sho'r va qurib qoladigan daryolar nomi), *salina* – «sho'rxok» (*Salinas-Grandes*, *Salinas-Chikas* – ko'l, materikni dengiz sathidan eng past nuqtasi–35 m.), *salto* – «sharshara» (*Salto-Grande*, *Salto*) kabi toponimlar misol bo'ladi.

Mintaqadagi diniy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan an'anaviy nomlar: *San-Karlos*, *San-Rafael*, *San-Nikolas* va hokazo. Davlat va jamoat arboblari, harbiy sarkardalar va boshqa mashhur shaxslar sharafiga qo'yilgan memorial nomlar ham ko'p: *Vedma*, *Fortin-Koronel-Fuxenio-Garay*, *Xeneral-Acha*, *Koronel-Suares* va boshqalar. Mintaqada boshqa yevropa tillari asosida shakllangan nomlar ham uchraydi, ammo ularning salmog'i uncha katta emas.

Masalan, inglizcha toponimlarni Gayana (*Djordjtaun, Makenzi, Springlands*), va Folklend orollarida (*Port-Stenli, Charters*), fransuzcha nomlarni Fransiya Gvianasida (*Rejina, Gran-Santi, Sen-Jan, Benvenyu*), gollandcha nomlarni esa Surinam davlatida (*Niv-Amsterdam, Niv-Nikkeri, Groningen, Totness*) uchratish mumkin. Gollandcha nomlar qatoriga Gorn butun nomi ham kiritish mumkin. 1616 yili golland dengizchilari Ya Lamer va V.Sxauten Amerika qit'asining eng chekka nuqtasini aniqlab, uning V.Sxautenning ona shahri bo'lgan Gorn (Xorn) nomini berishgan.

Hektachi jafon urushidan keyin nemis harbiylari ayrim Janubiy Amerika davlatlarida boshpana topishgan. Shu sababdan, Paragvay va Urugvay hamda Braziliyaning janubida nemis muhojirlari tomonidan ishlatilgan (*Uberlandiya, Bremen* va boshqalar) nomlar paydo bo'lgan. Muhojirlarning eng chekka janubiy nuqtasi *Frouerd* burni nomining kelib chiqishi ham ingliz tili bilan bog'liq. «Temir qaroqchi» laqabini olgan, ingliz dengizchisi *Frensis Dreyk* (1540-1596), 1578 yili Magellan bo'g'ozini orqali Atlantikadan Tinch okeaniga suzib o'tayotgan vaqtda to'fon boshlangan, bo'g'ozni shimoliy qirg'og'ida to'xtashga majbur bo'lgan F.Dreyk, bu joyni *Frouerd* («to'fonli») deb atagan.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. Janubiy Amerika toponimiyasining asosiy rivojlanish bosqichlarini aniqlang.
2. And mintaqasi toponimiyasining farqlovchi xususiyatlari nimadan iborat?
3. Anddan tashqari Sharq toponimiyasi tarkibidagi ispancha va portugolcha nomlarning paydo bo'lish tarixini izohlang.

#### **Test topshiriqlari**

1. Kechua tilida pampa termini qanday ma'noga ega?
  - A. Daraxtlari ko'p tekislik
  - B. Daraxtlarsiz tekislik
  - C. Tog'dagi tekislik
  - D. O'rmonli tekislik
2. And toponimiyasi tarkibida yagona yevropa ustki toponimik qatlamni tashkil etadigan qatorni belgilang.
  - A. Inglizcha nomlar
  - B. Portugolcha nomlar
  - C. Indeyscha nomlar
  - D. Ispancha nomlar



3. Dastlab Terra do Vera Cruz– «muqaddas salib yeri» deb atalgan davlat nomi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Peru
- B. Chili
- C. Ekvador
- D. Braziliya

4. Itapolis, Kirinopolis, Anapolis kabi psevdoklassik toponimlar qaysi davlat toponimiyasi tarkibida uchraydi?

- A. Urugvay
- B. Kolumbiya
- C. Braziliya
- D. Argentina

5. Janubiy Amerika materigining eng chekka janubiy nuqtasini kim Frouerd («to'fonli») burni deb atagan?

- A. Ingliz dengizchisi Frensis Dreyk
- B. Ispan dengizchisi Xristofor Kolumb
- C. Portugal dengizchisi Fernan Magellan
- D. Rus dengizchisi Faddey Bellinsgauzen

## 19-mavzu: AVSTRALIYA, OKEANIYA VA ANTARKTIDA TOPONIMIYASI

### 19.1. Avstraliya, Okeaniya va Antarktida toponimiyasi

#### *Reja:*

1. Avstraliya, Okeaniya va Antarktida toponimiyasiga umumiy ta'rif.
2. Avstraliya toponimiyasi va uning farqlovchi xususiyatlari.
3. Okeaniya va Antarktida toponimiyasining paydo bo'lishi va shakllanish tarixi.

**Mavzuning maqsadi:** Avstraliya, Okeaniya va Antarktida joy nomlarining, paydo bo'lishi, shakllanish tarixi va ularning asosiy farqlovchi xususiyatlari haqida bilim va ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

**Tayanch ibora va atamalar:** Relikt materik, aborigenlar toponimiyasi, memorial va patronimik nomlar, ko'p bosqichli va eng yosh toponimik tizim, mikroneziya, polineziya, melaneziya toponimiyasi.

**Avstraliya toponimiyasi.** Avstraliya – janubiy yarim sharda joylashgan relict materik. Shu sababdan, materik tabiatining boshqa qit'alardan

buq qildigan bir talay xususiyatlari bor. O'simliklar va hayvonlarning endemik turlari g'oyat ko'pligi va nihoyat qadimiyligi relik materikni farqlovchi xususiyatlardan biri hisoblanadi. Avstraliya haqidagi dastlabki nomliq ma'lumotlar yevropaliklarga portugol dengizchilari orqali XVI asrda yetib kelgan. Yevropaliklardan birinchi bo'lib materikka golland dengiz sayyohlari *V. Yanszon* (1606) va *A. Tasman* (1642) kelganlar. Tupdiz tadqiqotchisi *M. Flinders* materikni Avstraliya – «janubiy yer» deb atadi va XIX asrdan shu nom bilan mashhur bo'lib qoldi. Materikda hatta duxlar *Avstraliya Itifoqi* joylashgan. Aholisining asosiy qismi – Britaniya orollaridan ko'chib kelganlarning avlodlari – inglizlar, shotlandlar, irlandlar hamda tub joy, ya'ni aborigen (lotincha, aborigine – «qadimdan, boshdan») xalqlardan iborat.

Avstraliya toponimiyasi turli tillarga mansub, ammo uning asosiy qismini ingliz va aborigenlar tillari asosida shakllangan nomlar hamda son jihatdan uchta ko'p bo'lmagan kelib chiqishi fransuz, golland, malay va yavan tillariga xos bo'lgan geografik nomlar tashkil etadi. Mutaxassislar materikdagi geografik nomlarni asosan ikki toponimik qatlunga ajratishgan: aborigen (tubjoy xalqlar tilida) va inglizcha nomlar.

Materikdagi inglizcha geografik nomlar, aborigenlar toponimiyasiga nisbatan quyidagi sabablarga ko'ra ustunlikka ega: aborigenlarning o'z xati bo'lmagan, shu sababdan ko'pchilik mahalliy toponimlar yozma hujjatlarda qayd qilinmagan va yo'qolgan; tub joy xalqlar asosan ko'chmanchi hayot kechirishadi, shu sababdan toponimlarni kartaga tushirish qiyin bo'lgan; dastlab yevropaliklar mahalliy xalq bilan kam aloqa qilishgan, natijada qit'ani yangi egalari tilida aborigenlar toponimlarini saqlashni iloji bo'lmagan; tub joy (substrat) toponimlar XIX asrning ikkinchi yarimidan boshlab, ingliz tiliga tarjima qilingan va natijada ular yo'qolgan.

Submintaqa toponimiyasi asosan memorial va patronimik xarakterga ega. Bunday geografik nomlar mintaqa toponimiyasining 80 % ko'prog'ini tashkil etadi. Tabiiy landshaft turlari va geografik ob'ektlarni boshqa xususiyatlarini o'zida aks etuvchi toponimlar, son jihatdan mintaqada ikkinchi o'rinda turadi. Ularning ko'pchiligini ingliz tilini hozirgi muomaladagi holati bilan izohlash mumkin. Aborigenlar va keyinchalik inglizlar materikni tabiiy sharoiti va o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, ob'ektlarni nomlashda turli toponimik terminlardan foydalanishgan. Masalan, materikda suvni kamligi, uni topish, saqlash va oqilona foydalanish hayotiy zarurat ekanligi sababli, ob'ektlarni nom-

lash jarayonida gidrografik terminlar keng qo'llanilgan. Shu sahabdan, tabiiy-geografik omillar asosida shakllangan nomlar orasida suv ob'ektlari bilan bog'liq bo'lgan nomlar ko'p va alohida bir guruhni tashkil etadi.

Xususan, aborigenlarda gidrologik topoterminlar aniq ma'no kash etgan. Mahalliy xalq har qanday katta-kichik suv inshootlari va suv havzalarini nomlashda muayyan gidrografik terminlardan foydalanishgan. Chunonchi, faqat Yangi Janubiy Uels shtati hududida daryolarni aniq belgilash uchun *kuaama*, *kuenanbeyan*, *tabull* (harchasi – «suv»), *billa* («daryo»), *pokataru* («keng daryo»), *muneela* («qayirmali daryo»), *para* («kichik daryo») kabi aniqlovchi gidrologik topoterminlarni qo'llashgan. Ayrim hollarda gidrografik termin to'g'ridan-to'g'ri toponimga aylangan: *Kua-roo*, *Bunga*, *Vattan* – «suv»; *Bindarse*, *Dxoonga* – «daryo»; *Geerbunga*, *Narroong* «ko'l» va hokazo.

Qit'adagi o'simliklarni aksariyati endemik bo'lganligi sababli mintaqadagi geobotanik terminologiya ham tubjoy xalq tilidan o'zlashgan. Masalan, *brigelou-skreb* (aborigenlarni buttali akatsiyasi bo'lgan *garpofilla* – *brigelow* nomidan), *mali skreb* (aborigenlarni evkalipti *dumoza* – *mallee* nomidan), *mulga skreb* (aborigenlarda akatsiya turi hisoblangan *aneura* – *mulga* nomidan), *yarra* (aborigenlarda evkalip turi hisoblangan *marginata* – *yarra* nomidan) kabi terminlar shu yo'l bilan paydo bo'lgan. Ushbu jarayon mintaqaning zoogeografik terminlari uchun ham xosdir. Kelib chiqishi tubjoy xalqlar tili bilan bog'liq bo'lgan zootoponimlar materik bo'ylab keng tarqalgan: *Bullinundgel* – «to'ti qushlar joyi», *Murvillumba* – «katta opossum joyi», *Turrunga* – «dingoni tutgan joyi», *Karn* – «akula» va boshqalar.

Avstraliyadagi iqlim va ob-havo xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan toponimlar alohida diqqatga sazovor, Chunki ular yer yuzidagi boshqa mintaqalar toponimiyasida deyarli uchramaydi. Bu turdagi nomlarning paydo bo'lishida, aborigenlarni ko'chmanchi hayot tarzi va yilning turli fasllarida sodir bo'ladigan meteorologik hodisa va jarayolarni o'zaro bog'liqligi muhim rol o'ynagan. Chunonchi, *Kior Novung* – «quyosh nuri», *Burinabar* – «shamol», *Vumera-Maralinga* – «chaqmoq», *Bong-Bong* – «katta tuman» kabi toponimlar shu yo'sinda paydo bo'lgan.

Mintaqadagi yer va tuproq qatlamining o'ziga xosligi, ular bilan bog'liq kamyob toponimlarni paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Aborigenlarni ushbu landshaft komponentlari bilan bog'liq bo'lgan bir qator geografik terminlari ilmiy terminologiya fondiga kiritilgan. Masalan,

*gibber* – «tosh, xarsang», *gilgay* – «cho‘kish, siljish», *parna* – «qumli yoki mayda zarrachali tuproqli yer, lyoss» va hokazo.

Tubjoy xalqlar tili bilan bog‘liq bo‘lgan terminlardan tashqari, anglo-avstraliyaliklarga tegishli geografik terminlar ham mintaqa bo‘ylab keng tarqalgan. Ular nafaqat Avstraliya joy nomlari tarkibidan o‘rin olgan, balki xalqaro miqyosda toponimikada qo‘llaniladigan ilmiy terminlarga aylangan. Ana shunday, mintaqa ilmiy adabiyotlarida toponimik indikator sifatida tan olingan *kley pen; kreb xoul; skalded flets* kabi geografik terminlarni ko‘rsatish mumkin.

Mutaxassislarimiz ta’kidlashicha, Avstraliyadagi toponimik tizimining shakllanishi jamiyoni bir necha bosqichda kechgan. Dastlabki, geografik nomlar aborigenlarni Avstraliyaga kelib o‘tmashgan davrlarda paydo bo‘lgan. Tubjoy xalqlar asosan uncha katta bo‘lmagan ob’ektlarni nomlagan. Katta geografik ob’ektlar nomlanmagan, chunki ko‘chmanchi aborigenlarda ularni nomlash uchun ijtimoiy zarurat bo‘lmagan. Aborigenlarni ko‘pincha qisqa vaqt ichida, muayyan hududda sodir bo‘ladigan tabiiy voqea-hodisalar qiziqirgan, natijada aynan ular hayotiy zarurat sifatida joy nomlarida mo‘hrlangan.

Mahalliy xalqlar tomonidan berilgan nomlar asosan tasviriy xarakterga ega, chunki ularning hayot tarzi anglo-avstraliyaliklarga qaraganda tabiiy sharoit bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Bu turdagi nomlar ko‘pchilikka ma’lum bo‘lmagan, ular asosan shu hududda yashovchi aholi tilida qo‘llanilgan va mikrotoponimlar hisoblangan. Ular qatoriga *Munkel Munkel* – «ustritsa tanovul qilingan joy», *Kumbalum* – «yapaloq boshli baliq (kambala) tutilgan joy», *Tulgay* – «daraxt qurigan joy» kabi toponimlarni kiritish mumkin.

Aborigenlar toponimiyasi tarkibida patronimlar deyarli yo‘q, sababi mahalliy xalq, kishilar ismi baland ovozda talaffuz qilinsa qarg‘ish tegadi deb qo‘rqishgan. Ma’lumotlarga qaraganda, XX asr o‘rtalarigacha aborigenlarda familiya ham bo‘lmagan. O‘rta asrlarda materikni shimoliy qirg‘oqlariga malayya va yavalik dengizchilar kelishgan va ular tomonidan *Arafur* («o‘rmon kishilari» yashaydigan joy nomidan) va *Timor* ("sharq", ya'ni malayya qabilalari yashaydigan hududlardan sharqda) dengizi nomlangan. Osiyo dengizchilari tomonidan berilgan nomlar mintaqada son jihatdan uncha ko‘p emas.

1606 yili gollandiyalik *V.Yanszon* materikni kashf qilib, uni Yangi Gollandiya deb atagan. XVII asrning o‘rtalarigacha materik kartasida son jihatdan uncha ko‘p bo‘lmagan, gollandcha patronimik nomlar

paydo bo'lgan: *Karpentariya* qo'ltig'i, *Arnemlend* yarim oroli, *Luvenburni*, *Derk-Xartog* oroli, *Grut-Aylend* («katta orol») oroli, *Idel* yarim oroli, *Pitera Neyts* orollari va hokazo. Umuman olganda gollandlar tomonidan Avstraliyani shimoliy, g'arbiy va janubiy qirg'oqlarini o'rganilishi juz'iy va tasodifiy xarakterga ega bo'lgan.

XVIII asrning oxirida ingliz dengizchi sayyohi Jeyms Kuk tomonidan materik qirg'oqlari jiddiy tadqiq qilinishi natijasida, tez sur'atlarda mintaqa bo'ylab inglizcha (asosan memorial) geografik nomlar tarqalgan. Materikdagi bir qator geografik ob'ektlarga (tog', daryo, bo'g'oz, qo'ltiq, shtat, shahar va hokazo) Angliya davlat va siyosat arboblari, dengizchi sayyohlari sharafiga ularning nomi berilgan. Masalan, *Darling*, *Murrey*, *Viktoriya*, *Merchison* daryolari, *Gibson* cho'li, *York*, *Sidney*, *Melburn*, *Adelaida*, *Brisben* kabi shaharlar nomlarini shular qatoriga kiritish mumkin.

Shu davrda mintaqada fransuzcha nomlar ham paydo bo'lgan: *Jozef-Bonapart* qo'ltig'i, *Perons* oroli, *Peron* yarim oroli, *Geograf* qo'ltig'i, *Forteskyu* daryosi va hokazo. Ularning ko'pchiligi fransuz dengizchi sayyohari tomonidan berilgan nomlardir. Chunonchi, 1801 yili kapitan *N.Boden* boshchiligidagi fransuz ekspeditsiyasi, Avstraliyaning janubiy-g'arbiy qirg'oqida, aniqlab kartaga tushirgan qo'ltiqni, ekspeditsiya tarkibidagi kemalardan birini nomi sharafiga *Geograf* deb atashgan.

XIX asrning birinchi yarimiga qadar materik toponimiyasi tarkibida turli ekspeditsiya tashkilotchilari va qit'a tadqiqotchilari sharafiga qo'yilgan geografik nomlar (*Eyr*, *Flinders*, *Mitchell*, *Gardner*, *Gregori*, *Ogastes* va hokazo) yetakchilik qilgan. XIX asrning ikkinchi yarimida Avstraliyada yirik oltin konlarni topilishi turli tilli toponimlarni paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Aynan shu davrda, keyinchalik materikni o'ziga xos xususiyatiga aylangan, ko'plab ko'chma toponimlar paydo bo'lgan. Avstraliyada xuddi Buyuk Britaniyadagi *Nyukasl*, *Straud*, *Geytsxeyd*, *Gloster*, *Kardiff*, *Suonsi*, *Kvinslend* kabi shaharlar bor. Yangi geografik nomlarning asosiy qismi tasviriy va terminologik xarakterga ega bo'lgan toponimlar hisoblangan. Ular orasida *Brek-May-Nek*— "bo'y-nimni sindir" kabi tasodifiy toponimlar ham topiladi.

O'sha davrda aborigenlar toponimiyasi katta o'zgarishlarga duchor bo'lgan. Sababi, agar mahalliy nomlarni ma'nosi aniq bo'lsa, qo'llashi oson bo'lishi uchun uni tarjima qilishgan. Ma'nosi noaniq, mavhum bo'lgan toponimlar yevropaliklar tomonidan yangi nomlarga almashtirilgan. Natijada, kelib chiqishi tubjoy xalqlar tili bilan bog'liq bo'lgan geografik nomlarni umuman yo'qotish xavfi paydo bo'lgan.

Mutaxassislarning yuzishicha, XX asr davomida Avstraliyada mashhur fan va madaniyat arboblari sharafiga berilgan nomlarning soni ancha ko'paygan. Shu bilan birga, mintaqa tabiiy landshaft xususiyatlarini aks etadigan substrat toponimlarga nisbatan e'tibor kuchaygan hamda joy nomlarini o'rganish borasida keng qamrovli toponimik tadqiqotlar olib borilgan. O'tgan asrning o'rtalaridan boshlab, Avstraliya tarixi va madaniyatini o'rganishga qiziqishni ortishi, mamlakat hududini to'la mashtabli kartaga tushirish zaruriyati, aborigenlar toponimlarini jarangdorligi, bunda inglizcha nomlarning yetishmasligi sababli, yangi geografik ob'ektlarni nomlashda mahalliy nomlardan ko'proq foydalanildi. Natijada, geografik ob'ektlariga aborigencha nomlarni berish mintaqada o'ziga xos bir an'anaga aylandi.

Sidney va Melburn shaharlarini poytaxtga "da'vogar"ligiga chek qo'yish maqsadida Avstraliyani yangi poytaxtini barpo etishga qaror qilindi. 1913 yili qurilishi boshlangan yangi poytaxt shaharga aborigencha nom berish ma'qul deb topilgan. Shu munosabat bilan, e'lon qilingan tanlovda, shahar qurilayotgan joyning mahalliy nomi Kanberra (Canberra – «ikki tepalik», ya'ni shaharni shu tepaliklarda joylashganligiga ishora) g'olib deb topilgan va u Avstraliyani yangi poytaxtiga nom sifatida tanlangan.

**Okeaniya toponimiyasi.** Okeaniya – Tinch okeanning markaziy va g'arbiy qismlaridagi orollar to'dasi. U materik yerlaridan uzoq vaqt davomida yakkalanish natijasida paydo bo'lgan va mintaqa tabiiy landshaftlarining juda o'ziga xosligi ham shu bilan bog'liq. Okeaniya quuruqlik maydonining 80 foizini *Yangi Gvineya* (Irian – etnonim, papuas qabilasi nomidan) va *Yangi Zelandiya* (gollandcha, zee-«dengiz», land-«er») orollari tashkil etadi. Ayrim mutaxassislar jami orollarni *Okeaniya* nomi bilan birlashtirib, uni Avstraliya bilan birga yagona bir qit'a deb hisoblashadi. Okeaniya orollarining yevropaliklarga ma'lum bo'lishi F. Magellan ekspeditsiyasidan (1521) boshlandi. XVI asrning oxirlarigacha ispan va portugal dengizchi sayyohlari Mikroneziya, Solomon va Melaneziyadagi boshqa orollarni aniqlaganlar.

Okeaniya termini 1810 yili *M. Braun* tomonidan fanga kiritilgan. 1832 yili fransuz dengizchisi *J. Dyumon d'Yurvil* Okeaniyani *Mikroneziya* (grekcha, «mayda orollar», Mariana, Karolina, Marshall, Nauru, Oshen orollari va boshqalar), *Polineziya* (grekcha, «ko'p orollar», Gavayi, Sporada, Samoa, Taiti, Markiz, Pasxa orollari va boshqalar) va *Melaneziya* (grekcha, «qora orollar», Yangi Gvineya, Bismark,

Luiziada arxipelaglari, Solomon, Santa-Krus, Yangi Gibrid, Yangi Kaledoniya, Fidji orollari va boshqalar) kabi qismlarga taqsimlashni taklif qilgan. Keyinchalik Okeaniyaga *Yangi Zelandiya* ham kiritilgan.

Mintaqada irqi, tili, tarixi va madaniyati jihatidan keskin farq qiluvchi xalqlar yashaydi. Ularni ikki qismga bo'lish mumkin: mahalliy aholi va ko'chib borganlar. Okeaniyaning mahalliy aholisini polineziya, melaneziya va mikroneziyaliklar tashkil etadi. Mahalliy aholining bir qismi *malay-polinez* tillarida, boshqa qismi *papua* tillarida so'zlashadi. Okeaniya toponimiyasining asosiy farqlovchi belgisi– ularni turli tillar yordamida shakllanganligi hisoblanadi. Olimlar mintaqa geografik nomlarini ikki toponimik qatlarga ajratishgan: mahalliy tillarga xos nomlar va yevropa toponimlari.

Turli tillar va shevalar yordamida shakllangan mahalliy toponimiya, lisoniy va hududiy joylashuvi jihatdan katta farq qilsa ham, ammo ularning tuzilishi va ma'no-mazmuni (semantikasi) biri-biriga ancha yaqin. Bu holatni barcha Okeaniya xalqlarining kundalik hayotini bevosita okean bilan chambarchas bog'liqligi bilan izohlash mumkin. Shu sababdan, ularda gidrografik (qo'ltiq, bo'g'oz, rif, laguna) ob'ektlar aniq nomlangan. Shu bilan birga, orollarni markaziy qismlarida hanuzgacha nomlanmagan nisbatan yirik geografik ob'ektlarni ham uchratish mumkin.

Polineziya toponimiyasi Gavay, Sporada, Samoa, Taiti kabi nisbatan katta orollarda yaxshi saqlangan. Ushbu orollar geografik nomlari tarkibida *mauna* – «tog', cho'qqi», *motu* – «orol, atoll», *vanua* – «er, quruqlik, vay – «suv», *nui* – «katta», *iti* – «kichik», *roa (loa)* – «uzun, cho'zilgan» kabi sifatlovchi terminlar keng qo'llanilgan. Polineziya tili va toponimiyasi tarkibida unli tovushlarning ko'pligi uning o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi (*Oaxu, Molokai, Mauai, Kauai, Paofai, Nukualofa, Tiaauru* va hokazo). Bu xususiyat Mikroneziya va Melaneziya toponimiyasiga nisbatan, Polineziya geografik nomlari tarkibida yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Polineziyada dengiz tubidagi qoyalar yoki qirg'oqlarning yemirilishidan, marjon qurilmalaridan, ohakli suvo'tlar qoldiqlaridan riflari hosil bo'lgan. Riflar – sayoz joylarda dengiz tubining suv ostidagi yoki suv yuzasidan ko'tarilib turgan balandliklarni tashkil etadi. Mavjud riflari kemalar qatnoviga xavfli to'siq bo'lishi mumkin. Binobarin, polineziya toponimiyasida suv osti ohaktosh qoyalar (riflari)ning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi maxsus geografik terminlar paydo bo'lgan.

Masalan, *muraxi* – suv sathiga yetmaydigan va qayiqlar oson o‘tadigan marjon uyumlari, *puteu* – suv sathidan 5 metrgacha ko‘tarilgan marjon rillari; *tirare* – uzunligi 15 metrgacha bo‘lgan riflar; *karena* – eniga 15 metrdan kattaroq bo‘lgan riflar va hokazo.

Tinch okeanining janubiy-g‘arbiy qismidagi vulkan va marjonlardan hosil bo‘lgan arxipellagda Tonga (tonga tilida – “muqaddas”) qirolligi joylashgan. Arxipellagni 1643 yili golland dengizchisi Abel Yanszon Tasman kashf qilgan. Tonga arxipellagining eng katta oroli – Tongatapu (“muqaddas janub”) deb ataladi. Qirollik poytaxti – Nukualofa (mahalliy tilda – “sevishganlar maskani”) shahri ham shu orolda joylashgan. Arxipellagni ikkinchi bor mashhur ingliz sayyohi Jeyms Kuk kashf qilgan va unga Do‘stlik orollari deb nom bergan.

Melaneziya (grekcha – «qora orollar») tarkibidagi Yangi Gvineya (Irian) oroli toponimiyasi alohida ajralib turadi. Melaneziya va Okeaniyadagi eng yirik orol hisoblangan Yangi Gvineyaning maydoni (829,3 ming kv. km.), faqat Grenlandiyadan kichikroq. Mahalliy til va shevalarning ko‘pligi tufayli oroldagi geografik nomlari tizimi kam o‘rganilgan. Orolning Indoneziyaga tegishli bo‘lgan g‘arbiy qismida, mahalliy geografik nomlar bilan birga, indonez tiliga xos bo‘lgan joy nomlarini ham uchratish mumkin (Irian – etnonim, papuas qabilalaridan birining nomi, Djaya – «g‘alaha» va hokazo).

Melaneziya tarkibiga kiruvchi Solomon orollari nomini paydo bo‘lishi ham o‘ziga xos tarixga ega. Tarixiy ma‘lumotlarga qaraganda, ushbu orollarga qariyb olti ming yil avval Papua – Yangi Gvineyadan qabilalar ko‘chib borib o‘rnashgan. Orollar 1568 yili ispan dengizchisi Mendanya de Neyra sayyohatidan keyin yevropaliklarga ma‘lum bo‘lgan. Ispan sayyohi orollarni kashf qilib unda oltin ko‘pligini aniqlagan va uni afsonaviy “Solomonning (Sulaymon) oltin mamlakati”ga qiyoslab, shu nom bilan kartaga tushirgan.

Mikroneziya – Tinch okeanning g‘arbiy qismida joylashgan va 1500 dan ortiq orollardan iborat. Eng yirik orollari Mariana, Karolina, Marshall, Gilbert, Panaha, Nauru, Oshen va boshqalar. Kelib chiqishiga ko‘ra, marjon va vulkan orollar. Mahalliy qardosh xalqlar (kiribati, truk, marshalliklar) mikronez tilida so‘zlashadi va orollar toponimiyasining asosiy qismi ham shu tilda yaratilgan. Mikroneziya tarkibidagi orollarning nomi ko‘pincha yevropa dengizchi – sayyohlar bilan bog‘liq. Masalan, Marshall orollarini 1529 yilda ispan dengizchi sayyohi A.Saavedra yevropaliklarga ma‘lum qilgan. 1788 yilda esa ingliz tadqi-



qotchilari J.Marshall va T.Gilbert orollarni mufassal o'rganganlar. Keyincha orollarga J.Marshall nomi berilgan.

Yangi Zelandiya arxipelagiga X-XIV asrlarda maorilar kelib joylashgan. Yevropaliklardan arxipelagga birinchi marta 1642 yili gollandiyalik dengizchi A.Tasman borgan va uni Yangi Zelandiya (Zelandiya – Niderlandiyadagi provintsiya nomi, zee – «dengiz», land – «er»), deb kartaga tushirgan. Arxipelagning hozirgacha saqlanib qolgan qadimiy nomi ham bor – Aotearoa va u aboriginlar tilida – «uzun oq bulut» ma'nosini anglatadi. Maorilar rivoyatiga ko'ra, afsonaviy dengizchi Kupe uzoq dengiz safaridan keyin, yer yaqinligidan dalolat beruvchi uzun oq bulutni ko'rib orollarni shu nom bilan atagan.

Tubjoy aholi arxipelag tarkibidagi Shimoliy orolni *Ikaa-Maui* – «Maui balig'i» yoki *Agino-Maui* – «tug'ma Maui», deb nom berishgan. Maorilarda, shakli haliqqa o'xshaydigan orolni oliy ma'bud haliq tuta-yotgan vaqtda suv yuzasiga chiqargan degan naql bor. Janubiy orolda maorilar kamon yoyida ishlatish hamda bezak sifatida foydalanish uchun qadimdan nefrit toshi qazib olishgan. Shu sababdan, mahalliy xalq orolni *Te-vagi-Punamu* – «yashil tosh makoni» deb atashadi.

Ta'kidlash joizki, maori toponimlari tarkibida boshqa mintaqalardagi kabi, xalq geografik terminlari ko'p uchraydi. Mahalliy geografik nomlar tarkibida *vay* – «suv, daryo», *roto* – «ko'l» kabi mahalliy terminlar keng tarqalgan. Tog' va vulkan nomlarining aksariyati tavsifiy xarakterga ega. Chunonchi, Yangi Zelandiyaning eng baland nuqtasi bo'lgan Kuk tog'ining (3768 m.) mahalliy nomi *Aorangi* – «osmonga sanchilgan» hamda eng baland vulkan hisoblangan *Ruapexu* (2797 m.) – «uzun va shovqinli tubsiz chuqurlik» degan ma'noni anglatadi.

Maori tilidagi memorial nomlarning aksariyati ancha uzun va murakkab tuzilishga ega, sahabi ularda shu joyda sodir bo'lgan voqea va hodisalar aniq ifodalangan. Masalan, Yangi Zelandiya davlatida joylashgan bir qishloq maori tilida, *Tuamatavxakatatagixangakouutemateapokaivxenuakitanataxukapikamaupx agorita* deb ataladi. Dunyodagi eng uzun toponimlardan biri bo'lgan bu nom, maori tilida taxminan shunday ma'noga ega: «Katta tizzali Tematea tepalik ustiga chiqib yangi yerni kashf etdi va qarindoshlariga nay chalib xabar berdi». Yangi Zelandiyada ham toponim-migrantlar (ingliz, shotland, irland) soni ancha ko'p. *Temza, Nyu-Plimut, Stratford, Oksford, Kraystcherch* va hoshqalar.

Okeaniyada turli yevropa tillariga mansub bo'lgan toponimlarni uchratish mumkin. Ularning ko'pchiligi ispan, portugal, golland, ingliz,

fransuz, rus dengizchilari tomonidan berilgan nomlardir. Mintaqadagi ko'pchilik orol va arxipelaglarga turli davrlarda turli davlatlar vakillari tashrif buyurib yangicha nom berishgan. Shu sababdan, boshqa mintaqalarga nisbatan Okeaniyadagi nomlar rang-barangligi bilan farq qiladi. Taiti toponimi bunga yaqqol misol bo'ladi.

Dustlab, XVII asr boshida ispan dengizchisi *P. de Kiros* orolni *Saggitaria* – «Yoy burjini sherigi» deb atagan. Keyingi asr o'rtalarida ingliz sayyohi *S.Uollis* orolni Britaniya qiroli *Georga III* sharafiga uni qayta nomladi. Ko'p o'tmasdan *L.A.Bugenvil* boshchiligidagi fransuz ekspeditsiyasi orolni *Venera* ma'budasining epitet nomi bo'lgan *Sitera* sharafiga uni *Yangi Sitera* deb atagan. Faqat so'ngi vaqtlarda orolni mahalliy nomi *Taiti* (taiti tilida *Otaiti* – «yarim orollar oroli» yoki «kichkina orol») rasman qabul qilindi.

Okeaniyadagi orollarning bir qismi yevropa tillariga xos bo'lgan memorial nomlarga ega. Ular ko'pincha shahzodalar, dengizchi-sayyohlar va boshqa mashhur kishilar nomi bilan ataladi (*Markiz, Marian, Marshall, Gilbert, Uollis* va boshqalar). Mintaqada diniy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan geografik nomlar ham uchraydi (*Santa-Krus, Solomon orollari, Pasxi oroli, Rojdestva* va boshqalar). Okeaniyadagi bir qator orollar nomi tarkibida «yangi» qo'shimchasi mavjud. Ular ko'pincha boshqa hududlarda avvaldan mavjud bo'lgan nomlarga «yangi» so'zini qo'shib hosil qilingan (*Yangi Gvineya, Yangi Kaledoniya, Yangi Britaniya, Yangi Gibriddlar* va hokazo).

Okeaniya kartasida kam bo'lsa ham ayrim voqea-hodisalar bilan bog'liq bo'lgan geografik nomlar uchraydi. Runga, *Venera* bo'g'oz (Taiti oroli) nomi misol bo'lishi mumkin. 1769 yili J.Kuk birinchi sayohati davomida bo'g'oz sohilida *Venera* planetasini quyosh oldini tutishini kuzatgan va ushbu hodisa sharafiga bo'g'ozni *Venera* deb atagan. Ma'lumki, London qirollik jamiyati tomonidan J.Kukni birinchi sayohati aynan shu maqsadda tashkil etilgan edi.

Ta'kidlash joizki, Rossiya tomonidan tashkil etilgan ekspeditsiyalar ham Okeaniya kartasida «iz» qoldirgan. Mintaqa kartasida ruscha nomlar bilan birga ko'pincha uning mahalliy nomi yoki boshqa davlat dengizchilari tomonidan berilgan nomlar qo'shib yoziladi. Masalan, Tuamotu arxipelagidagi *Rumyansev oroli* – *Tikei*, *Ryurik orollari* – *Takapoto*, *Kruzenshtern oroli* – *Tikexau* kabi mahalliy nomlarga ega. Rus dengizchi – sayyohlar tomonidan berilgan nomlarni Okeaniyaning boshqa hududlarida ham uchratish mumkin. *Suvorov (Taka)*, *Kutuzov*

(Utirik), Rimskiy-Korsakov (Rongelap) atollari. Rossiyan orollari, Vostok oroli va boshqalar.

**Antarktida toponimiyasi.** Antarktida – janubiy qutb materigi (Maydoni 12,4 mln. km.kv.). Doimiy aholisi yo‘q. Eng baland joyi *Elsuort* tog‘idagi *Vinson* cho‘qqisi (5140 m.). Antarktidani, uning atrofidagi okean qismlari hamda materik atrofidagi orollari bilan birgalikda janubiy qutb doirasigacha Antarktika deb atashadi. Antarktidani 1820 yilda rus dengiz sayyohlari *F.F.Belinsgauzen* va *M.P.Lazarevlar* «*Vostok*» va «*Mirniy*» nomli yelkanli kemalarda kashf etgan. Antarktidani doimiy aholisi yo‘q va u hech bir davlatga mansub emas. Materik Atlantika, Tinch va Hind okeanlarining janubiy qismlari (Janubiy okean) bilan o‘ralgan. Antarktidaning umumiy qiyofasi XIX asrda kartaga tushirilgan.

Materik kashf qilingandan so‘ng, turli mamlakatlar (Norvegiya, Buyuk Britaniya, AQSH, Fransiya va boshqalar) sirli materikni o‘rganish uchun ekspeditsiyalar tashkil qilishgan. Antarktida tadqiqotchilaridan *R.Amundsen* va *R.Skott* nomlarini alohida qayd qilish kerak. Ular 1911-1912 yillarda birinchi bo‘lib Janubiy qutbga yetib borganlar. So‘nggi yillarda, muzlab yotgan, qahri qattiq qit‘adan foydalanish maqsadida hamda planetar masshtabdagi geofizik va geografik ilmiy muammolarni yechimini topish uchun, olimlar tobora ko‘proq materikni tabiiy sharoiti va tabiiy resurslarini o‘rganishga intilmoqdalar. Hozirgi kunda Antraktikada 50 ga yaqin ilmiy stansiyalar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Antarktida toponimiyasi ayrim o‘ziga xos xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi. Birinchidan, u eng yosh toponimik tizimdir. Ikkinchidan, rus dengizchilari *F.F.Belinsgauzen* va *M.P.Lazarev* tomonidan Antarktidani kashf etilishi, yangi qit‘ada dastlabki toponimlarni paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi (ekspeditsiya a‘zolari ilk bor 27 ta geografik ob‘ektga nom berishgan). Uchinchidan, Antarktidada tubjoy aholi bo‘lmaganligi tufayli substrat toponimlar ham yo‘q. To‘rtinchidan, Antarktida toponimiyasi memorial xarakterga ega va ular qit‘a geografik nomlarining 90 foizidan ko‘prog‘ini tashkil etadi.

Antraktidagi toponimlarining yana bir o‘ziga xosligi shuki, ular turli mamlakatlar tadqiqotchilari tomonidan berilgan. Sababi, Antraktidani o‘rganish sohasida turli mamlakatlardan kelgan sayyoh olimlar qatnashgan. Keyingi davrda ingliz qutb tadqiqotchisi *L.Elsuort* (1935-36), amerikalik *J.Uilkins* (1928-30), *R.Berd* (1933-35) va *F.Ronne* (1946-48) bir qator tadqiqotlar o‘tkazishdi. Masalan, *R.Berd* AQSH ning Antarktikaga uyushtirgan to‘rtta yirik ekspeditsiyasiga rahbarlik qilgan.

Ta'kidlash joizki, materikdagi toponimlarning asosiy qatlami tadqiqotchi olimlar, qit'ani kashf etishiga hissa qo'shganlar dengizchi-sayyohlar nomi bilan bog'liq. *Chunonchi, Bellinsgauzen bofiq'i; Lazarev tog'lari; Rossa dengizi va qirg'oq muzliklari; Viktoriya yeri; Uilkins yeri; Georg V qirg'og'i; Deyvis, Amundsen, Ueddella, Riser-Larsen dengizlari; Elsuort tog'i; Bangera oazisi, Berd tekisligi va hokazo.* Shu narsa diqqatga sazovorki, qit'adagi har bir memorial nom o'ziga xos sabablar bilan paydo bo'lgan. Masalan, *Adeli yeri* nomining paydo bo'lish tarixi juda qiziq. Antraktidani sharqiy qismidagi bu yerni fransuz dengizchisi *J. Dyumon d'Yurvil*, 1840 yili kashf etib, uni turmush o'rtog'i sharafiga shu nom bilan atagan.

Qit'ani kashf etilishida qatnashgan tadqiqotchilar ko'pincha yangi kashf etilgan geografik ob'ektlarga ekspeditsiya tarkibidagi kemalar nomlarini berishgan. Shu tariqa materik kartasida *Propes qo'lig'i* (Ch.Uilkins boshchiligidagi amerikaliklar ekspeditsiyasi tarkibidagi kema nomi), *Gauss vulkani* (E.Drigalskiy boshchiligidagi nemislar ekspeditsiyasi tarkibidagi kema nomi), *Teron tog'i* (Sheklton qutb stantsiyasi quruvchilarini oziq-ovqat, yoqilg'i va qurilish materiallari bilan ta'minlashda qatnashgan ingliz kemasi nomi) kabi nomlar paydo bo'lgan.

Qit'adagi memorial toponimlar tarkibida qirollar va siyosiy arboblarning nomi bilan atalgan geografik ob'ektlar ham ko'p (*Shahzoda Charlz tog'i, Aleksandr I yeri, Viktoriya yeri, Petr I oroli, Shahzoda Olaf yeri, Malika Marta qirg'og'i, Malika Astrid qirg'og'i, Ruzvelt tepaligi va hokazo*). Mintaqada tadqiqotchilar, siyosiy arboblarning, qirollarning xonadonlari a'zolari nomlari bilan birga, buyuk fan va madaniyat arboblari sharafiga qo'yilgan nomlar ham uchraydi.

Materik kartasidagi *Darvin tog'i, Mikluxo-Maklay qo'ltig'i, Kropotkin tog'i, Gagarin tizmasi, Vernadskiy tog'i* kabi toponimlar ana shunday nomlar sirasiga kiradi. Antarktidani eng «musiqali» materik deb hisoblash mumkin, chunki qit'ada *Motsart platosi; Mendelson, Shubert, Brams, Verdi qo'ltig'i; Bax muzligi; Rossini va Berlioz burni; Betxoven yarim orolida – List, Grig, Shuman tog'i, Glyuk cho'qqisi; Musorgskiy cho'qqisi; Chaykovskiy tog'i; Shostakovich yarim oroli* kabi nomlar buyuk bastakorlar sharafiga qo'yilgan.

1957 yili U.Bisher rahbarligidagi Avstraliya ekspeditsiyasi a'zolari kenglik bo'ylab cho'zilgan uchta kalta tog' tizmasini kashf etib, ularni A.Dyuma asari qahramonlari sharafiga *Atos, Portos va Aramis* deb

atashgan. Antarktidada kam bo'lsa ham detoponimik nomlarni (*Pensakola tog'lari, Melburn tog'i, Antverpen va Brabant orollari*), yoki joyni tabiiy xususiyatlari hamda geografik ob'ektning o'ziga xos jihatlarni in'ikos etadigan toponimlarni (*Kitlar qo'llig'i, Figurali ko'l, Sentinel*– «Qarovul» tizmasi) ham uchratish mumkin.

Mo'ljal olish imkonini beradigan toponimlar ham bor. Masalan, *Transantarktida tog'lari, G'arbiy tekislik, Sharqiy plato, O'rta massiv, Qirg'oq massivi*. Mintaqadagi ramziy ma'nodagi nomlarga *Eterniti* – «abadiyat» tizmasi, *Hamdo'stlik* dengizi misol bo'ladi. Ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boruvchi qutb stansiyalari nomlarini maxsus guruhga ajratish mumkin. Umuman olganda ular ham mintaqa toponimlarining umumiy qonuniyatlariga mos keladi. Qutb stansiyalari nomlari tarkibida ham memorial toponimlar ko'p. Ular orasida kemalar, qit'a tadqiqotchilari, turli mamlakatlarning buyuk shaxslari sharafiga qo'yilgan nomlar yetakchilik qiladi (*Amundsen-Skott, Bellinsgauzen, Vostok, Mirniy, Mouson, Dyumon-d'Yurvil, Mak-Merdo, Elsuort, Xeneral Belgrano* va boshqalar).

Umuman olganda, Antarktida toponimiyasi XX asrda shakllandi va hozirda mustahkam qaror topdi. Qayd qilingandek, materik hech bir davlatga tegishli emas va uning toponimiyasidan barcha davlatlar teng huquqlik asosida foydalanadi. Shu sababdan, dunyo hamjamiyatining mushtarak manfaatlaridan kelib chiqib, materikdagi barcha geografik nomlarni xalqaro miqyosda standartlashtirish lozim. Bu ishni tezroq bajargan ma'qul, chunki hozirda ayrim mamlakatlar kartalarida geografik ob'ektlar nomi turlicha yozilmoqda. Masalan, materikdagi eng yirik *Antarktika yarim oroli* nomi britaniya kartalarida *Greyama*, amerikaliklar uni *Palmera*, chililiklar *O'Xiggins*, argentinaliklar esa *San-Martina yarim oroli* deb qayd qilishgan.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. *Avstraliyaning hozirgi toponimik tizimini tahlil qilib, uning shakllanish jarayoniga ta'sir ko'rsatgan omillarni sharhlang.*
2. *Yangi Zelandiya va Okeaniya toponimiyasining farqlovchi xususiyatlariga ta'rif bering.*
3. *Antraktidadagi memorial nomlarning kelib chiqishi haqida nima bilasiz?*

### Test topshiriqlari

**1. Avstraliyada tabiiy-geografik omillar asosida shakllangan joy nomlari orasida suv ob'ektlari bilan bog'liq bo'lgan nomlar ko'p. Uning sababi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**

A. Materikda suv ko'p bo'lganligi tufayli u bilan bog'liq nomlar ham ko'paygan.

B. Suv ob'ektlari nomlari mahalliy xalqning turmush tarzini belgilagan.

C. Materikda suv kam, uni topish, saqlash va oqilona foydalanish hayotiy zarurat bo'lgan.

D. Aborigenlarni turmush tarzi bevosita tabiat bilan bog'liqligi bunga sabab bo'lgan.

**2. Avstraliya aborigenlari toponimiyasi tarkibida patronimlarni deyarli yo'qligiga sabab nima?**

A. Aborigenlarda geografik ob'ektlarga kishilar ismini berish rasm bo'lmagan.

B. Kishilar ismi baland ovozda talaffuz qilinsa qarg'ish tegadi deb qo'rqishgan.

C. Avstraliya kashf qilingandan keyin mahalliy nomlar yo'q qilingan.

D. Mahalliy xalqlar tomonidan asosan tasviriy xarakterga ega bo'lgan nomlar berilgan.

**3. Okeaniya toponimiyasining asosiy farqlovchi belgisi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**

A. Turli tadqiqotchilar tomonidan berilgan

B. Turli davlatlar ta'sirida shakllangan

C. Mahalliy tillar yordamida shakllangan

D. Turli tillar yordamida shakllangan

**4. Rus dengizchilari F.Belinsgauzen va M.Lazarev Antarktidani kashf etib, ilk bor undagi qancha geografik ob'ektga nom berishgan?**

A. 72 ta

B. 27 ta

C. 37 ta

D. 17 ta

**5. Antarktidani eng baland joyi qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?**

A. Vinson cho'qqisi– 5140 m.

B. Elsuort tog'i– 5040 m.

C. Shahzoda Charlz tog'i– 5163 m.

D. Mouson cho'qqisi– 5181 m.

## XULOSA

Toponimika geografiya, tilshunoslik, tarix fanlari manfaatlari tutashgan joyda rivojlanayotgan mustaqil integral fan hisoblanadi. U barcha yuqorida tilga olingan fanlar metodlaridan kompleks holda foydalanib geografik nomlarni to'liq va har tomonlama o'rganadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bitta geografik nomni o'zi, agar u morfologik va semantik jihatdan shaffof bo'lgan taqdirda ham kerakli toponimik ma'lumotlarni berolmaydi. Shu sababdan, uni kompleks tarzda o'ziga o'xshash nomlar qatorida tadqiq etish maqsadga muvofiq sanaladi.

Hozirgi davrda toponimik tadqiqotlar izchillik bilan davom etmoqda. Yer yuzidagi millionlab geografik ob'ektlarning hududiy joylashgan o'rnini nomlar orqali aniqlanadi. Ular yordamida hududiy landshaftlarni o'tmishdagi holatini tiklash mumkin. Ma'lumki, har qanday toponim aniq bir informatsiyaga ega va u ko'pincha real voqea-hodisani o'zida aks etadi. Vazifa geografik nomlarni chuqur o'rganish, tarixiy ma'lumotlarni keng jalb qilgan holda ulardan to'laroq foydalanishdan iborat.

Chuqur differentsiyalashgan va detalizatsiyalashgan xalq geografik terminlari ilmiy va ilmiy-baynalmilal terminlarning kengaytirish manbai bo'lib xizmat qiladi. Joy nomi, geografik termin va nomlanadigan geografik ob'ekt o'rtasidagi mavjud genetik aloqa juda muhim sanaladi. Chunki, juda ko'p hollarda geografik terminlar tabiiy ob'ektlarning xususiyatlarini o'zida aniq in'ikos etadi. Bunday toponimik terminlar ko'pincha *geoinikator* vazifasini bajaradi. Toponimist olim, akademik *O.N.Trubachev* ta'kidlaganidek, nomshunoslik sohasidagi bilimlar majmui, geografiya, tarix va filologiya fanlarining simbiozidir.

Geografik nomlar ijtimoiy zarurat tufayli aniq bir tarixiy sharoitda paydo bo'lgan, ularning kelib chiqishi juda ko'p hollarda jamiyat hayoti, ma'lum hududda yashagan yoki yashayotgan xalqlar tili bilan bog'liq. Tarixiy sharoit, til va xalqlarni o'zgarishi bilan birga ularni tarqalish areali, ya'ni geografik muhit ham o'zgargan. Shu sababdan, hech bir mamlakat geografik nomlarida bir xillik kuzatilmaydi. Ular uzoq tarixiy davr davomida ko'p qatlamli va turli tillarga mansub elementlar sifatida shakllangan. Toponimik areallar hozirgi lingvistik chegaralarni tan olmaydi, ular uzoq tarixiy davrlar davomida xalqlarni mintaqalar bo'ylab harakatlanishidan dalolat beradi. Shu boisdan, joy nomlarini katta hududlar miqyosida taqqoslab o'rganish, toponimlarning asosiy shakllanish qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Geografik nomlarni qanday yo'l bilan paydo bo'lishidan qat'iy nazar, ularda doimo barcha nomlarga xos bo'lgan umumiy, universal belgini qayd qilish mumkin, ular kishilarni umumiy tafakkurlash xususiyati bilan bog'liq, ya'ni atrof-dagi ko'zga yaqqol tashlanadigan real voqealikka tushish va uni nom sifatida mustahkamlashdan iborat. Nom tarbiyasidagi bunday barchaga umumiy bo'lgan hodisa geografik nomlarni shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini aniq va har tomonlama o'zlashtirish imkoniyatini beradi.

Toponimikada bahs talab muammolar ko'p. Binobarin, kitobda keltirilgan ayrim faktlar munozarali, ba'zilar asoslangan, boshqalari esa kamroq ishonarli bo'lishi mumkin. Ammo, shu narsa aniqki, har qanday hadis va munozaralar manfaatdan xoli emas, chunki ular yordamida keyingi ilmiy izlanishlar yo'llari belgilab olinadi va eng muhimi yanada yuqori natijalarni qo'lga kiritishga imkoniyat paydo bo'ladi. Xitoylarda, "nomini eshitgandan ko'ra, yuzini ko'rmoq afzal" degan naql bor, ammo davrlar o'tishi bilan yuzini ko'rishni iloji bo'lmaganda, bilimdon qo'lidagi geografik nom uzoq o'tmishga nazar tashlash va qadimgi so'zlarni tiklash imkonini beradi.

Etnografik tadqiqotlarda va xalq og'zaki ijodini o'rganishda geografik nomlarning ham salmoqli o'rni bor. Sahabi, nomlar ham xalq ijodini mahsuli, xalq uni xuddi maqol, rivoyat, doston kabi dilu tilida, shuningta tafakkurida saqlab keladi. Nomlarning katta qismi xalq xotirasi orqali hozirgacha yetib kelgan. Professor T.Nafasov yozishicha, joy nomlarisiz xalq og'zaki ijodini tasavvur qilib bo'lmaydi, ular xalq og'zaki ijodida tayanch nuqta, aniq manzil, voqeliklar bo'lgan joy, yurt, mamlakatdir.

Tilshunoslik nuqtai nazardan ham geografik nomlar katta ahamiyatga ega. Joy nomlari til taraqqiyotining qiyosan keyingi bosqichlarida turdosh otlar (apellyativlar) dan kelib chiqqan. Toponimlar til lug'at tarkibini bir qismi bo'lishi bilan birga, joy nomlari yasashda muayyan til uchun xos bo'lgan lingvistik vositalardan (modellardan) foydalanadi. Shu bilan birga, har bir tilda toponim yasovchi o'ziga xos vositalar paydo bo'lgan. Ma'lumki, hozirgi matn lingvistikasi ko'pincha atoqli otlar va ba'zan toponimlarni tahlil qilib xulosalar chiqaradi. Toponimikaning lingvistik yo'nalishi orqali geografik nomlarning til va jamiyatdagi shakllanish qonuniyatlari, grammatik tuzilishi, to'g'ri yozilishi, etimologik talqini, dialektlarni tarqalish areallari kabi masalalar tadqiq qilinadi.



Toponimikaning hozirgi davrdagi eng muhim vazifalaridan biri, geografik nomlarni qat'iy lashtirish va standartlash hisoblanadi. Geografik ob'ektlar nomlarini tartibga solish bugungi kunda davlat ahamiyatiga molik masalaga aylandi. Ularni qo'llash ko'lami esa, oddiy fuqarodan to davlat hokimiyati organlarigacha kengaydi. Geografik nomlar milliy qadriyat qatlamlaridan biri sifatida, xalq tarixi, madaniyati, tilini o'zida mujassam etib, milliy birlikni va davlat mustaqilligini mustahkamlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Toponimik bilimlarni amalda qo'llashning yana bir sohasi, geografik ob'ektlarning nomlash va qayta nomlash sohasidagi davlat siyosatini yanada takomillashtirish hamda samarali amalga oshirish, geografik nomlarni maqbullashtirish, ularni to'la inventarizatsiyadan o'tkazish va davlat reestrini tuzish hamda toponimik ma'lumotlarni axborot bazasini yaratishda faollik ko'rsatishdan iborat.

Toponimika muhim ma'rifiy funktsiyani ham bajaradi. Joy nomlari insoniyat tomonidan yaratilgan tarixiy, ma'naviy va madaniy yodgorlik sanaladi. Turli davrlar va tillarda paydo bo'lgan toponimlarda tsivilizatsiya tarixi o'z aksini topgan. Har yili chop etilayotgan ko'p sonli ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlar toponimik ma'lumotlarga qiziqish ortib borayotganligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, toponimika ilmiy fan sifatida jadal rivojlanmoqda ekan, insoniyat tamaddunida ilmiy, tarixiy, madaniy va milliy qadriyatlarning eng muhim elementlaridan biri bo'lgan geografik nomlar mazkur fanning o'rganish ob'ekti bo'lib qolaveradi.

## GLOSSARIY

Toponimikani ham boshqa fanlardek o'ziga xos tayanch iboralari mavjud. Ularni yaxshi o'zlashtirish esa, fan sir-asrorlarini bilib olishni osonlashtiradi. Quyida toponimikada qo'llaniladigan tayanch so'z va iboralarni qisqacha sharhi berilgan.

**Agroonim** – (yunoncha, agros – «dala, ekinzor, shudgor») – toponimning bir turi. Masalan, Bedapoya, O'ttizgektar, Sholipoya.

**Antroponim** – (yunoncha, antropos – «odam») – atoqli otning bir turi. Odanning ismi, familiyasi, taxallusi, laqabi. Masalan, Navoiy, Hamid Olimjon, Safar ota, Hayitqul tepa.

**Atoqli ot** – biran ob'ektni boshqa ob'ektlardan farq qilish uchun xizmat qiladigan so'z yoki so'zlar birikmasi, onim. Masalan, Mirzacho'l, Qizilqum, Farg'ona, Qili va boshqalar.

**Geografik ob'ektlar** – Yerning hozirda yoki o'tmishda mavjud bo'lgan hamda muayyan o'rnashgan joyi bilan tavsiflanadigan, kelib chiqishi tabiiy yoki sun'iy bo'lgan yaxlit va nisbatan barqaror hosilalari. Ular jumlasiga: ma'muriy-hududiy birliklar (viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar); aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari (mahallalar, shohko'chalar, ko'chalar, maydonlar, bog'lar, xiyobonlar); transport va muhandislik – texnika infratuzilmasi ob'ektlari (temir yo'l stantsiyalari, avtostantsiyalar, metropoliten stantsiyalari, vokzallar, aeroportlar, portlar, pristanlar, ko'priklar, raz'ezdlar, yo'llar, kanallar, suv omborlari, to'g'onlar, dambalar); tabiiy ob'ektlar (daryolar, ko'llar, muzliklar, tekisliklar, tog'lar, tog' tizmalari, g'orlar, cho'llar, vodiylar, daralar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, yonbag'irlar, foydali qazilmalar konlari) va boshqa shu kabi ob'ektlar kiradi;

**Geografik ob'ektlarning nomlari** – geografik ob'ektlarning ularni farqlash va aniqlash uchun foydalanadigan o'z nomlari;

**Geografik ob'ektning nomini belgilash** – yanada normallashtirish maqsadida geografik ob'ektning nomini aniqlash;

**Geografik ob'ektning nomini normallashtirish** – geografik ob'ektning eng ko'p foydalaniladigan va eng maqbul nomini tanlash, ushbu nom yoziladigan shaklini belgilash hamda tasdiqlash;

**Geografik ob'ektning nomini o'zgartirish** – geografik ob'ektning hozirgi nomini ushbu Qonunda belgilangan hollarda va tartibda o'zgartirish; geografik ob'ektlarning nomlari sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi – O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya,

kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi (O‘zbekiston Respublikasi “Yergeodezkadastr” davlat qo‘mitasi);

**Geografik ob‘ektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risidagi takliflarning davlat ekspertizasi** – geografik ob‘ektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini aniqlashga qaratilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Yergeodezkadastr davlat qumitasi tomonidan o‘tkazilgan toponimik, etnografik, lingvistik, kartografik va boshqa tadqiqotlar majmui.

**Geografik termin** – geografik ob‘ektning turini bildiradigan so‘zlar geografik terminlar hisoblanadi. Masalan, adir, qir, ko‘l, cho‘l, tog‘, quduq, soy, tekislik va boshqalar. Geografik terminlar turdosh otlar bo‘lganida geografik nomdan keyin kichik harflar bilan alohida yoziladi. Ko‘proq shevalarda ishlatiladigan terminlar mahalliy geografik terminlar yoki xalq geografik terminlari deyiladi.

**Gibrid nom** – ikki va undan ortiq tillarning leksik va morfologik unsurlaridan tarkib topgan nomlar. Masalan, Toshkamar, Ko‘kgumbaz, Xayrobod, Yangikent va boshqalar.

**Gidronim** – (yunoncha, gidro– suv, onim – nom, ism) – toponimning bir turi. Tabiiy yoki inson tomonidan hunyod etilgan har qanday suv ob‘ektlari – okeanlar, dengizlar, daryolar, kanallar, suv omborlari, soylar, quduqlar va boshqalar. Masalan, Atlantika, Baykal, Sangzor, Sirdaryo, Aydarko‘l, Tuzkon.

**Makrotoponim** – ma‘lum va mashhur bo‘lgan tabiiy geografik ob‘ektning atoqli oti, materiklar, qit‘alar, okeanlar, eng katta tekisliklar, tog‘lar, tabiiy geografik o‘lkalar nomi. Masalan, Evropa, Turon, Amerika, Osiyo, Oloy, Pomir. Bular ko‘pincha olimlar, sayyohlar tomonidan beriladi va rasmiylashtiriladi. Makrotoponimlar ha‘zida yerli aholiga ma‘lum bo‘lmasligi mumkin, Chunki ular asosan mikrotoponimlardan foydalanadilar.

**Mikrotoponim** – muayyan hududda ma‘lum bo‘lgan kichik geografik ob‘ektlarning atoqli otlari. Masalan, buloqlar, ko‘priklar, jarliklar, quduqlar, bog‘lar va boshqalar. Mikrotoponimlar uchun omonatlik, o‘zgaruvchanlik, harakatchanlik xosdir, hamda ular nafaqat geografik tushuncha balki, ma‘naviy tushuncha hamdir. Mikrotoponimlar odatda og‘zaki nutqda qo‘llaniladi, kamdan-kam yozuv ma‘lumotlarida ishlatiladi. Tilning o‘zgarishi bilan mikrotoponimlar ham o‘zgaradi. Ularning ko‘pchiligi yuqolib ketishi ham mumkin. Mikrotoponimlar

ko'p vaqtda ma'lum hududda yashovchilar ichida uchratiladi va uni yakka shaxs ham yaratishi mumkin.

**Oykonim** – (yunoncha, oykos – uy, turar joy, makon)- toponim turi, aholi yashaydigan har qanday joyning qishloq, ovul, shaharcha, shaharning nomi. Masalan, Toshkent, Nukus, Jizzax, Zomin, Marjonbuloq.

**Oronim** – (yunoncha, oros – «tog'») – tog'lar, qirlar, tepaliklar, daryolar, daralar va boshqa bir qator orografik ob'ektlarning nomi. Masalan, And, Himolay, Alp, Pomir, Oloy.

**Toponim** – (yunoncha, topos – joy, makon, onima- nom, ism.) – har qanday geografik ob'ektning atoqli oti, nomi. Masalan, gidronim, oykonim, urbonim, agroonim.

**Transkriptsiya** – (lotincha, transcriptio – «ko'chirib yozish») boshqa tildagi geografik nomlar (fonemalar)ni o'z tilidagi grafemalar (harflar) bilan ifodalash, yozish. Transkriptsiya deganda so'zlarni va matnlarni ularning talaffuzini hisobga olgan holda muayyan yozuv vositalari yordamida yozish, ifodalash usuli tushuniladi.

**Formant** – (lotincha, formans – «hosil qiluvchi») – so'z yasaydigan, lekin mustaqil ishlatilmaydigan unsur. Toponimlar tarkibida ayniqsa ko'p uchraydi. Masalan, kent- Nushkent, Yangikent; loq– Toshloq, Qumloq va boshqalar.

**Etnonim** – (yunoncha, etnos – «xalq», onim – «ism, nom») – urug', qabila, elat, xalq, millat va boshqa xil etnik uyushmalar nomi. Urug', qabila,, xalq nomi o'zi tamonidan tanlangan yoki o'zgalar tamonidan berilgan bo'lishi mumkin. Masalan, barlos, nayman, qipchoq, jaloyir, laqay va boshqalar.

**Etimon** – (yunoncha, etimon – «haqiqat, so'zning asl ma'nosi»)– muayyan nomning tatqiqotchilar aniqlagan dastlabki shakli, ma'nosi.

**Haqiqiy toponim** – bu karta, ma'lumotnomalarga tushgan, aslida mikrotoponimlardan kelib chiqqan tabiiy va sun'iy ob'ektlarning yakka nomi. Ular har xil xalq va turli tillar mahsulidir. juda ko'p ishlatiladi va o'zi joylashgan hududdan boshqa joylarda ham ma'lumdur.

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2008.
2. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: "O'zbekiston", 2009.
3. Абаев В.И. Историко-этимологический словарь осетинского языка. – М.: «Мысль», 1958.
4. Абдимуратов К.А. Топонимика Каракалпакии. АКД. Нукус, 1966.
5. Abduraxmanov A. Toponimika jene etimologiya. – Almati. "G'itim", 1975.
6. Abulg'oziy Bahodirxon. Shajarayi turk. – T.: "Cho'lpon", 1992.
7. Агеева Р.А. Происхождение имен рек и озер. – М.: "Наука", 1985.
8. Агеева Р.А. Страны и народы: Происхождение названий. – М.: "Наука", 1990.
9. Беленькая В.Д. Очерки англоязычной топонимики. – М., 1977.
10. Arab geograflari kutubxonasi seriyasi. – T.: «Fan», 1997, 1-4-jild.
11. Архангельский Н.П. Среднеазиатские вопросы географической атамалогии и транскрипции. – Т., 1934.
12. Бартольд В.В. Сочинения в 9 томах (10 книгах). – М.: 1963-1973.
13. Bahritdinov B., Saidov A. Muhofazaga muhtoj toshlar. – T.: «Fan», 1989. – 32 b.
14. Begaliev N.B. O'zbek etnonimlari tarixidan. -Samarqand. 2004. – 90 b.
15. Begmatov E. Joy nomlari – ma'naviyat ko'zgusi. – T.; «Ma'naviyat», 1998.
16. Begmatov E. Joy nomlari va joylarni nomlash oldiga qo'yilgan asosiy talablar. // Toshkent shahri va viloyati toponimlari muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya tezislari. - T.: 1994. – 22-23 b.
17. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T.: 1960. 368 b.
18. Bo'riev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. – T.; "O'zbekiston", 1997.
19. Vamberi H. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. – T.: 1990. 93 b.

20. Вартаньян Э. История с географией, или жизнь и приключения географических названий. – М., 1986.
21. Владимирцов Б.Я. Заметки к древнетюркским и старомонгольским текстам. ДАН, – Владивосток, 1929.
22. Вяткин В.Л. Материалы к исторической географии Самаркандского вилайета. СКСО, вып. VII. – М., 1902.
23. Гафуров А. Рассказы об именах. – Душанбе, 1968.
24. Гельдиханов М. Местные географические термины Туркменистана. АКД. – Баку, 1973.
25. Geografiya va qadriyatlar. //Ilmiy seminar materiallari. – Т. 2001. –210 б.
26. Губаева С.С. Этнонимы в топонимии Ферганской долины. // Автореф. дис. канд. истор. наук. – М., 1973.
27. Данчинова И.А. Тсория и практика топонимических исследований. – М.: МФГО, 1974.
28. Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. – Т.: 1968. –97 б.
29. Do'simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. –Т.: "O'qituvchi", 1977. – 174 б.
30. Do'simov Z. Xorazm toponimlari. – Т.: «Fan», 1985. – 104 б.
31. Do'simov Z. Toponimlar tasnifi masalasiga doir. // O'zbek tili va adabiyoti. – Т.: 1978. №1. –б. 17-20.
32. Ерсмия А.И. Географические названия рассказывают. – Кишинев, 1982.– 102 с.
33. Jomiy Abdurahmon. Kulliyot. 7-jild. – Dushanbe, 1989.
34. Жучкевич В.А. Общие и региональные географические закономерности топонимики. АДД – Минск, 1970.
35. Жучкевич В.А. Общая топонимика. – Минск: Высшая школа, 1980.–288 с.
36. Закиров А.А. Топонимия Джизакской области. //Автореф. дис. канд. филол. наук. – М.: 1992.–23 с.
37. Кадырова Ш.М. Микротопонимы Ташкента. АКД. – Т.: 1970.
38. Камолиддин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. – Т.: "Шарк". 2006.–192 с.
39. Караев С. Топонимия Узбекистана. – Т.: "Фан", 1991. – 130 с.
40. Karimov S.A., Bo'riev S.N. O'zbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida. – Т.: "Fan", 2006. – 132 б.

41. Кармышева Б.Х. О некоторых древних тюркских племенах в составе узбеков. – М.: «Наука», 1960.
42. Карпенко Ю.А. Топонимы и географические термины (вопросы взаимосвязи). // Сб. Вопросы географии, вып. 81. – М., 1970. – 36-45 с.
43. Конкашпаев Г.К. Словарь казахских географических названий. – Алма-Ата, 1962. – 185 с.
44. Конкобасев К. Топонимия Южной Киргизии. АКД. – М., 1983.
45. Koshg'ariy Mahmud. Devonu lug'otit turk. – Т.: "Fan", 1967. 545 б.
46. Латипов Д. Топонимия города Маргилана и его окрестностей (Лингвистический анализ). АКД. – Т., 1975.
47. Мельхеев М.Н. Географические названия (топонимический словарь). – М., 1961.
48. Mirakmalov M.T. Tabiiy geografik terminlarning shakllanishida xalq (mahalliy) atamalarining o'rni // Geografiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Т., 1998.
49. Мурзасев Э. М. Словарь пародных географических терминов. Изд. 2-е, перераб. и доп.: в 2-х томах. – М.: "Картгеоцентр-Geoиздат", 1999.
50. Мурзаев Э. М. Слово на карте. – М.: "Армада-пресс", 2001. – 448 с.
51. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. – М.: "Мысль", 1974. – 382 с.
52. Мурзасев Э.М. География в названиях. – М.: "Наука", 1979. – 166 с.
53. Мурзасев Э. М. Топонимика и география. – М.: "Мысль", 1995. 304 с.
54. Musin R.A. So'z mag'zidan yer qa'riga. – Т., 1967. – 58 б.
55. Nabiev A. Tarixiy o'lkashunoslik. – Т., 1996. – 144 б.
56. Nayimov S.N. Buxoro oblasti toponimiyasi. – Т., 1984.
57. Narshaxiy Abu Bakr Muhammad. Buxoro tarixi. – Т., 1966.
58. Nafasov T. Janubiy O'zbekiston toponimiyasining etnolingvistik analizi. – Т.: "O'qituvchi", 1985. – 83 б.
59. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. – Т.: "O'qituvchi", 1988. – 288 б.

60. Nafasov T. Qishlog'ingiz nega shunday atalgan? – T.: “Fan”, 1989. – 100 b.
61. Nizomov A. Toponimika. – T.: “Sharq”, 2012. – 120 b.
62. Никонов В.А. Введение в топонимику. – М.: “Наука”, 1965. – 178 с.
63. Никонов В.А. Краткий топонимический словарь. – М.: 1966. – 509 с.
64. Никонов В. А. Имя и общество. – М.: “Наука”, 1974. – 278 с.
65. Ономастика и норма. – М.: “Наука”, 1976. – 256 с.
66. Охупов N. Joylar va nomlar. – T.: «O'zbekiston», 1986. – 24 b.
67. Охупов N. Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari. – T.: «Fan», 1989. – 56 b.
68. Ochilov A. O'rta Osiyo geografiasining taraqqiyoti tarixi. – Samarqand, 2003.
69. Og'a Burgutli. Jizzax viloyati ziyoratgohlari. – T.: “Fan”, 2008. – 50 b.
70. Pardaev A.H. Jizzaxning so'ngi o'rta asr tarixiy geografiasiga oid dastlabki mulohazalar. // O'zbekiston moddiy – madaniyati tarixi. 33-nashri. – T., 2002.
71. Попов А.И. Географические названия. (введение в топонимику). – М., 1965.
72. Пospelov E.M. Топонимика в школьной географии. Пособие для учителей. – М. “Просвещение”, 1981. – 144 с.
73. Пospelov E.M. Географические названия мира: Топонимический словарь: около 5000 единиц. // Отв. ред. Р.А.Агеева. – М.: ООО “Издательство АСТ”, 2001. – 512 с.
74. Принципы топонимики. – М.: “Наука”, 1964. – 151 с.
75. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. т.1. – М., 1963.
76. Рахматов Т. Топонимия города Самарканда и его окрестностей. АКД. Ташкент, 1973.
77. Розенфельд А.З. Топонимика Ванджа. // Сб. Топонимика Востока. – М., 1962. – 69 с.
78. Рылюк Г. Я., Басик С. Н. В мире географических названий южных материков. – Минск: ЗАО «Веды», 1998. – 180 с.
79. Рылюк Г.Я., Басик С.Н., Шафран В.В. В мире географических названий материков северного полушария. – Минск: “Народная асвета”, 2000. – 191 с.



80. Saidniyozov K. Amudaryo etagi o'ng sohil toponimlari. // Geografiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.; 1998.
81. Сергеев И.В. Тайна географических названий. – М., 1963.
82. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: «Наука», 1973. – 366 с.
83. Суперанская А.В. Что такое топонимика? – М.: «Наука», 1985. – 176 с.
84. Теория и методика ономастических исследований. – М.: «Наука», 1986. – 356 с.
85. Теория и методика топонимических исследований. – М.: 1975. – 97 с.
86. Tolipov F. Moziyga bo'ylashgan maskan. – T.: 2008. – 154 b.
87. Топонимика и историческая география. – М.: «Наука», 1976. – 244 с.
88. Топонимика и общество. – М.: «Наука», 1989. – 120 с.
89. Топонимика в региональных географических исследованиях. – Москва: «Наука», 1984. – 110 с.
90. Toshkent shahri va viloyati toponimlari muammolari. // Ilmiy-amaliy konferensiya tezislari. – T.: 1994. – 92 b.
91. Фарҳанги забони тоҷики. 1-2 ҷилд. – М., 1969.
92. Ханмагомедов Х.Л. Топонимия территории со сложной географической средой и этноязыковым составом населения (на материале Дагестана): автореф. дис. д-ра геогр. наук: – Баку, 1996. – 44 с.
93. Хромов А.Л. Очерки по топонимии и микротопонимии Таджикистана. – Душанбе: «Ирфон», 1975. – 85 с.
94. Успенский Л.В. Загадки топонимики. – М., 1969.
95. Шильнова Н. Происхождение географических названий. – М., 1989.
96. Enazarov T. Toponimlarni etimologik tadqiq qilishning ilmiy-nazariy va amaliy-usuliy asoslari (Turkiy toponimlar misolida 1-kitob). – T., 2001. – 127 b.
97. Enazarov T. O'zbekiston toponimlari: lug'aviy asoslari va etimologik tadqiqi yo'llari. // Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2007.
98. Enazarov T. O'zbekistondagi ba'zi toponimlarning etimologik talqini. – T., 2004.

99. Юдахин К.К. Киргизско–русский словарь. – М., 1964. – 360 с.
100. O'zbek tiliining izohli lug'ati. 1-2 jild. – T., 1981.
101. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 1-12 jild. – T., 2000–2007.
102. O'zbekiston Respublikasi "Geografik ob'ektlarning nomlari to'g'risida"gi 2011 yili 12 oktyabrdagi № O'RQ-303–sonli Qonuni.
103. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Geografik ob'ektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik ob'ektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida" gi 2012 yili 16 oktyabrdagi № 295-sonli Qarori.
104. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 4 martdagi № 48-sonli "Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shunindek ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori.
105. O'rinboev B. Jizzax toponimlarining ta'biri. – Samarqand, 2007.
106. Qoraev S. Geografik nomlar ma'nosini bilasizmi? – T., 1970. – 190 b.
107. Qoraev S. Geografik nomlar ma'nosi. – T.: 1978. – 180 b.
108. Qoraev S, va boshq. Geografik terminlar va tushunchalar izohi lug'ati. – T.: "O'qituvchi", 1979. – 156 b.
109. Qoraev S. O'zbekiston toponimlarini hosil qiladigan asosiy terminlar va boshqa so'zlar lug'ati. – T.: 2001. – 176 b.
110. Qoraev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. – T., 2005. – 238 b.
111. Qoraev S. Toponimika. – T.: 2006. – 320 b.
112. G'ulomov P.N. Jo'g'rofiya atamaları va tushunchalari izohli lug'ati. – T.: "O'qituvchi", 1994.– 140 b.
113. G'ulomov P.N., Mirakmalov M.T. Toponimika va geografik terminshunoslik. – T.: "Universitet", 2005
114. G'ulomov P.N. Inson va tabiat. – T.: 2009.–83 b.
115. G'ulomov P.N. Toponimlarni turlari va joy nomlarini rayonlashtirish haqida mulohazalar. O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti. 42-jild. – T.: 2013.
116. G'ulomov Ya.G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. – T.: 1959.
117. Haydarov H. Jizzax viloyati tarixi. – T.: "Mehnat", 1996. – 180 b.

118. Hakimov Q.M. Jizzax viloyati geografik nomlari. – Jizzax. 2013. – 203 b.

119. Hakimov Q.M. Jizzax viloyati toponimlari. – Jizzax. “Sangzor”, 2014. – 204 b.

120. Hasanov H. O‘rtaosiyolik geograf va sayyohlar. – T., 1964. – 252 b.

121. Hasanov H. O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan. – T.:1965. – 80 b.

122. Hasanov H. Geografik nomlar siri. – T.: “O‘zbekiston”, 1985. – 120 b.

123. Hasanov H. Beruniy asarlarida toponimika. // Beruniy va ijtimoiy fanlar. – T.: 1972.

124. Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – T.: 1985. – 144 b.

125. Hudud ul-olam. (tarjimon O.Bo‘riev). – T.: “O‘zbekiston”, 2008. – 43 b.

126. Internet sayt: [wikipedia.org](http://wikipedia.org)

[wgeo.ru](http://wgeo.ru)

[geografiya.ru](http://geografiya.ru)

[world.freeglobus.com](http://world.freeglobus.com)

**GIDRONIMLAR HOSIL QILUVCHI TERMINLAR**

**Afdoq** – katta ariqdan chiqarilgan tarmoq

**Akvatoriya** (lotincha, aqua – «suv») – suv hududi

**Akveduk** (lotincha, aquaedustus – «suv quvuri») – ariq, jar, yo‘llar ustidan o‘tkazilgan osma quvur

**Anhor** (arabcha, birligi nahr) – katta ariq

**Arashon** (sanskritcha, rasayana – «obi hayot») – issiq mineral suvli buloq

**Ariq** (ar – qadimiy eroniy tillarda *oqmoq* fe‘lining o‘zagi, ya‘ni «suv») – suv yo‘li

**Arna** – katta kanal (Jizzax viloyatida arna – jar)

**Artezian quduq** – parrmalangan va suv otilib chiqadigan teran quduq

**Badoq, bodoq** – ariqdan boshlangan tarmoq

**Balchiq** – suyuqroq loy

**Band** – to‘g‘on

**Bo‘g‘oz** – ikki suv havzasini birlashtiradigan suv yo‘li (to‘g‘risi – bo‘g‘iz)

**Bo‘gat, bo‘g‘ot** – ariqdagi to‘siq, ko‘tarma

**Boshot** – (bashat, tosh boshot) – tosh orasidan chiqadigan buloq

**Botqoq** – doimo yoki uzoq vaqt zax bo‘lib yotadigan joy

**Buloq** – er ostidan chiqadigan tabiiy suv manbai

**Bulung‘ur** – loyqa suv

**Chalchiq** – suyuq balchiq

**Chashma** – buloq

**Dam** – suv ravon oqmaydigan, damlanib qoladigan joy

**Darg‘ot** – suv taqsimlagich gidrotexnik inshoot

**Daryo** – tabiiy o‘zandan oqadigan katta suv

**Daryoliq** – bir zamonlar daryo oqqan soyluk

**Dayravot** – daryo bo‘yidagi joylar

**Dengiz** – O‘zbekistonda keng maydonni egallagan suv (Orol dengizi), suv ombori (Toshkent dengizi)

**Do‘loh** – suvni halandga ko‘tarib beradigan moslama

**Duob, duoba, dug‘oba, duvova** – ikki suv qo‘shilgan joy

**Egrisuv** – oqim yo‘nalishi yonidagi jilg‘alarga nisbatan qiyshiq

**Ersuv** (erkak suv) – suvi yil bo‘yi kam bo‘lmaydigan, uzoqqa oqib boradigan soy

**Guldirama, guldurovuk, guldurov, gurullovuk, gurkirov** – katta sharshara

**Gum, gumsoy** – chuqur, atrofi baland soylik

**Guzar** – kechuv, daryodan kechib o‘tiladigan joy

**Hangi suv** – jala yoqqanda soylik jarlikdan toshib oqadigan suv

**Havza** – suv to‘ldirilgan katta maydon, suvlari bir daryoga qo‘shiladigan hudud

**Hovuz** – kichik suv ombori

**Irmoq** – daryoga qo‘shiladigan soy, jilg‘a

**Izza** – sernam, zax joy

**Jayxun** – jo‘shqin daryo, azim daryo, Amudaryoning arabcha nomi

**Jilbuloq, jilibuloq** – iliq suvli buloq (qishda)

**Jilg‘a** – jildirab oqadigan soy

**Jimbuloq** (jimbuloq) – kam suvli buloq

**Jinnisoy** (jinnisuv) – ba‘zan kuchli toshib turadigan soy (tentaksoy)

**Jo‘nahuloq** – qiyaroq erdan chiqqan buloq

**Jo‘yak** – ikki pushta orasidagi ariqcha

**Jo‘ybor** – ariqlari ko‘p joy

**Jo‘yinav** – yangi ariq

**Jorma, yorma** – erni yorib ochilgan ariq, quduq

**Juy, jo‘y** – soy, ariq

**Kavsar** – toza, zilol suv

**Kechik, kechuv** – daryodan, katta soydan kesib o‘tiladigan joy

**Ko‘k suv** – zilol suv, tiniq suv

**Ko‘l** – kichikroq tabiiy suv havzasi

**Ko‘lmak** – halqoh suv

**Ko‘lob** – suv yig‘ilib qolgan joy, ko‘lmak

**Ko‘rbuloq, so‘qirbuloq** – yog‘ingarchilik kam bo‘lgan yillari qurib qoladigan buloq

**Kom** – ariq

**Koriz** – bir-birlari bilan er ostida birlashtirilgan quduqlar, er osti kanali

**Nahr** – katta ariq (nar, nor ham deyiladi Narpay, Ulug‘nor kabi)

**Naynova** – qamish, g‘arovdan yasalgan nov; nov – suv oqadigan o‘zan, tarnov

**Nova** – suv oqadigan ariq, mol suv ichadigan yog‘och ariq

**Novadon** – yopiq nov

- O'jar suv** – tez-tez toshib turadigan suv, soy
- O'kuz, o'giz, o'g'iz** – katta oqar suv, daryo
- Ob** – suv, daryo, soy
- Obdon** – ko'lmak, qoq
- Obi rahmat, obi nayson** – rahmat suvi, navro'zdan 2-3 kun oldin yog'adigan barakali yomg'ir (ziroat uchun obi hayot hisoblanar ekan)
- Obi siyoh** – qora suv, qoramtir suv (qarang: *qorasuv*)
- Obod** – (aynan «suvli joy»)– o'zlashtirilgan sersuv joy
- Obshor** – sersuv joy
- Obxona** – suv manbai yonida qurilgan maxsus bino
- Odoq** – suvning etagi
- Olish, alish** – katta ariqning qulog'i, ariqdan suv olinadigan joy
- Oqdaryo** – eski o'zandan oqib turgan daryo
- Oqova** – partov, tashlandiq suv
- Oqsuv** – qor va muzliklardan suv olib ko'pirib tez oqadigan oqish
- suv**
- Osma quvur** – akveduk
- Otquduq** – suvi ot yordamida tortib olinadigan quduq
- Poynov** – ariq, hovuz kabi suv ob'ektlarning suv oqib chiqib ketadigan tomoni
- Ro'd** – soy daryo
- Qayir** – suv labiga yaqin pastlik erlar
- Qayirma** – suv qayrilib oqadigan joy, muyulish
- Qaynama** – girdob
- Qaynar buloq** – suvi otilib qaynab chiqadigan buloq
- Qo'l**– soyning irmog'i yoki tarmog'i
- Qo'lat**– soylik
- Qoq** – cho'llarda bahorgi yog'ingarchilik vaqtida suv to'ladigan sayoz botiq
- Qora daryo** – sun'iy o'zandan oqizilgan daryo, kanal
- Qora suv** – tekis erlarda buloq va sizot suvlardan hosil bo'lgan qoramtir suv
- Quduq** – er ostidan suv olinadigan chuqurlik
- Quduqcha** – quduq ko'p joy
- Quloq** – ariqdan, anhordan suv chiqariladigan joy
- Quvur** – suv oqiziladigan moslama
- Ro'dak** – kichik soy
- Ro'dxona** – daryo, soy o'zani
- Sel** – toshqin suv

- Selbur** – sel urib ketgan joy
- Seldara** – sel kelib turadigan dara
- Selgoh** – sel kelishi mumkin boʻlgan joy
- Selroha** – sel oʻzani
- Selxona** – toshqin suv toʻplanib qoladigan soylik
- Shahrroʻd** – shaharni suv bilan taʼminlaydigan kanal, nahr
- Sharaqsoy** – sharillab tez oqadigan soy
- Sharildoq, shaldiroq, sharilloq, sharillovuq, sharlovuq, sharshar**  
– sharshara
- Sharsharak** – tepadan sharillab tushadigan suv, sharshara
- Shohroʻd** – katta daryo, kanal
- Shoxob, shaxob, shaxobcha** – daryo yoki soyni iringi
- Soy** – kichik daryo
- Suv hududi** – akvatoriya.
- Suv ombori** – koʻp suv toʻplanadigan chuqur joy
- Suv, su** – tabiiy suyuqlik; daryo, soy
- Suvot, suvlot** – chorva mollari suv ichadigan joy
- Tagob, takob, tagop** – er osti suvi chiqib turgan joy, soylik, bir ariqdan suv ichadigan maydon
- Telha suv** – oʻzanini oʻzgartirib turadigan soy, jilgʻa
- Tezob** – tez oqadigan soy
- Tomchi** – suvi qoyadan tomchilabgina tushadigan buloq
- Tosh qoq** – togʻlarda, qoya oʻyiqalarida toʻplangan suv
- Toshqin** – daryo, soy suvining oʻzandan chiqib tevarak-atrofni suv bosishi
- Xotinsuv** – suvi miqdori bir oz oʻzgarib turadigan kamsuv soy, jilgʻa
- Yob, yop, yab, yap** – ariq (Xorazm)
- Yuguruksoy** – tez oqadigan soy
- Zagʻorakash** – zovur, oqava tushadigan ariq
- Zax, zak** – semam joy
- Zaxbur** – zax suvi oqadigan ariq, zovur
- Zaxkash** – semam zax joy
- Zovur** – zaxni qochirish uchun qazilgan ariq

## ORONIMLAR HOSIL QILUVCHI TERMINLAR

- Alan** – ariq chetiga chiqarilgan tuproq uyumi  
**Anna** – jar  
**Aqbu, ug'bu, ovg'a** – dovon  
**Asqa, usqar** – baland, yuksak tog'  
**Atav** – orol  
**Aydar** – tepasida bir uyum tosh terilgan qir, balandlik  
**Ayg'ir** – ulkan, katta qoya, tosh  
**Ayloq** – tog' yaylovi  
**Ayri, ayrilish** – ikkiga ajralgan tog', qir  
**Ayrit** – suvayirg'ich  
**Balqan, bolqon** – past tog', qir  
**Baroz, baraz** – qir, tog'ning yassi tepasi  
**Baylr, boylr** – baland, do'ng, qir  
**Bel** – tog' qirrasining pastroq qismi, dovon  
**Belas** – yassi tog' tarmog'i  
**Belchagach** – beli past tog'cha, qir  
**Beshiktosh** – shaklan beshikka o'xshagan qoya  
**Bet, betkay** – yonbag'ir  
**Bltov** – boshi berk dara  
**Bo'ynoq** – tog' tizmalarining tor, siqiq joyi  
**Boldir** – do'ng, tumshuq  
**Burun** – muyulish  
**Burun, murun** – tumshuq, muyulish  
**Chag'at** – oflobga qaragan chag'ir toshli tik yonbag'ir  
**Chalqa** – adirlardagi tekis maydon  
**Chel** – marza  
**Chem** – to'g'on, qo'rg'on  
**Chep** – g'ov, to'siq  
**Chig'anoq** – daryo tirsagi  
**Ching, chink** – jarlik  
**Cho'nag'ar** – jo'na, ya'ni cho'zinchoq tepalikning qirrasini  
**Choh** – chuqur, o'ra, quduq  
**Chot** – tog' tarmoqlari tutashgan joy  
**Chotqol** – tog' yoki daraning qo'shilgan yoki tarmoqlarga ajralgan joyi  
**Darvoza** – daradan o'tgan tog' yo'lining kambar joyi



- Davtosh** – katta tosh  
**Do‘lan** – ulkan tog‘  
**Do‘ng** – yassi tepalik  
**Do‘ngsoy** – past yassi tepalik  
**Egarbel** – dovon  
**Egartosh** – shakli egarga o‘xshagan o‘rta qismi egilgan qoya, tosh  
**Enkayma** – nishab qiyalik  
**Etimqum** – yakka qumlik  
**Etimtog‘** – yakka turgan pastroq tog‘  
**G‘o‘rum, qo‘rum** – tog‘ tepasidan qulab tushgan toshlar uyumi  
**Ho‘r** – tepalik  
**Jirindi** – suv o‘ygan kichik jarlik  
**Jo‘na** – cho‘zinchoq tepalik qirrasasi  
**Jo‘nag‘ar** – tog‘ qirrasasi  
**Kamchik, kemtik** – tog‘ qirrasining past joyi  
**Keraga** – cho‘zinchoq qoya.  
**Kindik** – adir, qirlarning markaziy qismi  
**Ko‘h** – tog‘  
**Ko‘hak** – kichik tog‘, qir  
**Ko‘histon** – tog‘lar o‘lkasi  
**Ko‘tal** – dovon  
**Ko‘tarma** – tuproq, toshdan yasalgan tepalik  
**Kunas, kunash** – seroftob joy  
**Kunchihoq, kunshuvoq** – janubga, oftobga qaragan (betkay)  
**Kungaboq** – oftobro‘y, kunga qaragan joy  
**Kungay** – kunga qaragan, oftobro‘y yonbag‘ir  
**Mag‘ara** – qadimiy imoratlarning do‘ppayib turgan qoldiqlari  
**Marza** – chegara, uvat  
**Narvon** – zinapoyasimon yonbag‘ir, shoti ham deyiladi  
**Nishab** – qiya  
**Nov, nova** – ariq, tarnov  
**Novur** – nov shaklidagi toshloq, tik soylik  
**O‘ha** – baland joyga, ba‘zan tekislikka terib qo‘yilgan tosh uyumi  
**O‘gaytosh** – yalang erda cho‘qqaygan kichikroq qoya  
**O‘r** – balandroq joy  
**O‘ra** – chuqurlik, xandaq  
**O‘y** – pastlik, botqoqlik  
**O‘ydiq** – chuqur joy

- O'ypot** – pastlik, tevarak atrofdan chuqurroq joy  
**O'zak** – soy, jarlik, suv tarmog'i  
**Odamtosh** – shakli odam gavdasiga o'xshagan qoya  
**Olatov** – ola-bula tog'  
**Oqqum** – o'simliksiz yalang ko'chma qum  
**Oqtapa** – oq tuproqli tepalik  
**Oqtosh** – oq tusli tosh, kvarts  
**Oshuv** – dovon  
**Oynatosh** – ko'zguga o'xshash yaltiroq tosh  
**Parida** – odam yiqilib uchib tushishi mumkin bo'lgan tik qoya  
**Past** – quyi, etak  
**Pitov** – boshi berk dara, soylik  
**Qahlag'a, qohlug'** – serqatnov daraning eng tor joyi  
**Qumrov** – atrofi tog'-qir bilan o'ralgan berk joy  
**Qapchig'ay** – tor dara  
**Qarim** – do'nglik, tepalik  
**Qashat** – jarlik yoqasi  
**Qatlamatosh** – yupqa qatlamlardan iborat tosh, gilli slanets  
**Qayirma** – yo'l, muyulish  
**Qazg'anaq** – chuqurlik  
**Qir** – balandlik  
**Qirang, qirpang** – qirning qirrasi  
**Qisiq, qisilish** – daraning o'tish qiyin kambar qismi  
**Qiya** – nishab yonbag'ir  
**Qo'lat** – jarlik, chuqurlik  
**Qoratepa** – asli qorovultepa, yovni kuzatib turadigan tepalik  
**Qorator** – past tog', yozda qor yotmaydigan tog'  
**Qovoq** – baland qirg'oq, yalang jarlik  
**Qoxti** – tog'lardagi tosh o'yiqli va unda to'plangan qor-yomg'ir suvi  
**Quyt** – pastlik, quyilik  
**Rash, irash** – ariq chetiga uyulgan tuproq  
**Reg** – qum  
**Registon** – qumli cho'l, shaharda qum to'shalgan maydon  
**Regzor** – qumlik  
**Rosh** – uvat, marza, chel  
**Sakirtma** – pog'ona– pog'ona  
**Sang** – tosh  
**Sandiqtoosh** – shaklan sandiqqa o'xshash tosh, qoya

**Sangiston** – toshloq joy  
**Sangloq** – g'ola toshli soylik  
**Sangzor** – toshloq maydon  
**Sayhon** – ochiq maydon, tekislik  
**Sengir** – tik qoya, o'simlik bilan qoplangan baland tog' qirrası  
**Shaqshaq** – qalin-qalin tosh qatlamlari  
**Shiram** – tog' etagidagi cho'zinchoq-qir  
**Shovqar** – qora tog'  
**Sig'alon** – tog' yonbag'irlaridagi to'plangan silliqlanmagan parcha

toshlar

**Sina, siyna** – ko'krak shaklidagi balandlik, qir, tog'  
**Suchtepa, chochtepa, choshtepa, shoshtepa** – sun'iy tepalik  
**Sug'ch** – tog'ni o'tish joyidagi sun'iy toshlar uyumi  
**Supa** – tog'da tekis maydon  
**Tal** – tepalik  
**Tallak** – tepacha  
**Tangi** – tor dara  
**Tarnov** – ariqcha  
**Taypoq** – yassi, yalpoq maydon  
**Temirqovuq** – serqatnov daraning eng kambar, qoyali qismi  
**Teva** – tepa, tepalik  
**To'man** – pastki, quyi, etak  
**To'sh, do'sh** – tog' bag'ridagi do'ppaygan balandlik  
**Tosh** – alohida turgan qoya  
**Toshloq** – sertosh maydon  
**Toshqoq** – tog'lardagi tosh o'yiqlik va unda hosil bo'lgan ko'lmak  
**Toshzor** – toshloq er  
**Tumshuq** – muyulish  
**Tuyatosh** – tuyaday katta xarsangtosh  
**Tuz** – tekislik  
**Uchma** – tik qoya, odam yiqilib tushadigan buzuv jarlik  
**Uvat** – ekin maydoni chegarasi, marza  
**Uloq** – chopqich – ko'pkari chopish uchun qulay tekis maydon  
**Xandaq** – uzun chuqurlik, transheya  
**Yona, jona** – qiya yonbag'ir  
**Yor** – jar, yorma  
**Yorma** – ermi chuqur yorib ochilgan ariq  
**Jiyg'a** – kichik soylik

## O'ZBEKISTON ETNONIMLARI

|             |               |                  |             |
|-------------|---------------|------------------|-------------|
| Abiz        | Besho'g'il    | Chigil           | Eltamg'ali  |
| Achamayli   | Beshota       | Chiljuvut        | Enaka       |
| Achchi      | Beshqo'ton    | Chilkas          | Erganakli   |
| Alako'ylak  | Beshquvi      | Chillikli        | Esanxo'ja   |
| Alelicha    | Beshsari      | Chimboy          | Esat        |
| Alipli      | Bo'taqora     | Chingiz          | Eshakchi    |
| Aqay        | Bo'gajili     | Chinoz           | Eshbachcha  |
| Arg'in      | Bo'ja         | Chiriq           | Eshbo'Idi   |
| Arlot       | Bo'kalay      | Chirkas          | Ettiqashqa  |
| Asaka       | Bo'ronboy     | Chirqirovuq      | Ettiorug'   |
| Avjin       | Bo'yin        | Chiyonli         | Evalak      |
| Avoqli      | Bo'zchi       | Cho'qman         | G'arovli    |
| Avshar      | Bog'lon       | Cho'michli       | G'o'rojin   |
| Axtachi     | Bolg'abosgan  | Cho'michtamg'ali | G'uralas    |
| Aymat       | Bolg'ali      | Cho'poq          | Gala        |
| Ayronchi    | Boqibachcha   | Cho'tqora        | Go'balak    |
| Ayteke      | Boybo'ri      | Choldar          | Gudraybiy   |
| Badir       | Boyg'undi     | Cholmo'yin       | Gulsaroy    |
| Badroqli    | Boylar        | Cholqishloq      | Gurlan      |
| Bag'ish     | Boymoqli      | Chortkesar       | Gurtak      |
| Bag'anali   | Boyovut       | Chovchi          | Hakka       |
| Bag'lan     | Bugach        | Chovdur          | Havash      |
| Bahrin      | Burqut        | Chuvalachi       | Hofiz       |
| Balxi       | Chag'ir       | Chubat           | Hosilbosh   |
| Barak       | Chag'rak      | Chumchuqli       | Ilamji      |
| Barlos      | Chalamang'it  | Chuvama          | Ilamjisaroy |
| Batosh      | Chanchuvli    | Churash          | Ilonli      |
| Baxmatchoyi | Chang'aroqchi | Chuvman          | Imom        |
| Bayot       | Chaparashli   | Chuvulloq        | Ingichka    |
| Beguzuv     | Chegana       | Chuyut           | Irg'oqli    |
| Beklar      | Chekmo'lla    | Davlay           | Isaboy      |
| Beshbegi    | Chektamg'a    | Do'rmon          | Isari       |
| Beshbola    | Chelak        | Duvlat           | Ishqili     |
| Beshjuz     | Chemsaroy     | Echkilar         | Iyarli      |
| Beshkal     | Chihar        | Egarchi          | Iynachi     |
| Beshkaltak  | Chig'atoy     | Elaton           | Jadik       |

|                 |                |              |                  |
|-----------------|----------------|--------------|------------------|
| Jag'altay       | Kesamir        | Mo'g'ol      | Olmachi          |
| Jag'alhayli     | Kirey          | Mo'likanlik  | Olmashuvon       |
| Jalmat          | Kiyikchi       | Mojorsaroy   | Oltintamg'asaroy |
| Jalong'ochsaroy | Ko'rto'g'ay    | Moltop       | Oltio'g'il       |
| Jaloyir         | Ko'kqang'li    | Moshlar      | Oqbaroq          |
| Jamansha        | Ko'kto'nli     | Moyna        | Oqhaytal         |
| Jamonsaroy      | Ko'nchi        | Muazzaroni   | Oqboy            |
| Jarat           | Ko'rpachuvish  | Mulkush      | Oqbug'ra         |
| Jarg'oq         | Ko'rpali       | Munduz       | Oqchepkan        |
| Jastabon        | Ko'sa          | Musobozori   | Oqdantuqqan      |
| Jat             | Ko'ztamg'ali   | Naqi         | Oqcchki          |
| Javli           | Kovon          | Nayman       | Oqman            |
| Javog'i         | Kuchchekli     | Naymansaroy  | Oqmang'it        |
| Jetiqashqa      | Kulburun       | Nebo'sa      | Oqmo'yin         |
| Jettiuruv       | Kunchihog'     | Neko'z       | Oqqang'li        |
| Jilontamg'ali   | Kushkavutqirg' | Niyozjov     | Oqqipchoq        |
| Jobuvchisolin   | Kuyabosh       | No'g'ayvacha | Oqqo'yli         |
| Jonsit          | Lapakqiyot     | Norin        | Oqto'nli         |
| Julun           | Lattaband      | Nuduchi      | Oqtoyloq         |
| Junni           | Loqay          | O'choqli     | Orday            |
| Juyrat          | Makay          | O'g'in       | Orlat            |
| Juyrot          | Makayqang'li   | O'g'uz       | Orolli           |
| Kadan           | Mang'it        | O'lmas       | Os               |
| Kal             | Marqa          | O'ramas      | Ossaroy          |
| Kalamush        | Mashkop        | O'ray        | Oyinni           |
| Kalsari         | Mavlush        | O'raztoy     | Oytamg'ali       |
| Kaltatoy        | Maydon         | O'ris        | Parchayuz        |
| Karchin         | Merkit         | O'roqli      | Pashqurt         |
| Kasbi           | Mexayam        | O'tamayli    | Paytavabosh      |
| Kashmiri        | Miattari       | O'tarchi     | Pichoqchi        |
| Kasovli         | Minjirsaroy    | O'yuvli      | Po'ladchi        |
| Kattaming       | Mirishkor      | Oboqli       | Po'lasherali     |
| Kavraksolin     | Mirzato'p      | Ochmang'it   | Potos            |
| Kelachi         | Mirzayor       | Og'ar        | Puchuoqoy        |
| Kelasqang'li    | Mirzoyi        | Olaqanot     | Qahat            |
| Kenagas         | Misit          | Olaqop       | Qalmoq           |
| Kenjajuz        | Mixin          | Olato'n      | Qamaychi         |
| Kerayit         | Miytan         | Olchin       | Qang'li          |

|                 |              |                |             |
|-----------------|--------------|----------------|-------------|
| Qanjig'ali      | Qorabura     | Quraman        | Siyroqli    |
| Qaraman         | Qoraboyli    | Qurqozon       | So'loqli    |
| Qarapchi        | Qoracha      | Qursoq         | Soboloq     |
| Qarg'a          | Qorachapon   | Qutchi         | Solin       |
| Qarluq          | Qorachivar   | Quyonguloq     | Solor       |
| Qarmish         | Qorakasmak   | Ramadon        | Soqov       |
| Qarqarali       | Qorakesak    | Ramazon        | Sug'umboy   |
| Qashqari        | Qorakisa     | Saltir         | Sulaymon    |
| Qatag'on        | Qorako'sa    | Sandikli       | Sulduz      |
| Qaychili        | Qoramang'it  | Saribosh       | Surun       |
| Qayrangli       | Qoramo'yin   | Sarig'qatag'on | Tama        |
| Qayroqli        | Qoramurcha   | Sario'roqli    | Tamaguzar   |
| Qiltamg'ali     | Qoramurut    | Saripichoq     | Tamayrat    |
| Qipchoqsaroy    | Qorapichoq   | Sariqang'li    | Tarag'ay    |
| Qirg'ili        | Qoraqang'li  | Sariq          | Tariqbosh   |
| Qirg'izsaroy    | Qoraqo'yli   | Sarishirin     | Taroqli     |
| Qirq            | Qoraqulonchi | Saritamg'ali   | Tavg'ach    |
| Qirqjigit       | Qoraqursoq   | Sariuymovut    | Tegana      |
| Qirqsadaq       | Qorasadaq    | Sarkach        | Telov       |
| Qirqtamg'a      | Qorasiyroq   | Sarmish        | Temirchi    |
| Qishliq         | Qorason      | Saroy          | Tentak      |
| Qiyot           | Qoratamg'ali | Sartulli       | Tig'iriq    |
| Qizilbosh       | Qoratayloq   | Sartyuz        | Tilav       |
| Qiziloyoq       | Qoraunas     | Saxtiyon       | Tilavmat    |
| Qizilqalpoq     | Qoraupa      | Sayyot         | Tiraovul    |
| Qo'g'ay         | Qoraxoni     | Sevas          | To'qman     |
| Qo'ltamg'ali    | Qorayantoq   | Shag'al        | To'g'ali    |
| Qo'ng'irboy     | Qoraymovut   | Shag'araq      | To'g'iz     |
| Qo'ng'irof      | Qovchin      | Sherbachcha    | To'lang'it  |
| Qo'ng'irotsaroy | Qozoyoqli    | Sherdantuqqan  | To'polos    |
| Qo'shtamg'ali   | Qulchan      | Sherqang'li    | To'por      |
| Qonxo'ja        | Quldov       | Shigarak       | To'pqora    |
| Qora            | Quljamon     | Shirin         | To'qboy     |
| Qoraabdol       | Qullar       | Shix           | To'pchoq    |
| Qorabag'ish     | Qulonchi     | Shodmonto'bi   | To'qman     |
| Qorabag'anali   | Qunas        | Shomon         | To'qmang'it |
| Qorabayir       | Quralas      | Sirgali        | To'qchura   |
| Qoraboy         | Qurama       | Sirtisuluv     | To'qsari    |

|             |             |               |               |
|-------------|-------------|---------------|---------------|
| To'rsari    | Turk        | Uvoqtang'ali  | Xurosoni      |
| To'rg'a     | Turkman     | Uyas          | Yag'mo        |
| Tobin       | Tushniyoz   | Uyg'ur        | Yalang'och    |
| Tog'ayto'pi | Tutamg'ali  | Uymovut       | Yalpoqbosh    |
| Tolibachcha | Tuvaloq     | Uyrat         | Yambarak      |
| Toqchi      | Tuxsi       | Uyshovut      | Yangiqo'rg'ay |
| Tortuvli    | Tuyabo'yin  | Uyshun        | Yapag'i       |
| Toshkandi   | Tuyachi     | Uz            | Yarat         |
| Toybaday    | Tuyoqli     | Uzun          | Yashiq        |
| Toyloq      | Uchqiz      | Voqimli       | Yobu          |
| Toz         | Uchtamg'ali | Voxtamg'ali   | Yobusariq     |
| Tugal       | Uchuruv     | Xalaj         | Yomonsaroy    |
| Tulkichi    | Ugat        | Xandakli      | Yomonturkman  |
| Tuma        | Ukrach      | Xatob         | Yumaloqbosh   |
| Tumar       | Ungut       | Xidirli       | Yuz           |
| Tupqora     | Urganjiy    | Xidirsha      | Zarman        |
| Turan       | Usmoni      | Xitayuzi      | Zarmas        |
| Turg'oq     | Uvolay      | Xoldorqipchoq | Zaxnayman     |
| Turi        | Uvoq        | Xontushti     |               |

## TOPONIMIKA FANIDAN TEST TOPSHIRIQLARI

1. "Geografik ob'ektlari nomlari haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qachon qabul qilingan?

- A. 2010 y. 16-oktyabr
- B. 2011 y. 12-oktyabr
- C. 2012 y. 16-oktyabr
- D. 2013 y. 12-oktyabr

2. Toponimika so'zi qaysi tildan olingan va qanday ma'noni anglatadi?

- A. Yunoncha – joy nomi
- B. Lotincha – nomlar majmuasi
- C. Arabcha – geografik nomlar yig'indisi
- D. Forsecha – nom ma'nosi

3. Bahud, past, katta, kichik, yuqori, quyi, yangi, ko'xna, eski, oq, qizil kabi terminlar qanday turdagi toponimlarda ko'p uchraydi?

- A. Aholining kash-hunari bilan bog'liq nomlar tarkibida
- B. Ob'ektning belgi-xususiyati, tomon, o'rin-joy, hajm va boshqa xususiyatlar bilan bog'liq nomlar tarkibida
- C. Joyning geografik o'rnini bildiruvchi toponimlar tarkibida
- D. Foydali qazilmalar, ularning geografik o'rnini, turlari va xususiyatlarini bildiruvchi toponimlar tarkibida

4. Toshkent so'zining eng to'g'ri ta'rif berilgan qatorni belgilang.

- A. Choch, shosh so'zlarining tosh so'ziga aylanishidan hosil bo'lgan
- B. Tosh qal'a, tosh shahar so'zlaridan kelib chiqqan
- C. Toshga hech qanday aloqasi yo'q
- D. Buzilmas, qattiq mustahkam. shahar.

5. Indikatorlar (toponimikada) nima?

- A. Joy nomlaridan hosil bo'lgan geografik terminlar
- B. Toponimlarni o'zgartiruvchi terminlar
- C. Geografik nomlardan paydo bo'lgan yangi so'zlar
- D. Toponimlar hosil qiluvchi geografik terminlar

6. Geografik ob'ektning manzilini belgilovchi nomni toping?

- A. Shimoliy dengizi
- B. O'lik dengizi
- C. Qizil dengizi
- D. Kaspiy dengizi



**7. Joyning rel'efi bilan bog'liq paydo bo'lgan geografik nomni aniqlang.**

- A. To'ron, Turkiston, Movarounnahr
- B. Yangiqo'rg'on, Kattaqo'rg'on, Chimqo'rg'on
- C. Supatog', Tovoqsoy, Armasoy
- D. Quruqsoy, G'ovasoy, Jinnisoy

**8. Qanday geografik ob'ektlarga qo'yilgan nomlar uzoq davr saqlanadi?**

- A. Antroponimlar
- B. Hidronimlar
- C. Oykonomlar
- D. Oronimlar

**9. O'zbekiston toponimiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan birini aniqlang.**

- A. Ijtimoiy nomlar ko'p
- B. Kasb-hunar bilan bog'lik nomlar kam
- C. Antroponimlar yo'q
- D. Etnonimlar ko'p

**10. Odam nomi bilan bog'liq toponimni toping.**

- A. Kanberra
- B. Islomobod
- C. Montevideo
- D. Vashington

**11. Bir-biriga teskari ma'noli geografik nomlar qanday ataladi?**

- A. Antroponim nomlar
- B. Arealli nomlar
- C. Antonim nomlar
- D. Sinonim nomlar

**12. Foydali qazilma konlari bilan bog'lik geografik nomlarni aniqlang.**

- A. Qarovulbozor, Angren, Buxoro
- B. And. Nebitdog', Solikamsk
- C. Olmaliq, Uchquduq, Zarafshon
- D. Polvontosh, Olamushuk, Ko'kaydi

**13. Urug' nomi bilan bog'liq qatorni belgilang.**

- A. O'ttiz
- B. Qirq
- C. Ellik
- D. Etmish

**14. Toponimiya nima?**

- A. Ma'lum hududdagi joy nomlari yig'indisi
- B. Joy nomlarini o'rganadigan fan
- C. Aholi turar joylari
- D. Noma'lum nom

**15. Toshkentni avvalgi nomlarini aniqlang.**

- A. Shosh.
- B. Choch
- C. Barchasi to'g'ri
- D. Toshkand

**16. H.Hasanov joy nomlarini bunyodga kelishiga qarab, shartli ravishda necha turga bo'lgan?**

- A. 9 ta
- B. 8 ta
- C. 5 ta
- D. 12 ta

**17. Daryo, suv ma'nosidagi so'zlar guruhini toping.**

- A. O'kuz, river, rio.
- B. Nahr, jayhun, don.
- C. Misi, idil, reka
- D. Barcha javoblar to'g'ri

**18. O'zlashma (kalka) nomlar bu...**

- A. Tarjima qilingan nomlar
- B. Ma'nosi bir xil nomlar
- C. Ma'nosi bir ammo, ikki tilda ikki xil ataladigan nomlar
- D. Ma'nosi turlicha ammo, ikki tilda turlicha yoziladigan nomlar

**19. Toponom qatorini belgilang.**

- A. Vulkan, geyzer, karst.
- B. Tepa, dasht, cho'l
- C. Soy, daryo, buloq
- D. Tog', qir, tangi

**20. Gibril nomni ko'rsating.**

- A. Yangikent
- B. Yangiqishloq
- C. Kattasoy
- D. Kattaqishloq

**21. Etnonim qanday nom ?**

- A. Urug', qabila, xalq nomi
- B. Kishilarni taxallusi bilan bog'liq nom

- C. Shahar nomi
- D. O'simlik bilan bog'liq nom

**22. Toshbaqa orollari bu...?**

- A. Kanar orollari
- B. Azor orollari
- C. Kapri orollari
- D. Galapagos orollari

**23. Daryo nomi bilan atalgan mamlakatni belgilang.**

- A. Senegal
- B. Chad
- C. Namibiya
- D. Misr

**24. Astana shahri ilgari qanday nom bilan atalgan?**

- A. Aqmola
- B. Selinograd
- C. Akmolinsk
- D. Barchasi to'g'ri

**25. Oykonim bu ...**

- A. Aholi manzilgohlari nomi
- B. Shahar ichidagi ob'ektlar nomi
- C. An'anaviy nom
- D. G'orlar nomi

**26. "Geografik nomlar ma'nosi" asari muallifini belgilang.**

- A. H.Hasanov
- B. T.Nafasov
- C. S.Qoraev
- D. M.Mirakmalov

**27. A.Xromov iborasi bilan aytganda, O'rta Osiyoning birinchi toponimisti bu...**

- A. Muqaddasiy
- B. Ibn Rushd
- C. Ibn Havqal
- D. Yo.Hamaviy

**28. Hozirgi Beruniy shahri ilgari qanday nom bilan atalgan?**

- A. Xiva
- B. Kat
- C. Urganch
- D. Marv

**29. Ma'lum hududdagi joy nomlari yig'indisi bu...**

- A. Toponimiya
- B. Toponimika
- C. Toponomika
- D. Toponim

**30. Amudaryoning qadimiy nomi.**

- A. O'kuz
- B. Oks
- C. Jayhun
- D. Barchasi to'g'ri

**31. Kishi nomi bilan bog'liq bo'lmagan toponimni belgilang.**

- A. Vellington
- B. Montevideo
- C. Dreyk
- D. Viktoriya

**32. "Safarnoma" asari muallifi kim?**

- A. Mahmud Koshg'ariy
- B. A. Beruniy
- C. Nosir Xisrav
- D. al-Xorazmiy

**33. Geografik nomni paydo bo'lishiga asosiy sabab...**

- A. Ijtimoiy ehtiyoj tufayli
- B. Zaruriyat tufayli
- C. Manzilni belgilash uchun
- D. Barchasi to'g'ri.

**34. Qoratog' bu...**

- A. Past tog'
- B. Qorsiz tog'
- C. Qorang'u tog'
- D. Barchasi to'g'ri

**35. «Yer – insoniyat tarixi geografik nomlar bilan yozilgan kitobdir» degan ibora kimga tegishli?**

- A. E. Murzaev
- B. N. Nadejdin
- C. H. Hasanov
- D. S. Qoraev

**36. "Har qanday toponimik tadqiqotlar geografik terminlarni o'rganishdan boshlanmog'i kerak" degan ibora muallifi kim?**

- A. E. Murzaev

B. M.Mirakmalov

C. N.Nadejdin

D. H.Hasanov

**37. So'g'dcha "kat" so'zi qanday ma'noga ega?**

A. Shahar, qishloq, aholi maskani

B. Daryo, soy, buloq

C. Tog', adir, tepa

D. Urug', qabila, elat

**38. "Hudud ul-olam" asari muallifi kim?**

A. A.Beruniy

B. M.Koshg'ariy

C. Al-Xorazmiy

D. Noma'lum

**39. Toponimik termin bu...**

A. Joy nomlari tarkihida qatnashib, ular ifodalangan ob'ektni bildiruvchi so'z

B. Toponim asosini tashkil etadi va ob'ektni turini ifodalaydi

C. Toponim asosini tashkil etuvchi turdosh ot

D. Barchasi to'g'ri

**40. Gibril nomlar bu...**

A. Ikki va undan ortiq tillarga xos so'zlardan tashkil topgan murakkab nomlar

B. Bir tilli murakkab nomlar

C. Qadimiy turkiy toponimlar

D. Geografik termin asosida paydo bo'lgan nomlar

**41. Abbreviatura nima?**

A. Rel'ef shaklini anglatuvchi nomlar

B. Urug', qabila nomlari

C. Geografik nomlarni qisqartirilgan shakli

D. Toponimlarni o'zgartirgan shakli

**42. «O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan» asari muallifi kim?**

A. E.Murzaev

B. M.Mirakmalov

C. N.Nadejdin

D. H.Hasanov

**43. Tinch okeani deb nom bergan dengizchi – sayyohni belgilang.**

A. F.Magellan

B. X.Kolumb

- C. J.Kuk
- D. R.Skott

**44. Toponimik pozitivlik qonuniyati mazmuni nimadan iborat?**

- A. Nom real voqealikni aks etadi
- B. Nom real voqealikni aks etmaydi
- C. Nom tasodifiy paydo bo'lgan
- D. Nom berilgan vaqtda aniq ma'no kasb etgan

**45. Kishilarni kasb-hunari bilan bog'liq geografik nomni belgilang.**

- A. G'azg'on
- B. Shohimardon
- C. Sarrofon
- D. Bog'don

**46. Toponimika integral ilmiy yo'nalish, "chegaraviy" fan degan tushuncha qanday ma'noga ega?**

- A. Geografiya, filologiya va tarix fanlarining manfaatlari tutashgan joyda paydo bo'lgan.
- B. lingvistika, tarix va etnografiya fanlari negizida shallangan.
- C. Tarix, falsafa va iqtisodiyot nazariyasi fanlarining qirrasida paydo bo'lgan.
- D. Geografiya va kartografiya fanlari asosida paydo bo'lgan.

**47. Qaysi mamlakatning bayrog'ida chinor bargi tasviri tushirilgan**

- A. Kanada
- B. AQSH
- C. Meksika
- D. Kuba

**48. Markaziy Osiyoga maxfiy sayohat qilib, "Markaziy Osiyoning geografik nomlari" kitobini yozgan kim?**

- A. N.Nadejdin
- B. V.Bartold
- C. H.Vamberi
- D. V.Vyatkin

**49. "Toponimikaga kirish" asarining muallifi kim?**

- A. E.Murzaev
- B. V.Nikonov
- C. V.Juchkevich
- D. A.Xromov

**50. Tilshunos toponimist olimlar qatorini belgilang.**

- A. E.Begmatov, T.Nafasov, Z.Do'simov
- B. A.Muhammadjonov, O.Bo'riev, A.Nabiev
- C. H.Hasanov, S.Qoraev, M.Mirakmalov
- D. P.G'ulomov, A.Soliev, Q.Hakimov

**51. Quyidagi ta'rif qaysi toponimik qonuniyatga tegishli? Geografik ob'ektning tabiiy yoki ijtimoiy-iqtisodiy alomatlarini, ya'ni real voqea-hodisalarni o'zida aks etadi.**

- A. Nisbiy negativlik
- B. Toponimik pozitivlik
- C. O'zlashma nomlar
- D. Xalqona etimologiya

**52. F.Magellan sayohatidan keyin geografiya olamida qanday yangilik bo'ldi?**

- A. Dunyo okeanining bir hutun ekanligi aniqlandi
- B. Yerning shar shaklida ekanligi aniqlandi
- C. Tinch okeanning eng ulkan okean ekanligi aniqlandi
- D. Atlantika eng sho'r okean ekanligi aniqlandi

**53. Antarktidani qaysi mamlakat dengiz sayyohlari kashf etdi?**

- A. Fransiya
- B. Italiya
- C. Germaniya
- D. Rossiya

**54. Detoponimizatsiya nima?**

- A. Geografik nomlarni terminlarga aylanishi
- B. Toponim hosil qiluvchi mahalliy termin
- S. Geografik nomning qisqartma shakli
- D. Terminlarni geografik nomga aylanishi

**55. A.Beruniyning «Saydana» asarida qancha nom tilga olingan?**

- A. 300 ta
- B. 400 ta
- C. 350 ta
- D. To'g'ri javob yo'q

**56. Xato nomlar qatorini belgilang.**

- A. Afrika, Atlantika okeani
- B. Amerika, Tinch okeani
- C. Avstraliya, Shimoliy Muz okeani
- D. Xuroson, Movarounnahr

**57. "Geografik nomlar imlosi" asari muallifi kim?**

- A. S.Qoraev
- B. T.Nafasov
- C. Z.Do'simov
- D. H.Hasanov

**58. Bxarat qaysi davlatning mahalliy nomi?**

- A. Hindiston
- B. Pokiston
- C. Bangladesh
- D. Nepal

**59. Spelonim bu ....**

- A. O'simliklar nomi
- B. Qishloq va shaharlar nomi
- C. G'or, ungurlar nomi
- D. Shaharlarning maxsus nomlari

**60. Toponimik tadqiqotlarda tarixiy usul tarafdori bo'lgan olimni belgilang.**

- A. H.Hasanov
- B. N.Nadejdin
- C. A.Popov
- D. A.Muhammadjonov

**61. Muhammad Narshaxiy asarining nomini belgilang.**

- A. Buxoro tarixi
- B. Samarqand tarixi
- C. Tarixi mulki Ajam
- D. Tarixiy Toshkandiy

**62. Joy nomlari tarkibidagi "chek" so'zi qanday ma'noga ega?**

- A. Xon va uning oila a'zolariga tegishli yerlar
- B. Ruhoniylar va mashhur kishilarga tegishli yerlar
- C. Har qanday kishilarni xususiy yerlari
- D. Barcha javoblar to'g'ri

**63. Substrat toponim bu ...**

- A. Qadimgi xalqlar tomonidan qo'yilgan nom
- B. Maxsus etimologik tadqiqotlarni talab qiladigan nom
- C. Hozirgi tillar yordamida izohlab bo'lmaydigan nom
- D. Barcha javoblar to'g'ri



**64. Rus olimi V.P.Semyonov-Tyan-Shanskiy aholi punktlari nomlarini nechta kategoriyaga bo'lgan?**

- A. 7 ta
- B. 8 ta
- C. 11 ta
- D. 5 ta

**65. "O'zbekiston viloyatlari toponimlari" kitobi muallifini belgilang.**

- A. T.Nafasov
- B. H.Hasanov
- C. Q.Hakimov
- D. S.Qoraev

**66. Toponimikada indikator so'zi qanday ma'noga ega?**

- A. Ko'chma ma'noda ishlatadigan so'z
- B. Yozilishi va talaffuzi an'anaviy bo'lgan nom
- C. G'orlar va ungurlar nomi tarkibidagi so'z
- D. To'g'ri javob yo'q

**67. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Geografik ob'ektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik ob'ektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida" gi qarori qachon qabul qilingan?**

- A. 2012 yili 16 oktyabrda
- B. 2011 yili 16 oktyabrda
- C. 2013 yili 16 oktyabrda
- D. 2010 yili 16 oktyabrda

**68. "Kartadagi so'z" asarining muallifi kim?**

- A. V.Nikonov
- B. E.Murzaev
- C. M.Mirakmalov
- D. A.Superanskaya

**69. Qadimiy turkiy toponimlar tarkibidagi "baliq" so'zi qanday ma'noni anglatgan?**

- A. Shahar
- B. Tog'
- C. Tekislik
- D. To'g'ri javob yo'q

**70. Qaysi olim, "Arab yozuvi tufayli shaharlar va boshqa ob'ektlarning nomlari tanib bo'lmaydigan darajada o'zgarib ketdi" deb yozgan?**

- A. A.Beruniy
- B. P.G'ulomov
- C. A.Forobiy
- D. H.Hasanov

**71. Qanday hollarda geografik nomlar ajratib yoziladi?**

- A. Geografik nom oldida qandaydir sifat kelganda
- B. Ikkinchi tarkibiy qismi o'simlik nomidan iborat bo'lganda
- C. Ikkinchi tarkibiy qismi qandaydir son kelganda
- D. Barcha javoblar to'g'ri

**72. Geografik ob'ekt nomining rasmiy va umumiste'molda bir xil yozilishini qat'iy lashtirish, qonunlashtirish, ... deyiladi.**

- A. Transkripsiya
- B. Standartlashtirish
- C. Transliteratsiya
- D. Transmizatsiya

**73. Rossiyada qaysi olimni ilmiy toponimika asoschisi deb hisoblashadi?**

- A. A.Vostokov
- B. E.Murzaev
- C. H.Hasanov
- D. V.Semyonov-Tyan-Shanskiy

**74. Toponimik terminlar bu...**

- A. Barcha joy nomlari
- B. Joy nomlari hosil qiluvchi terminlar
- C. Joy rel'efiga mos terminlar
- D. Joy nomlari tarkibida qatnashib ob'ekt turini bildiradigan terminlar

**75. Ag'ha, dovon, bel, ko'tal, do'ng qaysi toponimik terminlar turiga mansub?**

- A. Gebmorfologik
- B. Litologik
- C. Hidrologik
- D. Oykonomik

**76. Geografik ob'ektlarni nomlash va qayta nomlash bo'yicha viloyat komissiyasining raisi kim?**

- A. Toponimist olim
- B. Viloyat hokimi

C. Institut rektori

D. Soliq hoshqarmasi boshlig'i

**77. Shahar ma'nosidagi so'zlar guruhini toping.**

A. kent, grad, vil.

B. pol, burg, shtad.

C. pur, taun, kar.

D. Barcha javoblar to'g'ri

**78. Metaforik nomlar qatorini belgilang.**

A. O'lik dengizi, Ajal vodiysi, Borsa-kelmas oroli

B. Mak-Kinli, Ulan-Ude, Ulan-Bator

C. Sahroi Kabir, Gobi cho'li, Qoraqum cho'li

D. Chirchiq, Parkent, G'azalkent

**79. Daryo nomlari bilan atalgan mamlakatlarni belgilang.**

A. Niger, Senegal, Gambia

B. Movarounnahr, Narpay, Payariq

C. Kolumbiya, Braziliya, Argentina

D. Indoneziya, Myanma, Vetnam

**80. Kaspiy dengizi qadimda qanday atalgan?**

A. Xazar dengizi

B. Xorazm dengizi

C. Xuroson dengizi

D. Barchasi to'g'ri

**81. Amudaryo irmoqlari nomlarini belgilang.**

A. Chirchiq, Norin

B. Sirdaryo, So'x

C. Qoradaryo, Chu

D. Vaxsh, Panj

**82. Arxipelag bu ...**

A. To'da orollar

B. Bir-biridan uncha uzoq bo'lmagan orollar

C. Bir butun deb hisoblangan orollar

D. Barchasi to'g'ri

**83. O'zbekistondagi eng katta cho'l nomi.**

A. Qarshi cho'li

B. Qizilqum

C. Mirzacho'l

D. Qoraqum

**84. "Nomini eshitgandan ko'ra, yuzini ko'rmoq afzal" degan naql qaysi xalqqa tegishli?**

- A. Hind xalqiga
- B. Xitoy xalqiga
- C. Rus xalqiga
- D. O'zbek xalqiga

**85. Geografiya toponimikani debochasi va doyasi degan xulosa muallifini belgilang.**

- A. T.Nafasov
- V. S.Qoraev
- C. M.Mirakmalov
- D. T.Enazarov

**86. Toponimlarni ilk bor topoformentlar yordamida o'rgangan olim kim?**

- A. V.Juchkevich
- B. A.Dal
- C. A.Superanskaya
- D. A.Vostokov

**87. Joy nomlari tarkihidagi to'quvchilik kasbiga aloqador nomni belgilang.**

- A. Parchabof
- B. Yo'rmado'z
- C. Charmgar
- D. To'g'ri javob yo'q

**88. Toponimik tadqiqotlarda statistik usul qanday afzalliklarga ega?**

- A. Nom haqidagi tasavvurni konkretlashtiradi
- B. Aniq xulosa chiqarishga ko'maklashadi
- C. Nomlarni foiz nisbatlarini chiqarishga yordam beradi
- D. Barchasi to'g'ri

**89. Nomlarda ayrim elementlarni takrorlanishi nimadan darak beradi?**

- A. Bir tipga xosligidan
- B. Bir xil omillar asos bo'lganligidan
- C. Etnik daxldorligidan
- D. To'g'ri javob yo'q

C. Institut rektori

D. Soliq boshqarmasi boshlig'i

**77. Shahar ma'nosidagi so'zlar guruhini toping.**

A. kent, grad, vil.

B. pol, burg, shtad.

C. pur, taun, kar.

D. Barcha javoblar to'g'ri

**78. Metaforik nomlar qatorini belgilang.**

A. O'lik dengizi, Ajal vodiysi, Borsa-kelmas oroli

B. Mak-Kinli, Ulan-Ude, Ulan-Bator

C. Sahroi Kabir, Gobi cho'li, Qoraqum cho'li

D. Chirchiq, Parkent, G'azalkent

**79. Daryo nomlari bilan atalgan mamlakatlarni belgilang.**

A. Niger, Senegal, Gambia

B. Movarounnahr, Narpay, Payariq

C. Kolumbiya, Braziliya, Argentina

D. Indoneziya, Myanma, Vetnam

**80. Kaspiy dengizi qadimda qanday atalgan?**

A. Xazar dengizi

B. Xorazm dengizi

C. Xuroson dengizi

D. Barchasi to'g'ri

**81. Amudaryo irmoqlari nomlarini belgilang.**

A. Chirchiq, Norin

B. Sirdaryo, So'x

C. Qoradaryo, Chu

D. Vaxsh, Panj

**82. Arxipelag bu ...**

A. To'da orollar

B. Bir-biridan uncha uzoq bo'lmagan orollar

C. Bir butun deb hisoblangan orollar

D. Barchasi to'g'ri

**83. O'zbekistondagi eng katta cho'l nomi.**

A. Qarshi cho'li

B. Qizilqum

C. Mirzacho'l

D. Qoraqum

84. "Nomini eshitgandan ko'ra, yuzini ko'rmoq afzal" degan naql qaysi xalqqa tegishli?

- A. Hind xalqiga
- B. Xitoy xalqiga
- C. Rus xalqiga
- D. O'zbek xalqiga

85. Geografiya toponimikani debochasi va doyasi degan xulosa muallifini belgilang.

- A. T.Nafasov
- B. V. S.Qoraev
- C. M.Mirakmalov
- D. T.Enazarov

86. Toponimlarni ilk bor topoformlar yordamida o'rgangan olim kim?

- A. V.Juchkevich
- B. A.Dal
- C. A.Superanskaya
- D. A.Vostokov

87. Joy nomlari tarkibidagi to'quvchilik kasbiga aloqador nomni belgilang.

- A. Parchabof
- B. Yo'rmado'z
- C. Charmgar
- D. To'g'ri javob yo'q

88. Toponimik tadqiqotlarda statistik usul qanday afzalliklarga ega?

- A. Nom haqidagi tasavvurni konkretlashtiradi
- B. Aniq xulosa chiqarishga ko'maklashadi
- C. Nomlarni foiz nisbatlarini chiqarishga yordam beradi
- D. Barchasi to'g'ri

89. Nomlarda ayrim elementlarni takrorlanishi nimadan darak beradi?

- A. Bir tipga xosligidan
- B. Bir xil omillar asos bo'lganligidan
- C. Etnik daxldorligidan
- D. To'g'ri javob yo'q

**90. Toponimlarni paydo bo'lishi, turg'unlashishi yoki qayta nomlanishi qanday o'zgarishlar bilan bog'liq?**

- A. Siyosiy
- B. Iqtisodiy
- C. Ijtimoiy
- D. Barcha javoblar to'g'ri

**91. Toponimlarni yonma-yon kelishi, ularni bir-biriga nisbatan nom olishi qaysi qonuniyat mahsulidir?**

- A. Xalqona etimologiya
- B. Qatorlar qonuni
- C. O'zlashma nomlar qonuniyati
- D. Nisbiy negativlik qonuniyati

**92. «Aholi punktlarining mahalliy nomlarida geografik manzara aks etadi» nomli asar muallifini aniqlang.**

- A. H.Hasanov
- B. E.Murzaev
- C. V.Semenov-Tyan-Shanskiy
- D. V.Bartold

**93. "Joy nomlari tabiat va jamiyat ko'zgusidir" – degan iborani muallifi kim?**

- A. Ye.Pospelov
- B. S.Qoraev
- C. H.Hasanov
- D. T.Nafasov

**94. Afrika qit'asining nomi qanday ma'noga ega?**

- A. Afrigi ("g'orda yashaydigan odamlar") qabilasi nomi bilan bog'liq
- B. Afri (grekcha)– so'zi sovuq emas ma'nosini anglatadi
- C. Afrika nomli sayyoh kashf etgan
- D. Janubiy Afrika Respublikasi nomidan olingan

**95. Antarktidani qaysi davlatning sayyohlari kashf etgan?**

- A. Fransiya
- B. Italiya
- C. Germaniya
- D. Rossiya

**96. Avstraliya so'zi qanday ma'noga ega?**

- A. Noma'lum yer
- B. Janubiy yer
- C. Janubiy mamlakat
- D. Janubiy orol

**97. Amerikani “Yangi dunyo” deb atashni kim taklif qilgan?**

- A. A.Vespuchchi
- B. M.Valdzemyuller
- C. S.Kabot
- D. X.Kolumb

**98. Jizzax so‘zining lug‘aviy ma’nosini belgilang.**

- A. So‘g‘d tilida “kichik qal’a”
- B. Turkiy tilda “zax joy”
- C. Arab tilida “issiq joy”
- D. Lug‘aviy ma’nosi aniq emas

**99. Jarboshi – geografik nom sifatida qaysi toponimik qonuniyat mahsuli?**

- A. Nisbiy negativlik
- B. Soxta etimologiya
- C. Toponimik pozitivlik
- D. O‘zlashma nomlar

**100. Toponimik tadqiqotlarda kartografik metodni keng qo‘llagan olim kim?**

- A. Ye.Pospelov
- B. N.Nadejdin
- C. A.Popov
- D. V.Nikonov



## MUNDARIJA

|   |     |
|---|-----|
| KIRISH.....   | 3   |
| <b>I bob. TOPONIMIKANING UMUMIY QONUNIYATLARI</b>                             |     |
| <b>1–mavzu</b>  |     |
| 1.1. Toponimikaning vazifasi va fanlar tizimidagi o'rni.....                  | 5   |
| 1.2. Toponimikaning asosiy rivojlanish bosqichlari.....                       | 12  |
| <b>2– mavzu</b>   |     |
| 2.1. Toponimika fanining tadqiqot usullari.....                               | 24  |
| 2.2. Geografik ob'ektlarni nomlash qonuniyatlari.....                         | 33  |
| <b>3– mavzu</b>   |     |
| 3.1. Toponimlarning paydo bo'lish sabablari.....                              | 42  |
| 3.2. Toponimika va xalq geografik terminlari.....                             | 51  |
| <b>4– mavzu</b>   |     |
| 4.1. Toponimik formantlar, tiplar va modellar.....                            | 63  |
| 4.2. Birlamchi va ikkilamchi toponimlar. Ko'chma va metaforik toponimlar..... | 69  |
| <b>5– mavzu</b>   |     |
| 5.1. Geografik nomlar transformatsiyasi.....                                  | 78  |
| 5.2. An'anaviy nomlar.....  | 83  |
| <b>6– mavzu</b>   |     |
| 6.1. Geografik ob'ekt o'rmini belgilovchi toponimlar.....                     | 88  |
| 6.2. Epotoponimlar. Transonimizatsiya. Norasmiy nomlar.....                   | 94  |
| <b>II bob. GEOGRAFIK NOMLARNING KLASSIFIKATSIYASI</b>                         |     |
| <b>7– mavzu</b>   |     |
| 7.1. Toponimlar klassifikatsiyasi turlari.....                                | 102 |
| 7.2. Geografik nomlarning stratigrafik (tarixiy) qatlamlari.....              | 108 |
| <b>8– mavzu</b>   |     |
| 8.1. Tabiiy – geografik omillar asosida shakllangan toponimlar.....           | 119 |
| <b>9– mavzu</b>   |     |
| 9.1. Antropotoponimlar.....   | 138 |
| 9.2. Etnotoponimlar.....  | 145 |
| <b>10– mavzu</b>  |     |
| 10.1. Moddiy ishlab chiqarish bilan bog'liq toponimlar.....                   | 152 |
| 10.2. Savdo-transport va diniy e'tiqodlar bilan bog'liq toponimlar.....       | 160 |

### **III bob. AMALIY TOPONIMIKA**

#### **11–mavzu**

11.1. Geografik kartalarda toponimlarning asosiy konversiya tamoyillari.....170

11.2. Toponimika va jahon tillar.....180

#### **12– mavzu**

12.1. Geografik nomlarning yozish qoidalari va grammatik xususiyatlari.....185

12.2. Toponimlarning yozilishini standartlashtirish muammola.....196

#### **13– mavzu**

13.1. Geografik nomlarni muhofaza qilish zaruriyati.....202

13.2. Toponimikani jamiyatdagi amaliy ahamiyati.....208

### **IV bob. MINTAQAVIY TOPONIMIKA**

#### **14– mavzu**

14.1. Qit'alar, dunyo okeanlari va ularning qismlarini nomlari.....214

#### **15– mavzu**

15.1. Osiyo toponimiyasi.....227

#### **16– mavzu**

16.1. Yevropa toponimiyasi.....248

#### **17– mavzu**

17.1. Afrika toponimiyasi.....271

#### **18– mavzu**

18.1. Shimoliy Amerika toponimiyasi.....285

18.2. Janubiy Amerika toponimiyasi.....299

#### **19– mavzu**

19.1. Avstraliya, Okeaniya, Antarktida toponimiyasi.....308

XULOSA.....322

GLOSSA.....325

ADABIYOTLAR.....328

ILOVA.....335

TEST TOPSHIRIQLARI.....347

## ОГЛАВЛЕНИЕ

|  |     |
|--|-----|
| <b>ПРЕДИСЛОВИЕ</b> .....   | 3   |
| <b>РАЗДЕЛ I. ОБЩИЕ ЗАКОНОМЕРНОСТИ ТОПОНИМИКИ</b>                                     |     |
| <b>Тема № 1</b>  |     |
| 1.1. Предмет и место топонимики в системе наук.....                                  | 5   |
| 1.2. Основные этапы развития топонимики.....   | 12  |
| <b>Тема № 2</b>  |     |
| 2.1. Методы топонимических исследований.....   | 24  |
| 2.2. Закономерности номинации географических объектов.....                           | 33  |
| <b>Тема № 3</b>  |     |
| 3.1. Причины возникновения топонимов.....  | 42  |
| 3.2. Топонимика и народные географические термины.....                               | 51  |
| <b>Тема № 4</b>  |     |
| 4.1. Топонимические форманты, типы и модели.....                                     | 63  |
| 4.2. Первичные и вторичные топонимы. Топонимы-мигранты.<br>Метафора в топонимии..... | 69  |
| <b>Тема № 5</b>  |     |
| 5.1. Трансформация географических названий.....                                      | 78  |
| 5.2. Традиционные названий.....  | 83  |
| <b>Тема № 6</b>  |     |
| 6.1. Пространственная топонимика.....  | 88  |
| 6.2. Эпотопонимы. Трансонимизация. Перифраза в топонимии.....                        | 94  |
| <br>   |     |
| <b>РАЗДЕЛ II. КЛАССИФИКАЦИЯ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ<br/>НАЗВАНИЙ</b>                          |     |
| <b>Тема № 7</b>  |     |
| 7.1. Виды классификаций топонимов.....   | 102 |
| 7.2. Стратиграфические пласты географических названий.....                           | 108 |
| <b>Тема № 8</b>  |     |
| 8.1. Топонимы отражающие природно-географические условия...                          | 119 |
| <b>Тема № 9</b>  |     |
| 9.1. Антропотопонимы.....  | 138 |
| 9.2. Этнотопонимы.....   | 145 |
| <b>Тема № 10</b>   |     |
| 10.1. Производственные топонимы.....   | 152 |
| 10.2. Торгово-транспортные и религиозно-культурные топонимы...                       | 160 |

## **РАЗДЕЛ III. ПРАКТИЧЕСКАЯ ТОПОНИМИКА**

### **Тема № 11**

11.1. Основные принципы конверсии топонимов на географических картах.....170

11.2. Топонимика и языки мира.....180

### **Тема № 12**

12.1. Грамматические особенности и правописание географических названий.....185

12.2. Проблемы стандартизации топонимии.....196

### **Тема № 13**

13.1. Охрана географических названий.....202

13.2. Практическое значения топонимики в обществе.....208

## **РАЗДЕЛ IV. РЕГИОНАЛЬНАЯ ТОПОНИМИКА**

### **Тема № 14**

14.1. Номинация континентов, мирового океана и его частей.....214

### **Тема № 15**

15.1. Топонимия Азии.....227

### **Тема № 16**

16.1. Топонимия Европы.....248

### **Тема № 17**

17.1. Топонимия Африки.....271

### **Тема № 18**

18.1. Топонимия Северной Америки.....285

18.2. Топонимия Южной Америки.....299

### **Тема № 19**

19.1. Топонимия Австралии, Океании, Антарктиды.....308

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**.....322

**ГЛОССАРИЙ**.....325

**ЛИТЕРАТУРА**.....328

**ПРИЛОЖЕНИЕ**.....335

**ТЕСТЫ**.....347

# CONTENTS

|   |     |
|---|-----|
| INTRODUCTION.....   | 3   |
| <b>SECTION I. GENERAL CONSISTENT PATTERNS OF<br/>TOPONYMY</b>                                 |     |
| <b>Chapter 1</b>  |     |
| 1.1. The subject matter of toponymy and its role among other sciences<br>structure.....       | 5   |
| 1.2. The main stages of development of the toponymy.....                                      | 12  |
| <b>Chapter 2</b>  |     |
| 2.1. The methods of toponymical researches.....   | 24  |
| 2.2. The consistent patterns of naming geographical objects.....                              | 33  |
| <b>Chapter 3</b>  |     |
| 3.1. The reasons of origin of toponymy.....   | 42  |
| 3.2. Toponymy and folk geographical terms.....  | 51  |
| <b>Chapter 4</b>  |     |
| 4.1. Toponimical formats, types and models.....   | 63  |
| 4.2. The primary and secondary toponyms. Migrant- toponyms.<br>The metaphorical toponyms..... | 69  |
| <b>Chapter 5</b>  |     |
| 5.1. Transformation of geographical names.....  | 78  |
| 5.2. Traditional naming.....  | 83  |
| <b>Chapter 6</b>  |     |
| 6.1. The dimensional toponymy.....  | 88  |
| 6.2. Epochtoponyms. Transonimisation. The periphery in toponymy.....                          | 94  |
| <b>SECTION II. THE CLASSIFICATION OF GEOGRAPHICAL<br/>NAMES</b>                               |     |
| <b>Chapter 7</b>  |     |
| 7.1. The types of classification of toponyms.....   | 102 |
| 7.2. Stratigraphical layers of geographical names.....  | 108 |
| <b>Chapter 8</b>  |     |
| 8.1. Toponyms reflecting in natural – geographical conditions.....                            | 119 |
| <b>Chapter 9</b>  |     |
| 9.1. Antroponyms.....   | 138 |
| 9.2. Etnotoponyms.....  | 145 |

|  |            |
|--|------------|
| <b>Chapter 10</b>  |            |
| 10.1. The derivative toponyms.....                                     | 152        |
| 10.2. Trade– transportal and religion– cultural toponyms.....          | 160        |
| <b>SECTION III. PRACTICAL TOPONYMY</b>                                 |            |
| <b>Chapter 11</b>  |            |
| 11.1. Main laws of conversion of toponyms into geographical maps...170 |            |
| 11.2. Toponyms and the world languages.....                            | 180        |
| <b>Chapter 12</b>  |            |
| 12.1. The grammatical features and spelling of geographical names....  | 185        |
| 12.2. The problems in spelling standartization of topoymys.....        | 196        |
| <b>Chapter 13</b>  |            |
| 13.1. The protection of geographical names.....                        | 202        |
| 13.2. The practical meanings of toponymy in society.....               | 208        |
| <b>SECTION IV. REGIONAL TOPONYMY</b>                                   |            |
| <b>Chapter 14</b>  |            |
| 14.1. The nomination of continents, oceans and their parts.....        | 214        |
| <b>Chapter 15</b>  |            |
| 15.1. The Toponymy of Asia.....  | 227        |
| <b>Chapter 16</b>  |            |
| 16.1. The Toponymy of Europe.....                                      | 248        |
| <b>Chapter 17</b>  |            |
| 17.1. The Toponymy of Africa.....                                      | 271        |
| <b>Chapter 18</b>  |            |
| 18.1. The Toponymy of the North America.....                           | 285        |
| 18.2. The Toponymy of the South America.....                           | 299        |
| <b>Chapter 19</b>  |            |
| 19.1. The Toponymy of Australia, Oceania, Antarcitida.....             | 308        |
| <b>CONCLUSION.....</b>   | <b>322</b> |
| <b>GLOSSARY.....</b>   | <b>325</b> |
| <b>BIBLIOGRAPHY.....</b>   | <b>328</b> |
| <b>APPLICATION.....</b>  | <b>335</b> |
| <b>TESTS.....</b>  | <b>347</b> |

## АННОТАЦИЯ

В учебнике даны современные представления по основным направлениям топонимики. Показано место топонимики в системе наук, история развития научной мысли в названной области, принципы и методы науки. Рассматриваются существующие схемы классификации топонимов, анализируется разнообразие топонимических фактов и явлений, их роль в современном мире. Наряду с ключевыми теоретико-методологическими составляющими курса, дается общий региональный топонимический обзор.

Учебник предназначено для студентов высших учебных заведений обучающиеся по специальностям 5110500 – «Методика обучения географии».

## ANNOTATION

The textbook represents modern notions of main trends in toponymy. The role of toponymy among other structure is shown that, the history of researches related to the field, the methods of research and special features of the subject were analyzed modern system of geographical place names were analyzed, the role of different toponymic events and processes were looked through. Moreover, the textbook includes information about general continental toponymy and the theory of toponymy and its methodological features were discussed as well.

The textbook is intended for undergraduate students of «The methodology of teaching Geography» – 5110500.

*Ilmiy nashr*

**Nashriyot muharriri: Mahkam Mahmudov**  
**Musahhiha: Hilola Boltaboyeva**  
**Texnik muharrir: Behzod Boltaboyev**

**«MUMTOZ SOʻZ»**  
**masʼuliyati cheklangan jamiyati**  
**nashriyoti**

**Manzil: Toshkent, Navoiy koʻchasi, 69.**  
**Tele.: 241-60-33**

**Nashriyot litsenziyasi AI № 103. 15.07.2008**  
**Bosishga ruxsat etildi 02.02.2016**  
**Qogʻoz bichimi 60x84 1/32. Ofset qogʻozi**  
**Times New Roman garniturasini. Hisob-nashriyot tobogʻi 23,0**  
**Shartli bosma tobogʻi 23,0. Adadi 200**  
**Bahosi kelishilgan narxda**